O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETINING 70 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN «HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: MUAMMOLAR, TAHLIL VA NATIJALAR» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil, 10-sentyabr

Termiz-2024

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETINING 70 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN «HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: MUAMMOLAR, TAHLIL VA NATIJALAR» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA

TASHKILIY QO‘MITA

Toshqulov A.H.	Termiz davlat universiteti rektori, tashkiliy qo‘mita raisi
Shaydullayev A.Sh.	Termiz davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais o‘rinbosari
Axmedov H.Y.	Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti dekani
Amonturdiyev N.R.	Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri
Maxmaraimova Sh.T.	Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori
Umurkulov B.	Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori
Turdiqulov Sh.D.	Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi

TAHRIR HAY’ATI

Maxmaraimova Sh.T.	filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
Turdiqulov Sh.D.	filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib)
Xolova M.A.	filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Kurbanazarova N.Sh.	filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ergasheva D.A.	filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Bozorov H.X.	filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ushbu to‘plam Termiz davlat universiteti tomonidan 2021-yil 4-noyabr kuni o‘tkazilgan «Nazariy, amaliy tilshunoslik va til o‘qitish metodikasi» mavzusidagi respublika onlayn ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari hamda magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

Maqolalarning ilmiy saviyasi, keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mazkur to‘plam Termiz davlat universiteti Kengashining 30-avgustdagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan.

Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligi: muammolar, tahlil va natijalar / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Termiz: Termiz davlat universiteti NMM, 2024.

© Termiz davlat universitetining 70 yilligiga bag‘ishlangan «Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligi: muammolar, tahlil va natijalar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Termiz davlat universiteti, 2024.

Abduqodir TOSHQULOV,
Termiz davlat universiteti rektori

Anjumanimizning muhtaram ishtirokchilari, aziz hamyurtlarimiz!

“Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligi: muammolar, tahlil va natijalar” mavzusida o‘tkazilayotgan bugungi konferensiya ikki jihatdan xayrlidir: zero, uning Termiz davlat universitetining 70 yilligini nishonlash hamda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligiga 35 yil to‘lishi arafasida o‘tkazilayotganligi bizga alohida shukuh va sharaf bag‘ishlaydi.

O‘tgan davr oralig‘ida til va ruh, madaniyat mushtarikligi masalasining dolzarblashuvi til madaniyatini yuksaltirishga, o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashiga, tafakkurni yangilashga bo‘lgan ehtiyoji natijasidir. Zero, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi uni yangi-yangi bosqichlarda har tomonlama o‘rganishga va o‘rgatishga keng yo‘l ochib berdi. «...Ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa»[1] ekanligi esa har bir fan sohasida, jumladan tilshunoslikda ham chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Shukurki, bugungi o‘zbek tilshunosligi va uning zabardast vakillari bir davrlardagi kabi mafkuraviy iskanjada emas, tom ma'nodagi huquqiy demokratik tamoyillarning o‘z manfaati ifodachisi ekanini anglagan holda ilmiy ijod, izlanishlar bilan mashg‘uldir, navqiron yoshli vatandoshlarimiz jahon ilm-fani yangiliklaridan bahramand etish nashidasidan masrurdirlar.

Tabiiyki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida», 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar o‘z-o‘zidan ado

[1] Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – 56 б.

etilmasdan, sohaning malakali va fidoyi insonlarining zahmatli mehnatini talab qiladi.

Zotan, bugunning shukuhli lahzalari uchun avvalo Yaratganga shukrona keltirarkanmiz, Yurtboshimiz tomonidan rag‘batlantirilayotgan, umid bildirilayotgan millatimiz yigit-qizlarining buguni, kelajagi o‘yida fidokorona mehnat qilayotgan olimlar, ta'lim beruvchilar, tarbiyachilar, ustoz va murabbiylar ahliga ta'zim qilgingiz keladi. Binobarin, dunyoni zabt etayotgan shiddatli axborot oqimini yoshlar ongiga to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni oqillik bilan saralab, bunyodkor g‘oyalarga xizmat qildirish, kamiga shu ma'lumotlar manbasidan jamiyatdagi nutq madaniyati, lisoniy tafakkurni shakllantirishga doir yondashuvlarga bo‘ysundirish – ma'naviy yuksalish sari yo‘ldir. Bugungi konferensiya va unda muhokama etilajak masalalarning ana shu ezgu va xayrli maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda baholi qudrat xizmat qilishiga ishonamiz.

Termiz davlat universitetining shonli 70 yillik yubileyini nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlar doirasida o‘tkazilayotgan Respublika ilmiy konferensiyaga mezbonlik qilayotgan universitetimiz jamoasi nomidan hurmatli mehmonlarimizga

XUSH KELIBSIZ deyman!

I SHO‘BA. ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT MUSHTARAKLIGI

ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИК ТУШУНЧАСИ ТАЛҚИНИ ВА ТАДҚИҚИ

Абдуғофур МАМАТОВ,
филология фанлари доктори, профессор

Мазкур мақолада фразеологик бирлик тушунчасининг тил илмидаги моҳияти, уларнинг фраземалар мазмун жиҳатдан бир маънони ифодалайдиган, тузилишига кўра сўз бирикмасига ёки гапга тенг, семантик бир бутун, умумлашган маъно англатадиган, нутққа тайёр ҳолда киритиладиган луғавий бирлик эканлиги баён этилган.

Таянч сўзлар: *ибора, фразема, идиома, парема, фразеологик оборот коммуникатив восита, семантик, грамматик, функционал-стилистик, семантик-прагматик, антропопрагматик, коммуникатив, лингвокогнитив, турғун бирикма.*

Фразеологик бирлик тушунчаси тил илмида *фразеологизм, фразема, фразеологик оборот, ибора, идиома, фразеограмма, турғун бирикма* каби терминлар остида ўрганилиб келинмоқда. Фразеологияга оид илмий ва амалий адабиётларда фразеологик бирликлар тузилишига кўра сўз бирикмасига ёки гапга тенг, семантик жиҳатдан бир бутун, умумлашган маъно англатадиган, нутққа тайёр ҳолда киритиладиган луғавий бирлик сифатида эътироф этилади.

Фразеологик бирликларнинг концептуал моҳияти тил қонуниятларига асосан, лингвистик ва нолингвистик омиллар асосида шаклланган, лексик, семантик, грамматик ва функционал моҳиятга эга бўлган тил бирлигидир. Илмий, ўқув адабиётларида фразеологик бирликларни ёки фразеологизмларни ибора, фразема, идиома, парема, фразеологик оборот каби турли хил муқобилларда талқин ва таҳлил этилади. Фразеологияга оид илмий ишлар ва мақолаларда уларни паралелл ўрганишга одатланилган. Ҳамма вақт ҳам бу терминлар ўзаро ёрқин фарқланмайди, ёки уларни фарқлашга эътибор қаратилмайди. Бизнингча, *фразеологик бирлик* термини фразеология таркибига кирувчи барча ҳодисаларни номловчи атама сифатида кенг оммалашган. Шу ўринда уларнинг айрим фарқли хусусиятларини изоҳлашга уриндик.

Фразеология аслида юнонча – phrasis – ибора + logos – «билим, тушунча» маъносини англатиб, тилшуносликнинг муайян тилигагина хос бўлган фразелогизмларини ўрганадиган соҳаси ҳисобланади. Шунингдек,

бирор тилдаги барча фразеологизмлар мажмуини ҳам *фразеология* термини остида идрок этилади. Демак, фразеология барча фразеологик бирликларни илмий ўрганадиган фан ва фаннинг номи ҳисобланади. Фразеологизм, фразеологик бирлик, фраземалар мазмун ва моҳият жиҳатдан айнан бир маънони ифодалайдиган, илмда муқобил қўлланиладиган тузилишига кўра сўз бирикмасига ёки гапга тенг, семантик жиҳатдан бир бутун, умумлашган маъно англатадиган, нутққа тайёр ҳолда киритиладиган луғавий бирлик каби эътироф этилади.

Фразеологик бирликларнинг луғавий ўзига хослиги ва фарқли хусусиятлари қуйидагиларда намоён бўлади:

Фразеологик бирликлар коммуникатив воситадир, у тил воситаси сифатида ижтимоий ҳодиса бўлиб, тил ва тафаккур, тил ва маданият, тил ва миллий менталлик муносабатларида мавжуд бўлади, шунингдек, нутқда уларнинг моҳиятини юзага чиқарувчи коммуникатив вазифани бажаради. Фразеологик бирликлар нарса-ҳодиса ёки воқеликни аташ (номинатив) баробарида, уларнинг моҳиятида шахснинг моддий, ақлий, руҳий томонини, халқнинг ҳаётий тажрибасини акс эттирадиган мазмун туради.

Фразеологик бирликлар мазмун ва шакл муносабатидаги лисоний бирлик ҳисобланиб, тилнинг луғавий бойлигини ташкил этади. Улар грамматик жиҳатдан шаклланган, номинатив, денотатив, сигнификатив, коннотатив маънолар асосида намоён бўладиган тил ҳодисасидир. Уларнинг маъно кўлами ва стилистик сифатлари нутқда эмоционаллик, экспрессивлик, образлилик, услубийлик учун хизмат қилади.

Фразеологик бирликлар лексик, семантик, грамматик, функционал-стилистик, семантик-прагматик, антропопрагматик, коммуникатив, лингвокогнитив ёндашувлар асосида унинг коммуникатив вазифаси илмий ўрганилади.

Лексика нарса-ҳодиса, факт, воқеа, жараёнлар номини (номинатив) ифода этса, фразеологик бирликлар нарса-ҳодисалар, воқеликларни аташ билан бирга, шахснинг ҳис-ҳаяжон, туйғу, психик ҳолати, фазилатларини ифода этади.

Фразеологик бирликлар шахснинг у ёки бу психик ҳолати, ҳис-ҳаяжони, ички кечинмалари, воқеа-ҳодисаларга муносабатини образли, эмоционал-экспрессив ифодалаш зарурияти асосида шаклланган тил ҳодисасидир.

Ибора. *Ибора* арабча сўз бўлиб «сўз», «сўз бирикмаси» каби луғавий маънога эга. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида «бирор тушунча ёки фикр ифодаловчи, одатда сўзларнинг турғун бирикмаси (сўз бирикмаси ёки гапга тенг жумла), таъбир каби таъриф берилади. Шунингдек, «турғун ибора, бевосита нутқ жараёнида ҳосил бўлмайдиган,

тилда бир бутун ҳолда мавжуд бўлиб, шундайлигича нутққа киритиладиган сўз бирикмаси ёки гапга тенг жумла. Фразеологик ибора турғун ибораларнинг кўчма маъноли, образли тури ҳамда ибора сўздир» каби баёнлар келтирилган. Ўзбек тилшунослигида *фразеологизм* ва *ибора* терминлари ўзаро фарқланмаган. Масалан, «Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати»да биринчидан, ибора айнан фразеологик бирлик деб изоҳланса, иккинчидан, ўзига хос услубий, диалектал ва б. хусусиятга эга бўлган сўз, сўз бирикмаси ва ш.к. нинг умумий номи: *Болаларга хос ибора. Образли ибора* каби таърифлар келтирилади.

Ш. Раҳматуллаев фразеологик бирликлар ва ибораларни айнан бир хил тарзда қўллайди.Ўзбек тилшунослигида ибора *фразеологизм* термини билан параллел қўлланилади ва ибора тилнинг алоҳида бирлиги бўлиб, тузилишига кўра эркин боғланма ёки гапга тенг тўлиқ ёки қисман семантик қайта шаклланган, образли, турғун сўз бирикмаларини ўз ичига олади. Фразеология таркибида ўрганилаётган мақол, матал, афоризм каби турли характердаги ҳикматли ибораларни паремиология ўрганади, фразеология эса унинг бир қисми сифатида - фақат кўчма маъноли турғун бирикмаларни ўрганади.

Ўзбек тилшунослигида фразеологиянинг ўрганиш объектини кенг ва тор маънода тушунувчилар фразеологик ибораларни мақол ва маталлардан ажратиб, уларнинг ўзига хос хусусиятларини, ўзаро фарқли жиҳатларини илмий изоҳламоқдалар. Шу маънода фразеологик ибора фарқланади. Иборалар тизимига кузатиш ва тажрибалар асосидаги хулосаларга таянган, халқнинг руҳий ҳолати ва эстетик туйғулари, фазилатларини мужассамлаштирувчи, ихчам ва содда, қисқа ва мазмундор мантиқий умумлашма сифатида пайдо бўлган мақол, матал, афоризм каби ҳикматли иборалар киради. Фразеологик бирликлар фразеология баҳсида ўрганилади. Ҳикматли иборалар паремиология баҳсида ўрганилади.

Фразеологик маъно. Маъноси таркибидаги лексемаларга хос маъноларнинг оддий йиғиндисига тенг бўлмайдиган, таркибидаги лексемаларнинг маъносига нисбатан устама маъно сифатида гавдаланадиган, биттадан ортиқ сўз яхлитлигича маълум бир образ асосида, кўчириш йўли билан юзага келган устама, кўчма маъно фразеологик маънодир. Тил илмида фразеологик бирликлар айнан маъносига кўра эркин сўз бирикмасидан фарқланиши эътироф этилади ва фразеологизмларни семантик ҳодисадир деб талқин қилинади. Шу маънода фразеологик маъно тўғрисида атрофлича билимга эга бўлиш фразеологимзларнинг моҳиятини тўғри англаш имкониятини яратади.

Фразеологик бирликлар тузилишига кўра сўз бирикмасига ёки гапга тенг, семантик яхлит, умумлашган маъно англатадиган, образли ва

кўчма маъноли, нутқ жараёнида яратилмай, сўз каби тилда тайёр ҳолда бўлган *тўнини тескари киймоқ, қўлини ювиб, қўлтиғига урмоқ, калаванинг учини йўқотмоқ, калаванинг учини топмоқ, қўй оғзидан чўп олмаган, оғзи қулоғида, юрагига қил сиғмайди, дўпписи яримта, сиркаси сув кўтармайди, бино қўймоқ, ўтакаси ёрилмоқ, оғиз очмаслик* кабилар. Сўз ҳам, фразеологик бирлик ҳам луғавий бирлик ҳисобланиб, тилнинг луғат бойлигини ташкил этади. *Фразеологик бирликлар эркин сўз бирикмаларидан айнан маъноларига кўра фарқланади, шунинг учун ҳам улар семантик ҳодиса сифатида эътироф этилади*.

Бўйнига қўймоқ, ерга урмоқ, оғиз очмаслик, тўнини тескари киймоқ, қўлини ювиб, қўлтиғига урмоқ каби фразеологик бирликлар таркибидаги ҳар бир сўз ўзларининг лексик маъноларидан бирини ифода этади. Сўз бирикмаларнинг маъноси таркибидаги сўзларнинг лексик маънолари асосида изоҳланиб, ҳар бири эркин бирикма тарзда идрок этилади. *Косани ерга уриб чилпарчин қилди* гапида эркин бирикма тарзида ишлатилиб, таркибидаги *ер* ва *урмоқ* сўзларининг ўзаро уйғун маъновий ҳамда синтактик бирикувидан «косани ерга уриш билан боғлиқ ҳаракат»ни ифодаловчи таркибидаги сўзларнинг лексик маъносидан келиб чиқадиган маънони билдиради. *Кетмонни ерга урмоқ, коптокни ерга урмоқ* каби бирикмалар таркибидаги ҳар бир сўз мустақил лексик бирлик сифатида иштирок этади.

Кечаги йиғилишда уни роса ерга уришди гапида эса эркин сўз бирикмага хос маънонинг трансформацияси асосида таркибидаги сўз-компонентларга хос бўлмаган «ортиқ даражада камситмоқ» каби фразеологик маъноси шаклланади. *Тўнини тескари киймоқ; қўлини ювиб, қўлтиғига урмоқ* фразеологик бирликлари эркин сўз бирикмасининг семантик трансформацияси асосида уларнинг фразеологик маъноси юзага келади. *Калаванинг учини йўқотмоқ, калаванинг учини топмоқ* эркин сўз бирикмалари ҳам эркин боғланманинг семантик трансформацияси асосида (фразеологизация) фразеологизмлаштирилади. Бу каби фразеологик бирликларнинг асоси эркин сўз бирикмалари бўлиб, улар эркин сўз бирикмаси маъносида ҳам, фразеологик бирлик маъносида ҳам идрок этилади.

Бошини олиб чиқиб кетмоқ, оёғини қўлига олиб, ўпкасини қўлтиқламоқ каби бирикмаларнинг асоси эркин боғланмалар эмас, улар эркин боғланма тарзда идрок этилмайди, инсон фаолиятида *бошини олиб чиқиб кетиш, оёғини қўлига олиш, ўпкасини қўлтиқлаш* каби ҳаракатларни амалга ошириш амалда мумкин эмас. Бу ўринда сўз бирикмасини унга хос бўлмаган тарзда ишлатиш, семантик трансформация қилиш асосида фразеологик бирликка хос маъно шаклланади. Яъни маъноси таркибидаги лексемаларга хос маънолар

асосида изоҳланмайдиган *аммамнинг бузоғи, оёғини қўлига олиб, ўпкасини қўлтиқламоқ, бошини олиб чиқиб кетмоқ* каби бирикмаларда намоён бўлади. Бу каби фразеологик бирликларга хос маъно таркибидаги лексемаларнинг маъносига зид маъно ифодалайди. *Оғзига оқ ит кириб, қора ит чиқади*; *ўпкасини қўлтиқламоқ* фразеологик бирликларидаги маъно ушбу боғланмалар таркибидаги лексемаларга хос маънолар асосида изоҳланмайди, фразеологик бирликка хос бўлган маънолар семантик трансформация туфайли шаклланади. Уларнинг маънолари таркибидаги сўзлар маъноларининг умумий йиғиндисидан ташкил топмайди. Бу каби фразеологик бирликларнинг маъно яхлитлиги, яъни лексик маънонинг бутун бирикмага тегишлилиги билан характерланади. Семантик (кўчиш) трансформация ва образлилик эркин сўз бирикмаси ва фразеологик бирликларнинг фарқловчи-дифференциал белги ҳамда уларни боғлаб турувчи омилдир.

Енг шимармоқ бирикмаси эркин боғланма тарзидагина уларни ташкил этган *енг* ва *шимармоқ* лексемаларининг ўзаро уйғун маъновий бирикувидан, лексик маъноларини сақлаган ҳолда боғланиб, *кийимнинг енгини шимариш билан боғлиқ ҳаракатни* ифодаловчи маъно касб этади. Бунда лексемаларга хос маънолар асосида изоҳланадиган маъно юзага келади. Фразеологизация жараёнида эркин боғланмага хос маъно трансформацияланади, таркибидаги лексемаларга хос бўлмаган *астойдил ишга киришмоқ* маъноси шаклланади. Эркин сўз бирикмаси ва шу асосида шаклланган фразеологизмни образлилик ўзаро боғлаб туради. *Тўнини тескари кийиб, қўлини ювиб, қўлтиғига урмоқ* фразеологизмларнинг асоси эркин боғланмалардир. Аммо таъкидланганидек, *бошини олиб чиқиб кетмоқ, оёғини қўлига олиб, ўпкасини қўлтиқламоқ* каби бирикмаларда ҳам эркин боғланма ва фразема орасидаги боғлиқликни образ белгилайди. Кўринадики, хусусий маънолар умумий маънони тўғридан тўғри изоҳлаб турмайди, биттадан ортиқ сўз яхлитлигича маълум бир образ асосида, кўчириш (трансформация) йўли билан семантик тараққиётни ўтайди. Муайян образ асосида юзага келган устама маъно фразеологик маънодир.

Таъкидлаш лозимки, фразеологизмлар маъноси таркибидаги компонентларга хос маънолар билан изоҳланадиган ва изоҳланмайдиган хусусиятларига кўра фразеологик бирликлар фразеологик бирикма, фразеологик чатишма, фразеологик бутунлик каби турларга ажратилиб талқин қилинади. Аммо бундай турларга ажратишга нисбатан турли хил қарашлар мавжуд. Ўзбек тилшунослигида ҳам фразеологизмлар англатган яхлит маъно билан улар таркибидаги лексемалар ифодалайдиган маънолар орасидаги муносабат асосида фразеологик бутунлик, фразеологик қўшилма, фразеологик чатишма каби турларга

ажратилади. Бундай лексик-семантик тасниф рус тилшуноси В.В.Виноградов томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, қатор тилларга тадбиқ этилди. Жумладан, ўзбек тилшунослиги ҳам бундай таснифдан четда қолмади. Албатта, бу таснифнинг назарий ва амалий аҳамиятини эътироф этиш билан бирга, айрим мунозарали ўринларга эътибор қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Рус тилшуноси В.В.Виноградов фразеологизмларнинг уч типини кўрсатади: 1.Фразеологик чатишма (фразеологическое сращение) ёки идиома – бунда муайян образ гавдаланадиган, лексемаларнинг эквиваленти сифатида қатнашадиган бирликларни назарда тутади ва «спустя рукава», «вот так клюква», «как бы не так» каби мисолларни келтиради.

2. Фразеологик бутунлик (фразеологическое единство) – бунда муайян образ гавдаланадиган, яхлит маъно ифодалайдиган, лексик компонентлари маъноларининг бирлашувидан келиб чиқадиган бирликларни тушунади ва фикрининг тасдиғи сифатида «мелко плавать», «первый блин», «плыть против течения» каби мисолларни келтиради.

3. Фразеологик қўшилма (фразеологическое сочетание) – бунда бир компонентнинг кўчма маънога эга бўлиши ва бу компонент маълум бир қуршовдагина фразеологик маъно касб этишини таъкидлайди. Бундай фразеологизмларга «страх берет», «тоска берет», «смех берет» кабиларни киритади.

В.В.Виноградовнинг фикри илмий аҳамиятга эга эканлигини эътироф этиш билан бирга, унинг қарашлари тилшунослар томонидан танқид ҳам қилинди. Жумладан, Н.Н.Амосова «устойчивость словесного комплекса в виде аксиомы, не требующей ни определения, ни уточнения, нельзя объяснить спецификой русского материала» деб таъкидлайди. Муаллиф фикрини давом эттириб, «...понятие немотивированность фразеологических единиц не опирается в работах В.В.Виноградова на какие-либо конкретные, объективно устанавливаемые признаки» деб уқтиради. Демак, олиманинг тан олишича, фразеологик чатишма ва фразеологик бутунлик ўртасидаги фарқни ажрата олиш деярли мумкин бўлмай қолади.

В.В.Виноградовнинг фикрига суяниладиган бўлинса, фразеологик бутунлик таркибига техник ва илмий бирикма терминлар, қанотли сўз ва бирикмалар, каламбурлар, мақол ва маталларни хам киритишга тўғри келади. Шундай йўл тутилса, фразеологизмнинг доираси янада кенгайиб кетиши аён бўлади. Чунки улар ичида семантик қайта шаклланмаган ва кўчма маъноланмаган турлари хам бир талай эканлигини ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбек тилшунослигида хам фразеологизмлар В.В.Виноградов фикрлари асосида тасниф қилинди. Чунончи, фразеологизмларни ўрганишга бағишланган ишларда бу луғавий бирликлар уч гуруҳга ажратилган бўлса, бошқа ишларда икки гуруҳга бўлинади. Бу таснифлар фраземадан яхлитлигича англашиладиган маъно билан унинг таркибидаги лексемалар англатадиган маънолар орасидаги муносабатларнинг хусусиятига асосланади. Жумладан, фразеологик қўшилмага «маъноси составидаги сўзларнинг (компонентларнинг) бош ёки ясама маъноларидан иборат бўлган турғун иборалар фразеологик қўшилма дейилади» деб таъриф берилиб, «қўл кўтармоқ», «ўққа тутмоқ», «тўпга тутмоқ», «иштаҳаси очилди» каби мисоллар келтирилади. Фразеологик бирлашмага «составидаги сўзларнинг маъноларидан келиб чиқадиган асл, реал маънодан ташқари, бутун ҳолда кўчма маънода қўлланадиган турғун иборалар киритилиб, «хамир учидан патир», «миси чиқди», «лой бўлмоқ», «туёғини шиқиллатмоқ» каби мисоллар қайд этилади. Фразеологик чатишмага эса «составидаги сўзларнинг ҳам ўзаро, ҳам умумий маънога нисбатан бўлган маъно муносабатлари унутилган турғун иборалардир каби таърифланиб, «тақдирга тан бермоқ», «димоғи чоғ бўлди», «тоқати тоқ бўлди», «жуфтакни ростламоқ», «пихини ёрган» кабилар мисол сифатида келтирилади».

Агар келтирилган таърифларга асосланиладиган бўлса, фразеологик объект кенгайиб кетади. Фразеологик объект хақида рус тилшунослари турли хил белгиларни асос қилиб оладилар. Жумладан, А.И.Смирницкий фразеологик хусусиятнинг энг муҳим белгиси «сўзга муқобиллик» деб таъкидлайди. Н.Н.Амосова «муқим контекст»ли бўлишини эътироф этса, С.Г.Гаврин «функционал-семантик бутунлик» асосий мезон деб ҳисоблайди. А.В.Кунин эса фразеологияни «кенг» маънода тушуниб, унинг объектига «мураккаб маъноли» барча турғун бирикмаларни киритади. А.В.Кунин фразеологиянинг пастки чегарасига икки компонентли шаклни, юқори чегарага эса қўшма гап таркибли бирикмаларни киритади. Шунга кўра, қўшма гап таркибли фразеологизмлар фақат мақоллар бўла олади. Шу маънода мақолларни ҳам фразеология объектига киритади. Бундай турли хилликнинг асосий сабаблари, назаримизда, фразеологизмларнинг семантик таснифи чуқур асосланмаганлигида деб ҳисоблаймиз.

Тилшунос А.Хожиев эса фразеологизмларнинг хар иккала лексик-семантик таснифини инкор этади ва уларни гуруҳлаштириш маъқул эмаслигини уқтиради. Юқоридаги таснифлардан маълум бўлдики, маъноси таркибидаги лексемаларга хос маънолар асосида изоҳланадиган, шу лексик маъноларнинг умумий махражи сифатида гавдаланадиган фраземалар фразеологик бутунлик ҳисобланади. Бу лексик-семантик

гуруҳга «енг шимармоқ», «оғиз очмоқ», «оёғига бош урмоқ», «тилини тишламоқ», «тарвузи қўлтиғидан тушди» каби фраземалар киритилади.

Фразеологик чатишма маъноси таркибидаги лексемаларга хос маънолар асосида изоҳланмайдиган, бу лексемаларга хос лексик маъноларни ҳисобга олмайдиган боғланмалар. *Аммамнинг бузоғи, оёғини қўлига олиб, тўнини тескари киймоқ, ўпкасини қўлтиқламоқ, бошини олиб чиқиб кетмоқ* каби фразеологик бирликлар ҳисобланади.

Фразеологик бутунлик (бирлашма) маъноси унинг таркибидаги бирликлар лексик маъноларининг умумий маъносидан келиб чиқади ва улар тилда мавжуд бўлган маълум бир лексеманинг муқобили бўлган боғланмалардир. Аксарият бундай бирлашмаларнинг ўз маъносида қўлланиладиган вариантлари мавжуд бўлади.

Айрим тилшунослар гапни ҳар қандай тугал фикрни ифодалайдиган, эга кесим муносабатига эга бўлиши шарт бўлган формал бирлик, ритмомелодик белгиларга эга бўлмаган сўз бирикмаларидир дейилса, фразалар тугал фикрни ифодалайдиган ритмомелодик бирликлардир дейилади. Фраза термини сўз бирикмалари, асосан турғун сўз бирикмаларига нисбатан қўлланилиши, уларнинг фраземаларга яқинлигини ифода этади. Гапнинг фразадан фарқланадиган жиҳатлари мавжуд бўлиб, улар ҳамма вақт ҳам фраза билан мос келмайди.

Шунингдек, нарса-ҳодиса ва воқеликни аташ билан бирга образли-эмоционал ифодалайдиган *илоннинг ёғини ялаган, аммамнинг бузоғи, юрак-бағри қон бўлмоқ* каби номинатив-экспрессив фразеологик бирликлар, илмий-техникавий, медицина, машинасозлик, ҳарбий, спорт кабиларга оид нарса-ҳодиса ва воқеликни атайдиган турғун таркибли, образли фразеологик бирликлар. *Фойдали иш коэффициенти, ҳаво кемаси, атом бомбаси*, *реактив самолёт каби* номинатив-терминологик фразеологик бирликлар фарқланади.

Диалект-лаҳжага, шевага оид фразеологик бирликлар диалектал фразеологик бирликлар, халқ томонидан бунёд этилган, ўйлаб топилган, халқ ижоди сифатида эътироф этилган халқ тили фразеологияси (этнофразема) ўзаро фарқлаш фразеологик бирликларнинг моҳиятини тушунишга ва англашга ёрдам беради.

Парема, паремия. (*юн. paroimia – масал, рамзли ҳикоя*). Маълум бир тилдаги авлоддан авлодга оғзаки шаклда кўчиб юрувчи, ихчам ва содда, қисқа ва мазмундор, мантиқий умумлашма сифатида пайдо бўлган турғун ибора, мақол, маталларни ўз ичига олади. «*Арпанинг дони бўлгунча, буғдойнинг сомони бўл!», «атлас кўлакка бўз ямоқ»,»биров тузади, биров бузади», «бозор кўрган эчкидан қўрқ!» «Ваҳима-душманнинг йўлдоши», «вақт-омад»,»олтин олма, олқиш ол»!* кабилар паремалар саналади.

Паремалар авлоддан авлодга ўтиб, халқ оғзаки ижодининг маҳсули сифатида адабиётшуносликда кенг ўрганилади. Паремалар сўз бирикмалари ёки гаплардан тузилиб, маълум бир фикрни ифодалашига кўра тилшуносликнинг ҳам ўрганиш объектидир. Паремалар мазмуни, тузилиши, оҳанг-интонацияси ва бошқа грамматик хусусиятларига кўра ўзига хосликларга эга. Ўзбек тилида ҳикматли ибора тушунчасини ифодалаш учун *мақол, матал, масал, нақл, ҳикмат, танбеҳ, зарбулмасал, ҳикматли мақол, халқ ибораси, халқ сўзи, қадимгилар сўзи, донишмандлар сўзи, донолар сўзи, яхшилар сўзи, бурунгилар сўзи, улуснинг сўзи, авомуннос масали, ҳикматли сўз* каби йигирмага яқин терминлар қўлланилади. Бадиий ва публицистик адабиётларда, оммавий ахборот воситаларида бу терминлар деярли фарқланмайди. Тилшуносликка оид адабиётларда эса *идиоматик ибора, қайроқи ибора, афоризм, кўчма маъноли турғун бирикма, фразеологик бирикма, фразема* каби терминлар билан юритилади[2].

Паремалар жуда қадим замонларда яратилган бўлиб, улар халқнинг орзу-умидини, истагини, ҳаёт тарзини ва фикрини акс эттиради. Шунинг учун ҳам улар халқ орасида оммалашади, авлоддан авлодга ўтади, асрлар оша яшайди. Шу маънода паремалар муайян бир даврнинг маҳсули сифатида юзага келади, яшайди ва маълум бир даврга келиб истеъмолдан чиқиб кетади. Паремалар муайян даврда сайқал топади, грамматик жиҳатдан шаклланади, турғун шакл ва мазмунга эга бўлиб, тайёр ҳолдаги тил бирлиги сифатида қўлланилади. Паремалар тил бирлиги сифатида тилнинг қонуниятларига бўйсунади. Паремалар сўзларнинг уюшмасидан иборат бўлади. Улар маълум бир фикрни ифода этади. Демак, паремалар нутқда эмас, тилда мавжуд бўлади. Паремалар мантиқий фикрлашнинг маҳсули сифатида умуминсоний ҳодиса бўлиши билан бирга ҳар бир халқнинг яшаш тарзи, тарихий ривожланиши, дунёқараши билан юзага келади. Шу жиҳатдан паремалар ифода ва мазмун жиҳатидан миллий хусусиятга эга бўлади. Паремиология тилдаги мақол, матал, афоризм каби ҳикматли иборалар системасини ўрганадиган фандир. Паремиология тилда турли характердаги барча ибораларни, уларнинг келиб чиқиши, тарихий тараққиёти ва маъноларини ўрганади.

Шундай қилиб, фразеологик бирликлар маъноси таркибидаги лексемалар маъносига боғлиқ бўлмайдиган, яхлитлигича янги маъно ифодалайдиган сўзлар боғланмасидир.

Фразеологик бирликлар сўз бирикмаси бўлиб, образ асосига қурилган турғун бирикмалардир.

Фразеологик бирликлар сўз каби тилда тайёр ҳолда мавжуд бўлади, нутқ жараёнида тузилмайди.

[2] Қаранг: Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

Фразеологик бирликлар тил бирлиги бўлиб, сўз каби тушунча англатади.

Фразеологик бирликлар луғавий бирлик бирлик сифатида сўз ва сўз бирикмасига муқобил бўлиб номинатив (аташ) хусусиятга эга бўлади.

Адабиётлар

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – М., 1982. – С. 7-8.
2. Содиқов А ва б. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 1981. – Б. 108-110.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 74-79.
4. Шоабдураҳмонов Ш., Ҳожиев А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. – Тошкент, 1980. – Б. 142.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1992.
6. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент, 2013.
7. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019.
8. Маматов А.Э, Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантик-прагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019.
9. Mamatov A. E. English and Uzbek graduonyumic phrasemes in hyponymy. Монография. The language denotes the men and culture corporatively. LAMBERT Academic Publishing, 2019.
10. Маматов, А. Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Ташкент, 1989.
11. Маматов, А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанл. докт..... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
12. Маматов, А. Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада?. / Илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2014.

BADIIY MATNNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Bekpo‘lat UMURQULOV,
Termiz davlat universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

Maqolada badiiy matn tilning obrazlilik, estetik ta’sirchanlik, ifodadorlik ko‘lamining kengligini namoyon etuvchi asosiy manbalardan biri ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Badiiy matn, adabiy til, obrazlilik, ta’sirchanlik, tilning ifoda imkoniyati.*

Badiiy matnning go‘zalligi ham, mohiyatan ta’sirchanligi ham ko‘p jihatdan ifoda usulining o‘ziga xosligi, ko‘p ma’nolilik, so‘zlarni ko‘chma ma’nolarda qo‘llash, bir tushunchani turli lingvistik vositalar orqali ifodalash imkoniyatining mavjudligi asosida vujudga keladi. Badiiy matnning muhim turi bo‘lgan badiiy asarlar nutqning barcha shakllari uchun xos lug‘aviy vositalarni keng miqyosda qamrab oluvchi nutq bo‘lsa-da, uning mohiyatini, til vositalariga boyligi, unda turli nutq uslubiga xos lug‘aviy vositalarning mavjudligi emas, balki bayon usulining rang-barangligiga ko‘ra tushunchaning turli shakllarda, turli vositalar orqali ifodalanishi belgilaydi.

Badiiy matnning mohiyati uning ifodali vositalarga boy bo‘lishini, til vositalari orqali fikrning badiiy bo‘yoqdor, estetik jihatdan ta’sirchan ifodalanishini talab qiladi. Masalan, *Ali Qushchi hovliga kirganda o‘ng tomondagi uyning eshigi ohista ochilib, boshida to‘q havo rang ipak ro‘mol, egnida to‘pig‘igacha tushgan havo rang shohi ko‘ylak, oyog‘ida uchiga yoqud qadalgan bejirim qobuliy kovush, tol chiviqday nozik bir qiz ko‘rindi. Qiz Ali Qushchini ko‘rib, yuzini harir havo rang ro‘moli bilan to‘sib oldi, ohuning ko‘zlariday katta serkiprik ko‘zlarini yerga tikib, kaftini ko‘ksiga bosib, bosh egdi.* (O.Yoqubov. «Ulug‘bek xazinasi») Mazkur matnda muhim ma’no tashuvchi *ro‘mol, ko‘ylak, kovush, qiz, ko‘zlar* so‘zlari narsa, predmetni ifodalagan, aynan shu ifodasiga ko‘ra badiiy matn uchun nominativ vazifa bajargan muhim lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Bunday ifodalarsiz birorta matnni, jumladan, badiiy matnni ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki til vositalarining asosiy vazifasi predmet, narsa-hodisani nomlash, ularning o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatishdan iboratdir. Ma’lumki, til vositalarining ana shunday birgina vazifada qo‘llanilishi badiiy matn talablariga mos kelmaydi. Til birliklari tabiatan erkin, xilma-xil ifodalanish holatlariga ega bo‘lib, til vositalarining bu xususiyatlari badiiy nutq jarayonida ochiladi. Badiiy asarlarda tildagi shu imkoniyatlardan foydalanilgan holda badiiylik vujudga keladi. Keltirilgan so‘zlarning sifatlovchilari bilan: *ipak ro‘mol, havo rang shohi ko‘ylak, bejirim qobuliy kovush, nozik qiz, katta serkiprik ko‘zlar* kabi

qo‘llanilishi, *qizning nozikligini tol chiviqqa, ko‘zining ohu ko‘ziga* o‘xshatilishi badiiy bo‘yoqdorlikni ta’minlaganki, bunday ifodalarsiz badiiy matnni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu holat, avvalo, badiiy matnning o‘ziga xos ifoda usuliga ega ekanligini, shuningdek, so‘zda barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, u san’atkorona so‘z qo‘llash asosida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Adabiyotshunos D.Quronov so‘zning badiiy obraz yaratish xususiyatidan kelib chiqqan holda shunday yozadi: So‘zning tasvir imkoniyatlari juda keng, faqat ularning ro‘yobga chiqish darajasi bevosita ijodkor mahoratiga, aniqrog‘i undagi estetik nigohning nechog‘lik o‘tkirligiga bog‘liq [1,6]. So‘zning tasvir imkoniyati so‘z qo‘llash bilan bog‘liq ekan, badiiy matn tadqiqotchilari zimmasiga nutqning boshqa turlariga qiyosan badiiy matnlarda so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos qonuniyatlarni, ochib berish kabi muhim vazifa turadi. Zero, badiiy matnlarda lingvistik vosita ijodkorning so‘z tanlashi, uni san’atkorona qo‘llashi asosida badiiy ta’sirchanlikka ega bo‘ladi hamda badiiy asarning mohiyatini namoyon eta oladi. Binobarin, badiiy matn so‘z san’atining muhim ko‘rinishi sifatida tilning ifodali vositalariga asoslanadi. Biroq badiiy asarda qo‘llaniladigan barcha lingvistik vosita san’atkorona so‘z qo‘llashning namunasi bo‘la olmaydi. Birinchidan, tub mohiyati bilan badiiy matn ham umumxalq tilining shakli. Ikkinchidan, badiiy matnlarda qo‘llaniladigan barcha lingvistik vositalar badiiy serbo‘yoqlikni, emotsional-obrazlilikni uyushtirishi mumkin emas. Biroq badiiy matn so‘z san’atining shunday turiki, unda so‘z fikr ifodalash jarayonida xoh o‘z ma’nosida, xoh ko‘chma ma’noda bo‘lmasin shunday «lingvistik zanjir»ni vujudga keltiradiki, bu zanjirdan biror bo‘lagini ajratib olish badiiy nutq ta’sirchanligining yo‘qolishiga olib keladi. Xarakterlisi shundaki, bu «lingvistik zanjir» tarkibida tub mohiyati bilan uslubiy bo‘lgan so‘zlar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, ma’no ko‘chishi orqali obrazlilikni vujudga keltiruvchi lug‘aviy birliklar, oddiy so‘zlashuvga xos oddiy hamda obrazli vositalar va nihoyat, faqat predmetlik ma’nosini ifodalovchi so‘zlar ham mavjud bo‘ladi.

Badiiy matnning badiiy-obrazli, estetik ta’sirchan matn sifatida shakllanishi so‘zning san’atkorona qo‘llanilishi bilan bog‘liq. San’atkorona so‘z qo‘llanilishi fikrni ta’sirchan ifodalash imkoniyatini yaratadi, til vositalaridan foydalanishdagi rang-baranglikni ta’minlash asosida ifoda jihatdan badiiy matnning boshqa matnlardan farqlanishiga ham olib keladi.

Gap badiiy matnning ifoda usuli sifatida o‘ziga xosligi haqida ketar ekan, unda lug‘aviy vositalarning lug‘aviy-ma’noviy jihatdan ko‘pqirraligi masalasini alohida ta’kidlash lozim. Lug‘aviy vositalarning ma’no jihatdan ko‘pqirraligi badiiy matn, xususan, badiiy matnning muhim jihatidir. A.V.Fyodorov ma’no jihatdan ko‘pqirralilikni badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyati deb biladi. A.V.Fyodorovning ta’kidlashicha, xuddi shu holat badiiy nutqni nutqning boshqa turlaridan keskin farqlab turadi[3,71-72]. Ma’no

ko‘pqirraligining mohiyati shundaki, bu holatda so‘z faqat bir ma’noni emas, balki bir necha ma’noni ifodalashi orqali kitobxonga ta’sir etishi mumkin.

Badiiy matnning bu xususiyati, ya’ni ma’no ko‘pqirraligi masalasi tadqiqotchilarning diqqatini jalb qilib kelgan masalalardan. Xususan, bu masala V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.A.Larin, Y.N.Tinyanov, M.M.Baxtin, V.P.Grigoryev, A.D. Grigoryeva, YE.A.Nekrasova, M.N.Kojina va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan. Chunki so‘z ma’nosining ko‘pqirraligi badiiy matnga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan bo‘lib, matnning funksional imkoniyatini kengaytiruvchi vositalardandir. Biroq o‘zbek tilshunosligida matnning boshqa masalalari singari lug‘aviy vositalarning ma’no jihatdan ko‘pqirraligi masalasi ham tadqiqot ishlarida o‘z aksini topmagan.

Estetik ta’sir etish badiiy matnning muhim xususiyatidir. Estetik-ta’sirchanlikning asosini fikrni obrazli ifodalash tashkil etadi. Fikrni obrazli ifodalash so‘zdan san’atkorona foydalanishni talab qiladi. Badiiy matn o‘ta murakkab jarayonning mahsuli, garchand, obrazlilikni, estetik ta’sirchanlikni vujudga keltiruvchi vositalar nutqning bu turida ko‘p va xilma-xil bo‘lsa-da, ular san’atkorona so‘z qo‘llash, so‘zning turli ma’noviy xususiyatlarini chuqur anglash va undan samarali foydalanish asosida vujudga keladi.

Shu boisdan badiiy matnning lingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritilganda tadqiqotchi quyidagilarga alohida e’tibor bermog‘i lozim.

1. Badiiy matnda til vositalarining rang-barangligi masalasiga.
2. Badiiy matnda ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratiga.

Bu ikki holat, avvalo, bir-birini taqozo qiladi. Birinchi holat badiiy matnda so‘z qo‘llash imkoniyati cheksizligini ko‘rsatadi, ya’ni badiiy asarda, ayniqsa, badiiy matnlarda bir tushunchani ifodalash uchun bir necha so‘zlar qo‘llanilishi, so‘zlarning ko‘chma ma’nolarda ishlatilishi badiiy nutqning muhim jihati ekanligini izohlasa, ikkinchi holat badiiy matnning uslubiy imkoniyatining kengligini ko‘rsatadi. Chunki nutqning bu turida san’atkorona qo‘llanilgan har bir so‘z uslubiy vazifa bajaradi. Badiiy matnning muhim xususiyatlaridan yana biri so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan lug‘aviy vositalarni keng qamrab olishi va bu lug‘aviy vositalarning nutqda uslubiy imkoniyatlarni yaratishidir. Shunga ko‘ra nutqning boshqa turlaridan farqlanadi. Estetik vazifa bajarish badiiy matnning alohida ajralib turuvchi xususiyatlaridan biridir. Estetik ta’sirchanlik faqat badiiy nutq uchun xos bo‘lmasa-da, nutqning biror turi yo‘qki, bu holat badiiy nutqdagidek ko‘lamdor bo‘lsa.

Shu boisdan ham D.E.Rozental estetik vazifa bajarishni to‘liq badiiy nutqqa xos xususiyat deb hisoblaydi[2,50]. M.N.Kojina esa bu vazifani badiiy nutqning tabaqalangan tomoni ekanligini qayd etadi[4,65].

Darhaqiqat, badiiy nutqning obrazlilik ko‘lami, ifoda vositalarga boyligi, badiiy so‘zlarning emotsional-bo‘yoqdorligi – barchasi shu nutqning asosiy vazifasi bo‘lgan estetik-ta’sirchanligini kuchaytiruvchi vositalar hisoblanadi.

Badiiy matnning, xususan, badiiy nutqning muhim jihatlaridan biri umumuslubiyligidir. Adabiy til tizimiga mansub nutq ko‘rinishlaridan birortasi badiiy matndek uslubiy vositalarga boy emas, badiiy matnning boshqa turlari, she’riy nutq, dramatik nutq ham badiiy matn singari barcha nutq ko‘rinishlariga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtira olmaydi. Badiiy matnning hayotiy jarayon bilan uzviy bog‘liqligi muayyan xalqning turmush tarzini, o‘y-xayollarini ifoda etilishi, unda turli lug‘aviy vositalarning erkin qo‘llanilishini talab qiladi. M.N.Kojina badiiy nutqdagi umumuslubiylikni badiiy nutqda qo‘llaniladigan leksik-vositalarning turli-tuman uslubiy bo‘yoqqa ega ekanligida deb izohlaydi [4,197].

Nutqda ifodali vositalarning qay darajada qo‘llanilishi nutq uslubi bilan bog‘liq. Shu ma’noda ifodali vositalar uslubiy vositalar sanaladi. Badiiy matn ifodali vositalarning turli ko‘rinishlariga boy, aynan, ifodali vositalarning ko‘plab qo‘llanilishi badiiy matnning boshqa matn turlari: ilmiy matn, rasmiy matn hatto publitsistik matnlardan alohida ajralib turishini ta’minlaydi. Ifodali vositalarning ko‘p qo‘llanilishi va turli-tumanligi badiiy matnning o‘ziga xos muhim xususiyatlaridan sanaladi. Badiiy matnning ifodali vositalari so‘z qo‘llanilishida, tasviriy vositalar va boshqa nutq uchun noodatiy ifodalar qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Masalan, *Sokin tun. Osmon to‘la yulduz, lekin yorug‘i yo‘q. Yo‘l bo‘yidagi daraxtlar ho‘rpaygan tovuqqa o‘xshab ko‘rinadi, qop-qora, saf yarim soatcha yurgandan keyin o‘rmonga kirib ketdi. O‘rmon ichi boyagidan ham jimjit, faqat balanddan daraxt boshlarini tebratib o‘tgan shamolning pixillashga o‘xshash bo‘g‘iq tovushi bir tekisda keladi.* (Shuhrat. «Oltin zanglamas») Tasvirning serbo‘yoqligi bilan xarakterlanuvchi bu matn san’atkorona so‘z qo‘llash namunasidir. Matnda bitta tushuncha – «tun»ni ifodalashda, to‘rtta ifoda shaklidan foydalanilgan. *Sokin tun, osmon to‘la yulduz, daraxtlar – ho‘rpaygan tovuq, qop-qora.* Bu xildagi bir tushunchani har xil shakllarda ifodalash faqat badiiy matn uchun xos.

Matndagi *sokin tun* iborasi orqali tunning holati ifodalanishi, daraxtlarning tundagi ko‘rinishini *ho‘rpaygan tovuqqa* qiyoslanishi, tunga monand qop-qoralik tasviri badiiy ifoda asosida namoyon bo‘lgan. Badiiy ifoda tufayligina *shamol daraxt boshini tebratadi, shamol pixxillaydi, quyosh odamlarga kulub qaraydi, suvlar xonish qiladi, oy ariqdan hatlab o‘tadi, chechaklar jilmayadi, yaproqlar qarsak chaladi, gullar so‘ylaydi, daraxtlar yum-yum ko‘z yosh to‘kadi.* Ana shunday adabiy til uchun noodatiy ifodalar badiiy matnning mohiyatini belgilaydi va uni nutqning boshqa ko‘rinishlaridan farqlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Қуронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Академнашр, 2018.
2. Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. – М., 1977.
3. Фёдоров А.В. Некоторые лексико-семантические факторы смысловой многоплановости художественной речи. – в кн: Русский язык. Проблемы художественной речи. (Лексикология и лексикография) – М., 1981.
4. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1977.

«DAVLAT TILI HAQIDA»GI VA U BILAN BOG‘LIQ QONUNLAR IJROSI MASALALARI XUSUSIDA

Murodqosim ABDIYEV,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirishi markazining Samarqand bo‘limi rahbari,
filologiya fanlari doktori, professor

Ushbu maqola «Davlat tili haqida»gi qonun ijrosiga oid masalalar tahliliga bag‘ishlangan. Unda qonunda ko‘rsatilgan geografik joy nomlarini tartibga solish, ularning imlosi hamda terminlarni milliylashtirish bilan bog‘liq jarayonlar va ularniamalga oshirish masalalari keng ko‘lamda tahlil etilishiga harakat qilingan.

Tayanch so‘zlar: *davlat tili, qonun, qaror, millat, joy nomi, milliylashtirish, muqobil, imlo, yozuv, so‘z, termin.*

Ma’lumki, millatning dunyoda mavjudligini ko‘rcatuvchi muhim omillardan biri til hisoblanadi. Unda tarix, din, urf-odat, mentalitet singari millat ruhini namoyon etuvchi belgilar mujassam etiladi. Chunki til nafaqat millatning qolaversa, davlatning ramzi, ko‘zgusi hisoblanadi. Ona tili insonning kamol topishida, ya’ni uning aqliy va ruhiy holatini harakatga keltiruvchi, o‘zligini namoyon qiluvchi tengi yo‘q kuch hisoblanadi.

Til millatning mavjudlik belgisi. Tilni asramagan millatning tarqab ketishi, yo‘qolishi muqarrar. Millatning boshidan o‘tkazgan kechmishi tilida o‘z ifodasini topadi. Milliylik o‘z-o‘zini asramoq, o‘zini boshqarmoq, uning qadr- qimmatini o‘zgalar oldida ko‘z-ko‘z qilmoqlikdir. Milliy g‘oya va tafakkurning shakllanishi va taraqqiyoti milliy til bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois ham o‘zini anglash milliy tilga hurmat va sadoqat orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham til milliy qadriyatlar orasida muhim rol o‘ynaydi.

Prezidentimizning 2019-yil 21-noyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining e’lon qilinishi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini yanada oshirish imkoniyatini yaratdi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, har bir davlat idoralarida davlat tili bo‘yicha maslahatchilar shtatlarining joriy etilishi davlat tilining yanada jamiyat hayotiga to‘liqroq joriy etilishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Ularda joylarda davlat tilining yuritilishini nazorat va targ‘ib qilishmoqdalar. Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida «Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi» va uning viloyatlarda bo‘limlari tashkil etildi. Markazni tashkil etishdan maqsad barcha davlat tashkilotlarning mas’ul xodimlarga va aholiga davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘rgatish bilan birga « Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvi»ni hamda uning «Imlo qoidalari» va adabiy til me’yorlarini o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, markaz tomonidan respublikamizning o‘zga tilda so‘zlashuvchi aholisi hamda chet elliklar hamda xorijda o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun kurslar tashkil qilish ishlari allaqachon boshlanib yuborilgan. Yana shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash lozimki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan davlat tilini bilish darajasini aniklash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroridan kelib chiqib O‘zbekiston fuqaroligini oluvchilarni o‘qitish va ularning davlat tilini bilish darajasini sinovdan o‘tkazish vazifasi ham yuklatildi. o‘zbek tilining hali tadqiq etilmagan va o‘rganilmagan tomonlarini tadqiq etishda hamda uning amaliy jihatdan qo‘llanish ko‘lamini yanada oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Xususan, o‘zbek tili terminologiyasi masalalarini tadqiq etish, sohalarga doir izohli lug‘atlar tuzish, jumladan bugungi kundagi yo‘qolish arafasida turgan milliy hunarmandchilik sohalarini qayta tiklash barobarida zudlik bilan ularga tegishli so‘z va terminlarni yig‘ib olish milliylikning o‘ziga xos tomonlarini tiklashda va boyitishda metodologik asos bo‘ladi

Ayniqsa muhtaram Prezidentimizning 2020-yilning 23-sentabrida BMTning 75-sessiyasidagi onlayn nutqining davlat tilida e’lon qilinishi butun o‘zbek xalqining davlat tilimizning yanada mavqeini oshrishiga da’vat bo‘ldi. Ayni paytda 21-oktabrda barcha tashkilotlarda davlat tili bayrami tadbirlari hamda keng xalq sayli uyushtirilayotganligi millatdoshlarimizning kayfiyatiga kayfiyat qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘zbek tiligi «Davlat tili» maqomi yanada mustahkamlandi. Milliy g‘oya va mafkura bilan aloqador bo‘lmagan nomlardan voz kechish, yurtimizning qadimiy tarixiy nomlarini tiklash, milliy –insoniy ruhni singdirishga qaratilgan joy nomlari bilan nomlashga e’tibor berila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonunning 20-moddasida «Geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi»[3] deb yozilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyulda «O‘zbekiston Respublikasidagi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 120-sonli maxsus qarori qabul qilingan. Bu qarorda «O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalarini hal etish tartibi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi maskanlari bo‘yicha qabul qilingan standartlariga mos ravishda qishloq aholi punktlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va zarur hollarda ularni shaharchalar toifasiga kiritish bo‘yicha iltimosnomalar taqdim etish vazifasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga yuklatildi. Mazkur qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martdagi 68-sonli «O‘zbekiston Respublikasidagi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Respublika toponimik komissiyasi tomonidan ham O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘RQ-303-sonli Qonuniga muvofiq joy nomlarini nomlash maqsadida «Geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari» bo‘yicha tumanlar komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nomlarni davlat ekspertizasidan o‘tkazilishi bo‘yicha ham ancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Ammo hali respublika miqyosida qilinadigan ishlar talaygina bo‘lib, bulardan biri mahalliy va tarixiy nomlardan voz kechib, hamma tuman, shahar hamda mahallalarda yoppasiga bir xil nomlar bilan atash urf bo‘layotganligiga barham berishdan iborat. Joriy yilda respublikamizda bir qator aholi punktlari nomi o‘zgartirildi. Ammo yangi qo‘yilgan nomlar asosan mavhum otlardan iborat, biror bir tarixiylikka yoki shu yerda yashovchi aholining kelib chiqishiga aloqasi yo‘q. Bunday nomlar jumlasiga, «Guliston», «Navbahor», «Nurafshon», «Sayilgoh», «... obod», «Gulzor», «Orzu», «Mehnatkash», «Nafosat», «Tashabbus», «Sahovat», «Bo‘ston», «Iftixor», «Navnihol», «Madadkor» kabilar. Bu holat yomg‘irdan keyingi qoziqorinday hamma yoqni

[3] https://lex.uz/docs/-121051 167 -1-son. 21.12.1995.

bosib ketishi unchalik yaxshi emas. Xuddi ruslarning «Qushday engil boʻling» badiiy filmidagi oʻxshash kulgili holatlarga olib kelishi mumkin. Joy nomlari milliy tilning tarkibiy qismi boʻlganligi bois, biror nomni oʻzgartirish puxta oʻylangan ilmiy yondashuv asosida amalga oshirilgani maʼqul, kimnidir xohish-istagi bilan nomlarni oʻzgartirish u qadar toʻgʻri ish boʻlmasa kerak. Qolaversa, bu jarangdor nomlarning aksariyati oʻzlashma boʻlib, arab va fors tillariga tegishlidir. Bu oʻrinda qoʻshni davlatlarda bu borada olib borayotgan ishlarga ham koʻz yugurtirish joizdir. Ancha yildirki, Tojikistonda hatto joy nomlarini ham tojiklashtirish siyosati olib borilmoqda. *Kommunizm, Marks, Engels, Ilich* singari shoʻrocha nomlarni qoʻyaturing, *Qoʻrgʻontepa, Yangiqishloq, Qorategin, Qayroqqum, Qizili, Koʻktosh* singari ming yillik tarixiy turkiy toponimlarni ham *Rasht, Boʻston, Guliston, Boxtar, Lolazor* singari forsiy nomlarga almashtirib boʻlishdi. Boshqa qoʻshnilarimizda ham ahvol bizga qaraganda ancha tuzuk.

Samarqand shahri koʻchalaridagi ajnabiy nomlari haqida koʻp aytildi, yozildi. Ammo oʻzagarish juda sekin boʻlyapti.

Kelajak avlod talim-tarbiyasi bilan shugʻullanayogan xususiy taʻlim muassasalari nomlari han nuqul gʻarbona nomlanib borayotganligi kishini ajablantirib mahalliy ziyolilar kelajak haqidagi qaygʻuli tashvishlar tushishiga sabab bolmoqda. «REDBRIDGE SHOOLS»(A. Jomiy koʻchasi), «Samarkand intellekt» (Ozod Sharq koʻchasi), «OXSFORD INTERNATSIONAL SHOOL» (Amir Temur koʻchasi), «REDBRIDGE SCHOOLS» (A.Jomiy koʻchasi)» va hokazo. Bitta misol, «SPM SCHOOL» (Amir Temur koʻchasida) yonidan oʻtsangiz birorta oʻzbekcha yozuv yoʻqligiga amin boʻlasiz. Albatta, ularda talim tili 99% rus tilda olib borilmoqda.

Oʻzbek xalqi va oʻzbek milliy tilining shakllanishida koʻpgina etnik guruhlarning ishtirok etgani maʼlum. Oʻzbek millati oʻz etnik tarkibining serqirra va murakkabliligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi [1]. Bu hol oʻzbek tilining koʻp shevali til boʻlishiga ham asos boʻlganligi haqiqat.

Hozirda asosan ikki holatda – mustamlaka davridan qolgan joy nomlari yoki quloqqa «xunuk» eshitiluvchi nomlar sifatida oʻzgartirilyapti. Birinchi holat tushunarli. Shoʻrolar mafkurasini targʻib qiluvchi nomlar almashtirilgani yaxshi. Ammo ikkinchi holatda oʻzbek tilidan bexabarlik, tarixga bepisandlik bilan qarash kayfiyati «hech qanday maʼnoga ega emas» va «maʼnaviy qiyofamizga mos kelmaydi», deya talqin qilish holatlari uchrab turmoqda. Shu maʼnoda baʼzi bir tuman toponimik komissiyalaridan Qonjigʻali, Qoʻtirbuloq, Quljomon, Beshkal singari nomlarni oʻzgartirish takliflari ham tushmoqda. Aslida ular hech qanaqa «xunuk» nomlar emas. Ular bizga tarixni eslatib turuvchi nomlardir. Masalan, *Qonjigʻali, Quljamon, Beshkal, Oʻongʻirot* singarilar oʻzbek urugʻlarining nomi. Qadimda mazkur hududda oʻsha urugʻ vakillari yashashgan. *Qoʻtirbuloq* esa joy nomi sifatida nafaqt respublikamizda,

balki Samarqand viloyatining Tayloq, Oqdaryo, Bulung‘ur, Nurobod singari tumanlarida ham uchraydi. Bu shifobaxsh buloq bor joy degan ma’noda qo‘llanadi. Qadimda odamlar mazkur buloqlarga shifo istagida kelishib, turli yara, qo‘tir, qichima, ko‘k yo‘tal singari bir qator kasalliklarni suv bilan davolashga muvaffaq bo‘lishgan. Xuddi shunday bir anglashilmovchilikning oldi bundan ancha avval ham viloyat toponimik komissiyasida olingan edi. Samarqand tumanidagi bir qishloqning nomi *Garmokov* deb yozilgan bo‘lib, komissiya bu ruscha familiya o‘zgartirmoqchi bo‘lgandi, mahalla faollaridan biri bu ruscha Garmokov emas, fors-tojikcha *Garmako*, ya’ni issiqlik bilan davolovchi tabiblar bo‘lganligini aytib berib, nom o‘zgarishsiz, qolgandi.

«Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi Qonunning 4-moddasida obyektga berilayotgan nom uning o‘ziga xos bo‘lgan belgilarini aks ettirishi, mazkur geografik obyekt joylashgan yerdagi boshqa geografik obyektlar nomlarining mavjud tizimiga mos tushishi, mahalliy aholining fikrini hisobga olish, qoidaga muvofiq ko‘pi bilan uchta so‘zdan iborat bo‘lishi talabi ko‘rsatib o‘tilgan[4]. Qonunning yana bir muhim jihati, geografik obyektlarning nomlarini belgilash tartibidir. Geografik obyektlarning nomlari hududni kartografiya qilish, toponimik tadqiqotlar o‘tkazish vaqtida, nomlar berish, o‘zgartirish takliflari tayyorlanayotganda tegishli davlat hokimiyati, boshqaruv organlari, mahalliy aholi, o‘lkashunoslar, geograflar, tarixchilar va boshqa mutaxassislar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish asosida belgilanishi lozim bo‘ladi.

Shu bois ham toponim komissiyasi taklifni tayyorlashda o‘sha joydagi qariyalar, mahalliy ziyolilar, xususan, maktab o‘zbek tili va adabiyoti, geograf va tarixchi o‘qituvchilari bilan maslahatlashib ko‘cha yoki mahallaga nom bersa yaxshi bo‘lardi. Shoshma shosharlik bilan berilgan nomni vaqti kelib yana o‘zgartirishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bu esa ancha ortiqcha xarajat va aholining norizoligini keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Ko‘pgina ko‘cha nomlar haligacha ruscha talaffuzga moslab yozilmoqda. Masalan, Samarqand shahridagi Kandiya (aslida Qandiya), Malokokandskaya (Kichik Qo‘qon), Ustabaeva (Ustaboyev), Usta Kuli (Usta Quli) va hokazo.

Samarqand shahridagi ayrim ko‘chalar nomlari haligacha takror holda qo‘llanmoqda. Masalan, Aburayhon Beruniy, Abulqosim Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Orzu Mahmudov singarilar.

«Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 4-moddasigi geografik obyektlarning nomlariga dori talablariga ko‘ra «ko‘chalar, shohko‘chalar,mahallalar, maydonlar, bog‘larga va aholi punktlarinig boshqa tarkibiy qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, siyosiy arboblar ismi sharifini berishga qoida tariqasida yo‘l

[4] O‘zbekiston Respublikasining12.10.2011-yildagi O‘RQ-303-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-1881472?ONDATE=21.04.2021

qo‘yilmaydi. O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mutasno» [5] deb belgilangan. Afsuski, shaharda ushbu me`yorga talab bermaydigan kishi nomlari bilan ataluvchi ko‘chalar mavjud.

Shahrimiz ko‘chalarida turli tillarda aralash quralash tarzida yozilgan ko‘rsatkich, peshlavha hamda peshtoq yozuvlarni ko‘rib, ta’bingiz xira bo‘lishi tabiiy. Yangi o‘zbek lotin alifbosini joriy etish masalalari bo‘yicha ishchi guruh tarkibida bir necha marotaba ishtirok etishga to‘g‘ri keldi. Turli soha vakillariga asosiy yozuvlar yangi o‘zbek lotin alifbosida bo‘lishi zarurligini tushuntirish, targ‘ibot ishlarini olib borishga to‘g‘ri keldi. Negadir aholi o‘rtasida rus va g‘arb tillarida yozish urf bo‘lib bormoqda. Ba’zi mulk egalariga davlat tilida, ya’ni lotin alifbosida yozilish kerakligini tushuntirmoqchi bo‘lganimizda, hayrat bilan: « Qachondan beri o‘zbekcha yoziladigan bo‘ldi?», O‘zbekcha yozsak, kulgili bo‘ladi-ku, o‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring-a?!» singari alomatli savollarni berishadi. Biz ham bo‘sh kelmasdan, «Siz O‘zbekiston fuqarosimisiz, yo boshqa davlat fuqarosimi?», «Dunyoda 50 milliondan ortiq kishining ona tilisi bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasinig davlat tili, deb rasman e’lon qilinganiga 35 yildan oshgan bo‘lsa, davlat tilida yozish qachondan beri va qanday tarzda kulgili holga tushib qolishi mumkin?» – degan savolomuz javob qaytarishga harakat qildik. Yoki ba’zii mulk egalari ajnabiy yozuvlar yozilishini xaridorni qiziqtirish bilan bog‘laydi, juda bo‘lmasa, brendni bahona qilib turib oladi. Biz unga to‘g‘ri xalqaro miqyosida tarqalgan brendlar borligidan xabarimiz borligini, ammo o‘zimizning milliyligimizni targ‘ib qiluvchi brendlardan ham foydalanish xaridorlarga tushunarli va qulay bo‘lishining afzallik tomonlarini tushuntirishga harakat qildik. Ular esa ensasi qotgancha ko‘zingizga baqrayib qarab turadi. Sizning molingiz sifatli va arzon bo‘lsa, ajnabiy so‘zlar bilan targ‘ib qilishga ham hojat qolmasligini tushuntirishga ham harakat qilib ko‘rsak-da, foydasi bo‘lmayapti.

Nihoyat, O‘zbekiston Respublikasining «Reklama haqida»gi qonun[6]ning yangi tahriri qabul qilindi. 2022-yilning 9-sentabridan uning kuchga kirganligini xalqimiz uchun quvonchli xushxabar bo‘ldi. Ammo ayrim mulkdorlar esa hamon reklama ishlarini ajnabiy tillarda olib borishda davom ettirmoqdalar. Xolbuki, reklama haqidagi qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududida reklama davlat tilida, zarurat bo‘lganda, boshqa tilda takror berilganda ham davlat tilidagi asosiy ma’nosi buzib ko‘rsatilmasligi, hajmi qirq foizdan oshmagan matn ham davlat tilidagi o‘lchamga nisbatan kichik harfda bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

Bir guruh toponimist olimlar tomonidan katta hajmli «O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati»[2] nashr etildi. Unda mamlakatimiz hududi

[5] O‘zbekiston Respublikasining 12.10.2011 yildagi O‘RQ-303-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-1881472?ONDATE=21.04.2021

[6] Reklama to`g`risdagi QRQ -776 –son Qonun. https://lex.uz/uz/docs/-6052631

geografik obyektlarning nomlari – toponimlarning tarixiy-lisoniy izohi berilgan. Bu ishning amalga oshirilgani yaxshi. Lekin unga yurtimizning barcha toponimlari to‘liq kiritilgan, - deya olmaymiz. Hali bu borada qilinadigan ishlar talay. Jumladan, mamlakatimiz hududidagi barcha toponimlar zudlik bilan yig‘ib olib, ular lug‘at shakliga keltirilishi lozim. Iloji boricha ularning tarixiy nomlarnini saqlab qolishga harakat qilish kerak. Bu ishga faqat toponimist olimlar emas, balki barcha ko‘ngilli kishilar ham qatnashishi kerak bo‘ladi. Shundagina ularni nafaqat yig‘ib olish, balki ularning milliyligi va tarixiyligini saqlashga erishishimiz lozim bo‘ladi. Ayni paytda uning ikkinchi nashri chop etilish arafasida turibdi.

Terminlarni milliylashtirishga ham alohida e’tibor berish lozim. Imkoni boricha tilimizda qo‘llanishda bo‘lgan teminlarni o‘zbekchalashtirishga erishish lozim bo‘ladi [3]. E’tiborsizlik qilsak, juda ko‘plab lug‘aviy boyligimizning asosiy qismi o‘zlashmalar egallab olish xavfi tug‘ilmoqda. Bu jarayonning oldini zudlik bilan olishimiz zarur.Masalan, -qoplama,

Albatta, ushbu sohada respublikamizda anchagina ishlar qilinganligini inkor etmagan holda qilinadigan ishlar hali ko‘pligini ham eslatib o‘tish joizdir. Birinchi navbatda fuqarolarimiz ongiga Vatan tuyg‘usi, Vatan tili, Davlat tili, ona tili, milliy mafkura, milliy g‘oya singari tuyg‘ularni singdirish yuzasidan targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada jadal olib borish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Chunki kishilar ongini o‘zgartirmasdan turib, jamiyat hayotini o‘zgartirish ancha murakkab jarayondir. Shunday ekan, O‘zbekiston zaminida yashayotgan har bir fuqaro qalbida Vatan bilan faxrlanish barorida uning davlat tiliga hurmat hissiyoti paydo bo‘lgandagina, jamiyatimiz rivoji yanada jadallashadi.

Shu bilan birga hali «Davlat tili qonun»ni joriy etilishi borasida bir qator hal qilinishi lozim bo‘lgan quyidagi masalalar ham turibdi:

-hududlarda ayniqsa peshlavha, ko‘rsatich hamda reklama singarilarning «Imlo qoidalari»ga muvofiqligini ta’minlash hamda ularning davlat tilida yozilishining davlat tomonidan nazorat qilish ishlariga ko‘maklashish istagida bo‘lgan ko‘ngillilardan tashkil topgan guruhlar tuzish, ularning yordami bilan ishni yanada jonlantirish mumkin;

Davlat tilini ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umum o‘rta ta’lim, kasb-hunar, oliy ta’lim va undan keyingi ta’lim muassasalarida o‘qitilish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shu paytgacha mazkur ta’lim muassasalarda Davlat tilini o‘qitish metodlari bo‘yicha barmoq bilan sanarli miqdordagi tadqiqotlar olib borildi. Shuning uchun ham «Davlat tili»ni o‘qitish yuzasidan yangicha metodlarga asoslangan hamda o‘qitishni jadallashtirishga mo‘ljallangan tavsiyalar beradigan amaliy tadqiqotlar yaratish o‘ta dolzar. Chunki amaldagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarning aksariyati talabalarga asosan grammatikani o‘qitish bilan cheklanib qolmoqda. Holbuki, talaba

egallagan bilimini amalada qo‘llab, malaka va ko‘nikma hosil qilmas ekan, o‘qituvchi ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi;

- o‘zbek tilining lug‘at boyligini zudlik bilan to‘plab olish choralarini ko‘rish maqsadida «O‘zbek shevalari markazi» nafaqat Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida, balki uning viloyatlarda bo‘linmalari yoki «O‘zbek shevalari laboratoriyalari»ni har bir oliy o‘quv yurtlarida ochish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarni tezkorlik bilan amalga oshirmasak, vaqt o‘tishi bilan ayniqsa yoshi katta insonlarning dunyodan o‘tishi bilan bu boylik unutilishi mumkin. Chunki yoshlar asosan adabiy tilda so‘zlashadi, ko‘pchiligi shevasini unutishgan. Albatta, bu jarayonni amalga oshiruvchilar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlagishi lozim bo‘ladi. Chunki xalq ichiga ekspeditsiyalar uyushtirish mablag‘ bilan bog‘liqdir;

-hozirgi axborot texnologiyalari taraqqiyot etayotgan bir davrda o‘zbek tili rivoji va istiqbolini axborot kommunikatsion texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bizda bu borada qilinadigan ishlar bir talay bo‘lib, bular quyidagilar:

- internet tarmog‘ida jarayonlarni ifodalovchi terminlar haligacha rus tilida. Nahotki, bu almashtirib, avtomatik tarzda o‘zbekchaga almashtirishning imkoni bo‘lmasa? Mamlakatimizda o‘ndan ortiq o‘quv yurtlarida kompyuter injinering hamda dasturlash sohalari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu masalani zudlik bilan hal qilish lozim;

- kompyuterda o‘zbek tilida yozish jarayonida xato yozilgan so‘zni maxsus belgililar asosida ogohlantiruvchi dastur ishlab chiqilmagan. Bu dastur rus, ingliz va boshqa tillarda allaqachon yaratilib foydalanilmoqda. Bu dasturni zudlik bilan yaratish davr talabi bo‘lib, savodsizlarcha yozilgan yozuvlarning kamayishiga ham yordam beradi;

- yoshlar, xususan, maktab yoshidagi bolalar kompyuterga qiziqishi tabiiydir. Shuning uchun elektron o‘yinlar yo‘sinidagi qiziqarli va hordiqbop multifilm singarilarni o‘zbek tilida yaratish masalasi ham «Konsepsiya»da to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Bular amalga oshsa, nafaqat o‘zbek bolalari, balki boshqa millat bolalari uchun ham foydali bo‘ladi va ularning yoshligidan davlat tilini yaxshi o‘zlashtirib olishlariga imkon yaratiladi;

- o‘zbek tili til korpusining elektron shakli yaratilishiga kirishildi. Ammo bu ishni amalga oshirish uchun o‘zbek tilining barcha lug‘at boyligini zudlik bilan yig‘ib olish kerak bo‘ladi.O‘zbek tilining shevalari, moliya, qurilish, texnika hamda hunarmandchilikning turli sohalari singarining izohli bir va undan ortiq tilli lug‘atlarini yaratish lozim. Bunda ovozni eshitgan holda yozuv shakliga aylantira oladigan qurilmalarning mukammallashgan vositalarini yaratish lozim bo‘ladi;

- Atamashunoslik qo‘mitasi ishini ham jonlashtrish lozimdir. Nazarimda, uni «Davlat tilida ishi yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi» tasarrufiga o‘tkazlishi lozim. Maxsus shtatlar ham ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki u qayta tashkil etilgandan beri faoliyat umuman sezilgan emas;

- joylardagi toponimik komissiya ishlarini yanada jonlantirish lozimdir. Komissiya ishiga hokimiyat tashvishlaridan holi bo‘la olmaydigan mansabdorlarni emas, shu sohaning etuk mutaxassislarini mas’ul shaxs sifatida oylik maosh bilan ta’minlagan holda faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratib berish lozim bo‘ladi. Ularning joylardagi yozuvlardan tortib peshlavhalarning imlo xatosiz yozishlariga mas’ul etib belgilanishi maqsadga muvofiqdir;

- tadbirkorlik hamda xususiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga litsenziya beruvchi tashkilotlar yangi tashkil etilayotgan korxona nomi Milliy Nom.uz platformasi sayti ro‘yxatidan o‘tmagan nomlarni tasdiqlamasliklari qat’iy belgilab qo‘yilishi kerak;

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turi va navidan qat’iy nazar yorliqlarining davlat tilida yozilishini qat’iy nazorat qilish lozim. Chunki mahsulot sifatli bo‘lsa,u qaysi tilda yozilishidan qat’iy nazar xaridor uning doimiy mijoziga aylanishi ayni haqiqatdir.

Xullas, ma’naviyat ko‘zgusi bo‘lgan ona tilimiz lug‘at boyligi bo‘lgan so‘z va terminlar, qolaversa, joy nomlarini tarixiylik va milliylikni hisobga olgan holda shoshma shosharlikka yo‘l qo‘ymasdan yangi o‘zbek lotin alifbosi imlosi qoidalariga muvofiq rasmiylashtirish hamda yozilishini ta’minlash o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Uni har xil chet tillari ta’siridan doimo ravishda muhofazaa qilib borish, milliy tilsifatida sayqallashtirib borishimiz zarurdir. Shu bilan bir qatorda yurtimizda uning millatlararo til sifatida yanada takomillashtirib borish hamda uni suiiste’mol qilishlariga va buzishlarga qarshi murosasiz munosobatda bo‘lish nafaqat til jonkuyarlari, balki har bir ziyoli kishining vatanpararlik burchi bo‘lmog‘i lozim.

Adabiyotlar

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент,1967.
2. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
3. Абдиев М. Терминлар ўзбекча (туркийча) бўлсин // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. VI китоб (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 40.

ЎЗБЕК ЛИНГВИСТИК САНОАТИ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Бахтиёр Ражабович МЕНГЛИЕВ,
Тошкент амалий фанлар университети тадқиқотчи-профессори,
филология фанлари доктори

Замонавий бозорда лингвистик хизматларнинг тобора ривожланиб бораётганлиги кўп омиллар билан белгиланади. Глобаллашувнинг кучайиши билан дунёда янги типдаги ишлаб чиқариш компаниялари жадал тараққий этмоқда. Улар маҳсулот ва хизматларини турли тилларга таржима қилиши ва маҳаллийлаштириши лозим. Бунда улар учун лингвистик хизматлар катта аҳамиятга касб этади. Мазкур мақола ана шу ҳақда.

Таянч сўзлар: *саноат, лингвистик маҳсулот, лингвистик хизмат, Лингвистик хизмат функциялари, матнни автоматик таржима қилиш.*

Лингвистик маҳсулот ва **лингвистик хизмат** атамалари ўзбек тили учун янги ва жуда муҳим. Шунингдек, *саноат* термини «корхоналардаги ишлаб чиқариш, товар ва хизматлар кўрсатиш билан шуғулланадиган иқтисодиёт ва бизнес соҳаси» маъносини англатади. Биз лингвистик хизмат ва маҳсулот ишлаб чиқариш соҳаси деганда матн яратиш, матнларни таҳрирлаш, тузатиш ва таржима қилиш, чет тилларини ўргатиш, миллий ва маҳаллий дастурий таъминотни яратиш ҳамда бошқа тегишли соҳаларда лингвистик хизматлар кўрсатувчи корхона ва ташкилотларни назарда тутамиз. Биз ҳам мамлакатимизда лингвистик восита ва хизмат асосида тизимли равишда маҳсулот ишлаб чиқаришимиз ва сотишимиз мумкин. Ушбу фаолият ўзига хос бозор тамойиллари ва мижозлар билан ўзаро алоқа қилиш усулларига эга.

Лингвистик маҳсулот тилшунослик соҳасидаги иш натижаларини англатади. Лингвистик маҳсулот, одатда, табиий тил, унинг тузилиши, функция ва хусусиятларини ўрганиш ва таҳлил қилиш ёки таржима, тил ўргатиш ва компьютер учун тилни қайта ишлаш каби тил билан боғлиқ соҳаларда амалий қўллаш учун яратилади. Масалан, луғат, грамматик маълумотнома, соҳавий ва умумий энциклопедия, тил корпуслари, тил атласлари, илмий мақола ва монография, аудио курс, қўлланма ва дарслик, лингвистик дастур ва иловалар, тилшунослик бўйича конференция ва симпозиум кабилар. Бу лингвистик маҳсулот ва хизматнинг ҳар бири тилни ўрганиш (ўргатиш) ҳамда тадқиқ қилишда ўзига хос хусусият, мақсад ва фойдаланиш усулларига эга.

Машҳур лингвистик маҳсулотлардан кундалик ҳаётимизда кенг фойдаланамиз. Лекин улар бизнинг тилимизда эмас. Масалан, инглиз тилидаги замонавий машҳур лингвистик маҳсулотлар сифатида матнни

автоматик таржима қилиш учун сунъий интеллектдан фойдаланадиган Google Translate, Microsoft Translator ва DeepL каби компьютер таржима дастурлари, Оксфорд инглизча луғати, Merriam-Webster ва Кембриж луғати каби турли луғат ва электрон ресурслар, Apple компаниясининг Siri, Google Assistant ва Amazon Alexa каби овозли ёрдамчилари, Duolingo, Rosetta Stone ва Babbel каби инглиз тилини ўрганиш иловалари, талабаларга видеочат ёки аудио дарс орқали она тилида сўзлашувчилар билан мулоқот қилиш имкониятини тақдим этувчи iTalki ва Verbling каби интерактив онлайн тил ўрганиш платформалари, Facebook, Instagram ва Twitter каби инглиз тилида мулоқот қилиш учун ижтимоий тармоқлар, тадқиқотчи (тилшунос)ларга матн ва нутқни таҳлил қилиш ҳамда ўрганишда ёрдам берувчи лингвистик сўров ва сўзларни ҳисоблаш (LIWC) каби лингвистик илова ва тил таҳлили дастурлари кабиларни қайд қилиш мумкин. Ҳозирги вақтда рус тили бўйича ҳам турли лингвистик маҳсулотлар яратилмоқда. Матн корпуслари (масалан, Россия миллий корпуси, TextoBank, «Рус тилининг академик корпуси», муаллифлик корпуслари), электрон луғат ва лингвистик ресурслар табиий тилни қайта ишлаш учун автоматик тизимлар (Natural Language Processing, NLP), рус тилини ўрганиш учун компьютер дастур ва иловалари – мобиль қурилмалар учун иловалар, онлайн курслар, грамматика маълумотномалари, дарслик ва бошқалар шулар жумласидандир. Синтаксис, семантика, фонология ва тилшуносликнинг бошқа соҳаларидаги тадқиқотлар рус тилининг хусусиятлари ҳамда тузилишини батафсил ўрганишга ёрдам беради. Шунингдек, социолингвистик ва этимологик тадқиқотлар рус тилининг ижтимоий жиҳатларини, вариантлари ва эволюциясини ўрганишга қаратилган. Бошқа тилларда бўлгани каби замонавий лингвистик маҳсулотлар бу тилни ўрганишнинг турли жиҳатларига бағишланган конференция, симпозиум, журнал ва китобларни ҳам ўз ичига олади.

Лингвистик хизмат – лингвистик вазифа ёки хизматга ихтисослашган компания ёки ташкилотлар томонидан тақдим этиладиган хизмат ёки восита. Лингвистик хизмат турли функцияни ўз ичига олади. Масалан, автоматик таржима, табиий тилни қайта ишлаш, нутқни аниқлаш ва синтез қилиш, матн таҳлили ва бошқалар. Бу тилшунослик, таржима, сўзларни қайта ишлаш ва турли тилда мулоқот қилиш билан боғлиқ лойиҳалар учун жуда фойдали.

Замонавий бозорда лингвистик хизматларнинг тобора ривожланиб бораётганлиги кўп омиллар билан белгиланади. Глобаллашувнинг кучайиши билан дунёда янги типдаги ишлаб чиқариш компаниялари жадал тараққий этмоқда. Улар маҳсулот ва хизматларини турли тилларга

таржима қилиши ва маҳаллийлаштириши лозим. Бунда улар учун лингвистик хизматлар катта аҳамиятга касб этади.

Интернетнинг пайдо бўлиши ва технологиянинг ривожланиши билан онлайн таржима ва лингвистик хизматлар ривожланаётир. Улар матнларни тез ва самарали таржима қилиш ҳамда қайта ишлаш имконини берувчи машина таржимаси, автоматик маҳаллийлаштириш каби шаклларда оммалашаётган хизматлар ҳисобланади.

Бугунги кунда миграция жараёнлари ҳар йили юз минглаб кишининг бошқа мамлакатларга кўчиб ўтишига олиб келмоқда. Мигрантлар янги тилни ўрганиши ва маҳаллий аҳоли билан мулоқот қилиши керак бўлади. Бунда тил курслари, тил гуруҳлари ва таржимонлар каби тил хизматлари уларга янги муҳитга мослашишга ёрдам беради.

Туризмнинг ривожланиши ҳам лингвистик хизматларнинг ривожига таъсир қилмоқда. Арзон авиакомпаниялар пайдо бўлиши ва туризмнинг кучайиши билан турли маданият ҳамда тиллар ўртасидаги алоқа янада оммалашди. Тил хизматлари сайёҳларга маҳаллий аҳоли билан мулоқот қилишда ёрдам беради ҳамда ҳужжат, белги ва кўрсатмаларни бошқариш ва тушунишни осонлаштиради.

Глобаллашув маданий алмашинувларнинг кучайишини ҳам келтириб чиқармоқда. Халқаро талабалар алмашинув дастурлари, маданий фестиваллар, институт ва университетлар ўртасидаги ҳамкорлик – буларнинг барчаси турли тилларда ўзаро мулоқот қилиш заруратини юзага келтирмоқда. Лингвистик хизматлар талабалар, профессор-ўқитувчилар ва тадқиқотчиларга илмий мақола, маъруза, хат кабиларни таржима қилишда ёрдам беради.

Кўринадики, лингвистик хизматлар замонавий жамиятнинг турли тил ва ҳар хил маданият билан мулоқот қилиш эҳтиёжлари омиллари билан боғлиқ равишда жадал ривожланмоқда.

Лингвистик маҳсулотга эҳтиёж ҳам замонавий бозорда глобаллашув билан боғлиқ турли омиллар воситасида белгиланади. Масалан, глобаллашув ва бизнеснинг халқаролашуви фонида замонавий компаниялар дунё миқёсида ўз фаолиятини тобора кенгайтирмоқда. Бу кенгроқ аудиторияни қамраб олиш ҳамда янги мижозларни жалб қилиш учун контентларни турли тилга таржима қилиш ва мослаштиришни тақозо этади. Дунёда жуда кўп тиллар мавжуд ва уларнинг ҳар бири ўз аудиториясига эга. Дастурий таъминот, илова ёки веб-сайтлар каби баъзи маҳсулотлар барча фойдаланувчилар учун очиқ ва фойдаланиш мумкин бўлиши учун турли тилда маҳаллийлаштиришни талаб қилади.

Юқорида айтилганидек, миграция, маданий хилма-хилликнинг кучайиши туфайли турли маданият ва тил эгалари ўртасида маданиятлараро тушуниш ва мулоқотни ривожлантиришга ёрдам

берадиган лингвистик маҳсулотларга эҳтиёж ортиб бормоқда. Ҳозирги дунёда кўплар чет тилларини ўрганмоқда ва бунинг учун уларга тилни ўзлаштиришга ёрдам берадиган дарслик, луғат, онлайн курс каби лингвистик маҳсулотлар зарур. Туризм ва саёҳатнинг ўсиши билан кўпроқ одам турли мамлакатдаги маҳаллий аҳоли билан мулоқот қилиш ва тушуниш учун ҳар хил лингвистик маҳсулотга эҳтиёж сезаётир.

Компьютер тилшунослиги ва сунъий интеллект технологиялари йил, ой сайин ривожланиб бормоқда, бу эса лингвистик маҳсулотларни яратиш ва улардан фойдаланиш, масалан, овозли ёрдамчилар, машина таржимаси тизимлари ва лингвистик жараёнларни автоматлаштиришнинг бошқа воситаларини яратиш ҳамда улардан фойдаланиш учун янги имкониятлар эшигини очаётир.

Бу омиллар лингвистик маҳсулотларга бўлган талабнинг ўсишига олиб келмоқда ҳамда уларни ишлаб чиқариш, бозорни таъминлаш заруриятини яратади.

Лингвистик маҳсулот ишлаб чиқариш бозорини ривожлантиришнинг бир неча асоси мавжуд. Улардан энг муҳими – бозорни ўрганиш. Лингвистик маҳсулотга бўлган талаб ва таклифни таҳлил қилиш, мақсадли аудитория эҳтиёжи ва уларнинг замонавий талаблар билан алоқасини ўрганиш лозим. Бу эса маҳсулот ишлаб чиқариш ва мослаштиришнинг оптимал стратегияларини аниқлаш имконини беради ҳамда технологияларни ривожлантириш заруратини кун тартибига қўяди. Замонавий талаблар лингвистик маҳсулотларнинг сифати ва функционаллиги учун юқори мезонларни белгилайди. Ривожланишнинг муҳим йўналишлари қаторига дастурий таъминотларни янгилаш ҳамда модернизация қилиш, сунъий интеллект ва машинани ўрганишни жорий этиш, тил маълумотларини қайта ишлаш ва таҳлил қилишнинг янги алгоритм ҳамда усулларини ишлаб чиқиш киради. Бу эса маҳсулот ассортиментини кенгайтиришга олиб келади. Луғат, дарслик каби анъанавий лингвистик маҳсулотлардан ташқари, замонавий талабларга жавоб берадиган янги маҳсулотлар ҳам таклиф этилиши лозим. Масалан, тил ўрганиш учун онлайн платформалар, таржима ва ўқитиш учун мобиль иловалар, матн ва нутқни автоматик қайта ишлаш ва таҳлил қилиш тизимлари кабиларнинг ишлаб чиқарилишини назарда тутяпмиз.

Албатта, лингвистик саноат маркетинг ва реклама билан чамбарчас боғлиқ. Лингвистик маҳсулотлар бозорини ривожлантириш фаол маркетинг ҳаракатларини талаб қилади. Турли каналлар, жумладан, онлайн реклама, ижтимоий тармоқлар, тил ва маърифий тадбирларда иштирок этиш орқали маҳсулотларни мақсадли тарғиб қилишни амалга ошириш зарур. Шунингдек, тил ўрганиш билан боғлиқ таълим

муассасалари, корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиш жуда муҳим. Шунингдек, узлуксиз ривожланиш ва таълим тараққиёти шароитида лингвистик маҳсулотларни ишлаб чиқариш бозорини муваффақиятли ривожлантириш учун нафақат замонавий талабларга риоя қилиш, балки фаол ривожланиш ва бозор талабларини жиддий ўрганиш зарур бўлади. Энг янги технология ва техникаларни мониторинг қилиш, маҳсулот ва ўқув дастурларини доимий равишда такомиллаштириш ва рақобатбардош бўлиб қолиш ва бозор эҳтиёжларини қондириш имконини беради.

Булар лингвистик маҳсулотлар ишлаб чиқариш бозорини ривожлантириш ва уни замонавий талабларга мослаштириш шартларидандир. Соҳадаги ўзгаришларни доимий равишда кузатиб бориш ва янги шароитларга мослашишга тайёр бўлиш – ҳар қандай бозор турининг муҳим омили.

Лингвистик хизмат даражасини ошириш бир қанча чора-тадбирни амалга оширишни тақозо этади. Аввало, тилшунослик кўникмаларини ривожлантириш учун янада қулай, сифатли таълим дастурлари ва курсларини очиш мақсадга мувофиқ. Бу университетларда тил дастурлари ва курсларининг кенг доирасини таклиф қилувчи ихтисослаштирилган замонавий кафедра ва факультетларни яратишни ўз ичига олади. Шунингдек, лингвистик тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш, фан ва лингвистик хизматларда замонавий услуб ва ёндашувларни ривожлантиришни рағбатлантириш учун лингвистик тадқиқотларга маблағ ва ресурсларни инвестиция қилиш талаб этилади.

Таржимон ва тилшуносларнинг малакасини ошириш – бу борадаги асосий вазифалардан. Профессионал таржимон ва тилшуносларга замонавий талабларга жавоб берадиган билим ва кўникмаларни эгаллаш учун малака ошириш дастурларини ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Технологик асбоб-ускуналарни ривожлантиришга кўмаклашиш, хусусан, автоматлаштирилган таржима тизимлари ва ҳисоблаш тилшунослиги дастурлари каби тил хизматларининг самарадорлиги ва сифатини оширишга ёрдам берадиган замонавий технологиялар ва ускуналарга сармоя киритиш соҳа ривожида катта роль ўйнайди. Албатта, хорижий сармояларнинг ҳам ўзига хос ўрни бор. Янги технологиялар, ноу-хау ва илғор тажрибаларни олиб кириш учун тил хизматларига йўналтирилган хорижий сармояларни рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаш керак бўлади.

Аҳолининг хабардорлиги ва маърифатини ошириш лингвистик индустрия ривожида катта роль ўйнайди. Бунинг учун тил хизматларининг аҳамияти ва фаолиятнинг турли соҳаларига таъсири

ҳақида аҳолининг хабардорлигини оширишга қаратилган ахборот компаниялари ва таълим дастурларини яратиш талаб қилинади.

Халқаро алоқаларни мустаҳкамлаш, илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш, соҳада билим ва илғор тажриба алмашишни таъминлаш учун бутун дунё бўйлаб лингвистик ташкилот ва университетлар билан ҳамкорликни ривожлантириш ҳамда қўллаб-қувватлашга эҳтиёж жуда катта. Шу асосда сифатли тил хизматларини таъминлайдиган, истеъмолчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қиладиган қоида ва стандартларни ишлаб чиқиш ҳамда жорий этиш зарур. Тил хизматлари соҳасида тажриба ва билим алмашишга, шунингдек, мутахассислар билан учрашиш ва ҳамкорлик қилишга ёрдам берувчи тадбирлар, форум ва конференциялар ташкил этишга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Тил хизмати тадбиркорлигини ташкил этишга кўмаклашиш ва рағбатлантириш ҳам катта аҳамиятга эга. Масалан, соҳада ўсиш ва рақобатни рағбатлантириш учун тил хизматларини ривожлантириш истагида бўлган маҳаллий тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш муаммо ечимида ғоят аҳамиятли.

Бу чора-тадбирлар муштараклиги мамлакатимизда лингвистик хизматлар кўрсатиш даражасини оширишга ёрдам беради ва соҳани ривожлантириш учун қулай шарт-шароит яратади.

Лингвистик бозорда тилшунослик ва тилшуносларнинг ўрни катта. Лингвистик хизматларни такомиллаштириш ва лингвистик маҳсулот ишлаб чиқариш тизимида самарали етакчилик қилиш учун тилшунослар анъанавий ва самарасиз тадқиқотлардан замонавий йўналишларга ўтишлари лозим. Тилшунослар лингвистик хизмат ва маҳсулотларни ишлаб чиқариш жараёнида фаол иштирок этишлари керак. Улар бундай маҳсулотларнинг функционаллиги ва сифатини яхшилаш учун ўз ғоя ва билимларини таклиф қилиши – бозор тилшунослигининг талаби.

Тилшунослар кучли ва заиф томонларини аниқлаш учун мавжуд лингвистик хизмат ва маҳсулотларни чуқур, тезкор тадқиқ ва таҳлил қилишлари лозим бўлади. Чунки тадқиқот натижалари ислоҳга эҳтиёжманд соҳаларни аниқлашда муҳим роль ўйнайди.

Лингвистик хизмат ва маҳсулотлардан фойдаланувчиларнинг эҳтиёжлари ҳамда истакларини аниқлаш катта аҳамиятга эга. Тилшунослик бозор тадқиқотларини ўтказиши ҳамда бундай хизмат ва маҳсулотларда нимани кўришни хоҳлашларини тушуниш учун фойдаланувчилар билан доимий мулоқот қилишлари лозим бўлади.

Лингвистик хизмат ва маҳсулотларни ишлаб чиқувчиларга нисбатан жамоатчиликнинг фикрини билиш жуда муҳим. Тилшунослар ўз тажрибаларига асосланиб, такомиллаштириш ва тузатишларни таклиф

қилишлари мумкин. Шунингдек, улар юзага келиши мумкин муаммо ва хатоларни аниқлаш учун маҳсулотларни синовдан ўтказишда иштирок этишлари катта аҳамият касб этади.

Тилшунослар лингвистик хизмат ва маҳсулотлар учун стандарт ва меъёрларни яратиш ва сақлашда ҳамкорларига профессионал кўмак беришлари лозим. Бу саноатни ривожлантириш ва такомиллаштиришга хизмат қиладиган ягона қоида ва сифат мезонларини белгилаш имконини беради.

Таълим ва кенг аудитория билан мулоқот қилишнинг муҳимлигини ҳам унутмаслигимиз керак. Тилшунослар билим ва тажриба алмашиш учун маърифий тадбирлар ўтказиши, аниқ амалий мақсадли илмий мақолалар ёзиши, конференция ва вебинарларда маъруза қилишлари лозим. Бу тил ҳамжамиятининг ривожланишига, лингвистик хизмат ва маҳсулотлар даражасининг яхшиланишига кўмаклашади.

Умуман олганда, кўп ҳолларда истеъмолчилар билан мулоқот қилмайдиган тилшуносликни лингвистик хизмат ва маҳсулотларни такомиллаштиришга самарали йўналтириш унинг истеъмолчилар билан мустаҳкам ҳамкорлигини талаб қилади. Тилшунослар тил соҳасида етарли билим ва тажрибага эга бўлганлиги боис харидорбоп маҳсулот ишлаб чиқарадиган амалий тилшунослик ривожида ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Лингвистик саноатни ташкил этиш ва маҳсулотлар ишлаб чиқаришни мақсадли ривожлантириш қатор вазифаларни амалга ошириш билан боғлиқ. Аввало, соҳа учун тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш лозим бўлади. Давлат стандартларини яратиш ва лингвистик сервис соҳасини тартибга солиш кўрсатилаётган хизматнинг сифат ва ишончлилигини кафолатлайди. Ҳуқуқий ҳужжатлар тил компанияларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилашда, мижозлар манфаатларини ҳимоя қилишда жуда муҳим.

Тилшунослик соҳасида амалий тилшунослик таълимини ривожлантириш, жумладан, ихтисослаштирилган ўқув дастурларини яратиш, ўқитувчи ва талабаларни тайёрлаш, жиҳозларни янгилаш ва ҳоказолар молиялаштирилиши лозим. Бундай чора-тадбирлар соҳа учун ишчи кучини ривожлантириш ва тил хизматлари сифатини оширишга олиб келади. Тилшунослик соҳасидаги самарали амалий илмий тадқиқотлар ва янги лингвистик технологияларни ишлаб чиқиш учун грант ва субсидияларга эҳтиёж мавжуд. Бундай чора-тадбирлар соҳанинг инновацион ривожланишида, янги маҳсулот ва хизматларнинг яратилишида муҳим омил саналади.

Албатта, соҳа ривожида солиқ ва молиявий тўсиқларни камайтириш бўйича ҳукумат чоралари лингвистик саноат ўсишини

рағбатлантирадиган муҳим омиллардан. Масалан, солиқларни камайтириш саноат учун инвестицияларни жалб қилиш ёки турли даромадли истеъмолчиларга лингвистик хизматлардан фойдаланиш имкониятини кенгайтиради.

Давлат саноатда халқаро ҳамкорликни таъминлашда ва тил маҳсулотларини жаҳон бозорида илгари суришда муҳим роль ўйнайди. Бу кўргазма ва конференциялар ташкил этиш, ташқи савдо офисларини ташкил этиш, экспортчиларни қўллаб-қувватлаш кабиларни ўз ичига олади.

Давлатимиз томонидан кўрсатилаётган ва кўрсатиладиган бу каби кўмаклар лингвистик саноатни ривожлантиришга сезиларли таъсир кўрсатиши, тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш учун қулай муҳит яратиши, сармояларни жалб этиши ва ушбу соҳадаги компанияларнинг рақобатбардошлигини ошириши тайин.

Лингвистик саноатда ҳомийлик маҳсулот ишлаб чиқариш ва соҳани ривожлантиришда катта роль ўйнайди. Масалан, ҳомийлар тил хизматлари ва маҳсулотларини ривожлантириш ҳамда яхшилашни молиявий ресурслар билан таъминлаши мумкин. Бунга тадқиқот, дастурий таъминотни ишлаб чиқиш, янги технологияларни яратиш ва ҳоказоларнинг харажатлари киради. Етарли маблағсиз саноат ривожланиши имконсиз. Айниқса, бозори шаклланмаган тилшунослик каби истиқболли соҳалар учун бу жуда муҳим.

Технология компаниялари ёки тадқиқот марказлари каби ҳомийлар лингвистик маҳсулотларни ишлаб чиқариш учун зарур техник тажриба ва инфратузилмани ҳам тақдим этиши лозим. Бу юқори сифатли тил хизматларини яратиш учун зарур алгоритм ва моделларни, табиий тилларни қайта ишлаш ва бошқа технологияларни ишлаб чиқишда ёрдам беради.

Ҳомийлар лингвистик маҳсулотларни бозорга тарғиб қилиш ва тарқатишда ҳам ёрдам беришади. Улар ўзларининг мижоз ва ҳамкорлари тармоғига киришни таъминлашда, реклама компаниялари ва бозор тадқиқотларида катта роль ўйнайди. Бу фойдаланувчиларни лингвистик хизмат ва маҳсулотлар билан таништириш ҳамда жалб қилиш жараёнини сезиларли даражада тезлаштиради.

Ҳомийлар университет ва тадқиқот марказлари билан тил технологияси бўйича тадқиқотлар олиб бориш, янги маҳсулотларни ишлаб чиқиш учун ҳамкорлик қилиши лозим. Университет ва тадқиқот гуруҳлари ўзларининг илмий лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш учун кўпинча молиялаштиришга муҳтож ва молиячилар бу жараёнда муҳим ҳамкор бўла олади.

Ҳомийлар тилга хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ва лингвистик маҳсулотлар ишлаб чиқариш, такомиллаштириш, тарғиб қилиш ва тадқиқ этишда зарур ресурс, кўмак бериш билан муҳим ўрин тутади.

Лингвистик саноат бўйича тадқиқотлар лингвистик хизматлар бозори ва саноатини ривожлантириш ҳамда иқтисодиёт ва маркетинг соҳасида кучли амалий аҳамиятга молик. Масалан, лингвистик хизмат ва маҳсулотга бўлган талабни таҳлил қилиш, бунда муайян тил хизматлари (таржима, таҳрирлаш, маҳаллийлаштириш) ва маҳсулот (кўп тилли веб-сайт, маркетинг материаллари, реклама)га бўлган бозор эҳтиёжларини ўрганиш зарур. Бундай тадқиқотлар потенциал мижозлар сегментларини, лингвистик хизмат ва маҳсулотларни самарали сотиш усулларини аниқлашга хизмат қилади.

Рақобат муҳитини тадқиқ қилиш ҳам муаммо ечимида эътиборга молик масалалардан. Лингвистик хизмат ва маҳсулотлар бозорини таҳлил қилиш, асосий рақобатчиларни, уларнинг хатти-ҳаракатлари, стратегия ва кучли томонларини аниқлаш ушбу соҳадаги компанияларнинг афзалликлари ва ноёб таклифларини аниқлашда, шунингдек, соҳадаги асосий тенденция ҳамда ўзгаришларни тушунишда жуда зарур.

Лингвистик хизмат ва маҳсулотлар сифатини ўрганиш, хизмат кўрсатиш ва маҳсулотни ишлаб чиқиш жараёнини таҳлил қилиш, она тилида сўзлашувчилар сифатини баҳолаш, лингвистик ишларнинг мижоз талаблари ва халқаро сифат стандартларига мувофиқлигини текшириш бўйича тадқиқотлар иш жараёнини, тақдим этилаётган хизмат ва маҳсулотлар сифатини яхшилашга кўмаклашади.

Маркетинг стратегиялари самарадорлигини ўрганиш эса маркетинг каналлари ва мижозларни жалб қилиш усулларини таҳлил қилиш, турли реклама ва реклама тадбирларининг самарадорлигини баҳолаш асосидир. Бундай тадқиқотлар мижозларни жалб қилиш ва сақлаб қолиш учун энг муваффақиятли маркетинг стратегияларини аниқлаш ҳамда уларга эътибор қаратишга олиб келади.

Лингвистик саноатнинг ривожланиш тенденцияларини ўрганиш лингвистик хизмат ва лингвистик маҳсулотлар ишлаб чиқариш соҳасидаги ўзгаришларни ўрганиш, масалан, янги технологияларни жорий этиш (машина таржимаси, жараёнларни автоматлаштириш), мижоз ва бозор талабларини ўзгартириш, янги стратегияларни ишлаб чиқиш ва ёндашувлардир. Бундай тадқиқот саноатдаги ўзгаришларга мослашишга ва келажакда компанияни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқишда муҳим.

Бундан ташқари, молия, технология, оммавий ахборот воситалари ва бошқалар каби лингвистик хизмат ва маҳсулотлар талаб қилинадиган

муайян бозор ҳамда тармоқларни таҳлил қилиш учун тадқиқотлар ҳам ўтказилиши зарур бўлади. Бу тадқиқотлар натижасида ушбу тармоқлардаги талаб ва таклиф хусусиятини аниқлаш, махсус лингвистик маҳсулот ва хизматларни яратиш имконияти кенгаяди.

Лингвистик саноатда лингвистик маданият ҳам лингвистик саноатда эътиборга молик масалалардан. Лингвистик маданият тилдан фойдаланиш, унинг жамиятдаги вазифа ва хусусиятларини тушуниш билан боғлиқ билим, кўникма ва малакалар йиғиндисидир. Унга грамматика, луғат, услубдан тўғри фойдаланиш, тилга доир қонун, меъёр ва одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиш, шунингдек, турли ижтимоий ва маданий шароитларга мослаша олиш кабилар киради.

Тил маданиятининг лингвистик хизмат соҳасини ривожлантириш ва лингвистик маҳсулот ишлаб чиқаришдаги роли бир неча жиҳатдан иборат:

биринчидан, тил маданияти соҳада юқори сифатли хизмат ва маҳсулотларни таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Лингвистик хизматларни кўрсатадиган компанияларда чуқур тил кўникмалари, маданий тушуниш ва мижозлар талабларига мувофиқ маълумотларни етказиш қобилиятига эга юқори малакали тилшунослар бўлиши лозим;

иккинчидан, тил маданияти компанияларга турли бозор ва тил жамоаларига мослашиш имконини беради. Бу бизга энг мос лингвистик маҳсулот ва хизматлар яратиш ҳамда таклиф қилиш учун турли мамлакат ва маданиятдаги мижозларнинг ўзига хос талабларини аниқлашда қўл келади;

учинчидан, тил маданияти мижоз ва компаниялар ўртасида, шунингдек, компания ходимларининг ўзлари ўртасида муваффақиятли мулоқотни таъминлайди. Бу тушунмовчиликлар, лингвистик хато ва низоларнинг олдини олишга кўмаклашади, ўзаро самарали таъсир қилиш ва мақсадга эришишда жуда муҳим;

тўртинчидан, тил маданияти лингвистик хизмат ва ишлаб чиқариш соҳасида янги ёндашув ва технологияларни ривожлантиришга кўмаклашади. Машина таржимаси, жараёнларни автоматлаштириш ва матн таҳлили каби инновацион лингвистик маҳсулотларни яратиш, компанияларнинг бозордаги самарадорлиги ва рақобатбардошлигини оширишда у, айниқса, аҳамиятли.

Хуллас, тил маданияти тил хизмати соҳасини ривожлантириш ва лингвистик маҳсулот ишлаб чиқариш, сифатни таъминлаш, бозорга мослашиш, муваффақиятли мулоқот ва инновацияларда ҳал қилувчи роль ўйнайди.

BAHO VA DARAJALANISH MUNOSABATI

Bibish Muxsinovna JO‘RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Dilafruz Ashurovna TO‘XTAYEVA,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

Tilshunoslikda turli soha bilimlarini tahlil qilishga, tilshunoslik kategoriyalari o‘rtasidagi aloqalarni belgilashga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bu holat baholash va darajalanish munosabatida ham o‘z aksini topadi. Nutqda baholash va darajalanish hodisalari, ko‘pincha, qorishiq holda namoyon bo‘ladi. Bu kategoriyalarda daraja xususiyatiga ega o‘xshash lingvistik vosita va ifoda usullaridan foydalanilganligi bois tadqiqotchilar, ko‘pincha, ularni farqlash muammosiga duch kelishadi. Baholash va daraja kategoriyalari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni belgilash ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Maqolada baholash va darajalanish o‘rtasidagi munosabat yoritilgan bo‘lib, ularning bir-biriga daxl qilishi, bir-biri bilan o‘xshash va farqli jihatlari aniq misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: baholash, darajalanish, darajalanish kategoriyasi, lingvistik darajalanish, darajalanish ko‘rsatkichi, baholash shkalasi, me’yor, o‘lchov, maqol, intensivlik, parametrik daraja, qiymat.

Hozirgi zamon tilshunosligida turli soha bilimlarini sintez qilishga, jumladan, tilshunoslik kategoriyalari o‘rtasidagi aloqalarni belgilashga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bu holat baholash va darajalanish munosabatida ham o‘z aksini topadi. Chunonchi, darajalanish ham, baholash ham intralingvistik universal kategoriya bo‘lib, funksional umumiylikka ega: har ikkalasi ham obyektga kuchli ta’sir vazifasini bajaradi; uning subyektiv tanlash, bosqichma-bosqich baholash va intensivlikni ifodalash vositalari hamda usullari bilan bog‘liq bo‘ladi, o‘lchov va daraja ko‘rsatkichlari bilan birga keladi. Ushbu kategoriyalar taqqoslash mexanizmiga asoslangan holda maxsus darajalanish o‘lchovini o‘z ichiga oladi. Neytral holatda baholashni ham, darajalanishni ham belgilashning imkoni mavjud emas.

Graduonimiya (darajalanish) tushunchasi o‘zbek tilshunosligida 1989-yilda so‘zlararo ma’no munosabatlarining bir ko‘rinishi sifatida talqin etilib, bu hodisa *graduonimiya* deb nomlangan. Graduonimiya Sh.Orifjonova, O.Bozorov, N.Vohidova, J.Djumabaeva va G‘.Rahmonov tomonidan chuqur tahlilga tortilgan[10, 113].

O.Bozorov tomonidan lug‘aviy darajalanishning mazmuniy ko‘lamlarida bir tomonlama (chaqaloq-go‘dak-bola-o‘smir-yigit), aylanuvchi

(yoz-kuz-qish-bahor), markazdan qarama-qarshi tomonlarga boruvchi (sovuq-iliq-issiq) xususiyatlari mavjudligi aytib oʻtilgan [9, 83-85].

Nutqda baholash va darajalanish, koʻpincha, qorishiq holda namoyon boʻladi. Bu kategoriyalarda daraja xususiyatiga ega oʻxshash lingvistik vosita va ifoda usullaridan foydalanilganligi bois tadqiqotchilar, koʻpincha, ularni farqlash muammosiga duch kelishadi [5,125].

Baholash va daraja kategoriyalari oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlarni belgilash ularning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Baholash soʻzlovchining nutq mavzusiga (baholash obyektiga) ijobiy yoki salbiy munosabati ifodasi hisoblanadi. Tilshunoslikda baholashning qamrov doirasi kengroq boʻlib, u voqea yoki hodisa; predmet yoki jarayonga nisbatan soʻzlovchining turli xildagi munosabatini aks ettirishi, shuningdek, ushbu baholash turli asoslarga koʻra ham belgilanishi mumkin: *maʼqullash, rad etish, istak, ragʻbatlantirish, xohish, inkor etish, kamsitish* va h.k. Tilshunoslikda baholashni tor doirada tushunish, yaʼni birliklarning aksiologik tabiatidan kelib chiqib belgilash koʻpchilik olimlar tomonidan eʼtirof etilgan jihatdir. Bunda baho turli mezonlar asosida toʻgʻridan toʻgʻri belgilanadi: *yaxshi – yomon, aqlli – aqlsiz, dono – ahmoq, ishchan – dangasa, saxiy – baxil, chiroyli – xunuk* va h.k. hamda asosiy eʼtibor belgiga qaratiladi. Odatda, qadriyatlarni belgilashda aynan shunday baholash nazarda tutiladi.

Boshqa xususiyatlar, shu jumladan, parametrik (*katta – kichik, tor – keng, uzun – qisqa, baland – past, semiz – ozgʻin*) daraja toifasiga xos boʻlgan oʻzgaruvchan yoki oʻlchangan xususiyatning qiymati, shubhasiz, oʻlchovli baholash turlaridan biriga asoslanadi [6, 280].

Oʻzgaruvchan yoki oʻlchanuvchan atribut qiymati darajalanish boʻlib, u baholash turlaridan biri – oʻlchovda ham namoyon boʻladi. S.G.Sheydayeva oʻlchovli baholashni subyektiv baholashning soʻz yasalish kategoriyalaridan bir turi sifatida ajratib koʻrsatadi [4, 262].

Lingvistik darajalanish predmetga soʻzlovchining leksik, frazeologik, soʻz yasalishi, morfologik, sintaktik va h.k. vositalar orqali oʻlchovli munosabati hisoblanadi. Baho predmetga subyektning munosabati, lingvistik darajalanish esa shu munosabatning oʻlchovlarda ifodalanishidir. Baholash strukturasining tarkibiy qismlaridan biri bu baholash shkalasi (individual yoki umumiy qabul qilingan) boʻlib, har qanday artibutning maʼlum qiymatlari meʼyor bilan bogʻliq holda ushbu shkalada ifodalanadi. Baholash soʻzlovchining meʼyor haqidagi qarashlari (*hajmi, shakli, sifati, miqdori, intensivligi* va boshqalar) asosida amalga oshiriladi.

Baho munosabatida, dastavval, maʼlum bir belgi ifodasining yuqori yoki past darajasi aniqlanadi va shu asosda ushbu belgiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi. Ushbu holat har qaday bahoning asosida oʻzgaruvchan yoki oʻlchanadigan belgi yotishini tasdiqlaydi. Masalan, belgi darajasining

yaxshi yoki yomonligi bevosita belgining me’yorda yoki me’yorda emasligini ko‘rsatadi.

Darajalanish jarayoni baholash mexanizmining asosiga quriladi. Darajalanish psixologik jarayon sifatida o‘z-o‘zidan o‘lchov va hisobga daxl qiladi. Masalan, «A» (har qanday predmet) «B» (har qanday predmet) dan ko‘ra katta degan xulosaga kelishimiz uchun, avvalo, «A» va «B»ning o‘lchovlari bo‘yicha haqiqiy bilimga ega bo‘lishimiz kerak [7, 279].Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday bahoning ostida bilim yotadi. Darajalanish kategoriyasi baholash kategoriyasidan oldinda turadi, aks holda baholashning imkoni bo‘lmaydi.

Tilshunoslikda bosqichma-bosqich baholash tushunchasi ajratiladi, u biror narsaning darajasi sifatini ko‘rsatish, belgilashni bildiradi. Bosqichma-bosqich baholashni ifodalashning asosiy obyekti, odatda, shaxs otlaridir. Masalan, shaxsning intellektual darajasini baholovchi *ahmoq* va *aqlli* so‘zlarini ko‘rib chiqaylik. Ularning lug‘atda berilishi quyidagicha:

Ahmoq [ar. – esi past, tentak] Aql bilan ish qilmaydigan, aqlga zid, be’mani ishlar qiladigan, shunday ishlarga yo‘l qo‘yadigan. *Esing kirmadi sen ahmoqning. Boshimizni baloga qo‘yib, o‘zing buyoqlarda tuproqqa qorishib yuribsan*. S.Ahmad, Ufq [1, 61].

Aqlli 1 Aqli raso; miyali. *Aqlli bola. Aqlli yigit. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini.* Maqol. *Muallim o‘rta yashar, aqlli, yoshlarga mehribon kishi edi.* Oybek, Nur qidirib. *Aqlli kishilarning sadag‘asi ketsang ham arziydi*. A. Qodiriy, O‘tkan kunlar.

2. Aql bilan vujudga kelgan; fahm-farosatdan, bilimdonlikdan dalolat beradigan. *Aqlli tadbir. Aqlli ish. Uning [Davlatyorning] ba’zan lo‘nda va aqlli gaplarini eshitganda, Elmurod huzur qilardi.* P.Tursun, O‘qituvchi.

3. Ziyrak, fahmli, hushyor (hayvon va qushlar haqida). *Aqlli it. Davraga e’lonchi chiqib: - Hov, yaxshilar, hozir biz sizlarga nomerlarni: aqlli otlar o‘yinini... ko‘rsatamiz, – dedi*. T.Obidov, Yusufjon qiziq [1,127].

Ushbu ikkala so‘zda shaxs intellektual salohiyatining darajasi berilgan bo‘lib, ularni tubandagicha tahlil qilish mumkin:

Ahmoq so‘zi kamsituvchi ma’nosiga ega bo‘lib, intellektning salbiy xususiyatini ifodalaydi, ya’ni «ahmoq»da aqlning me’yor darajasidan pastligi o‘z ifodasini topgan.

Aqlli so‘zida esa, aksincha, aqlning me’yordan yuqoriligi semasi mavjud bo‘lib, shu qirrasi bilan shaxsni ijobiy sifatlashga xizmat qiladi.

Kontekstda ifodalanayotgan *aqlli* va *ahmoq* leksemalarining leksik-semantik variantlari qarama-qarshi baholarni ifodalaydi – ijobiy va salbiy (yuqorida ko‘rsatilgandek). Biroq ushbu misolda ular oppozitsion emas, balki qiyosiy ma’no bilan sintaktik konstruksiyadan o‘rin olgan (Masalan, «Aqlli

o‘rganar, ahmoq o‘rgatar», «Aqllining yoqqan chirog‘in ahmoq urib o‘chirolmas»).

Bunday qo‘llanishda aksiologik ma’nodagi farq yo‘qoladi va me’yorda emaslik ma’nosi birinchi o‘ringa chiqadi. Shunga ko‘ra, har ikkala maqolda «ahmoq» so‘zi «shaxsni kamsituvchi, uning salohiyati darajasi pastligi» ma’nosini beradi. Bu kabi kontekstlarda baholovchi belgilarni qiyoslash ularning daraja semantikasi orqali amalga oshadi. Baholovchi leksemalarning daraja semantikasini tahlil qilish ularda me’yorga qiyoslashgina emas, balki ma’lum daraja ko‘rsatkichi ham borligini aytishga asos bo‘ladi. Bunda gradual mazmun bilvosita baholovchi leksika tarkibida mavjud bo‘ladi va u matnda faollashadi:

«Mehmon avvalgi kun *tilla*, Ikkinchi kun *nuqra*, Uchinchi kun *mis*, To‘rtinchi kun *pes»*. Maqoldagi «tilla»da qimmatbaholik, qadrlilik; «nuqra»da «tilla»ga nisbatan pastroq bahoga egalik; «mis»da esa «nuqra»ga nisbatan past bahoga egalik; «pes» so‘zida esa keskin salbiy ottenka kontekst talabi bilan reallashmoqda, ya’ni mehmondorchilikka kelingan birinchi kunda unga nihoyatda yuksak hurmat va e’tibor bilan munosabatda bo‘linishi, ehtirom ko‘rsatilishi; ikkinchi-uchinchi kunlarda bu e’tibor darajasining pasayib borishi, to‘rtinchi kunda hatto mehmonga nisbatan salbiy munosabat uyg‘onishi mumkinligi ifodalangan.

tilla →	*kumush→*	*mis →*	*pes*

Bunday baholovchi leksemalar kontekstda daraja semantikasiga ega bo‘lgani uchun ham mos tushadi. Baholovchi leksemalarning darajalanish qatorini tahlil qilish ular tarkibida me’yor qiyosigina emas, balki ma’lum daraja ko‘rsatkichi ham borligini aytishga asos bo‘ladi. Bu borada baholovchi leksemalarning bir mazmunga turli xil baho berish nuqtayi nazardan ma’nodoshlik hosil qilishi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Kommunikativ vaziyatga ko‘ra, so‘zlovchi o‘z nutqida ma’lum bir belgining darajasini ifodalash uchun u yoki bu leksemadan foydalanadi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida baholash darajasini ifodalayotgan yuqoridagi leksemalarning semantikasiga e’tibor qaratamiz.

Tilla [f. oltin, zar] **1**.ayn.oltin **1**. *Bir gramm tilla. Shu paytdan tillaga ishqi tushib qolganiga o‘laymi u* ***xumparning****.* F.Musajonov. Himmat.

2. Shu metalldan zarb qilingan pul, undan yasalgan qimmatbaho buyum; boylik. *[Kanizakning] ko‘mib qo‘ygan tillasi yo‘qdir, ko‘mib qo‘ygan tillasi bo‘lganda, bo‘ydoq yigitga tegar edi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

3 tar. Qiymati o‘n so‘mga teng bo‘lgan tilla tanga. *Hoji kulimsirab, qo‘lidagi uch-to‘rtta oq tanga bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

4 koʻchma. Eng yaxshi, qimmatli narsa yoki sevimli kishi haqida. *Nigora koʻrpada chalqancha yotib, xayolga choʻmdi. «Dadang bilan birga ovga ham chiqqanmiz, tilla odam edi», dedi oʻsha choʻpon. Dadasi tilla odam boʻlganmi-yoʻqmi – Nigora bilmaydi.* S.Anorboyev, Oqsoy. - *Joʻravoyni aytmaysizmi! Men odamning bunaqa tillasini koʻrmaganman, – dedi Umurzoq ota.* H.Gʻulom, Mashʼal.

5 bot. Vohalarda, sugʻoriladigan yerlarda oʻsadigan koʻp yillik, yalpoq boshoqli oʻsimlik. **6.** Tilla (erkaklar va xotin-qizlar ismi) [1, 262].

Metallning ushbu xususiyati ajdodlarimiz tomonidan ham anglangan va ijodkorlarimiz oʻz asarlarida bundan unumli foydalanishgan. Chunonchi, «Oʻtkan kunlar» romanida Homid sabab Otabek va Kumush taqdiri chigallashadi. Otabekdan nooʻrin ranjib maktub yozgan Kumushga Otabek quyidagicha javob xati yoʻllaydi: «…Siz oʻzingizni tuproq bilan tenglashdirmakchi boʻlgʻansiz, lekin man hozir Kumushka ham qanoatlanmay Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim… Borligʻim muhabbatingiz alangasi bilan tutashqani holda zavjingiz Otabek. 26 javzo, 1265-yil. Toshkand» [8, 178]. Otabek oʻzi uchun jonidan aziz deb bilgan suyukli yoriga *Kumush* oʻrnida *Oltinbibi* degan nomni qoʻllashi ham oʻzbek xalqining ijtimoiy turmush tarzida kumushga nisbatan oltinning yuqori bahoga ega ekanligini dalillaydi.

Nuqra [kumush] poetik aynan kumush. **1.** Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element, oq koʻkish rangli yaltiroq, asil metall. *Analitik ishlarning talaygina qismi ruda materiallaridan oltin, kumush, rux va boshqa nodir elementlarni aniqlash bilan bogʻliqdir.* «Fan va Turmush»

2. Kumushdan ishlangan**,** kumush ishlatilgan. *Kumush tanga. Kumush barkash. Mehmonxonasidagi ikki kumush qandil porillab yonib turibdi.* K. Yashin, Hamza. **3** koʻchma. Kumushga nisbat bildiradi. *Kumush tola. Tashlandiq, tegirmonning chirik novidan suv mayda kumush tomchilarni sachratib, guvullab otiladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. **4.** Kumush (xotin-qizlar ismi) [1, 935].

Mis [mis] Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element; yumshoq (qayishqoq va choʻkichlanuvchan) qizgʻish rangli metall. *Sof mis. Qizil mis. Sariq mis. Mis qotishmalari. Mis, volfram, qoʻrgʻoshin, rux, oltin va boshqa rangli maʼdanlar yetqazib berish koʻlami ancha kengaydi.* «Fan va turmush». *Qambar ixcham yarqiroq mis chilimni olib ketdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. [1, 205].

Koʻrinadiki, izohli lugʻatda *kumush* va *mis* soʻzlarining shaxsga nisbatan sifatlash mazmunida qoʻllanish holati izohlanmagan. Shu bilan birga Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da kumushning qimmatbaholik xususiyatiga ham daxl qilinmagan, ammo «Oʻzbek tilining etimologik lugʻati» muallifi metallning bu jihatiga eʼtibor qaratgan. Chunonchi lugʻatda oʻqiymiz**: Kumush** oq-koʻkish

rangli qimmatbaho ma’dan. *Kuzgi qatiq, kumush qoshiq* – kuyovlarga berguli (Matal). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli koʻmoʻsh tarzida talaffuz qilingan (PDP,397; Devon, I,351; DS, 326), oʻzbek tilida oʻ unlilarining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan: koʻmoʻsh – kumush. Bu ot oʻzbek tilining ayrim shevalarida komish (koʻmish) tarzida buzib talaffuz qilinadi [2,217].

Ammo ushbu lugʻatda misga tannarx jihatdan baho berilmagan. Mana shu asosning oʻziyoq oʻzbek ijtimoiy hayotida kumushning misdan qimmatroq metall boʻlganligini asoslaydi va ushbu kognitiv ma’no yuqoridagi maqolning yuzaga kelishiga asos boʻlgan.

Maqolda *pes* leksemasi *mis* soʻziga nisbatan qofiyadoshlikni hosil qilgani hamda mehmonga nisbatan eng yuqori hurmatni ifodalagan *tilla* soʻziga shu belgiga teskari semani ifodalash xususiyatiga ega ekanligi asos boʻlgan. Chunki xalq maqollarida *pes* soʻzining eng yomon, salbiy xarakter xususiyatga ega boʻlgan va shu jihatlari bilan insonlarda nafrat uygʻotadigan kishilarga nisbatan qoʻllanilishi koʻp uchraydi: *Pes pesni qorongʻuda topadi. Pesning chekiga maxov tushibdi.*

Pes [iflos, irkit; teridagi oq dogʻ; moxov] **1** *tib.* Pigment yetishmasligi natijasida terida paydo boʻladigan oq dogʻ. - *Quymuchida tangadek pesi bor… - Pes emas. Yaraning oʻrni edi-ku.* A.Qahhor, Qoʻshchinor chiroqlari.

2. Shunday kasali boʻlgan kishi. [*Mozordagi*] *Quduqning suvi faqat kasallarning, ayniqsa, pes va koʻzi ogʻriganlarning shifolanishlariga va ziyoratchilarning «tabarruk» deb olib borishlariga sarf qilinar edi.* S.Ayniy, Esdaliklar.

3 *soʻk.* Yaramas, moxov. *Pes pesni qorongʻida topar.* Maqol. [*Nor*:] *Paranjisi qursin, qaydanam shu pesni yopinib, suqmozorga bordim-u, oʻzimga dardisarni orttirdim keldim.* Hamza, Paranji sirlari. [*Yoʻlchi*:] *Gulnorni sevishimni bilardi-ya, pes chol.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sovchi qoʻydim, bermadi. Otang qurgʻur pes ekan.* «Folklor» [1, 706].

Taqdim etilgan talqin asosida belgi darajasining kamayib borayotgan gradatsiya shkalasini yaratish mumkin: birinchi belgi (bebaho, yuksak e’tibor, hurmarga sazovorlik). Ikkinchi belgi (hurmatli). Uchinchi belgi (kundalik muomalaga loyiq). Toʻrtinchi belgi (oʻzni undan uzoq tutish, ijirgʻanish, oʻzining dasturxoniga loyiq koʻrmaslik, bezish, unga toqat qilolmaslik). Bu leksemalarning maqolda yonma-yon qoʻllanilishi, baholovchi xususiyat asosida birlashishi *mehmon* soʻzi bilan bogʻliq. Demak, ushbu soʻzlar maqol tarkibida *mehmon* soʻziga assosiatsiyalanadi.

Kommunikativ vaziyatga qarab, ya’ni oʻz tanlovida qaysi darajadagi bahoni ifodalamoqchi ekanligiga koʻra shu tilda soʻzlashuvchi shaxs oʻzining nutqida til imkoniyatidagi u yoki bu leksemadan foydalanadi. *Tilla* leksemasining semasida «eng yaxshi qimmatli narsa yoki sevimli kishi»

sememasi mavjudligi uchun ham maqolda ushbu so‘zdan foydalanilgan. Keltirilgan misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ulardagi baho semalarining qo‘llanishi baho asosini tashkil etuvchi leksema sememasi darajasiga qarab belgilanadi. Leksemalarda bosqichma-bosqich semantikaning mavjudligini lisoniy tajriba yordamida xuddi shunday boshqa so‘zlarda ham kuzatish mumkin: *Kelining bitta bo‘lsa –* ***o‘tirib*** *yeysan, Ikkita bo‘lsa –* ***turib*** *yeysan, Uchta bo‘lsa –* ***yurib*** *yeysan, To‘rtta bo‘lsa –* ***yo‘rg‘alab*** *yeysan* (Bu maqolning *«Bir kelinli bo‘lsang, belingni bir joyidan tug, Ikki kelinli bo‘lsang, ikki joyidan tug, Uch kelinli bo‘lsang, ham belingni tug, ham tilingni»,* degan varianti ham mavjud).

Maqolda *o‘tirmoq, turmoq, yurmoq, yo‘rg‘alamoq* fe’llari o‘zbek qaynonalari ijtimoiy turmush tarzidagi vaziyatidan kelib chiqqan holda qo‘llangan bo‘lib, ushbu darajalanish qatori tashvishning ortib borishini ifodalashga xizmat qilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atida *o‘tirmoq* fe’lining o‘n ikki xil ma’nosi izohlangan bo‘lib, quyidagi ma’nosi maqol shakllanishiga asos bo‘lgan:

O‘tirmoq 1 Ketni biror joyga qo‘yib, biror joyni ishg‘ol etib o‘rinlashmoq; cho‘kmoq. *Chordana qurib o‘tirmoq. Cho‘kka tushib o‘tirmoq. Oyoq uzatib o‘tirmoq. Divanda o‘tirmoq. Ko‘rpachada o‘tirmoq. Stulda o‘tirmoq. Bu holdan achchig‘langan Qayum yonimga kelib o‘tirdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Gulnor deraza ostiga ko‘rpacha solib, qizni o‘tqazdi va o‘zi yaqin o‘tirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar [1, 457]. Izohdan ko‘rinadiki, inson bir joyda o‘tirganda undan ortiqcha jismoniy harakat talab qilinmaydi va ko‘p kuch sarflanmaydi.

Turmoq fe’li esa lug‘atda o‘n ikki xil ma’nosi jihatidan izohlangan bo‘lib,1-, 10- va 12-ma’nolari maqolning shakllanishiga asos bo‘lgan:

Turmoq 1 Oyoq uzra tik vaziyatda bo‘lmoq. *Oyoq uchida turmoq. Saf tortib turmoq. Ko‘cha boshida turgan yigit. Tiz cho‘kib yashagandan tik turib o‘lgan yaxshiroq.* Maqol. *[Yo‘lchi] Qo‘l qovushtirmadi, qandaydir xomushlik, beparvolik bilan jimgina turdi.* Oybek, tanlangan asarlar. *Kirsam, Qo‘qonga ketgan Qayum ponsad uch-to‘rt yigiti bilan qushbegining qarshisida turibdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

10 Yotgan, o‘tirgan va sh.k. holatdan gavdasini tik holatga olmoq, qaddini tiklamoq. U vannada qancha yotgani bilan dili ravshan tortmasligini bilib, o‘rnidan turdi. M.Xayrullayev, Tilla marjon. Shiyponda o‘tirgan Nodir bobosini ko‘rib, shoshib o‘rnidan turdi-yu, ko‘ngli buzilib, salom berishniyam unutdi. S.Yunusov, Kutilmagan xazini.

12 *ko‘chma.* Harakatga kelmoq, qo‘zg‘almoq, ko‘tarilmoq (shamol, chang-to‘zon va sh.k. haqida). *Keyin dovul turdi…Mo‘ytanlar qocha boshladi*. A.Muxtor Qoraqalpoq qissasi. *Shamol turdi, chinor yaproqlarining soyasi titray boshladi*. Gazetadan [1, 437].

Turmoq fe’lida oyoq uzra tik turmoq; yotgan, o‘tirgan va sh.k. holatdan gavdasini tik holatga keltirib, qaddini tiklamoq; harakatga kelmoq, qo‘zg‘almoq, ko‘tarilmoq kabi ma’nolar ifodalangan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *yurmoq* fe’lining o‘n besh ma’nosi izohi keltirilgan bo‘lib, quyidagi ma’nolar maqol mazmuniga muvofiq keladi.

Yurmoq 1. Qadam tashlab olg‘a bosmoq, qadamlab jilmoq. *Tez yurmoq. Sekin yurmoq. Oqsab yurmoq. Ot yurmay turaverdi. Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra.* Maqol. *Kampir yurganda, hech qanaqa ovoz chiqmasdi…Oyog‘i xuddi pardek yerga beozor tegardi.* S.Ahmad, Ota. *Men ana u so‘qmoqdan yursam ham bo‘ladi.* A.Qahhor, Xotinlar. *Chol ot jilovini siltadi. Otlar yurib ketdi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.

2. Ma’lum yo‘nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, bormoq yoki ketmoq(asosan transport vositasi haqida). Mashina chap tomonga yurdi. Traktor bedazorga qarab yurdi. Katta arava qay yo‘ldan yursa, kichik arava ham shu yo‘ldan yuradi. Maqol. Shaharda ko‘nkani ilgari ot surgar edi. Mana endi ko‘nka otsiz yuribdi. Oybek, Tanlangan asarlar…

3. Umuman, bir joydan jilmoq, siljimoq (suzmoq, sudralmoq, o‘rmalamoq va sh.k.). Hovuzchada o‘ntacha baliq yuripti. Dasturxon ustida chumoli yuripti. Qurt novdadan yurib, gulga yetdi [1, 289].

Izohdan ma’lum bo‘ladiki, *turmoq* fe’liga nisbatan *yurmoq* leksemasida qadam tashlamoq, bir joydan boshqa joyga tomon harakatlanish, ma’lum yo‘nalish bo‘ylab borish, bir joydan boshqa joyga jilish ma’nolari mavjud.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *yo‘rg‘alamoq* fe’lining to‘rt ma’nosi izohi keltirilgan bo‘lib, ulardan quyidagilari maqol mazmuni shakllanishiga asos bo‘lgan:

Yo‘rg‘alamoq 1. Yo‘rg‘a yurish qilmoq (ot, eshak haqida*). Abdusamad amakining orqasiga mingashib oldim. Ot yo‘rg‘alab ketdi.* M.Mansurov, Yombi. *Tagimdagi qashqa do‘non bir me’yorda yo‘rg‘alaydi*. M.Xayrullayev, Tilla marjon.

2. Umuman, mayda va tez qadam bilan yurmoq. *Buxgalter so‘ridan tushib, to‘y bo‘layotgan hovli tomon yo‘rg‘aladi.* M.Hazratqulov, Jur’at. *Shunday yo‘g‘on bo‘lishiga qaramay, bedanaday yo‘rg‘aladi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari [1,320].

Demak, *yurmoq* fe’liga nisbatan *yo‘rg‘alamoq* leksemasida yo‘rg‘a yurish qilmoq, mayda va tez qadam bilan yurmoq ma’nolari mavjud bo‘lib, bunda harakatning yanada kuchayib borishini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqolda:

o‘tirmoq →	*turmoq →*	*yurmoq →*	*yo‘rg‘alamoq*

fe’llari harakat sur’atning oshib borishi ma’nosi bilan darajalanish qatorini hosil qilgan va ushbu darajalanish qatori asosida o‘zbek oilalarida

kelinlar soni oshib borishi bilan qaynonaning tashvishlari ham ortishiga sha’ma qilingan.

Ushbu maqolda darajalanish ifodasi nafaqat fe’llarda, balki sonlarda ham kuzatiladi:

bitta →	*ikkita →*	*uchta →*	*to‘rt*

Tahlilga tortilgan ushbu maqoldagi leksemalarda darajalanish hodisasi yaqqol ko‘rinib turgan bo‘lsa-da, baholash tagmatndan anglashilmoqda. Ya’ni kelin bitta bo‘lsa, barcha yumushlar faqat o‘zi tomonidan bajarilishi lozimligini yaxshi biladi, bajaradi va bu qaynonaning xotirjamligiga asos bo‘ladi. Kelin ikkita bo‘lgach, bajariladigan kundalik yumushlarni bir-biriga to‘nkash boshlanadi va sansolorlik oqibatida qaynonaning xotirjamligi yo‘qoladi. Kelinlar soni ortib borgan sayin vaziyat yanada chigallasha boradi, salbiy vaziyatni bartaraf etish uchun qaynona kelinlik yumushlarini ham o‘zi bajarishga kirishadi. Tagmatndan umumiy ma’noda kelinlar sonining ko‘payishi bilan ularning xarakter-xususiyatidagi salbiy qusurlar yuzaga chiqishi anglashilmoqda.

Darajalanuvchi leksemalar izohidan ayonlashadiki, o‘zbek xalq maqollarida darajalanish uchun asos bo‘luvchi baho ikki xil yo‘l bilan yuzaga chiqadi:

1. Lisoniy vositalar orqali: Bola *chaqqonning* bir qo‘lini bog‘lar, *sustkashning* – ikki qo‘lini. *Aqlli* ishiga ishonadi, *ahmoq* tushiga ishonadi. Ushbu maqollardagi *chaqqon, sustkash; aqlli, ahmoq* leksemalarining o‘zida ijobiy va salbiy baho mavjud.

2. Tagmatn orqali: *Yoz oftobiga* keliningni o‘tqaz, *kuz oftobida* – qizingni. Bu maqol yomon qaynonalar tilidan aytilgan. Lolaqizg‘aldoq oftobini «Yoz oftobi» deydilar. Bu paytda (yozda, ya’ni kech bahorda) oftob kishining yuzini tezda qoraytiradi, xunuk qiladi. Kuz oftobi esa mo‘tadil bo‘lib, yuzning rangini toza va xushro‘y qiladi. Yuqoridagi maqolda yomon qaynonalarning kelinni xunuk, qizni esa chiroyli qilish niyati o‘z ifodasini topgan. [3, 101].

Dehqon yog‘sa tinar, *cho‘pon* o‘lsa tinar. Mazkur maqolda cho‘ponning mehnati tinimsiz ko‘p ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Dehqon bahorda ekkan-tikkanini kuzda yig‘ib olgach tinadi, yanagi bahorgacha nafas rostlab oladi. Ammo cho‘ponning ishi bunday emas. U bahorda tug‘ilgan qo‘zi va ulog‘ini yoz bo‘yi avaylab, boqadi. Qish kirgach, battar qiyin holga duch keladi. Bahor kelgach qo‘ylari yana qo‘zilaydi… Xullas, cho‘pon yil mobaynida biror kun ham tinim bilmaydi [3, 80].

Maqollar tahlilidan ravshanlashadiki, baholash tagmatn orqali, ya’ni qaynonaning qizini ayab, keliniga yaxshilikni ravo ko‘rmaslik xususiyatlariga egaligi, eshituvchida qaynonaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirmoqda. Maqolda qaynonaning sifati aynan keltirilmagan. Uning qizi

va keliniga bo‘lgan munosabatidan undagi salbiy baho oydinlashgan. Yoki dehqon va cho‘pon mehnati solishtirilganda, dehqonga nisbatan cho‘ponning mehnati qiyin va og‘irligi, uzoq vaqt talab qilishi birgina «o‘lsa» (hech qachon) jumlasi orqali aks ettirilgan. Ammo dehqon va cho‘ponga nisbatan alohida baholovchi leksemalar qo‘llanmagan. Tahlilga tortilgan maqollardagi izohlanayotgan leksemalarda tagmatndan anglashilgan baho ostida daraja ham yotibdi. Ya’ni qaynona uchun kelinidan ko‘ra qizi ustunroq; cho‘ponning yil davomida bajaradigan yumushi dehqonnikiga nisbatan mushkulroq.

kelin →	qiz

dehqon →	cho‘pon

Umuman olganda, bosqichma-bosqich ketma-ketlik uchun nuqson, kamchilik, illat me’yordan pastlik sifatida; aksi esa me’yordan yuqorilik belgisi sifatida belgilanishi mumkin. Obyektni tanlashda me’yorning yuqori yoki quyiligi uning ideal tasviridan kelib chiqib aniqlanadi (Masalan, tilla, kumush, mis, pes).

Shunday qilib, lisoniy birliklarni til va nutq materiallari asosida tahlil qilish baholashning asosida darajalanish hodisasi yotishini ko‘rsatadi. Baholash kategoriyasi turli sath birliklari asosida amalga oshiriladi. Baholovchi leksemalarning darajalanish qatorini tahlil qilish ular tarkibida me’yor qiyosigina emas, balki ma’lum daraja ko‘rsatkichi ham borligini aytishga asos bo‘ladi. Bu borada baholovchi leksemalarning sinonimik qatorlari ko‘rsatkichdir. Semantik darajalanish ham umumiy, ham maxsus baho turlariga xos bo‘lib, ulardagi darajalanish baholovchi leksemalarning nutqda qo‘llanilishiga ta’sir qiladi. Kommunikativ vaziyatga qarab tildan foydalanuvchi shaxs o‘z nutqida u yoki bu leksemani (sinonimlardan tanlab) qo‘llaydi. Bu qo‘llash so‘zlovchining istak-xohishiga ko‘ra yuz beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. I jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 61.
2. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 217.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 101.
4. Шейдаева С. Г. Категория субъективной оценки в русском языке. — Ижевск: Удмуртский университет, 1997. – 262 с.

5. Маркелова, Т. В. Семантика оценки и средства ее выражения в русском языке [Текст]: учебное пособие по спецкурсу / Т. В. Маркелова. – М.: МПУ, 1993. – 125 с.
6. Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки [Текст] / Е. М. Вольф. – Изд. 2-е, доп. – М.: Едиториал УРСС, 2002. – 280 с.
7. Колесникова, С. М. Функционально- семантическая категория градуальности в современном русском языке [Текст] / С. М. Колесникова. – М.: Высшая школа, 2010. – 279 с.
8. O‘tkan kunlar. Sharq. – Toshkent, 2005. – B. 178.
9. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 83-85.
10. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol.fan.nom. …diss. – Toshkent, 1994.

ONA TILIMIZ TEVARAGIDA BIRLASHISH, JIPSLASHISH – DAVR TALABI

Sobirov Abdulhay Shukurovich
filologiya fanlari doktori, professor,
Andijon davlat universiteti

Djurabayeva Zamira Ahmedovna
falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent,
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Maqolada bugungi global dunyoda o‘zbek tilining tutgan o‘rni, uning davlat tili sifatida mamlakatimiz va jahondagi nufuzi, bu boradagi rejalar va bajarishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqida so‘z yuritildi.*

Kalit so‘zlar: *til, dunyo tillari, milliy tillar, ingliz tili, global dunyo, davlat tili, farmon, konsepsiya, vazifalar, ijro mexanizmi, lug‘at, so‘z boyligi, til sohiblari.*

Bugun mamlakatimizda “Bir bo‘lsak – yagona kuchmiz, birlashsak – Vatanmiz!” shiori ostida keng ko‘lamda yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilayotgani hammamizga kundek ravshan masala. Mazkur jarayonda jamiyatimizning asosiy ko‘zgusi sanalgan o‘zbek tilining o‘rni juda katta ekani hech kimga sir emas. Hozirgi bosqichda ona tilimiz millatimiz tafakkurining va oliy maqsadlarimizning betakror ifodasi, Uchinchi Renessansning o‘ziga xos sadosi sifatida butun dunyo bo‘ylab baralla yangrayotgani ham ayni haqiqat.

Ma’lumki, til atamasi ostida muayyan xalqning taqdiri, orzu-umidlari, shodon kunlari-yu qayg‘ulari, bir so‘z bilan aytganimizda, butun bir tarixi yastanib yotadi. O‘zbek millati dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgan buyuk xalqlardan biri sifatida o‘zining qadim va boy tiliga egaligi bilan ham ajralib turadi. O‘zbek tili turk hoqonliklari, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G‘aznaviylar, Kushon va Temuriylar imperiyasi, o‘zbek xonliklari davrida Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan behisob xalqlar va elatlar tilidan suv ichgan azim til daryolaridan biridir. U turkiy tilning shajara daraxtidagi eng baquvvat novdalardan sanaladi. O‘zbek davlatchiligi tarixi to‘rt ming yillik tarixga ega bo‘lgan bo‘lsa, tilimiz ham shuncha yillik tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan. Qadimgi Xorazm, so‘g‘d, massaget, skif, sak, ashino va boshqa qabilalarning tillari qanday bo‘lgani hozirda bizga ma’lum emas, lekin turkiy tillarning, jumladan, o‘zbek tilining ular negizidan o‘sib chiqqanligi, arab hamda forsiy tillar aralashuvida o‘z taraqqiyotining yuksak davrlarini boshidan kechirgani tarixiy fakt. Ko‘plab manbalarda ta’kidlanganidek, 92 bovli o‘zbek yurti (xalqi) shuncha miqdordagi tarix quroqlaridan emas, balki eng qimmatbaho olmoslardan saralanib yaratilgan xalqlardan biridir.

Yuqoridagi shior bekorga aytilgan emas. Ko‘hna va hamisha navqiron Xorazm, mag‘rur Qoraqalpog‘iston, afsonalarga boy Samarqand-u Buxoro, Navoiy, polvonlar yurti Surxondaryo va Qashqadaryo, mo‘jizalar makoni Jizzax va Sirdaryo, azim Toshkent, “oltin vodiy”dagi uch pahlavon: Andijon, Farg‘ona va Namangan – bular barchasi birlashib ona O‘zbekistonni tashkil etadi. Uni esa biz tilimiz bilan alqaymiz, yuragimizdagi beadad his-tuyg‘ularni bayon etamiz, sha’nini ko‘klarga ko‘taramiz. To‘g‘risini aytganda, hayotda topgan eng qimmatbaho boyligimiz, dunyolarga alishmaydigan qalb gavharimiz bu – bizning ona tilimiz **o‘zbek tilidir!**

Uning taqdiri ustida bosh qotirish, ona tilimizning shon-sharafi, kelajagi uchun qayg‘urish shu yurtda yashayotgan har bir insonning xalqimiz oldidagi chinakam farzandlik burchidir.

O‘zbek tili bugun dunyo tillari silsilasida tinimsiz harakatda. Bir dam to‘xtab qolsa, boshqa til daryolari o‘zaniga qo‘shilib ketayotgandek... Birgina misolni keltiraman. Yaqinda Parij shahrida bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida shohsupaning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan Diyora Keldiyorovaning raqiblar bilan olib borgan murosasiz kurashlariga guvoh bo‘ldik. Sharhlovchining tilidan uchgan *dzyudo, raqib, hakam, tablo* degan so‘zlarni avvallari ham eshitgandik, ammo Diyora bilan birga *ippon, vazari, koko, yuko, tatami* kabi so‘zlarning o‘zbek tilida qo‘llanilishi faollashdi, desak yanglishmayman.

Dzyudo yaponcha 柔 – *dzyu,* 道 – *do*, ya’ni *yengil, yumshoq yo‘l; moslashuvchan, egiluvchan usul* degan ma’nolarni anglatadi. *Ippon* – dzyudagi eng oliy baho, sof g‘alaba, *vazari* – raqibidan ustun kelish maqsadida bajarilgan

texnik harakatlar uchun beriladigan ball, *yuko* – jarima bali ma'nolarini anglatadi [1]. Biz bularni bilib oldik.

Bokschilarimizning sharofati bilan *apperkot* – yaqindan pastki qismga zarba berish, *djeb* – to‘g‘ridan boshga berilgan qisqa zarba, *kross* – raqibning qo‘li ustidan berilgan javob zarbasi, *pancher* – bir zarba bilan nakaut qilishgaa qodir sportchi, *xuk* – qisqa yon zarba, *bulling* – raqibning gavdasiga to‘xtovsiz berilgan zarbalar [2] to‘g‘risida ham tushunchalar hosil bo‘ldi. Bular o‘zbek tilining dunyo miqyosiga chiqayotgani, xorijiy so‘zlarni o‘zlashtirish hisobiga boyib borayotganiga yaqqol dalil. Bu jarayondan qochib bo‘lmaydi.

Xorijiy leksik birliklar ishtirokida yarim kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlar miqdori ham o‘zbek tilida keskin oshib bormoqda. Bunga *sun'iy intellekt, raqamli imzo, raqamli hukumat, IT markazlar, startap loyiha, kiberjinoyat, kiberxavfsizlik* kabi leksik birliklarni misol qilishimiz mumkin.

Ammo, masalaning ikkinchi tomoni ham bor... Yaqinda qurilish mollari do‘konida bo‘ldim. Do‘kon xalq tili bilan aytganda, “xilma-xil xitoy” tovarlariga to‘la. Ustadan so‘radim: “*Hammasi Xitoydan keladimi?” “Yo‘q! U davrlar o‘tib ketgan, 90 foizi o‘zimizniki...*” degan javobni eshitdim. Ishonch hosil qilish uchun tovarlarning yorliqlarini birma-bir o‘qib ko‘rdim. Haqiqatan, o‘zimizning milliy mahsulotlar, ammo ularga qo‘yilgan nomlarning aksariyati chet tilida, aniqrog‘i, ingliz tilida yozilgan (?!) Mayli, ularni ishlab chiqarayotgan korxonalar o‘z mahsulotlarini chetga eksport qilsa, tushunarli, biroq umrim davomida bironta chet ellik kelib bu mahsulotlarni sotib olganini ko‘rmadim. Eksport qilganda mahsulotlarni o‘zbekcha nom bilan chiqarsak, ona tilimizning jarangi o‘sha yerlargacha borib yetmaydimi?! Ishonchim komilki, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning aksariyati milliy brend nomlar emas. Masalan, *keramzin, penoblok, gipsoblok, shlakoblok, yevrozabor, profnastil, akfa rom, paddon, cherepitsa, bordyur, gebion setka, orksteklo...* ro‘yxatni uzoq davom ettirishimiz mumkin. Ularning o‘rniga *koshin, yengilg‘isht, ohakg‘isht, toshg‘isht* kabi atamalarni qo‘llasak bo‘lmaydimi? Bo‘ladi. Faqat mahsulotlarni yaratuvchilar ham, sotuvchilar ham, oluvchilar ham buning ustida o‘ylab ko‘rmaydi. Hammasi xorijiy nomlarni o‘zbekcha nomlardan baland qo‘yish bilan band. Go‘yo shunday deb atalsa, mahsulotning qiymati oshayotgandek, sifati yaxshilanayotgandek... Hech birimiz bu bilan ona tilimizning nufuzini paymol etayotganimiz haqida o‘ylamaymiz. Hamma insonlar o‘zi suv ichayotgan oqin suvga e'tiborsiz bo‘lsa, u nariga bormay loyqalanib, ichishga yaroqsiz bo‘lib qolishi mumkin. Til ham shunday – oqar daryo. Suvning iste'molga yaroqli bo‘lishiga ariq yoqasida turgan har bir inson, kattami-kichikmi, birdek mas'ul bo‘lgani kabi tilimiz ravnaqiga, sofligiga, boqiyligiga shu tilni ko‘tarib yurgan barchamiz birdek javobgar ekanimizni unutmang!

Bolalarimiz uchun *“Kissi Missi”, “Lisa Plyushka”, “Gus Oskar”, “Kot Belyash”, “Kombat Amerika”, “Sozzy”* kabi o‘yinchoqlarni sotib olib berayotganimizda, “*Nutrilak”, “Hippi”, “Frikolac”, “Bebevit”* singari ichimliklarni ichirayotganimizda, ular bilan birga chet tillardagi yozuvlarni ham targ‘ib qilayotganimizni bilamizmi?!

Birgina misolni keltiraman. Uyimiz yonidagi marketdan qatiq sotib oldik. Sigir –o‘zimizniki, undan olingan sut – o‘zimizniki, egasi – o‘zbek, iste’molchilari ham hamyurtlarimiz. Ammo, nom aralash, tushunib bo‘lmaydigan: “SADAF SUT SMONS”. (1-расм)

1-rasm.



Mahsulot nomi, birinchidan, o‘zbek tilining qonun-qoidalariga, so‘z birikmasi yasash talablariga javob bermaydi. Ikkinchidan, inglizcha “SMONS” so‘zining nima sababdan mahsulot nomida qo‘llanganini tushunmadim?! Lug‘atni ochib ko‘rdim: “SMONS” so‘ziga izoh topolmadim. Internetda shunday nomdagi *kriptovolyuta, kasallik, divan, tarmoq, korxona nomlari* uchradi, ammo ma’nosi noaniq; Simondanmi, Saymondanmi – bilmadim!? Bunday nomlar tilimizda o‘nta, yuzta, mingta emas, o‘n minglab uchrayapti.

Bugungi global dunyo qonunlari shafqatsiz, u o‘z domiga taqdir oldida ojiz qolgan mamlakatlar va xalqlarni so‘zsiz tortib ketmoqda. Bu xavf dunyodagi barcha tillar boshiga qora soya solib turibdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlashma so‘zlarining 395 tilda ishlangan bazasi **(**The World Loanword Database – WOLD) mavjud, dunyo tillaridan 369 tasi so‘z beruvchi til (donor til), 41 tasi so‘z o‘zlashtiruvchi til, 15 tasi esa har ikkala guruhga ham kiruvchi til sifatida ko‘rsatilgan [3].

O‘zbek tili faqat so‘z o‘zlashtiruvchi til bo‘lib qolmasligi kerak. Bu kabi masalalar ustida tadqiqotlar olib borish kelajakda tilshunoslikning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan birini tashkil etishi aniq.

Yana bir mulohaza: golaballashuv internet vositasida tilimizga minglab yangi atamalarning kirib kelishiga sababchi bo‘lmoqda. Ular asosan iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, texnika sohalarigi tegishli leksik birliklar sanaladi.

O‘z tilimizda ta’lim, maorif, tarbiya, ma’rifat bilan bog‘liq minglab teran ma’noli leksik birliklar bor bo‘lgani holda, “*Makro Educacion”, “Comfort Educacion”, “Smart Educacion”, “Future Educacion”, “Profi smart*

Educacion", "Ferghana smart Educacion", "Korean Educacion Center" kabi nomlardan foydalanishimiz ajablanarli?!

To‘g‘ri, hozirda dunyo bo‘ylab tuzilayotgan savdo bitimlarining 90 foizi, axborotlar oqimining 80 foizi ingliz tilida kechmoqda. Bu degani o‘zbek tiliga o‘zlashmagan *hotel, hostel, kids, hause, open, golden, silver* kabi leksik birliklarni har qadamda qo‘llash degani emas!?

Tilmizda mavjud bo‘lmagan **karting** – *bank kartalari asosidagi firibgarlik,* **fishing** – *shaxsiy ma'lumotlarni o‘g‘irlash,* **zerokoder** – *til bilimisiz dasturlashsh bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis,* **trendvotcher** – *siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayotning yangi yo‘nalishlari bilan shug‘ullanuvchi xodim s*ingari so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilishimiz; *dasturchi, dasturlash, kibermakonvirtual do‘st, virtual olam, verbal tafakkur, verbal metod, verbal intellekt; smartfon, smart mahalla, smart-soat* kabi leksemalarni kalkalab olishimiz o‘rinlidir, buni zamonning o‘zi taqozo etmoqda. Lekin, tilga bo‘lgan munosabatda xolis turib, o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi so‘zlarga jiddiy e'tibor qaratib, masalani tezkorlik bilan hal etmasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin.

Ab'yuz – *internet orqali biron kimsaning sha'niga dog‘ tushirish*; **bodipozitiv** – *tashqi ko‘rinish asosida qabul qilish*; **gazlayting** – *ma'lumotni buzishga, insonni chalg‘itishga qaratilgan, ruhiy zo‘ravonlikning biri turi*; **tulpa** – *o‘z-o‘zini gipnoz qilish mahsuloti; xayoliy do‘st*; **xarasment** – *psixologik zo‘rovonlik* va shu kabi leksemalar bunga misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda soha vakillari bilan tilshunoslarning mushtarakligi, yakdilligi kerak bo‘ladi. Hamma o‘z holida ish ko‘rsa, bundan ona tilimiz ozor chekadi.

Shularga asoslanib, o‘zbek tilini asrab qolish va butun boyligi, nafosati bilan kelajak avlodga qoldirish uchun quyidagi ishlarni zudlik bilan bajarish lozim deb o‘ylaymiz.

1. O‘zbek tilining mamlakatimiz ichida va xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo‘yicha xalqaro talablarga to‘la javob beradigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimini yaratish lozim. Bunga erishib bo‘lindi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktyabrdagi "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PF-5850-sonli,2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PF-6084-sonli Farmonlari ushbu olamshumul vazifani to‘la-to‘kis bajarishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir [4].

Keyingi Farmonga ilova qiligan "2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi"da bu borasida amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan barcha ishlar aniq va tiniq qilib belgilab qo‘yilgan.

Asosiy vazifa ularga amal qilishda qoldi.

Kelgusida “Davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan 2-bobda **“***mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish*” masalalariga alohida e’tibor qaratishimiz lozim bo‘ladi [5].

2. Ta’kidlangan vazifalarni bajarishga birinchi galda biz – tilshunoslar mas’ulmiz va bu ishda jamiyatning lokomativi bo‘lishimiz talab etiladi.

3. O‘zbek tili bo‘yicha bilimlarni baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish davri keldi. Ingliz, rus, nemis tillarini xalqaro baholash mezonlari ishlab chiqilgan va u amaliyotda keng foydalaniladi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan selektor yig‘ilishida davlat tilini rivojlantirish, milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga yangi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama haq belgilash bo‘yicha tegishli topshiriqlar bergani ham bejiz emas.

4. “Ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish”, “ta’limning barcha bosqichlarida davlat tili o‘qitilishi hamda o‘zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish; o‘zbek tili o‘quv leksikografiya tarmog‘ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish; oliy ta’lim muassasalarining filologiya ta’lim yo‘nalishlarida “Kompyuter lingvistikasi”, “Amaliy filologiya” yo‘nalishlarini tashkil qilish; o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodikasini yaratish” ishlarini jadal amalga oshirishimiz lozim.

5. “O‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish; o‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish; o‘zbek tilidagi matnlar tahririga mo‘ljallangan kompyuter

dasturlarini yaratish; o‘zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiligatarjima qiluvchi kompyuter dasturini yaratish; davlat tilida yaratilgan dasturiy ta’minotlarning yagona sertifikatlash va standartlashtirish xizmatini joriy etish; xorijda o‘zbek tilining xalqaro nufuzi, jozibadorligi va imkoniyatlari haqida ilmiy anjumanlar, davra suhbatlari, muloqot va suhbatlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish” ga ham alohida e’tibor qaratish ishlari ham birinchi galdagi vazifalarimizdan sanaladi [5].

6. Aholi o‘rtasida davlat tilini targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishimiz, millatdoshmizda milliy g‘urur, o‘z tilidan faxrlanish, unga mehr-muhabbat bilan qarash tuyg‘ularini rivojlantirishimiz zarur.

7. To‘g‘risini aytganda, til masalasi faqat tilshunoslarning ishi emas. O‘zini “ziyoliman”, “jamiyatda o‘rnim bor” deb yurgan har bir millatdoshimizning, tildoshimizning zimmasidagi sharafli va ayni chog‘da mas’uliyatli ishdir bu. Dunyoda yetakchi tillarga aylangan millatlar misolida qarab ko‘ring. Ular matematikmi, fizikmi, kimyogarmi, muhandismi, doktormi, bundan qat’i nazar, barchasi bir musht bo‘lib, jips bo‘lib, o‘z tili, o‘z millati taqdiri ustida jiddiy bosh qotirishmoqda, hamkorlik asosida lug‘atlar, ma’lumotnomalar, qomuslar va h.k.larni chop etishmoqda. Til masalasida eng kichik muammogacha barchasi birgalikda harakat qilib, yechimini topishmoqda. Demak, biz ularning tajribasini o‘rganishimiz, ona tilini rivojlantirishda ingliz, rus, nemis va boshqa yetakchi tillardan amalga oshirilayotgan ishlardan o‘rnak olishimiz zarur ekan.

Bu tillarga mahliyo bo‘lib buyuk vatandoshlarimizning tilshunoslik sohasidagi fikr-mulohazalarini bir chetga surib qo‘yishdan ham foyda yo‘q. Mahmud Koshg‘ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Mahmud Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat singari ulug‘larning lingvistik qarashlari biz uchunt dasturulamal vazifasini o‘tashi aniq.

Butun millat, barcha mutaxassilar bir bo‘lib, jipslik bilan ona tilimiz taqdiri ustida bosh qotirsak, birgalikda harakat qilsak, bundan faqat yutamiz va kelajak avlod oldida o‘z ona tillariga hurmat bilan qaragan, uning taraqqiyoti uchun zamin hozirlagan avlod sifatida tarixda qolamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbyek tili dunyodagi eng boy va teran tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan qadim tillardan biridir. O‘zbek tili davlat tili sifatida yurtimizdagi tabarruk va muqaddas, mo‘jizaviy buloqlardek toza va musaffo, iste’molga doim yaroqli bo‘lishi shart. Uning ichki va tashqi imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Undan o‘rinli foydalanish, tilning sofligi, tabiiyligi uchun kurashish, davlat tili me’yorlariga har on, har soniyada to‘liq rioya qilish, boshqalardan ham buni talab etish, ona tilining musaffoligini va tarovatini saqlab qolish barchamizning bizni oq yuvib, oq tarab o‘stirgan,

voyaga yetkazgan ona yurt, ONA TILI oldidagi sharafli va ayni chog‘da muqaddas burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. https://ru.sport-wiki.org/vidy-sporta/dzyudo.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B7%D1%8E%D0%B4%
3. lex.uz.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019-yil 22-oktyabr. – № 218. –1-4 b.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084son Farmoni // Xalq so‘zi, 2019-yil 20-takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni // Xalq so‘zi, 2019-yil 20-oktyabr. – № 222-223.
5. lex.uz.
6. **https://wold.clld.org.**

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL MASALALARI

Otabek Ulashevich SHUKUROV,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Maqola globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari xususida bo‘lib, o‘zbek tilining istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda globallashuv jarayonining ta’sir etuvchi omillari o‘rganilgan. Shuningdek, madaniyatlar rang-barangligi ta’sirida milliy til masalalariga ehtimoliy xavf va tahdidlarning oshib borishi, muhimi, milliy tillarning ontologik tabiatiga ham keskin ta’sir eta olishi tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar*: globallashuv, leksika, o‘zlashma so‘z, tillar, tilning boyishi.*

Globallashuv ayni bir mamlakat, mintaqa yoki jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o‘zaro yaqinlashuvi, yagona umumiylik atrofida birlashishidir. Globallashuv sivilizatsiyalar o‘zaro munosabatining natijasi bo‘lsa, sivilizatsiya – globallashuvning natijasi. Bu ikki jarayonning o‘zaro munosabati tarixiy sharoitdan kelib chiqib, «sivilizatsiya – globallashuv» yoki «globallashuv – sivilizatsiya» sifatida amalga oshgan. Bu jarayonga tortilgan millatlar tez rivojlangan [1]. Globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy xususiyatlaridan kelib chiqib, soha vakillarining bu boradagi ayrim munozarali qarashlari kuzatilyapti. Xususan,

tarixchilar bu jarayonni kapitalizm rivojlanishidagi bosqichlardan biri sifatida talqin qilishsa, iqtisodchilar moliyaviy bozorlarni transmilliylashtirish, siyosatshunoslar demokratik institutlarning tarqalishi, axborot texnologiya soha vakillari yagona raqamli makon sifatida idrok etishadi. Yana boshqalar orasida esa bu jarayonni madaniyatning g‘arbiylashuvi bilan bog‘laydiganlar ko‘p.

Tabiiyki, har qanday tilning uzoq o‘tmishida uning asrlar davomidagi kechmishini aks ettira oladigan nomlash an’anasi mavjud bo‘ladi. O‘zbek tili ham shunday tarixiy-tadrijiy bosqichlar asosida sayqallangan o‘z leksik zaxirasiga ega bo‘lib, xalq tafakkurida bunday tushunchalar ko‘proq o‘z qatlam so‘zlari motivida, ayrim o‘rinlarda o‘zlashma qatlam birliklari asosida shakllangandir. Globallashuv sharoiti tilga ham o‘zining keskin ta’sirini ko‘rsatar ekan, tildagi bunday nomlash an’analariga uning shunday ta’siri apellyativ leksika doirasida ham, onomastik leksikada ham sezila boshladi.

Mustaqillik yillarida leksikaning onomastika sohasi sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Bu bir tomondan xorijiy til neymlarining lug‘at boyligimizga o‘zlashtirilishi bilan aloqador bo‘lsa, boshqa tomondan leksikadagi zaxira fond o‘z qatlam birliklarining neym darajasiga olib chiqilishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Til muloqot vazifasini bajarishi bilan birga insoniyat madaniyati ifodasi, xalqlarning o‘tmishi, ko‘p asrlik intellektual merosini o‘zida saqlab turuvchi xazinadir. Bugungi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida o‘zbek tili mavqeining mustahkamlanib borishi, donor tillar ta’siriga raqobatbardoshligi, o‘ziga xos ontologik xususiyatlarini saqlab qolishi muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda hukumatning tilga oid maqsadli siyosati mavjud. Uning mazmun-mohiyati respublikamizda davlat tilini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, belgilangan vazifalar qatorida «o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlar asosida uzluksiz ta’limning barcha turlari uchun ... o‘zbek tiliga xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar lug‘atini tuzish, uni davriy yangilab, to‘ldirib borish»[2] masalasi ham o‘rin olgan.

Darhaqiqat, o‘zbek milliy tili lug‘at tarkibi asosi, shubhasizki, umumiste’mol leksikasidan iborat. Ta’kidlanganidek, «O‘zbek tilining umumiste’mol leksikasi yetarli darajada o‘rganilmaganligidan tashqari, bu lug‘aviy qatlam hanuzgacha o‘zining munosib atamasini ham topa olmagan» deb qaraladi[3]. Mantiqan olib qaraganda ham bu qatlam so‘zlari globallashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular maxsus leksikadan farqli o‘laroq xalq leksik fondida tarixan uzoq tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan va millat kechmishining ko‘p asrlik an’ana va hodisalarini aks ettirishi bilan xaraterlidir. Gap o‘zlashmalarning haddan ziyod va zo‘rma-zo‘raki holda tilimizga kiritilayotgani haqida ketar ekan, umumiste’mol leksika, aniqrog‘i, undagi faol leksik birliklar o‘rniga yangi o‘zlashma qatlam so‘zlarini qabul

qilish milliy til istiqboli uchun ancha ayanchli hodisalarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas.

Zamonaviy o‘zlashmalarning tilga tez singishini bugungi dunyo innovatsiyalari neonominatsiyalarining leksikaga oson qabul qilish yo‘li sifatida tushunish mumkin. O‘zlashmalarning ortishi retsipiyent til leksikasining miqdor va sifatiga ko‘ra ta’sir etishi bilan xarakterlidir. Muhimi, aktual leksikaga ta’sir o‘tkazish omili bilan belgilanadi.

Ta’kidlash joizki, globallashuvning ijobiy jihatlari sezilarli darajada bo‘lib, ularning muhimi sifatida xalqaro miqyosdagi sohalar integratsiyasi, yangi va yuksak texnologiya, innovatsiyalarni jamiyatga tez singdirish, raqamli infratuzilmaga ega bo‘lish kabilarni tushunish mumkin.

Ozarbayjon tilshunoslari globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganar ekan, madaniyat, fan, til, tarix kabi sohalarning global axborot makonida munosib o‘rin egallashi uchun ayrim muhim masalalarni ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatadilar:

– Ozarbayjon tilidagi Internet tarmog‘i axborot resurslarining yillik sarhisobini monitoring qilish, ilmiy tahlil asosida kamchilik, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbiri rejasini ishlab chiqish;

− milliy Internet resurslarini AKTning zamonaviy yutuqlariga asoslanib qayta tashkil etish, ularning sifati, yuklanishi, dizayni va samaradorligini oshirish;

– tilshunoslikning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olib ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

− tilshunoslik sohasida jahondagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirish;

− til taraqqiyoti va ta’lim masalalarini muvofiqlashtirish va takomillashtirish;

− tilshunos olimlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishini ta’minlash;

– global tendensiyalarning tilga salbiy ta’sirini pasaytirish uchun konseptual chora-tadbirlar dasturini yaratish;

− tilning kibermakondan uzilmasligi uchun faol milliy siyosatni ishlab chiqish;

– AKT atamalarini tartibga solish maqsadida maxsus terminologiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan lug‘atlarni Internet tarmog‘iga joylashtirish[4]dan iborat.

Shubhasizki, hozirgi paytda yoshlarimizning o‘z ona tilini o‘rganishdan tashqari ingliz, rus, arab va fors tillarini o‘rganishlari o‘ta dolzarb bo‘lib turibdi. Ingliz tili bu – dunyo xalqlari, shuningdek, Internet muloqoti tili, rus tili – Markaziy Osiyo xalqlarining sobiq ittifoq davlatlari bilan bevosita va bilvosita

bog‘lovchi mushtarak vosita, arab-fors tillari esa boy madaniy merosni xolis o‘rganishga yo‘l ochadigan omil.

Globallashuv asrida dunyoning nufuzli tillari doirasida ta’limni tashkil etishning salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. Birinchisi pozitiv mazmunga ega, ilg‘or texnologiya va yuqori sifatli ta’limga asoslangan davlat tillarining ommalashishi, auditoriyasining kengayishi. Ikkinchisi esa xalqaro tillar doirasida ta’lim oluvchilarning «nufuzli» tillar ta’sirida o‘z ona tillariga e’tibori susayishi. Kishilarning aynan o‘zga xalq madaniyati, mentaliteti ta’siriga tushib qolish holati xorijiy til o‘rganishning ziddiyatli jihatini bo‘rttirib ko‘rsatishga sabab bo‘lyapti. Bu esa tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmasligi va har qachon ham uning bardavom bo‘lishini nazarda tutadi.

Tilimizdagi mustaqillik davri o‘zlashmalari yadro-periferiya munosabatlari asosida o‘rganiladigan bo‘lsa, Yevropa til o‘zlashmalari markaz (yadro), boshqa til unsurlari esa chekka (periferiya) qismni tashkil etadi. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirishda rus tilining vositachilik roli pasayganini ko‘rish mumkin. Buning o‘rniga raqamli media motivida inglizcha o‘zlashmalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashishi faollashdi.

Globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari muhim, o‘zbek tilining istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda globallashuv jarayonga ta’sir etuvchi omillarni alohida e’tiborga olish zarur bo‘ladi.

Har bir til muayyan lug‘at tarkibiga ega, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy o‘zgarishlarini o‘zida aks ettiradi, u bilan birga taraqqiy etadi. Til evolyutsiyasi, asosan, leksik sathda boshqalariga nisbatan sezilarli ta’sirga ega, shu bois ham unga o‘zini yangilab turuvchi, yangilanishlarga nisbatan tez va tayyor turuvchi soha sifatida qaraladi. Ta’kidlanganidek, «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»[2].

Tilning leksik fondiga ta’sir etuvchi qator omillar mavjudki, asosan, jamiyatning taraqqiyot mezonlariga asoslanadi. Bunday faktorlar qatoriga jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi, fan va texnika taraqqiyoti, Internet diskursining keng jabhada yoyilishi, ijtimoiy tarmoqlarning insonlar turmush tarzigacha kirib borishi kabilarni kiritish mumkin.

Tillar xalqlarning o‘zaro savdo-sotiq, madaniy aloqa, migratsiya jarayoni, hatto davlatlar o‘rtasidagi urush va hokazolar ta’sirida ham stixiyali tarzda omixtalashadi, taraqqiy etadi. Bu esa ularning differensiatsiya yoki integratsiya hodisalari asosida amalga oshadi. Differensiatsiya hodisasi – xalqlarning keng hududlarga tarqalishi sababli tillar va lahjalarning farqlanishi.

Bugungi kungi dunyo tillari oilasidagi muayyan guruh tillari misolida buning yaqqol tasdig‘ini ko‘rish mumkin. Integratsiyaga esa tillarning birga yashashi, aralashishi yoki bir tilga aylanib ketishi, mujassamlashish hodisasi sifatida qaraladi.

Tillar va lahjalar texnogen holatda o‘zaro ta’sir xususiyatga ega, bu hodisaga ularning rivojlanishidagi eng muhim stimul sifatida qarash mumkin. Hatto tillarning chatishuvidagi substrat (kelgindilar tilining mahalliy tilni siqib chiqarishi) yoki superstrat (kelgindilar tili mahalliy tilga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazishi) hodisalarida ham mag‘lub tilning g‘olib tildagi elementlari yashab qoladi.

Xalq bu – muayyan mamlakatning barcha aholisi, ijtimoiy, etnik birligini tashkil etsa, millat esa tarixan tashkil topgan, shu bilan birga, tili, hududi va madaniyatining umumiyligi asosida birlashgan jamoadir. Millatning asosiy belgilari sifatida umumiy til, umumiy hudud, madaniyat, ba’zan ma’naviy birlik ham ko‘rsatiladi. Aynan shu xos belgilar orasida til faktorini davlatning xalqaro maydondagi «imiji»ni ko‘rsatuvchi mayoq vazifasida qabul qilish mumkin.

O‘rta asrlarda Yevropada fan tili vazifasini lotin tili bajarganidek, bu davrlarda sharqda davlat boshqaruvi, ilmiy va adabiy jarayon uchun o‘rni bilan arab va fors tillarining mavqei baland bo‘lgan. Dunyo fani istiqboliga munosib hissa qo‘shgan turkiy millat vakillarining nodir asarlari, o‘z tillari bilan birga, mazkur tillarda ham yaratilgan. Natijada forscha va arabcha so‘zlarning ta’siri o‘zbek tilning tadrijiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish jarayoni mustaqillik davrida o‘zining istiqbolli bosqichiga ko‘tarildi. Bu sharoitda rus tilining vositachilik roli passivlashib, virtual makon va Internet fenomeni motivida ko‘proq yevropa tillaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z olish tendensiyasi yetakchilik qilyapti. Mazkur davr o‘zbek tili lug‘at boyligidagi yangi o‘zlashmalar hajmining katta qismini inglizcha so‘zlar tashkil etmoqda.

O‘zlashmalarning leksikada keskin ko‘payishi til va uning tabiatiga nisbatan muayyan xavf konyunkturasini shakllantirishi tabiiy. Bu holat ularning jarayondagi aktual leksika birliklariga sezilarli darajada ta’sir etish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bunday paytda o‘zlashmalar o‘zining tildagi pozitiv ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Ijtimoiy hayotda paydo bo‘layotgan yangi innovatsiyalarning nomi, belgisi sifatida o‘zlashayotgan birliklar esa tabiiy ravishda leksik zaxirani to‘ldiradi, boyitadi.

Zamonaviy o‘zlashmalarning leksikada ortib borishi o‘zlashma neologizmlar masalasiga chuqurroq e’tibor qaratishni qayta kun tartibiga qo‘yadi. Ularni zamon talabi asosida o‘rganish, barqarorlashuvi jarayonida tilning milliy tabiatini hisobga olish, neologizm bosqichidan ko‘tarilib o‘zlashma maqomini olishi uchun qo‘yiladigan mezonlarni belgilash, aktual

leksika uchun neologizmlarning seriyali lug‘atlarini yaratish masalalari ishning alohida monografik planda o‘rganishni talab etadi.

Mustaqillik davri o‘zlashmalarining, ungacha bo‘lgan davr leksik innovatsiyalaridan farqli ravishda, to‘laqonli boshqarilish tartibi o‘zgardi. Soha mutaxassislarining ularga nisbatan ta’sir etish imkoniyati cheklanib, globallashuv, Internet va ijtimoiy tarmoqlar faollashuvida yangi so‘z qabul qilish jarayoni erkinlashdi. Bu esa o‘zi xos xaosni keltirib chiqardi va tilda o‘z-o‘zini tashkil etish – lingvosinergetik jarayonni paydo qildi.

Umuman olganda, bugungi kunda globallashuv jarayonida dunyo tillari miqyosida neologizmlarni o‘rganish uchun katta ehtiyoj mavjud. Negaki, ularni o‘z vaqtida o‘rganib tartibga solish, lug‘atlarga kirishi uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish tilshunos mutaxassislarning zimmasidagi vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Aks holda, o‘zlashayotgan so‘z va terminlarga nisbatan ijtimoiy tarmoqlarda rang-baranglik avj olsa, ularni qayta ishlab, o‘z o‘rniga qo‘yish uchun murakkab konyunkturalar paydo bo‘ladi. Tildan foydalanuvchilar esa buning evaziga aziyat chekib qolishlari, tilshunoslar esa leksik, grammatik, imloviy, uslubiy muammolari asoratidan chiqa olmay qolishlari mumkin.

Xullas, leksikaga bir qancha omillar o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazyapti. Bu ta’sirlar tilning milliy tabiatini o‘zgartirishga asoslanmasligi masalaning muhim jihati hisoblanadi. Bundan tashqari, til va milliy madaniyat uzviyligi, leksikada o‘zga til birliklari ulushini ehtiyoj darajasidan oshirmaslik, tilning sofligi kabi muammolar ham tilshunoslik vazifalarining umumiy mundarijasidan tushmasligi lozim.

Adabiyotlar

1. Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Фалсафа фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 30.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. // www.lex.uz

3. Умумрқулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фан. док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 18.

4. Абдуллаев С.Г., Кязимов Т.Г., Абасова С.Е. Безопасность и тенденции развития языка в условиях глобализации // Безопасность информационных технологий. – Том 26. – № 2. – 2019. – С. 114.

STOIKLAR VA ULARNING LISONIY FALSAFASI

Xavasxon Nurmamatovna SHOKIROVA,
Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Stoiklar ta’limoticha, insonning botiniy logosi – uning ongi bo‘lib, u so‘zlar vositasida nutqiy zohirlanadi. Lison tadqiqi inson ongi sirlarini bilishga yaqinlashtiradi, chunki logos ongda shakllanishi yoki lisoniy ifoda topishidan qat’i nazar, bir xil asosga ega bo‘lib qolaveradi. Predmet va unga qo‘yilgan nomning muvofiqligi – sigmatikani yuzaga keltiradi. Maqola nom va narsa munosabati haqidagi dolzarb masalaga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: *stoiklar, mantiq, sigmatika, nom va narsa munosabati, predmet, so‘z, tushuncha, fikr, aql, mantiq, logik va grammatik qoidalar, lingvosemiotika, so‘zlar, etimologiya, ilmiy qonuniyatlar, cignifikat, denotat, ob’ekt, semantika, pragmatika.*

Predmet va unga qo‘yilgan nomning muvofiqligi – sigmatikadir. Bu haqda manbalarda ilmiy ma’lumotlar kam. Ko‘p yillardan beri tilshunoslar sigmatika haqida fikr yuritishdan o‘zlarini chetga oldilar yoki bu mavzuni yoqlamadilar. Stoiklar har bir narsaning nomini mantiqan uning kelib chiqishiga bog‘laydilar. Mantiq haqida fikr yuritish Aristoteldan boshlangan: «Yakka tushunchalar birinchi mohiyat bo‘lib, mazmunan boydir»[1,2]. Uning ustozi Platon esa «...umumiy tushunchalar narsalar mohiyatini ifodalaydi», deb yozadi. «Stoiklar» deb ataluvchi keyingi avlod yunon donishmandlari esa ushbu mavzuga «logika» atamasini kiritganlar. Stoiklar o‘zbek tilida «ilm ustunlari» yoki «bardoshlilar» deb atalishi ehtimolga yaqinroq [3].

Yunon, rim, hind tilshunoslari bu haqda o‘z qarashlarini bildirdilar va narsa bilan uning nomi o‘rtasidagi munosabat shartli ekanini ta’kidladilar. Bu bahs-munozara mashhur yunon faylasuflari Geraklit va Demokrit qarashlarida yorqin aks etadi. Geraklit (milodgacha 540-480 yy.) birinchi qarashning vakili bo‘lib, har qanday nom u ifodalagan narsa bilan uzviy bog‘liq, nom narsaning mohiyatini ochib beradi, deb hisoblaydi. Demokrit (milodgacha 460-370 yy.) esa, aksincha, nom bilan u ifodalagan narsa o‘rtasida tabiiy bog‘lanishning yo‘qligini, ular orasidagi munosabat shartli ekanini, ajdodlarimizdan an’ana bo‘lib o‘tgani tufayli shunday nomlanishini bayon qiladi. U o‘z fikrini nom va narsa o‘rtasidagi bir qator nomuvofiqlik asosida isbotlashga harakat qiladi:

1) ba’zi so‘zlar birdan ortiq narsani ifodalaydi. Ya’ni narsa nomdan ko‘pdir;

2) ayrim narsalar bir necha nom bilan yuritiladi, ya’ni nom narsadan ko‘pdir;

3) bir qancha tushunchalar so‘z ifodasiga ega emas;

4) davrlar o‘tishi bilan narsalarning nomlari o‘zgarishi mumkin.

Nom va narsa munosabati haqidagi bu bahs Aflotun (milodgacha 429-348 yy) ning mashhur «Kratil» dialogida o‘z ifodasini topgan. Bir-biriga zid ikki qarashni o‘zida aks ettirgan bu dialogning maydonga kelishi tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojida muhim bir qadam bo‘lib xizmat qildi [4, 5].

Qadimgi yunonlar olam mavjudligining tarhi – tartibotini logos bilan bog‘laganlar. «So‘z, tushuncha, fikr, aql, qonun ma’nolarini anglatadigan yunon tilidagi logos voqelikning tartibotini belgilab beradi. Stoiklar ta’limoticha, insonning botiniy logosi – uning ongi bo‘lib, u so‘zlar vositasida nutqiy zohirlanadi» [6].

Demak, lison tadqiqi inson ongi sirlarini bilishga yaqinlashtiradi, chunki logos ongda shakllanishi yoki lisoniy ifoda topishidan qat’i nazar, bir xil asosga ega bo‘lib qolaveradi. I.M.Tronskiy va boshqalarning kuzatishicha, tilga umumiy idrok qudratiga ega bo‘lgan universal ongning bo‘lagi sifatida qaragan stoiklar fizik, logik va grammatik qoidalarni shakllantirayotib, predmet (voqelik), mantiq (tafakkur) va tilni farqlash bilan bir qatorda, ularni bir-biridan keskin ajratishni istamaganlar va bu uchlikning ilmiy tadqiqi uchun inson ongida kechadigan jarayonlarga, uning ruhiy kechinmalariga murojaat qilish zarurligini ko‘ra olganlar», deb baholaydi Sh.Safarov[6].

Qadimgi Yunoniston tilshunoslik fani uchun ko‘p ta’limotlarning poydevorini qo‘yib berganligi ma’lum. Stoiklar qarashlari va madaniyati boshqa xalqlarnikidan o‘zgacha bo‘lgan. Stoitsizm (yunoncha, stoa – peshayvon, yunon falsafiy maktabi tarafdorlari yig‘ilish o‘tkazadigan joy) – yunon falsafasi oqimlaridan biri. Stoiklar tarixi uch davrga bo‘linadi: a) qadimgi Stoya (miloddan avvalgi 3-2 asrlar; asoschilari – kitionlik Zenon, Xrisipp, Kleanf); b) o‘rta Stoya (miloddan avvalgi 2-1 asrlar; namoyandalari– Panetsiy, Posidoniy); v) keyingi Stoya (miloddan avvalgi 1-2 asrlar; namoyandalari – Seneka, Epitet, imperator Mark Avreliy va boshqalar). Stoiklarning vakillari fizikada Geraklitning abadiy alangalanuvchi hamda so‘nuvchi olov haqidagi ta’limotini qayta tikladi. Ularning fikricha, mantiq ilmi tushuncha va muhokama so‘zlarini to‘g‘ri tuzish va qo‘llashga o‘rgatishi lozim. Gnoseologiyada stoiklar sensualizm mavqeida turdilar. Etikada burch tushunchasini ilgari surdilar, tabiatga mos keladigan hayotni oliy saxovat, deb bildilar. Inson bir butun borliqning tarkibiy qismi bo‘lib, uning hayoti taqdir yoxud zaruriy qonuniyat orqali belgilanadi, taqdirga tan bermaslik behudadir, insonning haqiqiy baxti ruhning xotirjamligi, ehtiroslardan holiligidir, deya qaraydilar. Bunday fazilatlar kishi o‘zini-o‘zi tarbiyalashi oqibatida shakllanadi. Ezgulikning doyasi – aql-farosat, me’yor va jasoratdir. Bularga zid barcha holatlar yomonlik belgisi hisoblanadi. Stoiklar neoplatonizm va

xristianlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatganlar. Ularning qarashlari til etimologiyasini keltirib chiqardi [7].

«Stoiklar o‘z falsafalarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq bo‘lishini qarama-qarshi qo‘yganliklari uchun, tilni kishilarning ruhida tabiat talabiga ko‘ra paydo bo‘lgan deyish bilan birga, so‘z predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb hisobladilar. Ular so‘zlovchi gapirganida so‘z orqali u predmetning tabiati haqida qanday taassurotda bo‘lsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tug‘iladi, deb o‘ylaganlar. Stoiklar ana shu printsip asosida tilning paydo bo‘lishini tovushga taqlid qilib so‘zlash nazariyasini oldinga surdilar, ularning fikricha, so‘zning tovush tarkibi bilan so‘z anglatgan predmet orasida qandaydir ichki o‘xshashlik, moslik bo‘lgandan, tovush sostavida predmetdan hosil bo‘ladigan tasavvur ham aks etadi. Masalan, shirin, yoqimli narsalarning nomlari ham mayin, yumshoq eshitiladigan tovushlardan tuzilgan bo‘ladi. Aksincha, achchiq, yoqimsiz narsalarning nomlari quloqqa yoqmaydigan, dag‘al tovushlardan tarkib topgan bo‘ladi. Shu ta’limot asosida stoiklar so‘zlarning etimologiyasini izohlash masalasi bilan shug‘ullanganlar. Ularning etimologiyasi haqiqiy ilmiy etimologiya emas edi, albatta» [9].

Stoiklar shunday yo‘l tutar edilar: so‘zlarning etimologiyasini izohlash maqsadida ular «birlamchi so‘zlar»ni aniqlashga harakat qilar edilar. Bunday birlamchi so‘zlar, ularning fikricha, tovushlar simvolikasi yoki tovushga taqlid qilish bo‘lib, ayrim tovushlarga qandaydir ma’no berishga asoslangan edi. Go‘yo til mana shunday dastlabki, boshlang‘ich taqlidiy so‘zlardan kelib chiqqan, deb hisoblaganlar. O‘sha paytlardagi ildiz, ya’ni so‘z o‘zagi tushunchasi hozirgi ma’noda bo‘lmay, so‘zning kelib chiqish tarixini belgilashga urinish bilan yuzaga kelgan edi. Ushbu qadimgi grek nazariyasi tilshunoslikka so‘nggi asrlargacha katta ta’sir ko‘rsatdi. Yaqin-yaqingacha nemis va chuvash tilshunosligida ham stoiklarning tovushga taqlid nazariyasi yoqlab chiqildi [9]. Nutq va til kategoriyalarini aniqlash sohasiga stoiklar anchagina hissa qo‘shdilar. Ular uchun atoqli va turdosh otlar boshqa-boshqa kategoriyalar edi, shuningdek, hamma so‘zlar ma’nolidir, deydilar. Bunda ular so‘zlarning grammatik ma’nosini hisobga olganliklari shubhasiz. Stoiklar ot va fe’lga sintaktik kategoriya deb emas, balki morfologik kategoriya deb yondashdilar va kelishiklarni ajratib, har biriga alohida nom berdilar, faqat otlar kelishik shakllariga ega ekanligini qayd etdilar[9]. Stoiklarning mazkur ilmiy izlanishlari, mantiqiy qarashlari izsiz ketmadi, albatta. Har bir til etimonida u ma’lum bir darajada saqlanib qoldi. Keyinchalik nemis olimi G.Klaus lingvosemiotika sohasidagi tadqiqotlarini yanada rivojlantirib, Ch.Morrisning semiotik kontseptsiyasi asosida tabiiy tilning o‘ziga xos to‘rt strukturasini belgilab berdi. U semiotikaga oid yutuqlarga asoslanib,

tilning semantika, sintaktika, pragmatika kabi paradigmatik qatorini sigmatika nomi bilan yuritiluvchi qism bilan to‘ldirdi. Semiotikaning bu aspekti predmet va uning nomi bilan bog‘liq hodisa sanaluvchi nom motivatsiyasi va etimologiyasi kabi ilmiy qonuniyatlarni o‘z ichiga oladi. G.Klaus esa tilga semiotik yondashib, uning gnoseologik-pragmatik modelini yaratdi [10].

Belgi doim signifikatga ega, lekin hamisha ham denotatning aniq mavjudligini taxmin qilolmaydi. Morrisning denotat va referentiga juda ham kam e’tibor qaratildi. Olmon filosofi Georg Klaus signifikat va denotatning tushunchalarini ajratishga uringach, referentsiya muammosi keyinroq mantiq, falsafa va tilning markazida paydo bo‘ldi. Bu esa bir-birlaridan uzoqda bo‘lgan semantika va sigmatikaning farqlanishiga olib keldi. Olimning fikricha, semantika ob’ektni ifodalovchi belgining signifikatga munosabati bilan cheklanishi kerak, sigmatika esa ob’ektni ifodalovchi belgining denotatga munosabati bilan shug‘ullanishi zarur. Shu tariqa u belgining to‘rtinchi qirrasini aniqlay oldi. Afsuski, bu qat’iy va keskin yechimni talab etuvchi masala yetarlicha aniqlanmadi. Ongli bilvosita belgining obyektga munosabati (denotat, referent) to‘g‘risida aytilgani holda signifikat (yoki designat) hisoblanadi. Signifikatda obyekt va vaziyat xususiyatlari yakuni – yechimi ifodalanadi. Ushbu xususiyatlar belgi interpretatorini o‘rgatadi. Bilvosita va umumiy xarakterga egalik interpretantaga xoslikdir. Bu esa semantik o‘zgarishlarni pragmatikaga mutlaqo qarshi qo‘yish degani emas. Pragmatik omillarda Ch.Morris semiozisning vositachiligini hisobga oladi: belgi – bu uning designati bo‘lib, interpretanta farqlanadi[11]. Demak, predmet va unga berilgan nom o‘rtasidagi munosabat, bog‘liqlik sigmatikani yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar

1. Аристотель. Метафизика. Перев. и примеч. А.В.Кубицкого. М.— Л.,1934, – С. 29. 24.
2. Аристотель. Русск. перев.: Аристотель. Соч., т. 2.— М., 1978. – С.120
3. Хожиматов О.Ғ. Одам алайҳиссалом китоби. Монография. – Андижон, 2011. – 104 б.
4. Платон. Диалоги. – М., Издательство АСТ, 2017.
5. Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.8.
6. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б.65.
7. Тронский И.М. Основы стоический грамматики // Романо-германская филология. – Ленинград: ЛГУ, 1957.

8. https://uz.eferrit/com>stoiklar- va-a… Мурожаат санаси: 05.11.2020.
9. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 208.
10. Ҳакимов М. Нутқий актлар назарияси. – Фарғона: Фарғона, 2020. – Б.12.
11. Сусов И.П. Лингвистическая прагматика.– М: Восток-Запад, 2006. – С.23.
12. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Monografiya. – Farg‘ona: Classic, 2022. – 176 b.
13. Shokirova Kh. The object of pragmatics – the basic of progmatical approach. TJSS Thematics journal of Social Sciences.Vol-7-Issue-5 2021. – P.41-47. SJIF- 7.20 № 23.
14. Shokirova Kh. Personal dexterity options. Academicia. An international Multidisciplinary Research Journal.Vol.11, Issue 5 may 2021. – P.789-797. SJIF-7.492 № 23.
15. Shokirova X. Hidden pragmalinguistics – pragmatic potential. International Scientific Journal ISJ Theoretical &Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 105 January 30, 2022. – P.268-272. SJIF-8.997 № 23.
16. Shokirova X. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. Darslik. – Farg‘ona: Classik, 2023. – 268 b.
17. Shokirova X. Savodxonlik asoslari. – O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: Classik, 2023. – 168 b.
18. Shokirova X. Descriptive pragmatic construction / Neo Scientific Peer Reviewed Journal, ISSN: 2949-7752. Jif: 7.685. Volume 14, October – 2023.

SO‘Z O‘YINLARINING USLUBIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ASKIYA SAN’ATI MISOLIDA)

Do‘smatov Xikmatullo Xaitboyevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
Farg‘ona davlat univeriteti

Komilova Shaxrizoda Sherzod qizi
FarDU Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek milliy askiya san’ati, uning uslubiy hamda pragmatik xususiyatlariga doir ayrim mulohazalar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, askiya, so‘z o‘yini, tag ma’no, eksplitsit, implitsit, pragmatika, fonostilistika.*

Xalqimiz og‘zaki ijodida so‘z o‘yini bellashuviga asoslangan maxsus janr sifatida askiya san’ati asrlar davomida jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida shakllanib, professional sahnalarda so‘z ustalari tomonidan maxsus ijro etib kelinadi.

“So‘z san’atimizning eng mo‘jaz nuqtalari – maqol, shohbayt, latifa, askiya til bilan adabiyotni o‘ziga xos tarzda birlashtiruvchi janrdir. Unda chinakam zargarona zarofat, nozik lutf-latofat, teran tagma’no bo‘ladi” [1, 30]. Askiyaning 2014-yili YUNESKOning reprezentativ ro‘yxatiga kiritilganligi o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzining oshishida muhim ahamiyat kasb etdi.

“Askiya” arabcha so‘z bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da belgilanganidek, “ziyrak, aqlli, zehnli, qobiliyatli” ma’nolarini ifodalovchi *zakiy* so‘zining ko‘plik shakli azkiyodir. *Azkiyo* so‘zi davrlar o‘tishi bilan fonetik jihatdan o‘zgarib, *askiya* ko‘rinishiga kelgan. O‘z asl ma’nosini (*ziyraklar, zakiylar*) mumtoz adabiyotimizda saqlagan holda, hozirgi o‘zbek tilida milliy og‘zaki ijod janri nomi sifatida qo‘llanmoqda: “Askiya – o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir janri bo‘lib, unda so‘z o‘yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalashadi. Askiya, odatda, to‘y-tomosha, sayl, ziyofat kabi yig‘inlarda o‘tkaziladi" [2, 106].

Askiya, dastavval, so‘zning botiniy, tagma’nosini topishga qaratilgan. Keyinchalik so‘z o‘yini asosiga qurilgan janr sifatida shakllangan. O‘zbek tilshunosligida askiya matni lingvostilistik jihatdan tadqiq etilgan [3, 24].

Askiyachilik so‘z san’atida milliy so‘z o‘yinlarimizning quyidagi turlarini uchratamiz:

“Fonostilistik o‘yin”. Askiyachilar tomonidan nutq tovushlari maqsadli tarzda o‘zgartiriladi va shu tariqa turli subyektiv munosabat bayon etiladi. Buning natijasida nutqda tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushirish, nutq tovushlari o‘rnini almashtirish va aralash turdagi fonostilistik kombinatsiyalar namoyon bo‘ladi. Mas.:

Tohirjon: Kolxoz duradgorlari brigadalarga chiqmay, nuqul raisnikida *pol ochishadi-ya.*

Hasanjon: Komissiya kamchiliklarni ko‘rsatgani yaxshi, ishga foydasi tegadi. Siz bo‘lsangiz komissiya kelganda, o‘zingizni *ponaga olasiz.*

(“Duradgorlik” payrovi. Askiya. 70-b.)

Askiyachilar nutqida so‘z o‘yini birinchi gapda *p* va *f* tovushlarini, ikkinchi gapda *o* va *a* tovushlarini almashtirish bilan yuzaga chiqarilgan hamda duradgorlik sohasiga oid atama (*pol va pona*)ni matnda ishlatish bilan payrov talabiga (payrovda mavzuga doir atamalarni qo‘llash shart) amal qilingan. *Pol* va *pona* leksemalari implitsit ifoda vositasi, *fol* va *pana* so‘zlari esa eksplitsit axborot tashuvchi birlikdir.

“Urg‘uli so‘z o‘yini”. Askiyachilar nutqida urg‘u oluvchi bo‘lak birdan ortiq axborotga ega bo‘ladi hamda uslubiy vazifa bajaradi:

Olimjon aka: Qodirjon aka, haqqushlar osmonda parvoz qilib yursalar, aka, bag‘ri qora demang yana.

Qodirjon aka: Osmondan uchib kelib Olimjon akaning do‘ppilarini tashlaymi – *ilvosin* deb.

(“Qushlar” payrovi. Askiya. 31-b.)

Olimjon akaning nutqida *ilvosin* so‘zidagi urg‘u joylashishi o‘rniga qarab: ilv**o**sin – *qo‘shma fe’l (ilib olsin)*, ilvos**i**n – *qarchig‘aysimon qush* ma’nosida qo‘llanilgan.

“Leksik-semantik o‘yin” doirasida so‘z o‘yinining quyidagi turlari uchraydi:

1. “Zidlik mazmunidagi so‘z o‘yinlari”. Odatda, lisoniy va kontekstual zid ma’noli so‘zlar farqlanadi. Kontekstual antonimiya har gal nutqning o‘zida voqe bo‘ladi, nutq (matn)dan tashqarida yo‘qqa chiqadi:

Oxunjon: Erkinboy aka, hamma sizga nazar solyapti, hadeb *shoh*ona yurishlar qilaverasizmi, biror marta *piyoda* yurib qo‘ysangiz-chi!

(“Shaxmat” payrovi. Askiya. 72-b.)

Ushbu misolda shaxmatga oid atamalar – “shoh” va “piyoda” so‘zlari bir-biriga zid qo‘yilib, shu tariqa “raqib”ning kamchilik va xarakteri ochib berilgan.

2. “Omonimiyaga asoslangan so‘z o‘yini”. Omonimlar so‘zlarning tasodifiy shaklan teng kelib qolishi, ya’ni aslida har xil shakldagi so‘zlarning


davrlar o‘tishi bilan shaklan o‘xshash bo‘lib qolishi hisoblansa-da, so‘z ustalari ulardan so‘z o‘yini vositasi sifatida foydalanadilar:

G‘anijon: Bo‘lmasa, shahar yoritish boshqarmasiga borib bizga *yoqmaysizlar*, faqat shahar boshqarmalariga boradigan yo‘llarga chiroqlar *yoqib qo‘yinglar,* deb aytaman.

Jo‘raxon aka: Ularga *yoqsa* kerak.

“Yo‘l” payrovidan olingan parchada “raqib”lar nutqida qo‘llanilgan *yoqmoq* fe’li payrov mavzusi va talabiga amal qilingan holda qo‘llangan va u quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

yoqmoq



yondirmoq *ma’qul kelmoq*

(chiroqqa nisbatan) (shaxsga nisbatan)

3. “Talaffuzi yaqin birliklar yordamida hosil qilinadigan so‘z o‘yinlari”. Askiyachilikda til birliklarini sun’iy omonimlashtirish hollari ko‘p uchraydi. Bunday vaziyatda omofon, omograf hodisalarining vujudga kelishi ancha faollashadi: *“Bir gap eshitib qoldim. Saydullaxon choyxonada nasiyaga muomala qilib, idoraga pul topshirmagan ekan, hisobchilar o‘zini o‘tqazib olib, “cho‘t uryapti” deb eshitdim”*. Bu o‘rinda G‘ulomjon Ro‘ziboyev *cho‘tir* so‘zining tovush tomonining bir xilligidan foydalanib, ikki so‘z o‘rnida *cho‘tir – bujur* hamda *cho‘t ur* ma’nolarida ishlatgan.

Talaffuzi o‘xshash birliklar (*so‘zshakllar, birikmalar, frazeologizmlar va gaplar*)ni qo‘llashdan askiyachilar unumli foydalanadilar va bu bilan turli-tuman propozitsiyalarga ishora qiladilar. Kommunikatsiya jarayonida ifodalangan tushunchalar askiyachilarning lingvistik mahorati va so‘zga chechanligidan dalolat beradi:

Ibrohimjon: Kolxozda sabzavot achib yotibdi! Shaharga jo‘natgani brigadir raisning *amirini* kutib o‘tiripti.

Tursunbuva: Ayb raisdami, brigadirda? Ayting-chi, qaysi birlari qovun tushirishgan?

(“Qovun” payrovi. Askiya.34-b.)

4. “Barqaror birikmalar vositasida hosil qilinadigan so‘z o‘yinlari”. Askiyachilar frazeologik birliklar yordamida bir-birining laqabiga ishora qiladilar. Mas., quyidagi matnda *terisini shilib olmoq, terisiga tuz tiqmoq* frazemalarida askiyachilarning laqabi (*it*)ga ishora urg‘u bilan aloqadorlikda yuzaga chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin:

Rahmatqul aka: Chorvadagilarni ishga soling, ish bilmas ekan deb, keyin yana *teringizni shilib olmaylik.*

*Abdullajon aka***:** Yordam bermadingiz deb, men ham joyi kelganda, *teringizga tuz tiqaman***.**

(“Chorvachilik” payrovi. Askiya. 28-b.)

“Morfologik o‘yin”. Bu o‘yinning bir nechta turlari mavjud:

1. “Juft so‘zlar yordamidagi so‘z o‘yini”. Askiya bellashuvida “raqib”lar bir-birini so‘z o‘yini bilan mot qilish uchun juft va takroriy shakllardan foydalanadilar. Boshqa nutq ko‘rinishlarida mazkur vositalar har doim stilistik vazifa bajarmaydi, ulardan nutqni shakllantiruvchi vosita sifatida foydalaniladi, xolos. Ya’ni boshqa matnlardagi juft so‘z anglatgan ma’noning grammatik qimmati ustun bo‘lsa, askiya matnida juft so‘zlar stilistik maqsadda qo‘llanishi bilan ahamiyatlidir. Mas., hozirgi o‘zbek adabiy tilida *es-pesi* juft so‘zining ikkinchi komponenti leksik ma’no anglatmaydi. “Chorvachilik” payrovida so‘zlovchi (Rahmatqul) “...*es-pesi bormi bu odamning o‘zi*” deya juft so‘zning har ikkala qismiga ataylab leksik ma’no yuklaydi. Bunga *pes* leksemasining tibbiyot sohasidagi ma’nosi: *terida paydo bo‘ladigan oq dog‘ va shunday kasali bo‘lgan kishi* hamda so‘kinish mazmunidagi *iflos, moxov* [2, 248] ma’nolari asos qilib olinadi.

Ma’lumki, askiyachilar payrov mavzusidan chetga chiqsa, bellashuvda yengilgan hisoblanadi. So‘z ustalari o‘z nutqida payrov mavzusini ochib berishda okkazional juft so‘zlarni qo‘llashga harakat qiladilar. Natijada juft so‘zshakllar favqulodda hosila sifatida paydo bo‘ladi:

Ibrohimjon: Bog‘da *«kishi-mishi»* yo‘qmi, yana yumaloq qilib tashlamay.

(“Uzum” payrovi. Askiya. 36-b.)

Juft so‘zning lisoniylashmagan ushbu turi askiyachilarning individual uslubiga xosdir. So‘z ustasi bu o‘rinda *kishmish – mevasi maydaroq bo‘ladigan uzum va shu uzumning mayizi*ni anglatuvchi leksemaning *i* tovushini maqsadli orttirish hisobiga uni juft so‘zga aylantirgan va bu bilan *kishi – odam, inson (kimdir)* ma’nosini ifodalagan.

2. “Uslubiy takrorga asoslangan so‘z o‘yini”. Askiyachilar nutqida takrorga sintaktik-stilistik figura sifatida qarash va uni sintaktik takror ko‘rinishi sifatida izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bellashuvda ”raqib” ifoda uslubini takrorlash bilan kulgi qo‘zg‘atuvchi so‘z o‘yini hosil qilinadi:

Tursunbuva: Mana, Qodirjon ham majburiyatini bajardi, ko‘rmaysizmi tili chiqib, **bit-bildiq, bit-bildiq** deb qoldi.

Qodirjon aka: Tursunbuvam ham xursandlar, zvenolari kamchiliklarini bitirib, planini bajarganga o‘xshaydi. Ko‘rmaysizmi, endi hamma yoq **sip-silliq, sip-silliq** deyaptilar.

Tursunbuva: Hosil to‘yiga tayyorgarlik ko‘ryaptilar, shekilli, qo‘llariga bitta taxta ko‘tarib olib **randalang, randalang,** deydilar.

Qodirjon aka: Yaxshi ishlaganingiz uchun mukofot chiqadimi deyman, qo‘lingiz qichiyapti. Shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa, qo‘lingizni **tatalang-tatalang**.

Tursunbuva: Hosil to‘yiga aloqador ham kelganmi, deyman, nafaslari ichlariga tushib, **ko‘rgilik, ko‘rgilik** deb o‘tiribdilar.

Qodirjon aka: Ko‘rgilik emas, Tursunbuva, ayb o‘zlarida, bo‘lmasa nima uchun **ko‘rchilik, ko‘rchilik** deydilar.

(“Paxtachilik” payrovi. Askiya. 19-b.)

Yuqoridagi matndan quyidagi propozitiv va qo‘shimcha ma’nolar anglashiladi: a) bit-bildiq, bit-bildiq – *bedonalarning sayrash ohangiga taqlid; b)* sip-silliq, sip-silliq – *hammasi yaxshi, joyida ma’nosida; orttirma darajadagi sifat;* v) randalang, randalang – *tekislamoq, silliqlamoq; g)* tatalang, tatalang – *tirnamoq, timdalamoq; d*) ko‘rgilik, ko‘rgilik – *ixtiyoridan tashqari holda yuz bergan ko‘ngilsiz voqea; ye)* ko‘rchilik, ko‘rchilik – *ko‘rgilik qolipi asosida yasalgan okkazional so‘z; okkazional antonim.*

“Sintaktik-stilistik o‘yin”. Sintaktik vositalar yordamida hosil qilinadi. Quyidagi turlari aniqlandi:

1. “Sintagmalash o‘yini”. Sintagmalash usuli so‘zlarni biriktirish, komponentlarga bo‘lish hisoblanib, sof so‘z o‘yiniga asoslanishi, notiqning kommunikativ niyati ataylab so‘z o‘yiniga joylashtirilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday so‘z o‘yinlarida bir qancha lingvistik hodisalar (ohang, pauza, urg‘u, omonim, omofon, omograf, paronim, ko‘chim, polisemiya, polifunksionallik va hokazo) sinkretik holatda ifodalanadi:

Mahmudjon: Mehmonlar kelishidan ikki kun ilgari uzib qo‘ygan ekansiz, ezilib qolibdi. Ijroqo‘mbuva, mana buning *ham shirasi* chiqib qolibdi.

(“Bog‘bonchilik” payrovi. Askiya. 40-b.)

Matnda so‘zlarni mazmunan, intonatsion va sintaktik jihatdan biriktirish evaziga birdan ortiq axborot ifodalangan: *shira* so‘zi oldidan *ham* so‘zi qo‘llanmasa, *shira* oddiy axborot tashuvchi birlik sifatida nutqni shakllantirishga xizmat qilar edi, xolos. So‘z o‘yini ham yuzaga chiqmas edi. Kontekstda illokutiv akt (yashirin ifoda) ustsegment birliklar yordamida yuzaga chiqayotgan bo‘lsa-da, umumiy mazmunning sintaktik aloqa yordami bilan ifodalanayotganligi ushbu so‘z o‘yini usuliga faqatgina fonostilistik, fonopragmatik jihatdan emas, balki morfonologik, morfosintaktik jihatdan yondashuvni talab qiladi.

2. “**O‘xshatishga asoslangan so‘z o‘yini”.** Quyidagi payrovda askiyachi harifi («raqibi»)ni *“boy o‘g‘li”*ga o‘xshatish bilan ikki tomonlama tanqid ostiga olgan: *birinchidan*, uning xarakterida bo‘lgan kekkayishni ko‘rsatish uchun boyning o‘g‘liga, *ikkinchidan*, uning yoqimsizligi va befayzligini qushga – *boy o‘g‘li*ga o‘xshatgan:

Aka Buxor: Ko‘rpangga qarab oyoq uzatsang-chi, nodon, muncha *boy o‘g‘liday* kekkayasan.

Komil qori: Aybimni topib gapirding lak-lak, rahmat senga...

(“Olma-anor”, “Parranda” payrovlari)

Adabiyotlar:

1. Otauli. Zargarona zarofat, teran tagma'no. http://ziyouz.uz/ilm-fan/til-adabiyot/2014-05-26-13-26-06 Chop etilgan sana: 26.05.2014. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2010-yil 10-son.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'ME, 2006. I jild.
3. Dusmatov X. Askiya matnining lingvostilistik tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha fal. dok. ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2018. –B.24.
4. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. – Andijon, 1992-y.
5. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
6. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari. – Farg'ona: 2009-y, 83-b.
7. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.-Toshkent: O'qituvchi, 1985-y.
8. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar Farg'ona: Farg'ona, 1996.

ЎЗБЕК ШЕЪРИЙ ДОСТОНЛАРИДА ЎЗЛАШМА ҚАТЛАМ

Ахат Ахматович ШУКУРОВ,
Термиз давлат университети доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур мақола тарихий мавзудаги ўзбек шеърий достонлари матнида ўзлашмаларнинг қўлланишига доир лингвистик қарашлар ва таҳлиллар баёнига қаратилган. Бу орқали шоирларнинг поэтик маҳорати кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: *Матн, поэтик матн, ўзлашма, тарихий достонлар, форс-тожикча сўз ва иборалар, китобий, поэтик, тарихий сўзлар.*

Маълумки, дунёдаги барча тиллар фақат ўз ички ресурсларига таянмайди. Унинг луғат таркибининг бойиши ташқи манбаларга ҳам таянади. Умуман, ҳар қандай тил соф ҳолда яшай олмайди. Турли тилларнинг турли тарихий шароитларда ўзаро маълуммуносабатда бўлиши қонуний ҳолдир. Бундай муносабат алоҳида бўлган тиллар ривожида, айниқса, унинг луғат таркибида маълум изларни қолдириши мумкин.

Ҳозирги ўзбек тили ҳам тарихан мураккаб ривожланиш ва шаклланиш босқичларини бошидан кечирган, чунончи, манбаларда

туркий уруғ, қабила тилларининг кейинчалик ўзбек халқи тилининг эроний тиллар билан алоқаси уч даврий хусусият билан характерланиши кўрсатиб ўтилади. Булар:

1. Туркий уруғ ва қабила тилларининг қадимий эроний қабила, уруғ тиллари билан алоқаси ва қўшилиши (қадимий даврлар).

2 . Ў з б е к тилиииг форс-тожик адабий тили (IX-X,XI - XIV) билан алоқаси .

3. Ўзбек тилининг маҳаллий тожик шевалари ва тожик халқи тили билан алоқаси (қадимдан ҳозиргача).

Ана шунга кўра, ўзбек тили луғат таркибида форс-тожикчадан ўзлашган ҳамда ўз лексик воситасидай тушунилиб кетилган сўз ва иборалар кўплаб учрайди.

Форс-тожикча ўзлашмалар

Тарихий мавзудаги ўзбекшеърий достонларида форс-тожикчадан ўзлашган кўпгина тарихий, поэтик ва китобий сўзларни учратамиз. Улардан айримлариии қуйида кўриб ўтамиз.

Ашк. Форс-тожикчадан ўзлашган бу сўзнинг маъноси кўз ёши демакдир. Ўзбек мумтоз шоирлари бу сўздан фаол фойдаланишган. Навоий асарларида ашк, ашкбор, ашкнок, ашкрез, ашкрезон, ашкрезлиг, ашкфишон каби лексик восита сифатида қўлланган.

Бу сўздан ҳозирги ўзбек шоирлари ҳам поэтик мазмунни ифодалаш учун фойдаланади. Масалан, Б.Бойқобиловнинг “Тож маҳал” достонида қаҳрамон руҳий ҳолатини очиш мақсадида қўллайди:

Тунлар шамнинг қошида,

Шамнинг дарди ашкида...

Кўринадики, бу ерда ашк сўзи биринчидан, жарангдор қофияни ташкил этган. Иккинчидан, шамнинг эриб тўкилиш ҳолати кўз ёшга ўхшатилган.Учинчидан, шу асосда қаҳрамоннинг тунлари бедор ўтган оғир, ўйчан, қайғули ҳолатини ифодалашга хизмат қилган.

Абр. Форс-тожикчадан ўзлашган бу сўз эскирган китобий хусусиятга эга бўлиб, айнан булут маъносидадир. Поэтик матнда бу сўз кўпроқ кўчма маънода қўлланади. Масалан: **Ғам** абрин **пора** қилиб ... (“Тож маҳал”).

Бу парчада абр сўзи ибора таркибида муҳим мазмун касб этган. Осмонни булут қопласа ёруғлик, ойдинлик хиралангани ва ундан кўнгилларофирлик пайдо бўлгани каби, ғам сўзи ҳам абр сўзи билан бирикиб, шундай"қопловчи" маъносини таъсирли аниқликда ифодалашга хизмат қилган. Тушум келишигининг эски шакли (-ин, -н) қўлланиши эса шеърий шакл (туроқлашув) талабидандир.

Бисёр. Форс-тожикчадан ўзлашган бу сўз “ЎТИЛ” да эскирган, китобий белгисида берилган. Бадиий матнда, бу равиш феълга боғланиб

келиб, ғоят даражада, кўп даражада, ўта даражада, бениҳоя деган маънони билдиради. Масалан:

Аввалига гангиб қолди бу гапдан Ҳаким,
Эл ичида гарчи бисёр эди. (“Ҳаким ва ажал”)

Бода. Бу поэтик сўз май, ичкилик, шароб маъносидадир. У поэтик матнда турли кўчма маъноларни ифодалаши мумкин. “Минг бир ёғду” достонида бу сўз жаҳолатда қолганлик, илм-маърифат маъноларини ифодалашга хизмат қилган.

Бу фикрни ифодалашга форс-тожикчадан ўзлашган нола,ғам, алам,ҳасрат ифодаловчи аянчли овоз маъносини беради. Навҳа эса мунгли йиғи маъносидадир. Масалан: Ҳушёр донишманд Элнинг бодага берилганини худди азодордек, нола билан, навҳа билан айтади..(“Минг бир ёғду”).

Гуфтугў. Бу сўз ҳам форс-тожикчадан ўзлашган, “ЎТИЛ” да эскирган, китобий белгиси остида берилган. Гап, суҳбат, маслаҳат маъноларини беради. Масалан: Руҳсиз гўзал маъюсгина қилди гуфтугў (“Ҳаким ва ажал”).

Ганжина. Форс-тожикчадан ўзлашган китобий сўзлар ичида ганж, ганжина сўзлари бўлиб, улар поэтик матнда кенг қўлланиб келган. У хазина, бойлик маъносини беради. Масалан:

Нақшу нигор билан роса берди зеб,
Жондек асради у ганжинасини. (“Афросиёб”),

Эътибор берилса, ушбу парчада “ганжина” сўзидан ташқари нақш, нигор, зеб каби поэтик нутққа хос сўзлар ҳам ўрни билан ишлатилган. Улар бирикиб мазмунни гўзал, поэтик ифодалашга хизмат қилган.

Гўша. Форс-тожикчадан ўзлашган бу сўзнинг “ЎТИЛ” да икки ҳил маъноси, яъни, биринчидан, одамлар назаридан узоқ ер, овлоқ жой, бурчак, маъноси ҳамда иккинчидан, фақирона турар жой, бошпана, кулба маънолари изоҳланган.

Тарихий мавзудаги ўзбек шеърий достонларида ҳам бу сўз, ушбу маънода қўлланган. Масалан, Б.Бойқобиловнинг “Афросиёб” достонида қуйидагича ифодаланган:

Фуқаронинг айлаб жигар, бағрин хун,
Боғин хазон этди, гўшасин вайрон.

Бу ерда “гўша” сўзи фуқаро, оддий меҳнаткаш фақир кишилар уйи, демак, камтарона қурилган уй, кулба маъносини беради. Тирикчилик эвазига зўрға тикланган хонадоннинг вайрона этилишиўқувчида босқинчига нисбатан нафратни уйғотади.

“Тож маҳал” достонида бу сўз уй, хонадон маъносида келади: Обод этиб гўшасин... Баъзан бу сўз диалектал “сас” сўзи билан бирга жарангдор қофия яратишга ҳам хизмат қилади. Масалан:

Кўнглин бир гўшасида,

Қалбин оташ сасида. (“Тож маҳал”)

Забон. Бу сўз тил маъносидадир. Оддий сўзлашувда кам учрайди, асосан, поэтик нутққа хос. Баъзан ўзбекча муқобили тил сўзи билан бирга келиб иборалашади, умумлаштирувчилик касб этади. Масалан:

Неча тилу забонларни фатҳ этди осон. (“Ҳаким ва ажал”).

Мужда. Бу форс-тожик тилдан ўзлашган поэтик сўз хушхабар маъносини беради. Масалан, “Чирой очган муждалар” (“Тож маҳал”) гапида унинг ёқимли сўз, тингловчига баҳра берувчи хабар эканлиги ифодаланган.

Ногаҳон. Кутилмаган, тасодифан, қўққисидан маънони беради. “Шу булутдай ногаҳон”,”Яшин тегди ногаҳон” (“Тож маҳал”) мисраларида бу маъно тўлақонли ифода этилган.

Оташ. Бу сўз олов маъносида. Контекс (матн)га кўра турли кўчма маъноларда келиши мумкин. Дилни ёндирадиган, ўртантирадиган ҳароратли ҳис-туйғуда келиши ҳам мумкин. Масалан, “Тож маҳал” достонида “Қўрқмай суву оташдан” дейилган мисра бор. Бу ерда ҳар қандай қийинчиликдан қўрқмай деган маъно ифодаланган.

Қуйидаги парчада эса бу сўз эътиқод билан боғлик равишда сиғинишга хос илоҳий маънода келган:

Топшираман сени, қардошим,

Сўнмас оташ ҳимоясига (“Широқ”).

Оғуш. Бу сўз қучоқ, қўйин маъносидадир. Поэтик матнда бирқатор кўчма маъноларда қўлланади. Қуйидаги парчада ҳам ибора таркибида (“Зафарлар оғушида”) тантанавор, хурсанд ва хушчақчақ кайфият маъносини яхши ифодалаган:

Шундай яшар эди Самарқанд,

Зафарларнинг оғушида маст. (“Гумбаздаги нур”)

Ошён. Бу китобий сўз айнан қуш уяси, ин маъносини ифодалайди. Шунингдек, у яшириниб, жон сақлаб қолса бўладиган жой, макон, бошпана; оила, уй-жой, оилавий ҳаёт каби кўчма маъноларда ҳам қўлланади. Масалан: “Бамисоли ошёнига шошган кабутар” (“Ҳаким ва ажал”) мисрасида айнан асл маъноси (қуш уяси)да келади. “Тож маҳал ошёнига” (“Тож маҳал”) деганда кўчма маънода-макон тушунчасини ифода этади. “Янги фарзанд шаънига, бахтимиз ошёнига” (“Тож маҳал”) деганда эса ибора таркибида қувонч, бахт топганлик маъносини беради.

Пинҳон. Бу сўз кишининг назаридан яширинган, кўзга кўринмайдиган, яширин деган маънони беради. Поэтик матнда уларнинг

турли кўчма маънолари ифода топади. Масалан, “Ошкоралар ичида пинхон” (“Гумбаздаги нур”) гапида, биринчидан, шеърда тазод санъатини ҳосил этишга хизмат қилган, иккинчидан, кишининг камтарлик камсуҳанлик феъли туфайли яширин қолиш маъносини иборавий ифода этган.

Тарихий мавзудаги ўзбек шеърий достонларида форс-тожикчадан, ўзлашган бундай поэтик, китобий сўзлар кўплаб учрайди. Масалан, осуда, ошёна, орайиш, оҳанграбо, дил, даст, ёсуман, жўмард, девкор, сипор, танҳо, тиғ, заррин, кошона, кушойиш, дурахшон, ком, кас, замин, зард, забун, нигох, наханг, найза, паркант, чунон, шамшир, шоён, ғаним, рўё, роз, расида, сарин, сарсари, сухан, ситамгар, ситам, сийна, ситора, хун , хоб, хок , шўриш, хумо ва бошқа сўзлар шулар жумласидандир.

Шундай қилиб, тарихий мавзудаги ўзбек шеърий достонларида форс-тожик тилидан ўзлашган поэтик, китобий сўзлар кўпчилликни ташкил этади. Улар асосан, кўчма маънода қўлланилади, поэтик мазмунни бойитади, шунингдек, бир қатор шеърий санъатлар ҳосил килишда хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 79.

2. Навоий асарлар луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 68-69.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005-2008.

AXBOROT UZATISHDA KOMMUNIKATIV IMKONIYATNING O‘RNI

Ismoil Tadjibayevich XOJALIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Maqolada axborot uzatishda kommunikativ imkoniyat muammosi haqida fikr yuritilgan. Bu jarayonda so‘zlovchining ijtimoiy holati, noverbal vositalarning o‘rni muammosi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ imkoniyat, axborot uzatish, nutqiy aktda, muloqot ishtirokchilari, noverbal omil, noverbal vositalar, verbal vositalar, so‘zlovchi, tinglovchi, ijtimoiy bilim.*

Ma’lumki, tilshunoslikda nutqda ishlatiladigan vositalar ikki guruhga bo‘lindi: verbal vositalar, ya’ni axborot uzatishga xizmat qiluvchi lingvistik vositalar; noverbal vositalar, ya’ni axborot uzatishga xizmat qiluvchi tildan tashqari (nolingvistik) vositalar. Nutq jarayonida verbal va noverbal vositalar uyg‘unlashadi. Ular birgalikda axborot uzatish uchun, ya’ni kommunikativlik uchun xizmat qiladi. Chunki “til imkonyat bo‘lib, nutq shu imkoniyatning ma’lum darajada yuzaga chiqarilishidir” [1, 25]. Ana shu imkoniyatning yuzaga chiqish jarayoni bo‘lgan nutq o‘zi ham alohida bir sistemani tashkil etadi.

“Nutq sistemasi birliklari aslida turli tipdagi til birliklari tabiatida mavjud bo‘lgan o‘zoro birika olish imkoniyatining millionlab kishilar tomonidan yuzaga chiqarilishi natijasida voqe bo‘ladi” [1,24]. Boshqacha qilib aytganda “Til insonning tafakkur jarayonining maxsuli bo‘lib, ayni vaqtda, ana shu jarayoning shakli hamdir. Insonning fikrlash jarayoni ikki tomonlama mohiyatga ega bo‘lib, bu – uning mantiqiy va abstrakt tabiati hisoblanadi va uning bu ikki jihati komunikativ vosita sifatidagi vazifani bajaradi” [2,11]. Uning kommunikativ vazifasi esa nutqda namoyon bo‘ladi.

Nutiy aktda kommunikativ imkoniyat muloqot qilish, ya’ni axborot uzatish va uni qabul qilish imkoniyati bo‘lib, bunda verbal vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot uzatish va uni qabul qilish jarayonini (nutqiy aktda) noverbal омилларсиз ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki noverbal omillar so‘zlovchi yoki tinglovchining ichki his-tuyg‘ulari, sizni qanday tinglayotgani, munosabati yoki so‘zlovchining maqsadi, uning ichki hissiyotlari, maqsadini tushunish, anglash uchun signal vazifasini o‘taydi. Ayni vaqtda, so‘zlovchi berayotgan axborotni to‘ldiradi, izohlaydi. Noverbal vositalar ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ular qatoriga kommuni-kantning ijtimoiy holati, anatomik-fiziologik xususiyatlari, sotsial mavqei, bilim darajasi, ma’naviy dunyosi va shu kabilar kiradi. “Noverbal vositalar nutqiy kommunikatsiyaning atributi (ajralmas qismi) sanaladi” [3,34].

Muloqot jarayonida (axborot uzatish va uni qabul qilish) so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy holatining o‘rni muhim o‘rin tutadi. Verbal vositalarni tanlash va uni ishlatishda so‘zlovchining ijtimoiy holati belgilovchi vazifa bajaradi. Chunki so‘zlovchi va tinglovchi ijtimoiy holati o‘rtasidagi, ularning jamiyatda tutgan mavqeidagi farq nutqning shakllanishida hal etuvchi omil bo‘ladi, ya’ni nutqiy aktda so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy holati verbal va noverbal omillarning tanlanishi, ularni nutqiy jarayondagi ifodasi va ma’nosiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Muloqot ishtirokchilari (so‘zlovchi va tinglovchi) ijtimoiy holatining o‘zgarishi ham ular nutqida o‘z ifodasini topadi: bu hol nutqda qo‘llanayotgan til birliklari – verbal vositalar hamda noverbal omillarda namoyon bo‘ladi.

Noverbal omil sifatida kommunikant va ijtimoiy bilim muloqotni yo‘lga qo‘yishda aloxida ahamiyat kasb etadi. Nutq jarayonida so‘zlovchining ijtimoiy bilimi noverbal omil sifatida nutq tuzilishi va til birliklarini tanlanishida o‘ziga hos o‘rin tutadi. Bunda birinchi galda gap qurilishida ko‘zga tashlanadi. Chunki so‘zlovchining dunyoqarashi, bilim darajasi gap qurilishini belgilaydi. Ilmiy dunyoqarashi yuqori bo‘lgan, so‘zlovchi nutqida qo‘shma gap va uning ko‘rinishlari, ayniqsa, ergash gapli qo‘shma gap qo‘llanishini kuzatish mumkin.

So‘zlovchining ijtimoiy bilim darajasi, dunyoqarashi yuqori bo‘lganda ergash gapli qo‘shma gap turlaridan keng foydalanishi yoki uning nutqida shunday gaplarning uchrashi uning ko‘p kitob o‘qigani bilan bog‘liq bo‘lishi bilan birga, uning keng ma’lumotga egaligi va shuning ta’sirida shakllangan fikrlash usuli katta rol o‘ynaydi.

Odatda ijtimoiy bilim darajasi keng bo‘lmagan hollarda so‘zlovchi nutqida oddiy, sodda, to‘liqsiz gaplar ko‘p ishlatiladi. To‘g‘ri, bu hol nutq mavzusi, nutqiy vaziyat bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Biroq bilim darajasi keng bo‘lmagan so‘zlovchining fikrlash usuli soddaligi bilan ajralib turadi. Bu esa gap qurilishida ham o‘z aksini topadi. Chunki, bunday hollarda, nutq mavzusi, motiv ham murakkab qurilishli gaplarni talab etmaydi.

So‘zlovchining ijtimoiy bilim darajasi uning nutqidagi gap qurilishi-nigina belgilab qolmasdan til birliklarining tanlanishiga ham kuchli ta’sir etadi. So‘zlovchi o‘zining ijtimoiy bilim darajasini uning mashg‘uloti belgi-laydi. So‘zlovchining nutqidan uning mashg‘ulotini ham aniqlash mumkin bo‘ladi.

Til birliklarining tanlanishi lingvistik jarayon bo‘lmay, psixofizio-logik jarayon xisoblanadi. Psixofiziologik jarayonda so‘zlovchining ijtimoiy bilimi bevosita reallashadi. Bu har ikki holat ham noverbal omil bo‘lib, nutqning tuzilishi va shakllanishini belgilab beradi. Chunki so‘zlovchining ijtimoiy bilim darajasi uning so‘z boylgini belgilaydi va, ayni vaqtda, uning til bilimi darajasini ham ko‘rsatadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish zarurki, ijtimoiy bilim deyilganda faqatgina so‘zlovchining ma’lumoti nazarda tutilmaydi. Ijtimoiy bilim so‘zlovchining ma’lumoti, hayotdan olgan saboqlari, qaysi muhitda tarbiyalanganligi, qanday davralarda bo‘lishi, kimlarning suhbatidan ko‘proq bahramand bo‘lishi bilan bog‘liq holda to‘plagan aqliy tajribasi tajribasi va shu asosida yuzga kelgan tafakkur tarzi hamdir. Bu tafakkur tarzi, til bilimi va yuqorida sanab o‘tilgan bir qator noverbal omillar so‘zlovchining kommunikativ imkoniyatini namoyon qiladi. Bu esa nutqda nafaqat til birliklarining tanlanishini, balki ularning kombinatsiyasini ham belgilaydi. Bu kombinatsiya nutq birliklarida ko‘zga tashlanadi.

Demak, so‘zlovchining ijtimoiy bilimi, ma’lumoti, hayotdan olgan saboqlari, qaysi muhitda tarbiyalanganligi, qanday davralarda bo‘lishi, kimlarning suhbatidan ko‘proq bahramand bo‘lishi bilan bog‘liq holda to‘plagan aqliy tajribasi va shu asosida yuzga kelgan tafakkur tarzidir. So‘zlovchining ijtimoiy bilimi noverbal omil sifatida nutqda til birliklarining qo‘llanishi va ularning o‘zoro bog‘lanishi,

sema va arxisemalarini namoyon qilishida belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Bu tafakkur tarzi, til bilimi va yuqorida sanab o‘tilgan bir qator noverbal omillar so‘zlovchining kommunikativ imkoniyatini namoyon qiladi. Bu esa nutqda nafaqat til birliklarining tanlanishini, balki ularning kombinatsiyasini ham belgilaydi. Bu kombinatsiya nutq birliklarida ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar:

1. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.: O‘qituvchi, 1993.
2. Kolshanskiy G.V. Kommunikativnaya funksiya i struktura yazika. – M.: “Nauka”, 1984.
3. Saidxonov M.M. Ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari, – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 34-bet.
4. Hojaliyev I.T., A’zamova G.S., Adekvatlik va uni ta’minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar, FarDU. Ilmiy xabarlar – Научний вестник.ФерГУ, 2024/№3, 539-bet.
5. Xojaliyev, I. T., & Jamolov, J. (2021). About changes in the phonetic structure of words borrowed in Uzbek language from Tajik. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *12*(104), 478.
6. Hojaliyev, I., & Qizi, A. G. S. (2021). Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.
7. Hojaliyev, I., & A'zamova, G. (2024). Adekvatlik va uni ta’minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 109-109.
8. Hojaliyev, I., & Xolmatov, M. (2023). Xotira matnlaridagi polisemantik so‘zlarning semantik-strukturasi. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 109-109.

ZIDLOVCHI QIYOS

Zafar Bekpo‘latovich UMURQULOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Qiyoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan usuli bo‘lib, bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim vositadir. Maqolada, zidlovchi qiyoslarning odatda xalq maqollarida uchrashi bu ifoda usulining idrokiy bilish natijasining mahsuli ekanligidan va murakkab tarzda namoyon bo‘lishi haqida atroflicha fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *qiyoslash, solishtirish, chog‘ishtirish, taqqoslash, o‘xshatish, zidlanish, bilish.*

Zidlash tildagi muhim ifoda usullaridan bo‘lib, o‘zbek tilida zidlik ma’nosini ifodalovchi turli vositalar mavjud. Zidlash hodisasining ikki holatini ajratish lozim. 1. Oddiy zidlash. 2. Zidlash qiyoslash. Tilda zidlash ma’nosini vujudga keltiruvchi muhim lug’aviy birliklar antonimlar hisoblanadi. Zid ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi lug‘aviy birliklar: *yomon- o‘z g‘amida, yaxshi – el g‘amida, yaxshiga yaxshi bo‘l; yomonga-yomon bo‘l* kabi xalq maqollarida xulq-atvorni nisbatlangan holda kishilar bir-biriga zidlangan. Bundan tashqari oddiy zidlov ma’nolari zidlash komponentlari orqali, masalan, zidlov bog‘lovchilari orqali bog‘langan bog‘lovchili gaplar hamda to‘siqsiz ergash gaplarda namoyon bo‘ladi. Zidlov ma’nosining bu xildagi ifodasida so‘z ma’nolari, gaplardan anglashiladigan ma’nolar bir-biriga zidlansa-da, qiyoslash ma’nosi ifodalanmaydi. Zidlash qiyoslash shakllarida esa zidlash orqali qiyoslash ham vujudga keladi. Natijada, ifodaning o‘ziga xos bir turi namoyon bo‘ladi. Zidlash-qiyoslash ham boshqa qiyosiy ifodalar singari ifodaning original turlaridan bo‘lib, kuchli tafakkur jarayonining hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zidlovchi qiyoslarda biror voqea, hodisa o‘zaro zid qo‘yilib, ulardan birining ma’nosi orqali ikkinchisiga ishora qilinadi.

Zidlash haqida fikr yuritar ekan, tilshunos A.Abdullayev zidlashda ikki qism mavjudligini e’tirof etadi. Birinchi qism zidlanuvchi qism, ikkinchi qism zidlash asosida ta’kidlanuvchi qismdir [1,55]. Ana shu zidlash asosidagi ta’kidlanuvchi qism zidlovchi qiyoslarning mohiyatini ochib beruvchi qismdir. Zidlovchi qismlarni oddiy zidlashdan farqli jihatlari shundaki, zid ma’nolarni ifodalanishi qiyos uchun asos bo‘la olmaydi. Zidlovchi qiyoslar tarkibida zid ma’noli so‘zlar zidlash asosining ta’kidlanishi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham zidlovchi qiyoslarda hamma vaqt ham zid ma’noli so‘zlar ishtirok etmaydi, aksincha, bir voqea ikkinchi bir voqeaga zid qo‘yilgan holda ularning qay biri afzal, qay biri noafzalligi haqida xulosa, hukm chiqariladi. Zidlovchi qiyoslar boshqa qiyosiy ifodalardan farqli ravishda birdan ortiq komponentlardan tashkil topgan bo‘ladi. Bu jarayonda komponentlardan biri ikkinchi komponentning mazmunini namoyon bo‘lishi va qiyoslash holatini vujudga keltirilishi uchun asos bo‘ladi.

Zidlovchi qiyoslarni farqli jihatlaridan yana biri unda predmet, narsalarni bir-biriga zidlash asosida qiyoslash holatlari deyarli uchramaydi. Bunday ifodalar asosan holatlar, hodisalar, voqealar va tafakkur qilinayotgan tasavvurlar asosidagi qiyoslardir. Bu hol zidlovchi qiyoslarni mohiyatan komponentlarning umumiy mazmuni orqali vujudga keluvchi ifoda ekanligini ko‘rsatadi va qiyosning bu turini mazmun asosidagi qiyos sifatida kuzatish lozimligini ko‘rsatadi.

Zidlovchi qiyoslarda qiyos subyekti, qiyos etaloni mavjud bo‘lib, qiyosiy belgi esa ifodalanmoqchi bo‘lgan mazmunda aks etadi. Shu nuqtai nazardan

ushbu qiyosiy vositaning ham uch asosdan iboratligini, ulardan ikkitasi eksplitsit va bittasi implitsit holda namoyon bo‘lishini qayd etib o‘tish lozim.

Voqea, hodisalarni bir-biriga zidlash va undan muhim xulosa chiqarish zidlash va zidlash-qiyoslash munosabatlarini vujudga kelishi uchun zamin yaratadi. Zidlashda zidlovchi belgilar bir-biriga qiyoslangan holda muhim xulosa chiqarilmaydi. Zidlovchi qiyoslarda esa zidlash uchun asos bo‘ladigan belgilar muhim xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Masalan, *Yaxshi odam-yomon odam* kabi birikuvlarda kishilar ma’lum xususiyatlari asosida bir-biriga zid qo‘yilgan. Bu – oddiy zidlash. Shu zidlash asosida yaxshilik va yomonlik bir-biriga qiyoslanib, muayyan xulosa chiqarilganda zidlovchi qiyos vujudga keladi. Ko‘rinadiki, zidlovchi qiyoslar qiyosning tafakkur qilishga asoslanadigan turlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham zidlovchi qiyoslar manbai ko‘proq xalq maqollari va hikmatli so‘zlaridir.

Xalq maqollari donishmandlikning belgisi bo‘lib, maqollarning yaratilishida tajribalarga tayanib, hayotni chuqur his etish, narsa, predmetlarni belgi-xususiyatlarini anglash, voqea-hodisalarni qiyoslash natijasida muhim xulosalarga kelish o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Zidlovchi qiyoslarning ko‘proq xalq maqollarida uchrashi ham bu ifoda usulining idrokiy bilish natijasining mahsuli ekanligidan va murakkab tarzda namoyon bo‘lishidan dalolat beradi. Zidlovchi qiyoslardagi narsalar, voqealar orasida bog‘liqlikning mavjudligi yoki narsa va voqealar orasida bog‘liqlik hosil qilinishi ushbu ifoda usulining muhim belgisidir. Masalan, *Yomonga yaqin yursang, balosi yuqar, Qozonga yaqin yursang qorasi.* Xalq maqollarida yomon kishiga qo‘shilgan kimsaga uning yomon xislatlari o‘tishi, yomon kishi boshqalarni yomon yo‘lga boshlashi ikkinchi bir komponent orqali ifodalangan, ma’no ikkinchi bir ma’noni vujudga kelishiga ishora etadi va ushbu ifodalar zidlik munosabati asosida qiyoslanadi. Yomondan yuqadigan balo ikkinchi komponentda qozonning qorasiga qiyoslanadi, zero qoralik ham yomonlik belgisi bo‘lib, ushbu belgilar orasida bog‘liqlik mavjud. Ushbu matnda zidlash munosabatini vujudga keltirish uchun xizmat qilayotgan *yomon, qozon, balo, qora* kabi so‘zlar mavjud bo‘lib, qiyos-zidlash ma’nosi esa yomondan yuqadigan yomon xislatlarni qozondan yuqadigan qoraga qiyoslanishi va bu har ikki holatning ham nomaqbul ekanligini ta’kidlash orqali ifodalangan. Ushbu misol shuni ko‘rsatadiki, zidlovchi qiyoslar so‘zlar bilan emas, ular orqali ifoda etiladigan ma’nolarning qiyoslanishidan hosil bo‘ladi. Bu holatni quyidagi zidlovchi-qiyoslar ifodalangan matnlarda ham kuzatish mumkin. *Egri bo‘lsang, sinar qanoting, to‘g‘ri bo‘lsang, chiqadi oting* maqolida ham zidlik ma’nosi egri, to‘g‘ri antonim so‘zlari orqali ifodalangan bo‘lsa-da, qiyoslash ma’nosi egrilik va to‘g‘rilik natijalarini solishtirish natijasida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, *Yomon bilan yurdim, qoldim uyatga, yaxshi bilan yurdim, yetdim murodga, yomondan dog‘ qolar, yaxshidan – bog‘.*

Shirin so‘z – qaymoqli ayron, achchiq so‘z – bo‘yningga arqon. Nodonning dili tilida, Dononing tili – dilida kabi maqollar ma’nosi orqali ham anglanadi. Ushbu xalq maqollari ham zidlovchi qiyos asosidagi fikriy ifodaga ega bo‘lib, turli xususiyatlar va xislatlar qiyoslanishi asosida shaxsga baho berilgan. Masalan, *Nodonning dili – tilida Dononing tili – dilida* maqolida bilib-bilmasdan gapirish axloq-odobning belgisi ekanligi aks etgan. Sharq xalqlarida noo‘rin so‘zlash odobsizlik, aksincha, tinglash, eshitish odoblilik belgisi sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланишининг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987.
2. Дадабоева Ш. Тилда қиёслаш муносабатини ифодалашнинг тизимли тадқиқи: филол. фан. бўйича фалс. док. автореф. – Фарғона, 2022.
3. Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. – Тошкент: Тафаккур, 2015.
4. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

O‘ZBEK TILIDA TOVUSH O‘ZGARISHLARINI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR


Habiba Abdumannon qizi BERDIYEVA
Toshkent amaliy fanlar universisteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tovush o‘zgarishlarini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi omillarga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashiladi. Aytish joiz, tovush o‘zgarishiga asos bo‘lgan vositalar ma’lum sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Xususan, psixologik, fiziologik, ijtimoiy faktorlar shular jumlasidandir.*

Kalit so‘zlar. *Tovush o‘zgarishlar, ijtimoiy faktorlar, psixologik va fiziologik omillar, lingvistik yondashuv.*

Tovush o‘zgarishlari tilshunoslik sohasida keng tadqiq qilinuvchi mavzulardan biri sanaladi. Sababi, tovush o‘zgarishi tildagi so‘zlarning talaffuz me’yorlari, yozuv omillarini belgilashga xizmat qiladi. Tovush o‘zgarishlarini to‘g‘ri aniqlash hamda baholash tilning orfografik va orfoepik me’yorlarining shakllanishiga yordam beradi. Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita tovush o‘zgarishlari xususida bo‘lib, ularning tilda rivojlanish omillariga lingvistik nuqtayi nazardan baho beriladi. Tovush o‘zgarishlari tillar evolyutsiyasining asosiy jihati bo'lib, vaqt o‘tishi bilan tillarning qanday tovushga asoslanishi va

o‘zgarishini shakllantiradi[3,112]. Ovoz o‘zgarishiga yordam beradigan ba’zi asosiy omillar bevosita tashqi jihatlarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin. Ularni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:



Fiziologik omillar bu tovushlarning paydo bo‘lish o‘rniga bog‘liq omil hisoblanadi. Bunda so‘zlovchining artikulyatsiya qulayligiga erishish maqsadida talaffuz jarayonini soddalashtirishga harakat qilishi hamda tovushlarni shakllantirishning eng oson usulini qidirishi ushbu omilning asosiy maqsadidir. Bu quyidagilarga olib kelishi mumkin[1,87]:

- Assimilyatsiya: tovushlar qo‘shni tovushlarga o‘xshash bo‘ladi (masalan, n tovushi b tovushidan oldin m ga aylanadi: shanba - shamba, manba - mamba kabi)
- Eliziya: tovushlar tushirib qoldirilgan yoki zaiflashtirilgan (masalan, yugura berdi - yuguraverdi) va hokazo.

Bundan tashqari, akustik ravshanlik ham tovush o‘zgarishlarini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi omillardan biri sanaladi. O‘zgarishlar tovushlarning o‘ziga xosligini oshirishi mumkin, bu tinglovchilarga so‘zlarni farqlashni osonlashtiradi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi[4,88]

-Ovozni ko‘tarish/pasaytirish: unli tovushlar og‘izda yuqoriga yoki pastga siljiydi.

-Undosh tovushlarning kuchayishi/zaiflashishi: undosh tovushlar ozmi-ko‘pmi kuchayib boradi (masalan, “t” ba’zi tillarda “th” ga aylanadi)

Ijtimoiy omillar ham tovush o‘zgarishlarini yuzaga keltiruvchi faktor sanaladi. Bunda tillar orasidagi aloqa, ya’ni boshqa tillardan so‘zlar olish yangi tovushlarni kiritishi yoki mavjudlarini o‘zgartirishi mumkin. Mintaqaviy lahjalar, xususan, geografik izolyatsiya va mahalliy nutq odatlari talaffuzdagi farqlarga olib kelishi mumkin[5,127]. Ijtimoiy obro‘ga oid faktorlar, ya’ni ba’zi talaffuzlar yuqori ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa keng

qabul qilinishiga olib keladi. Lingvistik konvergensiya – aloqadagi tillar bir-biriga ta’sir qilishi mumkin, bu umumiy ovoz o‘zgarishlariga olib keladi.

Tovush o‘zgarishlariga sabab bo'luvchi yana bir vosita bu psixologik omillardir. Ushbu omil perseptual tarafkashlik tufayli tinglovchilar tomonidan tovushlarni noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki soddalashtirilishi mumkin, bu esa vaqt o‘tishi bilan talaffuzdagi o‘zgarishlarga olib keladi. Kognitiv qulaylik ham psixologik omilning tarkibiy qismi o‘laroq tilni qayta ishlash asosida rivojlantirilishi mumkin. Tovushlar va ularning ma’nolari o‘rtasidagi aloqalar talaffuzga ta’sir qilishi mumkin, ko‘pincha, bu metaforik assotsiatsiyalar tomonidan boshqariladi.

Tarixiy omillar ham tovush o‘zgarishlarining yuzaga kelishidagi asosiy omil sifatida baholanadi. Migratsiya va turarjoy shakllari, ya’ni geografik siljishlar til bilan aloqaga olib kelishi va talaffuzga ta’sir qilishi mumkin. Siyosiy va iqtisodiy ta'sirlar, xususan, hokimiyat tuzilmalari yoki iqtisodiy aloqalardagi o'zgarishlar tildan foydalanishga va shuning uchun talaffuzga ta’sir qiladi. Tovush o‘zgarishlari talaffuzdagi tasodifiy tebranishlar tufayli sodir bo‘lishi mumkin, ayniqsa alohida jamoalarda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, biror jamoa vakillari orasida “qovun” tarzida talaffuz qilinuvchi so‘z boshqa guruhlar ichida “qog‘un” kabi aytilib, tovush o‘zgarishining og‘zaki ko‘rinishiga asos bo‘ladi [2,77].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tovush o‘zgarishlari, ko‘pincha, vaqtlar davomida asta-sekin sodir bo‘ladi, bu ularni bir umr davomida kuzatishni qiyinlashtiradi. Biroq tarixiy til yozuvlarini o‘rganish va zamonaviy dialektlardagi farqlarni tahlil qilish orqali tilshunoslar tovush o‘zgarishi jarayonlarini qayta qurishlari va tillarning qanday rivojlanganligini tushunishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Решетов В.В. Узбекский язык.Введение. Фонетика. – Тошкент, 1959.

2. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: УОМ. 1962.

3. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Айрим ундош фонемаларнинг характеристикаси. – Тошкент: Фан, 1967.

4. Рясянен М. Материалы по исторической фонетике тюркских языков. – М.,1955.

5. Словообразование. Морфология. – М.,2003.

MAQOLLAR TARKIBIDA QATNASHGAN QA= ASOSLI LEKSEMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Kamola Gafurovna RIXSIYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollari tarkibida qo‘llangan qa= asosli ayrim leksemalarning semantik xususiyatlari yoritilgan. O‘zbek xalq maqollari tarkibida eng ko‘p miqdorda ishtirok etgan qa= asosli leksemalardan biri «qop»dir. Hozirgi o‘zbek tilida «qop» deganda o‘ziga xos shakl va vazifaga ega bo‘lgan bir predmet tushuniladi. Ammo tarixan qopning bir necha ma’nolari mavjud bo‘lgan. Maqollar tarkibida qop leksemasi anlatgan semalari maqolada bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *leksema, sema, maqol, semantik birlik, takror.*

O‘zbek xalq maqollari tarkibida eng ko‘p miqdorda ishtirok etgan qa= asosli leksemalardan biri *qop*dir. Hozirgi o‘zbek tilida *qop* deganda o‘ziga xos shakl va vazifaga ega bo‘lgan bir predmet tushuniladi. Ammo tarixan *qop*ning bir necha ma’nolari mavjud bo‘lgan. Maqollar tarkibida qop leksemasi quyidagi semalarni ifodalagan:

«kattalik, katta hajm» semasi ifodalangan: *Bo‘z yamog‘i – bo‘zcha, Qop yamog‘i – qopcha* [2, 378];

«biror narsaga mo‘ljallangani va shusiz kerakli holatda bo‘la olmaslik» semasi aks etgan: *Bo‘sh qop tik turmas* [2, 382]. *Qop* leksemasi matn tarkibida bir necha ko‘chma ma’nolarini yuzaga chiqaradi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da unga quyidagicha izoh beriladi: «Sochiluvchan narsalar solib qo‘yiladigan, mato, chipta va sh.k.dan tikilgan, xaltadan katta, qanordan kichik ro‘zg‘or buyumi. Kanop qop. Chipta qop. Qog‘oz qop. [5, 335] Demak, *qop* narsa-predmetlarni bir joyga jamlab, to‘plab turuvchi buyum, unda ham yopiqlik, ham jamlik semalari yuzaga chiqadi. «Bo‘sh qop tik turmas» maqolida qop aynan buyum ma’nosini anglatgan. Ya’ni qopning narsa-predmet, mahsulotlarni bir joyga jamlab, to‘plab turish xususiyati aks etgan. Qopning ichi to‘la bo‘lgandagina u o‘zining shaklini namoyon qilib turadi, agar qopning ichi bo‘sh bo‘lsa, u tik turmaydi, o‘z shaklini yo‘qotadi. Qappaymoq fe’li ham shundan kelib chiqqan bo‘lib, dumaloqlik, semizlikni ifoda etadi: qorni qappaygan.

Men sizlarga mana bu sovg‘alarni olib keluvdim, - dedi qopni ko‘rsatib… R.Fayziy. Sen yetim emassan. …qopning og‘zini ochib, elakka hovuchlab un soldi, qopning og‘zini yana burab qo‘ydi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

«kundalik hayotda koʻp ishlatilishi» oʻz ifodasini topgan: Sinalmagan sop qolmas, Yirtilmagan qop qolmas [2, 400]. Chunki qopdan turmushda koʻp foydalanilganligi bois yirtiladi. Bu sema Qopning gardi ketsa-ketsin, Odamning burdi ketmasin [2, 240] maqolida ham aks etgan:

«osonlik» semasini ifodalagan: Yuz qopni bogʻlab boʻlar, Yuz ogʻizni bogʻlab boʻlmas [2, 416];

«yoʻq boʻlish» semasi iffodalangan: Qozonga kirgan qaytib qopga kirmas [2, 366];

«mulk» semasi aks etgan: Har kishi oʻz qopining ogʻzini oʻzi ochar [2, 375];

«koʻp»lik semasi ifodalangan: Gap desang, qop-qop, Ish desang, Ashtarxondan top, Gap desang, qop-qop, Ish desang – betob [2, 25]. «Qop» leksemasi koʻchma maʼnoda ishlatilgan. Ushbu «qop-qop» leksemasining takrori meʼyordan ortiqligini anglatadi. Yaʼni bu birlik bekorchi gaplarning haddan ortiqligini anglatgan. Yaʼni bu maqolda meʼyoridan koʻp gapirish va dangasalik illat sifatida qoralanadi. Insonlarni bu yoʻldan qaytarishga undaladi. Mehnat insonni koʻklarga koʻtarishi haqidagi gʻoya ham shu maqol orqali aks ettiriladi. Qop-qop takrori mana shu mazmunni kuchliroq tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Ayrim shevalarda uning «Gap desang qop-qop, ish desang Samarqanddan top» yoki «Gap desang qop-qop, ish desang Ashtarxondan top» kabi variantlari ham mavjud. Lekin ularning barchasida deyarli bir xil fikr ilgari suriladi. Oʻzbek xalqida mehmondoʻstlik, mehnatkashlik, insonparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar qadimdan ulugʻlanadi, bular xalqning maʼnaviy qadriyatiga aylangan. Dangasalik, ishyoqmaslik kabilar esa, aksincha, doim salbiy baholanadi. Shuning uchun bola tarbiyasida juda kichikligidan boshlab bu qadriyatni asta-asta singdirib borishga harakat qilinadi.

Gap desang, qop-qop, Ish desang – betob maqolida «koʻp»lik semasi salbiy boʻyoqdorlik asosida namoyon boʻlgan. Mana bu maqolda esa «koʻp»lik semasi ijobiy boʻyoq asosida reallashgan: Ish qilganga qop-qop, Qilmaganga boʻsh qop. Bu maqoldagi «qop-qop» mahsulotlarning koʻpligiga ishora qilib, keyingi yillarda moddiy mablagʻni ham anglatadi. Chunki kishilik jamiyatining dastlabki taraqqiyot bosqichlarida pul ishlatilmagan va mehnatga haq toʻlashning mahsulot koʻrinishi amalda boʻlgan. Tovar ayriboshlash jarayonida ham mahsulotlar moddiy farovonlik asosini tashkil qilgan. Maqoldagi qop-qop birligida «farovonlik» semasi ham aks etgan. Bu maqoldagi qop leksemasi maqolning qadimiyligini bildirishga ham xizmat qiladi;

«qutulish» semasi ifodalangan: Yomon xotin kimniki – olaqopniki, Olaqoping boʻlmasa, allakimniki [2, 58]. Matn mazmunidan olaqopning mahsulotlarni yoki chiqindilarni tashlash uchun moʻljallangan anjom ekanligi koʻrinib turibdi. Bunda «yomon xotindan voz kechish» semasi aks etgan.

Ish qilganga qop-qop, Qilmaganga boʻsh qop [2,28] maqolidagi «qop-qop» takrori esa koʻplikni anglatadi. Ya’ni mehnat qilganning rizqi butun boʻladi, buning orqasidan koʻp davlat topadi, dangasa, ishyoqmas insonlarning esa, aksincha, rizqi ham boʻsh boʻladi.

Demak, maqolda «qop» leksemasi takrori belgining ortiqligi, hajmning haddan ziyodligini anglatgan.

Adabiyotlar

1. Hojiyev A. va b. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Sharq, 2001. –Б.172.

2. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B.Oʻzbek xalq maqollari. – Toshkent, 2019. – 512 b.

3. Рустамов А. Махмуд Кашгарский о словах с звуковой оболочкой *qaq* // Turcologica // К семидесятилетию академика А. Н. Кононова издательство «Наука» Ленинградское отделение. –Л., 1976. – Б. 146.

4. Рустамов А. Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977, 184 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 592 б.

SOʻZ BIRIKMASI SHAKLIDAGI EVFEMIK BIRLIKLARNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sirojiddin Eshqobilovich TURDIMURODOV
Termiz davlat universiteti
oʻzbek tilshunosligi kafedrasi katta oʻqituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Har bir tilda evfemik birliklarning keng qoʻllanilishi shu til egalarining milliyligiga xos belgidir. Nutqiy madaniyatni ta’minlash tinglovchi (suhbatdosh)ga muomala va odob-axloq me’yyorlari doirasida muomalada boʻlish, oʻzaro vaziyatni yumshatish, uyat holatlarni yashirish, qoʻpollikni muloyimlashtirish kabilar evfemik birliklar orqali namoyon boʻladi. Ushbu maqolada evfemik ma’noli soʻz birikmalarining ayrim nazariy va amaliy xususiyatlari haqida fikr va munosabatlar bildirilgan.

Kalit soʻz: *evfemizm, leksik-semantik, sintaksis, soʻz birikmasi, tobe soʻz, hokim soʻz, bitishuv, boshqaruv, moslashuv.*

Evfemik ma’noli birliklar koʻp jihatli va koʻp vazifali, oʻziga xos tuzilishga ega boʻlgan lisoniy va nutqiy hodisadir. Shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos boʻlgan semiotik, semantik, strukturaviy, nominativ xususiyatlarni e’tiborga olish muhim. Haqiqatan, har qanday til birligi strukturaviy va semantik jihatdan yaxlit koʻrinishda boʻlishi zarur. Aks holda

unday birliklarni mustaqil birlik deb atab bo‘lmaydi. Mustaqil birliklar qatorida evfemik so‘z birikmalari ham alohida ahamiyatga ega birlik hisoblanadi.

Ma’lumki, formal va struktural tilshunoslikda lisoniy birliklarni asosan shakliy tomondan o‘rganishga e’tibor juda ham kuchaydi. Bir so‘z bilan aytganda keyingi yillarga qadar lisoniy birliklarning ob’ektiv borliq bilan munosabati ko‘pgina tahlillardan chetda qolib keldi. So‘ngi tadqiqlar esa shaklni ma’nodan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatdi va uni isbotladi. Natijada lisoniy birliklarning ma’no tomonini tahlil qilishga e’tibor ortdi.

Tilshunoslikda ma’noviy tadqiqlarning ko‘proq olib borilishi natijasida lisoniy birliklarning shakl va mazmun tomondan tavsifi ham tilni to‘liq izohlashga katta imkoniyat beradi, deb aytish mumkin. Tilshunos olim Sh.Safarov ta’biri bilan aytganda: “So‘zsiz, har qanday lisoniy qurilma hosil bo‘lishining dastlabki bosqichi idrok etilayotgan voqelikning ongdagi in’ikosi, yuzaga kelishi va uning tafakkurda “hazmu tahlil qilinishi natijasida hosil bo‘ladigan konseptning tug’ilishidir” [1, 320]. Evfemik so‘z birikmalarida ham idrok etilayaotgan voqelik ongda qo‘pol va noo‘rin birliklar o‘rnida uning yumshoqroq va madaniyroq ko‘rinishi bo‘lib anglashiladi va muomala madaniyatini shakllantirishda amaliy ahamiyatga egaligi bilan ajrallib turadi. Shuningdek, nutqni chiroyli lutf va alfoz bilan davom ettirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Grammatikaning teng huquqli, mustaqil qismlari bo‘lgan morfologiya va sintaksis bir-biri bilan uzviy bog’liqdir. Morfologiyada so‘zlarning strukturasi o‘rganilsa, sintaksisda ularning aloqasi, bog’lanishi, birikish yo‘llari va vositalari aniqlanadi. Sintaksis so‘zlarning birikishini, birikmaning andozalarini tasvirlaydi. Masalan: oppoq qor (sifat+ot). Bu grammatik holat, albatta mazmun bilan bog’lanadi: so‘zlar ichki tomonlari mos kelgandagina birikadi. Bu ichki moslik so‘zlarning grammatik munosabatga kirishishi o‘sha so‘zlar bilan ifodalangan tasavvurlarning munosabati, mantiqan aloqadorligi bilan ifodalanadi. Demak, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zdan tuzilib, bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlikni tashkil qilgan birlik so‘z birikmasi hisoblanadi. Shunday qilib, SB semantik yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘lgan strukturadir. Ushbu semantik strukturaning hosil bo‘lishi hamda lisoniy faoliyat jarayonida turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishini o‘rganish SB nazariyasining muhim qismi va talabidir.

Ma’lumki, sintaksis so‘zlarning har qanday birikuvi emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuv jarayonini qamrab oladi. Axborot va ma’lumot almashish gap orgali yuzaga kelar ekan, gap fikrning yuzaga chiqishida mihim kasb etadi. Bilamizki, SB ma’lum tushuncha anglatadi. Shuni ham aytish kerakki, SB anglatgan tushuncha so‘z anglatgan tushunchadan albatta katta farq qiladi. Nutqda so‘zlar o‘zaro sintaktik aloqaga

kirishib, ma’lum tushuncha ifodalovchi birlik – so‘z birikmasining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida F.X.Abdullayev, A.R.Sayfullayeva, M.K.Sharifov, D.U.Ashurova, N.Q.Turniyozov, M.I.Rasulova, M.Abuzalova N.Mahmudov U.Tursunov, B.Mengliyev kabi olimlar SB tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, shu tizimga kiruvchi birliklarning struktur va ma’noviy jihatlari haqida qimmatli fikrlar keltirganlar [2, 21].

Gapdagi so‘zlar ma’no talablariga ko‘ra o‘zaro turli sintaktik munosabatlarga kirishadilar va aynan ana shu munosabatlar gapning butunligi, sintaktik jihatdan mustahkam, jipsligini ta’minlaydi. Demak, bir-biri bilan sintaktik jihatdan bog’langan, birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega bo‘lmagan ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlar qo‘shilmasi so‘z birikmasi deyiladi [3, 26].

Evfemik vositalarning so‘z shaklidagi turlaridan tashqari so‘z birikmasi shaklidagi turlari ham nutqimizda juda ko‘p qo‘llaniladi. So‘z birikmasi shaklidagi evfemik vosita [tobe so‘z + hokim so‘z] qolipiga ega. Bunday evfemizmlar nutqiy tabiatliligi va barqaror emasligi bilan iboralardan farqlanadi: *jilovi qo‘lida, yolg’iz bosh* (beva, tul), *vaqtsizroq yaratilgan* (chala tug’ilgan) va hokozo.

Ilmi va saviyasi past, madaniyatdan yiroq kishilarga nisbatan ishlatiladigan *boshi bo‘sh, jo‘n odam, bo‘yni yog’on, ishi buzuq* kabi evfemik birikmalar fikr ta’sirchanligini oshiradi. Bu birliklar turg’un bo‘lmay nutqda keng qo‘llanilib, turli evfemik mazmunda keladi [4, 50]. Shunday ekan biz so‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklarning qo‘llanilishiga nazar soladigan bo‘lsak, ular so‘z shaklida qo‘llaniladigan evfemalarga nisbatan keyingi o‘rinda turadi. Nutqimizda so‘z birikmasi shaklidagi evfemalar ham katta qismni tashkil etishi kuzatildi.

Aytilishi yoqimsiz bo‘lgan voqelikni nomlash maqsadida klimaks o‘rnida ***hayzning to‘xtash davri,*** masalan: Menopauza – ayollarda *hayz to‘xtashi davri* osteoporoz rivojlanishini kuchaytiradi (“Tashxis”, 2015, №37. 4-b.) [5, 19]. Ushbu ishda bundan tashqari hezalak qo‘pol birligi o‘rnida ***jinsiy faollikning pasayishi, erkaklik quvvatining yo‘qolishi*** kabi birikma evfemalari qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Tadqiqotchi ana shu birliklarni aynan evfemik so‘z birikmasi tariqasida tahlilga tortmagan bo‘lsada, mana shu qo‘llanilishning o‘ziyoq so‘z birikmasi shaklida ekanligi ko‘rsatib turibbdi. So‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklarning qo‘llanilishini deyarli barcha soha vakillari nutqida kuzatishimiz mumkin.

Evfemik birliklarni nutqda qo‘llashning yana bir ehtiyoji o‘zaro fikrlar “to‘qnashuvi”, qarama-qarshiligining oldini olish, suhbatdoshda noqulaylik hissini paydo qilmaslikdir. Buni esa yuqori madaniyatlilik belgisi deb baholashimiz mumkin. Ushbu fikrimizni quyidagi jumlalar orqali isbotlashga

harakat qilamiz. “Nutqiy muloqotda buni tasdiqlovchi ko‘plab dalillar mavjud. Masalan, invalidlar ***imkoniyati cheklanganlar***, invalidlar olimpiadasi esa ***paralimpiada o‘yinlari*** singari birliklar bilan evfemalashtiriladi” [5, 18], – deydi N.G’aybullayeva. Agarda muloqot jarayonida ushbu birliklarni to‘g’ridan-to‘g’ri qo‘llash bu imkoniyati cheklangan kishilarga juda ham og’ir botadi. Bizning tahlillarimiz ushbu so‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklarning birikish usuli mazmunan moslashuvli evfemik birlik ekanligini ko‘rsatmoqda.

Boshqaruvli evfemik birliklarga nisbatan bitishuv va moslashuvli so‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklar insonlar hayotidagi eng muhim sohalardan biri hisoblangan tibbiyot sohasida keng va faol qo‘llanilishini kuzatdik.

Evfemik so‘z birikmalari uchun ham quyidagi belgilarni xos ekanligini ko‘rsatish mumkin.

a) birdan ortiq mustaqil so‘z;

b) a’zolarning ma’noviy va grammatik jihatdan mosligi;

d) o‘zaro tobelik;

e) tushuncha ifodalash.

Evfemik so‘z birikmalariga ham tegishli bu to‘rt belgining har biri o‘ziga yondosh hodisalarga o‘xshaydi va bir vaqtning o‘zida farqlanadi ham. Masalan, birdan ortiq mustaqil so‘zdan tashkil topganligi bilan so‘zdan farq qilsa, tushuncha ifodalashida u bilan o‘xshashlik kasb etadi. Gap birdan ortiq mustaqil so‘zning ma’noviy va grammatik jihatdan tobelanishi asosida ham vujudga keladi. Lekin u, fikr ifodalashi bilan so‘z birikmasidan farq qiladi.

Tilda ikki yoki undan ortiq so‘zning bog’lanishidan hosil bo‘lgan birikmalar ko‘p. Masalan, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, gap, qo‘shma so‘z, tasviriy ifoda, maqol, matal va b. Shuning uchun dastlab, turg’un bog’lanish va erkin bog’lanishni bir-biridan farqlash kerak. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning bir grammatik butunlik, ma’noviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so‘z bog’lanishi erkin bog’lanish deyiladi. SB va gap erkin bog’lanishga kiradi. Chunki SB va gap nutq jarayonida hosil qilinadi, ikki yoki undan ortiq so‘zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog’lanishi barqaror, turg’un bog’lanishni tashkil qiladi [6, 190].

Evfemik so‘z birikmalari ham shu jihatdan erkin bog’lanish asosida nutqda hosil bo‘lib, ma’lum vaqtdan so‘ng frazemalarga o‘xshash nutqda tayyor holda qo‘llaniladi. Mana shu jihati bilan frazemalarga o‘xshab ketadi. Masalan, **go‘r, go‘riston, qabr** tushunchasi o‘rnida qo‘llaniladigan *“so‘ngi uy”* evfemasini olsak, ushbu evfemik so‘z birikmasi *so‘ngi* (*keyingi, oxirgi)* tushunchasi va *uy* tushunchasi birikib alohida yangi tushuncha (**go‘r**, **qabr**)ni hosil qilganligini kuzatish mumkin. *So‘ngi uy* birikmasi yuqoridagi ma’lum

vaziyatda qo‘pol birlikni nisbatan yumshatish uchun qo‘llanilganligi bois evfema, ikki leksemaning birikib ma’lum tushuncha ifodalashi jihatdan evfemik so‘z birikmasi hisoblanadi.

Evfemik so‘z birikmalarida ham birikayotgan elementlar o‘rtasida semantik yaqinlik juda ham muhim hisoblanadi. Tog’ri ta’kidlanganidek, semantik yaqinliksiz ma’lum birikma bo‘laolmaydi. Haqiqatan ham nutqda leksik-grammatik qoidalarga bo‘ysungan holda, cheksiz miqdorda so‘z birikmalarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu degani evfemik so‘z birikmalarini ham shu tarzda ko‘plab yaratish mumkin degani emas. U evfemik so‘z birikmalarining xarakteri bundan biroz mustasno. Ularning aksariyati nutqda tayyor holda shakllangan bo‘ladi. Chunki shu jihati bilan frazeologik birikmalarga o‘xshab ketadi. Bu degani, ya’ni nutqda tayyor holda shakllangan bo‘ladi degani evfemizmlar va frazeologizmlar bir xil hodisa degani emas.

Tilshunos olim N.Mahmudov va A.Nurmonovlar to‘g’ri ta’kidlaganidek, “So‘zlarning har qanday nopredikativ bog’lanishi SBni hosil qilavermaydi. So‘zlarning bog’lanishi erkin bo‘lishi, nutq jarayonida kengayuvchi bo‘lakning bog’lanish modeli asosida hosil qilinishi yoki bu bog’lanish barqaror bo‘lib, nutqqa tayyor holda olib kirilishi mumkin. Shuning uchun ham so‘zlarning nopredikativ bog’lanishi ikkiga bo‘linadi: 1) erkin bog’lanish; 2) turg’un bog’lanish” [7, 20]. Evfemik so‘z birikmalarida ham yuqoridagi ikki turga doir bog’lanishlarni uchratish mumkin. Masalan, **uylanmoq** va **uylantirmoq** o‘rnida *nikohiga olmoq* erkin bog’lanishga misol bo‘lsa, *oyog’ini to‘rtta qilmoq, boshini ikiita qilmoq* kabilar turg’un bog’lanish (ya’ni nutqqa tayyor holda olib kirilmoqda)ga misol bo‘ladi. Ularni quyidagi misol tahlili asosida izohlashga harakat qilamiz. Bu o‘g’limizning *oyog’ini to‘rtta qilmasak*, … (“Ayol va zamon”, 1999, 18-noyabr). Yuqoridagi fikrdan anglashilmoqdaki, *oyog’ini to‘tta qilmoq* uylantirmoq o‘rnida uning evfemik yumshatuvchisi bo‘lib qo‘llanilmoqda.

Nihoyat, evfemik so‘z birikmalarining nutqiy faoliyat jarayonidagi ishtiroki yana bir vazifani aniqlashtiradi, bu uning estetik vazifasidir. Ushbu funksiyaning voqelanish holatlarini lisoniy va nutqiy faoliyatning ikki kesimida kuzatish mumkin.

a) nutqiy muloqot jarayonida fikrni ekspressiv ifodalash vositasi sifatida;

b) yozma va og’zaki nutqiy estetik va axloqiy me’yorlar uyg’unligini ta’minlovchi vosita sifatida.

Evfemik SBlari tarkibida nafaqat baholash, balki ijobiy his-hayajon, shuningdek, emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan konnotativ qismlar ishtirok etib, ular muloqot jarayonida fikrni bo‘yoqdor va ijobiy mazmunli ifodalash vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. SBlaridagi baholovchi konnotatsiya lisoniy jamoaning tasavvurida ob’yektning ijobiy-salbiy diapazonda idrok qilinishiga yordam beradi, ular orqali so‘zlovchi va

tinglovchilar, shuningdek, jamiyatning u yoki bu darajadagi muloqot ehtiyojlarini qondiriladi. Bu ehtiyojlar estetik, axloqiy-etik, ijtimoiy xarakterda bo‘lib, insoniyat ongida shakllangan estetik va axloqiy me’yorlarga mos qo‘llaniladigan tushunchalarni ifodalaydi, ya’ni tinglovchiga evfemik birlik orqali estetik jihatdan ta’sir qilish vazifasini bajaradi.

Evfemik so‘z birikmalari hosil qilish, undagi elementlarning holati shu birikmadagi so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga kirishi va shundan kelib chiqadigan grammatik semantik xususiyatlar bilan bog’liq deb aytish mumkin. Chunki kelishik qo‘shimchasini olgan yoki ko‘makchi bilan birgalikda qo‘llangan otlar fe’l bilan birikkanda, keyingi so‘z (fe’l) hokim bo‘ladi (tug’moq o‘rnida – *dunyoga keltirmoq* evfemik so‘z birikmasini misol qilib olish mumkin), kelishik formasi va ko‘makchi shu otning tobelik belgisi hisoblanadi. Sifat bilan ot birikkanda, ot hokim bo‘ladi (og’ir oyoq). Ana shu grammatik xususiyatlarga ko‘ra evfemik so‘z birikmalarini tuzish yo‘llari har xil bo‘ladi. Evfemik so‘z birikmalari modellari til birligi hisoblanib, hokim bo‘lakning qaysi so‘z turkumiga mansubligiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi. 1) otli SBlari; 2) fe’lli SBlari 3) sifatli Sblari. Shuni ham aytishimiz kerakki, evfemik so‘z birikmalari tarkibida boshqa so‘z birikmalarida uchraydigan ravishli so‘z birikmalari biz kuzatgan manba va materiallarda kuzatilmadi.

Har bir tilda mana shunday evfemik so‘z birikmalarining keng qo‘llanilishi shu til egalarining milliyligiga xos belgidir. Nutqiy madaniyatni ta’minlash tinglovchi (suhbatdosh)ga muomala va odob-axloq me’yyorlari doirasida muomalada bo‘lish, o‘zaro vaziyatni yumshatish, uyat holatlarni yashirish, qo‘pollikni muloyimlashtirish kabilar evfemik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa etnomadaniy, axloq me’yorlaridan ya’ni millatning yuksak madaniyatidan darak beradi.

Adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.
2. Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка//Ўзбекистонда хорижий тиллар//Илмий методик электрон журнал. – Ташкент, 2018. -№2 (21).
3. Дониева М. Сўз бирикмалари деривацион ва прагматик-дискурсив имкониятларининг воқеланиши. Ф.ф.д. дисс. –Бухоро 2022. –Б. 26.
4. Turdimurodov S. “O‘zbek tili evfemik birliklarida ko‘chim”. Uslubiy qo‘llanma. T.: “Dimal” nashr. 2024. – 50-b.
5. Ғайбуллаева Н. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари мисолида). Ф.ф.ф.д. дисс. – Бухоро. 2019. 19 б.
6. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили (кириш, фонетик сатҳ, лексик-семантик сатҳ). – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. - 190 б.

7. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 20 б.

O‘ZBEK TILIDA KAUZATIV FE’LLARNING YASALISHI

Shahlo Ravshanjonovna KARIMJONOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
Ingliz tili amaliy kursi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ushbu maqolada o‘zbek tilida kauzativ fe’llarning yasalish usullari yoritib berilgan. Maqolada kauzatsiya va o‘timlilik tushunchalarining o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Kauzatsiya agens, patsiyens (obyekt), va harakatning mavjudligidan kelib chiqadigan lingvistik hodisa sifatida ko‘rilgan. Agensning patsiyensga ta’siri orqali kauzativ munosabat hosil bo‘lishi asosiy shart sifatida belgilangan. Obyektsiz va obyektli harakat fe’llariga orttirma nisbat qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida patsiyens valentligi yuzaga kelishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *agens, patsiyens, orttirma nisbat shakllari*

Ma’lumki, kauzatsiya va o‘timlilik predmetlar orasidagi munosabatdan, ta’sir qiluvchi bilan ta’sirlanuvchi predmetlarning mavjudligidan, ularning o‘zaro aloqasidan hosil bo‘ladi. Kauzativ munosabatda patsiyens subyekt ta’sirida harakatni o‘ziga oladi. Muayyan harakatdagi predmet natija sifatida reallashadi. Kauzatsiya agens, obyekt (patsiyens) va harakat qismlaridan iborat bo‘ladi. Ular orasida mantiqiy aloqa predmetning harakatga ega bo‘lishida agens ta’siri – kauzatsiya vositasining (agensning) faolligi (ekstralingvistik omillarning, faktitivlikning mavjudligi) kauzativ munosabat uchun zaruriy va doimiydir.

Demak, obyektsiz va obyektli harakat fe’llariga orttirma nisbat qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan patsiyens valentligi yuzaga keladi (bunda, aytilganidek, obyektli fe’llardagi obyekt valentligi to‘liq saqlanadi). Ma’lumki, ayrim tilshunoslar «o‘timsiz fe’llarni nokauzativ, o‘timli fe’llarni esa kauzallash uchun qulay», deb hisoblaydilar. Xususan, E.E.Kordining fikricha, kauzativlik keng ma’noda tushunilib, uni o‘timlilik bilan tenglashtirish mumkin. Bizningcha, E.E.Kordining bu fikri munozarali bo‘lib, barcha o‘timli fe’llarni kauzativ fe’llar sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, kauzativ vaziyat uchun: a) tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi bilan ifodalangan obyekt (yoki patsiyens); b) ega vazifasidagi ot yoki otlashgan so‘z bilan ifodalangan kauzallovchi agens; v) o‘timli fe’l bilan ifodalangan predikat

zarurdir [1]. Kauzativ vaziyat yuzaga kelishi uchun fe'ldan anglashiladigan harakat ta'sirchan, faol harakat bo'lishi, bu harakatni amalga oshiruvchi agens patsiyensga ta'sir etib, uning holatini o'zgartirishi, ya'ni kauzallash kuchiga ega bo'lishi lozim. Ta'kidlash mumkinki, obyektli va obyektsiz harakat fe'llari orttirma nisbatni qabul qilganida kauzativ vaziyat yuzaga keladi. Xususan, harakat fe'llarida morfologik kauzativning hosil bo'lishi uchun ularga orttirma nisbat qo'shimchasini qo'shish zarur.

Ma'lumki, orttirma nisbat shakllariga xos tuzilmalar turlicha semantik vaziyatlarni ifodalaydi. Ya'ni bunda agens-patsiyens munosabati quyidagicha kechadi: 1) insonning insonga (yoki jonli mavjudotlarga) ta'siri; 2) insonning predmetga yoki voqea-hodisalarga ta'siri; 3) voqea-hodisalarning insonga ta'siri; 4) muayyan voqea-hodisalarning boshqa voqea-hodisalarga ta'siri, ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabati [2].

Harakat fe'llari doirasida bu semantik vaziyatlarning ayrimlari kuzatiladi: 1. Insonning insonga (yoki jonli mavjudotlarga) ta'sir o'tkazish vaziyati. Bu kauzativ vaziyatda agens va patsiyens qatnashadi. Misollar: *O'n bir kishini bandi qilib, qo'llarini chilvir bilan bog'latdi-da, oldiga solib haydab ketdi* (K.Yashin, Hamza). *Iskandar usti yopiq, g'ildirakli taranlar yasattirdi* (M.Osim, Ajdodlarimiz qissasi). *Boy hammaga soz-u tomosha, atrofga ovoza bo'lsin, deb kelin o'tovi uchun baland supa qurib ustiga oq o'tov tiktirdi* (Yoshlik). Bunday gap qurilmalarida fe'lning valentlik imkoniyatiga qarab, boshqa aktantlar ham qatnashishi mumkin: *Kingkong o'sha tunda uni odamlariga zanjir bilan urdiribdi, degan gap tarqaldi (S.Qahhor).* Ko'rinadiki, harakat fe'lli gaplarda kuchli va kontakt kauzativlik ifodalanmoqda. Chunki agens harakatning patsiyens tomonidan bajarilishining tashabbuskori bo'lib, uni shu harakatni amalga oshirishga majbur qilmoqda (patsiyens vositali to'ldiruvchi vazifasida kelmoqda). Ayrim vaziyatlarda obyektli fe'ldan yasalgan orttirma nisbat shakllari ham kuchsiz kauzativni anglatishi mumkin. Bunda agens patsiyensning harakatiga to'siq bo'la olmaydi, shunga yo'l beradi: *Akam avtobusda kissavurga pulini oldirib qo'yibdi*. Insonning insonga ta'siri orqali kauzativ vaziyatning yuzaga kelishi, ya'ni harakat fe'llarida patsiyens valentligining paydo bo'lishi, ayniqsa, harakat fe'llarining «natijali ijroni ifodalovchi», «natijasi mavhum ijroni ifodalovchi» birlashtiruvchi semali guruhlarida ko'p kuzatiladi. Bu fe'llarning denotativ ma'nolari bilan, ya'ni insonning insonga ta'sir o'tkazishi – uni ba'zi harakatlarni bajarishga majbur etishi bilan yuz beradi.

Obyektsiz harakat fe'llaridan ham morfologik kauzativlikning yasalishida fe'ldagi orttirma nisbat qo'shimchalari asosiy rol o'ynaydi. Ular kauzativ qo'shimcha sifatida alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki fe'lga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi bilan nafaqat fe'lning fonetik

tuzilishida, balki uning semantikasida ham o‘zgarish bo‘ladi. Ya’ni fe’lda kauzativlik yuzaga keladi.

Fe’llardagi bu xususiyatga L.Tenyer ham o‘z asarida maxsus to‘xtalib o‘tadi. U kauzativ fe’llar boshqa fe’llarga nisbatan ustunlikka ega, ularda yana bir «yangi valentlik» mavjud, deb ko‘rsatadi. Olim, shuningdek, kauzativ vaziyatlarda aktantlar soni o‘sishini ta’kidlaydi [4]. Shu o‘rinda N.Mahmudovning fikri L.Tenyerniki bilan hamohang: «O‘timsiz fe’ldan morfologik kauzativ yasalar ekan, yasalgan morfologik kauzativlik semantikasida yangi sintaktik valentlik ochiladi. Bu «yangi» sintaktik valentlik esa hamisha tushum kelishigidagi so‘zni talab qiladi, ya’ni shu kelishikdagi so‘z formasi bilan berkiladi» [5]. Bunda harakat bevosita agens tomonidan emas, balki uning ta’sirida patsiyens tomonidan bajariladi. Agens patsiyensni «qo‘zg‘aydi», uni harakatni bajarishga majbur qiladi. Shunga ko‘ra obyektsiz harakat fe’llaridan yasalgan morfologik kauzativ shakllar, ko‘pincha, faktitiv ma’noni ifodalab keladi. Agens harakatni bajarishga patsiyensni ko‘p vaziyatlarda majbur qiladi. Permissiv kauzatsiya harakat fe’llaridan yasalgan kauzativ shakllarda, deyarli, kuzatilmaydi. Qiyoslaymiz:

Chol ko‘chada buzoqchani rosa choptirdi. U ukasini ko‘chada yurgizdi.

Keltirilgan misollarda agens patsiyensni harakatni bajarishga majbur qilgan, ya’ni unga bevosita ta’sir qilgan. Mazkur morfologik kauzativlarda ba’zida distant kauzativlik, ba’zida esa kontakt kauzativlik kuzatilishi mumkin. Kontakt yoki distant kauzativlik ma’nosining ifodalanishi patsiyens tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni patsiyens shaxs (umuman, jonlilardan) bo‘lsa, distant kauzativ ma’no, buning aksi bo‘lganida kontakt kauzativ ma’no ifodalanadi. Ko‘pincha, obyektsiz harakat fe’llaridan distant kauzativ ma’no anglatuvchi morfologik kauzativlik yasaladi. Bu tabiiy, chunki faqat jonli mavjudotlargina harakat qila oladilar, shuning uchun shaxs, jonli mavjudotlar patsiyens rolini bajarar ekan, ular agens ta’sirida harakatni faol amalga oshiradi. Qiyoslaymiz:

Mahkam bugun ertalab ukasini hasharga ketkazdi (R.Fayziy, Birinchi bahor). *Salim otlarni daryodan kechtirdi* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni).

Bu gaplarda agens patsiyensni harakatni bajarishga undagan, unga ta’sir ko‘rsatgan, patsiyens ham faol holatda bo‘lgan. Ya’ni u ham harakatning amalga oshishida ishtirok etgan. Bunda patsiyens tushum kelishigidagi so‘z bilan ifodalanib, vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Ma’lumki, bu to‘ldiruvchi ham kesim kabi gapda zaruriy bo‘lak hisoblanadi, uning gapdan tushib qolishi mumkin emas. Shu jihatdan patsiyens valentligi ham ayrim harakat fe’llari uchun zaruriy valentlik hisoblanadi.

Shunday vaziyatlar uchraydiki, patsiyens garchi jonsiz predmetdan bo‘lsa ham, morfologik kauzativ distant kauzativ ma’no ifodalashi mumkin bo‘ladi yoki aksincha. Patsiyens jonli bo‘lgan holda morfologik kauzativlik

kontakt kauzativ ma’no anglatadi, masalan: *U ukasini hovuzchada suzdirdi. He had his brother swim in the pool.*

Ushbu gapdagi patsiyens uka, ya’ni shaxs bo‘lishiga qaramay, suvda o‘zicha harakat qila olmaydi, akasi uni suzdirishi kerak, chunki o‘zi suzishni bilmaydi.

Harakat fe’llarining patsiyens valentligi analitik kauzativda ham kuzatiladi. Bunda gap tarkibiga ayrim kauzativlarning kiritilishi kauzativ vaziyatning yuzaga kelishi uchun asos bo‘ladi. Shunga ko‘ra fe’l shakli ham o‘zgaradi. Xususan, *majbur qilmoq (make, have, get), buyurmoq (command, order), undamoq (incite, provoke), so‘ramoq (ask), talab qilmoq (require, request, oblige), iltimos qilmoq (beg), qistamoq, chorlamoq (provoke)* kabi sof kauzativlar ishtirok etgan gaplardagi patsiyensda tushum yoki jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi mavjud bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Корди Е.Е. Семантическая и синтаксическая структура предложения со знаменательными каузативными глаголами и оборотами в современном французском языке // Структура и объем предложения и словосочетания в индоевропейских языках. – Л.: Наука, 1981. – С. 49-68.
2. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 110.
3. Недялков В.П., Сильницкий Г.Г. Типология морфологического и лексического каузативов // Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив, 1969, № 7. – С. 21.
4. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – С. 279.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 36.
6. Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Л.: Наука, 1988. – С. 111.
7. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2005. –Б. 107.

O‘ZBEK TILI REKLAMALARIDA OLMOSHLAR STILISTIKASI

Maxliyo Baxodir qizi BOTIROVA,
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada reklama matnlarida olmoshlarning qo‘llanishi va uslubiy vazifalari haqida so‘z yuritiladi. Olmoshlarning bir qismi predmet, belgi yoki miqdor tushunchasini bildirsa, ko‘pchiligi o‘sha predmetga nisbatan ishora qiladi. Belgi yoki miqdorda ishora tushunchasi nisbatan kam ishlatiladi. Masalan: Shuncha daftarni nima qilasan, gapidagi «shuncha» olmoshi miqdor /son/ o‘rnida emas, balki miqdorga ishoradir. Predmet, belgi yoki miqdor o‘rnida almashinib, qo‘llanuvchi olmoshlar yozma va og‘zaki nutqda ortiqcha takrorlarga, nutqiy noqulaylikka, g‘alizlikka chek qo‘yadi. Reklamada oz miqdorda olmosh so‘z turkumi ham qo‘llanadi. Olmosh turkumiga mansub so‘zlar obyektlarni, ularning belgilarini, miqdorini yoki sanash tartibini bildirmaydi, ularga faqat ishora qiladi, xolos.*

Kalit so‘zlar: *reklama matnlari, olmoshlarning uslubiy vazifalari, deyktik vositalar, olmoshlarning ma’no turlari.*

Reklamada oz miqdorda olmosh so‘z turkumi ham qo‘llanadi. Olmosh turkumiga mansub so‘zlar obyektlarni, ularning belgilarini, miqdorini yoki sanash tartibini bildirmaydi, ularga faqat ishora qiladi, xolos. Reklamalarda qoida tariqasida «siz» adresatidan foydalaniladi. Reklamalarda «biz» deganda mahsulotni ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, bank mutaxassisi yoki reklama muallifi nazarda tutiladi. «Siz» deyilganda bevosita iste’molchilarga murojaat qilinadi. Olmoshlardan reklama matnlaridan foydalanish xususiyatlarini quyidagi misol orqali ko‘rib o‘tishimiz mumkin: *Bugungi kunda «GURMAN» ishlab chiqarish kompaniyasi Rossiya va MDHning 150 dan ortiq shaharlarida 2500 dan ortiq mijozlarga ega. Biz import qiluvchi tashkilotdan ishlab chiqaruvchi tashkilotga aylandik va bu kompaniyaning tashkil topganiga atigi 12 yil bo‘ldi. Ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlari ko‘rgazmalarda bir necha bor sovrinlarni qo‘lga kiritdik va sovrinli o‘rinlarni egalladik. Bu biz uchun muhim, lekin asosiysi* ***siz*** *– bizning mijozlarimiz.* ***Siz*** *bizning farovonligimiz va muvaffaqiyatli taraqqiyotimiz kaliti ekanligingizni hech qachon unutmaganmiz. Hozir ham, kelajakda ham savdo tarmog‘ini rivojlantirish va chuqurlashtirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangilarini ochish, mahsulot turlarini kengaytirish ishlari davom ettiriladi. Ishonamizki,* ***siz tomondan*** *bizni uzoq muddatli hamkorlik va ishonchli sheriklik kutmoqda. Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali biz va* ***siz uchun ajoyib*** *natijalarga erishishimiz mumkin.*

Yuqoridagi misolda Gurman kompaniyasi reklama matni mualliflari shaxs olmoshlaridan o‘ta sinchkovlik va saralab foydalanganlar, ular matnni «biz» olmoshi bilan ortiqcha yuklamaslikka va iste’molchiga hurmat munosabatida bo‘lishga harakat qilishgan. Reklama matnlarida biz olmoshidan ta’kid sifatida me’yordan ko‘p foydalanish, uni xarid qiluvchilarda mahsulotga bo‘lgan qiziqishni susaytirishga olib keladi, sababi iste’molchilar uchun kompaniya xodimlari yoki rahbarlarining qanday ishlashi yoki salohiyat darajasi qiziq emas, ular uchun mahsulotning foyda keltiruvchi xususiyatlari muhim.

Olmoshning ma’no turlaridan kishilik olmoshlari reklama matnlarida keng qo‘llaniladi. Kishilik olmoshlari shaxs bildiradi (siz, biz, ular, siz); o‘zlik olmoshi belgi bilan shaxsning aloqasini bildiradi va shaxsga tegishli bo‘lgan so‘zlar o‘rnida almashinib keladi (meniki, seniki, bizniki); ko‘rsatish olmoshlari obyektlarni, ularning sifatini yoki miqdorini ko‘rsatadi (bu, shuncha, bunday, shunday); so‘roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi (kim, nima, qanday) haqidagi savollarni o‘z ichiga oladi; jamlovchi olmoshlar umumlashtirilgan xususiyatini bildiradi (barchasi, har biri, har xil); gumon olmoshlari noma’lum, noaniq shaxslarni, obyektlarni, ularning belgilarini (biror narsani, kimnidir, nimanidir) bildiradi; bo‘lishsizlik olmoshlari shaxsning, narsaning mavjud emasligini yoki ularning belgisini bildiradi (hech narsa, hech kim, hech qanday). Reklamalarda olmoshlarning quyidagi ma’no turlarini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘rsatish olmoshi: *Uni qanchalik muhim va ahamiyatli ekanini his qilishingizni istaymiz. Onalik kaliti qo‘lingizda* (Plan baby); Mazkur misolda qo‘llanilgan ko‘rsatish olmoshiga grammatik qo‘shimcha noto‘g‘ri qo‘shilgan, egalik qo‘shimchasi talab qiladigan -ning affiksi o‘rniga -ni affiksi qo‘llanilgan.

Kishilik olmoshi: *Sizning yuragingiz nafaqat siz uchun uradi* (Trombopol), *Muza bilan siz betakror pazandasiz* (Muza);

O‘zlik olmoshi: *O‘z ritmingni yoq* (Coca cola);

Bo‘lishsizlik olmoshi: *Hech narsani yashirma* (Clear shampuni);

Belgilash olmoshi: *Har tomchida quyosh* (Lipton);

Birgalik olmoshi: *Hammasi yaxshilikka* (Nescafe), *Butun sayyora sizning ixtiyoringizda* («Planet Earth» sayyohlik agentligi).

Reklama matnida olmoshlarni tanlab qo‘llash bir qator omillarga, shu jumladan, mahsulot toifasiga va maqsadli auditoriyaga tegishli bo‘lishiga bog‘liq. Masalan, *«siz»* olmoshi ishlab chiqaruvchi va xaridor o‘rtasidagi rasmiy munosabatni belgilaydi, muloqot natijasida hurmat va ikkinchisiga xizmat qilishga tayyorligi namoyon bo‘ladi: *Siz ma’lum darajaga yetganingizda, ko‘zdan yashirilgan narsalarni qadrlay boshlaysiz*. *Yangi Cadillak SRX sizga yo‘lda butunlay yangi tajriba beradi (mashina reklamasi)*.

Bundan tashqari, *«siz»* olmoshi mahsulot yaratuvchisini xaridorga yaqinlashtiradi: *BUKVA UZ reklama agentligi - biz har doim **siz**ning biznesingiz rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun, sizga keng reklama xizmatlarini taklif qilishdan xursandmiz!*

Reklamalarda kishilik olmoshining birinchi shaxs birlikda qo‘llanilishi reklama belgilarining aniq tajriba asosida tavsiya qilinayotganligini belgilaydi[1.14]: *Men shunchaki pushti rang (lab bo‘yog‘i)ni sevib qoldim; Loreal. Axir men bunga loyiqman! Mening lablarim - bu ajoyib san’at asari!*

Bundan tashqari, tashqi reklama tilida ham kishilik olmoshlaridan unumli foydalanish mumkin, bu reklama matniga samimiylik bag‘ishlaydi, iste’molchini reklama qilingan mahsulotni sotib olishga ehtiyoj hisini uyg‘otadi, odamning unga ishonishini, ushbu mahsulotni (yoki xizmatni) sotib olishga intilishini kuchaytiradi. Tasvirlar esa so‘zlarning mohiyatiga singdirilgan, chunki ular harakatlar, holatlar, xususiyatlarning sifat belgilarini aniqlaydi. Matnlar tarkibida kelgan *qulay, obro‘li va foydali, tez va sodda* kabi so‘zlar miqdor jihatidan boshqalardan ustun turadi va uslub nuqtai nazardan yetakchi rol o‘ynaydi, nutqda yorqin ifoda manbai bo‘lib xizmat qiladi[2.86]. Yuqorida aytib o‘tilganidek, kishilik olmoshlari tashqi reklama matnlarida tasvirlangan vaziyatda o‘quvchining (iste’molchining) mavjudlik belgisini anglatadi, xaridorni reklama qilinayotgan mahsulot haqiqatan ham unga tegishli bo‘lishini belgilaydi. Biroq, mahsulotni reklama matnlarini yaratishda shaxsiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik kerak (kimga murojaat qilayotgani aniq bo‘lishi lozim). Masalan: «Ushbu mahsulot ayol tanasining holatini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlab chiqarilgan...» degan jumla o‘rniga, birinchi shaxsda iste’molchiga murojaat qilgan ma’qulroq: «Biz bu mahsulotni ayollar uchun maxsus yaratdik...» kabi.

Adabiyotlar

1. Мамирова Д. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик тадқиқи: Автореф. дис. ... докт. филос. филол. наук. – Самарканд, 2021.

2. Chiniqulov N.J. Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: «Navoiy universiteti» nashriyot matbaa uyi, 2019. – 108 b.

TAKROR SO‘ZLARNING BADIIY NASRDAGI AHAMIYATI

Mohichehra Rustamovna NOMOZOVA
Termiz davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya. *Zamonaviy tilshunoslik masalalari bugungi kunimizda uni har tomonlama tadqiq qilish talabini qo‘ymoqda. Ushbu maqolada takror so‘zlarning qo‘llanishi tilimizning ichki imkoniyatlarini yanada ochib berishi Erkin A’zamning “Momaqaldiroq” hikoyasi asosida ko‘rsatilgan. Erkin A’zam kunimizning qalami o‘tkir yozuvchilaridan hisoblanadi. Adibning asarlarida takror so‘zlar nihoyatda ko‘p va albatta o‘rinli qo‘llanilgan. Bu esa o‘z navbatida til badiyati, sayqali uchun hizmat qila olgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tilshunoslik, lingvopoetika, takror, takrir, reduplikatsiya, badiiy til sayqali, til imkoniyatlari.*

Tilshunoshlikda badiiy asarlarni har tomonlama tadqiq qilish bugungi zamonaviy tilshunosligimizning muhim masalalaridan biriga aylanib qoldi. Binobarin, yetuk, badiyati puxta, salohiyati yuqori bo‘lgan asarlar tilimizning boyligini, badiyatini yorituvchi, sayqallantirish uchun hizmat qiladi. Badiiy asarlarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish, ulardagi til vositalarini, uslubini, yozuvchining individual xususiyatlarini o‘rganish tilning rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Ma’lumki, badiiy asarlarda til vositalarining qo‘llanishi, ularni tahlil qilish bugungi tilshunosligimizning nazariy muammolaridan bo‘lib, hali to‘liq o‘rganilmagan yo‘nalishlar bu sohada ham ko‘plab uchraydi.

Badiiy adabiyot inson aqliy mahsuli, fikriy ifodasining o‘ziga xos, o‘zgacha usulidir. Har bir badiiy asar individual bo‘lib, yozuvchining dunyoqarashini, so‘z boyligini va albatta mahoratini ochib beradigan vosita hamdir. Badiiy asarlarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish esa ulardagi til vositalari, tasvir qurollarini o‘rganib, tilning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berishga bevosita yordam beradi.

Badiiy nasrning mohiyati uning ifodali vositalarga boy bo‘lishini, til vositalari orqali fikrning badiiy bo‘yoqdor, estetik jihatdan ta’sirchan ifodalanishini talab qiladi [1,47].

Yozuvchi Erkin A’zamning asarlari nutqiy qurilishi, so‘zlardan foylanish mahorati individual, o‘ziga xos, shuningdek til vositalaridan ham unumli foydalan olgan yozuvchilardan biridir. Shu boisdan yozuvchi asarlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, til qurilish qolipini o‘rganish tilimizning imkoniyatlarini yana bir bor ochishga imkoniyat beradi. Yozuvchi o‘z asarlarida ma’nodoshlik, o‘xshatish, metafora, epitet va boshqa ko‘plab til vositalaridan mahorat bilan foydalangan, asarlarida xalqona bo‘lishini

ta’minlay olgan. Yozuvchi qo‘llagan har bir til vositalarini o‘rganish katta ilmiy ishlarga asos bo‘la oladi va shubhasiz tilning imkoniyatlarini ochishga ko‘mak beradi.

Biz ishimizda Erkin A’zamning faqat takrorlardan foydalanish mahoratini tahlil qildik va ularning nutqdagi maqsad, ma’noviy xususiyatlarini o‘rgandik. Badiiy asalarda takrorlarning qo‘llanishi o‘ziga xos ko‘tarinkilikni, tantanavorlikni vujudga keltiradi. Barcha yozuvchilar singari Erkin A’zam asarlarida ham gapning barcha turlaridan foydalanilgan. Yozuvchining asarlarida qo‘llanilgan gap qoliplari va takrorlar katta mahorat bilan tanlangan. Avvalo o‘quvchi tushunmaydigan, g’aliz fikrlar yo‘q, hammasi xalqona.

Takror – badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o‘quvchilarning diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun badiiy asarlarda foydalanadilar. Ohangdor, ta’sirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Takrorning barcha turlari ko‘rinishlari singari leksik takrorlar ham o‘z ifoda shakliga va tasvir usuliga ega. Badiiy matnda leksik birliklar turli shakllarda namoyon bo‘ladi va fikr talabiga ko‘ra hilma-xil vazifalarni ado etadi. Lug‘aviy birliklar badiiy tasvirning muhum vositasidir. Ammo ularning badiiy matnda qo‘llanish darajasi, badiiylikni ifodalash imkoniyatlari turli tuman.

Dunyo tilshunosligida bu atama reduplikatsiya deb ataladi. Reduplikatsiya – so‘zning bir qismi yoki butun so‘zning ko‘pincha turli maqsadlarda takrorlanuvchi lingvistik jarayondir. U ko‘pgina tillarda mavjud va turli xil vazifalarni bajaradi. Masalan, kuchaytirish, bo‘rtirish, ko‘plik va hakazo. Reduplikatsiya turli shakllarda sodir bo‘lishi mumkin. Jumladan to‘liq takrorlash, (butun so‘zni takrorlash): miriqib-miriqib, turib-turib, tez-tez. Qisman takrorlash (so‘zning faqat bir qismini takrorlash): kap-katta, bib-binoyi. Ularning o‘ziga xos qo‘llanishi va ma’nosi u ishlatadigan til va konteksga bog’liq.

Erkin A’zam hikoyalaridagi takror so‘zlar nihoyatda rang-barang, o‘rinli qo‘llangan. Aytish joizki, yozuvchi asarlarida takror so‘zlardan juda ko‘p o‘rinlarda maqsadli foydalana olgan va bu yozuvchining fikrini kitobxonga aniq, ta’sirchan, tushunarli qilib yetkazishni ta’ninlagan. Masalan: “O‘tirganlardan **biri** Mansur kabi yasama jilmayib, **biri** loqaydgina, **biri** anchayin, samimiy, yana **biri** xushlamayroq bosh qimirlatib qo‘ydi”. (“Momaqaldirq” hikoya). Bu gapda “bir” so‘zi kishilarni sanash va shu bilan birgalikda ularni holatini ochib berish va kayfiyatlarini bayon qilish maqsadida foydalanilgan. Bu takror so‘zimiz, gapning turli o‘rinlarida foydalanilgan.

“-**Ixtiolog? Ixtiolog…** baliq tutasizda demak? Qanaqasidan-jaydarisidanmi, laqqasidanmi?- Ahadning avzoyida o‘zgarish ko‘rgach, u hazilga burmoqchi bo‘libmi:-Baliqlardan bizam yeb turaylik bundoq. Tuzlangan pivo bilan ja ketadi-da, – dedi sheriklariga ishshaygancha.”

(“Momaqaliroq” hikoya). Bu misoldagi takror so‘zdan yozuvchi o‘z fikrini anglatish uchun mohirona foydalangan. Takror so‘zlar ma’noni kuchaytiradi, bo‘rtiradi. Bu misolda yozuvchi takror orqali tushunmaganlik, hayron qolish ma’nosi, shu bilan birgalikda bu yerda nimanidir o‘ylash, hotirlash ma’nosi ham bor. Biz buni qo‘llanilgan tinish belgilaridan angashimiz mumkin. Ammo bu yozuvchining asosiy ma’no ifodasi emas. Bu yerda asosiy maqsad takror so‘z orqali qahramonni kamsitish, mazah qilish, nafsoniyatiga tegish ma’nosi asosiy maqsad sifatida olingan. Bu esa yozuvchining takror so‘zlar qo‘llashdagi yangi, o‘ziga xos, individual xususiyatini ochib berganini ko‘rsatadi.

Yozuvchining birgina kichik hikoyasida takror so‘zlardan juda mohirona foydalangan. “-Ahadjonmisiz?”- Bexato taniganidan zavqlanib jilmaydi kampir. – Voy, qoqindiq! **Kiring, kiring…** Rozaxon necha kundan buyon “Ana keladilar Ahadjon akam, mana keladilar”, deb eshikka ko‘z tutib o‘tiruvdi, qarang-a…” Yozuvchining yutug’i asarlarining sodda, xalqona yozilganidir. Takror so‘zlar ham shu nuqtayi nazardan tanlangan. Yozuvchi har bir qahramonini yoshi, fe’l-atvorlariga monand tasvirlaydi va ularning holatidan kelib chiqib so‘zlarni saralaydi. Yuqoridagi misolimizda takror so‘zlar yigitlarning harakat, xususiyatlarini ochib bergan bo‘lsa, bu misolda yozuvchi sodda bir o‘zbek onaxonining holatini namoyon qilishda qo‘llanilyapti. Qo‘llanilgan takror so‘zning zamirida xursandchilik va shu bilan birgalikda shoshganlik ma’nosi ham bor.

Yozuvchining takrorlardan foydalanishi nafaqat ko‘p, balki ma’no-munosabat jihatidan ham o‘rinlidir. Badiiy adabiyot tili vazifasi nuqtai nazaridan tilning boshqa shakllaridan keskin ajralib turadi. Bu holat badiiy adabiyot tilini umumiy asosiga ko‘ra ham lingvistik, ham estetik jihatdan tahlil qilishni talab qiladi.

“Takrorlar tilshunoslikda parallel holatni yuzaga keltiruvchi nutqiy tushuncha bo‘lib, uni nutq jarayonida yuzaga keluvchilingvistik hodisa sifatida o‘rganish zarur. Shuning uchun ham takrorlarni tekshirishda uning nutq jarayonida qay yo‘sinda yuzaga kelishini anglab olish lozim. Vaholanki, takrorlar nutqda ekspressiv- emotsianallikni oshiruvchi tasviriy vosita hamdir” [2,66].

Aynan Erkin A’zam ham takrorlardan qahramonlarning, his-tuyg’ularini yoritishda mohirona foydalangan: **“– Qayoqqa, qayoqqa? Shundoq kelib, shundoq ketasizmi**! **Yo‘q,yo‘q**! Rozaxon bo‘lmasa, biz bormiz. Yuring bunday…” Bu o‘rinda takror so‘zlar ketma-ket qo‘llanishi natijasida ham hayratlanish, taajub va hurmat ma’nolari ifopdalangan. Yozuvchi shu gapda aynan bir so‘z bilan ham bu holatni ifodalashi mumkin edi, ammo kitobxonga yanada ta’sirchanlikni yetkazib berish uchun takror so‘zlardan foydalangan

Adabiyotlar:

1. Bekpo‘lat Umurqulov. Badiiy nasr jozibasi. Monografiya. –T.: Muharrir, 2021. – 47-b.
2. Atoulloh Husayniy. Badoiy us-sanoye. – T.:1981. 18-b.
3. Hojiahmedov A. She’r san’atlari. – Toshkent: 2001.
4. Tursunov U. Muxtorov Sh. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992-yil
4. Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. 1-qism Toshkent: O‘qituvchi –1980-yil.
5. A. Hojiyev O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takror so‘zlar. – Toshkent: 1963.

DINIY LEKSIKANING SEMANTIK KO‘LAMINI TASNIF QILISHGA DOIR QARASHLAR (DUO LEKSEMASI MISOLIDA)

Charos Salomovna CHORIYEVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Islom dinida, islom odobi va madaniyatida duo mislsiz kuch-qudratga ega. Duo Islom diniga e’tiqod qiluvchi har bir xalqning, millatning lingvomadaniyatida juda muhim o‘rin tutuvchi, matni qisqa, ammo mazmun ko‘lami yuksak bo‘lgan, Yaratgan va banda o‘rtasidagi yagona aloqa vositasi bo‘lgan nihoyatda keng tushuncha sanaladi. Ushbu maqolada “duo” leksemasining mazmuniy maydon ko’lamini turlicha yo’nalishlarda o’rganishga oid qarashlar, nazariyalar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *din, diniy leksika, ma’sura, muhtara, duoyi xayr, duoyibad, iltijo, shukrona, maqtov duolari.*

Din va unga oid bilimlar hamma zamonlarda va har yerda inson ruhiyatining kamol topishida birlamchi vazifani bajarib kelgan. Duo Islom diniga e’tiqod qiluvchi har bir xalqning, millatning lingvomadaniyatida juda muhim o‘ringa ega, negaki Allohga iltijo qilish, ham bu dunyo uchun, ham oxirati uchun duo qilish insonning fitratida bor. Zero, Alloh Taolo mo‘minlarga: “Mendan hojatlaringizni so‘rab duo qilingizlar, men ijobat qilaman deb marhamat qilgan” (G‘ofir surasi, 60-oyat). Va yana Baqara surasida: “Agar bandam men haqimda Sizdan so‘rasa, ey Muhammad alayhissalom, men unga yaqindirman. Duo qilguvchining duosini qabul qilaman”, dedi [1,76].

“Duo” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, iltijo, chaqirish, da’vat degan ma’nolarni bildiradi. O‘TILda unga quyidagicha ta’rif beriladi: *“Duo – xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o‘zi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash. Ko‘pchilikning duosi ko‘l bo‘lur (Maqol).*[2,204] O‘zbek tilida uning *duoyi jon (kimsaga umr va yaxshilik tilab qilinadigan duo), duoyi xayr (yaxshilik tilab*

qilingan duo), duoyi bad (yomonlik tilab qilingan duo, qarg‘ish), duo qilmoq, duoda bo‘lmoq, duoyi salom, duogo‘y (duo qiluvchi, xayrixoh), duotalab (duo izlovchi, duoga muhtoj), duoxon (duolar o‘qib yoki yozib, go‘yo ins-jinslarni qaytaruvchi, shu yo‘l bilan kasallarni davolovchi shaxs, issiq-sovuqchi, azayimxon) kabi ma’nolari bor. Biz bu maqolada Yaratgan va banda o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lgan duoning leksik-semantik munosabatiga, ma’no guruhlaridagi tasniflarga to‘xtalamiz.

Birinchi tasnifga ko‘ra duolar ikki xil bo‘ladi. Birinchisi, ma’sura, ya’ni matni Qur’on, hadis yoki boshqa diniy manbalarda aniq belgilab qo‘yilgan duolar. Ularni buzmay, qo‘shmay, qanday ko‘rsatilgan bo‘lsa, shunday o‘qiydilar. Bu guruhga kiruvchi duolar ko‘pincha muftilar, mudarrislar, domlalar, mullalar nutqida ibodat yoki marosimlarda va’z, ma’ruza shaklida uchraydi. Bir hadisi sharifda aytiladiki, qaysi bir mo‘min Alloh taolodan o‘z hojatlarini so‘rab duo qilsa, Parvardigor ul kishini uchta mukofotning biriga beshak erishtiradi: 1) qilgan duosini ijobat etib, so‘raganini beradi; 2) so‘raganini bu dunyoda ravo qilmasa, uni oxirat kuniga saqlab qo‘yadi; 3) shu qilgan duosi sharofatidan ba’zi balo, ofat yoki musibatlarni daf qiladi.

Ikkinchisi, muhtara, ya’ni duo matnini o‘zi to‘qib, erkin holatda iltijo qilish. Bu turga biz uchun yoshligimizdan an’ana maqomini olgan dasturxon boshida yoshi ulug’ kishining qiladigan duosi, har bir insonning yolg‘iz qolganda, baxtli yoki baxtsiz kunlarida, mushkul vaziyatlarida Allohdan madad so‘rashi kabilarni kirita olamiz. Bu holatda duo qiluvchining yoshi, mansabi, kasb-kori, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar oilasi, farzandlari baxt-u saodati, yurtining tinchligi kabilarni so‘rashi mumkin.

Islom dini ta’limoti duo orqali Allohdan boshqadan madad so‘rashni ta’qiqlaydi. Duo inson uchun ko‘ngil to‘qligi, ruh pokligi, o‘zgacha bir qalb xotirjamligi bag‘ishlaydi. Duo qilayotgan insonning niyati xolis bo‘lishi bilan birga halol rizq ila taomlangan bo‘lishi va hattoki u o‘sha vaqtda kiygan kiyimining halol rizq bilan topilganligi ham duoning mustajob bo‘lishida muhim sanaladi. “Inson qadimdanoq yuz beradigan baxtsizlik yoki mushkulot (o‘lim, o‘lim bilan bog’liq oxirat azobi, biror tabiiy ofat kabi)larni bartaraf qilish uchun “yuqori kuchlar”dan yoki Allohdan madad so‘ragan. Ana shu iltijo matnlari (ibora yoki nutq) bora-bora og’izdan-og’izga o‘tib, keyinchalik duo maqomini olgan. Masalan, zilzila vaqtida “Subhonalloh” deyish yoki “Zalzala” surasini o‘qish kabi. Safar yoki urushga ketayotganlarga “Oy borib, omon qayt, sog’ borib, salomat qayt” (qadimgi greklarda qalqonda borib, qalqonda qayt), “Olgin, oldirma; to‘kkin, to‘kilma”, “Yo‘ling oq bo‘lsin, Alloh yor, pirlar madadkor, Hizr alayhissalom jilovdor bo‘lsinlar. O‘lganlarga nisbatan “Alloh rahmatiga olsin; g‘ariqi rahmat, shohistai jannat qilsin; oxirati obod bo‘lsin”, “Xudo bandam desin, Muhammad ummatim desin, chahoryorlar do‘stim desin,

Ibrohim Xalilulloh millatim desin, Imomi A’zam mazhabim desin” kabi iboralar orqali dou qilingan [4,132].

Manbalarda duolar ijobat bo‘ladigan (ota-onaning farzandiga qilgan, musofirning, mazlumning, ro‘zadorning, bemorning duosi) yoki ijobat bo‘lmaydigan (mutakabbirning) kabi guruhlarga ham ajratiladi. Duo – Allohga yolvorib o‘zi yoki boshqalar – mo‘min-musulmonlar uchun yaxshilik so‘ramoq, najot tilamoq, iltijo qilmoq uchun qo‘lanadigan ma’naviy-ruhiy vositalar, yozma, og‘zaki matnlar to‘plami. Duoga yori bersa har musulmon, O‘lar vaqtida yetgay nuri iymon (A.Yassaviy). Duo bilan el ko‘karar, Yomg‘ir bilan yer ko‘karar. (Maqol).

Duolar inson yolg‘iz qolganida alohida yoki jamoaviy holatda ham o‘qiladi. Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam o‘z hadislarida duo haqida gapirib, “Duo ibodatlarning mag‘zidir”, dedilar. Duoning navbatdagi ma’noviy tasnifi quyidagicha: 1) iltijo; 2) shukrona; 3) maqtov.

Bundan tashqari biz duolarni ijobiy yoki salbiy ma’no xususiyatlariga ko‘ra ham ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchisi, duoyi xayr, ya’ni insonga yaxshiliklar so‘rab qilingan duo. Ikkinchisi, duoyibad, ya’ni kimsalarga yomonlik tilash, qarg‘ish ma’nolarida keladi. Ammo, duoyibad yoki tavqi-la’nat qilishdan Payg‘ambarimiz (s.a.v.) mo‘min-musulmonlarni qaytardilar. Hatto, urushlarda juda ko‘p Qur’on hofizlarini shahid bo‘lganlarini ko‘rgan sahobalar Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamdan mushriklarning haqlariga duoi bad qilishni so‘raganlarida, Rasulullоh (s.a.v.) ularning haqlariga duoyi xayr qilib, Allohdan ularga hidoyat so‘radilar. Zulm ko‘rgan mo‘min kishi tomonidan zolimga nisbatan duoyibad qilinmasa ham, zolimga Allohning la’nati yog‘ilib turishi Payg‘ambarimizning muborak hadislarida aytilgan.

Islom dini musulmonlarni zulm qilishdan qat’iy qaytaradi, negaki mazlum kishi zolimni la’natlab duo qilgan paytda Alloh bilan uning o‘rtasida hech qanday to‘siq qolmas ekan, ya’ni uning qarg‘ishi to‘g‘ridan to‘g‘ri Yaratgan dargohida qabul bo‘larkan. Imom Ahmad rivoyatiga ko‘ra Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Ota-onasiga aziyat berganni Alloh taolo la’natlaydi”, dedilar. “La’nat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nafratlanish, duoyibad qilish, sovish, bezish kabi ma’nolarida keladi. Islomiy istilohda esa Allohning rahmatidan mahrum qilish ma’nosida ishlatiladi. Abu Dardo roziyallohu anhu rivoyat qilgan: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Qachon banda bir narsani la’natlasa, la’nat osmonga ko‘tariladi. Shunda uning ortidan osmonning eshiklari yopiladi. Keyin u yerga tushadi. Uning (osmonning)eshiklari ham uning ortidan yopiladi. Keyin u o‘ngga, so‘lga borib-keladi. Agar boradigan joy topmasa, la’natlanganning oldiga keladi. Ammo u bunga loyiq bo‘lmasa, albatta aytuvchisiga qaytadi”, dedilar”.

Xulosa o‘rnida ayta olamizki, diniy leksikani o‘rganish bo‘yicha olib borgan kichik bir izlanshimizda “duo” leksemasining istilohiy mazmuniga, uning turlicha jihatlarga ko‘ra tasnifiga to‘xtalar ekanmiz, uning aslida uch harfdan iborat mo’jazgina so‘z bo‘lishiga qaramay, mislsiz kuch-qudratga egaligining guvohi bo‘ldik. Duo qayerda, kim tomonidan qilishidan qat’iy nazar, uning tub zamirida Allohga murojaat, iltijo, undan madad so‘rash aks etadi.

Adabiyotlar:

1. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildli, Birinchi jild. – Toshkent, 2023. – Б:204.
3. Улуқов Н. Ўзбеча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1997.
4. Омонтурдиев Ж. Маърифатнома. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2013. – Б:132.
5. Ҳасанбаев Ў. Диний-маърифий ва ижтимоий-маънавий соҳа тарғиботчилари учун айрим атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент, 2020. – Б: 608.
6. Ж.Омонтурдиев, Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар изоҳли луғати. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2014.– Б:41.
7. https://hadis.uz/

DAVLAT BOSHQARUVI TERMINLARIDAGI PARTONIMIK MUNOSABAT

Lobar Sa’dulla qizi G‘ANIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Maqolada o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining leksik-semantik xususiyati o‘rganilgan. Jumladan, sohaga doir terminlararo xolo-meronimik, ya’ni ma’noviy jihatdan butun-bo‘lak munosabati tahlil qilingan bo‘lib, ular o‘rtasidagi paradigmatik munosabat ochiqlab berilgan. Terminlarni birlashtiruvchi va alohidalovchi sememalari izohlash asosida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, leksik-semantik paradigma, partonimiya, xolonim, meronim.*

Olam manzarasi, borliqni anglash, tafakkurimizda borliqni gavdlantirishimiz uchun partonimik munosabat muhim sanaladi. Har bir fan, har bir soha butun bo‘lak munosabatiga ega, bu inkor etib bo‘lmaydigan ilmiy

haqiqatdir. Terminologiyada bu yaqqol kuzatiladigan semantik xususiyat hisoblanadi. Partonimiya tilda xolo-meronimik, ya’ni butun-bo‘lak munosabatini reallashtiruvchi hodisa sanalib, u tilning leksik-semantik sathi, ayniqsa, terminologik sistemada yaqqol namoyon bo‘ladi [1,98].

Partonimik munosabat boshqa barcha terminologik sistemalarda bo‘lgani kabi davlat boshqaruvi terminlari ham bundan mustasno emas. Davlat boshqaruvi terminologiyasida bunga ko‘plab misollar keltirish mumkim.

Jamoa xolonimi muayyan bir xil ish bajaruvchi kishilar guruhi; qishloq, mahalla yoki uning aholisini nazarda tutadi [3,12]. Shuningdek, davlat tashkilotlarining xodimlari ham jamlangan holda jamoani tashkil qiladi. Bu terminning meronimlari quyidagilar:

Xalq kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan birligi [3,264]. Tarixda bundan yuz yillar muqaddam xalqqa nisbatan ahli jamoa termini ham ishlatilgan bo‘lib, bu leksik birlik, asosan, murojaat shakli uchun mutanosib bo‘lgan.

Birlashma ma’lum maqsadlarni ko‘zda tutib, yoki ma’lum asosda uyushish natijasida, bir necha shaxslarning kelishuvi asosida vujudga kelgan uyushma, tashkilot [3,34]. Birlashma deyilganda ko‘pincha tashkilot sememasi yetakchilik qiladi, ammo unutmaslik kerakki, birlashma bir necha shaxslarning o‘zaro birlashuvi natijasida shakllangan jamoani ham anglatadi.

Uyushma bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi [5.591].

Kollektiv lotin tilidan o‘zlashtirilgan termin bo‘lib, biror korxona, muassasa yoki tashkilotda birga ishlaydigan kishilar majmuyini nazarda tutadi [3,122].

Keltirilgan izohlardan ko‘rinib turibdiki, barcha meronimlar umumiy, butun ma’no ifodalaydigan jamoa xolinimiga birlashadi. Demak shu o‘rinda aytishimiz mumkin, partonimiya munosabati terminlarni semantik jihatdan bir nuqtaga ya’ni butunga birlashtiradi. Quyida shu kabi yana bir qancha tahlilarni ko‘rib chiqamiz.

jazo termini xolonim sifatida bir qancha meronim tushunchalarni o‘zida ifodalovchi terminlarni ergashtirib keladi.

Hayfsan ayrim davlatlarning mehnat kodeksida belgilangan intizomiy jazo choralardan biri: kimsaga biror gunohi yoki xatosi uchun jazo sifatida rasmiy beriladigan tanbeh, jiddiy ogohlantirish bo‘lib, jazoning eng kichik, yengil turi hisoblanadi [3,112].

Jarima arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, qonunda belgilangan hollarda qoidani buzganlik, qonun-qoidaga xilof xatti-harakat yoki yetkazilgan moddiy zarar uchun undiriladigan, to‘lanadigan pul, ya’ni qonunbuzarlik uchun pul to‘lovi asosida amalga oshiriladigan jazo nazarda tutiladi [3,113].

Mehnat shartnomasini bekor qilish(ishdan boʻshatish) ham ish beruvchining ishchi xodimga nisbatan qoʻllaydigan jazoning bir koʻrinishi hisoblanadi.

Intizomiy javobgarlik jazosi mehnat intizomini buzuvchilarga intizomiy jazo qoʻllash yoʻli bilan ta'sir koʻrsatish shakli boʻlib, asosan, davlat tashkilotlarida ichki tartib-qoidalarni buzganligi uchun qoʻllaniladi [3,103].

Ma'muriy javobgarlik jazosi ma'muriy huqubuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslarga nisbatan qoʻllaniladigan yuridik javobgarlikning shakllaridan biri [4,65].

Jinoiy javobgarlik jazosi jinoyat sodir etishda aybdor boʻlgan shaxsga nisbatan sud tomonidan chiqarilgan hukm, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qoʻllashda ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati natijasida yuridik javobgarlik turlaridan biri [3,114].

Barcha izohlar asosida anglash mumkinki, keltirilgan barcha jazoning turlarini bitta tushuncha ifodalovchi termin bilan izohlash mumkin, ya'ni jazo termini xolonim vazifasini bajaradi.

Oʻzbek tilida *davlat* termini hudud sememasi nuqtai nazaridan quyidagicha meronimlarni birlashtiradi.

Avtonom davlat davlat maqomiga ega boʻlgan, davlatga tegishli ayrim xususiyatlarga(oʻz konstitutsiyasi, qonunlari hududi, fuqaroligi, oliy davlat organlari va b. ga) ega boʻlgan va yirik davlat doirasida tashkil etilgan avtonom davlat yoki avtonom birlik. Shu bois oʻz pul birligiga, armiyasiga, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy munosabatlarda toʻla mustaqillikka ega boʻlmaydi [3,13].

Viloyat arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, boshqaruv chekka joy, oʻlka sememalariga ega. Tarkibida bir necha shahar va tumanni oʻz ichiga olgan yirik ma'muriy-hududiy birlik [3,262].

Tuman viloyat, shahar hududida ularning tarkibiy qismi boʻlgan ma'muriy-hududiy boʻlinma [3,248].

Shahar viloyat, tumanlarning markazlashgan qismi. Davlat boshqaruvi tashkilotlarining asosiy qismi joylashtirilgan hudud. Qishloqqa nisbatan katta va doimiy aholi punktidir. Koʻp shaharlarga mahalliy qonunchilik alohida ma'muriy, qonuniy yoki tarixiy mavqe' beradi [4,105].

Qishloq tuman hududida joylashgan, fuqarolar yigʻini orqali boshqariladigan aholi punkti [4,48].

Ovul kam sonli aholi yashaydigan, qishloqdan kichik boʻlgan hududiy tuzilma.

Keltirilgan izoh va tahlilardan koʻrinib turibdiki, davlat termini xolonim sifatida bir qancha tushunchalar bilan bogʻliq terminlarni oʻz atrofida birlashtiradi. Meronim boʻlib kelgan terminlar xolonim anglatgan tushunchani toʻldiradi va mukammallastiradi.

Parlament ya’ni Oliy majlis O‘zbekiston davlat boshqaruvida asosiy organ bo‘lib, o‘zida qonunchilik palatasi va senatni birlashtirgan. Shunga ko‘ra *parlament* termini xolonim bo‘la oladi. Qonunchilik palatasi ham, senat ham parlamentning bir bo‘lagi, ikki palataning ham mohiyatan vazifasi qonun ishlab chiqarishga qaratilgan.

Davlat organi bu davlat boshqaruvida muhim hisoblanadigan organ tashkilotlar nazarda tutiladi. *Qonun chiqaruvchi organ*(Oliy majlis), *ijro etuvchi organ (*Vazirlar Mahkamasi), *sud organi* -Oliy sud kabi terminlarni butun holatda xolonim sifatida davlat organi so‘zi butunlikda birlashtirib turadi.

Askar qismni ifodalovchi termin sifatida lashkar, qo‘shin terminlari uchun xolonim bo‘la oladi. Negaki, lashkar tarkibini ham qo‘shin tarkibini ham askarlar tashkil qiladi. Shunga ko‘ra bu termin partonimik munosabatga kirishadi.

Davlat boshqaruvi tizimining o‘zi ham partonimik munosabatni hosil qiladi. Barcha quyi tizimimlar uchun, ya’ni *iqtisodiy tizim, siyosiy tizim ,ijtimoiy tizim, saylov tizimi, ta’lim tizimi* meronimlari uchun xolonim hisoblanadi. Davlat boshqaruvi terminologiyasida bu kabi partonimik munosabga yuzlab misollar keltirishimiz mumkin. Chunki davlat boshqaruvi sohasining o‘zi iyerarxik tartibga, butun-bo‘lak munosabatiga ega. Shuningdek, partonimik munosabatda xolonim bo‘lib kelgan termin bitta bo‘lishi mumkin, ammo uning meronimlari bir qancha bo‘ladi. Shuningdek, xolonim bo‘lgan termin, boshqa terminlar tarkibida meronim bo‘lishi mumkin. Masalan, *Vazirlik* termini Sport vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Transport vazirligi terminlari uchun xolonim bo‘lsa, *davlat hokimiyati* termini uchun meronim hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi terminlariaro partonimik munosabat bizga quyidagi xulosalarni berdi.

1. Davlat boshqaruvi terminlariaro semantik aloqadorlikni, tushunchalar mutanosibligini ta’minlaydi.
2. Sohaga doir terminlarning ichki va tashqi tuzilishini, o‘zaro munosabatini, ma’noviy bo‘linuvchanligini aniqlashtiradi.
3. Jamiyat tilida har qanday tushuncha anglatuvchi leksik birliklar umumiy mazmnundorlikka birlashtiriladi.
4. Partonimik munosabat terminologiyaga oid leksik qatlamning sistemaviyligini asosli holatda isbotlab, ochiqlab berishga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, so‘nggi paytlarda «…sinonimiya, giponimiya, antonimiya, partonimiya yoki shunga o‘xshash hodisalar terminologiyani tartibga solish nuqtayi nazaridan emas, balki til va tafakkurda ro‘y berayotgan dolzarb jarayonlar va ularning sabablari nuqtayi nazaridan o‘rganila boshlandi». Shunday ekan, tilshunoslikda, jumladan,

terminologiyada leksik-semantik paradigmaning shakllanishi lisoniy jarayondir.

Adabiyotlar

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.

2. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977.

3. Madvaliyev A. [va boshq]. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Sahhof, 2021.

4. Tuxtasinov N. Davlat boshqaruviga oid terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: TDYU, 2024.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2020.

BADIIY MATNNI SHAKLLANTIRISHDA AFORIZMLARNING INTERTEKSTUAL BIRLIK SIFATIDAGI AHAMIYATI

Zarifa Jumanazar qizi O‘RINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqola aforizmlarning intertekstual birliklar sifatida badiiy matnni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo‘lib, bunda aforizmning lug‘atlarda berilgan izohi, maqol va matallardan farqi haqida so‘z borgan. Aforizmga xos asosiy xususiyatlar, aforizmning jahon va o‘zbek tilshunosligida intertekstual birlik sifatida o‘rganilishi, ilmiy-nazariy, falsafiy nutqlarda hamda badiiy asar matnlarida uchragan aforizmlarning turlari, badiiy asar qahramoniga tegishli bo‘lgan bir nechta aforistik matnlar, obrazning axloqiy xaritasini, uning xarakter portretini tanishtirishi mumkinligi tahlil qilingan va misollar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: *Aforizmlar, intertekstuallik, matn, aforistik matn,matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, intertekst.*

Intertekstuallik, *inter* «o‘rtasida», «orasida», *tekst* «matn» so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, matn ichida matn kelishini nazarda tutadi. Matnlar orasida nafaqat butun bir matn, balki boshqa bir matnga ishora qiluvchi birliklar (pretsedent nomlar) ham uchraydi. Mana shu hodisalar jamlanmasi dunyo tilshunosligida intertekstuallik deb yuritilmoqda va tadqiq qilinmoqda.

Intertekstuallik va uning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida tadqiqot olib borgan rus olimasi N.Fateeva badiiy matndagi intertekstlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Allyuziya.
2. Reminissensiya.
3. Epigraf.
4. Sarlavha.
5. Havola (sitata).
6. Aforizmlar.
7. Maqol, matal [5: 25-30].

Biz ushbu tasnif boshqa tilshunos olimlar tasnifiga qaraganda ancha muakammal va intertektuallikni o‘zida to‘liq aks ettirgan, deb hisoblaymiz.

Quyida intertekstual birliklar sifatida aforizmlarning badiiy matnni tushunishdagi, matnning ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyatiga to‘xtalamiz.

Aforizm intertekstual birlik bo‘lib, odatda juda qisqa, kitobxon tomonidan oson esda qoladigan, va albatta, didaktik mazmun aks etgan fikrdir. Aforizmga o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif beriladi: Aforizmlar [yun. *Aphorismos* – hikmatli so‘z] ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so‘zlar. Masalan: *Oz demak hikmatga bois*, *oz yemak hikmatga bois.* Alisher Navoiy». Muallifning mavjudligi aforizmlarning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotshunoslik terminlari izohiga bag‘ishlangan lug‘atlarda ham aforizm terminiga ta’rif berilgan: «Aforizm (yunoncha «dono gap») – qisqa, sayqallangan shaklda, favqulodda ifodaviyligi va kutilmagan hukmi bilan ajralib turuvchi, biror muallifning chuqur umumlashtiruvchi fikri» [4: 23-24.]

Ko‘rish mazkur ta’rifda ham muallifning mavjudligiga alohida e’tibor berilgan.

Aforizmlarning tarixi qadimgi Rim, Yunonistonga borib taqaladi. Qadimgi yunon tarixchisi Geradot aforizmlarga ishora qiluvchi shunday fikr bildirgan: «Qadimgi odamlarda chiroyli so‘zlar, dono gaplar ko‘p bo‘lgan, biz esa ularni o‘rganamiz va foydalanamiz» [http://www.festival.september.ru].

Demak, insoniyat oldin yashab ijod etgan olim-u fuzalolarning purma’no hikmatli so‘zlaridan foydalanib, nutqini yanada ta’sirchan, yanada jozibali qilib shakllantira oladi. Tilshunoslikda aforizmlar matnni obrazli, tinglovchi yoki o‘quvchiga ekspressiv-emotsional ta’sir etishni ta’minlagani bois intertekstual birlik sifatida qayd etiladi.

Aforizmlarni intertekstual birlik sifatida o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Nemis tilshunosligida aforizmlarni intertekstual fenomen sifatida o‘rganish Sadovaya (1976), Manyakina (1980), Elenevskaya (1983), Radzievskaya (1988) kabi olimlarning matn tipologiyasi va lingvistik stilistikaga oid izlanishlarida kuzatiladi.

Rus tilshunosligida XX asrning so‘ngi o‘n yilligida aforizmga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmog‘i ortdi. Dmitriyeva (1997), Nguyen (1999), Shatalova (2000) kabi olimlar aforizmning adabiy tanqid va tilshunoslikda tutgan o‘rni masalalarini tahlil qilganlar.

Qayd etilganidek, aforizmlar intertekstual birlik hisoblanadi. Aforizmlarning quyidagi xususiyatlari uning intertekstual belgilarga ega ekanligini ko‘rsatadi:

1. Aforistik matnlar bitta muallifga tegishli.
2. Aforistik matn aniqlikka ega.
3. Aforistik matnning argumentatsiya sxemasi ikki tomonlamadir: asar olamiga va uning doirasidan tashqariga (ya’ni boshqa asl matnga) qaratilgan bo‘ladi.

Demak, aforizm o‘zi tegishli bo‘lgan matn va aforizm sifatida qo‘llanilayotgan boshqa bir matn o‘rtasida mazmuniy aloqadorlikni ta’minlaydi va lisoniy shaxs egasi ushbu yangi matnni o‘qiganda, boshqa (asl manba) matnga xos ma’lumotlarni ham miyasida tiklay oladi. Ya’ni assotsatsiya hosil qiladi. Bu esa intertekstuallikning eng muhim omilidir.

Aytish mumkinki, aforistik matnlar intertekstual birlik sifatida matnlararo aloqani shakllantirar ekan, ilmiy-nazariy, falsafiy nutqlarda hamda badiiy asar matnida aforizmlar quyidagicha aks etadi:

- aniq atribut: muallifning ismi va asar nomi ko‘rsatiladi; chiqish ma’lumotlari va sahifa raqamlari ko‘rsatilmaydi;
- takror ishlab chiqarishning oziga xosligi: aforizmning aniqligi; ba’zan keltirilgan matnning asl tili saqlanib qoladi;
- belgililik: markerlar grafik vositalar yoki metamatn operatorlari sifatida.

Yozuvchilar qayd etilgan birinchi va ikkinchi turidan ko‘proq foydalanishsa, ilmiy matnlarda uchinchi turini ko‘proq uchratish mumkin. Xususan, Tohir Malikning «Falak» qissasida Umar Hayyomga tegishli shunday aforizm keltiriladi:

Yo rab, loyimni-ku, qorgan o‘zingsan,
O‘rish-arqog‘imni o‘rgan o‘zingsan.
Yomonmanmi, yaxshi, men qandoq qilay?
Taqdir manglayini bergan o‘zingsan...

Ushbu aforistik matn she’r ko‘rinishida bo‘lib, aniq atribut shaklida aks etgan. Ya’ni ushbu hikmatli so‘zning muallifi aniq ko‘rsatilib, hikmatli so‘zning asl mazmuni ham qissa qahramoni Shamsibek tomonidan izohlangan.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida asar qahramoni Sultonali o‘zining fikrini dalillash maqsadida Shayx Sa’diyning hikmatli so‘zlaridan foydalangani aks ettirilgan:

«*Menim hukmimga qanoat qilmasangiz, hikmatga qarang. Shayx Sa'diy:*
«Bishuy, ey xiradmand, az on do'st dast,
Ki bo dushmanonam buvad hamnashast» deydirlar...» [1: 429].

Bunda yozuvchi aforizmni Shayx Sa'diy yozgan fors tilida qo'llaydi, ammo uning tarjimasini ham beradi: «*Ey hushyor kishi! Dushmanlaring bilan birga o'lturushkan – hamsuhbat bo'lgan do'stingdan qo'l yuvg'il*» tarzida. Aytishimiz mumkinki, bu holat aforizmning badiiy matnda aks etish usulining ikkinchi ko'rinishi «takror ishlab chiqarishning o'ziga xosligi: aforizmning aniqligi; ba'zan keltirilgan matnning asl tili saqlanib qoladi», degan talabga misol bo'la oladi.

Jahon va o'zbek adabiyotida yozuvchi va shoirlar kitobxonga o'z g'oya va maqsadlarini aniqroq, ishonarliroq ifodalash maqsadida intertekstual birliklarning aforizm turidan keng foydalanishadi. Asar qahramonining fikrini dalillash, yoki ma'lum bir fikrga asosli izoh berish maqsadida aforizmlarga murojaat qilishadi.

Kuzatishlarimiz natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek yozuvchi-shoirlari ko'proq Alisher Navoiy, Rumiy, Sa'diy va Bobur qalamiga mansub hikmatli so'zlardan foydalanishadi. O'zlarining til, siyosat, xulq-atvor, millat kelajagi kabi bir qator masalalarga qaratilgan fikrlarini aynan ushbu buyuk shaxslarning hikmatli so'zlari bilan dalillaydilar. Shu sababli aforizmlarga bo'lgan ehtiyojga javoban buyuklarning aforizmlari alohida to'plam holida nashr etilgan. Alisher Navoiy tomonidan aytilgan hikmatli so'zlarning Izzat Sultonov boshchiligida 1948-yilda «Aforizmlar (Navoiy)» nomi bilan nashr ettirilishi bu boradagi e'tiborli ishlardan biridir.

Izlanishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, o'zbek tilida aforizmlarning intertekstual birlik sifatidagi talqini talab darajasida amalga oshirilmagan. Aforizmlar tadqiqotlarda intertekstual birlik sifatida tilga olingan bo'lsa-da, masalada chuqur tahlillar yetishmaydi. Aforistik matnlarning intertekstualligini aniqlash uchun esa lingvistik stilistika, matn lingvistikasi, lingvistik pragmatika, kognitiv tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik fanlari hamkorligida tadqiqotlar olib borish lozim.

Adabiyotlar

1. Qodiriy, Abdulla. Tanlangan asarlar/ nashrga tayyorlovchi X.Qodiriy. – Toshkent: Sharq, 2014.
2. Tohir Malik. Falak. – Toshkent: Hilol-nashr, 2015, 2017.
3. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filol.fan. fals.dok.(PhD)…diss. – Toshkent, 2021.
4. Словарь литературоведческих терминов. Редакторы составители Л.И.Тимофеев, В.Тураев. – М., 1974. – С. 23-24.

5. Фатеева, Н.А. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Серия литературы и языка, 1998. Т. 57. - №5.

XORIJIY SO‘ZLARNI MILLIYLASHTIRISHDA O‘ZBEK TILINING SO‘Z YASASH MODELLARIDAN FOYDALANISH

Fozilbek Yuldoshevish XAMRAYEV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘z yasalish modellarining tildagi yangi tushunchalarni nomlashda, shuningdek, xorijiy so‘zlarni milliylashtirishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Unda o‘zbek tilida so‘z turkumiga kiruvchi so‘z yasashning beshta asosiy usuli borligi misollar orqali asoslanib, o‘zbek tilida qisqartirish usulini faollashtirish davr talabi ekani ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi modellari, milliylashtirish, termin, semantik usul, affiksatsiya, kompozitsiya, sintaktik usul, qisqartma.*

Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar tilda o‘z aksini topib borar ekan, yangi paydo bo‘lgan tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli mavjud so‘z yasash modellari ham zamon talabiga ko‘ra takomillashib boraveradi. O‘zbek tili tarixan tarkib topgan o‘ziga xos yangi so‘z yasash modellariga ega. Biroq keyingi paytlarda o‘zbek tiliga xorijiy so‘zlarning ta’siri tobora ortib borayotgani milliy nom yaratish imkoniyatlariga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatyapti. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilining so‘z yasash modellarini puxta o‘rganish, takomillashtirish, ulardan xorijiy so‘zlarni milliylashtirishda samarali foydalanish hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi yangi so‘zlar, jumladan, o‘zlashma so‘zlarning asosiy qismini ot turkumiga mansub leksik birliklar tashkil etadi. Mazkur mo‘jaz ishda shu jihat, qolaversa, ishning umumiy hajmi hisobga olinib, faqat ot turkumiga mansub yasama so‘zlar tahlilga tortildi.

Yangi so‘z (ot)lar hosil qilishining hozirgi kun nuqtayi nazaridan quyidagi turlari farqlanadi:

Semantik (leksik semantik) usul. Bu usulga ayrim manbalarda tarixiy (diaxron) usul sifatida qaralgan [1; 171, 2; 5]. Biroq turli sohalarga mansub yangi so‘zlar (neologizmlar) tahlili shuni ko‘rsatadiki, semantik usul hozir ham faol va tilda paydo bo‘lgan yangi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi. N.Mahmudov bu jarayonga alohida e’tibor qaratgan [3; 120].

Mavjud so‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash orqali so‘z yasash, ayniqsa, atamalar doirasida ko‘p kuzatiladi. G‘.Ismailovning nomzodlik dissertatsiyasi ayni shu masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, unda sohaviy termin (atama)larning shakllanishida semantik usul, ya’ni transterminlashuvning o‘ziga xos o‘rni ilk marta monografik planda tadqiq etilgan, transterminlashuvning o‘ziga xos qoliplari mavjud ekanligi aniqlangan, shuningdek, transterminlarning dubletlik, variantdorlik va omonimiyani hosil qilishdagi o‘rniga yangicha baho berilgan [4; 27].

Sahifa so‘zi umumiste’molda «kitob, daftar va shu kabilar varag‘ining har bir tomoni»ni anglatsa, axborot texnologiyalari sohasida «noyob manzilga ega bo‘lgan, ko‘rish dasturi yordamida ochib ko‘rilishi mumkin bo‘lgan hujjat»ni bildiruvchi atama hisoblanadi. Yoki *imzo* so‘zi umumiste’molda «shaxsning o‘z qo‘li bilan maxsus yozuv-chizuv (shakl)da ifoda etilgan va uning o‘zi ekanini tasdiqlovchi belgi» ma’nosiga ega bo‘lsa, axborot texnologiyalari sohasida «familiya, ism, manzil va boshqa axborotdan iborat kichik matn»ni anglatadi [5; 85, 208]. Bundan tashqari, uni yangi paydo bo‘lgan onomastik birliklar sirasida ham uchratish mumkin.

Affiksatsiya usuli. O‘zbek tilida so‘z yasashning barcha davrlarga mansub eng sermahsul usuli, shubhasiz, affiksatsiya usulidir. Mustaqillikdan keyin o‘zbek tilida qo‘shimchalar orqali so‘z (ot) yasashda quyidagi qo‘shimchalardan unumli foydalanilyapti.

-ma qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha fe’llardan, kam hollarda boshqa turkumlardan turli xil mazmundagi ot yasaydi. Masalan, *sinama* (ruscha *проба* o‘rnida) – tibbiy atama; kuchli ta’sir qiluvchi dori vositasi (antibiotik)ning organizmga salbiy ta’siri bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun uning juda kichik miqdorini sinov tariqasida tanaga yuborish.

Shuningdek, turli sohaga oid atamalar doirasida zamonaviy tushunchalarni ifodalash uchun o‘zlashma asoslardan ham ot yasayapti. Xususan, *kodlama* so‘zi (ramzlar (insonlar tili) bilan sonlar (kompyuterlar tili) orasidagi mutanosiblik) kompyuter texnologiyalariga mansub yangi atamalardan biri bo‘lib, inglizcha *encoding*, ruscha *кодировка* so‘zlarining o‘zbekcha muqobili sifatida yaratilgan [10; 111].

-gich qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha ham fe’llarga qo‘shilib, shu fe’ldan anglashilgan harakatni bajarishga mo‘ljallangan narsani bildiruvchi ot yasaydi: *ushlagich, yutgich, ko‘rsatgich, quritgich, bug‘lagich, hisoblagich, kuchaytirgich, ta’minlagich, tozalagich* kabi.

Kompozitsiya usuli. O‘zbek tili leksikasidagi yasama so‘zlarning salmoqli qismini so‘zga so‘z qo‘shish yo‘li, ya’ni kompozitsiya usuli bilan yasalgan so‘zlar tashkil etadi va bu usuldan hozirgi kunda ham keng foydalanilyapti. Tarkibiga ko‘ra ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) ichki manba asosida yaratilgan qo‘shma so‘zlar (bu yerda o‘zbek tiliga to‘la singib ketgan arabcha va forscha so‘zlarga ham ichki manba sifatida qaralgan);

2) bir qismi tashqi manba asosida hosil qilingan qo‘shma so‘zlar.

Ichki manba asosida yaratilgan qo‘shma so‘zlarning asosiy qismini ijtimoiy, maishiy sohaga oid yasalmalar tashkil etadi: *yurtboshi, hamjamiyat, hamdo‘stlik, asabbuzarlik, baliqtozalagich, boshqotirma, tishkovlagich, umume’tirof, umumjahon, umumta’lim, gulqog‘oz, qo‘lband, tizzaband, orttasvir, yo‘lchiroq* (ruscha *свемоφор*), *otashkesim* kabi.

O.Shukurov *autentifikatsiya* atamasi zamirida «shaxsni tasdiqlash» tushunchasi mavjud ekanligini inobatga olib, uni tasdiqlanadigan shaxs ma’nosida *tasdiqshax*s tarzida milliylashtirish mumkin deb hisoblaydi [14; 83]. Bu fikrga to‘la qo‘shilish mumkin. Chunki *autentifikatsiya* so‘zi o‘zbek tiliga fonetik va grafik jihatdan mutlaqo moslashmagan, uning ma’nosini eslab qolish ham ancha qiyin. *Tasdiqshax*s so‘zi esa talaffuz uchun qulay va ixcham, shuningdek uning qanday ma’noga ega ekanligini oson tasavvur qilish mumkin.

Bir qismi o‘zga til elementidan tashkil topgan qo‘shma so‘zlarni bir nechta qolip asosida guruhlash mumkin:

1) *audio* + o‘z so‘z (*audiodarslik, audiokitob, audiomatn*);

2) *avia* + o‘z so‘z (*aviahalokat, aviakorxona, aviatashuv, aviaqatnov*);

3) *avto* + o‘z so‘z (*avtobekat, avtomaktab, avtoturargoh, avtoxo‘jalik, avtoyuklagich*);

4) *kiber* + o‘z so‘z (*kiberhujum, kiberjinoyat, kiberkasallik, kibermadaniyat, kibermakon, kiberxavfsizlik);*

5) *video* + o‘z so‘z (*videodars, videokuzatuv, videokuchaytirgich, videoanjuman, videomuloqot*).

Sintaktik usul. Tilda yangi paydo bo‘lgan muayyan tushunchani bir so‘z bilan nomlash imkoni mavjud bo‘lmaganda uni sintaktik usulda, ya’ni so‘z birikmasiga teng birlik orqali ifodalashga to‘g‘ri keladi. Ular tilshunoslikda yasama so‘z sifatida talqin etilmasa-da, turli sohaga mansub atamalar fondining salmoqli qismini tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki, birikmali nomlar mohiyatan atama maqomiga ega, ular qismlarini erkin almashtirish mumkin bo‘lgan oddiy so‘z birikmalari (*qizil olma, uyga qaytmoq, mashina eshigi* kabi)dan farqlanadi. Umuman, bunday birliklarga yangi nomlar (atamalar) yaratishning alohida usuli, alohida leksik birlik sifatida yondashish to‘g‘riroq bo‘ladi.

A.Teshaboyev va A.Nurmonovlarning aniq va tabiiy fanlar terminlarini meyorlashtirish masalalariga bag‘ishlangan maqolasida birikmali termin (atama)lar muammosiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Unda terminlarning

tarkibiga koʻra sodda va birikmali (ikki va undan ortiq soʻzdan tashkil topgan) turlarga boʻlinishi qayd etilgan [7; 72-76].

H.Dadaboyev hozirgi davrda oʻzbek terminologiyasi koʻp miqdorda termin-birikmalar hisobiga boyib borayotganini e'tirof etib, ularni tarkib nuqtayi nazaridan bir qancha tiplar, ya'ni ikki tarkibli, uch tarkibli, toʻrt tarkibli, besh va undan ortiq tarkibli termin-birikmalarga ajratadi [8; 91]. Lekin kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, bunday birliklarning katta qismini ikki tarkibli (ikki soʻzdan iborat) termin-birikmalar tashkil etadi.

Qisqartirish (abbreviatsiya) usuli. Soʻzlarni qisqartirish yangi nom (atama) hosil qilishning zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi. Qisqartma soʻzlar oʻzbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan [1; 186] va faqat ot turkumi doirasida uchraydi. Oʻzbek tilida bu usulda soʻz yasash qamrovi ancha cheklangan, ya'ni ulardan, asosan, mahalliy va xalqaro tashkilot, korxona va birlashmalarni nomlashda foydalaniladi: *SHHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti), OTM* (Oliy ta'lim muassasasi), *Oʻz*JOKU *(Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti), OAV* (Ommaviy axborot vositalari), *MIB* (Majburiy ijro byurosi), *MFY* (Mahalla fuqarolar yigʻini), *Oʻzgidromet* (Oʻzbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmati markazi) kabi.

Bu usulni yanada kengroq miqyosda tatbiq etish, xususan, undan turdosh ot (narsa, oʻrin-joy, faoliyat jarayon)lar yasashda faol foydalanish yangi milliy yasalmalarga boʻlgan ehtiyojning muayyan qismini toʻldirishi shubhasiz. Hozirgi paytda dunyoning eng nufuzli tillaridan biri boʻlgan ingliz tilida qisqartirish usuli yangi nomlar yaratishning eng asosiy turlaridan biriga aylangan va uning bir qancha koʻrinishlari mavjud [9; 5-10]. Hozirda oʻzbek tilida faol qoʻllanayotgan *radar, lazer, piar, email, modem, blog, vayfay* kabi inglizcha oʻzlashmalar ham qisqartirish usulining mahsuli hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tilida bu kabi misollar juda koʻp uchraydi. Oʻzbek tilida ham turli xil koʻrinishdagi qisqartmalardan oʻz oʻrnida va samarali foydalanish milliylikni ta'minlash, shuningdek, tobora oshib borayotgan oʻzga tillar bosimini ma'lum darajada yumshatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, oʻzbek tili oʻzining asrlar osha shakllanib kelgan yangi soʻz yasash (hosil qilish) modellariga ega. Ularni hozirgi davr nuqtayi nazaridan ot turkumi doirasida quyidagicha guruhlash mumkin: 1) semantik usulda hosil qilingan soʻzlar; 2) affiksatsiya (qoʻshimcha qoʻshish) usulida hosil qilingan soʻzlar; 3) kompozitsiya (soʻzga soʻz qoʻshish) usulida hosil qilingan soʻzlar; 4) sintaktik usulda hosil qilingan soʻzlar; 5) qisqartirish usulida hosil qilingan (qisqartma) soʻzlar. Mazkur modellarning yangi soʻz (atama)lar hosil qilishdagi oʻrni bir xil emas. Ya'ni asosiy usul (model)lar (semantik, affiksatsiya, kompozitsiya)dan foydalanish imkoni boʻlmaganda birikmaga teng nomlar yoki abbriviatsiya usullariga tayanish oʻrinli boʻladi. Umuman, oʻzbek tilining yangi soʻzlar yaratish imkoniyatlarini chuqur tadqiq etish, ularni

to‘la ishga solish muttasil kirib kelayotgan xorijiy so‘zlar va milliylashma so‘zlar muvozanatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 171.
2. Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 5.
3. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – B. 120.
4. Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. дис. автореф. – Тошкент, 2011. – 27 б.
5. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. Тошкент, 2010. – Б. 85, 208.
6. Шукуров О. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (Мустақиллик даври): Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Қарши: 2022. –Б. – 83.
7. Тешабоев А., Нурмонов А. Аниқ ва табиий фанлар терминларини меъёрлаштириш масалалари // Илмий хабарнома. Андижон давлат университети. – 2011. №3. – Б. 72-76.
8. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 91.
9. Algeo J. The Origins and Development of the English Language: Sixth Edition. Wadsworth, Cengage Learning, 2010. – P. 235-240.

«JAZIRAMADAGI ODAMLAR» ROMANIDA MUALLIFNING BADIIY TIL MAHORATI

Yorqinoy Abdumutali qizi ISMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada iste’dotli yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning «Jaziramadagi odamlar» romani tahlilga tortilgan bo‘lib, romanda aks etgan yozuvchining badiiy til mahorati, so‘zdan foydalanish usuli va o‘ziga xos jihatlari haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy til, personaj tili, muallif tili, roman, syujet, poetik mahorat, obraz.*

Badiiy asarning tili xalq ruhining ifodasini aks ettiradi. Shu sababli til mahorati badiiy ijodning o‘zak masalalaridan sanaladi. Yozuvchi badiiy tilning har ikki oqimida ham muallif va personajlar tili sohalarida ham bab-barobar mahorat ko‘rsatmog‘i kerak. Muallifning tili kitobxonlarni o‘ziga tortadigan xususiyatlarga ega bo‘lsa, personajlar nutqi davrning iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy-ahloqiy qiyofalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu boisdan ham muallif tili asarda tashkil qiluvchi, boshqaruvchi qudrat kasb etsa, qahramonlar nutqi davr hayotini qayta jonlantiruvchi ko‘zgu vazifasini bajaradi. Demak, tildagi mahorat masalasini hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Atoqli adabiyotshunos olim Izzat Sulton ta’biri bilan aytganda: «Tilning badiiy asardagi alohida roli yana shunda ko‘rinadiki, asarning syujet qurilishida, xarakterlar tasvirining chuqurligida, kompozitsiyasida nuqsonlar bo‘lsa, o‘quvchi unday asarni o‘qishi mumkin, ammo tili no‘noq bo‘lsa, o‘qimaydi. Tildan boshqa komponentlari jihatidan nuqsonli asarlar adabiyot tarixida ancha uchraydi. Demak, bunday asarlar yashashi mumkin, faqat ularga o‘quvchi yoki mutaxassislar tomonidan berilgan baho yuksak bo‘lmaydi, ammo til jihatidan no‘noq asar adabiyotda yashay olmaydi» [1,197].

Luqmon Bo‘rixon esa «Jaziramadagi odamlar» romani orqali til mahorati qay darajada go‘zal va betakror ekanligini ko‘p o‘rinlarda yaqqol namoyon etgan. Ayniqsa bu bola tilidan berilishi tasvirni yanada jonlantirgan.

«Bahor! Bahor! Yangalarning qiyiq qoshiday qaldirg‘ochlar havolarda charx urib qoldilar. Havolarni muattar bir hid tutdi. Bir hidki, juda-juda tanish, bir hidki, uch to‘rt kunlik kelinchakning siymtanidan taralayotgandek bosh aylanib, ko‘zlar tindi «. Bu yerda adib bahorni bejizga yangi kelinchakka mengzamaydi. Balki, Samadning Lolaxon kelinga bo‘lgan bolalarcha samimiy mehr-muhabbatini tasvirlaydi.

Roman – so‘z vositasida jonlantirilgan hayot. Unga jon ato etishda yozuvchi ijodiy niyati, estetik ideali, his-tuyg‘ulari, tafakkur ko‘lami va poetik mahorati muhim rol o‘ynaydi [2, 144]. Adibning manashunday mahorati ushbu syujetda yaqqol namoyon bo‘ladi:

«Bahor Fayzulla aka xonadonida biqinib yotgan ekan! Bahor bekinmachoq o‘ynayotgan sho‘x-shaddod kelinchakday to‘satdan otilib chiqdi. Tovusdek tovlanib, ko‘cha-ko‘ydan chopib o‘tdi, yellar bilan yelishib, dala-dashtni quchoqlab o‘tdi. Kengsoyning keng qir-adirlari hayitni kutib yotgan kambag‘alday yag‘ir yelkalariga omonatgina yashil to‘n kiydi».

Yozuvchi inson psixologiyasi, undagi kechinmalarni shunday tasvirlaydiki, bu tasvir vaziyat va holatga qarab tubdan o‘zgaradi. Bolaning

qarashlari bilan suyukli kelinchak bahorga oʻxshatilgan boʻlsa, endi nafrat tasviri umuman oʻzgacha, ya'ni bolaning ruhiyatidan kelib chiqib tasvirlanadi.

«Quyosh qoq tepamda olov toʻla ogʻzini or-nomussiz ayolday ochib oʻt-alanga purkar edi. Unda-munda qoʻqqaygan dov-daraxtlarning quyuq yaproqlari qoramtir tortib, ojizona titrab-qaqshab turibdi. Qushlar bezovta-bezovta chugʻurlashadi». Bu yerda quyosh «or-nomussiz ayol»ga oʻxshatilishini kuzatamiz. Bu kinoya Lolaxonga tegishlidir. Buni quyidagi jumlalardan anglashimiz mumkin.

«Lolaxon! U oʻsha beton ustunlari qoʻqqaygan ayvonda allanechuk bezovtalanib turibdi. Egalari har kuni bir mahal donlashga oʻrgatgan ola tovuqday u yon-bu yon olazarak-olazarak koʻz tashlaydi» [3, 280].

Bolaning Lolaxon yangasiga boʻlgan samimiy muhabbati, unga boʻlgan hurmati va kuchli ishonchi bir lahzada nafratga aylanadi. Dunyodagi eng goʻzal malak endi bolaning nigohida «ola tovuq» boʻlib koʻrinadi. *«Ha, ha ola tovuq! Oʻsha kuni oʻsha lahzada uning ta'rifiga boshqa soʻz topolmadim. Ich-ichimda shoirning achchiq tamakisiday tutab yotgan alam, nafrat koʻzlarimni xira tuman kabi qoplagan edi»* deydi, achchiq bilan Samad.

Bu fikrlar aslida Samadning emas, adibning ich-ichidan toshib chiqayotgan gʻazabdir. Yozuvchi bola qiyofasida beva kelinchakning holbuki, butun qishloq hurmat qilgan, oʻzlarining sadoqat timsoliga aylantirgan ayolning begona erkakka suykalishi har qanday insonda unga nisbatan nafrat uygʻotishini koʻrsatmoqchi boʻladi. Keyingi jumlalarda esa «or-nomussiz ayol»ga oʻxshatilgan quyosh tasviri mutloq oʻzgaradi.

«Quyosh qoq tepamda yaraqlab-charaqlab turibdi. U goʻyo ikki sevishgan yorning qaynoq qalbidan quvvatu qudrat olib, jazava bilan borliqqa olov pukaydi».

Olov toʻla ogʻzidan oʻt-alanga purkagan quyosh endi bolaning nigohida oʻzgacha yaraqlab-charaqlab turibdi. Endi u yondiruvchi alanga emas, balki, muhabbatning qaynoq qalbidan quvvatu qudrat olib purkayapti. Aslida quyosh oʻsha-oʻsha. Tafti ham oʻzgarmagan. Bu yerda roviyning kayfiyati oʻzgargan. U kuzatib turgan holat va vaziyat ham oʻzgargan. U endi hayosiz kelinchakning unga yoqimsiz tuyulgan qilmishini emas, quvonch va baxtga burkangan ikki yoshning toʻy marosimini hikoya qilyapti.

Demak, asarda personaj nutqi vaziyat va holatga qarab emotsional boʻladi. Ya'ni, adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov aytganlaridek: «Lirik asarda nutqning emotsionalligi koʻproq lirik qahramonning konkret paytdagi (bu turga mansub asarda badiiy vaqtning juda qisqaligi, «hozir» bilan belgilanishini e'tiborga olish zarur) kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bogʻliq boʻlsa, epik asarda emotsionallikning namoyon boʻlishi oʻzgacharoq tarzda kechadi. Bundagi emotsionallik, birinchi galda, tasvirlanayotgan predmet mohiyati bilan bogʻliqdir. Ya'ni epik asarda tasvirlanayotgan narsa, voqeaning

oʻzgarishi barobari emotsionallik ham shunga mos oʻzgarib boradi» [4, 244-245].

Isteʼdodli yozuvchi Luqmon Boʻrixonning «Jaziramadagi odamlar» romani oʻzbek romanchiligini yana bir goʻzal asar bilan boyitdi. Romanda ovloq choʻl qoʻynidagi choʻlquvarlarning goh sururli, goh alamli, joʻshqin voqea-hodisalarga toʻla hayotiy kechinmalari qahramon bola tilidan hikoya tarzida ifoda etilgan. Asarni yozishda muallif oʻzining gʻoyat goʻzal va jozibali badiiy tilini namoyon qilgan. Bu esa albatta, kitobxonni beixtiyor oʻziga rom qiladi.

Yozuvchi «Jaziramadagi odamlar» romanida qahramon bola tilidan gapiradi. Bolaning ruhiyat qirralari turli vaziyat va nutqida koʻzga tashlanadi. Asar tilida yozuvchi uslubi va qahramon salohiyati yaqqol namoyon boʻladi.

Asar boshidanoq hikoya tarzida boshlanadi. Yaʼni roman qahramonlaridan hikoyachi bola Samad oʻzi haqida, otasining unga yozgan maktubi haqida gapirib, kitobxonni voqealar rivoji tomon yetaklaydi. Bunda yozuvchi oʻzgacha yondoshadi. Avvaliga, oʻquvchini jalb qilish uchun asar boshiga epigraf qilib ajoyib bir topishmoqni kiritadi.

Bir otim bor, ajabgina,
Dumlari gajakkina.
Hali kelsa koʻrasiz,
Kula-kula oʻlasiz.
Toshbibi chechaning javobi (no)maʼlum topishmoqlaridan.

Ushbu kiritma birinchidan, kitobxonni topishmoqning javobi nima ekan, rostdan ham javobi nomaʼlummi yoki maʼlummikin deb qiziqtirsa, ikkinchidan, asar bola tilidan hikoya qilinishiga ishora qiladi.

Muallif albatta, Samad obrazini bolalik payti ruhiyati, balogʻat yoshi va yigitlik davridagi psixologik oʻzgarishlarni, bola va ulgʻaygan yigitning fiklashidagi tafovutlarni inobatga olgan holda tasvirlaydi. Masalan, Samadning bolalik syujetida uyatchang, ammo bolalarcha gapga chechanligini koʻramiz.

«Men Maysara yangamni koʻrgandayoq panalab qoldim oʻshanda. Koʻpchigan xamirdek yuzlarida quvnoq bir ifoda arimaydigan bu xotindan oʻlardek uyalardimda. U uyimizga kelgan kezlari baʼzan meni semiz changaliga lippa ilib olardiyu «voy, domodimdan aylanay...», deya bagʻriga tortardi. Men esa uning quchogʻida, katta-katta siynalari orasida, allanechuk xushboʻylardan damim qaytib, tipirchilay boshlayman.

«Sizga kuyov boʻlaman deb ayt, keyin qoʻyib yuboraman», deydi Maysara yanga battar qiynab.

Onam imo ishoralar bilan nima deb javob berishimni tushuntiradi. Shundagina qaysarlarcha qichqiraman: «Qizingiz yoʻqku!..».

Bola garchi Maysara yangasidan uyalsada, unga «qizingiz yo‘qku» deyishga jazm etadi. Bu esa bolaning vaziyatdan chiqish uchun qilgan hiylasi, uning gapga chechanligidan dalolatdir.

Onasining «ha» deyishga undagan ishorasini tushunsada, bola unday qilmaydi. Chunki bu yoshdagi bola tabiatida qaysarlik, xohlamagan ishini qilmaslik xususiyati bo‘ladi. Mabodo, Maysara yangasining qizi bor bo‘lgan taqdirda ham boladan «albatta, kuyovingiz bo‘laman» degan javob aslo chiqmagan bo‘lar edi.

Bolalar o‘rtasida odatda biror nimaga ishontirmoqchi bo‘linganda va hech kim ishonmasa, qasam ichish jarayoniga o‘tiladi. Bunda odatda ular turli xil narsa va buyumlardan «qurol» sifatida foydalanishadi. Masalan, hamma uchun aziz va qadrli ne’mat hisoblangan non ko‘pincha bolalar o‘rtasida vosita quroliga aylanadi. Chunki har bir bolaga non aziz ne’mat ekanligi, uni uvol qilmaslik, garchi nonni xor qilgan odam o‘zi ham xor bo‘lishi haqidagi nasihatlar yoshligidan singdirib kelinadi. Bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, o‘yin va boshqa vaziyatlarda ishga tushadigan elementlarni kuzatgan va yaxshi bilgan yozuvchi buni asar syujetiga ham kiritgan.

« – Abdulla aka savxo‘zimizdagi eng boy, eng zo‘r odam. U boshqalar oldida yig‘lashga uyalgan... Uyida o‘kirib yuborganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdimku?! Aldasam, mana, non ursin.

Dovdir do‘stimiz so‘ngi so‘zini ayta-ayta belidagi tushlik uchun non tugilgan belbog‘ini yechib, qo‘liga olib avval o‘ng manglayiga so‘ng hayajonidan tupik ko‘pirib turgan qalin lablariga tekizib o‘pdi. Endi To‘lqinga ishonmaslikning hech iloji yo‘q edi! U bizning nazdimizdagi eng muqaddas qasamni tilga oldi».

«O‘sha kecha biz ikki do‘st o‘zimizcha erkakchasiga qo‘l tashlashdik. «Non ursin», «Ayol bo‘lay» kabi jaydari qasamlarga ko‘nglimiz to‘lmay, oshxonadan oshpichoqni o‘g‘rincha keltirib Ashurning kavkazcha usulini qo‘lladik. Oshpichoqni galma-gal qo‘lga olib, lab-dahanimizga tekizib, «do‘stimga xiyonat qilsam shu tig‘day o‘lay» qabilida qasamlar ichdik».

Bu yerda esa vosita sifatida oshpichoq ishga tushyapti. Bu esa qahramonning o‘zi ham ta’kidlaganidek, yanada jiddiyroq vaziyatni anglatadi. Ya’ni nondan ham kuchliroq qurol ishga tushadi.

Badiiy adabiyot insonshunoslik ekan, adabiy asarning bosh vazifasi tipik sharoitda yashovchi tipik xarakterlarni yaratib berishdir. Ammo insonshunoslik, xarakterlar tasviri adabiyotning o‘z maqsadi emas, balki hayotni tasvirlash, yana ham aniqrog‘i, muallifning jamiyat uchun muhim bo‘lgan ideyalarini, inson va jamiyat taqdiriga munosabatini ifoda etish qurolidir [5, 162]. Luqmon Bo‘rixonni esa anashunday insonshunos yozuvchi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 197, 162.
2. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Monografiya. – Toshkent: Nurafshon-business, 2021. – B.144.
3. Luqmon Bo‘rixon. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: G‘ G‘ulom nomidagi NMIU, 2005. – B.280.
4. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 244-245.

KASHTACHILIK TERMINLARINING BUTUN-BO‘LAK MUNOSABATLARI

Sh. UMAROVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
akademik litseyi o‘qituvchisi

Maqolada milliy hunarmandchilikning muhim sohasi bo‘lgan kashtachilik terminlari xususida fikr yuritilgan. Soha terminlarinig butun-bo‘lak munosobatga kirishuvi jarajonlari kashtachilik terminlari misolida ko‘rib chiqilisjiga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *kashta, termin, so‘z, butun-bo‘lak, sistem tahlil, ifodalash*.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida borliqdagi butun-bo‘lak munosabatlarining tildagi in’ikosi bo‘lmish leksemalarning partonimik munosabatlari lisoniy haqiqat ekanligi isbotlab berilayotgan ekan [1, 2, 3, 4], kasb-hunarmandlik leksik sistemasini ham shu nuqtai nazardan tadqiq etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi [5], sohaviy terminologiyani yangi-yangi dalillar bilan to‘ldirishga imkon yaratadi. Kashtachilik sohasidagi terminlarning ham partonimik munosabatlarini aniqlash – bu ishga qo‘shiladigan hissalardan biri bo‘la oladi. Bunday munosabat kashtachilikning quyidagi guruhchalarida o‘z ifodasini topgan:

I. *Jarayon nomlarini anglatishda*. Avvalo, kashtachilik so‘z/ terminlari guruhining «ish jarayonlarini anglatuvchi terminlar» guruhchasida partonimik munosabatlar yaqqol ajralib turishini va ularning miqdori elliktadan ortiq ekanligini ta’kidlab o‘tamiz.

Biror matoga yoki buyumga gul, rasm, chiziq va boshqa narsalarni qo‘lda yoxud mashinada tikish, ya’ni kashta yaratish mashaqqatli va murakkab ishlar jarayonining mahsulidir. Chunki kashta yaratishda ko‘plab ish

jarayonlari amalga oshiriladi. Bu jarayonlar, tabiiyki, maxsus terminlarda o‘z ifodasini topadi.

Tikish mazkur mikroguruhchaning asosiy termini–butunnom hisoblanadi. Kashta *tikish* deyilganda, «igna yoxud maxsus bigizlar va iplar bilan choklab ulab, biriktirib kashta (gul) hosil qilish» tushunchasi ifodalanadi. *Tikish* termini «kashtachilik yo‘li bilan tayyorlanadigan buyum» ma’nosini ham anglatadi: Tirikchilik toshi, benihoyat, og‘ir bo‘lar ekan. Bizlarni zeriktirmaslik uchun ham ayam *tikish* tika boshladi (Oybek, Qutlug‘ qon); Burungi zamänlärgä här xil *tikish* tikib kun koräydik (Urg.).

Bu o‘rinda bizni *tikish* leksemasining birinchi ma’nosi qiziqtiradi, chunki u leksik-semantik munosabatda butunnom vazifasini bajaradi.

Ma’lum bo‘lishicha, kashta tikishning bir necha xil usuli mavjud bo‘lib, ularning har birida o‘ziga xos terminlar ifodalanar ekan.

Tikish butunnomi bo‘laknomlarining ifodalanishida faqat birikma terminlardan foydalanilayotganligi aniqlandi. Birikmaning aniqlanmish komponenti totonim–butunnomning o‘zidan iborat bo‘lganda, shunday holatning ro‘y berishi kuzatildi. Bunday birikmalar o‘z tarkibiga ko‘ra, sodda va murakkab bo‘lishi mumkin:

1) sodda birikma bo‘laknomlar: *gul tikish, naqsh tikish, sanchib (qadab) tikish, hoshiya tikish, qaviq tikish, kergisiz tikish, ko‘pchitib tikish, terib tikish, shaxmatli (shaxmatsimon) tikish, sidirg‘a tikish*;

2) murakkab birikma bo‘laknomlar: *chok bilan tikish, bosma chok bilan tikish, yo‘rma chok bilan tikish, oldinga tomon tikish, o‘ziga tomon tikish, teskari tomonga qarab tikish* va b.

Partonimlarning aniqlovchi komponenti boshqa-boshqa leksema-lardan iborat bo‘lgan taqdirda ham, ko‘rsatilgan ikki xildagi birikmalar qo‘llanayotganligi aniqlandi:

1) sodda birikma bo‘laknomlar: *igna sanchish, choklarning kesish-tirilishi, ip chatish, chok solish, qiyshiq kesishuv, chambarakka tortish, ignani o‘tkazish, jiyak tutish, qaviq yotqizish, qaviq tushirish* va b.;

2) murakkab birikma bo‘laknomlar: *o‘ziga tomon o‘tkazish, o‘zidan boshlab tortish, yon choki bilan bog‘lash, halqa hosil qilish, ikki yoqlama halqa qilib bog‘lash, hoshiya tikib bezatish, ignani orqaga qaratib urish*.

Shu bilan birga, tikish totonimining partonimlari bir o‘zak-negizli terminlardan iborat bo‘lishi mumkin: *chatish, so‘tish, choklash, beza-tish, bezash, hoshiyalash, loshlash, halqalash, qaviqlash*.

II. *Kashtachilik asboblarini ifodalashda*. Amaliy san’atning boshqa turlari kabi uning kashtachilik sohasida ham o‘ziga xos asboblardan foydalaniladi. Masalan, gilamchilikda qo‘llaniladigan asboblarning kashtachilikda ishlatilmasligi shundan dalolat beradi.

«Asbob-uskuna» totonimining partonimlari umumiste’moldagi quyidagi terminlar vositasida ifodalanadi: har xil *ignalar, yo‘rmado‘z mashina (*jo‘rmado‘z moshin), *angishvona, qaychi, uchli dukcha, santimetrli lenta, qalam, ruchka, sirkul/pargor, turli bigizlar, kergi, chambarak* va b.

Nomlari ko‘rsatilgan asboblarning ba’zilari bajaradigan vazifasiga qarab, xilma-xil bo‘ladi. Bunday xususiyat ularning nominatsiyasida ham o‘z ifodasini topadi. Partonimik munosabatdagi bu kabi terminlarning ba’zilari giper-giponimik aloqada ekanligini quyidagi dalillar isbotlay oladi, ya’ni: *igna* (iyna)–»asbob-uskuna» totonimining partonimi; *igna* (iyna)–giperonim; uning giponimlari: *ingichka igna* (iyna), *yo‘g‘on igna* (iyna), *ignado‘z/iynado‘z* (katta ignaning bir turi), *1-sonli igna* (iyna), *3-sonli igna* (iyna), *cho‘ziqroq ko‘zli igna* (iyna).

Bigiz bo‘laknomi giperonim rolini ham bajaradi. Uning giponimlari oddiy bigiz, ilma bigiz (ilmoqli bigiz yoki daravshi ham).

Kashtachilikda ishlatiladigan asboblarni to‘liqroq anglatuvchi terminlar, ya’ni partonimlar haqida tasavvur hosil qilish maqsadida ularning ayrimlarini sanab o‘tamiz: *uchli dukcha, kergi, to‘r, daravshi* (*ilma bigiz* ham deb ataladi), *loshcho‘p, katta igna/tevana* va b.

Xulosa qilib aytganda, tayyorlangan kashtachilik buyumlarining qismlarini, ish jarayonlarini ifodalovchi terminlar buyumlarni, tayyorlash uchun ishlatiladigan asbob-uskunalarni, bir-biri bilan butun-bo‘lak (partonimik) munosabatida ekanligi ham leksikologik tizimlarning sistema ekanligini tasdiqlovchi muhim dalildir. Bu esa soha terminologiyasini bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar oliborishni taqoza etadi.

Adabiyotlar

1. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент, 1995.

2. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 47 б.

3. Қиличев Б.Э. Ўзбек тилида партонимия: НДА. – Тошкент, 1997.

4. Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадиий қўлланиши: НДА. – Тошкент, 1998.

5. Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили. – Тошкент: Халқ мероси, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ADABIY TALAFFUZGA O‘RGATISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Gulnora Shermurodovna ATAMURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada ona tili ta’limini o‘qitish bilan bog‘liq muammo va yechimlar hamda ularga doir taklif hamda mulohazalar haqida bayon qilingan. Shuningdek, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini hosil qiluvchi o‘quv topshiriqlari va ularning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni, ko‘nikma va malaka hosil qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *to‘g‘ri talaffuz, tovush va harf, mashq va topshiriq, nutq tovushlari, adabiy talaffuz me’yorlari.*

Ta’lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida «Nimani o‘qitish va qanday o‘qitish kerak?» degan savolga javob izlab kelgan va hamon izlamoqda.

Adabiyotlarda «ta’lim mazmuni» tushunchasi bilan birga «*o‘quv materiali»* atamasi ham qo‘llaniladi**.** Didaktikada o‘quv materiali tushunchasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda u «ta’lim mazmuni» tushunchasiga teng bo‘lsa, tor ma’noda ma’lum darajada o‘rganilishi kerak bo‘lgan, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta’lim mazmuni deganda 1) o‘quv rejalari, 2) o‘quv dasturlari, 3) darsliklar hamda 4) o‘quv-metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi [1, 128].

Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyevaning ta’lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritishi nihoyatda to‘g‘ri yondashuv [2, 262]. Chunki til sathlaridan aynan to‘g‘ri talaffuz va orfoepiyani o‘qitishda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o‘qituvchidan o‘rganadilar.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta’lim mazmunining yoyilmasi o‘qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining «Ona tili» darsliklarida to‘g‘ri talaffuzning o‘rganilishi ayrim holatlarni ta’rif va tavsiflash bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, o‘zbek tilining fonetik qurilishi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, uni o‘zlashtirish nafaqat xorijliklardan, balki o‘zbeklardan ham qunt bilan ishlashni talab etadi. Zero, bugungi kunda

ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning o‘z nutqlarida g‘ayritabiiy talaffuzlardan foydalanishlari kishining g‘ashini keltiradi va bu holat ularning adabiy talaffuz me’yorlarini to‘g‘ri o‘zlashtira olmaganliklarini sezdirib turadi.

Vaholanki, o‘zbek o‘quvchilariga ham to‘g‘ri talaffuz ta’limi jarayonida faqat nutq organlarining darslikdagi umumiy grafik chizmasi bilan chegaralanib qolmasdan, tovushlar talaffuzi holati aks etgan maxsus chizmalar asosida ta’lim berish, fonetik mashqlarga imkoni boricha boshlang‘ich sinflarda ko‘proq o‘rin ajratish, yuqori sinflarda ularga o‘rni bilan qaytib turish adabiy til me’yorlarini egallashning muhim omili ekanligini shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich sinf «Ona tili» darsliklarida ham, oliy ta’lim darsliklarida ham fonetik mashqlarga o‘rin ajratilmagan. Bu holat o‘zbek adabiy talaffuz me’yorlarining o‘quvchilar tomonidan yetarlicha o‘zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta’limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o‘zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo‘lamiz [3, 149].

Shu o‘rinda «mashq» va «topshiriq» atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o‘rni hamda ahamiyati haqida to‘xtalish joizdir. Metodist M.Saidov o‘quv materiallari sirasida o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi va, ko‘pincha, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlari davomida «mashq», «topshiriq» va «masala» tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta’kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G‘ulomovning «mashq ham o‘quv topshirig‘ining bir shakli, ham o‘qitishning muayyan bir usuli,» degan fikriga qo‘shiladi va topshiriq mashqning bir bo‘lagi, u, asosan, mashqning shartida o‘z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e’tirof etadi [4, 25].

Tilshunoslikning «To‘g‘ri talaffuz» bo‘limi, «Orfografiya» va «Orfoepiya» bilan bevosita aloqador bo‘lganligi bois ularni o‘qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan mazkur ishda *mashq* va *topshiriq* atamalariga o‘zgacha yondashildi. Darslik va qo‘llanmalarda ko‘p uchraydigan «mashq», «topshiriq» atamalari o‘zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo‘q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo‘lgan qator darslik va qo‘llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o‘rnida boshqasining qo‘llanilishi kabi holatlarni ko‘rish mumkin.

«Ona tili» darsliklaridan olingan quyidagi namunalar fikrimizni tasdiqlaydi:

«333-mashq. Berilgan she’riy misradagi so‘zlarni unli va undoshga ajrating.

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz,

Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir» [5, 224].

«2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to‘ldiruvchili, holli birikmalarga ajrating».

Keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdiki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning berilishi, mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham «*ajrating*» topshirig‘i berilmoqda.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da mashq atamasiga shunday ta’rif berilgan: «**Mashq 1.** [arabcha. –husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti. *Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko‘kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro‘parasida kitob o‘qib o‘tirar edi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko‘p mashq ko‘rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo‘lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar.* 2. Ma’lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar. *Jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan* [6, 562].

«Pedagogika Ensiklopediyasi»da mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgan va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin:

Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash hamda o‘qish va yozish maktab ta’limida ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi [7, 223].

Topshiriq atamasiga «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da quyidagicha ta’rif berilgan: «**Topshiriq** 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig‘i. Topshiriq bermoq. *Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan.*» [8, 150].

Ko‘rinib turibdiki, har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Ya’ni, **mashq** muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o‘quvchining zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Demak, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma’lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o‘xshaydi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham «Ona tili» darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va

malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq o‘quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak, degan ta’kid, fikrimizcha, «Ona tili» darsliklariga ko‘proq tegishlidir. Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilg‘or mahsuli bo‘lgan *maqol, matal, hikmatli so‘zlar, tasviriy ifodalar, iboralar* ona tili ta’limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o‘quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O‘z o‘rnida va o‘z vaqtida o‘quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o‘zlarida hosil bo‘lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o‘quvchini ona tili ta’limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim. (Chunki maktabda ona tili ta’limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi.) Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin bo‘ladi.

Nafaqat to‘g‘ri talaffuz o‘qitishda, balki tilning barcha sathlarini o‘qitishda *matal, topishmoq, tez aytish, latifa, lof, terma* va *doston* namunalaridan tahlil materiali sifatida foydalanish ona tili ta’limida samaradorlikka erishishda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qila oladi.

Fikrimizcha, to‘g‘ri talaffuzga doir o‘quv materiallarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlilidan kelib chiqib bu boradagi muammolarni atroflicha o‘rganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. G‘ulomov A, Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

2. Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok-ri diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2006. – 262 b.

3. Ramazan Q., Qayyumiy X. Grammatik. Sarf. Orta maktablar ucun darslik. I qism. – Toshkent: Oquvpeddavnashr, 1937. – 149 b.

4. M.Saidov . O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2000. – 25 b.

5. Mahmudov N, Nurmonov A, Sobirov A, Qodirov V, Jo‘raboyeva Z. Ona tili. Umumta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma’naviyat 2015. – 224 b.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O‘zME, 2004. – 562 b.

7. Pedagogika Ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent: J – M, 2012. – B. 223.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2004. – 150 b.

OMON MUXTORNING «TEPALIKDAGI XAROBA» ROMANIDA RAMZ, TASAVVUFIY LEKSEMA VA G‘OYALAR UYG‘UNLIGI

Madina Baxriddin qizi YUNUSOVA,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Ushbu maqolada Omon Muxtorning «To‘rt tomon qibla» trilogiyasidan o‘rin olgan «Tepalikdagi xaroba» romanidagi diniy-tasavvufiy g‘oyalarni ochib berishga, ramziy va timsoliy leksemalarni tasavvufdagi ramzlar bilan taqqoslagan holda tahlil qilishga harakat qilindi. Tasavvufda mavjud bo‘lgan g‘oya va karomatlar haqida ma’lumot berishda mutasavvif olim Najmiddin Komilovning «Tasavvuf» asaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *ramziy leksemalar, tasavvufdagi ramziylik, badiiy til, tarixiy haqiqatlar, sirlilik, diniy dunyoqarash, xarobot, xarobot ahli.*

Tarixiy, fantastik, diniy dunyoqarashni o‘zida mujassamlashtirgan romanlar muallifi Omon Muxtor har bir asariga ularni singdira olgan mahoratli yozuvchidir. Uning asarlari sirlilik ustiga qurilgandek go‘yo, ya’ni haqiqiy hayotda sodir bo‘lishi qiyin bo‘lgan voqea-hodisalarning mavjudligi va kitobxonni goh shoshirib, goh hayajonga solishining sababi ham sirlilikdir.

Romanlari tarixiy atamalar va izohi, timsollar, ramziy leksemalar, tarixiy haqiqatlar, diniy mavzudagi mushohadalarni qamrab olganligi bilan qimmatlidir.

«Omon Muxtorning ijodida diniy dunyoqarashning yetakchi ahamiyatga egaligi yaqqol sezilib turadi. Shu sababli ham, muallif asarlarining tushunilishi bir qadar murakkabdir» [1, 63]. Ya'ni yozuvchida diniy, tarixiy ilm mukammalki, asarlariga buni singdira olgan. Misol qilib «Tepalikdagi xaroba» romanini oladigan bo‘lsak, unda ham diniy-tasavvufiy mavzular, tarixiy ma'lumotlar, fantastik hodisalar jamlangan. Nazarimizda, asardagi yungi paxmaygan, ayiqdek it, tepalikdagi xaroba, xaroba ichidagi uch jasad, tundagi ko‘lanka kabilari ramziylikka ega, nimagadir ishora qilmoqchi bo‘lgan obrazlar. Masalan, tasavvuf adabiyotida *xarobot, (daydi) it* kabi ramziy so‘zliklar, tasavvufda avliyo-yu so‘fiylargagina berilgan *bashorat qilish, bir nechta bo‘lib bir nechta joyda bo‘lish kabi karomatlar* bor. Shu sababdan bu asardagi ramzlar bilan tasavvufdagi ramz va timsollar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va farqlilik mavjud. Mavlono Rumiyning «…bir men bordir menda mendan ichkari» deganidek asar bosh qahramoni Mirza G‘olib ham zohiriy va botiniy «Men»ini anglay olgan, o‘zligini tanigan inson sifatida tasvirlagan. Misol uchun, Mirza G‘olibni bir vaqtning o‘zida 3 ta joyda bo‘lib qolishi, ya'ni 3 ta «Men»ga aylanishi tasavvufdagi avliyolarning shaklan bir nechta bo‘lib ko‘rinish karomatiga o‘xshab ketadi. «Bu – uning o‘zi; lekin uchta Menga aylanib, uch joyda hayot kechirmoqda. Tushmi, xayolmi, desa – hammasi aniq ko‘rinib turar edi!» [2, 314-b]. Mirzo G‘olibning birinchi «Men»i jarrohlik bo‘lmasida, ikkinchi «Men»i osmondagi g‘aroyib bir shaharda, uchinchi «Men»i Afg‘onistonga yo‘l olgan. Bularning bari bir xayolot mahsuli bo‘lishi mumkin, ammo ruh mo‘jizakor kuchga ega bo‘lib, sayr qilishi, jismi boshqa yerda, ajralgan ruhi boshqa yerda bo‘lishi mumkin. Shunga o‘xshash tasavvufda ham karomatlar mavjud. «Shayx Aziziddin Nasafiy «Zubdat ul-haqoyiq» risolasida shahodat beradiki, bizning pirimiz (Shayx Sa'diddin Hamaviy) dedilarki, mening ruhim vujudimni tark etdi va o‘n uch kun falaklarni kezib chiqdi va qaytib kelib vujudimga kirdi» [3, 66-67].

Asarda faqat Mirzo G‘olibgina emas, balki xaroba ichidagi uch jasadning – Lutfiy, Mashrab, Bayronlarning ham ruhi tanasidan ajralib sayr qilib qaytishi: Mashrabning dafn qilinganidan yetti kun so‘ng qalandarlar uni Hirot dashtida Makkaga ketib borayotganini ko‘rishi, Bayronning Yunonistonda bezgak tutib xastalanganida uni taniganlar London ko‘chalarida sayr qilib yurganini ko‘rganligi voqealari ham keltirilgan.

Yana tasavvufga aloqador ishqi haqiqiy va ishqi majoziylar haqida ham so‘z boradi. «…Bir kimsa –bir jonni sevmay turib, yurtni, hayotni, odamlarni sevmoq mushkul; ayniqsa, Ollohni sevib bo‘lmaydi»[2,1]. Bu ishq muzokaralari Lutfiy va uning majoziy ishqi Dilrabo o‘rtasida bo‘lib o‘tadi:

«– Ishqi ilohiy, ishqi majoziy, deylar. Siz qay birig‘a amal qilursiz?!

– Borchasi Ollohdin! Olloh ishq bermasa, dunyoda hech nimarsa bo‘lmag‘ay. Bir kimsaga muhabbat qo‘yib, har kimsaning baxtin o‘ylamoq, ulusni o‘ylamoq ham Ollohning inoyatidir!» [2.2, 365-b]

Allohga bo‘lgan ishqqa yetmoq uchun, avvalo, insonning insonga bo‘lgan muhabbati bo‘lishi kerakligi, ishqi majoziy ishqi haqiqiy (ilohiy)ga yetmoq uchun ko‘prikligi ta’kidlanadi va bu tasavvufdagi asosiy g‘oyalardan biridir.

Mirza G‘olibning uchinchi «Men»i Afg‘onistonga ketayotgan chog‘ida «…yuragida ko‘milib yotgan muqaddas so‘zlarni…»[2.3] pichirlab aytib ketadi va u matn Alisher Navoiyning «Munojot»idan aynan keltirilgan. Go‘yoki har gapi «Ilohi» so‘zi bilan boshlanadigan bu munojot Mirza G‘olibning botinini ochib bergandek.

Asarda bir qancha ramzlar va timsoliy obrazlar mavjud bo‘lib, ba’zilari tasavvuf adabiyotidagi ramzlarga ma’no jihatidan o‘xshash.

Tasavvuf adabiyotida:

Xarobot – lug‘aviy ma’nosi «vayrona, sharobxona». Tasavvufda esa inson jismining xarob bo‘lishi, ya’ni qanoat va faqirlik yo‘liga kirib, hayvoniy nafsdan, yomon xulq-u odatlardan qutilishdir. [4, 40]

«Tepalikdagi xaroba» romanida:

Xaroba – asarda tasvirlangan tepalikdagi xaroba ham faqirlik, eskilik, xokisorlik ma’nosini anglatadi. Masalan, romandagi «…torgina dahlizda devorga osig‘liq, chang bosgan eski bir po‘stin, anchadan beri suv ko‘rmay ichi oqarib qolgan ikkita chelakdan boshqa narsa yo‘q edi»[2, 309] jumla ham dalillaydi.

Tasavvuf adabiyotida:

Xarobotiylar, xarobot ahli – ilohiy ma’rifatni anglay oladigan, ulardan xabardor bo‘lgan komil inson va soliklar ramzi [4, 40].

«Tepalikdagi xaroba» romanida:

Xarobadagi uch jasad – faqirlik yo‘lini tanlaganlar, foniy dunyodan etagini tortganlar. Mirza G‘olib xarobada Lutfiy, Mashrab va Bayronning jasadini ko‘rganligi g‘ayrioddiy hodisadir. Lutfiy va Mashrab ilohiy va majoziy ishq haqida g‘azallar yozgan, junun vodiysida kezgan soliklar, ammo Bayron-chi? Xarobadagi jasadlarning biri sifatida nega aynan Bayron tanlangan? Bu kabi savollar ko‘pchilikda bo‘lishi mumkin. Bayronning sharq adabiyotiga qiziqishi va asarlari ham aynan Sharq dostonlaridan ilhomlanib yozilganligi ma’lum. «Sharq dostonlari turkumidagi «Kofir», «Abidoslik kelin», «Qaroqchi», «Lara», «Korinf qamali», «Parizod» kabi dostonlari Nizomiyning «Layli va Majnun», Firdavsiyning «Yusuf va Zulayho» asarlari ta’sirida yozilgan» [5, 12]. Nazarimizda, bir taraflama shu nuqtayi nazardan Bayron tanlangan bo‘lishi haqiqatga yaqinroq.

Tasavvuf adabiyotida:

It – vafodorlik va sadoqat ramzi. Ba’zan esa tasavvufda ***daydi it*** bo‘ysundirilmagan nafs timsolidir.

«Tepalikdagi xaroba» romanida:

Yungi paxmaygan ayiqdek it – romanda ham vafodorlik ramzidir. Masalan, asarda tasvirlangan «...bo‘g‘izlangan oq-kulrang tulki, katta kichik ilonlar…» [2, 338] dan ham qo‘riqlagan o‘sha it. Liliput odamlar karvoni Amir Abul-Hasan Nasrning jasadini olib ketayotganda ham xarobadagi it karvon atrofida aylanib ketaverardi. Shu o‘rinda bir hikoya keltiriladiki, «…Islom lashkari har safar Buxoroga kelganida yozda g‘azot qilar, qishda qaytib ketar edi… Buxoro aholisi har safar musulmon bo‘lar, arablar qaytib ketganida esa yana dindan qaytar edilar…Ular butparastlik…otashparastlik qilar edilar». Bu hikoyaning keltirilishi itning tarbiyalanmagan nafs timsoli ekanlidan dalolat berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Omon Muxtorning «Tepalikdagi xaroba» romani falsafiy, diniy, tasavvufiy, fantastik g‘oya va mazmunlarni o‘zida jamlay olgan. Mirza G‘olibning ruhiy dunyosidagi nozikliklarni, ichki olamidagi murakkabliklarni tasvirlash barobarida o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida chegara yo‘qligini, bugungi kunimiz ham ertaga o‘tmishga aylanishini chiroyli tarzda tarixiy misollar bilan ochib bergan. Yozuvchi asarlaridagi badiiy til, ramziy so‘zlar va timsollar kitobxonni bevosita mushohada-yu tahlil qilishga undaydi.

Adabiyotlar

1. Yuldosheva U. Omon Muxtor romanlarida diniy dunyoqarashning aks etishi // Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. 20-to‘plam, 2023. www.pedagoglar.uz

2. Omon Muxtor. To‘rt tomon qibla (trilogiya). – Toshkent: Sharq, 2000.

3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.

4. Yunusova M. O‘zbek tilidagi tasavvufiy-ramziy so‘zlar kichik o‘quv izohli lug‘ati. – Termiz: Surxon Ilm Nashri, 2024.

5. www.wikipedia.org

NAFS VA *HAVO* TUSHUNCHALARINING ETIMOLOGIYASI VA EVOLYUTSIYASI

Muborak Farxodjon qizi MAXMUDJONOVA,
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Hozirgi o‘zbek tili va adabiyotida nafs, shuningdek, havo tushunchalari alohida izlanish talab qiladigan masalalar sanaladi. Quyida mazkur tushunchalarning muayyan jihatlariga, kelib chiqishi, taraqqiyoti va ma’noviy imkoniyatlariga kengroq diqqat qaratilgan. Nafs badiiy g‘oyasi tashiydigan mutlaq haqiqatlar boshqa obrazlar bilan hamohang tarzda talqin qilindi. Tadqiqot jarayonida germenevtik, qiyoslash va tavsiflash metodlaridan foydalanilgan. Qur’oni Karim, hadislar, Hakim Termiziy va Ahmad Yassaviy asarlari chog‘ishtirma usulda tahlil etildi.

Kalit so ‘zlar: *nafs, havo, lug‘at, tushuncha, til, adabiyot, ma’noviy ko‘lam, badiiy g‘oya.*

O‘zbek tilidagi «nafs» va «havo» so‘zlarining genezisi bir qadar chigal tuyilishi tabiiy. Chunki, bu so‘zlarning ma’no ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, xalq nutqida xilma-xil mazmuniy tovlanishlarga ega. Adabiyotlarda ham turlicha talqin va tadqiq qilingan. Asrlar davomida insonlar o‘zlarining bosh dushmani sifatida nafs bilan jang qilib kelishganiga tarix ham guvohdir. «Nafs» va «havo» so‘zlari yonma-yon qo‘llanilib, kibr, g‘urur kabi tushunchalarni ifodalaganda, bir sinonimik qatorda joylashadi. Bugungi kunga qadar nafs va havo tushunchalari xalq ongida muntazam taraqqiy etdi va yangicha mazmun va ohang kasb eta boshladi.

Ma’lumki, «nafs» so‘zi arabcha bo‘lib, ushbu millat lug‘atlarida u turli ma’no sathlarida ishlatiladi. «n, f, s» vazni skeletidan harakatlarning turlicha qo‘yilishiga qarab qirqdan ortiq yangi so‘zlar yasash mumkin. Ulardan eng mashhurlari fe’l ma’nosida qimmatbaho bo ‘lmoq, nimanidir saqlab turmoq, baxil bo‘lmoq, tirishish, jahd qilish, intilish; ot ma’nosida shaxs, qalb, ko‘ngil, yurak, qon, bug‘, odam, kishi, xohish-istak, niyat, iroda, ishtaha, hirs, manmanlik, kibr, g‘urur, iftixor, biror narsaning mohiyati, haqiqat; nafsiy yoki nafsoniy, ya’ni ruhiy-psixologik holat; ,seziladigan, sezib bo ‘ladigan; egoistiklik, xudbinlik, adovat, xusumat kabi tushunchalarni ifodalaydi [1, 708]. Nufus – aholi; nafis – qimmatbaho; nafosat – go‘zallik; nafas – muhlat, kuch-quvvat, iqtidor, havodan nafas olish, raqobat, bellashuv; nafs – jon, ruh kabi so ‘zlar o‘zbek xalqi nutqida ham faol qo‘llanadi. Turkiy tillarda nafsni «o‘z»(zot), «qurch», «mus», «ilting» yoki «iltang», «ko ‘kay» yoxud «so‘l», «so‘m», jig‘ildon (ko‘chma ma’noda) kabi so‘zlar bilan ataganlar. Ammo bu so‘zlar nafsning ifodalovchilari sifatida ancha kam o‘rganilgan, shuningdek, badiiy adabiyotda ham shu lug‘aviy shakliga ko‘ra salmoqli talqin qilinmagan. Umuman olganda, bu so‘zlardan nafsning zohiriy ma’nolariga oid bir qancha mazmun-mohiyatni anglasak-da, bu ifodalar uning bor bo‘yini, ya’ni ichki xarakterini, botiniy qiyofasini to‘liq namoyon qila olmaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida nafs so‘zi, asosan, ikki xil mazmunda foydalaniladi: 1.Yeyish-ichishga, mol-dunyoga bo‘lgan ehtiros. *Mening nafsim balodur, yonar o‘tga*

soladir.(Maqol) 2. Shahvoniy hirs. *Boyvachchaning ko‘zida har bir xotin uning nafsi uchun yaratilgan chiroyli meva edi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»)* Qolaversa, nafs bandasi, nafsi buzuq, nafsi ulik, nafsiga o‘t tushmoq, nafsini tiymoq, nafsi olinmoq, nafsi og‘rimoq kabi birikmalar borki, ularda ham yuqoridagi ikki ma’no ottenkasi anglashiladi [2,]. Biroq izohli lug‘atlar bu so‘z tashiydigan ulkan ma’nolarni, chuqur mohiyatni aks ettirishda nihoyatda ojiz, mazkur so‘zga juda juz’iy ta’rif berilgan. «Havo» so‘zi ham arabcha so‘z sanalib, «h, v, hamza» o‘zagidan hosil bo‘ladigan so‘zlar juda ko‘p holatlarda istifoda etiladi, arab lug‘atlarida ko‘proq e’tibor qaratiladigan mashhur ma’nolari esa quyidagilar: pastga qarab sho‘ng‘imoq, hoy-u havasga berilmoq, maftun qilish, asir qilish, afsun qilish, sevmoq, qattiq xohlamoq, aqlini o‘g‘irlamoq, chuqurlikka qulamoq, tentak bo‘lmoq, aqldan ozgan bo‘lish, g‘alati qiliqli, chuqurlik, yiqiluvchi, harakatida shiddatli tus olish; havasmand, shamol, yel, iqlim, serxarxashalik, o‘y-xayol, bo‘m-bo‘shlik va hokazo [1, 747]. U o‘zbek tili doirasida ham mazmunan keng, bundan tashqari omonimlik xususiyatiga ega so‘zdir. Shakldosh so‘z sifatida u atmosfera; xayoliy havas; fantaziya, ohang so‘zlari ifodalaydigan atash ma’nolarini o‘zida jamlagan. Polisemantik tabiatiga to‘xtalsak, «havo» so‘zi fazo, bo‘shliq, ko‘k, ob-havo, sharoit; injiqlik, noz, orzu; kibr, g‘urur; kuy kabi o‘nlab tushunchalarni aks ettiradi. Kibr va bo‘shliq tushunchalarini ifodalaydigan «havo» so‘zining shakldoshligi yoki ko‘p ma’noliligi borasida alohida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi, chunki bu ikki tushunchada ham ko‘p ma’nolilik, ham shakldoshlik xususiyatlarini ilg‘ash mumkin, biroq bugungi kunda «havo» so‘zi ifodalaydigan ilgarigi ma’nolarda nihoyatda kam qo‘llanilgani, yangi mazmun hosil qilganligi tufayli bu jihatlarni omonimlik deya e’tirof etiladi. Bundan tashqari havoga ketmoq, havoga sovurmoq, havosini olmoq, havosi baland, havosi oshmoq singari iboralar juda ko‘p tilga olinadi. Tasavvuf adabiyotida nafs va havo timsollari uyg‘unlashib, «havoyi nafs», «badnafs», «kibr-u havo», «havoyilik» va boshqa ko‘plab sifatli istioralarni yuzaga keltirgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi nafs masalasiga bag‘ishlanadi. Umuman, tasavvuf adabiyotida nafs va havo o‘ziga xos klassik qahramonlarga aylandi, ma’no ko‘lami tobora murakkablashib, global-kiber g‘oyaga endi va umumbashariy mohiyat kasb etdi. Biroq nafs va havo faqat salbiy tushunchalar emas, ya’ni bugun ularni faqatgina insonning ichki dushmanlari sifatida anglash noto‘g‘ri. Nafsni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish har bir kishining o‘z ixtiyorida. Negaki, nafsning o‘zida ichki ziddiyatlar mavjud bo‘lib, ba’zi nafsiy istaklar ezgu jihatlarga o‘ralsa, ba’zilari yuqorida ko‘p bor ta’kidlangan yovuzlik illatiga yuzlanadi. Aslida, nafs – olamdagi to‘rt unsur: tuproq, suv, olov va havoning o‘zaro uyg‘un qorishmasidan hosil bo‘lgan latif bir javhar. Nafs havo bilan tirik, u havo bilan harakatlanadi. Nafs insonning moddiy o‘zligi, ya’ni «men»idir. Shunday hadis bor: *«Darhaqiqat, o‘zini*

(nafsini) tanigan Robbisini taniydi». O‘zlikni bilish dunyodagi eng qiyin ish ekanligi aytiladi, bilgan insonga ilohiy sirlar eshigi ochila boshlaydi. Havoyi nafsning foniy istaklariga ergashgan odam esa qulga aylanadi, xor bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. An-na’ym ul-kabir. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Namangan: Namangan, 2014. –B. 708-747.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (800000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси). А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 341 б.
3. Muhammad Hakim Termiziy risolalari. Tarjimon: J.Cho‘tmatov. – Toshkent: Movaraunnahr, 2017. – B. 439-440.
4. Bayonul furqoni fi tarjimatil Qur’on. Qur’oni karim oyatlari ma’nolarining izohli tarjimasi. Tarjima va izohlar mualligi: Shayx Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li (Mavlaviy hoji Hindistoniy). Hozirgi tilimizga tabdil qilib nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va qavs ichidagi izohlar muallifi: Sayfiddin Sayfulloh. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2022. – 472 b.
5. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 351 b.
6. Qur’oni Karim. Alovuddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991. – 670 b.
7. Mumtoz she’riyatda nafs talqini. Yallaqaev Z. Ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Foreign languages in Uzbekistan, 2022. – B. 147-156.
8. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 238 b.

SHAROF RASHIDOVNING “KASHMIR QO‘SHIG‘I” QISSASIDA EPITETNING BADIIY IMKONIYATLARI

Umida Ahmatovna G‘AYBULLOYEVA
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. *Ma’lumki, til birliklari nutqda axborot ifodalash, so‘zlovchining voqelikka munosabatini aks ettirish yoki uning his-tuyg‘usini bayon etish kabi turli vazifalarni bajaradi.Ushbu maqolada ham mana shunday til birliklaridan biri bo’lgan epitetning asardagi badiiy imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar: *epitet,badiiy sifatlash,badiiy aniqlovchi,metaforik epitet.*

Til birliklariga xos jihatlardan biri ularning nutqda uslubiy vazifa bajara olish xususiyatiga ega bo‘lishidir. Til birliklarining uslubiy vazifasi kontekst,

nutqiy vaziyat, so‘zlashuvchilarning til ko‘nikmalari va nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi. Tasviriy vositalarning xarakterli ko‘rinishlaridan biri epitet-sifatlash bo‘lib, u voqelik, tuyg‘u va predmetning o‘ziga xos tomonlarini aniqlab, ta’kidlab, ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatadi. Ushbu xususiyati bilan epitet badiiy aniqlovchi sanaladi. Epitet, aslida, yunoncha “epitheton” – ilova etilgan, izohlovchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, badiiy sifatlash demakdir[1-56].

U narsa-hodisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchidir. Til nuqtai nazaridan qaralsa, sifatlash (epitet) hamisha aniqlovchi vazifasida keladi, lekin oddiy aniqlovchidan farqli ravishda, u badiiy-estetik vazifa bajaradi. Oddiy aniqlovchi narsa-hodisani bir turdagi boshqa predmetlardan ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qilsa, epitet unga xos muayyan belgini ajratib, ta’kidlab ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda epitet belgini ko‘chma ma’no orqali ifodalaydi. Bunday hollarda metaforik epitet hosil bo‘ladi[2-189]. Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” she’riyatida sifatlash (epitetlar)lardan badiiy asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida unumli va ijodiy foydalanilgan.

Epitet poetik aniqlovchi sifatida narsa, hodisa yoki tushunchaning biror xususiyati, belgisini alohida baholab ko‘rsatish uchun o‘shanday so‘zlar oldidan qo‘shimcha tarzda keltiriladi va poetik matnning muhim tasvir ifodasi sifatida yuzaga chiqadi. Sifatlovchi-aniqlovchi sifatida turg‘un, doimiy, barqaror epitetlar poetik matnlarning aksariyatida uchraydi. Ijodkorlar olamdagi narsa va hodisalarni, shaxslarni tasvirlashda ularga xos bo‘lgan doimiy belgilarga asosiy e’tiborni qaratadilar. Bu orqali olamni badiiy idrok etish, narsa va hodisalarning belgilarini obrazli tarzda his qilish va matnda ulardan o‘rinli foydalana olishni bosh maqsad qilib oladilar. Masalan:

*Kashmir xalqining **qadimiy** sevgi dostoni ham xuddi ana shu **to‘lqinli** daryolarni eslatadi.*

Epitetda badiiy niyat va ta’kidlangan belgi-xususiyat ma’nosi bir-biriga muvofiq kelishi joiz. Epitetlarning ketma-ket kelishi mantiqan tasvir emotsionalligini ta’minlaydi. Munosabat ottenkasi va baholash mezonlari epitet tabiatini jilvalantiradi. Yorqin mazmunda shakl va mazmun mushtarakligi uning ma’no-mohiyatini belgilab beradi. Obraz tavsifii aslida ta’rif, tavsif va nisbat negiziga quriladi, bu o‘rinda sevgining insonga xos xususiyat ekanligi va muhim belgisi inson kabi qadimiy ekanligiga ishora qilingan. Shuningdek, *daryo* so‘zi inson ongida “*mavjlanish, to‘lqinlanish* “ assosatsiyasini tiklaydi, shu ma’noda, sevgi ham inson qalbini to‘lqinlantiradi.

Yoki *Nargiz gullar bog‘ining hayotbaxsh tongini yangratib, **pokiza** sevgi haqida kuylaydi* misrasida sevgi tushunchasining ikkinchi bir belgisi – uning pokiza tuyg‘u ekanligiga e’tibor qaratiladi.

Shuningdek asarda *pok sevgi, pokiza sevgi, olijanob sevgi, ulug‘ sevgi, chin sevgi, vafoli sevgi, baxtli sevgi, o‘tli sevgi, qudratli sevgi,* butun *vujudini qoplab olgan sevgi* kabi epitetlar ham keltirilganki, sevgining oliy tuyg‘u ekanligi belgi ifodalovchi so‘zlarning epitet sifatida tasvirga tortilishi bilan konkret ifoda etilgan. Demak, berilgan sifatlar sevgining xususiyatlarini to‘la namoyon qilgan. Aynan sifatlash vositasida kishida narsa va hodisa haqida aniq tasavvur tug‘iladi, u o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanadi. Shu bilan birga sifatlash predmet va voqeadagi mavjud belginigina ta’kidlab ko‘rsatmay, balki u narsada mavjud bo‘la oladigan belgi va sifatlarni ta’sirchan ifodalay oladi.

Ma’lumki, har qanday muloqot matndan nutq tuzuvchi va uni qabul qiluvchi shaxsni ajratish mumkin. Ijodkor badiiy nutq tuzuvchi va idrok etuvchi, badiiy tildan foydalanish jarayonida unga o‘z shaxsiy sifatlari bilan ta’sir ko‘rsatuvchi, jamiyatda shakllangan milliy-madaniy qarashlarni unga singdiruvchi shaxsdir. Ayni shu xislatlarga ega til egasining nutqi individual mahorat hisoblanadi. Shu ma’noda “Kashmir qo‘shig‘i” qissasida sevgi tushunchasi hayot tushunchasi bilan aloqador ekanligiga ko‘p bora urg‘u berilgan; inson hayot ekan, uning sevgisi yengilmaydi va doim g‘olib bo‘ladi, shu ma’noda, asarda aslida sevgi hayot uchun kurashish ekanligi va hayotning kurashish mevasi ekanligi, hayot va sevgi doim tantana qilishi tarannum etilgan. Hayotda chin insonga xos yashashning mohiyatini ifodalovchi ezgu xislatlar sevgi tushunchasining sifatlari sifatida voqelantirilgan. Bu fikrlarini dalillashda epitet asosiy tasviriy vosita darajasiga ko‘tarilgan. Yana bir o‘rinda ushbu fikrni dalillash mumkin. Masalan:

Olijanob *sevgini madh etuvchi muzika va qo‘shiqlar yangrab turgan, asl do‘stlar go‘zal Nargiz atrofida parvona bo‘layotgan, sevgi va yoshlik o‘yinlari avjiga mingan bir paytda osmon qop-qora bulutlarga burkana boshladi...*

Epitet nutqning go‘zal tarzda yuzaga chiqarishga xizmat qilibgina qolmasdan, ijodkorning estetik didini ham ko‘rsatib turadi. Shu sabab qo‘llangan epitetlarda betakrorlik kuzatiladi va qo‘llangan epitet (sifatlash)larning mavzu doirasi keng va serqirra. Ularda belgi ifodalovchi so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi.

Nutqiy muloqot jarayonida nutq egasi uzatilayotgan axborotni ifoda etish bilan birga, unga o‘z munosabatini bayon etadi. Bu jarayonda nafaqat so‘zlovchi, balki tinglovchida ham voqelikka nisbatan baho munosabati shakllanadi. Sh.Safarov qayd etganidek, “nutqiy faoliyat tashabbuskor”i, ya’ni so‘zlovchi shaxs obyekt haqidagi ma’lumotni tinglovchiga yetkazish uchun ushbu obyektning “qandaydir” xislatlarini tanlaydi va shu xislat asosida obyektga baho beradi hamda baho ma’lumotini adresatga uzatadi. Bunday baho berish axboroti esa, o‘z navbatida, tinglovchiga ta’sir o‘tkazish va uni biror bir xatti-harakat, faoliyatga undash maqsadi uchun xizmat qiladi” [3-40].

*Bunday **o‘tli** va **qudratli** sevgi bilan to‘lqinli daryolardan, tubsiz dengizlardan suzib o‘tish mumkin.*

Bu yerda *o‘tli, qudratli* leksemalari “oliy” leksemasi o‘rnida qo‘llangan. *o‘tli, qudratli* epitetlari sevgi tushunchasiga tantanavorlik ruhini bag‘ishlagan, ikkinchidan insonga xos muqaddas tuyg‘uning o‘ziga xos tomonlarini, sifatlarini aniqlab, ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatish xususiyati bilan qo‘llanilgan. Demak, epitet, ya’ni sifatlash, ta’kidlanganidek, “badiiy aniqlovchi”lik vazifasini bajaradi. Ma’lumki, ***o‘tli, qudratli*** leksemalarining birlashtiruvchi umumiy belgisi ular tarkibida “yengilmas kuchga ega” semasining mavjudligidir. Shoir subyektiv munosabatni aniq va ravshan ifodalash maqsadida “***o‘tli, qudratli*** “ leksemasidan o‘rinli foydalangan.

Kuzatishlarimiz davomida ijodkor ayrim o‘rinlarda asar g‘oyasi, qimmatini belgilashda juda zarur va betakror epitetlardan foydalanganini ko’ramiz. “Kashmir qo‘shig‘i” asarida sevgi deb atalmish oliy tuyg‘uning sifatlanishi fonida ushbu tuyg‘uning qahramonlarning ruhiyati, zohiriy va botiniy tuyg‘ular kurashi bilan bog‘liq yorqin tasvirlar bahosi kuzatiladi. Muallif so‘z birikmasi vositasida qayta shakllantiradigan epitetlardan sevgining oshiqlar ruhiyatidagi manzarasini chizishda samarali foydalangan. Tasvir va ifoda bir-biriga uyg‘un holda keltirilgani, poetik munosabatning aniqligi estetik quvvat hofizasini oshirganiga guvoh bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O‘qituvchi, 56-b.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: 2004. 189-b.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. diss. –T:. 2008. 40-b
4.Rashidov SH. Kashmir qo‘shig‘i. Qissa. –T.:, 1978.

II SHO‘BA. O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI

«O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI» FANI TA’LIMI MAZMUNI UYG‘UNLIGI

ASHIRBOYEV Samixon,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining keyingi yillarida oliy ta’lim muassasalariga o‘quv jarayonini tashkil etishda anchagina erkinliklar berildi. Bu jarayon oliy ta’lim muassasalarining xalqaro jarayonlarida kuzatilayotgan mustaqil faoliyat ko‘rsatish g‘oyalariga mos edi. Bu to‘lig‘icha ijobiy hodisa bo‘lsa-da, undagi ko‘zda tutilmagan va imkoniyati cheklangan oliy ta’lim muassasalarida ish yuritish chog‘ida ba’zi muammolar kelib chiqmoqda. Ba’zi gumanitar oliy ta’lim muassasalarda o‘quv reja, dastur tuzish, darslik va qo‘llanmalar yarata olishga qodir mutaxassislar yetisha bermaydi. Oqibatda fanlar bo‘yicha mukammal tayyorgarligi bo‘lmagan shaxslarga ta’lim hujjatlari va o‘quv adabiyotlarini yaratish ishi topshirilmoqdaki, bu ishlarda fan mazmuni masalasida muayyan notekisliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Bu «O‘zbek dialektologiyasi» fanini O‘zbekiston Respublikasida turlicha talqin qilishda ham ko‘rinib qolmoqda. To‘g‘ri, har bir oliy ta’lim muassasasida fanni rivojlantirish huquqi bor, lekin bu huquqni muayyan muvofiqlashtirish ishlari, ilmiy asoslash orqali joriy qilish ta’lim mazmunini yaratishning demokratik usuli hisoblanadi. Fanning maqsadi, vazifasi va mazmunidagi o‘zgarishlar soha mutaxassislari tomonidan rasmiy ma’qullangandan so‘ng amalga oshirilishi azaldan barchaga ma’lum. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalaridagi mutaxassislarga «O‘zbek dialektologiyasi»ning platformasi ishlab chiqildi va u «O‘zbek shevashunosligi markazi» ma’qullandi.

Kalit so‘zlar: «O‘zbek dialektologiyasi» fanini o‘qitish masalalari,

Dunyodagi turkiy tillar ichida o‘zbek tilichalik ko‘pshevali tillar kam uchraydi. Bu fikr turli variantlarda dialektologik adabiyotlarda aks etmoqda[1]. Suni alohida qayd qilish lozimki, dunyo amaliyotida turli millatlar aholisining migratsiyasi kuchaygan va shaharlashuv (urbanizatsiya) tendensiyalarining avj olishi til va dialektlarning aralashib ketishiga olib kelmoqda va an’anadagi sheva, dialekt va lahja degan tushunchalar tobora keyingi rejaga o‘tib qolishiga sabab bo‘layotgan bir davrda o‘zbek shevalari o‘zining ilk xususiyatlarini saqlab qolmoqdaki, bu noyob hodisani bugungi kunda ham sinchiklab

o‘rganish va dialektologik bilimlarni yoshlar qalbiga singdirish vazifasini yana ham dolzarb qilib qo‘yadi. To‘g‘ri, o‘zbek shevalariga e’tibor sobiq Ittifoq davrida kuchli bo‘lgan. O‘tgan asrning 20, 30-yillarida o‘zbek shevalarini o‘rganish fan asosiga qo‘yilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘ladigan dialektni (shevalar guruhini) topish maqsadi yo‘lida o‘rganilgan va bu jarayonda ham muayyan yutuqlarga erishilgan. Bu davrda ushbu ishlarda mahalliy davlat arboblari, jadidlar bilan birgalikda sohaning yirik mutaxassislari ham ishtirok etdilar. Bular G‘.O.Yunus, Miyon Buzruk, K.K.Yudaxin, Y.D.Polivanovlardir. 30-, 40-yillarda bu borada ma’lum darajada barchaga ma’lum bo‘lgan sabablarga ko‘ra inqiroz yuz bergan bo‘lsa, 50-yillarda o‘zbek shevalarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Yuksak ilmiy darajali va unvonli olimlar guruhi paydo bo‘ldi va o‘zbek shevalri keng ko‘lamda o‘rganildi. Bu jarayonda dastlab V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, S.Ibrohimov, M.Mirzayev, F.Abdullaevlar, 60-, 70-yillarda O.Madrahimov, A. Shermatov, N.Rajabov kabi fan doktorlari yetishib chiqdi. Keyinchalik ularning safiga A. Jo‘raev, Y. Ibrohimov, T. Yo‘ldoshev, N.Murodovalar qo‘shildi. To 70-yillar oxirigacha 30ga yaqin ilmiy darajali dialektolog mutaxassislar o‘zbek shevalarini o‘rgandilar[2]. Afsuski, 70-yillarning oxiridan boshlab o‘zbek shevalarini o‘rganish ishi susaydi va hozirgi kunda kam sonli oliy malakali mutaxassislargina faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu esa ushbu fan ta’limi sifatiga jiddiy ta’sir etmoqda. Hozirgi kunda bu jarayon nisbatan o‘nglandi. Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek sevalarining o‘rganilishiga bag‘ishlangan Xalqaro va Respublika konferensiyalari o‘tkazildi, dissertatsiyalar himoya qilindi, yosh tadqiqotchilar guruhi paydo bo‘ldi. Demak, o‘zbek shevalari bo‘yicha boy meros mavjud. Endilikda bu merosni fan asosida filolog bo‘lib yetishayotgan avlodga uzatishda vorisiylik, ilmiylik va uyg‘unlik tamoyillarida amalga oshirish vazifasi turibdi.

O‘tmish dialektologlari «O‘zbek dialektologiyasi»ning dasturiy ta’minoti va darsliklarini yaratib qoldirdilar, lekin keyingi davrda har bir oliy ta’lim muassasasiga fanning metodik ta’minotini amalga oshirish va o‘quv adabiyotini yaratish vazifasi yuklangandan keyin bu fanning akademik mazmunida parokandalik yuzaga kela boshladi: fanning o‘z mazmunidan chekinish, ko‘chirmachilik, mazmun tashimaydigan fikrlar aks etmoqda, xullas, holat shunga yetib keldiki, bir oliy ta’lim muassasasi baklavriatini tamomlagan shaxs boshqa oliy ta’lim muassasi magistraturasi uchun tayyor emasligi ma’lum bo‘lib qoldi. Bu esa turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bunday holat ko‘proq dialektolog bo‘lmagan shaxslarning shu fan o‘quv adabiyoti muallifligiga da’vogarligidan kelib chiqmoqda. Ko‘rinadiki, ushbu fanning bakalavriat ta’limidagi yagona va mukammal mazmunini belgilash va barcha oliy ta’lim muassasasida *uning uyg‘unligi*ga erishish kun tartibidagi

masala bo‘ib turibdi. Shu maqsad yo‘lida bu fannining platformasi yaratildiki, unda oliy ta’lim muassasalarida «O‘zbek dialektologiyasi» o‘quv fanining ta’lim hujjatlari va adabiyotlarinii yaratisgda amal qilinadigan umumiylik (majburiylik) va xususiylik (erkinlik) belgilab berildi.

O‘zbek dialektologiya kursi platformasi. Ma’lumki, o‘zbek shevalarini o‘rganish masalasiga keyingi davrda prezidentimiz va hukumatimiz alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Buni Sh. M. Mirziyoyevning «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850 – Farmoni[7] va o‘zbek tiliga davlat maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda «Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli» mavzusidagi nutqi va bu nutqidagi: ... o‘zbek tilining ... shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash...» [8] to‘g‘risidagi fikri hamda «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084 - Farmonining [9] 3-ilova 5-bandida dialektologik tadqiqotlar salmog‘ini kengaytirish vazifasi belgilanganligi ham isbotlab turibdi. Darhaqiqat, keyingi davrda shevashunoslik bo‘yicha ishlar birmuncha jonlandi, lekin konferensiyalardan tashqari ko‘zga ko‘rinarli tadqiqotlar amalga oshirilmayotganligi ham haqiqat. Shevashunoslik bo‘yicha ilmiy mavzu rasmiylashtirayotgan tadqiqotchilar ham ozchilikni tashkil etmoqda. Bu masala jiddiy o‘rganilishi talb etiladi. Bu o‘rinda dialektologiya fanining ta’lim jarayonidagi mavqeyi haqida gap boradi. O‘zbek dialektologiyasi fanining universitetlardagi ta’limi bo‘yicha, ya’ni o‘quv rejasidagi o‘rni bo‘yicha muammo yo‘q, lekin uning mazmunini belgilashda yagona yondashuv bo‘lmayapti. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasida bu fan *tanlov* fanlari sifatida qaralishiga mutlaqo qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki bu yo‘nalish kadrlari bevosita sheva vakillari (o‘quvchilar) bilan ishlaydi, demak, «O‘zbek dialektologiyasi» fanining mazmunini ular to‘liq egallagan bo‘lishi shart.

O‘zbek dialektologiyasi fani, deyarli, bir asrdan buyon asosiy fan bo‘lib kelgan va bundan keyin ham u shunday qoladi, binobarin, bu fanda ona tilimizning jonli asosi o‘rganiladi. «O‘zbek dialektologiyasi»ga bo‘lgan salbiy yondashuv prezidentimizning yuqoridagi g‘oyalariga zidddir. Shu munosabat bilan O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida «O‘zbek dialektologiyasi» fanining o‘quv rejalaridagi o‘rnini va muzmunini muvofiqlashtirish lozim

---

[7]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019 yil 21 oktabrdagi PF - 5850 - Farmoni // Xalq so‘zi, 2019 yil 22 oktabr.

[8]Мирзиёев Ш. М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли // Халқ сўзи, 2019 йил 21 октябрь.

[9]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084 - Фармони https://lex.uz/docs/5058351

bo‘ladi va:

1.»O‘zbek dialektologiyasi» kursi universitetlarning «Filologiya va tillarni o‘qitish», «Folklorshunoslik va dialektologiya» ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasida (tillar bo‘yicha) auditoriya soatlarining **90** soat qilib belgilanganligini e’tiborga olish.

2. Pedagogika ta’lim sohasi «Til va adabiyot (tillar bo‘yicha)» ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasining 2-kursida bu fanning hajmini **60** soat qilib belgilash va asosiy fanlar blokiga joylashtirish.

3. Ta’lim sohalarida o‘quv rejalarida belgilangan soatlar miqdoridan qat’iy nazar, bu fanni yagona mazmun – platforma asosiga qurish.

4. Har ikkala ta’lim sohasida dialektologik o‘quv amaliyotini 4 hafta etib belgilash va fanga ajratilgan amaliy mashg‘ulotlarning 4 soatini dialektologik o‘quv amaliyoti topshiriqlarini bajarish maslahatiga bag‘ishlash.

5. Har bir OTMga dialektologiya fanida nazariy masalalarni asoslashda mahalliy shevalar misollaridan foydalanish.

6. Fanning nazariy masalalarini barcha oliy ta’lim muassasalarida aynan saqlanishiga erishish. Fandagi yangiliklarni esa har bir mavzuda kiritib borish.

Fanning maqsad va vazifalari. Fanni o‘qitishdan ***maqsad*** o‘zbek shevalarining asosiy xususiyatlari: fonetikasi, leksikasi va grammatik qurilishi to‘g‘risida, shevalar bo‘yicha xalqaro jarayonlardagi masalalar va muammolar haqida ma’lumot berish, shevalar va ularning fonetikasi, leksikasi va grammatikasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda talabalarni bu borada mantiqiy fikrlashga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga tayyorlashdir.

Fanni o‘qitishning ***vazifasi*** talabalarga fan nazariyasi hamda amaliyotiga oid bilimlarni berish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishga o‘rgatishdir.

Kompetensiyalar. Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

-»O‘zbek dialektologiyasi»ning nazariy va amaliy muammolari, uning filologik fanlar tizimidagi o‘rni, terminologiyasi, o‘zbek tilining dialektal asoslari va tuzilishi, areal lingvistika asoslari, shevalarni yozib olishda qo‘llanadigan transkripsiya tizimini egallash, o‘zbek adabiy tili va shevalar munosabati, o‘zbek shevalarining tasnifi, shevalarni o‘rganishning metod va metodikalari bo‘yicha ***bilimlarga***;

- o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o‘zlashtirish, sheva vakillaridan matnlarni yozib olish, shevaga xos xususiyatlarni ajrata olish va o‘quv amaliyotida to‘plagan so‘zlar lug‘atini tayyorlash ***ko‘nikmalariga;***

- dialektologiyaning nazariy asoslarini o‘zlashtirish, dunyo dialektologiyasidagi yangi axborotlarni qayta ishlay olish, talabalar

konferensiyasi va seminarlarida ma’ruza bilan ishtirok etish ***malakalariga ega bo‘lishi lozim.***

O‘bek dialektologiyasining nazariy masalalari (ma’ruza mashg‘ulotlari mazmuni).

Kirish. «O‘zbek dialektologiyasi» fanining maqsad va vazifalari. Fanning nazariy va amaliy ahamiyati. Dialektologiyaning shakllanishi. O‘zbek shevalarining o‘rganilishini davrlashtirish. Til va sheva munosabati.

O‘zbek tilining qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjasidan tarkib topganligi. Shevalar ona tilining asosi va milliy-ma’naviy qalriyat ekanligi. Uning sotsiologiya fanlaridan biri ekanligi. Dialektologiya sohalari: tasviriy dialektologiya, tarixiy dialektologiya, folklor dialektologiyasi (lingvofolkloristika), perseptual (idrok) dialektologiya, dialektal lingvokulturologiya, kognitiv va kommunikativ dialektologiya va ularning vazifasi.

«O‘zbek dialektologiyasi» kursining asosiy tushunchalari. Tilning ko‘rinishlari tushunchasi. Sheva, dialekt, lahja terminlari tavsiflari. Til egasi va sheva egasi. Mahalliy va ijtimoiy dialektlar. Idiolekt. Lahja va idiom. Lahja va til varianti.

O‘zbek shevalarining tarixiy oqimi. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibi. Shevalarni o‘rganish metodlari. Dialektologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. O‘zbek shevalarining o‘rganilish tarixi. XI-XIV asrlarda shevalarning o‘rganilishi va uning ahamiyati. O‘rta asrlarda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi. XIX asrda o‘zbek shevalarining o‘rganilishiga xos xususiyatlar. XX asrda o‘zbek shevalarining tadqiq etilishi.

Transkripsiya. Xalqaro (MFA) va milliy transkripsiya. Yangi va amaldagi transkripsiya tizimi. «O‘zbek shevashunosligi Markazi» ma’qullagan transkripsiya tizimi. Ilmiy va amaliy, fonetik va fonologik transkripsiya. Unli va undosh tovushlarni yozib olishda qo‘llanadigan transkripsion belgilar va ular bilan bog‘liq muammolar. Diakritik belgiar.

O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari. O‘zbek shevalarining vokalizmi. O‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili unlilari munosabati. Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik (ultra) cho‘ziqliklari. Lablangan va lablanmagan unlilar. O‘zbek xalq shevalari konsonantizmi. O‘zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o‘ziga xos jihatlari va o‘zbek adabiy tili undoshlari bilan munosabati.

O‘zbek shevalaridagi fonetik qonunlar. Singarmonizm va uning turlari: palatal va labial singarmonizm. Singarmonizmdan chekinish. Umlaut. Tovush mosligi qonuni. Diftong va diftongoidlar.

O‘zbek shevalaridagi fonetik jarayonlar. Tovushlarning kombinator va pozitsion o‘zgarishlari. Shevalarda sandxi holatidagi tovush o‘zgarishlari.

Spirantizatsiya. Spontan o‘zgarishlar. Eliziya. So‘z shakllarining torayishi. Sinerezis. Unli va undoshlarning tushishi va orttirilishi.

O‘zbek shevalarining grammatik xususiyatlari. O‘zbek shevalarida grammatik son, egalik, kelishik kategoriyalari.

O‘zbek shevalarida so‘z turkumlari. Mustaqil so‘z turkumlaridagi (sifat, son, ravish, olmosh, modal so‘zlar) grammatik shakllarning o‘ziga xosligi. O‘zbek shevalarida fe’llarning o‘ziga xos tuslanishi. Fe’lning funksional shakllari. I (to‘la), II (qisqargan), III (buyruq-istak) tip tuslovchlarining shevalardagi ko‘rinishlari. Fe’l mayllari va zamonlaridagi ayrim o‘ziga xos shakllar. Shevalarda so‘z yasalishi.

Yordamchi so‘z turkumlari: bog‘lovchilar, ko‘makchilar, yuklamalar. Undov va mimemalar. Ularga xos morfologik shakllar.

Sintaksis. Shevalarda so‘z birikmasi va izofali birikmalar. Sheva matnlarida gaplarning qo‘llanish xususiyatlari. Inversiya. Gap bo‘laklarining takrorlanishi. Gaplarda so‘z tartibi. Sodda va qo‘shma gaplar. Kirish cho‘zlar.

O‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi. O‘zbek shevalari leksik tarkibidagi umumxalq tiliga xos umumiy leksik qatlam haqida ma’lumot. Sheva leksikasi va shevaning maxsus so‘zlari tushunchalari. Kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar. O‘zbek shevalariga so‘z o‘zlashtirish. Leksik moslik. Shevalar leksikasining adabiy til bilan munosabati. Shevalar leksikografiyasi, sheva lug‘atlarini tuzish tamoyillari va turlari.

O‘zbek tili lahjalari. Qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarining muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari.

O‘zbek adabiy tili va shevalar. O‘zbek adabiy tili me’yori va dialektal me’yor. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari. Adabiy tilning tayanch dialekti. Shevalar - o‘zbek adabiy tilining ichki boyish manbayi. Lakuna tushunchasi. O‘zbek adabiy tili va dialektlari avtonomiyasi va geterenomiyasi. Sheva xususiyatlari - lingvomadaniyat belgisi. Badiiy adabiyot va dialektizm. Dialektal so‘z va dialektizmni farqlash.

Areal lingvistika. Tilshunoslikda areal lingvistikaning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti. Lingvistik areal. Izoglossa. Kontinuum. Areal lingvistikada innovatsiya masalasi. Til zonasi va dialektal zona. Lingvistik geografiyaning mohiyati va unga oid tushunchalar. O‘zbek shevalarining lingvistik geografiya metodida o‘rganilishi. Lingvistik karta va atlaslar. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning shakllanishi.

O‘zbek shevalari tasnifi: prof. I.A.Zarubin, prof. K.K.Yudaxin, prof. Y.D.Polivanov, G‘ozi Olim, prof. A.K.Borovkov, prof. V.V.Reshetov tasniflari va ular qo‘llagan tamoyillar.

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni. Amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirishda nazariy mashg‘ulotlar mazmunidan chiqib ketilmaydi, lekin amaliy mashg‘ulotlarning materiallarini tanlashga har bir oliy ta’lim

muassasalariga erkinlik beriladi va o‘zaro tajriba almashishga imkoniyat topish tavsiya etiladi. Ta’kid shuki, nazariy materiallar to‘la qayta ishlab chiqilishi shart hamda ortiqcha yuklamalarga ham yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Seminar mashg‘ulotlari. O‘quv ishining bu turi talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Kurs bo‘yicha seminarda o‘rganiladigan mavzular belgilab olinishi va har bir mavzuning rejasi, adabiyotlar ro‘yxati ko‘rsatilishi zarur. Mavzularni har bir talabaga taqsimlab berish ham, bir mavzuni guruh talabalariga umumiy vazifa qilib berish ham mumkin. Bu o‘quv tadbiridan talabalar konferensiyalar va bitiruv malakaviy ishining boshlanishi sifatida foydalanish zarur bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim. O‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, o‘quv kursining bu turida talabalar oliy ta’lim yoki shahar, tuman kutubxonalarida o‘quv kursiga oid ilmiy ma’lumotlar ustida mustaqil ishlash tajribasini egallashi zarur.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi - o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv vazifalarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

– fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;

– amaliy va seminar hamda amaliyot mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish;

– mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;

– amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;

– ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash;

– uy vazifalarini bajarish.

Dialektologik amaliyot. Ushbu platforma mazmuni asosida kafedra ishlab chiqqan o‘quv amaliyoti «O‘zbek shevashunosligi Markazi» va har bir OTM ilmiy kengashi ma’qullagan hamda OTM rektori tasdiqlagan loyiha asosuda amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalari fanning nazariy ta’limini platforma doirasida amalga oshiradi, amaliy, seminar va mustaqil ta’lim talablari umumiyligi hisoba olingani holda unga ijodiy yondoshish mumkin.

(Ushbu platforma «O‘zbek shevashunosligi» markazining 2023-yil 17-martdagi 7-majlisida ma’qullangan).

Adabiyotlar

1. Samixan Ashirbaev. Exploring Echo-Friendly Uzbek: Linguistic Evolution and Sustainability. The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies – 2023/ Pamir 2023. P. 987.

2. Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Госиздат, 1933.

QORAQALPOG‘ISTON O‘ZBEK SHEVALARINING LINGVOAREAL XARITASINI TUZISH MASALALARI

Yuldash Matkarimovich IBRAGIMOV,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarini lingvistik kartalarda belgilangan shevaga xos hodisalarning tarqalish areali, tillarning o‘zaro aloqasi, taraqqiyot bosqichlarini belgilash, shevaga xos lingvistik hodisalarning kelib chiqish tarixini tahlil qilish va Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek sheva materiallarini qiyosiy aspektda tavsif etish.

Kalit so‘zlar: hudud shevalari, lingvistik geografiya, areal metod, lingvistik karta, nolingvistik omillar, shevalarda diftonglashish, relavent hodisa.

Ma’lumki, bugungi kunda yo‘qolib borayotgan xususiyatlarni yozib olish dialektologlarning muhim vazifasidir. Ular haqidagi ma’lumotlar esa, lingvistik atlaslar va yozib olingan matn namunalarida saqlanib qoladi. Har bir xalq tilini to‘liq va mukammal bilish uchun shu tilda so‘zlashuvchi etnoslarning rivojlanish tarixi, kundalik hayotida shakllangan an’anaviy madaniyati, ma’naviy olami va badiiy tafakkuri bilan bevosita bog‘liqligi til materiallarini o‘rganish talab qiladi. Shuning uchun ham xalq dunyoqarashi va madaniyatini tilning leksik boyligi va so‘zning nutqiy imkoniyatlari bilan bog‘liq tarzda tadqiq qilish o‘zlikni ifoda etishning muhim shakli hisoblanib, tilning milliy mohiyatini aniqlashda asosiy mezon sanaladi. Til hodisalarini yoki dialektal hodisalarni tadqiq qilishda ko‘pincha yondosh tillar va ularning shevalari materiallari bilan chog‘ishtiriladi. Chunki qo‘shni tillar va shevalaridagi lingvistik hodisalar bir-biriga doimo o‘tib turadi. O‘tish hodisasi taraqqiyotning keyingi davri va masofaning yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Jonli tildagi har bir lingvistik hodisa, jumladan, etnomadaniy lug‘aviy birliklar ham o‘zining tarqalish chegarasiga, o‘z hududiga ega. Bir-biriga yaqin bo‘lgan tillar va dialektlarning o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradigan areallarda faol munosabatlar amal qilayotgan bo‘lsa, ikki hududning oraliq chegaralarida alohida lingvistik xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni yonma-yon holda qo‘llanilib kelayotgan dialektlarning har ikkisiga ham o‘xshash bo‘lgan alohida sheva ko‘rinishi yuzaga keladi. Yuzaga keladigan dialektni chatishgan sheva yoki chatishgan til deb yuritish mumkin.

Ammo til va dialektlar taraqqiyotining qadimiy davri uchun xarakterli boʻlgan ayrim hodisalarni izohlashda yondosh tillar va shevalardan hamma vaqt ham material topilavermaydi. Masalan, namangan gruppa shevalari uchun xarakterli boʻlgan **r** undoshining oʻzidan keyin kelgan hamma til oldi undosh (tussin tursun, bodd' bordi, jujj'n xurjin, ottoq oʻrtoq, kəttishkə kartoshka)lariga singib ketishi Fargʻona vodiysidagi boshqa shevalarda uchramaydi[1:13]. Ammo aynan shu hodisaning oʻzi Oʻzbekistonning janub qismida joylashgan Qashqadaryo viloyatidagi shahar tip shevalarida mavjud. Bu hodisaning innovatsiya markazi qaysi ekanligi va uning irradatsiya markazi tarixan qay tomondan qay tomonga yoʻnalganligi haligacha noma'lum. Oʻzbek shevalari atlasi yaratilganda mana shunga oʻxshash koʻpgina muammoli masalalar echimini topadi. Chunki material yigʻish uchun moʻljallab tuzilgan anketadagi savollar izoglossalar hosil qiluvchi til xodisalariga bagʻishlangan boʻlishi darkor. Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisalarining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlanib chiqiladi. Soʻngra, har xil sheva va dialektlarda mavjud boʻlgan bir xil til hodisalari izoglossa sifatida kartalashtiriladi.

V.V.Reshetov oʻzbek shevalari dialektologik atlasi tamoyillarini asoslab berdi[2:67]. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti turkiy va moʻgʻul tillar laboratoriyasida akademik Sh.Shoabduraxmonov boshchiligida[3:50]. Bizning **QR** oʻzbek shevalari dialektologik atlasini tuzishda hudud (areal)larning oʻzaro aloqasi lingvistik nuqtai nazardan dinamik boʻlib, izoglossalarning kirib kelish, tarqalish areali, kuchliroq shakllarning kuchsizroq shakllar tomonga qarab siljishi, adabiy til va hudud shevalarining oʻzaro aloqada namoyon boʻlishi, tilning taraqqiyot bosqichlari, chiziqlarining muvofiqlashuvi, markazga qanchalik yaqin yoki markazdan uzoqlashgan sari izoglossalarning quyuqlashib boraverish sabablari konkret misollar orqali izohlanadi.

Shundan kelib chiqib, oʻzbek adabiy tilida otning 3-shaxs egalik affiksi **-si** Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek tili **dj** -lovchi qipchoq dialektida **--jigi** formanti bilan: bərjigi barchasi; həmməjigi hammasi kabi ifodalansa, uning toʻrtkoʻl-ellikqal'a **-chiki** formanti qoʻllanadi: bərchiki, əmməchiki. Har ikkalasida ham bari, barcha, hamma belgilash olmoshlari doirasida qoʻllanadi.

Oʻzbek tili qoʻngʻirot shevasida **ə(a)** til oldi, ochiq, keng unlisi soʻzlarning ikkinchi va undan keyingi boʻgʻinlarda oʻrta-keng **e(e)** unlisiga mos keladi: məlle malla, kəlle kalla, əzelden azaldan kabi. Bu hodisa qoraqalpoq tilining ta'sirida yuzaga kelgan. Oʻzbek tilining Samarqand viloyati Gʻallaorol, Baxmal; Janubiy Qozogʻistondagi Turkiston guruhi ham keng tarqalgan[4:156].

Olmoshlar boʻyicha. men, sen, uol(u) kishilik olmoshlari joʻnalish kelishigida: maңa menga, saңa senga. uoңa\uoshыgʻa unga; mazkur shakl

oʻzbek tilining qurama (**dj** -lovchi), Sherolbod, Samarqand viloyatidagi qipchoq, Fargʻona viloyatidagi qoraqalpoq, Janubiy Qozogʻiston, Shimoliy Tojikistondagi qipchoq shevalarida ham qayd qilindi. Turkiyshunoslikda mazkur shaklning kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bildirilgan, ulardan biri uogʻan:uoŋa unga, **n** va **g** undoshlari metateza yoʻli bilan oʻrinlarini almashtirgan. E.V.Sevorttyan **-gʻan** bevosita oʻzakka qoʻshilgan boʻlib, u tarixan ikki tarkibli **–gʻa** + **-n** deb koʻrsatadi[5:66,70]. A.Ishaev E.V.Sevortyanning turkiy tillarga genetik jihatdan yaqin va uzoq qarindosh tillarga qiyoslash orqali E.V.Sevortyan fikrini toʻldiradi[4:104].

Lingvistik kartalarda belgilangan shevaga xos hodisalarning tarqalish areali, tillarning oʻzaro aloqasi, taraqqiyot bosqichlarini belgilash, shevaga xos lingvistik hodisalarning kelib chiqish tarixini tiklaydi.

Dialektlardagi ishlab chiqarish, kasb-hunar yoki mehnat taqsimoti natijasida paydo boʻlgan har bir soʻz, atama yoki termin muayyan dialektning leksik sistemasida umumiste'mollik vazifasini bajaradi: bosh choʻpon, enchididor qoʻy kabi[4:104]. Bu qishloq territoriyasida joylashgan dehqon-fermer xoʻjaligi aholisining barchasi chorvachilik yoki dehqonchilik bilan shugʻullanishidan darak beradi. Demak, dialektal termin dastlab shu dialekt vakillarining hammasiga xos boʻlgan soʻzlar bazasida vujudga keladi. Masalan, momo buvi va checha\yaəŋgə\jeŋge kelinoyi soʻzlari butun Qoraqalpogʻiston territoriyasida buvi, kelinoyi ma'nosida qoʻllanadigan soʻz boʻlishi bilan birga, qorindosh-urugʻchilik terminlari hamdir.

Dialektlardagi har bir lingvistik hodisa oʻzining muayan hududga tarqalish chegarasi bilan belgilanadi. Natijada Markaziy Osiyo va Qozogʻiston territoriyasida joylashgan turkiy tillarning dialektologik atlasi yaratiladi[6:39]. Kartada Xorazm viloyati Gurlan, Yangibozor tumanlari, Turkmaniston respublikasi (bundan keyin - **TR**) Doshogʻuz viloyati Koʻhna Urganch, Gubadogʻ, Ilolli, Doshoguz tumanlari hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi (bundan keyin - **QR**)da joylashgan oʻzbek qishloqlari shevalaridan yigʻilgan sinxron materiallar xarakteriga koʻra: 1) boshlangʻich yoki tayanch karta, unda jadvallar materiallari muhim ahamiyat kasb etadi; 2) oraliq yoki yigʻma karta. Bu kartada bir tipli yoki chogʻishtiriladigan hodisalar jamlanadi. Mazmuni va material joylashtirish tamoyili jihatdan tayanch karta ish bajarishi jihatidan sintetik yoki analitik boʻlgan holda faqat tematik kasb etadi. Kartadagi lingvistik nagruzka xarakteri tilning territorial tarqalishi yoki tayanch punktlarning siqiqligi bilan belgilandi. Tayanch tarmoq juda qalin boʻlsa, hamma aholi punkti yoppasiga anketalashtiriladi. Kartalashtirish asnosida turli tasvirlar, figuralar, shtrixlardan foydalanildi. Ayrim nomlar belgi bilan tamgʻalandi. Kartani oʻqishni osonlashtirish maqsadida bir-biriga mos keluvchi affikslar va soʻz shakllari bir xildagi belgi koʻrinishida berildi.

Xullas, O‘zbekiston Respublikasi sheva areallarida kuzatilgani kabi Qoraqalpog‘istonda Respublikasi hududida yashovchi xalqlarga xos moddiy va ma’naviy belgilarini o‘z madaniyatida saqlab kelayotgan, uzoq davrlar mobaynida hududiy-areal xususiyatlar kasb etadi. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarini lingvistik kartalarda belgilangan shevaga xos hodisalarning tarqalish areali, tillarning o‘zaro aloqasi, taraqqiyot bosqichlarini belgilash, shevaga xos lingvistik hodisalarning kelib chiqish tarixini, turlicha ko‘rinishga ega bo‘lgan hududiy sheva mazmuni bilan uni ifodalovchi sheva chiziqlarining turli siqiqligi, birlashtiruvchi va ajratib ko‘rsatuvchi o‘zgachaliklarini kartalarda aks ettirishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 13.

2. Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка / Тезисы докладов II Регионального совещания по диалектологии тюркских языков. – Казань.1958. – С. 67-68.

3. Шоабдурахманов Ш. Ўзбек шеваларининг лексикасини таснифлаш масалалари ҳақида. ЎТАМ, 2-сон. 1958. – Б. 50-56.

4. Дониёров Х. Қипчоқ диалектининг лексикаси (Шарқий группа қыпчақ шеваларининг материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1979. – 156 б.

5. Севортян Э.В. Из истории тюркских прилагательных. Тюркологические исследования. – М.-Л., 1983. – С. 66-70.

6. Сарыбаев Ш.Ш. Проблемы казахской региональной лексикографии. АДД. – Алма-Ата, 1979. – С. 39.

SURXONDARYO O‘ZBEK SHEVALARIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR

Xadicha Choriyevna FAYZIYEVA,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili va shevalariga chetdan kirgan so‘zlar ham og‘zaki so‘zlashuv, ham kitobiy til orqali o‘zlashib kelayotganligiga oid fikr- mulohazalar yuritilgan.

Surxondaryo o‘zbek shevalarida fors-tojikcha so‘zlar o‘zbek shevalari lug‘ati tarkibiga, asosan, og‘zaki so‘zlashuv nutqi orqali o‘zlashgan. Arabcha so‘z va terminlar esa adabiy tilimizga, ko‘proq, kitobiy til orqali, qisman

og‘zaki nutq orqali o‘zlashgan. Dialekt va shevalarimizga, asosan, og‘zaki yo‘l bilan o‘tgan.

Kalit so‘zlar: *leksika, fors-tojikcha sozlar, arabcha so‘zlar, og‘zaki so‘zlashuv nutqi, og‘zaki nutq, dialekt va sheva, turkiy so‘zlar, ijtimoiy munosabat, maishiy va qishloq xo‘jaligi, maishiy leksika.*

Umumxalq o‘zbek tili va shevalarida bo‘lganidek, tekshirayotgan shevalarimiz leksikasiga nazar tashlasak, unda tub turkiy so‘zlar bilan bir qatorda ma’lum darajada arab, tojik-fors va ruscha so‘zlar ham bor.

Bundan tashqari Boysun-Sho‘rchi guruh o‘zbek shevalari leksikasida, oz bo‘lsa-da, mo‘g‘ulcha va xitoycha elementlar ham uchraydi.

O‘zlashgan so‘zlarning miqdori o‘zbek adabiy tili, uning dialekt va shevalarida bir xil emas. Boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar kirib kelgan tilning leksik tizimi, uning tabiati va ichki taraqqiyot qonunlariga bo‘ysungan holda qabul qilinadi.

O‘zbek adabiy tili va shevalariga chetdan kirgan so‘zlar ham og‘zaki so‘zlashuv, ham kitobiy til orqali o‘zlashib kelmoqda.

Masalan, fors-tojikcha so‘zlar o‘zbek shevalari lug‘ati tarkibiga, asosan, og‘zaki so‘zlashuv nutqi orqali o‘zlashgan. Arabcha so‘z va terminlar esa adabiy tilimizga, ko‘proq, kitobiy til orqali, qisman og‘zaki nutq orqali o‘zlashgan. Dialekt va shevalarimizga, asosan, og‘zaki yo‘l bilan o‘tgan.

Bu fikr mo‘g‘ul va uyg‘ur tillari orqali xitoy tilidan o‘tib o‘zlashib ketgan so‘zlarga nisbatan ham taalluqli.

O‘zbek shevalari va, umuman, adabiy tilimizdagi o‘zlashgan so‘zlarni tahlil qilganimizda quyidagi holat hisobga olindi:

1) boshqa tillardan kirgan so‘zlarning nutqimizda doimiy qo‘llanishi;
2) fonetik jihatdan o‘zlashtirilishi;
3) grammatik jihatdan o‘zlashtirilishi;
4) so‘zning so‘z yasashdagi faolligi;
5) semantik jihatdan o‘zlashtirilishi;
6) chet so‘zlarning «kalka» orqali berilishi [1.36.] va b.

Chetdan kirgan ba’zi so‘zlar tilimizga shunday singib ketadiki, natijada, uning qaysi tildan kirib o‘zlashganini aniqlash juda qiyin bo‘ladi. **lajxoräk** (Boy., Sho‘r.) – chuvalchang; **xunuk** (sovuq); **päjkäl** – ekin maydoni, paykal; **zi:jat** (Sho‘r., Jin.) – 1. ko‘p, ortiq, ziyod. 2. kishi ismi; **papï:š** (Boy.) – oyoq kiyimi kabilar. **loyxo‘rak**, **xunuk, paykal, ziyod, popish** kabi so‘zlar asli fors-tojikcha bo‘lib, Boysun-Sho‘rchi guruh shevalariga o‘tgan.

Arabcha **faqat** so‘zi **paqat, ahyon** so‘zi **äjhon, aso** so‘zi **hässä, iyd** so‘zi **häji:t, ittifoq** – so‘zi **i:nti:poq** tarzida qo‘llaniladi.

O‘zlashgan so‘zlarning o‘zgartirib talaffuz etilishini bu guruh shevalardagi ruscha-baynalmilal so‘zlarda ham uchratamiz: **tämäki:, väraqa** –

voroxoochistitel, **särʒi:n** – sajen, **put** – pud, **äväns** – avans, **kästi:n** – kostyum, pidjak.

Ma'lumki, ruscha-baynalmilal affikslar odatda qabul qilingan so'zlar tarkibida qo'llanadi. Boysun-Sho'rchi guruh shevalarida ruscha affikslar o'zbek tili dagi so'zlarga qo'shilib kelishini kuzatamiz: **jölkä**– yo'lcha (tratuar); **adämčük** (Boy.) – jussasi kichkina odam: s**ā**dägi häjät Parda adämčükti häjäti:(Chor.). Qiyos., ozar. **odamčiγ-** 1) odamcha (chelovechishko); 2) bečāra (bednyaga); yana qiyoslang: O'zbekistondagi o'troqlashgan ruslar talaffuzida: **barančuk** – yosh o'g'il bola; tatar tilida: **alirnik+alï:rnik** – rvach; **čöpäk** (Surx.) – kichkina cho'plar. **čöpäk** lärdi teribā.

Shunday qilib, umumxalq o'zbek tilining asosiy tarmog'i bo'lgan o'zbek lahjalarining tarkibiy qismini tashkil etuvchi Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at tarkibi, adabiy tilimiz bilan birgalikda, faqat o'zining mavjud so'zlari bilan chegaralanib qolmasdan, chet tillardan o'zlashgan juda ko'p miqdorda so'zlar hisobiga ham boyimoqda. O'zbek xalqi turli tarixiy taraqqiyot davrlarida turli xalqlar bilan ijtimoiy munosabatda bo'lib, o'z leksikasini o'sha tillar lug'at zahirasi hisobiga to'ldirib boradi.

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar kuzatish olib borilgan shevalarga nisbatan adabiy tilda ko'proq miqdorni tashkil qiladi. Adabiy tilimizga fan-texnika, ishlab-chiqarish, iqtisodiyot, sport va madaniy hayotga oid so'zlar ko'proq kirib o'zlashgan bo'lsa, Boysun-Sho'rchi guruh shevalarida, asosan, maishiy va qishloq xo'jaligiga xos so'z-atamalar o'zlashtirilgani aniqlandi.

Fors-tojikcha so'zlar. O'zbek xalqining barcha vakillari singari Surxondaryo aholisi ham tojiklar bilan juda qadim zamonlardan umumiy bir hududda yashab, kundalik turmushning barcha tarmoqlarida o'zaro hamkor bo'lib kelganlar [2.165-166].

Boysun-Sho'rchi guruh o'zbek shevalari yuzasidan olib borilgan lingvistik kuzatishlar shuni isbotlaydiki, mazkur sheva vakillari bilan tojiklar orasidagi juda yaqin aloqalarning o'rnatilishi bevosita ularning tilida o'z ifodasini topgan.

Boysun-Sho'rchi tumanlarida Buxoro, Samarqand viloyati va Farg'ona vodiysidagi kabi o'zbek tilida, tojik tilida va har ikki tilda babbarobar so'zlashuvchi aholi mavjud.

Fors-tojikcha so'zlarning Boysun-Sho'rchi guruh shevalariga tarqalish doirasi ham bir xil emas. Masalan, Boysun tumani hududida yashovchi sheva vakillari nutqida Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlari hududida yashovchi aholi nutqiga nisbatan tojikcha so'zlar ko'p uchraydi, chunki Boysun tumani hududida tojiklar zich joylashgan.

Shoʻrchi tumanining Engels nomli jamoa xoʻjaligi hududida yashovchi va Mirshodi qishlogʻidagi tojiklar ham, asosan, Boysun tumanidan koʻchib borgan.

Bu ikki xalq oʻrtasidagi xoʻjalik, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlar sobiq shoʻrolar davrida yanada faollashdi va rivojlandi.

Oʻzbek adabiy tili va uning shevalariga tojik tilidan anchagina soʻz, atama va qator frazeologik birikmalar oʻzlashgan.

Boysun-Shoʻrchi guruh oʻzbek shevalari lugʻat xususiyatlari yuzasidan kuzatishlarimiz natijasida oʻzlashgan soʻzlarni quyidagi sohalarga boʻlish mumkin:

1. Oʻsimliklar dunyosi, poliz ekinlari va meva nomlarini bildiruvchi soʻzlar (fitonimlar):äläp(alaf – oʻt, oʻsimlik.

2. Hayvon, parranda va hasharotlarning nomlarini bildiruvchi soʻzlar: šer//äslān – arslon, , **nāvvās <navbas** (nav+bas tan) – uch yoshgacha boʻlgan buqa,

3. Uy-roʻzgʻor buyumlari, xoʻjalik, kiyim-kechak nomlari va kasb-hunarga oid soʻzlar: **dekčä–** qozoncha (<toj. *deg*+oʻzb. *-cha*; **dämgi:r** – palov damlanayotganda tovoqni oʻrab bostiriladigan dasturxon;

4.**Rang bildiruvchi soʻzlar: nimräŋ**<nimrang – och rang maʼnosida (blednыy, slabo okrashennыy); **gülnar**<gulanor – anor guli rangli. Sol.: fors-tojik tilida kurtai gulanor – anor guli rangli koʻylak;

5. Kishi aʼzosi nomlari: läv//leb<lab, **dähän<dahan//dahān –** ogʻiz. **miǯǯä**<midjə – kiprik;

6. Turmushning turli sohalari, vaqt, masofa, tabiat hodisalari va kishilar faoliyati bilan aloqador soʻzlar: gülqan< gul qand – atirgul murabbosi; **mijanä**<miyona – oʻrta, oʻrtacha; **šor** – shoʻr, tuzli, nordon; **xāji:š**– xohish

Boysun-Shoʻrchi guruh shevalariga fors-tojik tili va uning dialektlaridan oʻzlashgan soʻzlar aslicha, shuningdek, fonetik va morfologik jihatdan moslashtirib talaffuz etiladi. Buni yuqoridagi misollardan ham koʻrishimiz mumkin. Baʼzi soʻzlar semantik jihatdan ham farqlanadi. Masalan, **dördä** soʻzi tojik tilida umuman quyqa (osadok) maʼnosida qoʻllansa, Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarida sariyogʻ quyqasi maʼnosidagina qoʻllanadi;

Akademik Sh.Shoabdurahmonov «Tojikcha soʻzlar oʻzbek adabiy tili va uning shevalariga adabiyot orqali kirmadi, balki ikki xalqning koʻp asrlik birga, hamkor hayot kechirgani, bevosita munosabatda oʻzaro boʻlgan zaruriyat tufayli kirdi», – deydi [3.221-222].

Shunday qilib, Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarida fors-tojik tili va uning shevalaridan kirib kelgan va oʻzlashgan soʻzlar miqdori arabcha elementlarga nisbatan ancha koʻpdir.

Arabcha so‘zlar. O‘zbek tili lug‘at tarkibiga arabcha so‘zlarning kirib o‘zlashishi arablarning istilochilik harkatlari bilan bog‘liq. VIII asrda arablar O‘rta Osiyoni bosib olganlaridan keyin bu yerdagi aholiga islom dinini zo‘rlik bilan qabul qildirganlar. Ana shu davrdan boshlab islom dini bilan birga arab yozuvi va arab tili keng tarqalgan. Islom dinigacha bo‘lgan mayda dinlar siqib chiqarilib, o‘rnida musulmon dini bilan aloqador bo‘lgan masjid, madrasa va boshqa muassasalar tashkil etildi.

N.L.Yushmanovning ko‘rsatishicha, 250 mlndan ortiq arab mazhabida bo‘lmagan musulmonlar o‘z tillarida arab harflarini qo‘llashga majbur bo‘lganlar va keng miqdorda arab so‘zlaridan foydalanganlar [4.10]

Ana shu nuqtai nazardan, Boysun-Sho‘rchi guruh o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili leksik tarkibidagi arabcha elementlar bu shevalardagiga nisbatan anchagina ko‘p ekanligini kuzatamiz.

1. Kishi, uning a’zolari, oila va qarindoshlikka xos so‘zlar: äjäl – oila, xotin; ǯussä جسه – jussa, gavda; avlāt – avlod (birligi valad) – o‘g‘il-qizlar, nasl ma’nosida; halqum – bo‘g‘iz, dimāγ//dumā: – burun.

2. Maktab va tarbiyaga xos so‘zlar: mäktäp – maktab, kitäp – kitob, qaläm – qalam, sāvāl – savol, ǯavāp – javob, xat – xat, mälim – muallim (//o‘qituvchi).

3. Ishlab chiqarish va kasb-hunar bilan aloqador so‘zlar: käsim //käsip – kasb, häji:txarǯi: (ar.عيد - خرج hayit xarji), haji:lli:k (hayitda, bayramlarda bolalarga beri ladigan pul); halqa حلق isirg‘a, nä:äl– nag‘al, taqa; mi:jnät – mehnat;

4. Turmushning turli sohalariga oid so‘zlar: tānur – tandir, zänǯi:l – zanǯir; hoǯra – hujra; tāxām – taom; nä:lät– lainat; lähim – lahm, suyaksiz go‘sht.

Kuzatish olib borgan shevalarda yuqoridagilardan tashqari, din, davlat tuzumi, adabiyot, san’at, fan va oziq-ovqat sohalariga oid arabcha so‘zlar uchraydiki, bu so‘zlarning ko‘pchiligi hozir juda passiv qo‘llanadi yoki arxaizmga aylangan, ayrimlari ma’no jihatdan farqlanadi [5.88-89].

Mo‘g‘ulcha so‘zlar. O‘zbek va mo‘g‘ul xalqlarining o‘zaro ijtimoiy munosabatlari tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu munosabatlar XII asrdan boshlab, ya'ni O‘rta Osiyo mo‘g‘ullar tomonidan bosib olingandan keyin yanada kengayib bordi. Mo‘g‘ullar bu yerda asta-sekin mahalliy aholi bilan aralashib ketib, o‘zlarining urf-odati va til xususiyatlarini yo‘qotgan edilar. Natijada, juda ko‘p mo‘g‘ul urug‘lari (jaloyir, barlos, qovchin kabi) turklashib, ularning tillari umumxalq o‘zbek tili va uning dialektlariga tamoman singib ketgan. Ayrim so‘zlar shu darajada mahalliy tilimizga o‘rnashib qolganki, ularni mo‘g‘ulcha deb aytish qiyin. Chunki bu so‘zlar qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarida, hozirgi mavjud turkiy tillar va shevalarida ham uchraydi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili va boshqa oʻzbek dialektlarida boʻlgani kabi Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarida ham bir qancha moʻgʻulcha soʻzlar uchraydi. Ulardagi fonetik farqlarni hisobga olmaganda, ma'nosi, asosan, moʻgʻul tilidagi soʻzlarga mos keladi.

Sh.Shoabdurahmonov moʻgʻulcha soʻzni tayanch shevalaridagi soʻzlarga mos kelishini koʻrsatgan [6.224].

Hozirgacha *navkar*, *aqta* kabi moʻgʻulcha soʻzlarni oʻzbek tilshunosligida eron tillaridan oʻzlashgan deyiladi, vaholanki, bu soʻzlarning asl oʻzaklari moʻgʻulcha ekanligi yirik moʻgʻulshunoslar tomonidan allaqachonlar isbotangan [7.287-288,8.357-358,9.367-368]. Yuqorida keltirilgan misollarning koʻpchiligi turkiy va moʻgʻul tillari uchun umumiy soʻzlardir. Bularning bir qismi qadim turkiy tillardan moʻgʻul tiliga oʻtgan boʻlsa (qut, ǯāvči, ǯijdä, aslān, bertməq, djil, av); gʻunadj'n, gʻunən, bə:ursaq, dɔvɔn, aqta, nəvkər, aymaq, buqa, boksa, orda, maŋnəy kabi soʻzlar turkiy tillarga (oʻzbek tili va uning shevalariga) moʻgʻul tilidan oʻtgan deb faraz qilish mumkin.

Tungus-manjur tillariga xos boʻlgan anchagina soʻzlarning oʻzbek tili va uning shevalaridagi soʻzlarga semantik oʻxshashligi ham juda xarakterlidir. Masalan, **ava** – ov, **avaga** – amakivachcha(<ava+aga), **aγlag** – ovloq (uedinennыy**), adï:rga**, **azirga** – <qad.turk adγï:r – ayg'ыr, **alčanča** – alchaymoq, **aŋqa** – chanqamoq, **arqa**-spina, arsalan – arslon, **baqi** – dangasa (qiyoslang: boqi begʻam), **baga**<yoqut, **baqa** – qurbaqa, **baj** moʻgʻ.**bajvaj** – xit. baybi – noprasno, zrya, darom, besplatno-boy bermoq; **balta** – bolgʻa, bolta; **bixa** – ozgina, kichkina (qiyoslang, bicha, pichcha, pita, bita kabi); **bozo:** – buza, **buda** – bugʻdoy, **buqa** – buqa<moʻgʻ.bux; **butun** – butun, **bä** – beshik, **bel** – bel (kosogor, sklon gorы), bötägä – boʻtaka, parranda jigʻildoni; altun (<al – qizil + tun – xit.mis) – oltin; ölän – jilishe, jile (bu soʻz Boysun-Shoʻrchi guruh shevasida: «öz üji:m olän töšägim» maqolida ishlatiladi);, takürkān(evenk) – beshik. Bu soʻz biz kuzatish olib borgan shevalarda quyidagi topishmoqlarda uchraydi: täkür- täkür - täkürxān, i:či:dägi me:ribān (beshik va bola); Taqur- tuqur tajrämä(beshik), i:či:dä bār mäjrämä (chaqaloq),avzi:dä azï:zï: bār(soʻrgʻich), ketida āzï:γï: bār(sumak). talgan – (evenk.) – un(muka): qad. turk. talqan – talqon (tolokno). Xitoycha tjan szjan – razlojiv, jarit; ülü (even.) ülüš (chast, dolya, pay); urhu – hurkish (pugatsya, sharaxatsya); hajga <yoqut, **čajγa** – chayqa (poloskat), **cha:** – sor, kalxatga oʻxshash qush (moʻg**ʻ. sar.** yoqut. **sar** s > ch, r tushishi hisobiga a choʻziq holga kelgan) va b.

Xulosa qilib aytish mumkinki, davrlarning oʻtishi bilan shevalarga xos soʻzlar, soʻz formalari va terminlar yoʻqolib ketmoqda. Shuning uchun bularni tezroq yigʻib olishimiz va tadqiq qilishimiz zarur. Qaysiki, har bir soʻz, termin u adabiy tilga kirganmi yoki biror shevaning oʻzigagina xosmi, unisidan qat'iy nazar, fan uchun ma'lum qimmatga egadir.[10.4]

Adabiyotlar

1. Крысын Л. П. Иноязычние слова в современном русском языке. – М. 1968. – С. 36.
2. Боровков А.К. Узбекско-таджикское двуязычие и вопрос взаимоот но шенения таджикско-узбекского языков. Учения записки института Востоко ведения АН СССР, Т. IV. – М., 1952. – Б. 165-166.
3. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 221-222.
4. Юшманов Н. Л. Грамматика арабского языка – Л., 1928. – С. 10.
5. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 224.
6. Санжеев Г.Д., Владимирцов Б.Я. Исследование монгольских языков: Филология и история монгольских народов. – М., 1968. – Б. 12-27.
7. Владимирцов Б.Я. Географические имена Орханских надписей. Монгольское Нөкр. ДАН, 1929. – С. 287-288.
8. Бернштам А. Н. Социально-экономический строй Орхоно-Енисейских турок. – Фрунзе, 1946. – Б. 357-358.
9. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. – Тошкент, 1976. – Б. 4.

DIALEKTAL BIRLIKLAR VA ADABIY TIL

Ibrohim O‘rmonovich DARVISHOV,
Namangan davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mazkur maqolada o‘zbek adabiy tilini boyitish yo‘llari va o‘zbek adabiy tili va Davlat milliy tili mavqyeyini oshirish masalalari haqida munosabatlar bildirilgan. Adabiy tilning boyishi ichki omili bo‘lgan o‘zbek shevalari, xususan, Namangan shevalarining milliy-mental jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *lison, til, adabiy til, milliy til, mahalliy til, sheva, dialekt, lingvistik muqobillik.*

Har bir millatning tamaddun tufayli unutilgan, iste’moldan chiqqan so‘zlari bo‘ladi. Adabiy tilimiz, aniqrog‘i, Ona tilimiz ham bundan holi emas.

Tarix qatida qolgan, biz unutgan va unitayotgan, kelgusi avlodimiz e'tiboridan juda ham chetda qolayotgan so‘zlar xalq shevalarida keng qo‘llanmoqda. Afsuski, ularni adabiy tilga olib kirib, adabiy iste'molini yo‘lga qo‘yish muammoligicha qolib ketmoqda.

Bugungi kunlarda millatimiz istiqboli va kelajagi kuyunchaklari bo‘lgan ziyolilarimizning maktab, o‘rta maxsus ta'lim dargohlari, hatto, oliy o‘quv yurtini tamomlayotgan yoshlarimizning ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilini yaxshi bilmaydi, degan ta'na-yu da'volari to‘g‘riga o‘xshab qolyapti. Bir nechta xorijiy tilda biyron gapiruvchi farzandlarimiz ona tilida erkin fikr yuritolmasligi, turkiy o‘zbekcha milliy mental jihatlarimizni ifodaloqchi lisoniy birliklarni to‘laqonli anglab eta olmasliklari, ulardagi lug‘at boyligining juda ham g‘arib ekanligi ko‘zga tashlanib qolmoqda. Jamiyatimiz vakillarining, xoh u katta yoshda bo‘lsin, xoh yosh bo‘lsin kitob va asl milliy adabiyotdan begonalashuvi bir hovuchgina so‘zga andarmonligi, ular o‘rnida ajnabiy – begona til birliklarini qo‘llashlariga sabab bo‘ldi. Axir millatning eng birinchi va asosiy etnik ko‘rinishi uning tili emasmi?! To‘g‘ri, har bir millatning tamaddun tufayli unutilgan, iste'moldan chiqqan so‘zlari bo‘ladi. Ona tilimiz ham bundan holi emas. Ammo, nazarimda, tarix qatida qolgan, biz unutgan so‘zlar erdami yo ko‘kda qandaydir g‘azabnok porlayotgan ko‘zga o‘xshaydi.

So‘zning joni bo‘lmaganda odamni goh o‘ldirib, goh tiriltirarmidi? Atrofga bunday zakiy va teran zehn bilan qarang: kimningdir og‘zidan chiqqan, siz allaqachon aytmay qo‘ygan birgina shirin kalom vujudingizga nurday singib, beqiyos ruhiy quvvat baxsh etganini payqaysiz. Ana o‘shanda xotiraning qaysidir bir puchmog‘ida bolalikmi tirilib ro‘baro‘ keladi. Sizga qamti turgan o‘tmish bobo-momongizning ovozi kelganday bo‘ladi. Ha, unutilgan so‘z – duotalab ruh kabi.

Demak, fikr va mulohazalarimiz sirli ma'vo – so‘z saltanati, milliy til saltanati haqida bo‘ladi.

Turkistonda Sho‘ro hokimiyati zo‘rlik bilan o‘rnatilgandan so‘ng turkiy urug‘larning urf-odat va shevalarini o‘rganishga jidd-u jahd bilan kirishiladi. O‘zak-mag‘zida mustabidlik mafkurasi yotgan bu intilishning xayrli tomoni ham bo‘ldi. Salkam bir asr mobaynida o‘zbek shevalari bo‘yicha o‘nlab nomzodlik va doktorlik ishi qilindi, minglab maqolalar yozildi, So‘zning joni bo‘lmaganda edi, odamni goh kuldirib, goh yig‘latarmidi?! Xalqona, biz allaqachon aytmay qo‘ygan, unitilish arafasidagi kalomni eshitsak, u sizu bizga beqiyos ruhiy quvvat baxsh etishini ilg‘aysiz. Ko‘z oldingizda butun bir moziy gavdalanadi. Ular bobolarimiz, momolarimiz o‘tmishining ovozi – tirik tariximiz. Zotan, o‘zbek xalqi milliy tiliga asos bo‘lgan mahalliy tillar – buyuk bir til va so‘z saltanati.

F.Abdullayevning «Xorazm shevalari», M.Mirzayevning «O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari», I.Shamsiddinovning «O‘zbek tilining

Qorakoʻl shevasi», Sh.Nosirovning «Oʻzbek tilining Qoʻqon shevasi», Q.Muhammadjonovning «Janubiy Qozogʻistondagi oʻzbek shevalari morfologiyasi», T.Yoʻldoshyevning «Tojikistondagi oʻzbek shevalari orfologiyasi», A.Ishayevning «Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalari», S.Ibrohimovning «Fargʻona shevalarining kasb-hunar leksikasi», «Oʻzbek tilining Andijon shevasi», V.Egamovning «Samarqand oblastining Gʻallaorol shevasi», N.Rajabovning «Oʻzbek tilining Gʻarbiy Samarqand shevalari», S.Rahimovning «Oʻzbek tili Surxondaryo shevalari», B.Joʻrayevning «YUqori Qashqadaryo oʻzbek shevalari», A.Shermatovning «Quyi Qashqadaryo oʻzbek shevalari», Bosim Toʻychiboyev va Qozoqboy Qashqirlining «Zominning til qomusi» kitoblari xalqimiz bebaho boyligi boʻlgan, adabiy tilimizning boyitish manbasi boʻlgan oʻzbek shevalarini oʻrganishga bagʻishlangan tilshunosligimizning eng xayrli ishlaridan hisoblanadi.

1930-60-yillar oraligʻida turkiy urugʻlarning urf-odat va shevalarini oʻrganishga jiddiy kirishildi. Bu ishlarning xayrli tomoni yuqoridagi ilmiy manbalar bizga meʼros boʻlib qolganligidir.

Oʻtgan asrning 30-40-yillaridan boshlangan izlanishlar natijasida oʻlaroq «Oʻzbek xalq shevalari lugʻati» degan salmoqli toʻplam 1971-yilda ikki ming nusxada bosilib chiqadi. Yaratilganiga salkam ellik yil boʻlgan kitob esa oʻz bahosini olmadi, to shu kunga qadar bu kitob oʻzgarmadi. Millatimizning olti mingdan ziyod soʻz va iboralariga yana boshqalari qoʻshilmadi. Aslida xalq shevalarida yuz minglab til birliklari bor.

Toʻplamda Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻizistonning janubiy tumanlari hamda Qoraqalpogʻistonda yashovchi oʻzbeklarning qorluq, qipchoq, oʻgʻuz lahjalarida ishlatiladigan ayrim soʻzlar jamlangan, xolos. Tanlab olingan areal ham, soʻzlovchilar ham juda katta. Ammo, shevashunos olimlarimiz tizimga solgan aksariyat soʻzlarningi lugʻatga kiritilmaganiga hayron boʻlasiz, ular kiritilganda edi bugungi adabiy tilimizga ellik-oltimish yil mobaynida singib ketgan boʻlardi.

Maʼlumki, dunyodagi katta va juda koʻp tillar adabiy tili xalqning jonli soʻzlashuv tili asosida shakllangan. Zero, oʻzbek xalq shevalarida chinakam milliy ruh va mahalliy-milliy hayot nafasi yaqqol sezilib turadi.

Quyida Namangan viloyati sheva arealida keng isteʼmolda boʻlgan lugʻaviy birliklardan ayrimlarini keltirishni lozim topdik: *madda* – sergap, vaysaqi, *oygʻoq* – chaqimchi, *soygʻoq* – piyoda, befoyda yuruvchi, *boʻjama* (omonim) – yosh qizaloqlarning soch oʻrimi, husunbuzar, *jugal* – ikki labning tutashgan joyiga chiquvchi yara, *goʻmicha/yignalovgich* – koʻz mijjasiga boʻrtib chiqadigan yara, *keskaltirik/kesatki/kalpista* – kaltakesak, *kirpi* – tipratikan, *jukum* – hafa, *tirriq* – hasis, qizgʻanchiq, *gupu* – toʻla (semiz), *muqamoq* – qiynalmoq, *ravi* – hiyol, bir zumda, *ozitqi* – yaxshi, xayrli ishdan qoldiruvchi va qaytaruvchi odam, *irganmoq* – jirkanmoq, *gangir/qangʻil* –

anqov, *ko‘hmak* – ko‘m-ko‘k, *lozimat/yo‘ru/yo‘riq* – marosim, *mo‘ndi/yaloq* – kiyimi kir va iflos odam, *ocharmoq* – rangning ochroq tusga kirishi, *to‘qarmoq* – rangning to‘qroq holga kelishi, *hutum* – hazilkash va beozorlik bilan hazil qiluvchi kishi, *chorpoyli* – to‘ladan kelgan erkak kishi, *shop* – to‘y kuni kelinning ukasiga beriladigan sovg‘a. Bu kabi lug‘aviy birliklarning aksari adabiy tilda mavjud emas. Xalq shevalarida esa har bir harakat, vaziyat, holat, narsa-buyum va belgilarning aynan ifodalab bera oladigan ko‘rinishlari bisyor. Bugungi globallashuv davrida sizu bizning – barcha tilimiz jonkuyarlarining asosiy maqsad va vazifamiz – ularni milliy tilimiz birligi sifatida adabiylashtirishdir. Bugungi kunda bunday so‘zlar nafaqat viloyatlarda, balki mamlakatimizga chegaradosh o‘zbeklar istiqomat qiladigan sheva areallarida ham ishlatiladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, milliy va adabiy ona tilimizga tegishli ilmiy manbalarni tilshunos tadqiqotchilarga, magistr va bakalavrlarga sidqidildan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» kitobini, Navoiy va Fitratning tilimiz ravnaqi haqidagi fikrlarini, F.Abdullayev («Xorazm shevalari»), Qosim Muhammadjonov («Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari»), Mullatoy Begaliyev («O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi»), Anvar Bo‘ronov («Oltoylar»), Saidmuso Rahimov ilmiy izlanishlarini... (bularni istalgancha davom ettirish mumkin) tanishtirib, o‘qitishga erishmog‘imiz zarur. Magistr va bakalavrlar uchun dialektologik ekspeditsiyalarni qayta yo‘lga qo‘yish lozim. Xalqimiz shevalari qarida tarixiy yozma yodgorliklarda qoldirilgan manbalardan ham ortiqroq o‘tmishimiz va tilimiz tarixiy belgilari yashirinib yotibdi. SHuning uchun ham tilimiz – shevalarimiz biz bilan yo‘ldosh bo‘lib yurgan tirik tariximizdir.

Dialektal lisoniy xususiyatlarni bolalar bog‘chasidan boshlab, o‘rta, maxsus va oliy ta’lim tizimida tarbiya va bilim oluvchi farzandlarimizga ularning til kompetentligini boyitish va rivojlantirishga, ular ongiga adabiy til me’yorlarini singdirish va nutq madaniyatini shakllantirish uchun dialektal sharoitlar bu jarayonlarga salbiy ta’sir etmaydigan usullar orqali amaliy tilshunoslik masalalarining dolzarbligini kun tartibi qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробов М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 13.
2. Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан. 1967. – Б. 37-45.
3. Ashurboyev S. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 271 b.
4. Ashurboyev S. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 280 b.

5. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари // ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 41-52-бетлар.
6. Дарвишов И. Ареал лингвистика: Жанубий-гарбий Наманган шеваларининг фонетнк-фонологик хусусиятлари, – Тошкент: Наврўз, 1919. – Б. 147.
7. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.
8. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 8-9.
9. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалекторлари. – Тошкент, 1976. – 139 б.
10. Murodova N. Allaberdiyev A O‘zbek dialektologiyasi. Ma’ruzalar matni. – Navoiy, 2008. – 155 б.
11. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг ареал тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 220.
12. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – 425 б.
13. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 166.
14. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси, 2004. – Б. 5.
15. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 313 б.
16. Фозилов Э. Ўзбек адабий тилининг шаклланиш тарихи ҳақида // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент, 1977. – Б. 3-9.

MINGBULOQ QIPCHOQ SHEVALARI AREALI LISONIY XUSUSIYATLARI

Musurmon Mamirali o‘g‘li USMONOV,
Namangan davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur maqolada Namangan viloyati Mingbuloq qipchoq shevalari areali hamda undagi sheva guruhlarining fonetik-fonologik, leksik va grammatik sathidagi o‘ziga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Areal lingvistika, lingvistik geografiya, sheva, lahja, dialekt, sheva areallari, qipchoq lahjasi.*

Namangan viloyati Mingbuloq qipchoq shevalari areali guruhlarining fonetik-fonologik, leksik va grammatik sathida umumqipchoq yoki aynan mazkur shevalargagina xos bo‘lgan belgi-xususiyatlar kuzatiladi.

Hudud qipchoq tip shevalari va tarmoqlarining har ikkalasida ham 8 ta unli mavjud bo‘lib, ular o‘zining miqdor va sifat belgilari bilan markaziy tayanch shahar shevalaridan farq qiladi [13, 3-14].

Shu o‘rinda aytib o‘tish zarurki, turkiy tillardagi «y»lashish va «j»lashish masalasidagi uzoq yillik «ularning qaysi biri birlamchi?» degan savolga haligacha aniq bir yechimga kelinmagan, aniq bir to‘xtamni, tarixiy-lingvistik asosni uchratmadik. Bu masala haqidagi fikrlar, uni ma’lum darajada aniqlashtirib yoritishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, turkiy tillar fonetik strukturasi bo‘yicha maxsus ishlar amalga oshirilib, turli ilmiy-tarixiy qarashlar e’lon qilingan, biroq ularda ham aniq va ravshan xulosalar keltirilmagan [5, 61-70].

Mingbuloq qipchoq shevalari arealida *j* affrikatining qo‘llanish doirasi bir xil emas. Arealning *Nayman, Chordona, Momoxon, Qolg‘andaryo, Beshserka, Nayman, Qayrag‘ochovul, Ingichka, Qirqchek, Madyorovul* shevalarida so‘z boshida *y* o‘rnida *j* ishlatiladi. Bu yirik qishloqlar aholisi, asosan, Sirdaryo oqimining chap sohilida istiqomat qiladilar [15, 27]. Ularni Mingbuloq qipchoq shevalarining lingvistik jihatlarini yoritishda *y* undoshi va *j* affrikati hal qiluvchi belgilardan biri ekanligi haqidagi qarashlarga tayandik [13, 5].

1. «Y»lovchi qipchoq shevalari: fonemalar soni 8 ta: **a, o, i, e, u, ü, ö, o‘**; fonema variantlari miqdori esa o‘n ikkita yoki undan ortiq: ***a, ä, ɔ, o, i, ī, ï, ü, u, ö, o‘, e.***

Sheva areali aholisi nutqining voqelanishida quyidagi lisoniy xususiyatlar kuzatiladi:

a) singarmonizm qonuniyati amalda bo‘lib, tanglay uyg‘unligi to‘la saqlangan: *bālïq* (baliq), *taxta* (taxta), *toxta* (to‘xta), *dïdï* (dedi), *nümāvγā* (nega), *nümāŋä* (nimaga), *tāmāŋä* (tomonga); o‘zakdagi unlilarning qattiq yumshoqligiga qarab, qo‘shimcha tarkibidagi unlilar ham uyg‘unlashadi: [*bāllār*] bolalar, [*ātāmdï*] otamning//otamni; [*qāγān*] qolgan, [*bāryān*] borgan, [*ičkän*] ichgan, [*bārdïlār*] bordilar, [*äkäsï*] akasi kabi.

b) nazalizatsiyaga amal qilinadi: *bārïŋ* (boring), *keŋ* (keling), *aŋ* (oling), *tilpānïŋ* (telefon qiling) kabi.

d) so‘z o‘rtasida ***o‘*** (*vö/öv*–w) tarzida (sandhi) sandxi holatda diftonglashadi: *he^{w}ölä* (ha, o‘la), *ötö^{w}v* (o‘taver), *sö^{w}dïsijïr* (sog‘in sigir), *ötö^{w}vr* (o‘taver), *ā^{w}ö^{w}ö^{w}* (olvoraver) kabi.

e) bu tarmoq shevada ï unli tovushining qo‘llanishi kengroq: *äjtïŋ* (ayting), *kïrïŋ* (kiring), *böldïŋïzmï?* (bo‘ldingizmi?) kabi hamma vaqt xam o‘zining til orqa holatini saqlab qoladi.

- [***a>ä***] hodisasi kuzatiladi: *täšläjdï, šäïmäjdï* kabi.

- undosh tovushlarning almashinib ishlatilish hodisasi kengroq: [*p>v*]: *čāv* (chop), *tāv* (top), *jāvïp* (yopib), *tevä* (tepa); [*g‘>g*]: *bājāγï* (boyagi), *āγān* (olgan)**;** [*g‘>v*]: *bāvlā* (nazoratni kuchaytir)**,** *sāv* (sog‘), *tāv* (tog‘), *āvðï* (og‘zi), *suvār* (sug‘or) kabi.

Mingbuloq tuman qipchoq sheva areali «y»lovchi tarmog‘ida morfologik shakllarni qo‘llanishi jarayonlarida ham o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek shevalaridan farqli jihatlar uchraydi:

Ko‘plik (son) *-lar* qo‘shimchasining *-när, -nār-, lār* variantlari qo‘llaniladi: *qïð+lār* (qizlar), *bāllār* (bolalar); *ken+när* (kelinglar), *ānnār* (olinglar), *chïqïnnār* (chiqinglar) kabi.

Tushum va qaratqich kelishigi qo‘shimchasi barcha o‘zbek shevalarida mavjudligidek farqlanmaydi: [*-i//-ïn//in//dï*] tarzida qo‘llanishi, umuman, mavjud emas: *qol+ï+nï juv+dï* (qo‘lini yuvdi)*, bel+i+nï bāj+lä+dï* (belini boyladi)*, bel+iŋ+dï baj+lä* (belingni bog‘la)*, köz+ï+nï āš+tï* (ko‘zini ochdi), *köð+ïŋ+dï āč* (ko‘zingni och) kabi.

Jo‘nalish kelishigi *-ga* [*-γä//-γā//-kä*] shaklida qo‘llanadi: *nümāv+γä* (nega), *nümāŋ+γä* (nima maqsadda), *sij+nï+sï+nï+kä* (singlisinikiga) kabi.

Chiqish kelishigi *-dan,* undoshlar sintagmatikasiga muvofiq, o‘rnida [*-tän, -tān*] varianti qo‘llanadi: *bār+mās+tān qojdï* (bormay qo‘ydi), *qï+mäs+tän ajtmä* (bajarib bo‘lgandan keyin ayt) kabi.

Änä, mänä ko‘rsatish olmoshlariga *šü, bü* olmoshlari qo‘shilganda**:** *ānā+šï, a:šï* (ana shu), *mä+šï, mānāv***,** (mana shu) tarzida qo‘llaniladi.

So‘roq olmoshlaridan [*nima*] olmoshi *nümāv* tarzida qo‘llanadi.

O‘tgan zamon fe’lining [*-(i)b edi*] shaklidagi [*-(i)b*] ravishdosh qo‘shimchasi [*-(ï)p*] holatida qo‘llaniladi: *ket+ïp+tï* (ketibdi), *bārü:dïm* kabi. Bu holat Jizzax: Forish, Xorazm (qipch.) shevalarida ham uchraydi.

«Y»lovchi qipchoq shevalari arealiga Mingbuloq tumanidagi *Dovduq, Terak, Qo‘shqishloq, Sho‘rsuv, Do‘msa, Qorayontoq, Etak, O‘zgarish, Baland Gurtepa, Gurtepa, O‘rtaqishloq, Mulkobod, Uzuntepa, Qayrag‘ochovul, Qumqishloq, Yangi hayot (Attang), Yangobod* kabi yirik qishloqlar aholisining shevasi kiritildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Mingbuloq qipchoq shevalari areali «y»lovchi va «j»lovchi tarmoq aholisi nutqi lisoniy (fonetik-fonologik, leksik semantik va grammatik) belgi va xususiyatlarida O‘zbekistondagi barcha qipchoq shevalaridagidagi umumiy o‘xshashlik kuzatiladi.

Xususan, Janubiy Xorazm [1, 74-82] Samarqand viloyati (*Nayman, G‘allaorol*) g‘arbiy shevalari [7, 73], Yuqori Qashqadaryo qipchoq tip shevalari [1, 74-82], janubiy Orolbo‘yi shevalari [8, 54], Janubiy Qozog‘iston [10, 14] va qoraqalpoq, qozoq tillari uchun hamda boshqa ko‘plab o‘zbek

qipchoq shevalariga xos belgi-xususiyatlar Mingbuloq sheva arealida ham to‘la kuzatiladi.

Shuningdek, N.A.Baskakovning ta’kidlashicha, so‘z boshida [***e, ö, o***] unlilarining diftonglashuvi qipchoq-qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi [4, 28]. Bu hodisa, qo‘miq, gagauz, qarachay-balqar tillarida ham mavjud [15, 37].

O‘zbek shevalarining qipchoq lahjasiga oid shevalarida qo‘llanuvchi [***ï***] tovushi lablanmagan, til orqa unli bo‘lib, barcha turkiy tillarda uchraydi. Mingbuloq qipchoq areali «y»lovchi tarmog‘i aholisining shevasida, ayniqsa, O‘zgarish, Baland Gurtepa, Gurtepa, O‘rtaqishloq, Mulkobod, Uzuntepa ishlog‘ida qo‘llanish darajasi kengroq: *ajtïŋ, kelïŋ, böldïŋïzmï* kabi. [ï] tovushi hamma vaqt xam o‘zining til orqa holatini saqlayvermaydi. Bu fonema [*y, sh, ch, dj*] tovushlari bilan birga kelganda [*i*] tovushiga moyil talaffuz qilinadi: *bühchäjip* (bukchayib); *jil* (yil), *jilādï* (yig‘ladi); *čirāγïm* (chirog‘im), *šipрïndï* (supirindi), *ǯilmājip* (jilmayib) kabi.

Sheva arealida keyinchalik va hozirgi kunda Dashti Qipchoq til areallarida istiqomat qilgan turkiy etnik komponentli til vakillari bilan yaqin bir asrdan ortiq vaqt mobaynida etnogenetik assimilyatsiya (qorishuv) natijasida shakllangan fors-tojik tilli xalqlar bilan turkiy etnosli shahar va qishloq aholisi vakillarining migratsiyasi natijasida o‘tish va vibiratsiya hodisalari shakllanib ulgurgan. Tadqiqotchilar bunday jarayonni etnik jihatdan bir xil bo‘lmagan, hududlarda fors-tojik tilli xalqlar (xususan, so‘g‘diylar, tojiklar, eroniylar) bilan birga turkiy tilda so‘zlashuvchi etnoslar birga yashaganliklari ijtimoiy zaruriy sharoit sifatida qayd qilganlar. Yangi davrlarga kelib, mazkur hudud aholisi ikki tilda (fors-tojik va turkiy tillarda) so‘zlashganlar. Keyinroq ushbu hududga ko‘plab turkiy tilli etnoslarning ko‘chib kelishi natijasida, bu arealda ham turkiy etnik qatlamning mavqei ortib borgan, oqibatda aholi tilida turkiylashish kuchaygan [2, 183-200].

2. «J»lovchi qipchoq shevalari: Mingbuloq qipchoq shevalar areali guruhidagi «j»lovchi shevalarida ham singarmonizm qonuniyati to‘la saqlanganligi sababli unlilar miqdori 8 taga yetadi. Chunki Mingbuloq dialektal areali tarkibiga kiruvchi Beshserka, Qizilqum, Qozoqovul, Nayman, Qolg‘andaryo, Momoxon, Qirqchek, Ingichka, Kichik Jomashuy, Chordona, Uyurchi-Damko‘l, Qo‘g‘oliko‘l, Yakkatol, Bo‘ston, Guliston, Baynalminal, Qayrag‘ochovul, Tolliovul, Oqqum qishloqlari Sirdaryo oqimi chap sohilida joylashgan bo‘lib, bu areallarda yashovchi aholi «j»lovchilovchi qipchoq shevasi vakillaridir.

Ular Qo‘qon xonligi tashkil topganidan keyingi davrlarda kelib o‘rnashgan chorvador qoraqalpoq va qozoq hamda qirg‘iz xalqlarining nayman urug‘larining avlodlari hisoblanadi.

«J»lovchi qipchoq shevalaridagi o‘ziga xos lisoniy xususiyatlar adabiy tildan quyidagi holatlarda farqlanadi:

a) *y, ch, sh* va *i* tovushi so‘z boshida kelgan aksariyat so‘zlarda *y* va *i* tovushlari o‘rnida *j[ǯ]* talaffuz qilinadi: *ǯila* (yig‘la), *ǯür* (yur), *ǯäŋä//ǯeŋä* (yanga), *ǯüjtïp//ǯüjtip* (shunday qilib), *ǯi:pkettï// ǯiγibketti* (chiqib ketdi), *ǯilān* (ilon) va b.;

b) ayrim so‘zlarda so‘z boshidagi e va a tovushlari *ʸekkïnchi* (ikkinchi), *ʸeshkï* (echki), *ʸekkï* (ikki), *ʷajtvär* (ayt, aytib yubor) kabi diftonglashadi. Lekin bu fonetik jarayon mazkur dialektal arealda sanoqli tub so‘zlar doirasida amal qiladi, boshqa qipchoq tip shevalaridagidek, [*ʷöräðä*] [*ʷörāðā//ʷöräðä*] ro‘za, [*ʷörämäl*] ro‘mol, [*ʷiríðā*] rizo, rozi kabi [3, 149] umumiy tus olmagan. Biroq sandhi holatlar doirasida ular miqdori ko‘proq.

d) so‘z boshida *b* undoshining, o‘zlashmalardan tashqari, *p* ga va *m* ga almashadi: *pütün nān* (butun non), *däjränïŋ mojnï* (daryoning bo‘yi), *pojïn* bo‘yin (odamning bo‘yni) kabi.

Turkiy so‘zlardagi *b>m* holatini har ikki: «y»lovchi va «j»lovchi guruh sheva so‘zlarining boshida kuzatiladi: *mürïn* (burun – inson tana a’zosi), *mürïrrāq* (ilgariroq, oldinroq) kabi.

e) ayrim hollarda so‘z boshidagi til o‘rta *y* undoshi talaffuz etilmaydi: *ïrik* (yirik), *ïriŋ* (yiring), *ïraq* (yiroq, uzoq), *ïrtïvär* (yirtib yubor), *ïqittiŋ* (yiqitting) kabi.

f) tovushlarning tushishi (eliziya) hodisasi kuzatiladi: *yā:* (yo‘q), *pi:lo* (piyola), *u:lï* (o‘g‘li), *tu:rï* (to‘g‘ri), o:ur (og‘ir), *säri:* (sariq), *qätï* (qattiq), *äčči* (achchiq) kabi.

g) so‘zlarda boshqa tildan *r* tovushining tushib qolishi keng tarqalgan: *dästïxān* (dasturxon), *bïnnäsä* (bir narsa), *čäx,* (charx) kabi.

Professor E.D.Polivanov: «Dunyodagi turkiy tillarning birontasi hali o‘zbek tili singari shevalararo bu qadar keskin farqlanmaydi, demakki, turkiy tillarning birontasi ham bu qadar dialektal turlicha xususiyatga ega emas» [12, 7] deganda haqli edi. Shu nuqtayi nazardan Mingbuloq tuman shevalari areali o‘ziga xos bir qator jihatlarga egaki, bunday o‘ziga xosliklar o‘zbek shevalarining ayrimlarida kuzatilsa, ayrimlarida uchramaydi. Shuning uchun ham o‘zbek milliy tili va uning shevalarida amal qilayotgan rang-barang va juda qadimiy tarixga ega bo‘lgan, hali sof lingvistik tadqiqiga ega bo‘lmagan lisoniy xususiyatlarning qiyosiy-tarixiy genezisini, uning tarqalish va amal qilish maydoni – arealini belgilash va tasniflash ishimizning ustuvor mazmunini tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalq shevalarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning hududiy – areal tasniflariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur ishimiz ham o‘zbek xalq, shevalarining umumiy tasniflarini to‘ldirish, ulardagi ayrim noaniq o‘rinlarga

bir oz aniqlik kiritish va takomillashtirishda ulush bo‘lib qo‘shiladi. Zotan, Mingbuloq shevasi o‘zbek shevalarining kichik bir bo‘lagidir.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Фонетика. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 74-82.

2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (X1X-XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 183-200.

3. Боровков А.К. О некоторых очередных вопросах узбекского литературного языка. ЗИВ. АН СССР, VI. – С. 76

4. Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1975.

5. Гаджиева Н. 3. Проблема тюркской ареальной лингвистики. – М.: Наука, 1975. – С. 61-70.

6. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – Б.82.

7. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.73.

8. Иброҳимов Й.М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. Фил. фанл. докт. ...дис. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 54.

9. Ишаев А. Фонетические особенности мангитского говора узбекского языка. – Ташкент, 1962. – С. 16.

10. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари. – Тошкент, 1981. – Б. 14.

11. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

12. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933. – С.7.

13. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. – № 1.– Б. 3-14.

14. Толстова Л. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус, 1959. – С. 27.

15. Щербак А. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970. – С. 37.

16. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 9

KATTAQO‘RG‘ON TUMANI O‘ZBEK SHEVALARIGA XOS XUSUSIYATLAR
(Samarqand viloyati materiallari asosida)

Zilola Raxmatillayevna TILLABAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Biz maqolada Kattaqo‘rg‘on tumani hududida yashovchi aholi shevasi haqida qisqacha ma’lumot berishga harakat qildik. Shuningdek, Samarqand viloyati qarluq shevasini o‘rgangan dialektologlaring ishlariga qisman murojaat qildik. Maqolada kuzatish, tahlil qilish va qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *dialektologiya, lingvistika, sheva, unli, qarluq, aralash sheva, Kattaqo‘rg‘on tumani, qarluq-chigil-uyg‘ur.*

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi o‘zbek shevalari, ularning grammatik qurilishi, fonetik tuzilishi, lug‘aviy tarkibida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘rganish bo‘yicha jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga, shevalarga adabiy tilni oziqlantirib turuvchi manba sifatida munosabatda bo‘lish, sheva va adabiy til munosabatini o‘rganish, ayniqsa, shahar tipidagi lahjalarni tadqiq etish usullari va metodologiyasini zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqish dialektologiya sohasi rivojiga xizmat qilishiga ko‘ra nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, Kattaqo‘rg‘on tumani O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatida joylashgan. 1926-yil 28-sentabrda tashkil etilgan. Shimoldan viloyatning Ishtixon, janubi-sharqdan Nurobod, g‘arbdan Narpay, sharqdan Pastdarg‘om, shimoli-g‘arbdan Navoiy viloyatining Xatirchi tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 1,47 ming km^2. Aholisi 189 ming kishi. Tumanda 3 shaharcha (Kadan, Suv Ombori, Payshanba) va 17 qishloq fuqarolar yig‘ini (Abulqosim, Alijon, Girdiqo‘rg‘on, Durbesh, Kattako‘rpa, Kattaming, Kiikmindon, Jumaboy, Moybuloq, Omonboy, Saroyqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘oncha, Qo‘shtepa, Uyshun, Sho‘rak, Murtak, Zarafshon) bor. Markazi Kadan shaharchasi [1].

Mazkur hudud aholisi asosan qarluq lahjasida muloqot qiladi. Bu yerda yashovchilar nutqining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi. Shuningdek, hudud shevasining boshqa sheva va lahjalardan ajralib turadigan xususiyatlari mavjud.

Dastlab qisqacha fonetik xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur tuman shevalarida unli tovushlar 7 tagacha bo‘lishi kuzatildi: *i, u, ā, ä, o, ö, e.* Shu bilan bir qatorda adabiy tildagi so‘zlarning unli tovushlari almashinib talaffuz qilinadi:

[ā>ä] *olma/älmä, piyola/pijälä, bola/bäčä, to‘rtov/tortäv, kuyov/kujäv* va hokazo. Chunki v undoshidan oldin o emas, balki *ä* unlisining kelishi bilan xarakterlanadi.

[ä > ā] *usta/ustā, po‘lat/polād, ketyapti/ ketāpti, boryapti/ bārāpti, tilla/ tillā* kabi. Bu holat tojik shevalarining qanchalar Samarqanddagi qarluq lahjasiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat berib turibdi.

Ma’no farqlamaydigan ikkinchi darajali cho‘ziqlik holati ham ko‘p kuzatiladi: *dugā:na, dolā:na, pijā:va, ke:lin, dāmmā:d, polā:d, šā:na, kadu:* kabi.

So‘z tarkibida ikkita har xil undoshning bir-biriga moslashib, bir xil talaffuz qilinishi, ya’ni assimilyatsiya hodisasi uchraydi: *kelli (keldi), bolli (bo‘lli), kammaγäl (kambag’al), bāddu (bordi), massi (mahsi).*

Kattaqo‘rg‘on tumani qarluq lahjasida *l, r, t* kabi undoshlardan birining so‘z o‘rtasida tushib qolishi ham uchraydi: *däsäxān/ dastarxon, ketur/ keltir, tor/ to‘rt, däsromāl/ dastro‘mol, binnimä/ bir nima* va hokazo.

So‘z oxirida qator undosh sifatida qo‘llaniladigan t tovushi tushirib talaffuz qilinadi: *goš/go‘sht, γiš/g‘isht, sus/sust, Tāškän/Toshkent, dos/do‘st* kabi.

Biz o‘rganayotgan lahjaning morfologik xususiyatalari ham o‘ziga xosliklarga ega. Masalan, -lar ko‘plik qo‘shimchasi *–ä, -lä* ko‘rinishlarda uchraydi: *Ulä kelišdi. Bizä kettik*.

Oltita kelishik to‘rt xil shaklda qo‘llaniladi. Qaratqich va tushum –ni qo‘shimchasi bilan, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari –ga qo‘shimchasi ko‘rinishida uchraydi: *Ujgä qālli. (Uyda qoldi.) Bäläni xayāli pärišān (Bolaning xayoli parishon.)*

Kelishik qo‘shimchalarining mazkur lahjada almashinib qo‘llanishi holatlari Sh.Shoabdurahmonov tomonidan izohlangan: o‘rin-payt kelishigi o‘rnida Samarqand-Buxoro shevalarida jo‘nalish kelishigining qo‘llanishi uchraydi. Masalan, *Bü ādämlär säni āldiŋgä nimä qilädi?//ad. Bu odamlar sening oldingda nima qiladi? Män ujgä edim*. *//ad. Men uyda edim.*

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, jo‘nalish kelishigi asosan o‘rin-payt kelishigi o‘rnida qo‘llanadi. Ushbu kelishik qarluq lahjasida deyarli ishlatilmaydi: *jolgä čopān učrägän, Sämärqändgä bārüvdik, Sämärqändgä jašäjdi.*

Shuningdek, qaratqich kelishigi qisqarib, –i unlisi bilan ham ifodalanishi mumkin: *Bizi ujimiz. (Bizning uyimiz.)*

Jo‘nalish kelishigi qisqarib, *-ä, -jä* ko‘rinishida uchrashi mumkin: *Kočajä čiqmä. (Ko‘chaga chiqma.) Sizä gäpim bār. (Sizga gapim bor.)*

Mazkur shevada –dan chiqish kelishigi assimilyatsiya hodisasiga uchrab, *-zän* variantida qo‘llanilishi mumkin: *Āllizän otāppan. (Oldingizdan o‘tyapman.) Dugonajizzän āllim. (Dugonangizdan oldim.)*

Kattaqo‘rg‘on tumani qarluq lahjasida u, bu, shu, o‘sha olmoshlariga qo‘shilib keladigan –dek, -day qo‘shimchalari o‘zgacha ko‘rinishda, ya’ni *undāq, munnāy, ošändāq* tarzda qo‘llanadi. Ko‘rsatish olmoshining unaqangi, bunaqangi kabi variantlari esa *unnoγčigin, munnoγčigin* shaklda aholi nutqida uchraydi.

Hozirgi zamon davom fe’lining –yap varianti *–āp* shaklida uchraydi: *bārāppan, kelāpti, ajtāpti* kabi.

U, bu, shu, o‘sha ravishlariga yoq, yer, tomon so‘zlarini qo‘shish bilan shakllangan yasama ravishlar shevada *ošäqqä, šeqqä, äqqä, beqqä* ko‘rinishlarda uchraydi.

Ushbu shevada payt ravishlariga mansub so‘ng, keyin ma’nosida *soγun, soγunbät, sānibät, äkunbät* tarzida qo‘llanilishini aniqladik.

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani qarluq lahjasi bo‘yicha olib borgan ushbu kuzatuvlarimiz mazkur hudud shevalarining o‘ziga xosligini namoyish qilishi bilan birga, shevaning boshqa qarluq lahjalari, xususan, Qashqadaryo, Buxoro, Toshkent, Navoiy shevalari bilan umumiylikka egaligi, ularning qadimda, o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida bir manbaga aloqador bo‘lganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Samarqand-Buxoro-Xo‘jand gruppa shevalarining turkiy zaminini ham qarluq-chigil-uyg‘ur til birligi tashkil etadi, lekin bu shevalarning tarkibiy qismida tojik tili qatlamining minimal ustunligi va ikki tillilik saqlangan. Shu sababli mazkur shevalar bilingvizm protsessini, prinsipial bir-biridan farqlanadigan til sistemalarining o‘zaro ta’sir prossesini o‘rganish nuqtayi nazaridan juda qiziqarlidir [5, 101, 102].

Adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kattaqo%CA%BBrg%CA%BBon_tumani
2. Решетов В. В. Ўзбек тилининг қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1960. – №5. – Б. 34-47.
3. Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. (Фонетика, морфология, лексика). – Тошкент, 1962. – 360 б.
4. Турсунов У. Самарқанд область ўзбек халқ шевалари таснифининг материаллари // Филология масалалари тўплами. – Самарқанд, 1960.
5. Турдибеков М. Ўзбек диалектологияси // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2024.

SHARQIY SURXONDARYO DIALEKTAL LEKSIKASIGA OID UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARI NOMLARI SEMANTIKASI

Sayyora Eshonqulovna SAIDOVA,
Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sharqiy Surxondaryo xududiga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari semantikasi tahlil qilingan. Kundalik turmushda keng qo‘llaniladigan bunday nomlar fonetik, morfologik va leksik izoglossa sifatida izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *dialektal leksika, izoglossa, fonetik izoglossa, morfologik izoglossa, leksik izoglossa.*

Ma’lum bir tilda eng ko‘p va faol qo‘llaniluvchi so‘zlar guruhi uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi leksemalardir. O‘zbek tilida uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi bir qancha so‘zlar o‘zga tillardan, xususan, fors-tojik, rus va arab tillaridan o‘zlashgan. Surxondaryo viloyatining Denov, Uzun, Sariosiyo kabi shimoliy qismlarida yashovchi xalqlar fors-tojik va o‘zbek tillaridan keng foydalanganlari bois, kundalik turmushda ro‘zg‘or tutushda ishlatiladigan ashyolar, uy qismlari, turli xil oshxona buyumlari aynan shu ikki tilga oid so‘zlardan tashkil topgan. Tojik tiliga oid bo‘lgan so‘zlar hududda yashovchi o‘zbeklar tomonidan deyarli qiyinchiliksiz tushuniladi. Chunki Surxondaryoning aynan shimoliy qismi tojiklar eng ko‘p istiqomat qiladigan hududlari hisoblanadi. Bu yerda yasnaydigan o‘zbek aholi etnik jihatdan tojiklar bilan aralashib ketganligi uchun istemolda keng qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or tutish bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni oson tushunadilar. Biz mazkur guruhga kiruvchi leksemalarni areal farqlashda *fonetik izoglossa, morfologik izoglossa va leksik izoglossa*, ya’ni *izofon, izomorf va izoleks* tarzida xaritalashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

XIX asrgacha olib borilgan lingvistik tadqiqotlarda tillarda mavjud bo‘ladigan xususiyatlar muayyan tilning o‘zigagina xos bo‘ladi deb hisoblangan. Dialektlarni o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ma’lum bir sheva o‘zigagina xos xususiyatlardan iborat bo‘ladi deb hisoblangan.

XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmiga kelib, lingvistik tadqiqotlar yana ham taraqqiy topa boshladigan davrda bu boradagi ilmiy qarashlar yanada aniqlik kasb eta boshladi. Buning natijasida muayyan bir tilda yoki shevada mavjud bo‘ladigan lingvistik xususiyatlar va hodisalar faqat o‘sha til yoki shevaga tegishli bo‘lib qolmasligi aniqlangan. Jumladan, unga yaqin bo‘lgan areallarda, albatta, shunday til faktlari mavjud bo‘lishi ilmiy dalillar bilan isbotlab berildi. Bunday lingvistik faktlar real ijtimoiy-siyosiy geografik xaritalarga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. Ana shunday lingvistik

xususiyatlarning umumlashgan areallarni *izoglossa* atamasi bilan yuritish qabul qilingan. Har xil sheva va lahjalardagi uchraydigan bir xil til hodisalari *izoglossa* sifatida xaritalashtiriladi. *Izoglossa* termini birinchi bo‘lib XIX asr o‘rtalarida latish tili bo‘yicha izlanishlar olib borgan Avgust Bilenshteyn tomonidan tilshunoslik sohasiga olib kirilgan.Undan keyin italyan lingvisti Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari mazkur atamaning keng yoyilishiga sabab bo‘lgan. Mazkur termini grek tilidan olingan bo‘lib, *«isoglosse» isos-»tekislik, maydon» va glosse-»nutq, til»* ma’nolaridagi so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan. O‘zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq Y.D.Polivanov ko‘rsatib o‘tgan edi. Mazkur atama o‘zbek tilshunosligida ham areal (geografik) xaritada bir xil lingvistik xususiyatlariga ega bo‘lgan hududlarni birlashtiruvchi chiziqni anglatadi.
Yanayam kengroq tavsiflaydiga bo‘lsak, izoglossa ma’lum bir tushunchaning bir hududda turli xil nomlanishidir. Mazkur jihat areal lingvistik xaritalarni tuzishda asosiy masala hisoblanib, areal-individual dialektizmlarni hududlar miqiyosida aniqlash va ularni izoglossa sifatida xaritaga joylashtirish tarzida namoyon bo‘ladi. Bu borada ikki til o‘tish zonalarida hosil bo‘lgan dialektizmlar aynan o‘zbek tiliga xos bo‘lmasdan, hududdagi boshqa bir faol tilga oid bo‘lishi mumkin. Xususan, Denov, Uzun va Sariosiyo hududlarida fors-tojik tilining faolligi ko‘zga tashlanadi va kundalik turmush bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab nomlanishlarda aynan shu tilga oid leksemalar, yoki shu tilga oid fonetik unsurlar yetakchilik qiladi. Quyidagi tahlillarimiz bu fikrimizni asoslaydi.

Fonetik izoglossa, ya’ni tovushlar vositasida farqlangan so ‘zlar hududda juda keng tarqalgan. Misol uchun, binoning tashqaridan xonaga yorug‘lik tushishi, havo kirishiga va tashqarini kuzatishga imkon beruvchi, ochilib-yopiladigan oynali rom tojik tilida so‘zlashuvchilar nutqida *tireza* tarzida qo‘llanilsa, o‘zbeklarda *deraza* shaklida yuritiladi. Bino, uyning tomini ko‘tarib turuvchi yoki xonalarga ajratuvchi tik qismi tojiklarda *devol* shaklida, o‘zbeklarda esa *devor* tarzida qo‘llaniladi. Xuddi shu kabi, fonetik izoglossalarga yana bir qancha misollar keltirishimiz mumkin:

Sanduq – Sandiq – ichida uy anjomlari, kiyim-kechak, zeb-ziynat buyumlari va boshqa ashyolar saqlanadigan ro‘zg‘or buyumi. Asosan, yog‘ochdan, shuningdek, temir va boshqalardan ham tayyorlanadi. Shakli to‘rtburchak, usti qopqoqli bo‘lib, *zulfin (zulfak)* hamda ushlab ko‘tarish uchun ikki yoniga *halqa* o‘rnatiladi. Yerdan ko‘tarilib turishi uchun osti (to‘rt burchagi)ga *poya* qoqiladi. *Qo‘chqorak, shash, nayzali, bodomcha* va boshqa naqsh turlari aynan sandiqlar uchun moslangandir. Sandiqning tarkibiy qismlari hisoblangan *zulfin (zulfak), halqa va poyalar* tojik tiliga xos so‘zlar bo‘lsa-da, Sharqiy Surxondaryo hududida yashovchi o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun ham birday tushunarli.

Oina – oyna, ko‘zgu. Barchamizga ma’lumki, yorug‘likni tekis qaytaruvchi yupqa (alyuminiy, kumush va boshqalar) qatlam bilan qoplangan silliq sirtli shisha yoki metall jism oyna deyiladi. Uy-ro ‘zg ‘orda foydalaniladigan barcha turdagi oynalar, xususan, katta pardoz oynalari, kichik oynalar, shuningdek, deraza oynalari ham oyna leksemasi bilan ifodalanadi. Tojik tilida so‘zlashuvchilar *oina*, o‘zbeklar *oyna* tarzida talaffuz qiladilar. *Ko‘zgu* ham shu so‘zlarga ma’nodosh sifatida qo‘llaniladi.

Devol – devor. Hududda yashovchi tojiklar nutqida faqat bir tovush farqlanishi bilan qo‘llaniladi. Devorlar bajaradigan vazifasi jihatidan ikki xil nomlanadi. Bino va uylarda yuk tushuvchi (tomni ko‘tarib turuvchi) devor – *asosiy* va faqat xonalarni ajratib, to‘sib turuvchi devor – *pardevor deb yuritiladi*. Bu ikki devor shakli Sariosiyo, Uzun va Denov tumanlarda yashovchi o‘zbeklar va tojiklar nutqida ham birday qo‘llaniladi. O‘zbeklar *asosiy devor, pardevor* shaklida qo‘llasa, tojik tilida so‘zlashuvchilar *devori asosi, pardevor* tarzida nomlaydilar. Devor pishitilgan loydan qurilgan bo‘lsa, har ikki tilde so‘zlashuvchilar birday *paxsa devor deb yuritadilar.* Pishiq yoki xom g‘ishtdan bo‘lsa, tojiklar *g‘ishtin devor*, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar *g‘isht devor* tarzida qo‘llaydilar. Toshdan qurilgan bo‘lsa, tojiklar *sangin devor*, o‘zbeklar *tosh devor* deb yuritadilar.

Jevon – javon – Turli anjomlar solib qo‘yiladigan mebel turi, shkaf. Asosan idish-tovoqlar va ko‘rgazmali buyumlar tahlanadi. Sharqiy Surxondaryoning ko‘pgina hududlarida bu leksema faol. Kitob tahlanadigan jihoz shu hududlarda yashaydigan tojiklar nutqida *jevoni kitob,* o‘zbeklarda *kitob javoni* tarzida qo‘llaniladi.

Ko‘rinib turibdiki, Sharqiy Surxondaryoda yashovchi tojik va o‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholining nutqida fonetik jihatdangina farqlanuvchi so‘zlar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu xususiyat tahlil qilinayotgan ikki til vakillarining bir-biri bilan yaqin aloqada ekanligi, moddiy va mayishiy turmushda talaffuzi yaqin leksemalardan foydalanishini ko‘rsatadi. Bundan tashqri Sharqiy Surxondaryo hududida yashovchilar tojiklar va o‘zbeklar nutqida morfologik va leksik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi dialektizmlar ham mavjud bo‘lib, izaglossa sifatida areal xaritada turli-tumanlikni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar

1. Baynazarov Z. Koshg‘ariyshunoslik kursidan ilk qo‘llanma. «Devonu lug‘ati-t-turk»da ifodalangan XI asr turk dunyosining lisoniy manzarasi. – Samarqand: 2023.

2. Радченко О.А., Закуткина Н.А. Диалектная картина мира как идиоэтнический феномен. Вопросы языкознания. 2004 г. №6.

3. Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023.

4. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Denov_tumani
6. Turdialiyev A.X. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Toshkent, 2024.

NAMANGAN VILOYATI QIPCHOQ SHEVALARI LEKSIKASIDAGI SINONIMLAR

Xanifa Xayitmirzayevna MAMATISMOILOVA,
Namangan davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi tadqiqotchisi

Maqolada Namangan qipchoq shevalari lug‘at fondidagi sinonimlik hodisasiga oid kuzatishlar natijasida to‘plangan so‘zlarga munosabatlar ifoda etilgan. Dialektal sinonimlarning shevada qo‘llanish ko‘lami haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Dialektal leksika, sinonimiya hodisasi, sinonim so‘zlar, xususiy – ichki sinonimlar, umumiy – tashqi sinonimlar, sheva va adabiy til sinonimligi, shevalararo sinonimlar.*

Namangan viloyati qipchoq shevalarida so‘zlashuvchi aholi juda qadimiy turkiy ko‘chmanchi xalqlardan bo‘lib, ularning tiliga turli turkiy qo‘shni dialektlarning va boshqa areal tillarining ta’siri kuchli bo‘lgan. O‘troqlashish jarayonlarining ilk davridan to oxirgi davriga qadar bunday lisoniy voqeliklar natijasi sifatida ular shakllandi va hozirgi darajada turli areallarda faoliyatdadir. Voqeliklar natijasi sifatida aytish mumkinki, shevalarda ham bir tushuncha – ma’noni bir necha so‘z yordamida, aniqrog‘i, sinonimlar orqali ifodalash yuzaga keldi. Shu bois ham mazkur shevaning dialektal sinonimlari qatoridagi komponent so‘zlar dialektal nuqtayi nazardan turkiy-o‘zbekcha so‘zlar bo‘lsa, ba’zilari kelib chiqishidan qat’i nazar o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibiga mansub so‘zlardir. Bunday leksik birlik bo‘lgan sinonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi xususiy-ichki sinonimlar.
2. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi umumiy-tashqi sinonimlar.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi xususiy-ichki sinonimlar. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi narsa, hodisa, belgi, holat va harakat ma’nolarini ifodalaydigan maishiy so‘zlar o‘zbek adabiy tilida mavjud yoki unga ma’lum bo‘lmagan birdan ortiq dialektal leksik birliklarida ifodalangan sinonimlar ichki sinonimlardir. Ular mazkur shevalarning ichki sinonimlari

hisoblanadi. Barcha o‘zbek shevalaridagidek, tadqiq etilayotgan shevada ham birdan ortiq maishiy ko‘lamda qo‘llanadigan dialektal so‘z bir ma’noni yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan ma’nolarni ifodalaydi, ularni to‘liq sinonimlik hosil qiluvchi leksik sinonimlar qatoriga kiritsak bo‘ladi.

Ma’nosi deyarli bir xil bo‘lgan maishiy leksik sinonimlarning katta qismi bir predmet, hodisa, belgi, harakat, holat haqidagi tushunchalarni ifodalashda qipchoq shevalari tarqalgan areallardagi aholi nutqida turlicha nomlanishi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Ular lisoniy leksik-grammatik motivlarga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga egadir:

1. Ot so‘z turkumi orqali shakllangan maishiy leksik sinonimlar: ***dimlämä//bosmä//siltämä*** (taom nomlari), ***lagän//čarqï//towoq*** (ovqat suzadigan idish)***, etäk//mälla//čäjšab*** (paxta terish uchun maxsus moslangan mato), ***otkälak//salmä//kopirixča//otkäk*** (ariq va zakanlardan o‘tish uchun qilingan moslama), ***sep//sarpä//kijit//mäjlamä*** (qizlarning uzatish uchun yig‘iladigan matolar va boshqa anjomlar), ***dolta//tolta//totra//toppa*** (kuydirilgan sariq yog‘ qoldig‘i), ***sarimāy//sarämāy//sarjaq//tazajaq*** (saryog‘), ***kämzil// nimčä// jeŋsis*** (nimcha, kamzul), ***botalaŋɣ//botänä//layqä//girtaŋ*** (loyqa), ***väräžä//titraq// qaltiraq*** (qaltirash), ***jügurdäk//ičburow//ičketar*** (kasallik), ***azitqï//topbuzär// žijinbuzuqï*** (g‘iybatchi, gap tashuvchi), ***soltämät// baqïbeɣäm//bämajlixatir//tumo*** (beg‘am) kabi.

2. Belgi, harakat ifodalovchi maishiy leksemalardan tashkil topgan sinonimlar: ***žа:// žilla// äzna// joɣasäm// jömäsä*** (juda bo‘lmasa), ***sänžäp// čipoŋɣ// ašinča// tiqïliŋɣ// itqïrin, älamžä:än// čäxsa// čäč*** (ko‘p, mo‘l), ***dolap// araläš// alä*** (aralash-quralash), ***dow// kepät// gurzi*** **(**baquvvat), ***xopitmaq// juzmaq// möjlamaq*** (cho‘milmoq), ***oradi// jörgäxladi// mixtiladi// kundäxladi*** (yo‘rgaklamoq), ***saramžalladi// žijindi// jiɣindi// tutumlädi*** (yig‘ishtirmoq, tozalamoq), ***ašixma// šäš//howlixma*** (shoshilma), ***setalä//käkalä*** (makkajo‘xori donlarini so‘tasidan ajratish), ***büjüqdaqaɣan// büjüquryan// gïzillagän*** (o‘ta sovqatgan), ***jelmaŋnägän // kepčik*** (ochofat),***čemlämaq//čenämaq*** (o‘lchamoq) kabi.

Sheva arealida sinonimik qatorni tashkil etuvchi maishiy ko‘lamdagi so‘zlardan qaysi biri faol qo‘llansa, o‘sha so‘z asosiy lug‘aviy birlik hisoblanadi. Masalan: **sodda**ning sinonimlari ***lahmä, äŋqow, lapäki, merow, jinni, ösow, uwidiq, pälpis*** so‘zlarining salbiy tomoni kuchliroq bo‘lsa, **sodda** belgisining qo‘llanilish doirasi kengroq hisoblanadi.

Yoki ***ā:rriq, qïltiriq, mixti, tirriq, nimžan, irvätin*** sinonimik qatorida o‘zbek adabiy tilida ***oriq*** so‘zi bosh so‘zdir. Chunki u kishilarga ham, hayvonlarga nisbatan ham qo‘llana oladi. Namangan qipchoq shevalarida ***qïltiriq*** so‘zi bosh so‘z bo‘lib hisoblanadi, chunki uning ishlatilish doirasi kengroq.

Eskï//älmisaq **–** tadqiq etilayotgan shevalarda ***älmisaq*** dialektal leksemasi hududiy jihatdan yaxlit tarqalish xususiyatiga ega emas. ***Ke:ti, ärqäsi*** **–** har ikkalasi ham deyarlik teng qo‘llanadi. ***oqoj, ɣiläj, qïlij*** sinonimlarining ***ɣiläj*** shakli ko‘p qo‘llaniladi. ***Kommaq, qojmaq, däpn etmaq, ǯäjiga qojmaq, jergä qojmaq, qojip qäytmaq***– yetakchi sinonim **ko‘mmoq**dir. Boshqalari shu so‘zning sinonimlari bo‘lish bilan birga har birining o‘ziga xos ottenkasi mavjud.

Läpäšäŋ, sansiz, lättä, pandāvāqï//pändäväqï, bošäŋ, šalpajɣan//šälpäjgän, lällajgan, pälpis, pijpiq, uwidiq. Bu sinonimik qatorda qipchoq shevalarida **šälpäjgän, bošäŋ** so‘zlari yetakchi sinonim hisoblanadi. Boshqalari shu so‘zlarning qo‘shimcha sinonimlaridir.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi umumiy – tashqi sinonimlar. Tashqi sinonimlarga shevadagi dialektal so‘z bilan adabiy tildagi so‘z yoki dialektal so‘z bilan adabiy tilda bo‘lmagan, o‘zbek tilining boshqa dialektidan kirgan so‘zning bir xil ma’noda kelishini kiritdik. Bunday sinonimlar qatoridagi so‘zlarni manba jihatidan quyidagi ikki guruhga ajratdik:

1. Namangan viloyati qipchoq shevalari va adabiy tildagi so‘zlar sinonimligi.

2. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi shevalararo sinonimlar.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi va adabiy tildagi so‘zlar sinonimligi.

Adabiy tildagi leksik birlik mazkur shevalardan birortasida ishlatilib, ularning barchasida ishlatiladigan dialektal so‘z bilan sinonimik qator tashkil etadi. Masalan: adabiy tildagi **yalpiz** so‘zi mazkur shevadagi ***hulva//hulvä*** va **chumoli** so‘zi ***moriɣča//čumoli//qumusqä*** ma’nolariga teng. Chunki adabiy til birliklaridan **yalpiz** va **chumoli** so‘zlari Namangan viloyati qipchoq shevalarida adabiy tildagidek ishlatilgani uchun **yalpiz** bilan ***hulva//hulvä,*** **chumoli** bilan ***moriɣča//čumoli//qumusqä*** sinonim hisoblanadi.

Adabiy sinonimik qator shevalarda ishlatiladigan so‘zlar bilan yanada ortadi. Masalan: adabiy tildagi **bemalol, xotirjam** so‘zlari mazkur areal qipchoq shevalarida ***tinɣilixli, bämajlixatir, howlixmastän*** so‘zlari bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Yoki adabiy tildagi **tezda, darrov, shoshilinch** so‘zlari shevadagi ***qïstalaŋ, qoqqïs*** kabi so‘zlar bilan sinonimik qatorni tashkil etib, birga qo‘llaniladi.

Dialektal so‘zlardan iborat sinonimlarning komponentlari ham o‘zbek adabiy tilining leksik sistemasiga mansub bo‘lgan maishiy so‘z bilan o‘zaro qisman farqlanuvchi ma’no ottenkalariga ega bo‘ladi: **kop,** ***ašinča, čiponɣ, itqïrin, älamǯä:än// čäxsa// čäč*** (mo‘l, ko‘p ma’nosida) leksemalari o‘zaro sinonimik qatorni hosil qiladi. Bularning barchasi ko‘plik ma’nosi atrofida uyushsa-da, xuddi adabiy tilda bo‘lgani kabi ularning nozik farqlari ham mavjud. Bu farq ularni boshqa so‘z bilan biriktirilganda seziladi. Mas.: ***Arixta***

suw čipony axjapti **(***Ariqda suv to‘la//ko‘p oqyapti).* ***Bozordo odom ašinča// älamʒä:än// čäxsa// čäč*** *(Bozorda odam ko‘p)* deyish mumkin bo‘lsa, ***itqïrin*** so‘zini bu o‘rinda mutlaqo qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki ***kop, ašinča, čipony*** leksik birliklari ijobiy emotsional bo‘yo‘qqa ega bo‘lsa, ***itqïrin*** so‘zi salbiy emotsional bo‘yoqqa egaligi sababli yuqoridagi komponentlar o‘rnini bosa olmaydi. Qipchoq areal shevalarida ko‘proq salbiy ma’noda qo‘llanadi. Masalan, ***Tojda it egasini mišix boʒäsini tonimajdi, kegällär itqïrin*** *(To‘yda it egasini mushuk bojasini tanimaydi, mehmonlar (kelgan odamlar) nihoyatda ko‘p)* yoki ***Orixti tägiga ojox wosi bomajdi, šiltaq orik itqïrindi bob jatipti*** *(O‘rik daraxtining ostidan o‘tib bo‘lmaydi, to‘kilgan o‘rik mevalari yer bilan bitta bo‘lib yotibdi)* kabi.

Sinonimik qatorni hosil qilayotgan bosh so‘z (dominant) o‘zbek adabiy tili bilan shevalarda turlicha bo‘ladi. Bosh so‘z sinonimik qatordagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noni aniq ifodalashi shart. Masalan: **chiroyli, go‘zal, xushro‘y, husnli, ko‘hlik, ko‘rkam, zebo, barno, suluv, sohibjamol** so‘zlari tashkil etgan sinonimik qatorda adabiy til uchun **chiroyli, go‘zal** so‘zlari dominant so‘z hisoblansa, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq shevalarida ***suluw,*** Namangan qipchoq shevalarida qiz bolaga nisbatan ***čirajli,*** kattaroq, turmushga chiqqan ayol – juvonga nisbatan ***koxlik*** so‘zi bosh so‘z bo‘lib xizmat qiladi.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi shevalararo sinonimlar. Boshqa sheva areallarida qo‘llaniluvchi dialektlardan o‘tgan so‘zlar bilan ma’nosi o‘xshash bo‘lgan sinonimlar dialektlararo sinonimlardir. Namangan viloyati Respublikamizdagi eng ko‘p shevaga ega areal hisoblanadi. Bu yerda qipchoq sheva vakillari qarluq sheva areallari bilan bir hududda istiqomat qiladilar. Areologik o‘tish va vibratsion (aralashish – tebranish) zonalari viloyatning har bir sheva arealida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Xususan, tuman markazlari va unga yaqin hududlar qarluq lahjasiga mansub bo‘lsa, markazdan uzoqlashgan sari qipchoq lahjalarining o‘rni kuchayib boradi. Aytaylik, To‘raqo‘rg‘on tumanining Namangan shahri, Kosonsoy va Chust tumanlari tomonida joylashgan areallarida qarluqlashish kuchaya borsa, Mingbuloq tumani hududi tomonidagi aholi massivlari qipchoq lahjasi tomon o‘zgarib boradi.

Ma’lum bir shevada mavjud bo‘lgan ko‘plab so‘zlar boshqa shevalarda ham uchraydi. Zero, o‘sha predmet yoki harakatni bildiruvchi so‘z boshqa nom bilan aytilsa ham, ular bir xil ma’noni, tushunchani ifodalaydi va o‘zaro sinonimik qatorni tashkil etadi.

O‘zbek adabiy tilidagi **arqon//arg‘amchi** so‘zi Namangan viloyatidagi qipchoq shevalarida ***arγamči//arqan//bošov//pastrinka*** tarzida qo‘llanadi va bu sinonimlar qipchoq areal shevalaridagi barcha aholi uchun tushunarli hisoblanadi.

Masalan: ***enä, änä, äpä, opo*** – **oyi** (Toshk.) – **buvi** (And.) – ona; **oshxo‘rda, guruchosh, mastava, xo‘rda** – **xorda** (Toshk.) – **mastava** (Farg‘.) – **oshixo‘rda** (Bux.) – mastava; **vaju, qozonkabob, mohora** – o‘ndan oshiq masalliq solinib tayyorlanadigan suyuq issiq ovqat nomi. **Vaju** (Farg‘.) – **mohora** (Toshk.) – ***qozonkabob –*** (Namangan). ***Challadi, charlar, choqiruv, aytkizuv, kuyavchaqirdi*** – marosim nomi (yangi kuyovning qaynotasinikiga birinchi tashrifi) kabi sinonimik qatorlarni tashkil etgan leksik birliklar Namangan viloyati qipchoq sheva areallarida baravar amalda qo‘llaniladi.

Shevalararo sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlardan qaysi biri o‘sha shevada faolroq ishlatilsa, bu so‘z asosiy lug‘aviy birlik hisoblanadi. Masalan, **o‘g‘it** so‘zi bilan sinonimik qatorni hosil qilgan **go‘ng, tezak, qiy** so‘zlaridan **go‘ng** so‘zi Namangan viloyati qipchoq shevalari arealida yetakchi sinonim hisoblanadi. Buxoro, Samarqand, Namangan viloyati qipchoq shevalari qarluq lahjalarida esa **tezak** so‘zi yetakchi sinonim hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday sinonimik munosabatga kirishgan so‘zlar dialektlararo sinonimlar deyiladi.

O‘zbek adabiy tili va uning barcha shevalarida sinonimik qatorni tashkil etayotgan so‘zlar tarkibida fors-tojik va arab tillaridan tarixan o‘zlashgan so‘zlar ham bor. Bunday so‘zlar o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan birga iste’molda bo‘lib, sinonimik qatorni hosil qiladi. Namangan viloyati qipchoq shevalarida ham bunday jarayonning mavjudligi kuzatiladi.

a) fors-tojikcha + o‘zbekcha so‘zlar sinonimiyasi: toj. **– rapida,** o‘zbekcha – ***jeŋča//jeŋiča,*** toj. – **padar,** o‘zbekcha – ***dädä, otä,*** fors-toj. – **chilla,** o‘zbekcha – ***qïrq,*** fors-toj. – **chillaguzaron,** o‘zbekcha – ***qirqičixti, qirq ušatti,*** fors-toj. – **ro‘(yi)kushod –** (Namangan qipchoq sh. ***rokišan//lokišan),*** o‘zbekcha **–** ***juzošti*** **//** ***betošti*** kabi.

b) arabcha + o‘zbekcha so‘zlar sinonimiyasi: ar. **bashara** – ***juz, äpt, turq, bet, kelbät, kepatä***, ar. – **quvvat** // ***qu:at,*** o‘zbekcha **–** ***silla, kuč*** kabi.

O‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek shevalarida bo‘lgani kabi Namangan qipchoq shevalarida ham leksik maishiy sinonimlarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

1. Turg‘un sinonimlar. O‘zbek adabiy tilidagi va shevalardagi juda ko‘p so‘zlar o‘z asl ma’nolarini saqlagan holda sinonim sifatida ishlatiladi. Bunday so‘zlar uyushgan holda sinonimik qatorni tashkil etadi. Turg‘un sinonimlar tub sinonimlarning asl mohiyatini tashkil etadi. Masalan, ***šak-šubhasiz, xoynä-xoy; nišäp, owi-towi, suvčečak, tašma, gulafšan, qïzilkojlak, qïzamiq, issixliq, ešak jemi, torva*** kabi.

2. **O‘zgaruvchan sinonimlar**. Bunday sinonimlar kontekstdan so‘zlashuv nutqiga o‘tgach yana boshqa so‘z bilan sinonimik munosabatiga kirishadi. Masalan: ***ziräk*** so‘zi ***isirγä, sirγä, bäldoγ*** kabi so‘zlar bilan sinonim bo‘lib keladi. **Hälqä** sinonimik qatordagi **qurshov, o‘roq, qo‘rg‘on** so‘zlari

bilan kelganda ular bilan ham sinonimik munosabatga kirishadi. Yoki **kinchaba, kelinbuvi, yanga, kelinoyi, oya//aya** so‘zlari qarindosh-urug‘ ma’nosida bir sinonimik qatorda tursa, ***oya//äya*** so‘zi ayol o‘qituvchi, muallim, ustoz ma’nosida, **domla** so‘zi esa bir sinonomik qatorda erkak o‘qituvchini anglatsa, boshqa sinonimik qatorda, **mulla,** Qur’ondagi oyatlarni o‘qiydigan erkak kishini anglatadi.

O‘zbek adabiy tili hamda o‘zbek shevalardagi lug‘aviy sinonimik qatorlarni tashkil etayotgan har bir so‘zning o‘z vazifasi bor. Ba’zi sinonim so‘zlar ikkinchi bir sinonimik so‘z vazifasini ham bajara oladi, ayrimlari esa bajara olmaydi.

Xullas, har qanday sinonimik qatorni tashkil etuvchi leksik birliklarning lisoniy jihatdan o‘z o‘rni va bajaradigan vazifasi mavjud. Shu sababdan ham sinonimik qatorlar o‘zbek adabiy tilida, uning ichki omili hisoblanmish o‘zbek shevalarida, yozuvchi va shoirlarning asarlarida muayyan bir vazifani ado etish uchun qo‘llanadi.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi maishiy leksik sinonimlar ham o‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, kishilar nutqning ta’sirchanligi va jozibadorligini oshiradigan lisoniy vosita hisoblanadi. Sinonimlar, xoh adabiy tilda, xoh shevalarda bo‘lsin, tilimizning lug‘at tarkibini, uning fondini boyitish va yanada mukammallashtirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробов М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 13.

2. Алиев А.Ю. Наманган диалекти лексикасидан кузатишлар. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1966.

3. Ashurboyev S. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 271 b.

4. Ashurboyev S. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 280 b.

5. Дарвишов И. Ареал лингвистика: Жанубий-гарбий Наманган шеваларининг фонетнк-фонологик хусусиятлари, – Тошкент: Наврўз, 1919. – Б. 147.

6. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.

7. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 158 б.

8. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг ареал тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 220.

9. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 166.

10. Содиқов Т. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1991. – Б. 108-118.
11. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси, 2004. – Б. 5.

SHEVA LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARINING ALLA MATNLARIDA AKS ETISH DARAJASI

Nasırova Kamola Baxromovna
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek xalq alla qo‘shiqlarida sheva leksikasining leksik-semantik guruhlarining aks etish darajasini yoritdik. Ushbu masalani yoritishda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning sheva leksikasi tasnifiga asoslandik.*

Kalit so‘zlar: *ona, alla, qo‘shiq, tadqiq, janr, leksika, moddiy, nomoddiy, guruh, semantik, sheva.*

Ushbu tadqiqodimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek allalarida ham moddiy va nomoddiy tushunchalar va ularning ma’nolarini aks ettirgan, qavm-qarindoshlikka oid, belgi va miqdor bildiruvchi, tabiat hodisalari, hayvonot va nabotot olamini ifodalovchi so‘zlar, oziq-ovqat nomlari, xalq etnografiyasi va kiyim-kechak, taqinchoqlar nomlariga oid, uy ro‘zg‘or buyumlari nomlari, fan-tehnika, tibbiyotga oid, vaqt tushunchali so‘zlar, turli kasblarga oid so‘zlar aks etadi. Ba’zi alla matnlarida yuqoridagi leksik-semantik guruhga oid so‘zlarning bir nachtasi bir matnning ichida uchrasa, ayrim matnlarga e’tibor bersak, leksik-semantik guruhlarga oid so‘zlarning faqatgina bittasini uchratishimiz mumkin.

Sheva leksikasining leksik-semantik guruhlari hususida so‘z yuritar ekanmiz, eng avvalo sheva leksikasining leksik-semantik guruhlari va ularni o‘rgangan olimlar tasnifi bilan qiziqdik.

O‘zbek shevalarini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan rus tadqiqotchisi V.Reshetov dialektal so‘zlarning semantik guruhlarini juda ko‘p ekani haqida so‘z yuritadi va o‘z tadqiqotida dehqonchilikka xos atamalar, chorvachilikka xos atamalar, ov, baliqchilikka xos atamalar, binokorlikka xos atamalar, uy-ro‘zg‘or buyumlarining atamalari kabi turlarini misollar bilan tahlil qilib beradi [13,39].

Shuningdek, filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyev o‘zbek shevalarining leksik-semantik guruhlarini o‘n gurhga bo‘lib ko‘rsatadi [2].

1. Moddiy va nomoddiy tushunchalar va ularning ma’nolari;
2. Qavm- qarindoshlikka oid so‘z;
3. Belgi va miqdor bildiruvchi so‘zlar;
4. Tabiat hodisalari, hayvonot va nabotot olamini ifodalovchi so‘zlar;
5. Oziq-ovqat nomlari;
6. Xalq etnografiyasi va kiyim-kechak, taqinchoqlar nomlariga oid so‘zlar;
7. Uy ro‘zg‘or buyumlari nomlari;
8. Fan-tehnika, tibbiyotga oid so‘zlar;
9. Vaqt tushunchali so‘zlar;
10. Turli kasblarga oid so‘zlar.

Biz taqdidotimiz jarayonida o‘zbek allalarida ham moddiy va nomoddiy tushunchalar va ularning ma’nolarini aks ettirgan, qavm-qarindoshlikka oid, belgi va miqdor bildiruvchi, tabiat hodisalari, hayvonot va nabotot olamini ifodalovchi so‘zlar, oziq-ovqat nomlari, xalq etnografiyasi va kiyim-kechak, taqinchoqlar nomlariga oid, uy ro‘zg‘or buyumlari nomlari, fan-tehnika, tibbiyotga oid, vaqt tushunchali so‘zlar, turli kasblarga oid so‘zlarni alla matnlarida aks etganini ko‘rdik. Ba’zi alla matnlarida yuqoridagi leksik-semantik guruhga oid so‘zlarning bir nachtasi bir matnning ichida uchrasa, ayrim matnlarga e’tibor bersak, leksik-semantik guruhlarga oid so‘zlarning faqatgina bittasini uchratishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning ushbu bobida Toshkent viloyati O‘tra chirchiq tumani qurama shevasiga oid alla matnlarini tahlili bilan qiziqdik.

Alla balam allaliyman,
Katta bo‘ dib erkaliman,
Kelilani tindirmiy,
Talqon qilib charchamiyman.
San katta bo‘sen bo‘ldi,
Yonimda yursen bo‘ldi.
Alla, alla qigino,
Mani hurson qigino.

Keli [keli]-sof dialektizm bo‘lib, Quyi Chirchiq shevasida biror narsani maydalash uchun ishlatiladigan, yog‘och yoki metaldan yasalgan idish. O‘zbek adabiy tilida bu uy-ro‘zg‘or buyumi hovoncha deb atalgan. Kel asosan talqon maydalash uchun ishlatiladi

Aken qo‘shnimizanikiga,
Tevanga chiqib ketti.

Tezro kesa, sani osa,
Avqatim pishib ketti.
Allalalsin akasi, alla balam, alla,
Erkalasin adasi, janim balam, alla[9].

Tevan [Tevän]–tikuvchilikda, ko‘rpa qavish, qalin buyumlarni tikishda ishlatiladigan yo‘g‘on igna bo‘lib, adabiy tilda juvoldiz deb ataladi. Bu sheva vakillarida esa tevan deyiladi.

Kesma go‘ja yediriy,
Qiynalmiy katta qiliy.
Alla etsam uxlab qasen,
Maqtaviyni keltiriy.

Kesma go‘ja [kesmkä göžä]–hamirdan tayyorlanadi ovqat bo‘lib, bu ta’om ayni Toshkent viloyati Qaytmas qishlog‘idagi taomning nomi bo‘lib, Toshkent viloyatining boshqa tumanlarida uchramaydi. Bu taom hamirni yuqa qilib yoyib, maydalab tug‘rab sho‘rvaga solib pishiriladi.

Qaynanamga **takashi**,
Adasiga osh palov,
Mani balam avqatxo‘r,
Kasha so‘rab qo‘ymiydi.
Alla balam, alla.

Takashi [täkäši]-bahorda tok bargidan tayyorlanadigan ovqat nomi bo‘lib, ba’zi hududlarda tok o‘rama deb ham ataladi.

Bo‘birsog‘im, bo‘mbog‘im,
Uxlab katta bo‘l, tog‘im.
Sani o‘ynatib yurgan,
Akalaring ham jonim.
Alla balam, alla,
Akalariga yo‘ldosh bolam alla.

Bo‘birsoq [böbir**sāq]** – sut, tuxum, shakar va undan tayyorlanadigan shirinlik bo‘lib, ona bolasini erkalab bo‘birsoqqa o‘xshatyapti.

Ailammi erkasi,
Avladimmi ertasi.
Uytuqqinam uxlasin,
Shuytibgina uxlasin.
Man alla aytay,
Jo‘jiqqinam uxlasin.

Uytuq [ujtuq] -sutni qatiq qilish uchun unga solinadigan tomizg‘i. Ona bolasini avlodini davomiyligiga xissa qo‘shivchi tomizg‘iga o‘xshatadi.

Kichkinaginam alla,
Shiringinam alla.
Guruchlarim ichida,

Avsaqqinam alla[10].

Avsaq [āvšāq] guruchning maydasi bo‘lib, ona o‘z allasida shu bolasi bolalaridan eng kichigi ekaniga ishora qilmoqda.

Juqma qilay to‘yiga,
Minchaq taqay bo‘yniga.
Shu balammi katta qilib,
Yetqizay muradiga.

Juqma [juqma]-sof leksik dialektal so‘z bo‘lib, hamrni yuqa yoyib, o‘tab pishiriladigan yegulik bo‘lib, Quyi Chirchiqda to‘ylarga shakarli va shakarsizi pishiriladi.

Kiyimlari yarashgan,
Aydan husn talashgan,
Ayag‘ida mitti **bo‘tti**,
Alla qisin shu balam,
Uxlasin jajji balam[11].

Bo‘tti [bötti] – etik. Bu leksema bugungi kunda asosan qariyalar tilida ko‘proq ishlatiladi.

Atasini bashiga,
Selpa balam uxlasin,
Anasini bashiga,
Ramal balam uxlasin,
Alla balam-a, alla,
Uxlagin janim, alla.

Selpa [selpä]-erkaklar bosh kiyimi bo‘lib, ushbu alla matnida ona bolani otasining boshidan joy olgan qadrli, bosh kiyimdek aziz demoqchi.

To‘ylarida o‘ynayin,
Alla balam, alla.
Po‘xcha ko‘rsin qilganda,
Sarpa kiyayin alla.

Po‘xcha ko‘rsin [poxča körsin]-To‘yga yaqin kuyov uyida bo‘ladigan marosim. Kuyov onasi yaqin qarindosh-urug‘lari va qo‘shnilarini mehmonga chaqirib, keliniga qilgan sarpo-surug‘ini ko‘satadi. Po‘xcha ko‘rsinga aytilgan kishlar bitta belboqqa boy chopon, bir kiyimlik va ro‘mol tugib chiqishadi.

Bir qizimga esh bo‘ldin,
Ikki yuzi qirmizim,
Uy qoqdi qilganimda,
Dasyorginam alla[12].

Uy qoqdi- uyni tozalash ya’ni to‘shanchilarni uydagi hamma buyumlarni olib chiqib bir chekadan tozalash.

Sho‘rto‘vaning sho‘rini,
Tatib ko‘rgan barmikan.

Alla balam, alammi,
Chekib ko‘rmagan barmikan.

Sho‘rto‘va// šörtövä – tepaliklari ko‘p bo‘lganligi uchun shu nom bilan atalgan.

Un tortiray juvazda,
Nan yaptiray Tandirga.
Alla balam, katta bo‘sen,
Qo‘y so‘ydiray yaylaqda[13].

Juvaz // ǯuväz – tegirmonni bildiradi. Bugungi kunda Quyi Chirchiq tumanida katta yosh vakillari tomonidan ishlatiladi. Sababi yosh avlod ko‘proq adabiy tilga yaqin gaplashadi.

Qo‘lidan ish kelib qolsa,
Qo‘yqanalar quradi.
Belida belbog‘i bor,
Yigit balam alla.

Qo‘yqana –qo‘ylarni yoz kunlarida soyada saqlash uchun yog ‘ochlarni bir-biriga bog‘lab, ustiga qamish tashlab yasalgan joy.

Biz ushbu maqolamizda Quyi Chirchiq qurama shevasida uchragan dialektizmlardan sof leksik dialektizmlarga oiq misollarni berdik. Bundan tashqari dialektizmning boshqa turlariga xos so‘zlar uchragan matnlarni ham ko‘zdan kechirdik. Tadqiqotimiz va tahlillarimiz o‘laroq shuni ayta olamizki, alla matnlarida onaning qanday ish bilan mashg‘ulligi, oilaning ijtimoiy kelib chiqishi va hayot turmush-tarziga ko‘ra sheva leksikasining leksik-semantik guruhlariga mansub barcha turdagi so‘zlarni uchratish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ahmad Ishayev O‘zbek dialektal leksikografiyasi. Toshkent. –1990.
2. Ashirbayev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. –T.: – 2021.
3.Afzalov Sh. O‘zbek tilining Parkent shevasi. AKD. –T.: 1952-yil
4. В.В. Решетов. Тошкент вилоятининг қурама шеваси фонетика ва морфологияси. –T.: 1952
5. Gulyamov Yo. Toshkent shevasi morfologiyasi. AKD. – Moskva
6. Ишаев А. Ўзбек лексикографияси. –T.: 1989.
7. Mirzayev T., Eshonqul J., Fidokor S. “Alpomish” dostoning izohli lug‘ati. –Toshkent: Elmus-Press-media, 2007.
8. Тохир Содиқов. Тошкент вилояти шевалари лексикаси. Автореферат кон. дис. –T.: 1968
9. Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida yashovchi To’rayeva Tursun aya. 60 yosh
10. Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida yashovchi Shorahimova Gulandom aya. 65 yosh

11. Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida yashovchi Shorahimova Gulyuz aya. 58 yosh

12. Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida yashovchi Nizomova Nozima aya. 71 yosh

13. Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida yashovchi Malikova Mastura aya. 67 yosh.

14. Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент вилояти узбек шевалари. –1976

15. Эназаров Т. Ўзбек шевашунослигининг долзарб масалалари // Тил ва адабиёт таълими. 2017 йил 6-сони.

16. Эназаров Т. Диалектал фразеологизмлар луғати хусусида. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. – 2016. №16.

JANUBI-G‘ARBIY NAMANGAN VILOYATI AREALIDAGI QARLUQ LAHJASI VA ARALASH SHEVALAR (Mingbuloq tumani sheva areali misolida)

Mahliyo Rustamali qizi DARVISHALIYEVA,
Namangan davlat universiteti magistrant talabasi

Maqolada janubi-g‘arbiy Namangan viloyati lahjalari tarkibiga kiruvchi Mingbuloq shevalari arealining qarluq va aralash sheva guruhlarining o‘ziga xos lisony xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Lahja, dialekt, sheva areallari, lingvotoksonomiya, lingvogeografiya, sheva, qarluq lahjasi, aralash tip sheva.*

Har qanday sheva areallaridagi lisoniy birliklar areal tilshunoslik nazariy asoslari nuqtayi nazaridan, hech istisnosiz, taqqoslanayotgan voqelikning bir-biriga munosabati orqali aniqroq ko‘rinadi. Shuning uchun sheva xususiyatini o‘zida aks ettirgan har qanday sheva voqeligi lisoniy-geografik hududlar tili – shevasining ashyosi bo‘lishi uchun aniq imkoniyatiga ega [7.13].

Mingbuloq tumanida qarluq lahjali areallar ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Asosan, migratsion jarayonlar natijasida sanoatlashgan, aholisi zich bo‘lgan Farg‘ona vodiysi shaharlaridan ko‘chirib keltirilgan aholi vakillarining bugungi avlodlari istiqomat qiluvchi areallardir. Ularga tuman hududidagi Jomashuy shaharchasining markazida joylashgan Mustaqillik va Birlashgan mahalla fuqarolari yig‘inlari, Gulbog‘ aholi massivi hududidagi Yoshlik, Yangi Gulbog‘, Tollik mahalla fuqarolari hamda Oltinko‘l massivi hududidagi Uychi qishlog‘i (Madyorovul mahalla fuqarolari yig‘ini tarkibida bo‘lib, mahallaning shimoli-g‘arbiy qismi) kiritildi. Mazkur areal aholisining aksariyati qarluq lahjasida o‘zaro aloqa qiladilar.

Buning asosiy sababi Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarining qarluq lahjali aholi vakillarining sobiq sho‘rolar davrida, aniqrog‘i XX asrning 50-60-yillarida Farg‘ona vodiysidagi aholisi zich hududlardan cho‘llarni o‘zlashtirish, paxta, sholi va boshqa turli xil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mana shu cho‘l hududlariga zonalariga ko‘chirib keltirilganligidir. Shu sababli mazkur areallarda qarluq lahjali zonalar vujudga kelgan.

Jomashuy shaharchasining markazida joylashgan Mustaqillik va Birlashgan mahalla fuqarolari yig‘inlari aholisining aksariyat qismini Farg‘ona, Qo‘qon, Andijon shaharlaridan va mazkur shaharlar atrof hududlardan ko‘chirib keltirilgan aholi vakillarining avlodlari istiqomat qiladilar. Bugungi kunga kelib, bu areal aholisi shevasining xususiyatlarida kam sonli qipchoq shevasi vakillarining birgalikda hayot kechirishlari natijasida muloqot tili aralash shevalar tomonga hamda adabiy tilga yaqinlashish holatlarini kuzatish mumkin.

Gulbog‘ aholi massivi hududidagi Yoshlik, Yangi Gulbog‘, Tollik mahalla fuqarolari yig‘inlari aholisining asosiy tarkibini Qo‘qon, Pop va Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on, Chust va unga yaqin hududlardan ko‘chib kelgan qarluq lahjasi vakillarining avlodlari tashkil etadi. Bugunga kelib mazkur hududda ham ulardan avvalroq ko‘chib kelgan qipchoq lahjasi vakillari bilan ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy aralashuvlar natijasida adabiy tilga yaqinlashish hamda qipchoq va qarluq shevalarining aralash holda qo‘llanish jarayonlari sodir bo‘lmoqda.

Gulbog‘ areali sho‘rolar davrida cho‘l hududida barpo etilgan, viloyatda yetishtiriladigan paxta xom ashyosining deyarli uchdan bir qismini (52 ming tonna) yetkazib beradigan tumanining yirik iqtisodiy sanoat zonasi hisoblangan. Markaziy Farg‘ona cho‘llari (Qoraqalpoq cho‘llari)ni o‘zlashtirish va Gulbog‘ sovxozini tashkil etish bo‘yicha sobiq sho‘rolar hukumatining 1991-yildagi loyihasi e’lon qilingan. Natijada Gulbog‘ posyolkasida yirik paxta zavodi ishga tushirilgan. Bu zavodga ishlash uchun keltirilgan ishchilarning yashash sharoitlarini ta’minlash uchun yangi turar joylar hamda mahallalar, rus tilli maktablar tashkil qilingan. Arealning asosiy tub aholisi turli millat vakillari bo‘lib (1986-yilga qadar hududda 80 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan), ularning aksariyati ishchilar bo‘lgan. Bugunga kelib hudud aholisi o‘z shevasida qarluq lahjasi element-unsurlarini saqlab keladi. Mazkur arealda ham hududga yaqin joylashgan qishloqlar qipchoq shevasi vakillari bilan o‘zaro ijtimoiy-madaniy aloqalar ta’sirida areal shevasida o‘ziga xos o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Sheva vakillarining nutqiy muloqot jarayonlarida – qipchoq shevalarining qarluqlashuvi va qarluqlarning qipchoqlashuvi kuzatiladi.

Guliston massividagi Boʻston hamda Oltinkoʻl massivi hududidagi Uychi qishlogʻi (Madyorovul mahalla fuqarolari yigʻini tarkibida boʻlib, mahallaning shimoli-gʻarbiy qismi) shevasi XX asrning 60-70-yillarida sof qarluq lahjasi boʻlgan. Choʻl oʻrnida aholi manzillarini barpo qilish iqtisodiy va siyosiy harakatlar hamda rejalar asosida mazkur hududga hozirgi Uychi, Chortoq, Yangiqoʻrgʻon va Namangan shahridan aholi koʻchirib keltirilgan. Shuning uchun ham choʻl oʻrnida yangi barpo etilgan aholi manziliga Uychi nomi berilgan, hamda mazkur aholi vakillari dehqonchilik faoliyatini yuritishlari uchun «Uychi jamoa xoʻjaligi» tashkil etiladi. Qishloq nomi bugunga kelib rasmiy hujjatlarda Uychi nomi bilan qayd etilmasada, sheva vakillari nutqida bu sheva areali bugungi kungacha ham Uychi nomi bilan saqlanib keladi. Avlodlari qarluq lahjasi vakillari boʻlgan ayni davrdagi qishloq aholisi oʻzlarini mingbuloqlik, uychilik deb biladilar. Mazkur sheva arealida ham qarluq shevalari element-unsurlari bilan birga aralash holda qipchoq shevalari unsur elementlarining qorishib ketganligini kuzatish mumkin.

Shevalar tasnifida oraliq-aralash shevalarning ikki turi: ichki va tashqi oraliq-aralash shevalar kabi atamalar qoʻllanadi [1.70;6.47]. Ichki oraliq-aralash shevalar bu birgina tilga tegishli ikki xil lahjaning oʻzaro bir-biriga ta’siri natijasida yuzaga kelgan aralash shevalar hisoblanadi. Tashqi oraliq-aralash shevalar ikki noqardosh tilga mansub shevalarning oʻzaro ta’siri tufayli yuzaga kelgan aralash shevalardir. Tashqi oraliq-aralash shevalarda ikki oʻzaro aloqadagi tilning umumiy xususiyatlariga xos omillar ozmi, koʻpmi saqlanib qolaveradi [8.17].

Mingbuloq dialektal arealida ikki xil lahjaning oʻzaro bir-biriga ta’siri natijasida yuzaga kelgan ichki hamda ikkitillilik xususiyatiga ega boʻlgan tashqi oraliq-aralash sheva zonalari mavjud. Shuning uchun ham Mingbuloq shevalaridagi oraliq-aralash shevalar guruhini ichki va tashqi oraliq-aralash shevalar shoxobchalariga ajratish mumkin:

1. Mingbuloq dialektal areali ichki oraliq-aralash shevalar shahobchasi oʻzbek tili lahjalarining bir-biriga ta’siri natijasida vujudga kelgan xususiyatlariga koʻra yana ikki ichki guruhga boʻlinadi.

a) qarluq-chigil-uygʻur lahjasining qipchoq lahjasiga ta’siri natijasida yuzaga kelgan ichki oraliq-aralash shevalar:

Tarixan bu shevalar oʻzbek tilining qipchoq lahjasiga mansub. Lekin bu shevalardagi bir qator xususiyatlar va uning hozirgi holatidagi ayrim belgilar qipchoq shevasidan qarluq shevasiga tomon siljish jarayonining tezlashyotganini koʻrsatadi. Bundan tashqari, *Qorayontoq, Oʻzgarish, Baland Gurtepa, Gurtepa, Oʻrtaqishloq, Etak, Mulkobod, Uzuntepa, Yangi shahar, Dehqonobod, Mehnatobod, Qora shahar, Alami, Qoraqalpoq, Yakkatol, Qoʻgʻolikoʻl, Tegirmon, Mehnatobod* shevalarida ham shu jarayon kuzatiladi. Masalan, qipchoq shevalarining leksik strukturasidagi [*nümāŋā*] emas,

[*nimägä*], [*bölänchäk*] > [*belänchäk*], [^{i}*ekki // ekki*] > [*ikki*], [*dömbālā//yümālā*] > [*dümälä//jümälä*] kabi ko‘plab birliklarning keng qo‘llana boshlagani qarluq shevalari tomonga siljish tezlashayotganini ko‘rsatadi. Albatta, bunday jarayonlar qipchoq shevalari fonetik-fonologik strukturasida o‘zgarishlar sodir etadi va etmoqda.

b) qipchoq lahjasining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga ta’siri natijasida yuzaga kelgan ichki oraliq-aralash sheva:

Mingbuloq sheva arealidagi *Jomashuy, Eski Gulbog‘, Yangi Gulbog‘, Gulbog‘, Tollik, Yoshlik, Uychi, Bo‘ston, Guliston* qishloq shevalari tarixan o‘zbek tilining qarluq lahjasiga mansub bo‘lsa-da, bugunga kelib, bu shevalarda ko‘plab qipchoq sheva belgilarining singib ketganini kuzatish mumkin. Masalan, [*etäk*] emas, [*mällä*], [*sïgïr*] > [*sijïr*], [*böγčä*]> [*tüjün*], [*tāmārqä*]> [*tāmdïketï*], [*mölžäl*]> [*möžžäl*], [*gürgüt*] emas [*güvirt*] kabi.

2. O‘zbek tili Namangan viloyati Mingbuloq dialektal areali tashqi oraliq-aralash guruhiga Mazzang-Damko‘l shevasini kiritish mumkin. Bu sheva vakillari tarixan forsiyzabon bo‘lib, bugungi kunda ikkitilli sheva vakillaridir [9.24]. Mazkur tashqi oraliq-aralash guruhi shevalari vakillari nutqida qipchoq va qarluq lahjasi belgilari, shuningdek, fors-tojik tili elementlarini kuzatish mumkin.

Tashqi oraliq-aralash guruhi shevalarining asosiy xususiyatlari shundaki, qipchoq lahjali zonada joylashgan Mazzang-Damko‘l shevasi o‘ziga qipchoq lahjasi belgilarini mujassamlashtirgan.

O‘zbek tili shevalariga xos ko‘pgina lisoniy hodisalar fors-tojik tili xususiyatlari bilan bir qatorda amal qiladi, ba’zan o‘zbek tili belgilarining mavqei ortib ketadi.

Mingbuloq dialektal areali shevalarini guruhlashda ichki oraliq-aralash shevalarning lahjaviy belgilariga ko‘ra quyidagi shoxobchalarga ajratish mumkin:

1. Namangan shahar tip sheva shoxobchasi: Jomashuy, Uychi, Guliston, Bo‘ston shevalari.

2. Farg‘ona tip sheva shoxobchasi: Gulbog‘, Eski Gulbog‘, Yangi Gulbog‘, Tollik, Yoshlik qishloqlari shevasi.

3. «Y» lovchi va «j» lovchi qipchoq oraliq-aralash shevalar shoxobchalari ko‘pchilikni tashkil etadi: *Alami, Frunze, Yakkatol, Qo‘g‘oliko‘l, Tegirmon, Beshserka, Qozoqovul, Qizilqum, Shvernik, Avangard, Mehnatobod, Uyurchi-Damko‘l, Baynalminal Axunbobo, Eshoncheki, Momoxon, Qirqchek, Kichik Jomashuy, Qolgandaryo, Nayman Chordona, Dovduq, Terak, Ingichka* qishloqlari shevasi.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘zbek tili qipchoq lahjasiga mansub shevalar qarluq-chigil-uyg‘ur lahjalari ta’sirida ayrim qipchoqlik xususiyatini yo‘qotib

bormoqda. Ularning o‘rniga qarluq lahjasiga xos lisoniy belgi-xususiyatlar o‘zlashmoqda.

Namangan shahar tip qorluq shevalari ta’sirida oraliq-aralash shevalarda: a) *ā(o)*lashish xususiyatiga ega: *ākä* – aka, *tārāðï* - tarozi, *Nāmāngān* – Namangan, *ālvālï* – gilos (rus tilida *vishnya*); b) ko‘pgina o‘zbek shevalaridagidek yondosh undoshning tushishi natijasida: [*šä:r*] *shahar*, [*ma:ta:*] maktab, [*sāmā:*] somon, [*āmā:*] omon, [*tāvā:*] tovoq hamda ikki unlining tortilishi (torayishi) natijasida: [*sā:dat*] saodat, [*sā:at*] soat, [sovuq] *sö:q* kabi so‘z ma’nolarini farqlamaydigan ikkinchi darajali (ikkilamchi) cho‘ziqlikka ega bo‘lib borishlik; d) Namangan shahar tip shevalari fonetik tizimiga xos alohida belgi – emfatik cho‘ziqlikning areal kengayishi: *mäm bïlmä:ːmän* – men bilmayman, *sän bïlmä:ːsän* – sen bilmaysan, *u bïlmä:ːdï* – u bilmaydi; *bïz bïlmä:ːmïz* – biz bilmaymiz, *sïz bïlmä:ːsïz* - siz bilmaysiz, *ulä bïlmä:ːdï* - ular bilmaydi kabi.

O‘zbek dialektologlari V.V.Reshetov hamda Sh.Shoabdurahmonovlar Namangan shahar tip shevalardagi bu jarayonni faqat nutq ohangi bilan bog‘liq bo‘lgan fonetik ultra cho‘ziqlik yoki emfatik cho‘ziqlik, fonematik bo‘lmagan mutlaqo boshqa hodisa ekanligini uqtirib, fonetik ultra cho‘ziqlik o‘zbek shevalarining har birida turlicha ko‘rinishga ega bo‘lishini, Namangan shevasi esa bu jihatdan juda xarakterli ekanini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bu cho‘ziqlik shevada hozirgi-kelasi zamon fe’l shakllarida muntazam ravishda vujudga keladi, asosan, nutq ohangi bilan bog‘liq holda sodir bo‘lib, sheva uchun ommaviy xarakterdagi alohida rang-barang intanatsion xususiyat kasb etadi [14.112;15.216].

Arealning aralash shevali aholi nutqi unlilar tizimida uyg‘ur tiliga xos xususiyatlardan lab garmoniyasining faqat keng unlilaridagina emas, balki tor unlilarida ham kuzatilishi haqidagi fikrlar mavjud [4.4;5.12;15.76]. Adabiy tildagi *i* – old qator, yuqori ko‘tarilish, lablanmagan va *u* – orqa qator, yuqori ko‘tarilish, lablangan unlilar o‘rnida ularning kombinator varianti: *ü* – old qator, o‘rta ko‘tarilish, o‘ta lablangan unli doim o‘ta faol qo‘llanadi: [*čümčü:*] chumchuq, [*müküčä*] musicha, [*börgi:*] borgin, [*ütürü:nä:*] o‘tiringlar, [*kütütü:*] kutyabmiz, [*qāčütü:*] qochyapti kabi.

Mingbuloq shevalari areali oraliq-aralash shevalarida ham umlaut jarayonlari kuzatiladi: [*böšïm*] boshim, [*qölüm*] qo‘lim, [*šölï//šälï*] sholi, [*älïp//ölïp*] olib, [*söčïm//čöčïm*] sochim kabi.

Farg‘ona tip aralash-oraliq shevalari va uning ayrim fonetik-fonologik va morfologik belgilarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: a) unlilar sistemasi 6 fonemadan iborat. Ularda Marg‘ilon, Farg‘ona, Toshkent shevalariga xos unsurlar uchraydi: Fonemalarning kombinator variantlari mazkur shevalardagidek talaffuz qilinadi: [*čäqälāq//büväk// čïčïj//ǯïǯïj*] chaqaloq//go‘dak, [*döičä//γörä*] dovuchcha kabi; b) ikki bo‘g‘inli so‘zlarning

yopiq boʻgʻini tarkibidagi adabiy [o]//[ā] unlisi [a]//[ä] tarzida talaffuz qilinadi: [*čāpän*] chopon, [*āmän*] omon, [*sāmän*] somon, [*jāmän*] yomon, [*qāðän*] qozon, [*sāqäl*] soqol, [*pāxäl*] poxol, [*sāqäv//sāqāp*] soqov, [*gādäj*] gadoy, [*ārðän*] arzon, [*gāräv//gāräp*] garov kabi.

3. «Y»lovchi va «j»lovchi qipchoq oraliq-aralash shevalar shoxobchasiga mansub shevalarining muhim fonetik-fonologik belgilari:

a) unli fonemalarning miqdoriy va sifat belgilari oʻzbek tilining boshqa qipchoq shevalaridan deyarli farqlanmaydi; b) oʻzak – asosda ham singarmonizm qonuniyati amal qiladi: [*sāmsā*] somsa, [*bālā*] bola, [*māntï*] manti kabi; oʻzakdagi unlilarning qattiq yumshoqligiga qarab, qoʻshimchalardagi unlilar ham uygʻunlashadi: [*bāllār*] bolalar, [*ātāmdï*] otamning//otamni; [*qāγān*] qolgan, [*bārγān*] borgan, [*ičkän*] ichgan, [*bārdïlār*] bordilar, [*äkäsi*] akasi kabi; d) soʻz boshi va oʻrtada kelgan e, ö (adabiy orfografik oʻ) kabi unlilar diftonglashadi: [^{i}*jenä*] ona, [^{i}*jetïm*] yetim, [^{w}*öt*] omonim: oʻt, oʻtmoq fe'lidan tashqari, [^{w}*ötïn*] oʻtin, [*he*^{w}*ölä*] oʻla qol kabi.

Areal qarluq tip shevalarda va adabiy tilda umumturkiy a unlisi ä<a>o tipida divergensiyaga [2.133] uchraganligi ma'lum. M.M.Mirtojiyev divergensiyani quyidagicha izohlaydi: «...ma'lum tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida birdan ortiq tovushga differensiatsiyasi, ya'ni ma'lum tovush hisobida tilda yangi bir tovush hosil boʻlishi divergensiyadir». Olimning ta'kidlashicha, oʻzbek tili tarixida va hozirgi ayrim oʻzbek shevalarida til orqa artikulyatsiya oʻrniga oid keng a unlisi boʻlgan. Uning taraqqiyoti u bilan kontakt pozitsiyadagi chuqur til orqa undoshlari va v undoshiga bogʻliq holda yuzaga keladi.

Areal oraliq shevalarida ham divergensiya va konvergensiya faqat kombinator holatda sodir boʻladi» [10.273]. Mingbuloq dialektal areali barcha qipchoq shevalari shoxobchalarida umumturkiy a: [*äjäq*], [*äziq*], [*ähsäq*] tarzida saqlanmagan, balki adabiy orfoepik o fonemasiga soʻz boshidagina qisman mos keladi: [*o/ānār*] anor, [*o/āhsāq*] oqsoq, [*o/āzïq*] oziq, [*o/āmā*] ammo kabi; qipchoq shevalari shoxobchalari arealida singarmonizm qonuniyati amaldaligi uchun birinchi boʻgʻin tarkibidagi unliga keyingi boʻgʻindagi unlilar moslashadi: oʻzak boʻgʻinlarida – [*pāxtā*] paxta, [*māntï*] manti, [*ārïq*] ariq, [*bālïq*] baliq, [*qātïq*] qatiq; oʻzakka affikslar qoʻshilganda: [*bārāmān*] boraman, [*qālāmān*] qolaman, [*tāllār*] tollar, [*čāllār*] chollar, [*bāllār*] bolalar kabi. Mingbuloq «y» lovchi va «j» lovchi qipchoq shevalaridagi oʻzaro aralashish jarayonlarini a – old qator, quyi keng, lablanmagan unlini ā – old qator, quyi oʻta keng, lablanmagan unli tarzida talaffuz etilishi o unlisining konvergensiyasi deb hisoblaymiz.

Y.D.Polivanov birdan ortiq tovush tarixiy taraqqiyot kechimida bir tovushga birikib ketishi – konvergensiya, deb koʻrsatgan edi. Olim oʻzbek tilidagi konvergensiyaning oʻrganilishi faqat chatishma konvergensiya

koʻrinishida boʻlib, unlilar doirasida sodir boʻlishi, oʻzbek tilida assimilyativ konvergensiya nisbatan kengroq tarqalganligi, shuningdek, ular undoshlar doirasida ham uchrashi mumkinligi haqida ham qayd etgan [13.№3].

Oʻzbek tili tarixida va koʻpgina shevalarda til oldi ü va til orqa u unlilari, til oldi ö va til orqa o unlilari borligi, hozirgi oʻzbek tilining yetakchi shevalari va adabiy tilida ularning til oldi tipi yoʻqolib, til orqa tipi bilan birlashib ketganligi, ayrim soʻzlardagi til oldiga nisbatan oʻrtaroqqa moyil artikulyatsiya oʻrnida talaffuz qilinuvchi o unlisi til oldi, keng ā unlisiga birlashib ketganligi haqida olimlarimizning qaydlari bor [11.52]. Masalan, til orqa a tovushi chuqur til orqa undoshlari va v(w) undoshi oldida taraqqiy etgan, shuningdek, choʻziq til oldi ä tovushi ham taraqqiy etgan va ular ā tovushini hosil qilgan.

Mingbuloq «y» lovchi va «j» lovchi aralash qipchoq shevalarida ā lashish konvergensiyasi pozitsion holda sodir boʻladi. Til orqa a ning ā lashishi kombinatordir. Til orqa a unlisi undoshlar qurshovi ta'sirida, akkomadatsiyaga koʻra, «ā»lashadi: [*ālqā*] alqa, [*bāvr*] bagʻr, [*sālām*] salom, [*tāγā*] togʻa kabi.

Shevada unlilarning assimilyativ konvergensiyasi pozitsion holat bilan bogʻliq. Chunki ular oʻzakda sodir boʻlib, keyingi kelgan kontakt tovush uncha ahamiyatli emas.

Mingbuloq «y» lovchi va «j» lovchi qipchoq shevalaridagi me'yoriy choʻziqlik oddiy darajani, fonetik choʻziqlik sifatning orttirma darajasini hosil qiladi: «y» lovchilarda: [*kättä*], katta, «j»lovchilarda: [*ïrïk*] yirik; [*kā:tä//kä:tä*] oʻta katta, [*ïrï:k*], yirik-yirik, [*üðāq*] uzoq, [*üzo:q*] juda uzoq, [*müs*] sovuq, [*mu:ð*] juda sovuq, [*qājnāq*] issiq, [*qā:jnāq*] oʻta issiq, [*ǯä*] sal, picha, [*ǯä:*] juda, [*güpü*] chorpahil (toʻlacha odam), [*gü:ppï*] oʻta semiz yoki semirib ketgan odam kabi; buyruq-istak maylidagi fe'llarning ma'no qirralarini farqlashga xizmat qiladi: [*bār*] sof buyruq: bor, [*bā:r*] yalinish: borgin, [*oqï*] oʻqi, [*oqï:*] oʻqigin – iltimos, [*jāz*] yoz, [*jā:z*] yozgin – talab, [*jāðā:y*] yozay – istak, iltimos, [*čïq*] chiq, [*čï:q*] chiqqin – iltimos, talab, [*qārā*] qara, [*qārā:*] – iltimos, oʻtinch, yalinish kabi; dialektal areal «j» lovchilarida «y» lovchilardan farqli holatda: *u* > *ö:* [*hökimät//ökimät*] hukumat, [*hönär*] hunar, *jöj//ǯöj//ǯäj* shevada omonim: yoy – yoymoq, matoni yoymoq, yoʻy – yoʻymoq, yaxshilikka yoʻymoq kabi almashinishlar kuzatiladi. Shevada nutq oqimida yuzaga keluvchi va oʻzlashgan soʻzlar tarkibi bilan birgalikda kirib kelgan yoki ularning oʻzlashtirilishi kechimida shakllangan diftonglar mavjud: [*ʷörïs*] rus, [*ʷöhtäbïr*] oktabr kabi.

Aralash sheva qatlamidagi soʻzlarda sandhi holatlarda: [*häʷölä*] oʻla qol, [*hājrāʷöldïm*] hayron boʻldim, [*qöjʷörö//qöjʷöröv*] qoʻyib yubor, [*ādāʷöldï*]; «j»lovchi qipchoqlarda: [*ʲyekkïnčï*] ikkinchi, [*ʲeškï*] yechki, [*ʲekkï*] ikki, [*ʷajtvär*] aytib yubor kabi soʻzlarda diftonglashish hodisasi uchraydi. Lekin bu fonetik jarayon mazkur dialektal arealda sanoqli tub soʻzlar doirasida amal qiladi, boshqa qipchoq tip shevalaridagidek, [*ʷöräðä*] [*ʷörāðā//ʷöräðä*] roʻza,

[^{w}*örämäl*] roʻmol, [^{wi}*riðā*] rizo, rozi kabi [4.4] umumiy tus olmagan. Biroq sandhi holatlar doirasida ular miqdori koʻproq.

Mingbuloq tumani qarluq lahjalari va aralash tip shevalar arealiga kiritiluvchi shevalarning egasi boʻlgan aholi qipchoq va qarluq lahjalarida aralash gaplashaveradilar. Bu shevalarda bir tomondan, qipchoq shevalari uchun xos boʻlgan xususiyatlar boʻlsa, ikkinchidan, qarluq shevalarini xarakterlovchi belgilar mavjud. Ammo har ikkala guruh shevalarga xos belgilar bu tipdagi barcha shevalarda bir xil miqdorda emas. Qipchoq tip shevalarga oid belgilar ayrimlarida koʻp boʻlsa, ayrimlarida kam uchrashi mumkin. Qarluq tip shevalarga oid belgilar ham shunday darajada mavjud. Aralash tip shevalarning tarqalishi Mingbuloq sheva areali boʻyicha hamma joyida bir xil emas. Ular alohida bir qishloq, mahallada yoki bir necha qishloqda baʼzi joylarda qipchoq sheva vakillari bilan, ayrim joylarda shahar tip sheva vakillari bilan, baʼzan esa har ikkala guruhdagi sheva vakillarining qaysi guruh shevalarga mansubligi, hamda davrning uzoq oʻtmishga emas, yangi tarixga bogʻliq ekanligi bilan belgilanadi.

Xullas, janubi-gʻarbiy Namangan guruh Mingbuloq sheva arealida amal qilayotgan dialektlar turli lahjalarga va qarindosh tillarga xos boʻlgan umumiy lisoniy xususiyatlarni oʻzida umumlashtirgan. Areal-lingvistik hamda lingvistik-geografik metod tamoyillari asosidagi kuzatishlarimiz buni isbotladiki, birinchidan, yangi sheva areallarining geografik-hududiy hosil boʻlishi, koʻlam jihatdan tarqalishi va kengayishi bevosita migratsion jarayonlar, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalar bilan bogʻliq holda maydonga keladi. Ikkinchidan, sheva areali aholisi etnik tarkibining azaliy tendensiya, anʼana va urf odatlari – etnolisoniy va lingvomadaniy jihatlari bilan uzviylik asosida shakllanadi, ular davr, zamon va vaqtlar oʻtishi bilan taraqqiyot natijasida lisoniy integratsiyaga uchrab boradi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. – Тошкент. – Б. 70.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – С. 133.
3. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974. – С. 15.
4. Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области. – Ташкент, 1963. – С. 4.
5. Боровков А.К. О некоторых очередных вопросах узбекского литературного языка. ЗИВ. АН СССР, VI. – С. 76.
6. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.

7. Жирмунский В.М. О диалектологическом атласе тюркских языков // ВЯ. – 1963. – № 6. – С. 13.

8. Иброҳимов Й.М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. Фил. фанл. докт. ...дис. автореф. – Тошкент, 2000.

9. Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз ясашнинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир): Филол. фан. номз. … дис. автореф. – Тошкент, 1967.

10. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 273.

11. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

13. Поливанов Е. Д. Фонетические конвергенции. – ВЯ. – М., 1957. – №3.

14. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б.50-51.

15. Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 216.

16. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 64.

BADIIY MATNDA DIALEKTAL LEKSIKANING QO‘LLANILISHI (Tog‘Ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asari misolida)

Mehriniso Safar qizi JO‘RAYEVA,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asari matnida qo‘llanilgan shevaga oid so‘zlar to‘g‘risida atroflicha fikr yuritilgan bo‘lib, asarda qo‘llanilgan dialektizmlarning qaysi dialektizm turiga mansub ekanligi va asarga qanday ma’no nozikliklarini berib turganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Dialektizmlar, leksik dialektizm, etnografik dialektizm, grammatik dialektizm, lahja, sof leksik dialektizm, semantik dialektizm, fonetik dialektizm, estetik funksiya, morfologik va sintaktik dialektizm.*

O‘zbek tili ko‘p dialektli til hisoblanadi. Bu uning murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligi, bugungi o‘zbek millati o‘tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega ekanligi bilan belgilanadi. O‘zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli-tuman shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin. Bular: 1) qarluq-chigil-

uyg‘ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o‘g‘uz lahjasi [2, 12]. Y.D.Polivanov o‘zbek tilining ko‘p dialektli ekanligini nazarda tutib: «O‘zbek milliy tili (o‘zbek lahjalarining bir butunligi, yaxlitligi sifatida) yagona tizimning, aslida hech qachon amalda bo‘lmagan o‘zbek bobo tilining dialektologik parchalanish yo‘li bilan emas, balki farqlanuvchi til tizimlarining birlashuvi yo‘li bilan paydo bo‘lgan» – degan edi. Badiiy asarlarda qo‘llaniladigan dialektizmlar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, yozuvchilar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadilar. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aks ettirish bilan birga «badiiy nutqda» muayyan estetik funksiya bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qiymat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dilektizmlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir [3, 24]. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilganligini kuzatish mumkin. Fonetik dialektizmlar, asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo‘llash ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Leksik dialektizmlar ham o‘z navbatida ichki guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o‘zlariga xos bo‘lgan urf-odatlarining nomlari etnografik dialektizmlar deb yuritiladi. Bunday so‘zlar tasvirning realligini ta’minlaydi [4, 62]. Asarda leksik dialektizmlardan keng foydalanilgan bo‘lib, ular asarning badiiy qimmatini oshirgan va Surxondaryo shevasini chiroyli tarzda ochib berolgan. Ular quyidagilar: ***tutantiriq, ushoq*** (kichik), ***ena*** (ona), ***jigit*** (yigit), ***burnog‘i*** (o‘tgan), ***aya*** (ona), ***moyak*** (tuxum), ***ulim*** (o‘g‘lim), ***qoboq*** (qovoq), ***qabat*** (qavat, yon), ***o‘ngir*** (yelka) kabi otlar. Masalan: *Men onamiz berib yubormish bo‘xchani olib qarayman: bo‘xchada ikkita ko‘rpacha bo‘ladi. Ikkita non bo‘ladi, mayiz bo‘ladi, to‘rtta moyak bo‘ladi* (27b); *Burnog‘i kecha tegirmon oldida ikkita Qizilni bo‘g‘izlab ketibdi* (17 b); *Paxtazorda paxtadan boshqa nima bo‘lmasa, ulim nimaga yo‘liqadi?;* ***to‘rkalmoq*** (qo‘zg‘almoq), ***iyarmoq*** (ergashmoq), ***vovaylo etamoq*** (afsuslanmoq), ***o‘rlamoq*** (chiqmoq), ***deyatib*** (deyayotgan), ***degich*** (degan) kabi fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlar. Masalan: *Bobomiz ohista-ohista to‘rkaladi* (4 b); *O‘ldim o‘ldim-a! deya vovaylo etadi. Ketidan ushoq o‘g‘lonlari iyaradi* (6 b); *Esini yig‘ib olgunicha o‘t yoqasiga qarab o‘rladi* (114 b).

Adabiy tilga kirmagan, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ga kiritilmagan dialektizm sof leksik dialektizmlar bo‘lib, asardan quyidagi so‘zlarni misol qilib olishimiz mumkin: ***iyarmoq*** (ergashmoq), ***ena*** (ona), ***aya*** (ona), ***so‘g‘in*** (keyin), ***burnog‘i*** (o‘tgan), ***ul*** (o‘gil), ***o‘rlamoq*** (chiqmoq), ***o‘ngir*** (yelka).

Masalan: *Esini yig‘ib olguncha o‘t yoqasiga qarab o‘rlaydi* (114 b); *Do‘xtir yelkam qoqa-qoqa ketdi. Men o‘ngirlarimga yig‘ladim* (114 b).

Biror so‘z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo‘lib, shevada adabiy tilda bo‘lmagan ma’nosi bilan qo‘llana oladigan so‘zlar semantik dialektizmlar deb yuritiladi [5, 62]. Ammo ushbu asarda semantik dialektizmlar uchramaydi. Grammatik dialektizmlarning ham morfologik va sintaktik deb ataluvchi ichki guruhlari mavjudligini qayd etish mumkin [4, 63; 5, 63]. Ushbu asarda grammatik (sintaktik) dialektizmlardan quyidagilarga: ***yuboray(in) (yuboray), de(gich) (degan), yubor(mish) (yuborgan), mashinagacha(yin) (mashinagacha), qanday(chikin) (qanday)*** duch kelamiz. Masalan: *Men onamiz berib yubormish bo‘xchani olib qarayman: bo‘xchada ikkita ko‘rpacha bo‘ladi. Ikkita non bo‘ladi, mayiz bo‘ladi, to‘rtta moyak bo‘ladi* (27 b); *O‘zi, nima bo‘ldi, ayting qanikayin?* (107 b).

Asarda fonetik dialektizmlar anchagina salmoqli o‘rin egallaydi. Masalan: Chimkan (Chimkent), deyatib (deyayotgan), degich (degan), Toshkan (Toshkent), o‘ta bermoq (o‘tavermoq), peshona (peshana), qo‘zg‘olmoq (qo‘zg‘almoq), kunpayakun (kunfayakun), jigit (yigit), shul (shu), maylis (majlis), idish-toboq (idish-tovoq), qoboq (qovoq), qabat (qavat), do‘xtir (doktor). Masalan: *Direktorimiz barchamizni ulkan sinfxonaga soladi – Maylis bo‘ladi deydi* (27 b); *Oldin Chimkanni olibdi, keyin Toshkanni olibdi* (3 b); *Kim biladi, enasini sog‘ib qatiq qiladimi! Oqpodsho qamchi sopini Ibodin soqov peshonasiga nuqilaydi* (7 b).

Asar matni tarkibida keltirilgan dialektizmlarning tahlili jarayonida statistik tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu tahlil metodiga ko‘ra asar matnida jami 100 dan ortiq dialekt so‘zlar qo‘llanilganligi aniqlandi. Shulardan 60 o‘rinda fonetik dialektizm, 32 o‘rinda sof leksik dialektizm va asar matnida eng kam, ya’ni 21 o‘rinda grammatik (sintaktik) dialektizm qo‘llanganligi aniqlandi. Aniqlanganiga ko‘ra, asar matni tarkibida eng ko‘p qo‘llanilgan dialektizmlar sifatida fonetik dialektizmlarni olishimiz maqsadga muvofiq ekan. Matn tahlil qilish tamoyillaridan biri hisoblangan makon va zamon tamoyiliga muvofiq tarzda asar matnida qo‘llanilgan har bir so‘z, ibora, dialektlar asar mazmunini, shaklini, makonini, zamonini ro‘y-rost ochib berishga ximat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamog‘imiz joizki, «Otamdan qolgan dalalar» asarida qo‘llanilgan har bir dialektizmning o‘rni nihoyatda katta. Yozuvchi asarda keltirilgan dialektizmlar orqali nafaqat qahramonning xarakteri, uning atrofdagilarga munosabatini, balki shu jamiyat tuzumi va ahvolini ham ochib berishga harakat qilgan va bunga erishgan. Yozuvchining ham o‘z asari matnida dialekt so‘zlarini qo‘llashining asosiy va birdan bir maqsadi ham kitobxonni ko‘z oldida asar voqealari tasvirlanayotgan hududni, bundan

tashqari qahramonlarning ichki hissiyotlari, qaysi joyga mansubligini koʻrsatib berish hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar (roman). – Toshkent: Sharq, 1994.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – 181 b.

3. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.

4. Qurbonova M., Yoʻldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.

III SHO‘BA. O‘ZBEK ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIGI: TALQIN VA TAHLIL

ИНСОН, ТИЛ ВА МАДАНИЯТ ТРИАДАСИ ЁКИ МАДАНИЯТ ИНСОНГА НИМА БЕРАДИ?

Абди Эшонқулович МАМАТОВ,
Ўзбекистон Миллий университети профессори,
филология фанлари доктори

Инсон маданиятининг мавжудлиги ва ривожланишининг энг муҳим шартларидан бири унинг тил орқали мулоқоти ҳисобланади, айнан ана шу омил маданий жараёнларнинг бирлигини таъминлайди, маданий бойликларнинг сақланиши ва авлоддан авлодга ўтишини ҳам таъминлайди. Зеро, инсоннинг коммуникатив фаолиятида тил ва маданият тушунчалари белгилар бирлиги системаси сифатида ўзаро кесишади ва бир бирини тўлдиради.

Калит сўзлар: *инсон, маданият, инсон, тил ва маданият учлиги, лингвомаданияттшунослик.*

Инсон маданиятининг мавжудлиги ва ривожланишининг энг муҳим шартларидан бири унинг тил орқали мулоқоти ҳисобланади, айнан ана шу омил маданий жараёнларнинг бирлигини таъминлайди, маданий бойликларнинг сақланиши ва авлоддан авлодга ўтишини ҳам таъминлайди. Зеро, инсоннинг коммуникатив фаолиятида тил ва маданият тушунчалари белгилар бирлиги системаси сифатида ўзаро кесишади ва бир бирини тўлдиради.

Инсон, тил ва маданият учлиги (триадаси) ичида инсон омили биринчи ўринда туради, чунки инсон айнан бир пайтда ҳам тил, ҳам маданиятни ташувчи шахс сифатида намоён бўлади. Дарҳақиқат, тил ҳам маданият ҳам инсонда ва инсон орқали зоҳир бўлади ҳамда бир-бирини ўзаро тўлдириб боради.

Лингвомаданияттшунослик масалаларига бағишланган илмий ишларда кейинги пайтларда жуда кўплаб янги тушунчалар ва истилоҳлар пайдо бўлди ва улар илмий ишларда кенг қўлланилмоқда, улар қуйидагилар, масалан: лингвоўлкашунослик, лингвомаданияттшунослик, этнолингвокультурология, лисоний шахс, тил бирликларининг миллий-маданий компоненти, сўзларнинг лингвокультурологик назарияси, муқобилсиз лексика, фон (қўшимча маъноли) лексика, коннотатив лексика, лексика ва фразеология маданият феномени сифатида, прагматик матнлар, тил маданиятда, маданият тилда, инсон маданиятда, маданият инсонда, тиллар ва маданиятлар диалоги, оламнинг лисоний

маданияти, лисоний онг, лисоний (лингвистик) компетенция, коммуникатив компетенция, лингвомаданий компетенция ва бошқалар.

Фикримизча, ҳозирги даврда полилингвал (кўп тиллилик) шахсни шакллантириш, лисоний шахсни яратиш вазифаси турибди. Яъни, она тилимиз асосида жаҳон тилларининг ҳеч бўлмаганда биттасини билган ҳамда жаҳон ҳамжамиятига, халқаро мулоқотга олиб чиқиш билан белгиланади.

Лисоний шахсни шакллантиришнинг компонентлари:

1) лингвистик компетенция, яъни тил ҳақидаги назарий билимларни эгаллаш;

2) тилни амалиётда қўллай билиш;

3) коммуникатив компетенция, яъни тилдан у ёки бу ҳолатга мос равишда фойдалана олиш, мақбул бўлган нутқий ахлоқ кўникмаларини шакллантириш;

4) культурологик компетенция, яъни ўрганилаётган тил маданиятига кириб бориш, мулоқот жараёнида ўзга маданиятга боғлиқ тўсиқлардан ўта олиш кабилар ҳисобланади.

Шуниси диққатга сазоворки, бир томондан шахс айни бир пайтда тарихнинг ва маданиятнинг ҳам субъекти, ҳам маҳсули ҳисобланса, иккинчи томондан, унинг яратувчиси ҳам ҳисобланади.

Инсон эҳтиёжлари мулоқот, билиш ва тафаккур воситаси ҳисобланган тилсиз қаноат ҳосил қилиши мумкин эмас. Шунинг учун ҳам шахс лисоний шахс бўлиши учун тил оқали ўзини намоён қилиши зарур. «Лисоний шахс» тушунчаси ҳақида гап борганда биринчи навбатда унинг интеллектуал хусусиятлари ҳисобга олинади.

Зеро, интеллект тилда ва тил орқали жадал (интенсив) намоён бўлади. Шу ўринда Ю.Н.Карауловнинг лисоний шахс тушунчасига берган таърифини келтириб ўтиш ўринли деб ҳисоблаймиз: «Лисоний шахс» тушунчаси бир хил даражадаги ёки савиядаги сўзларнинг маъносини тушунишгина эмас (яъни, оддийгина сўз бойлиги ва грамматик қоидалар мажмуаси эмас), балки у когнитив даражадаги тилда акс этган олам ҳақидаги билимларини ҳам, шунингдек бу жараён шахснинг коммуникатив фаолияти эҳтиёжлари ва унинг ҳиссий – сезги имкониятларини ҳам қамраб олади[1].

Оламнинг манзараси тушунчаси инсон ва оламнинг ўзаро муносабатларини акс эттирувчи фундаментал тушунча ҳисобланади. Олам манзарасининг шаклларини тилсиз амалга ошириш мумкин эмас, чунки тил оламни билишнинг энг асосий қуроли, инсон билиш фаолиятининг натижалари авлоддан авлодга тил орқали фиксация қилинади, яъни мустаҳкамланади ва ўтади. Тил инсоният хотирасини ташувчи воситадир.

У ёки бу тилни ўқитишдаги культурологик концепция унинг этнопсихологик ва маданият ташувчилик моҳиятига эътиборни қаратиш зарурлигига ишора қилади, чунки тил лисоний шахсни шакллантирувчи ёки бу халқнинг маънавий бойлиги, маданий феномени, маданий – тарихий муҳити сифатида қаралади. Тил ва миллий маданиятнинг ажралмас қисми, аждодларимизнинг маънавий мероси сифатида маданият ривожланишининг энг зарур омили вазифасини ўтайди.

Маданиятга боғлиқ бўлган ҳар бир ҳодиса тилда қайд этилса, мустаҳкамланса, бирон-бир номинация ёки сигнификация (маъно бериш) хусусиятига эга бўлгандагина инсон онгидан жой ола олади, аксинча йўқ.

Юқорида зикр этилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда қуйидаги хулосаларга келинди:

1. Тил белгилари уларнинг моддий ифодаси маданий предметни ўзида ифодалайди, белгиларнинг маъноси эса маданий ҳосила ҳисобланади ва фақат инсон фаолиятида зоҳир бўлади, шу сабабли тил маданият билан муштаракдир.

2. Маданият шу маънода тил билан муштараклик қиладики, чунки маданият фақат тил орқали ифодаланади, яъни ўз ифодасини топади. Зеро, тилшунос А.А.Реформатский таъкидлаганидек, «тил маданият билан бевосита боғлиқ, тилни маданиятсиз тасаввур қилиб бўлмайди, шунингдек маданиятни ҳам тилсиз тасаввур қилиш қийин»[2].

Табиийки, маданият инсониятга нима беради, деган савол туғилади. Бунга қуйидагича жавоб берилса, назаримизда, ўринли бўлади.

- Маданият тил ўрганишга ёрдам беради, уни ўрганишни енгиллаштиради.
- Маданият атроф-муҳитга ҳамда ўзга тилга нисбатан қизиқиш уйғотади.
- Маданият инсон дунёқарашини кенгайтиради.
- Маданият битмас - туганмас билим беради.
- Маданият турли нуқтаи назарларнинг, қарашларнинг нисбий эканлигини тушуниб етишга ундайди.
- Маданиятни ўрганиш маданиятлараро муносабатларнинг ривожланишига кенг йўл очади.
- Маданият тил ўрганиш, фикрлаш, хулосалар қилиш, назариялар яратиш, инсон цивлизациясини ўрганишга асос бўлади.
- Ҳар қандай маданий ва моддий бойликка хос тушунчалар тилда ва нутқда ифодаланади.
- Тил маданиятнинг сақловчиси, қўриқчиси ҳисобланади ва олинган билимларни авлоддан авлодга ўтказади.

- Тил ва маданият ҳамкорлиги барча фанларни эгаллашнинг калити ҳисобланади.
- Тил маданият хазиналарининг калитидир.
- Тил ва маданият ҳамкорлиги асосида ёш авлод тарбияси амалга оширилади.
- Миллий маданиятларнинг ўзаро ҳамкорлиги тилларни бойитади, улар тарихини, адабиётини ўрганишга ёрдам беради, шунингдек халқларнинг моддий ва маданий бойликлари ҳақида маълумотлар беради ҳамда лисоний шахсни шакллантиради.

Демак, лингвомаданиятшунослик инсон ҳақидаги фаннинг бир қисмидир, унинг ўзига жалб қилувчи маркази маданият феноменидир. Тил ва маданиятни характерловчи белгиларнинг ўхшашлиги уларнинг муносабатини ягона методологик асосда кўриб чиқиш имконини беради.

Тилшунос В.Н.Телия таъкидлаганидек, маданият ва тил – бу инсоннинг ва халқнинг дунёқарашини акс эттирувчи онг шаклларидир. Тил ва маданият ўзаро мулоқотда мавжуддир, чунки нутқ ва уни қабул қилувчи ҳар доим маданият субъектидир. Иккала феномен ҳам индивидуал ёки умумий мавжудлик шаклларига эга, маданият ва тилнинг субъекти ҳар доим индивид ёки социум, шахс ёки жамият ҳисобланади. Тил ва маданият учун умумий бўлган жиҳат бу нормативликдир. Тарихийлик эса тил ва маданиятнинг энг моҳиятли хусусиятларидан биридир. Маданият халқнинг ўзига хос тарихий хотирасидир, чунки тил ўзининг кумулятив (тўпловчи) вазифасига кўра коллектив хотирани сақлайди ва бойитади [3].

Коммуникация воситаси бўлган тилда оммавий адресатга йўл-йўриқлар устун туради, маданиятда эса саралланганлик қадрланади. Маданият белги тизими бўлгани ҳолда, у тилдан фарқли равишда ўзича ташкил топа олмайди. Тил ва маданият турлича семиотик тизимлардир. Бундай қиёслаш тадқиқотчиларни маданият тилга изоморф эмас, гомоморфдир, яъни таркибан ўхшашдир, деган фикрга йўналтиради.

Адабиётлар

1. Караулов Ю.Н. Русский язык и русская языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2007.
2. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 2001.
3. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры». 1996.

ILMIY PARADIGMA TRANSFORMATSIYASI HAMDA KONSEPTUAL ASOS

Muhammadxon Xo‘jaxonovich HAKIMOV,
Farg‘ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Dilrabo Muhammad qizi ISMOILOVA,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Dilnoza KOMILOVA,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada hozirgi kunda jahon tilshunosligida mavjud bo‘lgan ilmiy paradigmalar va ularning tarkibiy qismi sanalgan sohalarga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, ilmiy paradigma almashinuviga olib kelgan sabablar nazariy manbalar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar*:* *Transformatsiya, konsept, qiyosiy-tarixiy paradigma, sistem-struktur paradigma, antropotsentrik paradigma, lingvistik tamoyil, jamoa ongi, individual ong, lisoniy shaxs.*

Inson tafakkurida olamning lisoniy manzarasini ilmiy va amaliy bilish asosida tilning mohiyati va tabiatiga xos xususiyatlar ma’lum bir guruhlarga ajraladi. Bu esa o‘z navbatida muayyan til yuzasidan kuzatishlar olib borayotgan izlanuvchilardan unga xos xususiyatlarni differensiatsiyalash va guruhlashda tanlangan tadqiqot predmeti va obyektiga nisbatan ilmiy paradigmalar genezisiga izchil amal qilishni talab qiladi. A.Y.Maslova o‘z izlanishlarida[5, 6-16] tilshunoslikning ilmiy paradigmalarini ajratadi. Ilmiy paradigma dastlab tilning morfologik sathiga oid tushuncha sifatida ajratilgan bo‘lsa, keyingi paytlarda tilshunoslikda paydo bo‘layotgan yangi yo‘nalishlarga nisbatan ham belgilanmoqdaki, bu bilan ilmiy paradigma maydoni kengayib bormoqda. Avvalo, tilshunoslikka oid ilmiy paradigmalar tadqiqot metodi va metodologiyasi asosida shakllangan bo‘lib, ular tilshunoslikning yangi soha va yo‘nalishlari uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham lisoniy sistemaga oid nazariyalarning mukammalashuvida u yoki bu tilshunoslarning xizmatlari katta bo‘ldi. Til haqidagi ilm uzoq davrlar davomida tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda muayyan tilllarning tabiati va mohiyatini o‘rganish asosida yuzaga keldi.

Ma’lumki, ilmiy manbalarda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning rivojlanishi boshqa ilmiy paradigmalarga nisbatan sohaga oid izlanishlarning dastlabki bosqichi deb e’tirof etiladi. Ushbu ilmiy paradigmaning o‘zi ham olimlar tomonidan tilning turlicha tushunilishi, til funksiyalarining har xil talqin

qilinishi natijasida yuzaga keldi. F.de Sossyur to‘g‘ri ta’kidlaganidek, qiyosiy-tarixiy ilmiy paradigmaning paydo bo‘lishi tilga sof ilmiy nuqtayi nazardan qarash natijasi bo‘lib, bu ilmiy paradigma vakillari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar mohiyatan lingvistik vositalarning qiyosiy-tarixiy tahliliga qaratilganligi bilan e’tiborlidir. F.de Sossyur shu asosda til tadqiqida ichki va tashqi ilmni farqlash muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi va haqiqatan ham inson tilini o‘rganadigan hamda tahlil qiladigan yo‘nalishni sof ilmiy lingvistika deb tushunadi. Ilmiy va nazariy tilshunoslikning asoschisi deb tan olingan F.de Sossyurlingvistik qarashlarining mohiyatini til va nutq tamoyillariga asoslangan dixotomik izlanishlar tashkil etadi. Til sistemasiga mansub bo‘lgan izlanishlarda uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganuvchi soha ilmiy lingvistikani tashkil qilib, u haqiqatan ham muayyan bir millat va uning tafakkuriga xos lug‘aviy birliklar hamda grammatik qoidalar haqidagi nazariyani tashkil qiladi, bular, albatta, til hodisalari sifatida uning barcha sathlarini qamrab oladi. Agar F.de Sossyurnazariyasiga asoslangan lingvistik tamoyillar negizida tadqiqotlar amalga oshiriladigan bo‘lsa, nafaqat ichki lingvistika, balki tashqi lingvistik tamoyillar ham lisoniy tadqiqotlarga xos yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu paradigmalar tanlangan yo‘nalishning konseptual asosiga aylanadi. Shu ma’noda muayyan millat yoki shu millatga mansub jamoa ongidagi lisoniy sistema elemetlarini kontekstual xususiyatlar asosida o‘rganish tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Natijada lingvistikaning o‘ziga xos yangi yo‘nalishlari shakllana boshlaydi. Tilshunoslikda hozirgi qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik ilmiy paradigmalar tizimini shartli tarzda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: nazariy, metodologik va aksiologik bilishga asoslangan ilmiy paradigmalar. Borliqni ilmiy bilishga asoslangan paradigmalarning bunday tartibda guruhlanishi amalga oshirilgan tadqiqot va izlanishlardan olingan ilmiy xulosalarga asosan belgilanadi.

Tilning sistem-struktur tadqiqi unga mansub birliklarning ham shakliy ham mazmuniy tartibda guruhlanishi bilan ilmiy asoslanadi. Bunday tipdagi tadqiqotlarga xos xususiyatlarni aniqlash uchun strukturalizm terminiga berilgan ta’riflarga to‘xtalib o‘tish joiz. Jumladan, strukturalizm termini lotincha «structure» so‘zidan olingan bo‘lib, u «tuzilish», «joylashish», «tartib» degan ma’noni anglatadi. Tilshunoslikning bu yo‘nalishi o‘tgan asrning birinchi yarmida «Umumiy lingvistika kursi» asarining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Ushbu asar o‘sha davrda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining konseptual asosi sifatida lingvistika predmetining konkretlashishiga xizmat qildi. Struktural tilshunoslik haqida mukammal ma’lumot beruvchi F.de Sossyur qarashlari har qanday til tadqiqida uning tuzilishi, tartiblanishi, transformatsiyasi, distributsiyasi kabi yangicha usul va metodlarning

shakllanishiga xizmat qildi. Tilshunoslikda tilning formal tasviri va tahlili uchun mukammal tarzda qayta ishlangan struktural nazariya lisoniy belgilarning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishda ustuvorlik qila boshladi. Shuning uchun ham til birliklarining o‘zaro ichki munosabatini o‘rganuvchi yo‘nalishning nomi mantiqan sistem-struktur tilshunoslik deb ataldi. Til tadqiqiga oid bunday usullar esa o‘ziga xos metod sifatida namoyon bo‘ldi va ular lisoniy belgilarning maxsus tizimidan iborat bo‘ldi. Struktural-tahlil metodlari lisoniy sistema elementlarining distributiv tuzilishiga oid tadqiqotlardan tortib, transformatsion grammatikagacha bo‘lgan izlanishlarni o‘z tarkibiga qamrab oladi. Bu o‘z-o‘zidan deskriptiv lingvistika tarkibiga kiruvchi usul va metodlardan iborat bo‘ladi. Tilni sistem-struktur metodlar yordamida o‘rganish dastlab struktural tilshunoslikda til sathi birliklari doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik u lingvistikaning yangi yo‘nalishlarida ham o‘z ifodasini topa boshladi. Shuning uchun ham antropotsentrik tilshunoslik tizmiga oid tadqiqotlar mazmunini boshqa ilmiy paradigmalar tahlili va tadqiqisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Ularda ham ma’lum ma’noda belgilangan tadqiqot predmetiga nisbatan struktural-tahlil metodlaridan foydalanishga ehtiyoj yuzaga keladi. Chunki antropotsentrik tilshunoslik tarkibida inson omili ustuvorlik qilsa ham u tafakkurga xos umumiylik lisoniy moddiylashayotgan elementlarning guruhlanishida struktural tahlillarni talab qiladi. Shuning uchun ham sistem-struktur tilshunoslik nazariyasini faqat F.de Sossyur nomi bilan bog‘lash barobarida uning shakllanish tarixini boshqa ta’limot vakillari nomi bilan aloqadorlikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Aslida strukturalizm haqidagi nazariya taniqli struktur-antropolog K.Levi-Stross, struktur psixotahlilchi J.Lakan, bilimlar strukturasi asoschisi M.Fukolarning ilmiy va falsafiy g‘oyalarining yig‘indisi sifatida yuzaga kelgan[1, 18] ligini ta’kidlash zarur.

Tilning antropotsentrik paradigmasida esa asosiy e’tibor shaxsga qaratildi, «inson omili»ga urg‘u berildi. Bugungi kunda ushbu paradigmaning asosiy yo‘nalishi nafaqat tilshunoslik sohasini kengaytirish, balki uning inson va jamiyat bilan aloqador yangi vazifalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu o‘rinda A.Nurmonovning tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabati haqidagi konsepsiyasiga to‘xtalishni mantiqan to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Dunyo paydo bo‘libdiki, unda mavjud narsalar olami haqida odamlar o‘zaro muloqot jarayonida bir-birlariga ma’lumot beradilar, bir-birlari bilan fikr almashadilar, borliqda yuz berayotgan voqealar haqida o‘zaro suhbatlashadilar. O‘zaro aloqa-aralashuv jarayonida til orqali bir-birlarini anglaydilar. Oddiy so‘zlashuvda, rasmiy muloqotda, ijodiy jarayon mahsuli bo‘lgan badiiy uslubga oid voqealar tasvirida hamda ilmiy uslubga oid og‘zaki va yozma matnlarda ham insonning olam haqidagi tasavvurlari natijasida yuzaga kelgan tafakkurdagi fikrlar ifodasi tilning mantiqi bilan belgilanadi. Mantiq esa boshqa

barcha fanlar singari til haqidagi ilmning ham asosi sanaladi. Inson tilini oʻrganuvchi fanning lingvistika deb nomlanishi ham shu sohaga oid tushunchalar mohiyatini oʻzida aks ettiradi. Ilmni fan haqidagi soʻz bilan bogʻlaganda oʻzbek tilining izohli lugʻatida ushbu tushunchaga quyidagicha izoh beriladi: Fan «...tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrofdagi muhitga ta'sir koʻrsatuvchi bilimlar sistemasi»[6, 119] dan iboratdir. Tilshunoslik ham inson tilini oʻrganadigan fanlar sistemasiga mansub boʻlib, uning mohiyati borliq va uning elementlari haqidagi nomlanish tizimi bilan bogʻliqdir. Ayni paytda u tadqiqot obyekti sifatida turlicha aspektlarni oʻziga qamrab oladi. Shuning uchun ham ichki va tashqi lingvistik tadqiqotlar obyekti sanalgan inson tili til hodisalari tadqiqidan tashqari muloqotga asoslangan nutq hodisalari sifatida oʻzining yangi ilmiy paradigamalaridan iborat boʻladi, tilshunoslikning bu yangi yoʻnalishlari antropotsentrik ilmiy paradigmaning asosini tashkil etadi. Aslida qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur ilmiy paradigmalar sof ilmiy lingvistika tushunchalari bilan nomlangan va oʻrganilgan boʻlsa-da, bu yoʻnalishlarning tadqiqot obyekti hisoblangan tilga nofaol struktura sifatida qaralgan va ayni paytda ular fonetik, leksik va grammatik tamoyillar asosida tahlilga tortilgan. Antropotsentrik ilmiy paradigma uchun ham inson tili tadqiqot obyekti deb e'tirof etildi, unda ham muayyan xalqqa xos lisoniy sistema elementlarining shakliy va ma'noviy munosabatlari tahlilga tortila boshlandi, biroq lisoniy sistema elementlarining mohiyati inson omili bilan, konkret muloqot jarayonidagi kontekstual tahlil metodlari bilan amalga oshirildi. Bunday tadqiqotlar maydoni esa tilshunoslikda yangi deb e'tirof etilayotgan lingvopoetika, matn tilshunosligi, sotsiolingvistka, psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik va «lingvogenderologiya»[1] kabi yoʻnalishlar hisobiga kengaya boshladi. Tilshunoslikning bu yoʻnalishlarida olib borilgan izlanishlarning koʻpayishi esa antropotsentrik ilmiy paradigma mundarijasining kengayishiga xizmat qildi. Natijada antropotsentrik ilmiy-nazariy paradigma mukammalasha boshladi. Tilshunoslikning lingvogenderologiya yoʻnalishi haqidagi qarashlar ham dunyo xalqlari tilshunosligida u yoki bu darajada paydo boʻla boshladi.

Borliq va til mexanizmi oʻrtasidagi bogʻliqlik asosida inson tafakkurining konseptual manzaraga aylanishi, konseptual manzaraning lisoniy manzarada namoyon boʻlishi, lison orqali tafakkurni koʻrish, tafakkur ifodasi sanalgan tilda ana shu xalqqa xos urf-odat va madaniyatni tahlil qilish natijasida lingvistika degan fanning tadqiqot maydoni kengaydi. Uning yangi va oʻziga xos yoʻnalishlari paydo boʻla boshladi. Tafakkurdan tilga, tildan tafakkurga tamoyillari orqali tilshunoslikda kognitologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, sinergetika, lingvogenderologiya kabi

tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘ldiki, sanab o‘tilgan yo‘nalishlarda lisoniy ifoda vositalari inson omili orqali belgilanadi, uning tafakkur tarzi bilan bog‘liq muammolar o‘rganiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikning aynan mana shu yo‘nalishlari antropotsentrik ilmiy paradigma asosida ish ko‘radi. Inson omili degan tushunchaning mohiyati esa tafakkur, olamni bilish hamda olam haqidagi inson tasavvurlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Bu o‘z navbatida borliq, inson tafakkuri va til bog‘liqligi asosida ro‘y beradi. Shuning uchun ham borliq va uning inson tafakkuridagi ifodasi uning tasavvur va taassurotlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ifodalanishi uchun tilga ehtiyoj seziladi. Tafakkurga xos umumiy tushunchalar hamda ularning lisoniy vositalar bilan namoyon bo‘lishi hamda bunday vositalarning ma’lum qonuniyatlar va tamoyillar asosida guruhlarga ajratilishi lingvistika va uning yangi yo‘nalishlari haqidagi ilmning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham mavjud barcha tillarning mohiyatida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lsa ham ular orqali tasvirlangan voqea va tafsilotlar mazmuni inson tafakkurining mahsuli sifatida umumiylik kasb etadi. Bu esa borliq va borliq elementlari haqidagi barcha millatlarga xos tafakkurning umumiyligini belgilaydi. Umumiy ratsional grammatika yaratish haqidagi g‘oyalar tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga ham turtki bo‘ldi.

Tafakkurdagi fikrlarning ifoda shakllari konkret tillar bo‘lgani uchun ham ularda umumiylik belgilari gnoseologik tahlillar orqali amalga oshiriladi. Bular esa lisoniy sistemada ham boshqa fanlardan o‘zaro farqlanuvchi ilmiy paradigmalarni shakllantiradi. Aslida paradigma tushunchasi grekcha «paradeigma» so‘zidan olingan bo‘lib, u namuna, misol, andoza degan ma’nolarda qo‘llanilgan. Bu haqida A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati»da shunday fikrlar bildiriladi: til birliklari, grammatik formalarning umumiy ma’nosiga ko‘ra birlashuvchi, xususiy ma’nolariga ko‘ra farqlanuvchi sistema[7]si paradigma tushunchasini ifodalaydi, biroq so‘z lisoniy paradigmalar haqida borar ekan, u tadqiqot obyektining mohiyati va talqiniga qarab ajratiladi, masalan, til sathi birliklari paradigmasi, morfologik, sintaktik yoki stilistik paradigmalar. Umuman paradigma termini barcha tillar tadqiqi uchun ham konkret tillar faktlarini tahlil qilish davomida ham qo‘llanuvchi umumiy termin sifatida tilshunoslar tomonidan allaqachon e’tirof etilgan. Paradigma tushunchasi bugun paydo bo‘lgan qoidalar majmuidan iborat bo‘libgina qolmay, balki u antik va o‘rta asrlar falsafasida ham mavjud bo‘lgan tushunchadir. Uning mohiyati yuqorida ta’kidlanganidek umumiy ratsional grammatika haqidagi nazariyalar bilan uzviy bog‘lanadi. Shuning cuhun ham ilmiy adabiyotlarda «inson ongiga ta’sir etuvchi har qanday tadqiqot obyektining ratsional tomonlarini topish asosida»[6, 20] barcha tillarga xos bo‘lgan tafakkurdagi «implitsit»[3, 66] bilim va uning moddiylashtiruvchisi sanalgan tilda ham umumiy va xususiy belgilari bilan

namoyon bo‘luvchi paradigmalarni ajratish mumkin. Paradigma haqidagi nazariya aslida dastlab, tilning morfologik sathida shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik u tilning barcha sath birliklari tizimida ham ko‘zga tashlandi, bugunga kelib uning mazmuni nafaqat til sathlari hodisalariga nisbatan, balki tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari hamda ularga xos tadqiqotlar tizimida ham namoyon bo‘lmoqda. Yuqoridagi fikrlar mohiyatan paradigma haqidagi umumiy tushunchalar sifatida qabul qilinsa-da, bu terminning dunyoga kelishi va ilmiy hayotda qo‘llanilishi G.Bregman nomi bilan bog‘liqdir. «Paradigma» atamasi birinchi marta XIX-XX asrlarda G.Bregman tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, terminning ilmiy bilish bilan bog‘liq konseptual asoslari sifatida tarqalishi va ilmiy hayotga olib kirilishi amerikalik fan metodologi Tomas Kunga tegishlidir. Uning 1962-yilda nashr etilgan «Ilmiy inqiloblar strukturasi» kitobida fanning rivojlanishi gnoseologik paradigma siljishi - ilmiy inqilob bilan bog‘liq tahlillar tarzida izohlangan.[1, 18] Tomas Kunning «Ilmiy inqiloblar strukturasi» nomli asarining dunyo yuzini ko‘rishi o‘z navbatida boshqa fanlarda bo‘lgani kabi lingvistikada ham tilni ilmiy bilishga nisbatan qo‘llanuvchi tushunchalar mohiyatini o‘zida to‘la ma’noda aks ettirdi. Bu bilan tilshunoslikda ratsional grammatika yaratilgani hamda tilni ilmiy bilish boshlangani kabi paradigmalar differensiatsiyasi ham hozirgi kunga qadar davom etayotgan tadqiqotlarning natijasi deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda ilmiy paradigmalar tanlangan yo‘nalishlarning predmeti va tadqiqot obyektiga nisbatan belgilanadi. Ilmiy paradigmalar transformatsiyasi lisoniy tahlil va tamoyillar asosida yuz beradi. Tamoyil va tahlilning o‘zgarishi tadqiqot fokusiga bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqot fokusi esa ilmiy paradigma bilan belgilanadi. Ilmiy paradigma mohiyati tadqiqiot predmeti va obyektiga nisbatan transformatsiyalanadi. Har qanday tadqiqot predmeti va obyekti yaxlit strukturadan iborat bo‘lsa ham, u yagona ilmiy paradigma tarkibida boshqa ilmiy paradigmalar bilan mukammallashib boradi. Shuning uchun ham tahlil va tadqiq uchun tanlab olingan lisoniy dalillar talabi bilan u yoki bu metod va tamoyillar ishtiroki tadqiqotda ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar

1. Зиновьева Е.С. Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевых журналов (на материале английского и русского языков): Дисс. …канд. филол. наук. – Ярославль, 2018. – С. 18.

2. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 119.

3. Gaziyeva M. Badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari. – Farg‘ona: Classic, 2024. – B. 66.

4. Кирилина А.В. Гендер и язык. https://books.google.ru/books/=FTUqAQAAIAAJ (Murojaat sanasi: 12.06.2024).
5. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. – М.: Флинта: Наука, 2010. – С. 6-16.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 20.
7. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 67.

MATNNING PRAGMATIK TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILUVCHI VOSITALAR XUSUSIDA

Azamat Baxronovich PARDAYEV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Samarqand davlat universiteti

Shavkatjon Suyunqulovich MAHMADIYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Samarqand davlat universiteti

Mazkur maqolada matnning kommunikativ va pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar, muloqot jarayonida faol ishtirok etuvchi diskursiv yuklamalar xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, pragmalingvistika, matn, nutq, diskurs, kommunikativlik, modallik, ta’sirchanlik, nutq birligi, muloqot birligi, diskursiv marker, yuklama, diskursiv yuklama.*

Insonning kognitiv qobiliyatini ro‘yobga chiqarishda, muloqot jarayoni/matnning kommunikativ va pragmatik strukturasini to‘g‘ri va maqsadli shakllantirish yoki uning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshirishda nutqni jonlantirishga, unga faoliyat, harakatlilik tusini beruvchi vositalar (jonli muloqot nutqi birliklari, ekstralingvistik omillar, modal so‘zlar, yuklamalar, har xil kiritmalar va h.) g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Tilimizning ijtimoiy vazifalari kengaya borishi bilan bunday vositalarning miqdori ham kundan kun ortib, chegarasi muntazam kengayib bormoqda. Milliy istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasining rasmiy Davlat tili o‘zbek tili bo‘lib, madaniyat, iqtisod, siyosat, baynalmilal aloqalarning barcha turlarida tilimiz keng amaliyotda bo‘layotganligi va uning faoliyat doirasi kundan-kunga

kengayayotganligi bilan birga nutq ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalar, jumladan, modal so‘zlar va yuklamalarning yangi-yangi turlari shakllanmoqda. Bu jarayonni nafaqat bizning tilimiz, balki milliy istiqlolga erishish tufayli mustaqil taraqqiyot va baynalmilal aloqaga kirishgan har bir til boshdan kechirgan. Shuning uchun ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo tilshunoslarining e’tiborini tortgan qiziqarli masalalardan biri - kommunikatsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi «diskursiv markerlar»ning – yuqorida sanab o‘tilgan «nutqni jonlantiruvchi» vositalarning - jadal rivojlanishi va safining kengayib borayotganligi bo‘ldi. «Diskursiv marker» deganda shaklan so‘z yoki so‘z birikmasi, hatto gap tuzilishiga ega bo‘lib, shu diskursda/matnda o‘z denotativ (va propozitsion) informativ qiymatini yo‘qotib, eng avvalo, matnni jonlantirish, uni harakatdagi jarayon sifatida berish, shu bilan birga uning butunligini ta’minlash, turli xildagi subyektiv emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshirish, adresantning individual uslubi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladigan hosilalar tushuniladi. Diskursiv markerlar matnda harakatchanlik bo‘yog‘ini berish bilan birga ifodalanayotgan matn va diskursning o‘tgan qismi orasidagi munosabatlar haqida xabar beradi (ya’ni, matn aloqadorligini ta’minlaydi) hamda kommunikatsiya paytida so‘zlovchi va adresatning o‘zaro munosabatini, so‘zlovchi ichki (ruhiy) holatini ta’sirchan shaklda aks ettiradi.

Xorij tilshunoslari diskursiv markerlar sirasiga yuklamalar, bog‘lovchilar, modal so‘zlar, undovlar, ravishlar kabi ko‘plab morfologik-sintaktik birliklarni kiritishadi. Yuqorida eslatib o‘tilgan sabablarga ko‘ra, bunday birliklarning soni tez ko‘payib boryotganligi ularning o‘rganilishiga bag‘ishlanib ko‘plab ishlarning yuzaga keltirgan [1,2]. Bu ishlarda diskursiv markerlarning ko‘rinishlari, so‘z turkumlariga mansubligi, shakllanish va rivojlanish yo‘llari haqida ham bahs boradi. Jumladan, E.Traugotning fikricha, diskursiv markerlar grammatizatsiya natijasida shakllanuvchi «odatdagi» lisoniy birliklar qanday bosqichlardan o‘tadigan bo‘lsa, hammasini o‘z boshidan kechiradi - ya’ni diskursiv markerlar ham formal birlashish → fonetik reduktsiya → tarkibidagi leksik birliklar desemantizatsiyasi va dekategorizatsiyasi → mazmunning «propozitsional» turdan «matnli» turga umumlashishi kabi bosqichlardan o‘tadi. Shuning uchun E.Traugot diskursiv markerlar rivojlanishi usulini grammatizatsiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydi [6,643]. Diskursiv markerlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning ta’sir doirasi, odatda, gap yoki mikromatn chegarasidan chiqadi, katta kontekstlar bilan hatto metamatn – matndan tashqarida turgan holatu vaziyatlar, so‘zlovchining zotiy (ontologik) xislatlari, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi, bayon etilayotgan fikr va muloqot jarayoniga munosabati, muloqot jarayonining boshqa turdagi xilma-xil tarkibiy qismlarining xususiyatlari bilan ham aloqador bo‘loladi. Diskursiv markerlarni

rus tilida [1] va ingliz tilida [6,323] qo‘llanilishi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar bunday birliklarning matnni va diskurs (muloqot jarayonini) shakllantirish kabi struktur vazifa bilan birga har xil emotsional-ekspressiv ta’sirchanlik xususiyatlariga, so‘zlovchi ontologik xislatlari va muloqot jarayonidagi ruhiy holatini aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini alohida uqtirishadi.

O‘zbek tilida ham nutq jarayonida faol ishtirok etib, turli-tuman pragmatik vazifalar - eng avvalo, matnni jonlantirish va butunlashtirish, har xil konnotativ ma’nolar ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy hosilalar (so‘z, so‘z birikmalari, gap qurilishi) juda ko‘p. Ularning qaysi so‘z turkumi (modal so‘zlarmi yoki undovlarmi, yuklamalarmi yoki bog‘lovchilarmi) tarkibiga kiritish har xil munozaralarga sabab bo‘ladi, zeroki, ular bir xususiyati bilan modal so‘zlarga o‘xshasa, boshqa qirrasi bilan undovlarga yaqinlashadi. Biz shunday so‘zlarni «diskursiv yuklamalar» atamasi ostida birlashtirdik. Bizningcha, o‘zbek tilidagi diskursiv yuklamalar sirasiga quyidagi hosilalarni kiritishimiz mumkin: *bale, bu, zab, hali, labbay, mayli, mana, ana, tuzuk, e, qani endi, qani, ishqilib, aytmoqchi, nega desang, baribir, o‘lgur, qurgur, qurmagur, tushgur, tushmagur, bo‘lgani bo‘ldi, aytgin-aytgin, boringki, qo‘yingki, kel, kelib-kelib, deyman, bu deyman, degin, shunday deng, yaxshisi, kimsan, bilasizmi, bormi, shunday, endi, savil, ha* kabilar. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin. Lekin shu yuqorida keltirilgan sira ham o‘nlab savollarni o‘rtaga tashlash uchun asos bo‘ladi, zeroki, bu siradagi har bir birlik o‘zbek tilshunosligida amalda bo‘lgan so‘z turkumlari tizimlarida funksional-semantik jihatiga ko‘ra, albatta, u yoki bu turkumga tegishli deb tasnif etilgan va, tabiiyki, bu tasniflarda diskursiv marker guruhi yo‘q va bo‘lolmaydi (bu atama lisoniy-struktur emas, balki tilning voqelanishi bilan qisman aloqador bo‘lgan ijtimoiy-madaniy - k u l t u r o l o g i k soha – nutqiy muloqotga aloqadordir va tom ma’no tilshunoslik atamasi bo‘lolmaydi). Bu so‘zlar, yuqorida aytib o‘tganimizdek, olmosh, modal, undov, yuklamalar tarkibiga yoki so‘z turkumlari tizimida ajratilishi mutlaqo asossiz bo‘lgan kiritmalar (kiritma sof sintaktik tushuncha va so‘z turkumlari (leksik-grammatik) tizimida bo‘lishi mumkin emas) sifatida baholanadi. Biz ularni diskursiv yuklamalar deb atashni lozim ko‘rdik. Bunday ichki ziddiyatli – situativ-kulturologik sohaga aloqador diskurs, ustuvor lisoniy-struktur tizimga – tilshunoslikka aloqador yuklama atamalarining birlashishidan hosil bo‘lgan - atamaga zarurat bormi? Dastlab diskursiv yuklamalar deb atamoqchi bo‘lgan birliklarimizning tabiati (substantsial, zotiy, ontologik xususiyatlari) ustida to‘xtalganimizdan so‘ng bu savolga javob berishga harakat qilamiz.

Albatta, atama - bu nom. U nomlab kelayotgan narsasi tabiati bilan mutlaqo bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin (o‘zbek antroponimikasida Tosh, Po‘lat, Oltin kabi nomlar ayol jinsidagi kishiga ham, erkak jinsiga xam xos

boʻlishi mumkin). Lekin tilshunosligimizda yuklama atamasi muayyan mazmun-mohiyatga ega. Qaysi asosda soʻz-gap, yoki modal soʻz, yoki undov... sifatida baholanib kelinayotgan, masalan ha, labbay, qurgʻur... v.b. soʻzlar yuklamaning bir turi boʻlib qoldi? Tahlilni shu savolga javob berishdan boshlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, boshqa bir savolga javob topish lozim: Biz diskursiv yuklama deb tasnif etayotgan ha, labbay… va, masalan, R.Bobokalonov soʻz-gaplarning bir turi sifatida ajratgan [2] tasdiq-inkor soʻzlar tarkibidagi ha yoki undovlar tarkibidagi *labbay* bilan substantsial (ontologik) bir narsami, yoki biz bunda shakliy umumiylik va zotiy farqlilik (omonimiya) bilan toʻqnashmoqdamizmi? Bu savolga javob berish uchun f a k t l a r g a (obyektiv borliqqa) - lisoniy birlikning nutqiy voqelanish xususiyatlariga, aniqrogʻi bu birliklarning diskursda qoʻllanilishiga murojaat qilamiz. Buning uchun esa biz dastlab pragmalingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri boʻlgan d i s k u r s ustida biroz toʻxtalishimiz zarur.

Pragmalingvistik diskursning formal va struktural (jumladan, substantsial) tilshunosliklarida keng isteʼmolda boʻlgan n u t q tushunchasidan farqi nimada? Diskurs talqinida tilshunoslikda xilma xil qarashlar mavjud. Aksar tilshunoslar diskursni (frantsuzcha discourse, inglizcha discourse, lotincha discursus – harakat, uzluksiz almashinish, suhbat, soʻzlashish) nutqiy faoliyat jarayoni hamda soʻzlashish uslubi kabi mazmunlarda tushuntirishga harakat qiladi [1,307-323; 5,405]. Diskurs haqida qimmatli fikrlar kognitolog tilshunos Sh.Safarov tomonidan bildirilgan [7,216]. Olim matn va diskurs muammolari xususida quyidagilarni yozgan: «Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi boʻlsa, ularni faqatgina zohiriy – formal koʻrsatkichga asosan «ogʻzaki» va «yozma» sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy koʻrinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli koʻrinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli boʻladigan boʻlsa, erishilgan natija moddiy koʻrinish olishi kerak-ku?!» [7,223]. Biz Sh.Safarov tomonidan keltirilgan A.Kibrik, V.Plungyanlarning «diskurs – bir paytning oʻzida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham uning (faoliyatning) mahsulidir» mazmundagi fikriga tayangan holda diskursni keng maʼnoda, ammo oddiyroq, soddaroq tushunishga harakat qilamiz. Diskurs, bizningcha, yozma va ogʻzaki nutq jarayonini qamrab oluvchi hodisa, muloqot tizimi yoki qisqacha aytganda, insonning nutqiy faoliyatidir. Zero, «matn diskursiv faoliyat kechayotgan paytning oʻzidayoq yaratila boshlanadi. Maʼquli, qiyoslanayotgan bu ikki hodisani «giperonim» – «giponim» munosabatida oʻrganishdir. Diskurs inson ongli faoliyatining maʼlum bir turi, turkumi boʻlsa, matn uning bir koʻrinishidir» [1,226; 5,307-323]. Demak, diskurs - soʻzlovchi va tinglovchining oʻzaro fikr almashish, bir-biriga taʼsir koʻrsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan oʻzlari eng samarali deb hisoblagan shakl va

turda amaliy foydalanish jarayoni. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo‘lida voqelanishidir. Mana shu bilan diskurs an’anaviy nutq tushunchasidan farqlanadi – an’anaviy nutq tushunchasi ostida, odatan, lisoniy birlikning oddiygina voqelanish shakl- ko‘rinishlari tushuniladi, xolos. Bu masala, uning bilan bog‘liq ravishda nutq birligi (nutqiy birlik) va muloqot birligi (diskursiv birlik) tushunchalari Sh.Safarov va G.Toirovalar tomonidan juda mufassal tavsiflangan [8]. Jumladan, mualliflar o‘zbek tilida ko‘rishish/salomlash ibtidosida qo‘llaniladigan «Assalomu alaykum va rahmatulloxu barakotuh» yoki «Salom» yoki «Hello» shaklining qo‘llanilishi so‘zlovchi va tinglovchining maqsadi, millati, yoshi, tarbiyasi, ma’lumoti, madaniy saviyasi, xulq atvori, kiyinishi, ovoz tembri, tana a’zolari holati va harakatlari, muayyan nutqiy sharoit …. kabi deyarli son-sanoqsiz sharoit ko‘rsatkichlari bilan bog‘langanligi, mana shu turli soha va sath birliklari majmuasi oniy (situativ) tizim sifatida talqin etiluvchi muloqot birligini (diskursiv birlikni) tuzishi ochib berilgan [8,22-26]. Albatta, muloqot birligi sifatida talqin etiladigan bu oniy diskursiv (situativ) tizim markazida nutqiy birlik (lisoniy birlikning ma’lum shaklda voqelanishi) turadi, lekin oniy tizim faqat nutq birligidangina iborat emas – u juda ko‘p tarkiblidir. So‘zlovchi ham o‘z nutqini bayon etishdan avval uni ichida grammatik jihatdan shakllantiradi. Avval ongda ifodalanmoqchi bo‘lgan fikr jamlanib, saralanadi va oniy tezlikda kerakli vositalar tanlanib bir tizimga keltiriladi hamda shu vaqtning o‘zida qo‘shimcha ma’no jilosini berish uchun matn/sharoitu maqsadga mos kerakli vositalar – ifodalanayotgan fikrga bevosita jonli (harakatdagi) muloqot ruhini va bezak, zeb-ziynat beruvchi birliklar – diskursiv markerlar (d i s k u r s i v yu k l a m a lar) tanlanadi. Diskursiv markerlar (yuklamalar) so‘zlovchi yoki matn tuzuvchiga (ijodkorga) ifodalanayotgan nutqiy vaziyatning – real muloqot, harakatdagi faoliyatni tabiiy chiqishini ta’minlashga xizmat qiladi va kommunikativ strategiyani belgilashda muhim ahamiyat kashf etadi. Demak, diskursiv yuklamalar so‘zlovchi yoki yozuvchining pragmatik mo‘ljalini voqelantirishda hamda muloqot subyekti bo‘lgan tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish jarayonida o‘ziga xos - nutqqa diskurs ruhini berishdek vazifani bajaradi. Muloqot yoki matn orqali muallif o‘quvchiga ta’sir o‘tkazishning turli usullaridan (epistemik, denotik, aksiologik…) foydalanishi jarayonida, albatta, matn strukturasiga «jonlantiruvchi marker»larni tirkaydi, kiritadi. Natijada, ular matn kompozitsiyasini shakllantirishda xizmat qiluvchi muhim vositalardan biriga aylanadi. Buni his qilish uchun bunday markerlar qatnashgan matnni shularsiz tasavvur qilib ko‘rishning o‘zi kifoya. Shunda uning matndagi ta’siri yaqqol seziladi. Shuning uchun so‘zlovchi yoki matn yaratuvchi pragmatik niyatini voqelantirishda diskursiv yuklamalardan unumli foydalanishga harakat qiladi va shunga intiladi.

Ijodkorlar matn yaratish jarayonida koʻp hollarda diskursiv yuklamalarga murojaat qilishining boisi nimada? Bu holni shunday izohlash mumkin: birinchi navbatda bu soʻzlar matn tabiiyligini taʼminlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, muallifning matnda moʻljallagan niyatlaridan birini ifodalaydi - matn shunchaki axborot uzatuvchi vosita emas, balki uning zamirida tinglovchiga yoki oʻquvchiga emotsional-ekspressiv taʼsir qilish maqsadi yashiringanga ishora qilib keladi. Diskursiv yuklamalardan unumli foydalanish koʻp hollarda muallifning individual mahoratiga bogʻliq boʻladi. Muallif nutq vaziyatiga mos ravishda kommunikativ maqsadni koʻzlab yaratayotgan har qanday matnga taʼsir etuvchi, umuman shu matn tabiatiga mos diskursiv yuklamani tanlaydi va nutqni jonlantiradi, unga faoliyat - jarayon tusini beradi, zeroki diskursiv yuklamalarning talaffuz xususiyatlari ham, ularga hamisha xamrohlik qiladigan qator nolisoniy (ekstralingvistik, paralingvistik...) vositalar xam oʻziga xosdir - ular matnni fotosurat sifatida emas, balki videolavha sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. «Muallif - qabul qiluvchi (retsipient)» hamkorligining turli-tuman munosabatlarini yorqinroq ifodalash orqali matnning pragmatik imkoniyatlarini oydinlashtirish maqsadida qoʻllaniladigan bu turdagi yuklamalar matndagi kommunikativ jarayonni yaqqol jonlantiruvchi modallik kategoriyasi unsurlari sirasiga kiradi.

Adabiyotlar

1. Баранов А.Н., Плугян В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. – М.,1993.
2. Bobokalonov R. Oʻzbek tilida gap sintaksisi va soʻz-gapning sistem-struktur talqini. – Toshkent: Fan, 2006. – 123 b.
3. Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998.
4. Кибрик А.А., Паршин П.Б. Дискурс // Электронная Энциклопедия Кругосвет. http://www.krugosvet.ru/ articles/82/1008254/print.htm
5. Кибрик А.А., Плунгян В.А. Функционализм и дискурсивно-ориентированные исследования / В.кн.: Фундаментальные направления современной американской лингвистики. – М., 1997. – С. 307-323.
6. Traugott E.C. Constructions in grammaticalization // The handbook of historical lingustics / ed. By B.D. Jozeph, R.D.Janda. Oxford: Blackwell, 2003. p.643.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – 285 б.
8. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, СамДЧТИ, 2007. – 44 б.

228

MADANIYATLARARO MULOQOTDA KOOPERATSIYANI TA’MINLASHDA SUHBATDOSHNING MAVQEYINI KO‘TARISH TAKTIKASI

Ra’no Faxriddinovna BEGMATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
nemis tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda madaniyatlararo muloqot davomida kooperatsiyaga erishish maqsadida mavqeyini ko‘tarish taktikasining qo‘llanilishi to‘g‘risida so‘z boradi. Kooperativ strategiyalarning muloqot ishtirokchilari tomonidan qo‘llanilishi turli madaniy va ijtimoiy omillarga bog‘liqdir.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik kooperatsiya, kommunikatsiya, kooperativ strategiya, nutqiy muloqot.*

Lingvistik kooperatsiya mavzusi tilshunoslikda nutqiy muloqot jarayonini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Quyida lingvistik kooperatsiyani ta’minlovchi unsurlardan biri suhbatdosh mavqeyini ko‘tarish taktikasini izohlash maqsadida Germaniya Federativ Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Günter Overfeld 15 mart 2019 yil HUDUD.TV teleko‘rsatuviga bergan intervyusi to‘liq shakli keltiriladi.

Misol-2.

– Xayrli kun, janob elchi. Bizga vaqt ajratganingiz uchun tashakkur bildirmoqchiman. Suhbatimizni yoshlar haqida boshlasak, ayting-chi, Germaniya yoshlari bilan O‘zbekiston yoshlarini qanday taqqoslagan bo‘lardingiz.

– Meningcha, dunyodagi barcha yoshlar deyarli bir xil. O‘zbekiston yoshlari va Germaniya yoshlarining bir biriga o‘xshash jihatlari ko‘p. Ular dunyo bo‘ylab sayohat qilishni istaydilar, erkin fikrlaydilar, ko‘p narsani o‘rganishga harakat qiladilar, internetdan foydalanadilar va musiqa eshitishni ixlosmandlar. Shuning uchun O‘zbekiston va Germaniya yoshlari o‘rtasida katta farqlar mavjud emas deb o‘ylayman.

– Yurtimizda yoshlar masalalarini ularning huquq va erkinliklarini O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkiloti o‘rganadi. Shu ma’noda so‘ramoqchi bo‘lgandim Germaniyada yoshlar masalasiga qay darajada e’tibor qaratiladi.

– Yoshlar masalalari bilan sport klublar, universitetlar, maktablar xususiy tashkilotlar shug‘ullanishadi. Germaniya aholisi juda individual, shuning uchun Germaniyada yoshlar bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar yo‘q.

– Sizning davlatingizda yoshlarni kasbga yo‘naltirish va ularni ish bilan ta’minlash masalasiga qanday yondashiladi?

– Bizda bolalar 14-15 yoshga kirganda universitetlar yoki oliy ta’lim muassasalari va kompaniya maktablariga tashrif buyurishadi. u yerda ularga tushunchalar beriladi va ular o‘z dasturlarini taqdim etadilar.

– Ular bo‘sh vaqtlarini ko‘proq nimalarga sarflashadi. Ko‘proq kitob o‘qishni afzal ko‘radilarmi?

– Menimcha kitob o‘qish eski davrlarda edi. Bugungi kunda Germaniyadagi yashayotgan odamlar va men O‘zbekistonda ko‘rishim mumkin bo‘lgan yoshlar bo‘sh vaqtlarini kompyuterda sarflashadi va albatta sport bilan ham shug‘ullanishadi. Tabiat bag‘riga chiqishadi. Maktabda ta’tillar berilgach ular do‘stlari bilan juda ko‘p sayohat qiladilar va sayohatdan qaytgach yana o‘qishlarini davom ettiradilar.

– O‘zbekiston va Germaniya yoshlariga tilagingiz.

– Men ularning baxtli hayot kechirishlarini istayman. ularning karyeralarida muvaffaqiyat tilayman. Tilagim ular o‘z vaqtlarini jamoalari uchun, muhim maqsadlari uchun sarflashsin va muhtoj kishilarga albatta yordam berishsin. (https://www.youtube.com/watch?v=mvioZkZrfQQ).

Kommunikativ tahlil:

Ushbu madaniyatlararo yuz berayotgan muloqotdan kommunikativ maqsad ikki xalqni qiyoslab xulosa chiqarish singari fikr so‘ralmoqda.

Fikrni bayon etish savol va unga beriladigan javoblardan tashkil topgan.

Bunda bir-biriga yetkazilayotgan ma’lumotlar tez tushunilib, kommunikantlar tomonidan o‘z vaqtida javob reaksiyasi amalga oshirilmoqda. Germaniya elchisining tolerantlik strategiyasi mavqeyini ko‘tarish taktikasidan foydalanishi jurnalist tomonidan kasbiy etiketga asoslanib neytral kutib olinmoqda va aniqlashtiruvchi savollar berilmoqda.

Savol beruvchi o‘z savoli orqali xalqaro darajadagi qiyoslash ishini olib borib asosiy maqsadini yoshlar garchi ikki davlatda yashasa-da qiziqishlari o‘xshash ekanligi, dunyoni ko‘rish, o‘rganishga bo‘lgan intilishlari unikal ekanligiga e’tibor qaratmoqda. Bir davlat Yevropaning iqtisodiy rivojlangan davlatlaridan biri, ikkinchi davlat esa geografik jihatdan Markaziy Osiyo hududida joylashganligi rivojlanayotgan davlatlar guruhidan o‘rin olgan bo‘lsa-da, inson mavqeyi mohiyatan bir-biridan uzoq emasligiga urg‘u berilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Qolaversa, globalizatsiya jarayoni har bir mamlakatning yoshlari bir-biri bilan teng aloqaga kirishishlari mumkinligini va bir-birlaridan boxabar yashashlari imkoniyati mavjud ekanligini e’tiborga olish zarur ekanligiga bilvosita ko‘rsatma berishi ham sherigining mavqeyini ko‘tarish taktikasi yordamida amalga oshayotganligining guvoxi bo‘lamiz.

Ushbu misolda siyosiy kontekst turi keltirilgan bo‘lib, unda bir kommunikant to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat vakili sanalib, u o‘z nomidan emas balki Davlat pozitsiyasidan fikrlarini bayon qilmoqda, ikkinchi kommunikant esa

o‘zbek jurnalisti bo‘lib, u o‘z o‘rnida O‘zbekiston qiziqishlarini Germaniya elchisi bilan suhbatda savollar berish orqali namoyon qilmoqda.

Pragmatik tahlil:

Ushbu suhbatning pragmatik maqsadi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash va yaqin hamkorlikka erishishdir.

Tolerantlik strategiyasi mavqeyini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi madaniyatlararo muloqotning siyosiy kontekstida kooperatsiyaga erishishda samaralidir.

Ushbu madaniyatlararo muloqotda mavqeyini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi o‘rinli ekanligi kontekst turiga bog‘liqligi hamda kommunikantlarning neytral pozitsiyalarda ekanligida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, ushbu intervyuda tolerantlik strategiyasining qo‘llanilishi kommunikantlarning qo‘ygan maqsadiga erishishga, o‘z fikrini boshqa suhbatdoshga yetkazishgayordam bermoqda.

Siyosiy kontekstda mavqeyini ko‘tarish taktikasidan foydalanilishi, suhbatdoshning yuqori darajada diplomatik ko‘nikmalariga ega ekanligidan dalolat bermoqda hamda jurnalist tomonidan neytral qabul qilinmoqda.

Ushbu kommunikativ muloqot turida tolerantlik strategiyasining qo‘llanilishi samarasi yuqori bo‘lganini ma’lumot almashish silliq kechganida namoyon bo‘ldi.

Sintezlangan tahlil:

Kommunikantlarning ma’lumot almashish jarayoni natijasida ikki xalqni qiyoslash asosida ularning o‘xshash va o‘xshamagan jihatlarini ko‘rsatish hamda ikki davlat munosabatlarini yaxshilashdir.

Fikrni bayon etish savol-javob tariqasida amalga oshirildi va tolerantlik strategiyasi mavqeyini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi madaniyatlararo muloqotning siyosiy kontekstida kooperatsiyaga erishishda samarali bo‘lganini kommunikantlarning neytral reaksiyalarida namoyon bo‘ldi.

Kommunikantlarning o‘z vaqtida savollar hamda ularga to‘liq javob berishi tolerantlik taktikasining o‘rinli qo‘llanilganidan dalolat berdi.

Madaniyatlararo muloqot jarayoni siyosiy kontekstida ikki kommunikantning turli mavqe darajalariga mansub ekanligi, ularning siyosiy pozitsiyasidan kelib chiqib xalqlar vakillari mavqeyini ko‘tarib gapirish ikki xalq o‘rtasida iliqlik bo‘lishi orqali hamkorlikka erishishga ko‘maklashadi.

Ushbu bikultur kontekstda mavqeyini ko‘tarish taktikasining qo‘llanilishi boshqa madaniyatlararo muloqotda ham qo‘llanilishi mumkinligini ifodalaydi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida qanday kontekst bo‘lishidan qat’iy nazar, tolerantlik strategiyasining mavqeyini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi ikki xalq vakili o‘rtasida iliqlik, ijobiylikni shakllantiradi, o‘zaro hurmat, tolerantlikni namoyish etish orqali hamkorlikka erishish mumkin. Shuningdek,

ikki kommunikantning turli mavqe darajalariga (ushbu misolda davlat elchisi va jurnalist) ega bo‘lganligida ayniqsa ushbu taktikanig qo‘llanilishi o‘rinli bo‘ladi. Bunda ikki xalq o‘rtasidagi farqlarni, ikki davlat turli iqtisodiy rivojlanish hamda turmush darajalariga egaligini yumshatish orqali konstruktiv, bo‘rttirilmagan holatda mavqeyini ko‘tarish orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, tolerantlik strategiyasi nemis tilida lingvistik kooperatsiyani ta’minlashda xatoga ko‘z yumish va mavqeyini ko‘tarish taktikalari orqali amalga oshiriladi, uni qo‘llash tufayli suhbatdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va tushunish mustahkamlanadi.

Adabiyotlar

1. Ларина Т. В., Озюменко В. И., Ишанкулова Д. О позитивных мышлении, представителей англосаксонскую культуру и язык и общение // Вопросы психолингвистики. 2011. №13. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-pozitivnom-myshlenii-predstaviteley-anglosaksonskoy-kultury-i-ego-otrazhenii-v-yazyke-i-kommunikatsii (д. o.: 08.03.2023).

2. Rahmonova M. Psixologiya kursida ko‘rsatmalilik. Psixologiya o‘qituvchilari va pedagogika institutlari studentlari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – B. 128.

3. О.А. Леонтовича, М.А. Гуляевой, О.В. Луневой, М.С. Соколовой. 2019. Позитивная коммуникация. ISBN 978-5-94244-072-5. – М.: Гнозис. – С. 296.

MULOQOTDAGI NUTQIY «O‘YINLAR» HAQIDA

Feruzaxon KARIMOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Maqolada muloqot matnlarida uchraydigan nutqiy «o‘yinlar» va undagi «vaziyatni boshqaruvchi» hamda «qurbon» ishtirokchilar nutqi haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, so‘z o‘yini,*

Tilshunoslikning pragmalingvistika sohasida nutqiy taktika va nutqiy strategiya tushunchlari oldindan biror maqsadni reja qilingan nutqqa nisbatan ko‘p qo‘llaniladi. Bu haqdagi tadqiqotlarni o‘zbek tilshunosligida ham, dunyo

tilshunosligida ham koʻplab uchratish mumkin. Ularning eng birlamchi koʻrinishlariga A. Navoiy asarlaridagi dialoglarda ham duch kelamiz. «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod va Xisrav dialogida Xisrav tomonidan boshlanib, Farhod shaxsiyatiga tegishni moʻljal qilib, natijada, maqsadiga eta olmagan Xisrav nutqiy taktikasida qoʻllangan haqoromuz soʻzlar va ular orqali Farhod ruhini sindirishga boʻlgan urinish hamda uni soʻz oʻynida yengmoqchi boʻlib, oʻzi magʻlub boʻlgani haqidagi misralar barchaga ma'lum misoldir [10, 42]. Bunday mot qiluvchi savol-javobli muloqotlarni sharq adabiyoti, qolaversa, ilmiy-falsafiy qarashlarida koʻplab uchratish mumkin. Bugungi kunda mazkur soha pragmalingvistik va psixolingvistik tadqiqotlar hisobiga ancha rivojlandi va ularning turli usul va yoʻllari haqida tadqiqotlar yaratildi. Gʻarb esa manipulyatsiyaning turli usullari haqida tadqiqotlar yaratmoqda.

Bu soha, avvalo, boshqaruvda, harbiy sohadagi maqsadli rejalarni amalga oshirishda qoʻl kelgan boʻlsa [1, 255], keyinchalik boshqa fanlar qatori tilshunosllikka ham kirib keldi. Bu usuldagi nutqlarda, avvalo, soʻzlovchi maqsadi oʻz fikrini maʻlum shaxs yoki guruhga sezdirmay taʻsir oʻtkazishni niyat qilgan boʻladi. Qaysidir ma'noda bu nutqlar manipulyatsiyaning ijobiy va salbiy turi bilan ham hamohanglik tashkil qiladi. Gʻarb psixologiyasida bu haqda turli qarashlar mavjud. Siyosat arboblarigina emas, yozuvchilar ham bu usullarga befarq qaramagan. Nemis fallasufi A. Shopengauer asarlarida bu usulning 100 dan ortiq nazariy turlari haqida bilimlar berilganini oʻziyoq fikrimizni dalillay oladi [5, 560, 255]. Gʻ arb dunyosining bugungi vakillari soʻz va undan maqsadli foydalanish, uning ta'sir kuchidan istalgan yoʻnalishda istalgan natijaga erishish haqida yozilgan maslahatomuz risolalari kitobxonlarni befarq qoldirmayapti [7]. Albatta, manipulyatsiyaning (ijobiy kuchidan foydalanish ayni muddao, lekin uning «qora» kuchidan foydalanish insoniy munosabatlarning darz ketishiga olib kelishi barchamizga ma'lum. Yuqorida keltirilgan ruhdagi asar mualliflari oʻz tadqiqotlari orqali insonlarni xushyorllikka chorlamoqchi boʻlishadi va shu bilan birga, masalaning orqa tomonida undan foydalanishni aqliga sigʻdirmagan insonlar uchun beixtiyor stimul-turtki vazifasini ham oʻtashi insonni oʻyga toldiradi. Manipulyatsiyani ijobiy yo salbiy, xolis yoki noxolis deb ataymizmi har ikki nomlanishda bir xil mohiyat namoyon. Tilshunoslik ilmida u soʻzdan yaxshilik yoki yomonlik uchun foydalanishdan iborat boʻladi.

Fikrimizni mantiqiy davomi sifatida yana bir ruhshunos olimning tavsiyasiga e'tibor qaratsak. E.Bern tavsiyasiga koʻra, muloqotni dastlabki 10 soniyasida «tinglovchi» yoki yangi odam muloqot uchun «rol» tanlaguncha, suhbatdosh diqqatli boʻlishi kerak. Chunki u hali tabiiy holda boʻladi. Lekin uchrashuvni oldindan bilgan va bunga tayyorgarlik koʻrgan tajribali «suhbatdosh» bilan aloqa qilinganda bu eslatmaning qiymati pasayadi, birinchi soniyalardanoq u oʻz moʻljallagan maqsadiga mos «niqob»ni kiyib boʻlgan

bo‘ladi [9, 566]. Demak, bu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, insonlar doimo samimiy, o‘z tabiatiga monand ravishda nutq tuzmaydi. Ularning hayot sahnasidagi «rollari»ga qarab ham o‘z nutqlarini ataylab o‘zgartirishi yoki turli holat va manfaatga ko‘ra o‘zgartirishini kuzatishimiz mumkin. Bu holat, albatta, shaxsiy yoki guruhga oid manfaat bilan bog‘lanishi mumkin. Shaxsiy manfaat yuzasidan bo‘lgan nutqiy «rollarda» insonlar u qadar katta kuch sarflamay niyatlariga yetishi mumkin, raqibini yo «o‘ljasini» osonlikcha aldashi va tuzog‘iga ilintirishi mumkin. Ko‘pchilik manfaatiga daxldor sahnalarda esa, manipulyator yoki «hukm o‘tkazuvchi»ga kattaroq bilim va kuch kerak bo‘ladi. Aytaylik, siyosiy masalalarda yoki diplomatik munosabatlarda va ma’lim korxona va tashkilot foydasiga tuziladigan bitim oldidan bo‘ladigan muloqotlarda «o‘yin ishtirokchilari» ancha bilimli va taktik tayyorgarligi yuqori bo‘lgan va tashqaridan ancha og‘ir-vazmin ko‘rinadigan, aslida esa, ichidan pishgan, quv, aqlli insonlar jamoasidan tashkil topgan bo‘ladi. «Shaytanat» asarida fikrimizni dalillovchi qiziqarli o‘xshatish o‘zbek millatiga xos bo‘lgan «sovchilik roli» misolida keltiriladi:

«Ikki mamlakat muammolarini hal etish uchun yig‘ilgan diplomatlarning salomlashishidan tortib, xayrlashuviga qadar, muomalalari, kulimsirashlaridan tortib qosh chimirishlarigacha bo‘lgan harakatlari aniq ishlab chiqiladi. Xuddi shunga o‘xshash, sovchilik marosimi ham yuz, balki ming yillar davomida bir qolipga tushgan. Xotinlar o‘zlarini qanday tutishni, nima deyishni yaxshi bilishadi. Mana hozir Manzura: «Hali tayyorgarligimiz ham yo‘q», dedi. Bu — qizimizni uzatishga rozimiz, ammo siz aytganday ertaga emas, balki indinga, degani. Bo‘lmasa bu xonadon uchun to‘y nima ekan. Ertalab ishga kirishilib, oqshomda to‘y boshlash qo‘lidan kelmaydimi? Lekin qizi bor odam noz qilmasa «diplomatiya» qonun-qoidalari buziladi». («Shaytanat», T.Malik. Elektron nusxa.15-bet).

Yana bu usulni biznesda, muzokaralarda, shaxsiy suhbatlarda yashirin tarzda suhbatni boshqarishni reja qilgan «vaziyatni boshqaruvchi-manipulyator»da kuzatilishi mumkin yoki bir tomonlama muloqot samaradorligini ta’minlashi va shaxsiy maqsadga erishishda juda qo‘l kelishi mumkin. Bunday vaziyatda yashirin «vaziyatni boshqaruvchi» va «qurbon» rollari yuzaga chiqadi.

Fikrimizga «Lolazor» asarida keltirilgan muloqot parchalari misol bo‘la oladi:

Yaxshiboyev qo‘shnilariga, garchi siyqaroq bo‘lsa-da, aniq nom topdi: ***sun’iy yo‘ldoshlar****. Ko‘ngli ermak tusab, boyagi gapirmaslik ahdini ham unutib, darozrog‘iga sekin gap qotdi:*

– Ostonaqul bolam, sizga nima deb diagnoz qo‘yishdi?

Darozning ismi Baxshullo, familyasi Ostonov edi. Yaxshiboyevning bepisandligidan ranjimadi, siniq iljaydi.

– Jigar-da, domlajon, - dedi yaqinroq kelib. Yaxshiboyev narigi bemorning ham kelishini kutib turdi, so‘ng undan ham so‘radi:

– Sizniki-chi, ukajon?

– Bizniki chatog‘roq, - dedi Yaxshiboyev, so‘ng nazarida yomonroq tuyulgan dardni ***o‘ylab topdi, ichida kuldi. –*** *Opkada kattakon dog‘ bor emish.*

– Yo‘g‘-e! – deya ishonmagan bo‘ldi Xumkalla, so‘ng o‘sha zahotiyoq tasalli berdi: – Otday bo‘p ketasiz, Nazar Yaxshiboyevich!

– Bu deyman, Ostonqul bolam, qazi-qartadan bormi?

– Topilib qolar, domlajon.

– Anovi.. oq-u qizilidan ham topiladimi?

Qo‘shnilar bir-birlariga qarab olishdi, keyin Daroz javob qildi:

– Izlashtirib ko‘ramiz, domlajon, Vaqtingizni aytsangiz, bas.

– Attang, bizga mumkin emas-da!.. – dedi Yaxshiboyev kuyunib. – Do‘xtirlar ruxsat berishmaydi.

– Endi ozginadan bo‘lsa ziyon qilmas, ana, zaharning ham ozginasi davo bo‘larkan-ku? – dedi Xumkalla.

– Bizga bo‘lmaydi, - deb bosh chayqadiYaxshiboyev, - Bizga tinchlik kerak. Ha, aytmoqchi, Ostonqul bolam, haligi… maqola-paqolalar chiqib turibdimi?

– Chiqyapti, domlajon.

– Shu menga keyingi maqolalaringiz o‘tirishmadi, - dedi Yaxshiboyev qovog‘ini solib, – Sal sayozlashib qolgandaysiz. Yo qo‘rqasizmi?

– Endi, bo‘larkan-da, domlajon…

– Manavi ukamizni nuqul maqtaysiz, - deya ***o‘yinni davom ettirdi*** *Yaxshiboyev.* ***(Lolazor*****. M.M.Do‘st, 107-108-betlar).**

Ko‘rinadiki «vaziyatni boshqaruvchi» Yaxshiboyev oldindan tuzgan maqsadini – o‘ziga yoqmagan, sun’iy ravishda kelib qolgan «bemor» rolidagi shaxslarni ketkazish nutqiy taktikasini «o‘yin» suhbati orqali amalga oshirdi. Natijada, o‘z maqsadiga erishadi, «bemorlar»ni kasalxonadan ketishini ta’minlaydi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Antuan Senr Ekzyuperi «Muloqot shunday ne’matki, u orqali inson lazzatlanadi», deb yozgandi. Darhaqiqat, mazkur jumlalar mazmuni ikki tomonlama talqin etilsa, uning ikkinchi talqini quyidagi misolda namoyon bo‘ladi. Muloqotdan «lazzatlanayotgan» «o‘yinchi» haydovchi va yo‘lovchilar muloqoti;

– «Maydon», Keyingisi… keyingi bekatda to‘xtamaymiz, o‘rtoqlar!

– Iye, nega?

– Bu bolaga bir balo bo‘lgan o‘zi, aniq!

– Nima, shaxsiy mashinasimi bu – istagan joyida to‘xtatib, istamagan joyida…

– Boya aytdim-ku sizlarga: avtobus bugun meniki. Bilgan ishimni qilaman.

– Voy-voy, bu kishimning gapini! – deb chiyilladi kattakon to‘rva ko‘targan bozorchinamo xotin apil-tapil eshikka tirg‘alib. – Och hoziroq, tushaman! Avtobusing boshingda qolsin! Boyatdan beri vaysagani vaysagan-a: «Bugun tug‘ilgan kunim», «Avtobus meniki, bilganimni qilaman!» Boyvacha bo‘lmay keting! Avtobusniyam bir kor-hol qiladi bu, mani aytdi deysizlar. Ichvolganmi, bir balo. Ana, shundoq og‘izginasidan gupurib turibdi, ko‘zlariyam bejo. To‘chniy!

Shlyapa kiygan o‘rta yashar bir kishi yaltiroq to‘siqqa yaqinlashib, Bakirga diqqat bilan tikildi:

– U yerda nega to‘xtatmoqchi emassiz, sababini bilsak bo‘ladimi?

– Yomon joy, - dedi Bakir yosh boladay tumshayib, ***«O‘yin»ni buzgisi kelmadi: boshlab qo‘ygan, davom ettirish kerak.*** *Sirasini aytganda, buni o‘yin deb bo‘lmasdi – Bakir hamon o‘sha la’nati bekatdan bezillaydi, ayni damda hazil-huzul yo‘li bilan bo‘lsin, xayolan u yerdan «qochmoqchi».*

– Maynavozchilikni qo‘ying, uka, – dedi uni insofga chaqirib shlyapali kishi.

– Men o‘sha yerda turaman. Shaharda eng obod bekatlardan u.

– Gastronomni ayting, qandoq gastronom bor-a! – deya bobillab gapga qo‘shildi kuppa-kunduzi Bakirga malomat qilgan haligi xotin. – Qachon kirsangiz, peshtaxtada…

– Odamning joni!

– Voy-voy!

– Anqoning urug‘i!

– Aytmadimmi, mast bu, deb? Go‘sht, piyonista, go‘sht!

– Kimga go‘sht, kimga tosh shunaqami?

Negadir bu gal xotindan sado chiqmadi. Chamasi, tomog‘iga nimadir, hozirgina o‘zi ta’riflagan go‘shtmi, tiqilib qolgan edi. **(«*Bayramdan boshqa kunlar*». E.A’zam, 296-b).**

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, suhbat tashabbuskorlari nutq orqali «o‘yin o‘ynashni» ya’ni ma’lum bir maqsadni amalga oshirishni, o‘z shaxsiy xohishlariga ko‘ra harakat sodir etishni ko‘zlagan bo‘ladi. Bunday oldindan reja qilingan nutqlar nutq tashabbuskorlarining o‘sha paytdagi ruhiy holatlariga monand ravishda yuzaga chiqadi. Ular o‘zlari ko‘zlagan maqsadga erishgach, 1-sida «bemorlar»ni ketkazish, 2-chisida avtobusni belgilangan reha bo‘yicha emas, o‘z ko‘ngil ko‘chasiga monand boshqarish orqali shaxsiy, ruhiy qoniqishga erishish va bu yo‘lda o‘z «o‘ljalari» (‘bemorlar» va yo‘lovchilar) ni tahlikaga qo‘yish va undan qoniqish tuyish harakati va shunga mos nutqiy harakat sodir etilganligini kuzatamiz.

Bunga o‘xshash nutqiy «o‘yin» shakllarini ma’lum nutqiy strategiyaga asoslanganligi va uni sodir etilishi natijasida *nutqiy zo‘ravonlik* sodir etilgan holat deya baholashimizga asoslar bor. Bunday nutqiy «o‘yin» o‘ynovchi suhbatdoshlar ruhiyatida alamzadalik, qasd olish, raqib-sherigini yerga urish yoki tahqirlash, o‘z manfaati (ma’naviy, ruhiy) ni qondirish istagi birinchi o‘ringa chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur muloqotlarning yuzaga kelishi, avvalo, ishtirokchilarning atrofidagi olamni qabul qila olmasligi yoki qabul qilishni xohlamasligi bilan baholanadi. O‘zi uchun noqulay bo‘lgan vaziyatni «qulay» vaziyatga aylantirish uchun o‘ylab topilgan bunday muloqot usullari, afsuski, hayotimizda uchrab turadi. Mulooqotdagi bunday nutqiy «o‘yinlar» so‘z qudratining nihoyasiz imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi va xushyorlikka chorlaydi. Mazkur sohaning pragmalingvistik tadqiqotlat doirasida o‘rganilishi soha rivojoga o‘z hissasini qo‘shmay qolmaydi.

Adabiyotlar

1. Алимасов В. Фалсафа ёҳуд фикрлаш санъати. – Тошкент: Noshir, 2008. – 255 б.

2. Аъзам Э. Кечикаётган одам. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2002. – В. 296.

3. Дўст М.М. Лолазор. – Тошкент: O‘zbekiston, 2016. – B. 107-108.

4. Karimova F. Dialogik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari // Til va adabiyot ta’limi, – Тошкент, 2020. – № 1. – Б. 41-43.

5. Шопенгауер А. Мир как воля и представление. Афоризмы. Житейской мудрости. Эристика, или исскуство побеждать в спорах. – М.: Эксмо, 2018. – 560 с.

6. Ҳошимов Ў. Юзма-юз // Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 94.

7. Internet manba: https://cyberleninka.ru/article/n/manipulirovanie-v-lingvistike/viewer

8. Malik T. Shaytanat.1- kitob, 155-b. Elektron nusxa:

https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20(birinchi%20kitob).pdf115-bet).

9. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. – М: Эксмо, 2009. – 566 с.

10. Karimova F. Dialogik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2020. – № 1. – Б. 41-43.

O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA DINIY NUTQNING O‘RNI

Shoira Ravshanovna AMONTURDIYEVA,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mazkur maqolada o‘zbek lingvomadaniyatida diniy nutqning o‘rni, diniy tushunchalarning madaniy ahamiyati, diniy frazeologizmlarlarning o‘zbek lingvomadaniyatiga singib ketganligi ilmiy tahlillar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar:*lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, diniy nutq, diniy madaniyat, diniy frazeologizmlar.*

Bugungi kunda islom madaniyatining tarbiyaviy ahamiyati, hayotimizdagi o‘rni oshib borayotganligi va uning tushunchalari lingvomadaniyatimizga singib ketayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Avvalo, dinniy qadriyatlarning hayotimizdan mustahkam o‘rin olganligi va bu orqali diniy so‘z va iboralarning lingvomadaniyatimizga o‘rnashayotganligiga asos bo‘ladi. Vaholanki, o‘zbek nutq odobiga islomiy tarbiya orqali singdirilgan turg‘un shaklli murojaat vositalari ham borki, ularning katta qismi o‘zbek diniy qadriyatlarining manzarasini gavdalantiruvchi, ekzotizmlarga to‘g‘ri keladi. *Bismillohi rahmoni rahim, Alloh rozi bo‘lsin, Xudo qo‘llasin, joylari jannat bo‘lsin, oxirati obod bo‘lsin, namozi qabul bo‘lsin* kabi.Ekzotizm – o‘zga xalq hayoti va madaniyatiga oid realiyalarni ifodalovchi o‘zlashtirma so‘z[1,7-8]larni anglatadi. Ko‘p hollarda diniy tushuncha anglatuvchi so‘z va iboralar ham ekzotizm sifatida qaraladi.

Lingvokulturologik yo‘nalishlardan biri sifatida lingvokonfessiologiya til va madaniyat, til va din, til va konfessiya kabi fenomenlarning lisoniy ifodasiga oid xususiyatlar tadqiqini o‘z ichiga oladi. Ma’lum konfessiyaga xos diniy frazeologizmlar denotativ (asl) ma’nosi yoki milliy madaniyatning *ramzlar, etalonlar, realiyalar, stereotiplar* kabi assotsiativ asoslari orqali millatning diniy tafakkuri, dunyoqarashi to‘g‘risidagi madaniy axborotni ifodalaydi.

Masalan, o‘zbek xalqida *yashil,oq* ranglar diniy urf-odatlar jihatidan ijobiy ramziylikni anglatadi. Shuning uchun ushbu ranglarni ifodalovchi so‘zlarning frazeologik birliklarda, jumladan, diniy frazeologizmlarda uchrashi tabiiy hol [2,672]. Yana bir misol: *ko‘k kiymoq* (azador bo‘lmoq); *ko‘k tashlamoq – oq kiyar qilmoq* (aza davrini yakunlash); *oq qilmoq* – farzandining gunohlari uchun undan voz kechmoq, duoibad qilmoq; *oqpadar* farzand – otaning qarg‘ishini olgan farzand va h.k.

Din inson uchun qadrli bo‘lgan hayot va qo‘rqinchli o‘lim tushunchalarini ma’lum darajada ratsionallashtirish vazifasini bajaradi. O‘lim

tushunchasi bilan bog‘liq frazeologizmlar barcha tillarda ko‘plab variantlar va sinonimlarga ega.

O‘lim ifodasini anglatuvchi frazeologizmlar o‘zbek xalqi madaniyatida ushbu hodisaga nisbatan ehtiyotkorlik bilan so‘z tanlash atrofdagilarning ko‘ngliga qattiq tegmaslik, qo‘rqinch hissini uyg‘otmaslik maqsadi asosida shakllangan deyish mumkin. «Xalqimiz fitratida latif so‘zlamoqlikka intilish bor. Latif so‘zlar barcha davralarda qadrlanadi. Qo‘pol ifodadan barcha nafratlanadi. Ma’lum bir holatni ifodalovchi so‘z kuloqqa qo‘polroq eshitilgani uchun ramzlardan foydalaniladi» [3,306].

Inson o‘lim muqarrarligini anglaydi, undan qo‘rqadi, shu bilan birga, xalq donishmandligi o‘lim oldida barcha bir xil ekanligini, yaxshi odam jannatga, yomon odam do‘zaxga tushishini diniy frazeologizmlar orqali ta’kidlaydi: *o‘zb. t.: o‘lim haq; har kimning borar joyi bir; o‘lim oldida shoh ham, gado ham bir; jon Allohga omonat; bir boshga bir o‘lim; o‘lim qosh bilan qovoq orasida; bu dunyo bilan xayrlashmoq; narigi dunyoga ravona bo‘lmoq; olamdan o‘tmoq; dunyodan ko‘z yummoq; asfalasafilinga ravona bo‘lmoq; jahannamga yo‘l olmoq; o‘tib qolmoq; jon bermoq; omonatini topshirmoq; bandalik qilmoq va h.k.*

Aytish kerakki, diniy qarashlarimizni ifodalovchi qator turg‘un iboralar kundalik so‘zlashuv nutqida nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi faol umumiste’mol birliklariga aylanib ulgurgan. Masalan: *avvali xudo, xudo poshsho (podshoh), xudo berdi, xudo ko‘rsatmasin, xudo urgan, xudo haqi, shaytonlab qolmoq, vosvos, xudo bezori, xudo xohlasa va b.*

Yuqoridagi frazeologizmlar madaniyatlararo muloqotning o‘ziga xos vositasi sifatida o‘zbek xalqining og‘zaki nutqi va badiiy asarlarida faol qo‘llanadi:

Bizningcha, diniy tasavvurlar va diniy manbalarning qadimiyligi, hattoki birlamchiligi uning integrativ xususiyatiga sabab bo‘lgan, deyish mumkin. Turli tarix, turli til va turli madaniyatga ega bo‘lgan dunyo xalqlarining turmush tarzlaridagi diniy umumiylik, jamoaviylik ularning tillari o‘rtasidagi aloqani kuchaytiradi. Profan (dunyoviy) frazeologizmlardan farqli ravishda, diniy frazeologizmlar faqat ma’lum xalqning milliy-madaniy qadriyatlarini emas, balki umuminsoniy qadriyatlarni maksimal darajada ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, xalq tilida yuzaga kelgan diniy mazmundagi iboralar ham mavjud. Masalan; *Makkaga imom bo‘lgur. Xizr bilan do‘st bo‘lgur*. Ushbu frazeologik birliklar o‘zbek onalarining farzandlariga qarata aytadigan ijobiy qarg‘ishi (olqishi) ham hisoblanadi. Ayni vaqtda mazkur birliklar badiy adabiyot namunalarida ham faollashgan.

Ma’lumki, islom dini insonlarni go‘zal ahloqqa undovchi, ularni mehr oqibat va ezgulikka chorlovchi dindir. Shu bois diniy matnlarda qo‘llaniluvchi

tanbeh mazmunidagi iboralar ham mayin va vazmin, shaxs psixologiyasiga salbiy ta’sir qilmaydigan ko‘rinishda bo‘ladi. *Anas ibn Molik rivoyat qiladilar: «Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam badhulq ham, so‘kong‘ich ham ermas erdillr. Birovga tanbeh bersalar: «Peshonang tufroqqa tekkur!» — derdilar, xolos». (*Al-Jomi’ as-sahih. 4-jild, 1992-yil. B-67).

Jamoa bilan o‘qilgan namozni uyda yolg‘iz o‘qilgan namozdan 28 darojot savobi ulug‘ ekan. Uyda yolg‘iz namoz o‘qigan kishini **xonasalot** deb atashar ekan. Qadimda erlar uyda yolg‘iz namoz o‘qishni or bilisharkan va birovga «xonasalot bo‘lgur» iborasini ishlatishni o‘zlariga haqorat deb qabul qilar ekanlar. Agar tiklab keladigan bo‘lsang, kelib ko‘r! Usiz ham tirikchiligi xonasalot bo‘lgan och-yalang‘ochlarim bor. Har qalay, o‘lgan ekanman-ku!.. [4].

Go‘ro‘g‘li sulton: «Ha, xonasalot bachchag‘ar, seni ko‘rar ekanman-ku, - ded shadravonlar bilan turibdi»[5,343]. Xalqimizning nutqida *«O‘tkan ishga salovat»* iborasi ko‘p qo‘llaniladi. Buni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilganda, arablarda 2 kishi janjallashsa payg‘ambarimizga salovat aytishga buyurilar ekan, boisi payg‘ambar eslangan joydan shayton qochib insondagi g‘azab tarqaydi. Bu diniy qarash va madaniyatning e’tiqod qiluvchi xalqlar hayotida qadriyatga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

H.Shamsiddinov: Insonning diniy tasavvurlari yordamida ham SFSS(so‘zlarning funksional semantik sinonimlari) yuzaga kelishi mumkin: insonning jannatdan quvilishiga sabab bo‘lgan voqea tasavvuri asosida shaytonning ayyorlik timsoli sifatida ijtimoiy ongda mustahqamlanib qolishi *shaytonga dars beradigan* iborasining *ayyor* so‘zi bilan sinonimik munosabatini ta’minlagan[6,11] deya ta’kidlaydi.

Ba’zi diniy frazeologik birliklar insonni Parvardigor qonunlariga ko‘ra umr kechiruvchi zot sifatida, ba’zilari esa uni Xudoning buyruqlarini to‘liq bo‘lmasa-da, bajaradigan yoki ularni qabul qilmaydigan bir banda sifatida tavsiflaydi (*mo‘min-qobil kishi, Xudo bergan, jannati inson, Xudo urgan, do‘zaxi inson va h.k*.).

Adabiyotlar

1. Александрова О. Лексика арабского происхождения в системе современного русского языка. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2010. – с. 7-8 // https://www.dissercat.com/content/leksika-arabskogo-proiskhozhdeniya-v-sisteme-sovremennogo-russkogo-yazyka.
2. Серов Н.В. Свет культуры. – СПб.: Реч, 2003. – 672 с.
3. Малик, Тоҳир. Саодат саройининг калити (Одамийлик мулкига доир суҳбатлар). Биринчи китоб / Тоҳир Малик. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. — 420 б.
4. Авезов М. Абай. – Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашри, 1957. – 316 б.

5. «Гўрўғли» халқ достони. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 343.
6. Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: Филол.фан.д-ри… дисс.автореф. – Тошкент, 1999. – Б.11.

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA OZIQ-OVQAT KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING MENTAL XUSUSIYATLARI

Hamid Xo‘shmurodovich BOZOROV,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Termiz davlat universiteti

Har bir xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosligini va lisoniy manzarasini ifodalashda frezeologik birliklarning o‘rni katta. Ayniqsa, frazeologik birliklarning folklor janrlarining eng qadimiysi hisoblangan ertaklardan o‘rin olishi xalq hayotida mavjud eng qadimiy frazeologizmlarni aniqlash imkonini beradi. Ertaklar tilida oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklarning ifodasi xalqning mentalitetini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola ham, aynan, o‘zbek xalqi hayotidan o‘rin olgan oziq-ovqat bilan bog‘liq frazeologimzlarning tahliliga bag‘ishlanganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, milliylik, madaniy, ma’naviyat, oziq-ovqat komponentli frazeologizmlar, folklor, o‘zbek xalq ertaklari.*

Tilning leksik tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ba’zi so‘zlar o‘zlarining bog‘lanishlarida cheklangan. Shu bilan birga, belgilangan hodisalarning tabiati nuqtayi nazardan bunday cheklovlar uchun tushuncha topish qiyin, ular ushbu tilga xos bo‘lgan qonunlarga bog‘liq [2,56]. Mana shunday bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun har bir xalqning tarixiy va madaniy yashash tarzi bilan bog‘liq frazeologizmlari yuzaga keladi. Frazeologizmlar faqatgina tushuntirilishi qiyin bo‘lgan leksik birliklar o‘rnida qo‘llanib qolmaydi. Unda «Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda ma’lum xalqning miflari, udumlari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va va h.k haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi» [11, 91].

Har bir xalqning o‘ziga xos madaniy xususiyatlari til orqali namoyon bo‘ladi. Madaniy hamda ma’naviy merosni shaxs ongidagi manzarasining yuzaga chiqishida har bir xalq uchun frazeologizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Buning natijasi o‘laroq xalq hayotining muhim xususiyatlarini ta’sirli qilib yetkazish, tushunilishini osonlashtirish uchun vujudga kelgan birliklar

frazeologizmlar atrofida to‘planadi Shu bilan birgalikda, frazeologizmlardan foydalanish obrazlilik va takrordan «qochish» uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

XIX asrda lingvistik psixologizmni uning peshqadami deb atash mumkin, chunki tadqiqotchilarning diqqat markazida frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi va faoliyatining psixolingvistik mexanizmlari, shuningdek, V.fon Gumboldt va A.A.Potebnya g‘oyalari, Praga funksional kommunikativlari tilshunoslikning markazida bo‘ldi [1,22].

Rus tilshunosi Alefirenko frazeologiyaning shakllanishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Abadiy» fanlararo muammoning paydo bo‘lishi til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar XX asrning oxirgida paydo bo‘ldi. Frazeologiyada yangi ilmiy paradigmalarning paydo bo‘lishi va har qanday tilning eng madaniy jihatdan belgilangan obrazli birliklari yuzaga chiqdi. Natijada, bizning ko‘z o‘ngimizda lingvokulturologik, kommunikativ-pragmatik va kognitiv frazeologiyalar paydo bo‘ladi [1,5].

Frazeologizmlar xalq hayotining qadimiyligini ko‘rsatib beruvchi muhim birliklar hisoblanadi. Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma’naviy-madaniy me’yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an’ana va urf-odatlar, madaniy sterotiplar va arxetiplar o‘z aksini topgan bo‘lib, ular avloddan avlodga uzatiladi [11, 90]. Bu haqida Maslova: «Frazeologik birliklar (FB) dennotatsiyada yoki bilvosita (assotsiativ majoziy asosning milliy madaniyat standartlari, ramzlari, stereotiplari bilan o‘zaro bog‘liqligi orqali) dunyo, jamiyat haqidagi madaniy ma’lumotlarni olib yuradi. Shuning uchun FBlar – bu xalqning mentalitetini, madaniyatini avloddan-avlodga yetkazadigan va shakllantiradigan xalqning o‘ziga xos «donolik ombori» [5,45], degan fikrni bildiradi.

Tilshunos olim Txan Xaning fikriga ko‘ra, «Frazeologik birliklar mazmuniga ko‘ra obraz, hodisa, holat, xarakter, xulq-atvor, munosabat ... ifodalaydi [6, 10]. Bunda frazeologizmlar har bir xalqning o‘ziga xos voqea-hodisalari, xarakteri, yashash tarzi va asosiy mashg‘ulotidan kelib chiqib, o‘sha xalqning mentalitetini ko‘rsatib turuvchi birliklar sanaladi. Olima Sh.Maxmaraimova «frazeologizmlar – millatning olamni anglashdagi o‘ziga xos tamoyili, sog‘lom fikri, axloqiy qonuniyatlarining qisqa va lo‘nda obrazli ifodasi» [10, 271] dir, deb ta’kidlaydi. Bu jarayon og‘zaki holda ajdodan avlodga hamda yozma manbalarda saqlanishi inobatga olsak, xalq og‘zaki ijodi namunalarida frazeologizmlarning «yashashi» tabiiy. Ayniqsa, xalq ertaklari tilida frazeologik birliklarning qo‘llanishi ko‘pchilikni tashkil etadi. Sababi, «har bir xalq vakili o‘z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so‘z birikmalari yaratishda o‘ziga yaqin yoki tanish narsa

va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi» [11, 91]. O‘zbek xalq ertaklarining obrazlar nutqida ham xalqimizning ko‘p asrlik milliy va madaniy tajribasi frazeologizmlarda o‘z ifodasini topadi, desak xato bo‘lmaydi.

A.Mamatov doktorlik dissertasiyasida E.Begmatovning: «xalq tili frazeologiyasi, o‘zbek folklori frazeologiyasi, o‘zbek dialektal frazeologiyasi» [4, 15] ni tadqiq qilish haqidagi fikrini keltirib o‘tadi. O‘zbek folklori, jumladan, xalq ertaklarida mavjud frazeologizmlarni tadqiq qilish ham bugungi kun tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbek xalq ertaklari tilidagi frazeologizmlarning, asosan, iboralarning juda ko‘pchiligi xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq narsa-predmet va voqea-hodisalarga asoslangan tushunchalar orqali vujudga kelgan.

V.N.Teliya yozadiki, tilning frazeologik tarkibi «lingvomadaniy hamjamiyat o‘zining milliy o‘z-o‘zini anglashini belgilaydigan ko‘zgu», aynan frazeologik birliklar ona tilida so‘zlashuvchilarga dunyo va vaziyatga alohida qarashni yuklayotgandek tuyuladi [5, 64]. Shuni inobatga olib o‘zbek xalq ertaklari tilida mental xarakterga ega frazemalarni tadqiq qilish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O‘zbek xalq ertaklarida lingvomadaniy birliklarni yuzaga chiqishida oziq-ovqatlar bilan bog‘liq iboralar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o‘zbek xalqi lisoniy ongida non konsepti bilan bog‘liq o‘ziga xoslik mavjud bo‘lib, asosan ijobiy ma’nodagi xususiyatlarni keyingi avlodga yetkazib beruvchi vazifasini bajaradi. Chunki «O‘zbek xalqi kundalik turmushida non muhim ozuqa hisoblanadi» [11, 94]. **Non** bilan bog‘liq ko‘plab qarashlar uzoq asrlik o‘tmishimizdan bugungi avlod vakillariga nonning azizligi haqida ko‘plab «ko‘rsatma»lar berib kelingan. Bular sirasiga nonni yerga tashlamaslik, ushog‘ini oyoq ostiga to‘kmaslik, ustidan o‘tmaslik va h.k. qarashlar asosida nonni e’zozlashga qaratilgan milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan tushunchalar paydo bo‘ldi.

Non – o‘zbek xalqi tarixida mavjud bo‘lib, qadimdan ajdodlarimizning asosiy ozuqsi hisoblanib kelgan. Bu holatni o‘zbek xalq ertaklarida qo‘llangan iboralar orqali ham ko‘rishimiz mumkin:

*Chol-kampirni bir vaqtlar bizga **tuz-non bergan** egamiz, deb ularni olib kelishib, shu qo‘rg‘onga ega qilib qo‘yishibdi* («Mushuk, it va sichqon», 191-b.).

Ushbu misoldan anglashiladiki, **«tuz-non»** o‘zbek xalqi lisoniy ongida muqaddas hisoblanib, bercha yeguliklarning jamlanmasi hisoblanadi.

«Tuz-non bermoq» iborasi «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan o‘rin olmagan. Ushbu ibora zamirida «yaxshilik qilmoq», «kerakli (asosan, ijobiy) saboq bermoq» kabi ma’nolarni tashiydi. Xalqimiz nutqida **«tuzini yemoq», «nonini yemoq»** kabi alohida frazemalar ko‘proq uchraydi. Frazemalarni semantikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, «tuzini yemoq»

iborasi koʻproq ifoda ottenkasiga ega ekanligini guvohi boʻlamiz. Sababi tuz koʻp taomning asosini tashkil etganligi uchun «koʻproq yaxshilik koʻrganlik»ni ifodalaydi. Buning zidi sifatida «yaxshiligini unutmoq ma'nosida, oʻzbek soʻzlashuv nutqida *«tuzligʻiga tupurmoq»* iborasi» [9, 191] ning mavjudligi ham asosiy sabablardan biridir. *«Nonini yemoq»* iborasida esa bunday zidlik mavjud emas va ifoda ottenkasiga koʻra kuchsizroq, desak xato boʻlmaydi.

Taom – madaniyatning shunday moddiy elementiki, unda boshqalarga qaraganda koʻproq milliy qarashlar saqlanib, xalqning oʻziga xos milliy xususiyatlari haqidagi farazlari shakllanadi va oson tushuniladi [3, 14]. «**Osh bermoq** «toʻy-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat oʻtkazmoq» [11,97] ma'nosini ifodalab, oʻzbek xalq ertaklarida ham asosan, shodiyona kunlarda oʻtkaziladigan marosimlar uchun qoʻllangan:

Hamma kam-koʻstini sozlab: «Toʻlgʻonoyning nikohi hammaga ma'lum boʻlsin» deb, bir kichikroq toʻy qilib, besh-oʻn odamga ***osh beribdi*** (Oyjamol. «Toʻlgʻonoy», 24-b.).

Oʻzbek xalqi hayotida *tolqon (talqon)* qadimdan ozuq manbayi boʻlib kelgan. Uni tayyorlashda asosiy manba qovurilgan don, quritilgan non [7, 139] hisoblansa-da, ba'zi hududlarda olma yoki oʻrik qoqisidan ham tolqon tayyorlangan. Oʻzbekiston hududida aynan oʻrik va olma qoqisidan tayyorlanadadigan tolqonlar hozirda ham saqlanib qolgan. Bunday talqonlar ocharchilik vaqtlarida non oʻrnida ham foydalanilgan. Talqon bilan bogʻliq iboralarning yuzaga kelishida ham oʻzbek xalqi madaniyati bilan bogʻliq xalqchil tushunchalarni ifodalashining guvohi bolamiz. Quyidagi misolga e'tibor qaratadigan boʻlsak, ertak tilida xalq hayoti bilan bogʻliq fantaziyaning kuchli ekanligi sababli **«talqon»** leksemasi bilan bogʻliq iboraning qoʻllanishi kuzatishimiz mumkin: *Bozorga borib toʻrtta,* ***togʻni ursa talqon qiladigan*** *yigitlardan yollab olib uyiga qaytibdi, ularni xotiniga bildirmay mehmonxonaga joylabdi* (Uch ogʻayni botirlar» Mushuk, it va sichqon», 189-b.).

- *Bor, toshingni ter, ishing boʻlmasin.* ***Qulogʻingning tagida shavla qaynatmasimizdan*** *joʻnab qil! – deb uni haydab yuboribdilar* (Oʻzbek xalq ertaklari. «Jonon piyola», 142-b).

Yuqoridagi misolda hozir ham nutqimizda qoʻllanuvchi *«qulogʻining tagida shavla pishirmoq»(shapaloq bilan urmoq, tarsaki solmoq)* [8, 139] iborasida mavjud **«shavla»** (guruchdan tayyorlanadigan yumshoq osh) taomi ham oʻzbek xalqida hayoti bima bogʻliq holda milliylikni ifoda etuvchi muhim manba hisoblanadi.

Xulosa oʻrnida aytishimiz mumkinki, oʻzbek xalq ertaklari tilida milliy-madaniy qarashlarimiz bilan bogʻliq oziq-ovqat komponentli frazeologizmlar talaygina boʻlib, ushbu frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kab etmoqda. Chunki boshqa tillarda mavjud oziq-

ovqat komponentli frazeologizmlarni o‘rganish, qiyoslash orqali ham ma’lum bir xalqning milliy-madaniy qadriyatlarini bilish imkoniga ega bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. Алефиренко Н.Ф. Фразеология в свете современных лингвистических парадигм: Монография. – М.: Элпис, 2008. – 224 с.
2. Горская С.А. Лексика. Фразеология. Лексикография. – Гродно: ГрГУ, 2009. – 137 с.
3. Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалс.док. ...дисс. – Жиззах, 2021. – 58 б.
4. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 54 б.
5. Маслова В. Введение в лингвокультурологию: Учебное пособие. – Москва: Наследие, 1997. – 207 с.
6. Фам Тхи Тхань Ха. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и вьетнамского языков: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2005. – 24 с.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 2 жилд. – 607 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. 4 жилд. – 606 б.
9. Jumaeva Z. Oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarda mentalitet ifodasi. // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 2020. № 8. mailto:tdpujournal@mail.ru – B.191.
10. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (leksokologiya). Firdavs-Shoh. – Toshkent: 2021. – 380 b.
11. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – 248 b.

BADIIY MATN VA UNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Nabi Narziyevich JO‘RAYEV,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ushbu maqolada badiiy matnlar va ularning lingvokulturologik tahlilini amalga oshirishning ilmiy-amaliy asoslari ochib berilgan. Bugungi kunda zamonaviy lingvomadaniyat (lingvokulturologiya)da juda ko‘plab ilmiy-nazariy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilganligi, o‘rganish usullari

integrativ xarakterga egaligi va bu tahlilning o‘zi madaniyat – tafakkur - til paradigmasi doirasida amalga oshirilishi bayon etilgan. Badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilishda e’tiborga olinadigan tahlil usullari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Badiiy matn, lingvomadaniy, lingvokulturologiya, tahlil, til, madaniyat, tafakkur, paradigma.*

Badiiy matn tahlilining muhim jihatlaridan biri lingvokulturologik tahlil, ya’ni matnni madaniyat hodisasi sifatida ko‘rib chiqish va madaniy ma’lumotlarni lingvistik belgida va butun matnda idrok etishdan iboratdir. Badiiy matn g‘oyalar, madaniy e’tiborga loyiq lingvomadaniy birliklarning koni va majmui hisoblanadi. Buni biz badiiy matnlarga murojaat qilish jarayonida yana bir marta guvohi bo‘lamiz. Lingvokulturologik tahlil madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan lingvistik va nutq birliklari haqida fikr yuritish qobiliyatini shakllantirishga va lingvomadaniy kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda zamonaviy lingvomadaniyat (lingvokulturologiya)da juda ko‘plab ilmiy-nazariy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘rganish usullari integrativ xarakterga ega va bu tahlilning o‘zi madaniyat – tafakkur - til paradigmasi doirasida amalga oshiriladi. Ushbu tendentsiya badiiy matnni o‘rganishda yangi samarali yondashuvlarni topishga, uning shakllanishi va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Olimlar badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanayotgan bir qator ilmiy yo‘nalishlarda lingvokulturologiyaning ham tadqiqlarini uchratamiz. Lingvomadaniyatning tahlil obyekti sifatida badiiy matn haqida birinchi eslatma G.V.Stepanov, D.S. Lixachevlarning nazariy izlanishlarida uchraydi. «Madaniyat– fikrlash – til – so‘z – nutqni tushunish, bularning barchasi matn orqali amalga oshiriladi»,- deydi S.V.Ivanova.

Badiiy matn tahlilining tavsifiy jihatlaridan biri shundaki, lingvomadaniy tahlil, ya’ni matnni madaniyat hodisasi sifatida o‘rganish, ko‘rib chiqish, hamda madaniy axborotni til belgisi deb qarab uni butunligicha matnda idrok etish, mantiqiy-falsafiy mushohada yuritish muhim o‘rin egallaydi.

Matn g‘oyalar, ma'nolar, hissiyotlar, hayrat va madaniy «tafakkurlarning omboriga o‘xshaydi»[1,7]. Lingvomadaniy tahlil madaniy ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan lingvistik va nutq birliklari haqida fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga va lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu ishlarni atroflicha va mukammal amalga oshirish maqsadlariga erishish uchun quyidagi lingvjmadaniy tahlil usullariga murojaat etish yaxshi natijaga erishtiradi. Tilshunoslar D.V.Voroshkevich, D.P.Kazannikovalarning tadqiqotlarida badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilishning metodlari

ko‘rsatib o‘tilgan. Ular «filologik tahlil usuli, matnning g‘oyaviy mazmunini izohlash usuli, kontseptual tahlil usuli, dunyo manzarasini tasvirlash usuli, qiyoslash, fikrlarning mosini qo‘llash»[2,7] usullaridir.

Badiiy matnning lingvomadaniy tahlili ko‘p qirraliligi bilan bugungi davr mutaxassislarining diqqat markazida bo‘lib turibdi. Shuning uchun ham badiiy asarlar va ularning badiiy matnlari lingvistik hamda lingvomadaniy tahlillarning haqiqiy obyektiga aylanib bormoqda. «Zero, inson, til va madaniyat et-u tirnoqdek birlikni hosil qiladi. Til millatning g‘ururi, mavjudlik sharti, xalqning ruhi, milliy madaniyat ko‘rsatkichidir. Milliy mentalitetga xos turg‘unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, ayniqsa, milliy tilning barqaror birliklarida yorqin aks etadi [3,2]. Adabiy-badiiy matnlarni ilmiy va badiiy tahlil qilishning, sharhlashning ahamiyati juda kattadir. N.Mahmudov qayd etganidek,»…Har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham «milliy ong», «milliy tafakkur», «milliy tuyg‘u» degan oddiy tushunchalar , ming yillardir, odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi» [4,10]. Badiiy matnning lingvomadaniy tahlili lingvokulturologiyaning tadqiqot usullari orasida alohida o‘rin tutadi. Matnni sinchiklab o‘rganish o‘zbek tili madaniyatiga chuqurroq kirib borishga, ma’lum til birliklari ortidagi ma’nolarni ochib berishga, ma’lum o‘zbek madaniyatining qadriyat yo‘nalishlarini tushunishga yordam beradi va natijada, ushbu madaniyatda mavjud bo‘lgan dunyo tasviri haqida tasavvur hosil qilish imkoni tug‘iladi. «Xalqning dunyoni milliy ko‘rish tarzi va idrok-intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi» [5,6].

Badiiy matnlarda o‘zbek xalqining – millatning turmush sharoiti, qadriyatlari va butun hayoti, madaniyati badiiy tasvirlarda ifoda etilgan bo‘ladi. Xalqning ushbu madaniyat belgilari o‘zbek milliy tilimiz orqali keyingi davr va avlodlarga butunligicha yetkaziladi.

Badiiy matn «insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tasavvurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam» [6,11]etadi. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan badiiy so‘z va u orqali tuzilgan badiiy nutq tog‘risida ham fikr yuritish, aytmoqchi bo‘lganlarimizni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. «Badiiy nutq ifodali vositalarga boyligi bilan bir qatorda so‘zning turli qirralarini ochib beruvchi manba hamdir. Shunga ko‘ra badiiy matnni o‘rganish usullari ko‘p qirrali»[7,300] ligi bilan ajralib turadi. Har bir xalqning milliy madaniyati avvalo uning tilida aks etadi. Madaniyatning tilda aks etishi, badiiy matnlarda tasvirlanishi juda ko‘plab olimlar, tilshunoslar tomonidan ta’kidlangan, ularning ilmiy ishlarida tadqiqotlar mahsuli sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. «Agar til barcha bilish jarayonlariga aralashmaganida edi, o‘ziga xos

yangi muhit yaratmaganida edi, inson kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lmagan bo‘lar edi. Inson yaratgan matn inson tafakkuri harakati, yo‘nalishini aks ettiradi, baholi qudrat olamlar yaratadi, til birliklari yordamida fikr kuchi va uni namoyish etish usullarini ko‘rsatadi» [8,11].

O‘zbek tili va uning lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nozik ma’no ifodalashi, tasvirlashi va bo‘yoqdorligini vujudga keltiradigan, so‘zlarning xususiyatlari hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradigan manba – bu badiiy matn hisoblanadi. «Agar badiiy matn, uning turli shakllari bo‘lmaganda edi, tilning naqadar qashshoq bo‘lishini tasavvur qilish qiyin bo‘lmasdi. Bu hol tilning butun go‘zalligini namoyon qiluvchi manba badiiy ijod, badiiy ijodning yorqinligini belgilovchi narsa til vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda so‘zning ma’no ifodalash doirasining kengligida ko‘rinadi va bu hodisalar, asosan, badiiy nutq orqali namoyon bo‘ladi» [9,98]. Badiiy matnni o‘rganish, uning toifaviy xususiyatlari va munosabatlarini tahlil qilish, aniq tavsiflarni ro‘yobga chiqarish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Shuning uchun ham bugungi kunda bu borada o‘ziga yarasha muammolar ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda badiiy matnlarning lingvomadaniy tahlili kognitiv va intellektual faoliyatning juda keng hamda dolzarb sohasi sifatida ilmiy jarayonga muvaffaqiyatli tatbiq etilib, ilmiy-qiyosiy lingvistik tadqiqotlar uchun asos bo‘lmoqda. Kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, o‘zaro aloqada bir xil yo‘nalishda rivojlanadi va o‘xshash xususiyatlarga egadir. O‘xshashligi integrativ yondashuvning mavjudligi bilan belgilanadi. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyatning ifodachisi sifatida o‘rganadi. Madaniyat tushunchasi tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi uchun eng muhim va asosiy hisoblanadi. «Insonning butun faoliyatida, turmushida madaniyatga daxlsiz bo‘lmagan biror narsa yo‘q. Uning barcha harakati va faoliyatida madaniyat qaysidir jihati bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, nutq va muloqot madaniyati, kiyinish madaniyati, turmush, urf-odatlar va marosim, rasm-rusumlar madaniyati, yurish-turish va o‘zini anglash madaniyati ko‘rinishlarida o‘z mazmuniga ega tarzda ishtirok etadi» [10,58]. Madaniy qarashlar, ayniqsa, badiiy matnlarda badiiy tasvirlar orqali yanada yorqin ifodalangan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, badiiy matnga xalq milliy madaniyatining ko‘zgusi sifatida qarash, xalqning ma’naviy va axloqiy qadriyatlari ifodasi deb qabul qilish lozim bo‘ladi. O‘zbek milliy tilshunosligining lingvomadaniy sohasida bir talay ilmiy izlanish va tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilishning aniq nazariy asoslari haligacha yaratilgani yo‘q. «Tilshunoslikda badiiy matnning lingvomadaniy tahlili tamoyillari to‘liq shakllanib, bir tizimga solingan emas. Milliy tilshunosligimizda esa bu borada shu vaqtga qadar maxsus tadqiqotlar yaratilgani yo‘q. Vaholanki, o‘zbek adiblarining asarlari lingvomadaniy tahlil uchun juda muhim va e’tiborli manba bo‘la oladi» [11].

Insonning madaniy qarashlari uning nutqi orqali badiiy matnda aks etar ekan, san’at asari darajasida baholash va tahlil qilish kerak. Aslida lingvomadaniy tahlil an’anaviy tahlildan o‘sib chiqishi kerak. Uning asoslari, ustqurmasi an’anaviy tahlil usullariga borib taqaladi. Shu o‘rinda «badiiy matnlarni nima uchun lingvomadaniy tahlil qilish kerak?»,- degan o‘rinli savol tug‘iladi. Badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilish jaraonida quyidagi kompetensiyalar shakllanadi.

1. Badiiy matnlarni diqqat bilan o‘rganish orqali lingvomadaniy tahlil qilish xalqning boy madaniyati olamiga chuqurroq kirib borishga, til va madaniyat mushtarakligi, uning ta’lim tizimiga ta’siri hamda madaniyat tushunchasi to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga yo‘l ochib beriladi.
2. Badiiy matnlardagi lingvomadaniy birliklar «millat mentaliteti va madaniyati haqidagi qimmatli madaniy axborotlar manbai hisoblanadi» [12,3]. Badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilish jarayonida shaxsning dunyoqarashi, mantiqiy-falsafiy fikr yuritish darajasi, ilmiy va ijodiy salohiyati oshadi, xalqning milliy, madaniy va qadriyatlariga, boy lingvistik va adabiy merosiga qiziqish uyg‘onadi.
3. Badiiy matn tahlilining asosiy jihatlaridan biri lingvomadaniy tahlil, ya’ni matnni madaniyat hodisasi darajasida ko‘rib chiqish va madaniy ma’lumotni til belgisi sifatida idrok etishdir. Badiiy matnlarning lingvomadaniy tahlilini amalga oshirish jarayonida milliy madaniyat ifodasi hisoblangan lingvomadaniy so‘zlar badiiy matnning mantiqiy mazmunida qanday ma’no hamda mazmun ifodalashiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.
4. Har bir millatning madaniyati o‘sha xalq tilidagi lingvomadaniy so‘zlar yordamida, ularning ishtirokida tekshiriladi, solishtiriladi, taqqoslanadi hamda tahlil qilinadi, shuning bilan birga tilning asosiy so‘zlari orqali tasvirlanadi va tushuniladi. Kishilar ushbu asosiy lingvomadaniy so‘zlarni va ular ifodalayotgan tushunchalarni o‘z dunyoqarashlari orqali his qiladilar, bu so‘zlardagi ifodani o‘z turmush tarzi, o‘ziga va atrof – muhitga munosabatlarida anglaydilar.
5. Badiiy matnlarning yashirin bo‘lgan ma’nosini, mazmunini tushunish, asar mazmuniga nisbatan mantiqiy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega.
6. Diaxronik lingvomadaniyat ham, zamonaviy lingvomadaniyat ham xalq madaniyati, madaniy va milliy urf-odatlarining tilda badiiy aks etishini o‘rganadi. Tahlilda ana shu jihatlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim.
7. Badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilishda konseptual tahlil metodidan foydalanish samara beradi. Konseptual tahlilning maqsadi badiiy matnlardan madaniyat belgilarini o‘zida aks ettirgan, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalar paradigmasini aniqlash va ularning konsept sohasini lingvomadaniy jihatdan tasvirlash hamda tahlil qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Ворошкевич Д.В, Казанникова Д.П. Пособие по лингвокультурологическому анализа текста. – М.: МПГУ, 2016. – С. 7.
2. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри дисс-си. – Тошкент, 2020. – В. 2.
3. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – В. 10.
4. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015, 3-сон. – В. 6.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – В.11.
6. Умуркулов Б. Бадиий наср жозибаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2021. – В. 300.
7. Саидова М, Қўзиев У. Лингвокултурология. – Наманган, 2017. - В. 11.
8. Савицкий В.М. Лингвокультурные коды: к обоснованию понятия // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. - № 2. – С. 58.
12. Nurmuhammedov Y. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – B. 3.

BADIIY MATNNING PSIXOLINGVISTIK TALQINI

Dilrabo Allanazarovna ERGASHEVA,
Termiz davlat universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ushbu maqolada badiiy matnda inson ruhiy holatinining ifodalanishi va uning psixolingvistik talqinida inson omili yetakchilik qilishi tahlilga olingan. Badiiy matnning psixolingvistik tahlilida asosan, muallif tomonidan qahramonning ruhiy kechinmalari qay tarzda ifodalanganligi muhim. Odil Yoqubov qahramonlar ruhiy holatini ularning xarakter-xususiyati bilan qo‘shib tasvirlash uchun muallif nutqi, qahramon nutqi hamda tabiat tasviridan o‘rinli foydalanganligi psixolingvistik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, ruhiy holat, psixolingvistik talqin, qahramonlar xarakter-xususiyati, tabiat tasviri, muallif nutqi.*

Ma’lumki, ruh mazmunan behad murakkab tushuncha, ma’no ko‘lami benihoya keng, serqirradir. Besh jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ruhga – «jon», ruhiyatga esa – «jonning holati», deya izoh berilgan [1, 295] Inson

ruhining unsurlariga ong, aql, farosat, shuur, zakovat, fahm, tamiz, fikr, tafakkur, tasavvur, tushuncha, idrok, xotira, zehn, his-tuyg‘u va hokazolar kiradi. Bular inson ruhiy faoliyatida asosiy omil vazifasini bajaradi. Lekin har bir odam o‘zida aqldan tashqari yana qandaydir bir qudrat ham borligini biladi. Shuning uchun ba’zan odam aqliga ma’qul kelmasa-da, ko‘ngliga o‘tirishgan ishni qilgisi keladi. Ayni shu holat badiiy asarlarning qahramonlarida ham o‘z aksini topishi kerak. Ya’ni adabiy qahramonlarning hatti-harakatlarigina emas, balki ko‘ngil kechinmalari ham ularning tabiatlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Qachondir qilingan ish, aytilgan fikr, so‘zlangan so‘z eskirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun ham badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e’tibor qaratiladi.

Ruhiy faoliyat til, nutq, axloq, madaniyat, ilm-fan, san’at kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Til ruhiy faoliyat mahsuli ekani «Qur’oni karim» oyatlarida ko‘rinadi. Olloh taolo Odamning tanasini rostlab jon kiritgach: «Va u zot Odamga ismlarning barchasini o‘rgatdi» («Baqara» surasi, 31-oyat). Demak, Olloh taolo til deb atalmish bebaho ne’matni Odam Atoning ongi-yu qalbiga jo qiladi. So‘ngra farishtalarga yuzlanib, bilsangiz, mana bu narsalarning nomini aytib beringchi, dedi. Ular, Zoti Poking haqqi, O‘zing o‘rgatgandan o‘zga ilmimiz yo‘q, deb javob qildi. Shunda yaratgan Zot Odamdan ular nomini aytib berishini so‘radi. Odam barchasining nomini birma-bir aytdi («Baqara» surasi 31-32-oyatlar) [2, 71] Mazkur oyatlar insonning asli ham, tili ham bir ekaniga dalildir.

Inson tili uning ruhiy faoliyati natijasida mukammallashadi. Til nafaqat xalq tarixi, madaniyati va ma’naviyatining buyuk merosi, balki yuksak estetik qimmatga, keng ifoda imkoniyatlariga ega tengsiz xazina ham. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, «til faqat aloqa vositasigina bo‘lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo‘lardi. Holbuki, til bemisl boy, sehr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyatga, ko‘rk-u komillikka limmo-lim bir xilqatdir» [3, 44]. Ushbu xilqat (til) vositasida so‘z javohirlariga to‘la san’at asarlari – badiiy adabiyotlar yaratilgan.

Badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev o‘z ilmiy ishida prof. N.Mahmudovning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratadi: «Tilni faqat va faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo‘nlantirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo‘lgan sun’iy tilga (masalan, Esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo‘l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli «til»ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas. Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalari, quvonch va qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi» [4, 104]. Badiiy matnda til vositalari orqali dunyoni obrazli

ifodalash, qahramonlarning eng nozik tuyg‘ularini tasvirlash, turli ruhiy kechinmalarini borliqga bo‘lgan munosabati bilan birga ko‘rsata bilish ijodkorning o‘ziga xos lisoniy qobiliyatini namoyon etadi.

Badiiy so‘z san’atida inson ruhiy holatining yoritilishi – psixologizm masalasi nihoyatda katta ahamiyatga molikdir. Chunki psixologik tahlil jarayonida shaxsdagi barcha ichki ziddiyatlar aks ettiriladi, bu ziddiyatlarda esa ayni vaqtda davr va jamiyat ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari o‘z ifodasini topadi [5, 70]. Buni muayyan til birliklari orqali badiiy matnda aks etgan qahramonlar ruhiy holatlarining turli ko‘rinishlarida ko‘rish mumkin.

Odil Yoqubov asarlarida qahramon ruhiy holati ifodalasining turli ko‘rinishini ko‘rishimiz mumkin:

1. Muallif qahramon ruhiy holatini uning nutqi orqali ifodalaydi.

Ma’lumki, badiiy asarlarda ko‘pincha qahramon ichki nutqi uning ruhiy holatini ifodalaydi. Odil Yoqubovning «Diyonat» romanida Normurod Shomurodovning xotini Gulsara vafotidan keyingi hayotidagi voqealar qahramonning o‘z ichki nutqi yordamida yanada chuqur ifodalangan. Eng muhimi, ularda inson ichki olamining hayot mantig‘i haqqoniy tasvirlangan:

Bas! Nima qilasan, xasta yuragingni tilka-pora qiladigan esdaliklar bilan o‘zingni egovlab? Endi kimga kerak bu alamli xotiralar? Oshingni oshab, yoshingni yashab bo‘lding! Endi qolgan besh kunlik umringni beg‘alva-betashvish o‘tkazishni o‘ylasang-chi, Normurodvoy! Mana, mol-dunyong, kitob-pitoblaring bilan ko‘chib kelding. Dunyoga kelib orttirgan eng katta boyliging – shu kitoblar! Salkam o‘n ming jild kitob! O‘shalarni o‘qib, mutolaa qil. Yoshlarga ulash. O‘qishsin. Bahramand bo‘lishsin. Oxirgi paytlardagi eng ulug‘ orzung shu edi-ku. Shu ish bilan o‘zingni ovuntir, taskinu tasalli ol. Bu chirkin o‘ylar bilan dilingni namozshom qilishdan na foyda, og‘ayni? Ushbu matnda qahramonning ichki nutqi orqali uning ruhiyatida kechayotgan o‘z-o‘zini tahlil qilish, hayot mantig‘ini tushunish jarayoni muallif tomonidan ifoda etilgan. Asar qahramoni ichki nutqida hayotdagi o‘z xatti-harakatlarini, turli to‘qnashuvlarga boy hayot yo‘lini tanqidiy tahlil qiladi. Bu o‘ylar, his-tuyg‘ular qahramon irodasiga zid holatda uni o‘z girdobiga tortaveradi. Shunda ba’zan asar qahramoni og‘ir o‘ylarga berilganini his etadi, xayolan ulardan qutulish yo‘llarini izlaydi.

Qalbimda yana bahor edi. Ko‘nglimdagi boyagi vahima u yoqda tursin, imtihon topshirgani kelganimni ham unutayozgan edim. Shu topda faqat bir narsani – Muqaddasning yaqinligini, goho-goho muloyim qarab qo‘yilishlarini, uyalganidan sochlarini o‘ynab, jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi (O.Yoqubov. «Muqaddas»). Mazkur matnda qahramonning o‘smirlarga xos xurramlik, mamnunlik, masrurlik, xushnudlik kabi inson qalbidagi eng go‘zal tuyg‘ular uning nutqi orqali ifodalangan.

2. Qahramonning ruhiy holati muallif nutqi vositasida ifodalanadi.

Odil Yoqubov xoh tarixiy, xoh zamonaviy obraz yaratmasin, qahramonlar ruhiy holatini, muallif nutqi orqali yoritib bera olgan ijodkor. Uning deyarli barcha asarlarida psixologik ruh ustunlik qiladi. Yozuvchi o‘z qahramonlari ruhiy kechinmalarini hayot bilan uyg‘unlikda real yoritib beradi:

Mavlono Muhiddin shosha-pisha o‘rnidan turib, shahzodaga ko‘z qirini tashladi-da, singan tayoqday ikki bukilganicha qotib qoldi. Shahzodani uning ko‘zlari hayratga soldi. Movlononing qo‘rquvdan katta ochilgan ko‘zlari xuddi go‘zal nozaninlarning ko‘zlariday serkiprik va allaqanday ma’sum edi. ...Mavlono Muhiddinning jovdirab turgan ma‘sum ko‘zlarida qo‘rquv aralash taajjub aks etdi («Ulug‘bek xazinasi»). Mazkur matnda muallif nutqi orqali qahramonning hayratlanish, qo‘rquv, taajjub holatlari ifodalangan.

Otaqo‘zi, xuddi birov biqiniga bigiz sanchganday, butun gavdasi bilan o‘girilib qaradi. U bilan baravar Latofat ham qayrilib qaradi. Ikki odam birdan burilib qaragani uchunmi yo Otaqo‘zining vajohati qo‘rqqulik edimi, xi-xilab kulgan yosh yigitcha o‘tirgan joyida serrayib qoldi («Diyonat»). Ushbu matnda qahramonning karaxtlik va qo‘rquv holatlari muallif nutqi orqali ifodalangan.

3. Muallif qahramonning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatini ifodalagan.

Insonning xafalik, xursandlik, jahllanish, g‘azablanish, qattiq qo‘rquvga tushish, nafratlanish kabi holatlarida ularning tana a’zolari bevosita harakatga keladi, qo‘llari, oyoqlari, tizzalari qaltiraydi yoki ruhiy holatdan kelib chiqib insonning yuzi oqaradi, uyalganida esa qizaradi. Inson tanasida yuz bergan bunday ko‘rinishlar matnda qahramon ruhiy holatini ifodalash uchun muallif nutqi orqali ifodalanadi:

Veteran g‘azabdan dik-dik sakray boshlagan qo‘llarini tizzalariga bosdi. U ko‘p yillik hayot tajribasidan jahl kelsa aql qochishini yaxshi bilar, agar hozir yuragini larzaga solayotgan ga‘zabni jilovlay olmasa ishni buzib qo‘yishini sezib, vujudini qamrab olgan isyon bilan olishar edi («Adolat manzili»). Mazkur matnda Veteranning g‘azablanish ruhiy holati *dik-dik sakray boshlagan qo‘llarini tizzalariga bosdi, yurakni larzaga solayotgan ga‘zab, vujudini qamrab olgan isyon* kabi birikmalar orqali ravshanroq ochib berilgan.

– Qaysi imom Ismoil, taqsir?

– Hozir bilasen qaysi imom! – Vaziri a’zam, ukki ko‘zlari cho‘g‘day yonib, eshikdagi echkisoqol navkarga yuzlandi. – Chaqir o‘rgamchini! Matnda qo‘llangan *ko‘zlari cho‘g‘day yonib* birikmasi orqali Vaziri a’zamning nihoyatda qahr-g‘azabga, vajohatga to‘lgan jahl holati ifodalangan.

«O‘rgamchi» so‘zini eshitishi bilan Malikul sharob rangi oqarib, «shilq» etib kursiga o‘tirib qoldi. O‘sha! Piri Bukriy! Odamlar uni nechundir

«qora o‘rgamchi» deb ko‘p xushlasmas edi («Ko‘hna dunyo»). Matnda siri ochilib qolishidan benihoya qo‘rqayotgan Malikul sharobning holati *rangi oqarib,* «*shilq etib kursiga o‘tirib qoldi»* birikmalari asosida ifoda etilgan.

Qaltiroq bosgan Salohiddin zargar, xuddi o‘g‘lini uradiganday mushtlarini tugib, uning yoniga keldi. Movlono Muhiddin ko‘zini otasining cho‘g‘day yongan ko‘zlaridan olib qochdi, oqarib ketgan lablarini zo‘rg‘a qimirlatdi («Ulug‘bek xazinasi»). Mazkur matnda og‘li Muhiddinning taqdiri ayanchli bo‘lishidan nihoyatda tashvishga, xavotirga tushgan ota (Salohiddin zargar)ning g‘azabga, jahlga mingan holati *qaltiroq bosgan, mushtlarini tugib* birikmalari orqali ifodalangan bo‘lsa, *ko‘zini olib qochdi, oqarib ketgan lablar* kabi birikmalari orqali Mavlono Muhiddinning kuchli hayajon aralash qo‘rquv holati ifodalangan.

Kishi qo‘qqisdan kutilmagan yomon xabar eshitganda o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoladi. O‘zini boshqara olmay, tana a’zolarida ham o‘zgacha jarayonlar sodir bo‘la boshlaydi. Buni quyidagi matnda kuzatishimiz mumkin:

– Hamma dahriy allomalar orasida birinchi bo‘lib sening kallang qilichdan o‘tadur. Sening uyingga o‘t qo‘yiladur. Sening! – Salohiddin zargar o‘g‘lining musht yegan odamday chayqalib ketganini ko‘rib, birdan hushyor tortdi. Uni qo‘ltiqlab olib, darcha oldidagi kursiga o‘tqazdi, tokchadagi choynakdan choy quyib, qo‘liga tutdi. Mavlono Muhiddin, tishlari piyolaga shaq-shaq tegib, bir-ikki xo‘plam choy ichdi («Ulug‘bek xazinasi»). Matnda Mavlono Muhiddinning kuchli qo‘rquv va nohush xabardan o‘ta ta’sirlanish holati *musht yegan odamday chayqalib* hamda *tishlari piyolaga shaq-shaq tegib* birikmalari orqali tasvirlab berilgan.

3. Muallif qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri orqali ochib beradi.

Yozuvchilarning o‘ziga xosligini yaqqol ko‘rsatib turadigan narsa bu uning tilidir. Badiiy adabiyot tilida o‘sha asar yaratuvchisining o‘ziga xos individual xususiyatlari ko‘rinar ekan, yozuvchining uslubi ikki muhim nuqtada idrok etish uslubi va ifoda etish uslubida namoyon bo‘ladi [7, 45]. Odil Yoqubov qahramon ruhiy holatini o‘z idroki va ifoda etish uslubi yordamida bevosita tasvirlaydi:

Qalandar, go‘yo hushidan ayrilganday ko‘zlarini yumib uzoq yotdi, ko‘zlarini ochganida esa musaffo osmon sathida suzib yurgan oppoq bulutlarni ko‘rdi, ular bulut emas, ko‘kda ohista suzib yurgan oq laylaklarga o‘xshardi… Borliq uning hislariday tiniq, osuda bir farog‘atga cho‘mgan, hamma yoq jim-jit, faqat qayerdadir balandda, laylaksimon oppoq bulutlar ostida, so‘fito‘rg‘aylar betinim vijirlar, bu vijir-vijirda ham faqat bir narsa eshitilar edi: orom, orom, orom… Qalandar oftobday iliq bu tuyg‘uga bo‘ysunib, ko‘zlarini qayta yumdi («Ulug‘bek xazinasi»). Mazkur matnda muallif tabiat tasviri orqali qahramonning xotirjamlik, xurramlik, shodlik holatlarini ifodalagan.

Badiiy adabiyotda ruhiy tahlilning o‘rni katta. U yoki bu badiiy asar, insonning ruhiyatini teran va ishonarli aks ettirishiga qarab baholanadi. O‘zbek adabiyotining yetakchi yozuvchilaridan biri Odil Yoqubov asarlarida ko‘proq inson qalbiga qarab ish tutadi. Adibning «Ulug‘bek xazinasi», «Ko‘hna dunyo», «Diyonat», «Oq qushlar, oppoq qushlar», Adolat manzili» «Osiy banda» kabi romanlari kuchli psixologik asar hisoblanadi.

Matn yaratilishida subyektiv omillar katta rol o‘ynaydi. Nutqiy tafakkur jarayoni ichki nutq va tashqi nutqdan iborat bo‘ladi. Yozma nutqning hosil bo‘lish modeli og‘zaki nutqning hosil bo‘lishi bilan o‘xshash bo‘ladi. Bunda ham semantik rejalashtirish bosqichi va verbal bosqichi mavjud. Shu bilan birga matn yaratilishining o‘ziga xos xususiyatlari bor. Og‘zaki nutqda ichki nutq bosqichi tushib qolsa, matnning yaratilishida esa aksincha [8. 17]

Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubov o‘quvchilar xayolidagi ichki nutq sifatida yashirinib turgan fikrlariga mos keladigan shaklni topib reallashtirdi, ya’ni tashqi nutqqa aylantirdi. Shu boisdan o‘quvchi – tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Muallif tomonidan qahramonlarga berilgan sifatlar asar mohiyatini ochib beradi. Ya’ni qahramonlarning dunyoqarashi, o‘ziga xos xarakteri, ruhiy holatlari asar g‘oyasini yaqqol ochishga xizmat qiladi. Bu jarayonda yozuvchi o‘z tuyg‘ularini ham qo‘shib ifoda etadi. Odil Yoqubov asar yaratar ekan, ijobiy va salbiy qahramonlarga o‘ziga xos sifatlar beradi. Yozuvchi badiiy matn orqali qahramonlar ruhiyatini individual tafakkur doirasidan kelib chiqib ifodalaydi, dunyoni obrazli tasvirlarda aks ettiradi. Shu boisdan badiiy matn insonning eng nozik tuyg‘ularini, borliqqa bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi obrazlar majmui hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик, 3 том. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – B. 471- 474.

2. Zikrillayev G‘., Safarov F. Ruh va til. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – №5. – B. 71.

3. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – B. 44.

4. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – B. 104.

5. Raximov A.U. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining imperik, nazariy va metanazariy bosqichlari // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. VI kitob. – Toshkent, 2013. – B. 70.

6. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М., 1976.

7. Белянин В.П. Художественный текст и психология личности. – М., 1985.

8. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – В. 17.

TOG‘AY MUROD BADIIY NUTQIDA «INSON→BORLIQ» MUNOSABATINING SEMANTIK TASNIFI

Umid Erkinovich XOLNAZAROV,
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mazkur maqolada T. Murod badiiy nutqida, xususan, qissalarida inson obrazli tafakkurining muhim mexanizmi, ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lgan metaforik obrazlar yozuvchining g‘oyaviy pozitsiyasi, estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qilgan. Bunda ijodkor qissalarini antropotsentrik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali betakror obrazlar yaratishda tilning nozik semantik imkoniyatlari borliq lisoniy tasvirining vujudga kelish omillarini ochish va talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Tayanch so‘zlar: lisoniy imkoniyat, inson omili, metafora, antropotsentrik metafora, realiya, idiolekt, lingvomadaniy asos, tasvir.

E’tirof etish kerakki, XXI asrda til o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi, oqibatda, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishida inson omili masalasi ustuvorlik qila boshladi. Bu esa lisoniy hodisalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy asoslarini o‘rganishda antropotsentrik metafora (bevosita insonning ichki va tashqi sifatiy belgilarini o‘xshash referentlarga ko‘chiruvchi metafora) ni tadqiqi zaruratini oqlaydi. Darhaqiqat, aksariyat tadqiqotlarda metafora insonning olamga munosabati, borliqni anglash va uni tilda aks ettirish, tilni uning sohibi bo‘lmish inson va u mansub bo‘lgan etnos bilan uzviylikda o‘rganishning asosiy usullaridan biri sifatida qaraladi.

Agar antropotsentrizm ildizlari V.fon Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf, L.Vaysgerber kabi olimlarning qarashlariga taqalsa, xususan, V.fon Gumboldtning tilni xalq ruhini akslantiruvchi hodisa sifatida tushunishi, L.Vaysgerberning olam lisoniy manzarasiga doir nazariyasi, qolaversa, o‘zbek tilshunosligida XX asrning oxirlarida tilni antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishda A.Nurmonov, N.Mahmudov, D.Xudayberganova, D.Ashurova, Sh.Safarov kabi tilshunoslarning nazariy qarashlari antropotsentrik tilshunoslikning yuzaga kelishiga zamin hozirladi [1:4]. Binobarin, betakror obrazlar yaratishda tilning nozik semantik

imkoniyatlarini o‘z badiiy niyatiga yo‘naltirgan T.Murod qissalarini antropotsentrik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi realiyasi inson tafakkurida sodir bo‘ladigan murakkab kognitiv jarayonni «inson→borliq» va «borliq→inson» munosabatlari asosida «tilning faol bunyodkorligi hamda borliq – ong va tafakkur in’ikosi» [2:48] sifatida idrok etishga yorqin namuna bo‘la oladi.

Til borliqni tasvirlash va tasniflash, uni ongda yaxlit sistema sifatida aks ettirish vositasi bo‘lib, so‘z ma’nosida borliq manzarasi lavhalari aks etadi. Ayni paytda, til, madaniyat va shaxs mushtarakligi asosan metaforada ko‘zga tashlanadi. Har bir inson – alohida realiya: har bir ijodkor uslubi, ya’ni idiolektining, uslubiy bayonining namoyishchisi sifatida metafora obrazli ifoda, tasviriy vositalarda o‘z aksini topadi. Bunda metaforik ifodaning hosil bo‘lishida insonga xos qaysi belgi asos bo‘lganligini aniqlash muhim. Buni biz bazaviy metafora turi – antropomorf metafora (insonga xos belgilarning, somatik kodlarning predmetlarga ko‘chirilishi) ni tasniflash orqali tushuntirmoqchimiz:[3]

I. Insonning biologik hodisa sifatidagi xususiyatlari asos bo‘lgan metaforik ma’no. Bu quyidagi ichki bo‘linishlarni o‘z ichiga oladi:

1.1.Insonning tana a’zolari asos bo‘lgan metaforik ma’nolar:

KO‘Z, nazar, nigoh; qarash (O‘TIL, 2-jild). «Xuddi shu daqiqada *ko‘zlar uchrashib qoldi*! Bo‘ri polvonga o‘sha qop-qora ko‘zlar tik-tik boqdi. O‘sha *ma’nosiz ko‘zlar*, o‘sha *bez ko‘zlar* Bo‘ri polvon uchun qanchalik jirkanchli bo‘lsa, shunchalik *qadrdonda* edi!» (T.Murod, «Yulduzlar mangu yonadi»). «*Kattaning ko‘zi ko‘kragimga tushsa*, o‘zi tushunib oladi, deya o‘yladi» (T.Murod, «Momo yer qo‘shig‘i»). **2. Ko‘rish qobiliyati** (O‘TIL, 2-jild). «Yo‘g‘-e, u ko‘pkarida otdan yiqilib, bir *ko‘zi ojiz* bo‘p qolgan, deb eshitib edim («Yulduzlar mangu yonadi»). «Xo‘sh-xo‘sh deyman, olabosh, *Ko‘zing o‘tkir*, qalamqosh. Qalam qoshing suzilsin, Suting erga sizilsin» («Momo yer qo‘shig‘i»).

Shuningdek, T.Murod badiiy nutqida, ayniqsa, qissalarida ko‘z bilan bog‘liq boshqa metaforik ifodalar ham o‘rin egallagan:

Ko‘z-quloq bo‘lmoq – juft so‘z ko‘rinishidagi frazeologik metafora (FM) bo‘lib, «kuzatmoq», «xabardor bo‘lmoq» ma’nolarini ifodalaydi: «Tom ustida yonboshlab olmish Nabi oqsoqol to‘yxonadagi voqealardan *ko‘z-quloq bo‘ldi*, tegishli yo‘l-yo‘riqlar berdi» («Yulduzlar mangu yonadi»). «— Unda, hozircha *ko‘z-quloq bo‘lib* turing, hidlanmasin» («Ot kishnagan oqshom»). «Bolalar magnitofon qo‘yib keldi. Shoirlar bildi, odam o‘g‘illarini *ko‘z-quloq bo‘lib* turish uchun yubordi» («Momo yer qo‘shig‘i»).

QO‘L s.t. **barmoq – «nafsini tiymoq»** ma’nosidagi frazeologik metafora (O‘TIL 5-jild): «*Besh qo‘lni barobar og‘izga tiq*sak, yaxshi bo‘lmas» («Momo yer qo‘shig‘i»). Biroq bu yerda *besh qo‘lni barobar og‘izga tiqmoq*

birikmasi nafsni tiymoqni emas, aksincha, uning semantikasiga biriktirilgan «ochko‘zlik» ma’nosidagi obrazli tasvirni yuzaga keltirgan. **4. Imzo.** (O‘TIL, 5-jild). «Rais bo‘lib ish buyurish oson, yo‘l-yo‘riqlar berish oson, qog‘ozlarga *qo‘l qo‘yish* oson!» («Yulduzlar mangu yonadi»). «Ha, mayli. O‘rtoq Hamidov, siz yozing, bu kishi *qo‘l qo‘yib* beradi» («Ot kishnagan oqshom»). «Urush ishtirokchilari Daho yuziga-da qaramay *qo‘l qo‘yib* berdi» («Momo yer qo‘shig‘i»). **5. Har kimning o‘ziga xos ish usuli, uslubi, ishi, xatti-harakati** [4], urinishi kabilarni aks ettiruvchi metaforik ifoda: «Jonibek polvon Shodi polvonni *birinchi qo‘ldayoq* chap oyog‘iga sirtidan ildirib ko‘tarib, to‘lg‘ab urdi» («Yulduzlar mangu yonadi»).

BOSH otlar bilan birikib, ayni paytda, polisemantik zanjirni tashkil qiladi hamda adib kontekstida inson qismatini ifodalaydi: «— Xo‘p, podani qayerda boqasan? Tevarak-*bosh*ing paxta, imorat...» («Momo yer qo‘shig‘i»). «O‘lim barimizning *boshi*mizda bor savdo» («Ot kishnagan oqshom»). «— Uyalsang-uyalmasang, bu barimizning *boshi*mizda bor savdo, — dedi yanga bo‘lmish» («Oydinda yurgan odamlar»).

OYOQ – chet, chekka; quyi tomon; etak [4]. «Oyoq» leksemasi kompozitsiya usulida (*yolg‘izoyoq*) «yo‘l» leksemasi bilan birikib, antropo-zoomorf metaforani hosil qiladi: «*Yolg‘izoyoq yo‘l*» («Yulduzlar mangu yonadi»).

QULOQ – suvning anhor, kanal, o‘qariq va sh.k. dan kichik suv yo‘liga, ariqlarga tarmoqlanib o‘tadigan joyi; dahana (O‘TIL, 5-jild). Bunda odamning qulog‘i va arig‘ning qulog‘i shakliy o‘xshashlikka ko‘ra bir xil bo‘lib, lisoniy metaforani hosil qiladi. «Kolxoz mirobi suv yoqalab toqqa chiqib ketdi. *Quloq*larda haftalab och-nahor yotdi» («Yulduzlar mangu yonadi»).

1.2.Insonning tashqi ko‘rinishi asos bo‘lgan metaforik ma’nolar:

KAL – sochi butunlay yoki qisman to‘kilib ketgan kishi [4]. Bizning fikrimizcha, «kal» so‘zi metaforizatsiya jarayoniga uchrab, adib kontekstida kambag‘al ma’nosiga teng bo‘ladi: «Bildim, el, Ziyodulla kal, *otangni ko‘rdim — ahmadi forig‘, onangni ko‘rdim — tovoni yoriq, dedi»* (ushbu matal «zoti past, kambag‘al» ma’nosida kelib, paremiologik metafora namunasidir), *ko‘rpangga qarab oyoq uzat* (o‘z imkoniyatidan kelib chiqib ish qilishga undovchi, shuningdek, kambag‘alligini pisanda qiluvchi FM) (Ot kishnagan oqshom)». «O‘zing bir sag‘ir bo‘lsang, senga kim qo‘yibdi otni, dedi. Yana tag‘in *kal* bo‘lsang, kalga otim nimam, dedi. *Kal*ga eshak ham bo‘ladi, dedi» («Ot kishnagan oqshom»).

NOGIRON – ko‘chma yaroqsiz, ojiz bo‘lib qolgan, kamchiligi bo‘lgan (O‘TIL, 3-jild). «Mana bular nima? Teraklarmi? Tutlarmi? Yo‘q, bular *nogiron-nogiron giyohlar*!» («Oydinda yurgan odamlar»).

1.3. Inson holati va uning tana a’zolari harakati asos bo‘lgan metaforik ma’nolar:

BO‘ZLAMOQ – ko‘chma mungli, dardli tovush chiqarmoq; nola qilmoq (O‘TIL, 1-jild), ya’ni «yig‘lamoq» ma’nosidagi shevaviy bo‘yoqdor muallif metaforasi. T.Murod olamining ko‘rish sektorini belgilab beradi: «Davrada changqovuz *bo‘zladi*» («Yulduzlar mangu yonadi»). «Polapon bir yon bo‘ldi, beshigi bir yon bo‘ldi! To‘rg‘ay boshlari uzra charx urib *bo‘zladi*» («Momo yer qo‘shig‘i»).

KO‘ZI ILINMOQ // KO‘ZI KETMOQ – «uxlay boshlamoq» [5] ma’nosida berilgan bo‘lib, sinonimik munosabatdagi FM: «Vaqt» eshittirishlari-da ado bo‘ldi. Shunda, to‘shakka o‘tib yotdim. *Ko‘zim ilindi, ko‘zim ketdi*» («Ot kishnagan oqshom»).

BELI SOVIMOQ // TANASI SOVIMOQ – ish sur’ati, ishlovchi mayli-ishtiyoqining pasayishiga nisbatan «beli sovimoq» hamda «tanasi sovimoq» (inson o‘lgach, butun a’zolar soviydi), ya’ni inson o‘limi bilan bog‘liq iboralar. Ularni T.Murod idiolektining xos FM lari deb baholash mumkin: «El, ishga bir kelib, bir kelmay yurishimizni ko‘rsa, ishdan *beli soviydi*... Bizni bu dunyoga bog‘lab qo‘ygan emas, hazrati Xizr bovajonim! Bir kunmas-bir kun *tanamiz soviydi*» («Oydinda yurgan odamlar»).

1.4.Insonning jismoniy holati asos bo‘lgan metaforik ma’nolar:

TELBA – telbaga xos, telbalikni aks ettiruvchi; ma’nosiz va tartibsiz (O‘TIL, 4-jild). «Yurdi-yurdi... Tanqidga o‘tdi. *Telba-teskari gap*lardan iborat maqolalar yozdi» («Momo yer qo‘shig‘i»). «Ijirg‘anib-ijirg‘anib, bir-ikki *telba-teskari chil*lar berdi» («Yulduzlar mangu yonadi»).

TENTAK – aqldan ozgan, telba, devona; jinni. Shuningdek, «Jayraxonadan qochmoq» varianti ham shu mazmunni ifodalaydi: «Abil tentakni endi ko‘rayotganlar hayratdan ko‘zlari olaydi. — Yo pirim-e, *urib ketgan tentak,* — deya kuldi. — *Jayraxonadan qoch*gan, — deya kuldi» («Yulduzlar mangu yonadi»).

LANJ //MAG‘ZAVA – tobi aynigan, bo‘shashgan (O‘TIL, 2-3-jildlar), shuningdek, harakati juda sekin odam: «Shu, Boboqul bilan Mamat polvon juda *lanj* ekan, nima dedingiz, Bo‘ri polvon? — E, siz so‘ramang, men aytmayin! — dedi Bo‘ri polvon. — *Mag‘zava, lanj* ham gapmi, *mag‘zava*!» («Yulduzlar mangu yonadi»).

1.5. Insonning hayot bosqichlari asos bo‘lgan metaforik ifodalar:

QARI – *ko‘chma* uzoq o‘tmishga ega (O‘TIL, 5-jild). «Qoplon otamiz tok jo‘yani ishladi. Tok ostini aylana qilib kovladi... *Qari tok*larni kundakov qildi» («Oydinda yurgan odamlar»).

YUZIDAN QON TOMMOQ – yosh, navqiron ma’nosidagi FM bo‘lib, qon – bu qizil rang degani. O‘zbeklar uchun qon rangi, ya’ni qizil rang «mangulik, jo‘shqinlik, doimiy hayot» belgisini ifodalaydi: «Bo‘ri polvon bosh ko‘tardi. Nasimga qaradi. «Qaribdi, juda qaribdi, — deya xayollandi. — Yo,

men ham shunday qaridimmi? Yo‘g‘-e, odamlar, *yuzlaringizdan qon tomadi*, deyishadi-ku...» [8].

MO‘YSAFID – soch-soqoli oqargan, mo‘ylari oqargan (O‘TIL, 2-jild). So‘zma-so‘z – *oqsoqol*. Eskirgan (lisoniy) metafora: «Otamiz ko‘ngliga tahlika tushdi: «Kim bo‘ldi, bu *mo‘ysafid*?» deya o‘yladi» [7].

1.6. Inson kiyimlari va ularning qismlari asos bo‘lgan metaforik ma’nolar:

ETAK – ba’zi narsalarning, sathning cheti, quyi tomoni, oxirgi qismi (O‘TIL, 5-jild). **Bir etak –** biror ayol yoki oilaning bolasi ko‘pligi nazarda tutilgan FM: «Ammo xudoyim xudovando onaizor pushtini beribdi! Onaizor qo‘sha-qo‘sha farzandli bo‘libdi! Farzandlari *bir etak* bo‘libdi!» («Oydinda yurgan odamlar»). **Etak qoqmoq** – butunlay umid uzmoq, kechmoq (O‘TIL, 5-jild). «Kattalar davraga duo berilmasdanoq *etak*larini *qoq*ib turib ketdi» («Yulduzlar mangu yonadi»). «Birodarlar, chavandozlar nimaga *etagini qoq*ib ketayapti? Adolatga!» («Ot kishnagan oqshom»).

Xullas, antropotsentrik metaforalar T.Murod badiiy nutqining rang-barangligi, ekspressivligini, obrazli ifodalarning mushtarakligini ta’minlovchi unsurlar bo‘lib, bunda inson haqidagi tasavvurlarni yaqqollashtirish, konseptuallashtirish, inson xususiyatlari va sifatlarini ochib berishda «inson→borliq» munosabati o‘zining serqirraligi, murakkab tabiati bilan metaforik mazmun kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Худойберганова Д. Тил тафаккур маданият. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б.4.
2. Ширинова Н.А. Ўзбек тилида белги-хусусият ва предметлик маъноларининг фарқланишида градуонимик қаторлар: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 48
3. Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. до-ри дисс. – Қарши, 2019.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
6. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фанлари док-ри дисс... – Самарқанд, 2020. – 261 б.
7. Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. – Тошкент: Sano-standart, 2017. – 192 б.

8. Тоғай Мурод қўшиқлари. От кишнаган оқшом. – Тошкент, 1994. – 464 б.
9. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 448 б.
10. Xolnazarov U. Tog‘ay Murod asarlarida qahramon ruhiyati tasviri («Bobosi va nevarasi» hikoyasi misolida). Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2019.
11. Xolnazarov U. Metaphor as object of linguocultural study. International Scientific Journal Theoretical and Applied Science. Philadelphia, USA – 2020.
12. Xolnazarov U. T.Murod idiolektiga xos zoomorfik metaforalar tasnifi // So‘z san’ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2020.

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARIDA TABIAT HODISALARI VA UNSURLARI ASOSIDAGI O‘XSHATISHLARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI

Dilobar Shavkatjon qizi ODILOVA
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ifodalangan tabiat hodisalari va unsurlari asosidagi o‘xshatishlar hamda ularning kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Ta’kidlash lozimki, asarda qo‘llangan ushbu o‘xshatishlarni kognitiv-semantik tahlil qilish insonning dunyo bilan o‘zaro munosabati hamda tilning yaratilishida tabiatning rolini anglashga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar. *O‘xshatishlar, tabiat, kognitiv tahlil, dunyoni anglash, tafakkur, adib mahorati, konnotativ ma’no, eski turkiy til.*

Bugungi kunda tilshunoslik sohasining psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya singari zamonaviy yo‘nalishlari doirasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu qatorda tilning murakkab tabiatini yoritishda kognitiv lingvistikaning ham o‘rni beqiyosdir. Kognitiv tilshunoslik yangi yo‘nalishlardan bo‘lib, dunyoni anglashda til birliklarining ahamiyatini ifodalashga xizmat qiladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi ham til tizimining bilish jarayonidagi ishtiroki va ulushini aniqlashdir. Til birliklarining egallanayotgan bilimning lisoniy voqealanishdagi axborotni shakllantirish va “qayta ishlash” dagi rolini aniqlash kognitiv tahlil ko‘rinishlaridan biridir [4,78]. Shu o‘rinda badiiy tasvir vositasi hisoblangan o‘xshatishlar ham bizga dunyoni bilish jarayonida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Professor N.Mahmudov dunyoni bilishda o‘xshatish-qiyoslashning o‘rni haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “*Ikki yoki undan*

ortiq predmet yoki tushunchaning o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi. O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan biri hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi. Ularda ma’lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo‘ladi”[5, 102].

Turkiy xalqlar tafakkurini ifodalashda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardan biri hisoblanadi. Eski turkiy tilning nodir namunasi hisoblangan ushbu manba bizga o‘sha davr madaniyati, tarixi va urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Mahmud Koshg‘ariy bu mavzularni yoritishda o‘xshatishlardan unumli foydalangan. Ma’lumki, o‘xshatishlar tarkibida unga asos bo‘luvchi turli xildagi so‘zlar mavjud bo‘ladi. Masalan: hayvonlar, qushlar, o‘simliklar, tabiat hodisalari va unsurlari, maishiy turmushga oid predmetlar shular jumlasidandir. Shu o‘rinda “Devonu lug‘otit-turk” asarida tabiat hodisalari va unsurlari asosidagi o‘xshatishlar o‘ziga xos tasvirlarni yaratishga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, tabiat hodisalari qadimdan ota-bobolarimiz hayotining ajralmas qismi hisoblangan. Bu hodisalarga turli qarashlar mavjud bo‘lib, ularning izlari mif, afsona, rivoyatlar, ajdodlarimiz asarlarida saqlanib qolgan hamda bu o‘xshatishlar asosida ham shakllangan.

Tabiat – bu mo‘jizalarga boy sirli dunyo. Tabiatdagi hodisalar doimo insoniyatni hayratga soladi hamda ilhomlantiradi. Shu sababdan adabiyotda tabiat hodisalari va unsurlari asosidagi o‘xshatishlar juda ko‘p uchraydi. Bu qiyoslar orqali asarlardagi g‘oyalar, fikrlarni jonli tarzda ifodalash mumkin. Shuningdek, ular o‘quvchida hissiy ta’sir uyg‘otishga hamda tabiat bilan bog‘liq madaniy qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Asarda quyidagi ijobiy va salbiy konnotativ ma’noga ega bo‘lgan tabiat hodisalari va unsurlarini uchratishimiz mumkin: *tog‘, oy, quyosh, suv, sel, yomg‘ir, bulut, chaqmoq, shamol, bo‘ron, yel, dengiz, daryo, ko‘l, muz, mis, oltin, kumush, yoqut, marvarid, dur.*

Asarda shunday maqol keltiriladi: *Ermägükä ešik art bolur*. Ma’nosi: “Yalqovga eshik ostonasi ham tog‘ tepasidek ko‘rinadi”[1,31]. Ushbu maqolda dangasalik, ishyoqmaslik illatlari qoralanadi. Yalqov inson uchun oddiy ishni bajarish ham baland tog‘ga chiqishdek mashaqqatli tuyuladi. Tog‘lardagi yuksaklik belgisi ushbu o‘xshatishning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Eshik ostonasining tog‘ tepasiga qiyos qilinishi ushbu maqol mazmunini yanada boyitgan.

Asarda bulut so‘zi qalin sochga ham o‘xshatiladi: *bulït-teg sačï* – sochi bulutdek qalin, quyuq, ko‘p [1,143]. Odatda, bulut so‘zi jonli so‘zlashuv tilida

turli narsalarga muqoyasa qilinadi. Masalan: *bulutdek oq, bulutdek baland, bulutdek tiniq, bulutday yopirilmoq*. Bu yerda esa yozuvchi bulutlardagi qalinlik, quyuqlik sifatlarini inobatga olgan hamda inson sochlarini qalinlikda bulutga qiyoslagan.

Aqïn –sel; to‘satdan kelgan selga munduz aqïn deydilar. To‘satdan, kechasi sel kabi kelgan askarlarga ***aqïnči keldi*** deydilar, ya’ni askarlar selday keldi, demakdir.[1,44]. Adib askarlarning kechasi qo‘qqisdan hujumga o‘tishini selga qiyoslaydi. Ma’lumki, sel ham shiddat bilan oqib keladi. Uning shiddatli harakati asarda askarlarning xatti-harakatlarini ochib berishda qo‘llangan. Sel tomchilaridagi shiddatlilik, behisoblik o‘xshatishga asos vazifasini bajargan.

Bar – baqïr, yoq – altun. Ma’nosi: “Bor – mis (qadrsiz), yo‘q – oltin (qadrli)” Qo‘lda bor bo‘lgan narsa misdek qadrsiz, qo‘lda bo‘lmagan narsa oltindek qadrli [1,145].Bu maqol yaqinlar orasida xo‘rlanib yurgan kishi, keyin yo‘qligida qadri bilinishi ma’nosida qo‘llanadi. Hayotda ba’zan shunday bo‘ladiki, kishi o‘z yaqinlari orasida qadrsiz bo‘ladi. Ushbu maqolda yozuvchi mis va oltinni o‘zaro zidlash orqali o‘xshatish san’atini hosil qilgan. Tilimizda oltin bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Har qanday qimmatbaho narsalarni oltinga qiyos qilish mumkin. Inson doimo o‘zida bor narsalarni qadriga yetmaydi va o‘zida yo‘q bo‘lmagan narsalarga erishishni istaydi. Bu yerda qadr-qimmat, izzat-hurmat tushunchalariga nisbat berilgan.

Kim ayïp, estür qulaq:
Ay ewi artuč butaq?

Oyning uyi hamda turar yeri sanubarning butog‘idir, deb kim aytgan va bunday chiroyli sifatni qaysi quloq eshitgan? Shoir seviklisining yuzini oyga, bo‘yini sanubar butog‘iga o‘xshatmoqda [1,152]. Yuzni oyga o‘xshatish turkiy adabiyotda keng tarqalgan o‘xshatishlardan biri hisoblanadi. Asosan, yorga, ayollarga nisbat berish uchun qo‘llanadi. Oydagi yorqinlik, jozibadorlik ushbu o‘xshatishga asos bo‘ladi. Bu o‘xshatish insonning go‘zallik, sirlilik va jozibadorlikka qarashini aks ettiradi.

Uyg‘ur xoni *Köl bilgä xan* deb atalar edi, buning ma’nosi “aqli ko‘ldek” demakdir [1,171]. Ko‘l – quruqlikning suvga to‘lgan (suv qoplangan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi [6,235]. Anglash mumkinki, uyg‘ur xoni aqlda tengsiz, bilimi ko‘l kabi chuqur kishi bo‘lgan.

Otru turub yağdï aŋar keš oqï čiğïlwar
Aydïm: Asïğ qïlğu emäs, sen taqï yalwar

Yov to‘g‘risida aytmoqda: Menga yuzlangach, sug‘doqdan o‘qni yomg‘irdek yog‘dirdim. Endi sening yalinib-yolvorishing foyda bermaydi, dedim [1,195]. Yomg‘ir payti osmondan tomchilar son-sanoqsiz yog‘iladi. Xuddiki, dushman hujum qilganda ham o‘qlar yomg‘ir tomchilaridek ketma-ket otiladi.

Awlap meni qoymaŋïz
Ayïq ayïb qaymaŋïz
Aqar közüm uš-teŋiz,
Tegrä yürä quš učar.

Seviklisiga aytmoqda: Meni ovlab o‘zingizga asir qilganingizdan keyin, xo‘rlab tashlab qo‘ymangiz, va’daga vafo qilingiz, dengiz suvlari kabi ko‘z yoshlarim daryo kabi oqayotir [Ko‘z yoshida tuz (sho‘rlik) bo‘lgani uchun shunday o‘xshatma beriladi]. Axir, ko‘z yoshlarim atrofida qushlar uchib yuribdi [1, 221]. Yuqoridagi gapda insonning ko‘z yoshlari dengizga, ularning oqishi esa daryoga qiyoslanadi. Yozuvchi izoh berganidek, dengiz suvidagi sho‘rlik ushbu o‘xshatishni qo‘llashga sabab bo‘lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi tabiat hodisalari va unsurlari asosidagi o‘xshatishlar tilga jonli tasvir qo‘shishdan tashqari, dunyoni bilish va tushunish tarzi haqida ham muhim ma’lumotlar beradi. Shuningdek, bu qiyoslarning kognitiv-semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali biz tabiat bilan insonning o‘zaro munosabatini qanday ifodalanganini chuqurroq anglashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017. – 482 b.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.
3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya: Darslik. –Toshkent, 2019. – 246 b.
4. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – 156 б.
5. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Маънавият”, 2013. – 320 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
7. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. – Тошкент, 2020. – 173 б.
8. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик тадқиқ и. Филол.фан.док.дисс…автореф. – Тошкент, 2015. – 46 б.

LAKUNARLIK VA REALIYA

Aziza Raimjanovna SHAYMARDANOVA,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada lakuna va realiya tushunchasi, uning tasnifi hamda ularning namoyon bo‘lishi to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *lakuna va realiya, muqobilsiz leksika, muloqot, tushunchaning ifodalanishi.*

Tilda «muqobilsiz leksika – muayyan xalq taraqqiyotining ma’lum davrida tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa shart-sharoitlar zamirida vujudga kelgan, ma’lum xalq urf-odatlari, an’analari, madaniyati, mentaliteti, turmush tarziga xos predmet va tushunchalarni ifodalovchi, boshqa tillarning lug‘aviy tizimida muqobili bo‘lmagan, o‘zga tillarga tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘z va birikmalar»[1, 32] mavjud bo‘lib, *realiya* nomi bilan yuritiladi.

Til va madaniyatning o‘zaro aloqasida bir millatga oid turmush tarzi bilan bog‘liq tushunchalarda realiyaning o‘rni sezilarlidir.

Bir tilga xos so‘zlarning muqobili o‘zga til lug‘at tarkibida mavjud bo‘lmasa, muqobilsiz leksika borligidan dalolatdir. Ushbu termin E.M.Vershagin va V.G.Kostomarov [2, 53] tomonidan kiritilgan bo‘lib, muqobilsiz leksikaning xarakterli jihati ularni boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmasligi va boshqa tildagi so‘zlarga mos kelmaganligidadir. Bu ularni mutlaqo tarjima qilib bo‘lmaydi degani emas, balki ular bilan bog‘liq bo‘lgan obrazlarning «fonli» tushunchalaridan foydalanishni taqozo etadi. Zero, «fon»li bilim bu – «boshqa xalq, boshqa mamlakat hayot tarzini aks ettiruvchi haqiqiy «fon»dan iborat tushunchalar majmuasidir»[3, 46].

«Realiya» so‘zining o‘zi lotin tilidagi sifatning ko‘plik shakldagi sredniy rodi bo‘lib (*realis* – ko‘pligi, birlikda *realiya* – «haqiqiy», «moddiy»), mavjud leksik kategoriyaning ta’siri ostida otga aylanib ketgan.

G.D.Tomaxinning fikricha, «realiya bu – ma’lum bir xalqqa va millatga tegishli bo‘lgan moddiy, madaniy tushunchalar, tarixiy faktlar, milliy xalq og‘zaki ijodi qahramonlarining nomlari, mifologik mavjudotlar va hokazolarga oid nomlardir» [4,13]. U realiya so‘zi narsa, tushuncha ma’nosida kelishini aytadi va qisqaroq qilib izohlaydi.

Realiyalar bo‘yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Masalan, O.S.Lilikovichning ishi ham bunga misol bo‘ladi[5, 26].

Realiyaga kengroq ta’rif S.Vlaxov va S.Florin tomonidan keltirilgan. «Realiya – shunday so‘zlar va so‘z birlikmalaridirki, ular obyektlarni ataydi, bir xalq hayoti, turmush tarzi, madaniyat, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish uchun

xarakterga ega, lekin boshqa xalqqa yot bo‘lgan, milliy va tarixiy koloritni tashuvchilari bo‘lib ular, boshqa tilda aniq ekvivalentga ega bo‘lmagan, tarjimaga moyil emas» [6, 55]. O‘z navbatida, bu olimlar atama va realiyani farqli xususiyatga egaligini, atamalar deyarli istalgan matnlarda tarjima qilinadigan muqobillarga ega birliklarga kirishi, realiyalar esa, muqobilsiz leksika [6, 17] ekanligini ham ta’kidlaydi.

Realiyalarning alohida xususiyati bir til va madaniyatga mansubligi va «predmet» semasiga egaligidir. Ushbu leksik birliklar til hodisasi sifatida jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarda tez ko‘zga tashlanib, neologik, tarixiy, arxaik ko‘rinishlarga ega. Ular asosan badiiy adabiyotlarda va xalq ijodiyotidan foydalangan holda so‘zlashuvda ham ishlatiladi. Ayrim realiyalar atoqli otlarga (masalan, ertak qahramonlarining nomlari: *Semurg‘, Parizod, Kashey, Palakqush* yoki *Buroq* (uchar ot)) o‘xshaydi, tarjima birligi bo‘lgan realiyalar abreviatura (*QVP, YaTT, SFU, MFY*), so‘z (*kayvoni, oqsoqol, ulfat, bozor, choyxona, palov*), takror so‘z *(«jimma-jimma»*– «ko‘p-ko‘p» ma’nosida) so‘z birikmalari (*mahalla guzari, madaniyat uyi, maishiy xizmat uyi, yoshlar mehnat guzari, yagona darcha* va sh.k), jumla (*Bir qoshiq qonidan kechmoq, elchiga o‘lim yo‘q, oyqora yopinmoq*– choponning bir peshini boshga, bir peshini oyoqqa tortib yotmoq, *jaddiga qolmoq* – kasriga, kasofatiga qolmoq) ko‘rinishida bo‘ladi.

Milliy va mahalliy o‘ziga xosliklarni ifodalovchi leksik birliklarni bir necha guruhlarga bo‘lishimiz mumkin (1-jadval).

Bular:

№	**Maishiy turmush tushunchalarini ifodalovchi realiyalar**	Etnonimlar:	*olchin, parito‘p, bolg‘ali, oshiqi*
		Gastronimlar	*qimiz, bo‘za, chalop, palov, biqtirma, tandirgo‘sht*
		Kasb-hunar bilan bog‘liq:	*Kosagar, adrasbof, Gulabardor*
1.	**O‘lchov va pul birliklarini ifodalovchi realiyalar**	Og‘irlik o‘lchovlari:	*pud, botmon, qadoq, chorak*
		Pul birligi:	*tanga, so‘m, sulkavoy, miri*
2.	**Hududiy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar**	Xududiy-boshqaruvni ifodalovchi birliklar:	*tuman, viloyat, mavze, nohiya*
		Turar joyni ifodalovchi	*mahalla, daha, qishloq, ovul, hovli, tomorqa*
		Inson ta’sirida vujudga kelgan obyektlar	*Choyxona, nonvoyxona, oshxona,to‘yxona*
3.	**Ijtimoiy-siyosiy hayotga oid realiyalar**	Ijtimoiy xarakat va uyushma nomlari	*«Kamolot», «Yoshlar ijtimoiy harakati», kasaba, «Yoshlarni mehnat bilan ta’mınlash guzari»*
4.	**Qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq inson faoliyati ta’sirida yuzaga kelgan realiyalar**	Asbob nomlari	*Omoch, ketmon, bel, kosov*
		Yer nomlari	*Lalmikor, bahorikor, bo‘z,obi,yaylov*
		Obyekt nomlari	*Ariq, chayla, chodir,*

5.	**Chorvachilik bilan bog‘liq realiyalar**	Obyekt nomlari	*Oxur, qo‘ra, qo‘ton*
6.	**Fizik va tabiiy hodisalar ta’sirini ifodalovchi realiyalar**	Shamol bilan bog‘liq realiyalar	*Afg‘on shamoli, garmsel*

1-jadval. **Realiyalarning guruhlanishi**

Masalan, o‘zbek tiliga xos folklor-etnografik realiyalar ham bir qancha bo‘lib, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da berilgan: ***jumur*** – ba’zi doston yoki ertak qahramonlari o‘zini tanitmaslik maqsadida kal bo‘lib ko‘rinish uchun qo‘y qornining teskari tomonidan yasab olgan qalpoq: *Boshida jumuri, tanida janda*. («Nigor va Zamon»); ***zul (jul)*****:** *Ayil-pushtasini yeshdi bedovning, Shipirib ustidan oldi zulini*. («Xush keldi» (O‘TIL, II,163)); ***maston*** – ayyor, jodugar (xotinlar haqida): *Xabardor bo‘l. Shirvonning ko‘p mastoni, Mastonlardan xabardor bo‘l, Ravshanjon!* («Ravshan» (O‘TIL, II,554)); ***jamalak***– soxta kokil: *Kal qiz ham, qirqta qizni o‘ziga yollab olib, qora iplardan orqasiga jamalak qilib, bu ham mis patnislarga.. solib, ko‘tartirib jo‘nadi*. («Murodxon» (O‘TIL, II,67)); ***jumalik*** – juma kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan turli marosimlar: *Bukun jumalik qilib chiqqan edim – dedi Qambar*. (Oybek, Tanlangan asarlar. (O‘TIL, II,112)); ***sarjig‘a*** – bosh kiyimiga taqiladigan ***jig‘a*****:** *Barchin Ko‘kaldoshning boshidagi sarjig‘ani ko‘rib, alplarning zo‘ri shu – Ko‘kaldosh ekanini bilib, alplarga qarab, olti oyga muhlat so‘rab, bir so‘z deb turgan ekan*. («Alpomish»); ***Sinch –*** otlarning zotini, naslini, yoshini, fe’l-atvorini yaxshi biladigan odam: [Sherbek] *Otning tilini Yo‘ldosh novchaday biladigan sinchi yo‘qligiga iqror bo‘lsa-da, biror marta nomini og‘ziga olmagan edi*. (S.Anorboev, Oqsoy. (O‘TIL, III, 517)); ***choriq*** – qattiq xom teridan tikilgan, asosan tog‘lik hududlar xalqlari orasida rasm bo‘lgan oyoq kiyimi: *Nodonni siylasang, chorig‘i bilan to‘rga chiqar*. (Maqol (O‘TIL, IV, 510)); ***parixon –*** pari, jin kabi g‘ayritabiiy kuchlar yordamida bemorlarni kasalliklardan xalos qiluvchi; duoxon, azayimxon, folbin: *«O‘g‘ri qarisa – so‘fi, g‘ar qarisa — parixon bo‘ladi», deb bekorga aytishmagan-da.* (G‘.G‘ulom, Shum bola. (O‘TIL, III, 223)); ***olchin*** – uzunlik o‘lchov birligi; arshin va gaz qiymatlariga teng: *Moskopda sakkiz olchin shoyi yigirma tanga turarkan*. (M.Osim, Karvon yo‘llarida)


Realiyaga muqobilsiz leksika sifatida qaragan tilshunoslar [7, 135] uning bu belgisiga ishora qilib, mutlaqo tarjima qilinmaydi, deya hisoblashgan. Biz esa lakuna va realiya o‘rtasiga ulkan farq qo‘yishdan yiroqmiz, aksincha, lakuna realiyadan unib chiqadi va bir-birini taqozo etadi.

1-chizma



Demak, realiyalar adabiy tilga nisbatan shevaga ko‘proq xos ekanligi bilan ham leksik lakunalardan farq qiladi. Ular ayrim hududlarda nofaol so‘zlar sifatida urf-odat, irimlarga xos tushunchalarni ifodalaydi.

Dastlab, muqobilsiz so‘zlarga lakuna sifatida qaralar edi. Keyingi yillardagi izlanishlar asosida lakuna termini konkretlashdi va uning tarkibidan realiya kabi boshqa yondosh tushunchalar ajratildi. (2-chizma)



L.S.Barxudarov muqobilsiz leksikani quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Boshqa til leksikasida doimiy muqobilga ega bo‘lmagan atoqli otlar va familiyalar, jug‘rofiy nomlar, korxonalar, tashkilotlar, ro‘znomalar;

2. Boshqa til leksik tizimida mavjud bo‘lgan, odamlar amaliyotida ishlatilmagan narsalar, tushunchalar va holatni ifodalovchi realiya so‘zlar;

3. Tasodifiy «lakuna»lar, ya’ni biror tildagi lug‘at birliklari bo‘lib, qaysidir sabablarga ko‘ra boshqa til leksik tizimida muqobilga ega bo‘lmagan so‘zlar[8, 93-94].

Tildagi madaniy lakunalarni tasniflash uning mualliflaridan biri Y.S.Stepanov tomonidan taklif etilgan **madaniy-xoslangan leksika**ni, xususan, realiya tushunchasini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Худойберганова Д. Лингвокултуралогия терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 32.

2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык,1980. – 53 с.
3. Шумагер Е.И. Фоновая лексика, ее своеобразие и связ с культурой // Лексика и культура. – Тверь: Тверской государственный университет, 1990. – 46 с.
4. Томахин Г.Д. Реалии в культуре и языке // Иностранные языки в школе., №1, 1981. – С.13.
5. Лиликович О.С. Лингвокогнитивный и лингвокультурологический потенциал испанских реалий в художественном дискурсе эдуардо мендосы. Автореф.дисс. на соиск. уч. степ.кан. фил. Наук. – М.: 2016. – 26 с.
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1986. – С. 17; 55.
7. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова – М.: Русский язык, 1980. – 135 с.
8. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – С. 93-94.

MAXTUMQULINING SHE’RIYATIDA QO‘LLANILGAN PRETSEDENT BIRLIKLAR TAHLILI

Zaynura Zaynidinovna KADIROVA,
Termiz davlat universitet o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Aziza Baxtiyor qizi HAYITOVA,
Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti
Amaliy filologiya yo‘nalishi talabasi

Maqola Maxtumquli she’rlariga teranlik va boylik qo‘shish uchun she’riyatiga pretsedent birliklarni qanday kiritishini tadqiq qiladi. Maqolada Maxtumquli she’rlarini diqqat bilan o‘qish orqali shoir qo‘llagan turli pretsedent birliklari aniqlanib, ularning she’rlarning umumiy ma’no va ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Maxtumquli, she’riyat, pretsedent birliklar, tahlil, o‘zbek adabiyoti, turkiy adabiyot, madaniy murojaatlar, adabiy an’analar.*

Bu yil O‘zbekistonda Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligi keng nishonlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 19-

fevral kuni bu haqdagi qarorni imzoladi. Ushbu tadbir YUNESKO rahnamoligida dunyo miqyosida ham nishonlanadi.

«Turkman xalqining ulug‘ farzandi Maxtumquli Firog‘iy nafaqat turkiy xalqlar, ayni paytda jahon adabiyoti va madaniyati tarixida alohida o‘rin egallagan atoqli shoir va mutafakkirdir. Hassos so‘z san’atkorining chuqur gumanizm bilan sug‘orilgan asarlari mard va matonatli, mehnatkash turkman xalqining ezgu qadriyatlari va oliyjanob fazilatlarini tarannum etishi, hamisha xalq bilan hamdard bo‘lishga, turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro ahillik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan mazmun-mohiyati bilan barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir», — deyiladi qarorda [4]. Pretsedent nomlarni qo‘llashda ingliz va o‘zbek tillari tizimida ham o‘xshashlik, ham farqli jihatlar mavjud. O‘xshashliklari shundan iboratki, ingliz va o‘zbek tillari tizimida mazkur hodisa bir xil tabiatga ega, ya’ni muayyan kishini to‘liq tavsiflashda epitet sifatida foydalaniladi [КиберЛелинка]. Turkman xalqining hayot tarzi, gullab yashnashi uchun o‘z jonbozligini ayamagan inson, shuningdek jahon adabiyotida ham she’rlari bilan o‘chmas iz qoldirgan shoir Maxtumquli Firog‘iyni bugungi kunda butun jahon taniydi. Shuni ta’kidlab o‘tish ham joizki, Maxtumquli Firog‘iyning «Saylanma» asari ham millat ruhini yuksaltirish kabi xislatlar bilan sug‘orilgan. Asarda buyuk shaxslar, mashhur joy nomlari, o‘ziga xos she’riy uslublar bilan uyg‘unligi o‘quvchini o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Shoirning «Saylanma» asarida qo‘llangan pretsedent birliklar ko‘lami anchaginani tashkil etadi. Bu birliklar xalqning buyuk ajdodlarga, mashhur qadamjolarga va boshqa muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan tarixi boy bo‘lgan millatni ifoda qilib keladi.

Pretsedent termini qanday tushuncha, uning vazifasi nima deyishimiz mumkin. «Pretsedent» termini o‘tgan asrning ikkinchi yarmida rus tilshunosi

Yu. N. Karaulov tomonidan tilshunoslikka kiritilgan. Uning 1986 yil rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining VI Xalqaro kongressida qilgan «Роль прецедентных текстов в структуре функционирования в языковой личности» nomli ma’ruzasida ushbu termin ilk bor tilshunoslik nuqtai nazaridan qo‘llanildi. Keyinchalik Yu. N. Karaulov o‘zining «Русский язык и языковая личность» nomli asarida «pretsedent» terminining nazariy tomonlarini kengaytirib ifoda etdi. Xususan, D.B.Gudkov, V.V.Krasnx, N.A.Golubeva, I.V.Zaxarenko, G.G.Slshkina, G.F.Kovalev, E.A.Naximova vaboshqalar ilmiy tadqiqotlari natijasida «pretsedent» terminining nazariy vaamaliy mohiyatini kengaytirgan holda ochib berdilar. Pretsedent nom(Presedentnoe imya) — keng jamoatchilik uchun yaxshi tanish atoqli otlarbo‘lib, ular matnda konkret bir shaxsni (vaziyat, shahar, tashkilot va h.k.)ifodalash uchun emas, balki o‘ziga xos bir madaniy belgi, timsol, muayyansifat, voqealar, taqdirlar sifatida qo‘llaniladi[1.102].

Maxtumquli «Saylanma» asaridan «Chin jondan sevarman seni» she’rini pretsedent birliklarni tahlil qilamiz.

Gasht etsam qulli Eronni,
Misli Ibrohim Sorani,
Sevgandek sevarman seni.

Ibrohim – Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan biri, o‘zidan keyin o‘tgan barcha payg‘ambarlarning bobokaloni, arablar va yahudiylarning umumiy ajdodi. Allohning chin do‘sti, imom, siddiq va hanif deb ta’riflanadi.

Sora – Payg‘ambarimiz Ibrohim Alayhissalomning sevikli rafiqasi. (rivoyati mavjud).

Ya’kub yurt etdi Kanonni,
O‘g‘lidir Misr Sultonni.
Misli Yusuf Zulayhoni,
Sevgandek sevarman seni.

Tahlil: Ya’kub – Ya’qub alayhissalom – Qur’onda tilga olingan paygambarlardan biri. Ishoq alayhis-salomning o‘g‘li, Yusuf alayhissalomning otasi Yoqub alayhissalom Allohning birligiga, ibodatiga da’vat etuvchi payg‘ambarlardan bo‘lgan.

Misr Sulton – Yusuf alayhissalom Misr sultoniga yordam beradi. (Rivoyati mavjud).

Yusuf – Yusuf islom dini payg‘ambari, Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘li, tushlarni ta’bir qilish qobiliyatiga ham ega bo‘lgan. Injil payg‘ambari Yusuf bilan aniqlangan. Uning hayoti tarixi Qur’onning 111 oyatdan iborat «Yusuf» surasining 12-surasiga bag‘ishlangan bo‘lib, Qur’onda 27 marta zikr qilingan. Zulayho – Yusuf alayhissalomning ayoli bo‘lgan[siyrat.uz].

Majnun Layli parizodni,
Sevgandek sevarman seni.

Tahlil: Majnun va Layli – Layli va Majnun (arab. مجنون و ليلى («Majnun va Laylo»)) fors-turkiy romantik dostonidir. Chunki bu dostonlarni dastlab fors tarixiy asari «Shohnoma» da (Firdavsiy), keyinchalik shoir Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonida va buyuk turkiy shoir AlisherNavoiyning beshligi bo‘lmish «Xamsa» sida uchraydi. Voqeiy bo‘lmish bu hikoya Navoiyning «Xamsa» sida Qays ibn al-Mulavvo ismli arab yigitining Layli ismli qiz bilan ishqiy munosabatlari yoritiladi. O‘g‘lining bu qizga uylanishiga qarshi chiqqan otasining tazyiqlari va ayriliq tufayli Qays aqldan ozib, devona bo‘ladi («majnun» va «jinni», «dali» so‘zlarining o‘zagi bir).

Oshiq Farhod ul Shirinni,
Sevgandek sevarman seni.

Tahlil: Farhod ul Shirin – Farhod va Shirin – eronlik xalqlar adabiyotlarida an’anaviy mazmunga ega bo‘lgan va bir necha ijodkorlar

tomonidan qalamga olingan ishqiy qissa va dostonlardan birining nomi [kitobsevar.uz].

Pretsedent birliklar ichida pretsedent nomlar ham alohida o‘rin tutadi [1.90]. Pretsedent birliklarni tahlil qilish mobaynida bevosita Maxtumqulining «Saylanma» asaridagi she’rlarni keltirishimiz mumkinligini yuqoridagi she’r tahlilida ko‘rishimiz fikrimizni isbotlaydi. Shoirning ushbu asarida Sayfulmalik, Mohjamol, Varqo, Gulshan, Oshiq Navro‘z, Gulfarxor, Rustamxon kabi shaxslarni kuzatamiz. Maxtumquli she’rlarida pretsedent birliklarni ishlatilishida ham millat ruhini, uning tarixiy bo‘lgan, insonlar ongida mashhur bo‘lgan shaxslarni gavdalanishida hikmat borligini, xalq ularni har nafas yodga olishi ko‘rishimiz mumkin. Millatni pretsedent birliklar orqali ularning ma’naviyatini, madaniyatini bilishimiz, ular xalq qahramoni bo‘lib xalqlar ongida saqlanib qolishi nasriy, nazmiy asarlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Maxtumqulining ijodida ham buyuk shaxslarni, qadimgi, tarixiy joylarni esga olishi millatning boy merosga ega ekanligiga ham dalil sifatida ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Xudoyberganova. D Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013.
2. Jalilov T. Pretsedent termini va uning turli lug‘atlardagi izohi. 2021.
3. O‘zbek tili izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006-2008.
4. Gazeta.uz
5. Siyrat.uz
6. Kitobsevar.uz

ERKAKLARGA NISBATAN QO‘LLANUVCHI MUROJAAT SHAKLLARINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Zaxro Shokir qizi ABRUYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inson tafakkuri tadqiqi, atrof-muhitni o‘zlashtirish asnosida paydo bo‘lgan kognitiv bilimlar, uning lisonda aks etishi va davriy yangilanib borishi xususida, shuningdek, mana shu bilimlarning nutqiy vaziyatda kommunikantlar tomonidan munosib murojaat shakllari tanlashidagi ahamiyati, erkaklarga xos murojaat shakllarining kognitiv xususiyatlari xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar. *Kognitivizm, gender tafovut, murojaat kategoriyasi, lison, lisoniy faoliyat, konseptuallashish, tafakkur.*

Inson ongi tobora rivojlanib borar ekan, uning dunyoqarashi, fikri, nuqtayi nazari ham takomillashib, kengayib, o‘sib boraveradi. Har bir fan sohasida taraqqiyot bo‘lgani kabi tilshunoslikda ham kundan kunga rivojlanish natijasida turli yangi yo‘nalishlar, yangi oqimlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlar paydo bo‘ldi. Natijada tilshunoslikda psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, mentallingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika kabi ko‘plab yangi tarmoqlar vujudga keldi. Kognitivizm – insonning ichki holatini tafakkurini ifodalovchi fan sifatida insonning qabul qilish, qayta ishlash, xotirada saqlash, nutqqa tatbiq qilish imkoniyatlarini tahlil qila boshladi va tilning tafakkur bilan aloqasini tilshunoslikning dolzarb tadqiqot obyekti ekanini isbotladi [Попова З., 48].

Ma’lumki, kognitsiya olamni bilishda inson bilimlarining ongda paydo bo‘lish va boyib borish jarayonini o‘rganadi, bilimlarni saralash va o‘zgartirish esa bevosita va bilvosita lison bilan aloqada bo‘ladi. Insoniyatning bilish qobiliyati lisoniy qobiliyati bilan o‘zaro hamohangdir. Zero, lison inson mavjudligini, uning ijtimoiy tajriba-faoliyatini ta’minlovchi hodisadir. Demak, lison tadqiqi bilan shug‘ullanayotgan shaxs beixtiyor o‘zini bilish bilan mashg‘uldir, negaki, lisoniy faoliyat hodisasining mohiyati – uning ijrochisi – shaxs va ushbu shaxsning ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi. Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o‘zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, matnda konseptuallashgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham bo‘lishi mumkin [3, 85].

Mazkur tadqiqotimizda erkaklarga nisbatan qo‘llanadigan murojaat shakllaridan ayrimlarining kognitiv asosini tahlil qilishni maqsad qildik.

40-50 yoshli erkaklar nutqini kuzatganimizda bir-birlariga ismlari bilan emas, yoshi, xarakteri, kasbidan kelib chiqqan holda muayyan laqablar va taxalluslar bilan murojaat qilishganining guvohi bo‘ldik. E’tiborimizni tortgan shakllardan biri ***mavlono*** murojaati bo‘ldi. Mazkur shakl arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, O‘TILda janob, hukmdor, homiy kabi ma’nolari keltirilgan. Shuningdek, musulmon sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni, yuksak martabali amaldorlarni ulug‘lab, ularning nomlariga qo‘shib ishlatiladigan faxriy so‘z deb izohlangan. O‘TILdagi izohga qaraydigan bo‘lsak, aynan musulmon sharqida deb ta’kidlanyaptiki, demak murojaat sememasi tarkibidagi bitta sema dinga aloqadorlik, islomdan xabardor musulmon kishiga nisbatan murojaat mazmunlarini qamrab oladi[1, 518]. Shuningdek, mavlono murojaatining asosini tashkil qiluvchi Mavlon so‘zi Allohning 99 ismi

sifatlaridan biri hisoblanadi. Demak, mazkur shaklning O‘TILdagi semalari quyidagilar:

a) Dindor, dindan xabari bo‘lgan musulmon;
b) Ustozlarga nisbatan yoshi ulug‘lik semasi;
c) Amaldorlarga hamda hukmdorga nisbatan unvon va mansabdagi ulug‘lik semasi;

Kuzatuvlarimiz natijasida mazkur shaklning xalq tilida yoshdagi ulug‘lik semasi saqlanib qolgani aniqlandi. Adresantlar adresatning yoshi o‘zlariga nisbatan katta ekani bois ismi bilan murojaat qilish ularda noqulaylik tug‘dirishi va hurmatni ifodalash uchun shu shaklni tanlaganliklarini ma’lum qilishdi. Ulardan faqat bittasigina mazkur shakl qo‘llangan adresatning dindan xabari borligi va ibodatli ekanini ta’kidlab o‘tgan bo‘lsa-da, aksariyat lisonida yoshdagi ulug‘lik semasi dominant ekanligi aniqlandi. Ahamiyat qaratishimiz kerak bo‘lgan jihat shundaki, bugungi kunda arxaiklashib qolgan mazkur shaklning aholi vakillari nutqida, aynan 40 yoshdan yuqori nutq vakillari lisonida murojaat sifatida saqlanib qolgani, uning ham faqat bitta semasi dominantlik qilayotgani, yoshlar qatlami esa bugungi virtual hayot rivojlanishi oqibatida mazkur shakllar semasidan xabarsiz qolayotgani bir shaklning xalq konseptosferasidan o‘chib, iste’moldan chiqishiga olib kelmoqda. O‘rta asrlarda ustozlarga nisbatan mavlono murojaati keng qo‘llangan, masalan *mavlono Lutfiy hazratlari*, *mavlono Jomiy* tarzida. Bugun esa zamonaviylashish va globallashuv shiddati natijasida mazkur shakl o‘rnini ***ustoz*** murojaati egalladi. Mavlono murojaati gender jihatidan tafovutlangan, ya’ni faqat erkaklarga nisbatan qo‘llangan bo‘lsa, ustoz murojaatida bunday xususiyat mavjud emas.

Ma’lumki, murojaat muloqotning nutqiy etiketga bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlaridan biridir. Muloqotga kirishishda suhbatdoshning diqqatini jalb qilish uchun turli nutqiy birliklardan foydalaniladi. Muloqot o‘rnatishda har bir til o‘zining milliy-madaniy jihatlaridan kelib chiqib, o‘ziga xos murojaat formulalarini shakllantiradi. Murojaat birliklaridan to‘g‘ri foydalana olish muloqotning muvaffaqiyati va suhbatdoshlarning o‘zaro tushunushi garovidir. Murojaat formulasi ijtimoiy munosabatlarda yorqin namoyon bo‘ladi.

Ayollar tomonidan oila boshlig‘i hisoblanmish erlariga nisbatan ***xo‘jayin*** murojaatidan keng foydalaniladi. Xo‘ja, ega, sohib ma’nolarini ifodalovchi shakl aslida rahbar shaxslarga nisbatan qo‘llamuvchi murojaat so‘z hisoblanadi.

O‘TILda xo‘jayin so‘zi quyidagicha izohlangan:

1) Xo‘ja, ega, sohib. Biror narsaga yer, mol-mulkka egalik qiluvchi shaxs, xususiy mulk egasi, mulkdor boy: *(Mirzakarimboy) Xo‘jayin degan xizmatkorlarni qiziqtirish uchun va’da qilaveradi-da.* ***Oybek, “Tanlangan asarlar”.***

2) Biror narsaning to‘la huquqli egasi. *O‘zimiz xo‘jayin o‘z yerimizga, Erkinmiz, nomimiz, xuquqimiz bir.* ***R. Bobojon***.

3) Rahbar xodimga murojaat shakli. *Xo‘jayin, mashina tayyor, dedi shofyori*. ***Gazetadan.***

4) Ayol kishining turmush o‘rtog‘iga murojaat shakli. Xo‘jayin, ovqat tayyor bo‘ldi, keltiraymi. Mastura oshxonadan turib so‘radi eridan. “Yoshlik” [1, 435].

Musulmon sharqida erkaklar oilaning rahbari, boshlig‘i hisoblangan. Inson yaratilishida ham avval Odam Ato keyin uning chap qovurg‘asidan Momo Havo yaratiladi, ya’ni ayollar ustidan rahbar etib erkaklar tayinlanadi. Ayollar esa erkaklarga ya’ni o‘z rahbarlariga itoat etishlari lozim qilindi. Shu sababli ayollar eriga nisbatan erim murojaati o‘rniga xo‘jayin, xo‘jayinim evfemik shakllaridan foydalanishi oiladagi o‘zaro hurmat, erkaklar ustuvorligi tan olishlarini anglatadi. Bu xususda Qur’oni Karimda ham oyat kelgan: “Eshik oldida u(xotin)ning xo‘jayiniga duch kelishdi” (“Yusuf” surasi, 25-oyat) [2, 16].

Bundan tashqari erkak rahbarlarga nisbatan xo‘jayin murojaat shaklidan foydalanish ham keng tarqalgan. Mazkur murojaatning dinda ham er kishilarga nisbatan qollanishiga urg‘u berilgani ushbu shaklning gender xoslanishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xo‘jayin vokativ shaklining rahbarlarga nisbatan qo‘llanishining kognitiv asosi quldorlik jamiyati tuzumiga borib taqaladi. Quldorlik davrida qul, quldor terminlari tabulashtirilishi natijasida qulning egasiga xo‘jayin, sohib, xo‘ja so‘zlari bilan murojaat qilingan. Bu esa xo‘jayin so‘zining “biror narsaga egalik qiluvchi shaxs” semasini kuchaytirib, bugun ham iste’molda va kishilar kognitiv bazasida saqlanib qolishiga turtki bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, murojaat shakllari kommunikantlarning o‘zaro munosabatlariga, yoshiga, xulq-atvori, xarakteri, kasbiy unvoni kabi omillarga bog‘liq ravishda nutq jarayonida tanlanadi. Nutqqacha bo‘lgan vaziyatda suhbatdoshlar lisonida kategoriyalashgan holda olam, undagi shaxs va voqeliklar xususida kognitiv bilim shakllangan bo‘ladi va uning muayyan qismi nutq jarayonida til belgilari yordamida moddiy tus oladi. Shunday qilib, murojaat tanish yoki notanish adresatga, ijtimoiy holati va yoshi teng bo‘lgan, o‘zidan yoshi katta yoki kichik shaxslarga, rasmiy yoki norasmiy bo‘lgan vaziyatlarga qarab tanlanadi.

Adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. www.ziyouz.com
2. Mamadjanova N. Ingliz va o‘zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.

3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
4. Попова З.Д., И.А.Стернин. Когнитивная лингвистика. – М.: Восток-Запад, 2007.

ONLAYN KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING O‘ZBEK TILI ME’YORLARIGA TA’SIRI. O‘ZBEK TILIDA ENG SO‘NGI NEOLOGIZMLAR VA FAOL SO‘ZLAR TAHLILI

Sherzod Duminovich TURDIQULOV
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi f.f.f.d. (PhD)

Latofat Ne’matulla qizi OMONDAVLATOVA
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola so‘ngi 2023-2024- yillarda Surxondaryo vohasidagi o‘zbek tili foydalanuvchilari va talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma asosida o‘zbek tilida faol so‘zlar va neologizmlar masalasiga shuningdek, raqamli dunyoda keng muloqot vositasi sanalgan on-layn kommunikatsiyaning tilimiz me’yorlariga ta’siri va bu jarayonda ba’zi terminlarning nomutonosib qisqartirilishi bilan bog‘liq qarashlarimizni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *informatsiya, faol va nofaol so‘zlar, o‘zlashma so‘zlar, kalkalash, sotsial tarmoqlar, kodlash, dekodlash.*

Leksik qatlamlarning shakllanishi va rivojlanishi o‘z va o‘zlashgan qatlam hisobiga boyiydi. Asosan so‘zlashuv tili hamda rasmiy doiralarda ko‘rinadigan faol so‘zlar va neologizmlar o‘zlashgan qatlamni tashkil qiladi va muntazam yangilanishda, rivojlanishda bo‘ladi.

O‘zbek tili vakillari uchun tushunarli va ma’lum bo‘lgan, kundalik turmush jarayonida qo‘llanilishi odat tusiga kirib qolgan so‘zlarning faol so‘zlar deya nomlanishi barchamizga ma’lumdir. Milos o‘rnida: kutubxona, dars, kitob, ma’lumot, baho so‘zlari talabalar nutqiga oid faol so‘zlar bo‘lsa; kira, qaytim, bekat, mayda, beshta so‘zlari haydovchi nutqiga xosdir. Sotsial hayotda turli ijtimoiy qatlamga tegishli bu kabi misollarni barcha kasb egalari nutqida kuzatishimiz mumkin.

Ko‘pchilikka tushunarli va ma’lum bo‘lmagan, eskilik yoki yangilik bo‘yog‘i sezilib turadigan so‘zlar esa nofaol so‘zlardir. Ammo bugungi kunda neologizmlar o‘zlashishi bilan faol so‘zlar o‘rnini egallamoqda. Bu

jarayonning kengayishi hamda tezlashayotganligini jadal texnologik aloqa vositalari, kompyuterdan foydalanuvchi til egalari salmog‘ining tobora ortayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Har bir tilning leksikasi muttasil rivojlanish va o‘sishda bo‘ladi. Xususan, “Xitoyliklar yozma va og‘zaki nutqqa hamisha hurmat, e’tibor bilan yondoshishgan. Ularda har yili faol so‘zlar va ifodalar ro‘yxati tuziladi, neologizmlar lug‘ati nashr etiladi”[4, 12]. Shu tariqa dunyo tilshunosligi o‘z tillarini taftish qilib, boyitib bormoqda.

Joriy 2023-2024yillarda yoshlar nutqida kuzatilayotgan o‘zbek so‘zlashuv tilida mavjud ammo hali izohli lug‘atimizdan joy olishga ulgurmagan quyidagi neologizmlar asosan on-layn internet tarmoqlaridagi muloqotlar mahsulidir.

Namunalar:

1. Brebd
2. Party
3. Chelench (chelenge)
4. Vayner
5. Kripto
6. Hamster
7. Pobije
8. Podpiska
9. Dostavka
10. Trent
11. Layk
12. Xit
13. Klik
14. Podyum
15. Vikipidiya
16. Keshbek
17. Komfort
18. Shefburger
19. Bankomat
20. Probka

Hamidulla Dadaboyev agar neologizmlar jamiyat a’zolari tomonidan foydalanilayotgan bo‘lsa ular lingvistika va tilshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi deydi. Ammo mavzuning ushbu neologizmlarning aholining barcha qatlam vakillari uchun tushunarli bo‘lishi masalasi ham bordir.

Asosi ingliz va rus tilidan o‘zlashayotgan bu leksimalarni yangi neologizmlar guruhiga kiritamiz. Tarqalganlik, qabul qilinganlik va tushunarlilik darajasiga ko‘ra neologizlar 3 turga ajratiladi. 1.Yangi neologizmlar 2.Tarqalgan neologizlar

3.Turg‘un neologizmlar kabi. Shu o‘rinda, “neologizmlarning shakliy, semantik, stilistik, funksional, ijtimoiy-texnologik turlari farqlanadi”[2,50]. Neologizlar o‘zlashar ekan yo morfologik, yohud sintaktik, semantik yohud fonetik o‘zgarishlarga uchraydi va bu yozuvda ham o‘z aksini topadi. Bu o‘zgarishlar til uchun tabiiy holdir. Bugungi kunda tezkorlik, vaqtni tejash maqsadida smartfonlardagi turli chatlardan foydalanamiz. Misol uchun “Xitoyda oddiy insonning nutq tezligi 170 bo‘g‘inni ierogliflarni terish tezligi 30-50 belgini tashkil etadi va ularda We Chat kommunikator ilovasi mashhurdir” [4,26].

Onlayn kommunikatsiyani ta’minlash jarayonida tildagi leksimalar global bankka kiritiladi va o‘z-o‘zidan global xotiraga saqlanadi. Barcha foydalanuvchilar undan foydalanadi. Kompyuter xotirasiga yuklanayotgan tamin yo model yoki kodlash usulida amalga oshiriladi. Bu holatda leksimalarning qisqatirilgan varianti, belgilar, raqamlarni qo‘llash mumkinligi haqida ma’lumotga egamiz ammo chatlardagi diologik yozishmalar, kichik xabarlarda oddiy leksemalardagi harflarni tushurib, qisqartirib qo‘llash bora-bora odat tusini olmoqda bu esa so‘zning o‘qilishiga va tushunchaga ta’sir qilishi mumkin. Ayrim muloqot vakillarining yozma hatto og‘zaki nutq jarayonida ba’zan g‘aliz so‘z, so‘z birikmalaridan qo‘llanayotganlarining guvohi bo‘lib qolayapmiz. Misol o‘rnida “suvchilar keldi” (sovchilar keldi) yoki “xorijga jo‘nab ketayotgan bir yigitning global tarmoqdagi yozishmalaridan olingan parchada “3iw 5dekan” samoliyotning uchish vaqtini (uchish 5 da ekan) do‘stlariga shu tarzda bayon qiladi”[4,28]. Aslida sonlarning qaysi o‘rinlarda yohud nima uchun qo‘llanilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak “son narsalarning qanchaligini, sanog’ini, adadini hisoblash uchun xizmat qiladigan matematik vositadir”[1,3]. Albatta, numeralogiya ham milliy mentalitetni ifodalovchi lingvomadaniy belgilar majmuyi, milliy-madaniy kod darajasiga ko‘tarildi ammo shuni ham aytib o‘tish kerak-ki, bu holat bizga yuqoridagi namunada keltirilganidek til qoidasini chetlab o‘tishimizga izin bermaydi va so‘z qo‘llash bilan bog‘liq me’yorlarning buzilayotganligini ko‘rsatadi. “Xitoy foydalanuvchilari yaqin-atrofdagi begonalarga nisbatan qo‘llaniluvchi qarindoshlik terminlarini qisqartirishadi, gg-gege (so‘zma-so‘z:aka) suhbatdoshga hurmatni ifodalaydi”[4,27] ammo 10 yildan keyin bu ikki harf “gg” yakka “g” shaklini olsa yoki yuqoridagidek terminlar son shaklidagi belgilar bilan ifodalansa v harfi o‘rnida w qo‘llanilsa tildagi asliyatga, shaklga putur yetmaydimi degan havotirli savol bizningcha barcha tilshunoslarni o‘ylantiradi. “Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til birinchi navbatda madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi. Til-uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanligini ko‘rsatadi”[5,7]. Shunday ekan kommunikatsiya monologik, diologik yoki

polilogik tarzda bo‘lishidan qat’iy nazar axborot egasi axborotni qabul qiluvchiga qisqalik, qulaylik bilan bir qatorda aniqlik va tushunarlilikni ta’minlashi, tilga hurmat va milliy ruhni saqlashi lozim. Shundagina tilimizning emotsionallik va ekspressivligini, omonimlar, sinonimlarning asil shaklini kelajak til egalariga bus-butun, yana-da boy tarzda yetkazgan bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Anvarjon Orifjon o‘g‘li Abdurayimov, Diloro Abduhamidovna Nabiyeva. Raqamlar – “Olam tili”ni ifodalovchi obyekt (maqola). Academic research in educational sciences (SJIF). – 2021:5.723. 17 b.
2. Abjalova M, Geldiyeva X. O‘zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohasidagi neologizmlar (maqola). – Til va madaniyat. – 2022. 61b.
3. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. –Toshkent: – 2019. 138 b.
4. Xolmonova Z.T. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent: – 2019. 247 b.
5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). –Toshkent: – 2019. 248 b.

O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA “FARZAND” KONSEPTINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Nargizaxon Maxammadjon qizi NURDINBAYEVA
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon va o‘zbek lingvomadaniyatidagi “Farzand” konseptining leksik, semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Antroposentrik tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslikda (til va madaniyatning o‘zaro kesishuv nuqtasida shakllangan yo‘nalish) konsept eng ko‘p tadqiq qilinayotgan birlik bo‘lib, konseptning lisoniy, lingvomadaniy hamda lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinmoqda. Maqolamiz obyekti sanalgan “Farzand” konsepti lingvistik tadqiqotlarda alohida o‘ringa ega. Dunyo xalqlari madaniyatida farzand doimo ulug‘langan, oilaning tayanchi, ota-onaning bu dunyoda qoldiradigan “izi” sifatida qadrlangan.*

Kalit so‘zlar: *antroposentrik tamoyil, til, madaniyat, konsept, farzand, bolalik, bola-chaqa, bola-baqra.*

Zamonaviy tilshunoslik fanlaro aloqadorlikni taqozo etuvchi antroposentrik tayomillari asosida til bilan bog‘liq hodisalarni tahlil qilmoqda. “Inson omili”ni nazarda tutuvchi antroposentrik paradigma orqali til hodisalarini o‘ziga xos triadalar: “til-inson-kommunikatsiya”, “til-inson-tafakkur”, “til-inson-madaniyat” prizamasida ko‘rib chiqish tilni o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Zotan, birinchidan, tilning ko‘p qirraliligi inson, uning bilim va tajribasi mahsuli (inson tilda), ikkinchidan tomondan esa til insonni, uning fikrlash va takakkur qilish va aqliy salohiyatini bilish vositasidir (til insonda) [1, 15].

“Farzand” konsepti xalqlar madaniyatida turli tushunchalar va madaniy vositalar orqali farqlanadi hamda “Bolalik” tushunchasi bilan bevosita bog‘lanadi. “Bolalik” har bir insonning jismoiy, aqliy, psixologik rivojlanishining asosiy davri sanaluvchi ijtimoiy-madaniy jarayon. “Bolalik” farzand bilan bog‘liq yosh davrlarini ham o‘z ichiga oladi.

“Farzand” tushunchasi o‘zbek madaniyatida “*oila/uy tushunchalari bilan bevosita bog‘liq*”, “*ota-onaning chirog‘ini yoquvchi*”, “*ajdodlarni bir-biri bilan bog‘lovchi bo‘g‘in*” sifatida alohida o‘ringa ega. Dog‘istonning avar xalqi maqol va matallarida farzandsiz oila to‘liq bo‘lmasligi ta’kidlanadi. Bolalar hayotni ma’no bilan to‘ldiradilar. Farzandli bo‘lish yuqoridan berilgan sovg‘adir. Dog‘istonda uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan an’anaga ko‘ra, bolaning tug‘ilishi haqidagi xushxabarni yetkazgan kishi saxiylik bilan mukofotlanadi [2, 448]. Xitoy madaniyatida bolalik tushunchasi soch turmagi bilan bog‘liq bo‘lib, boisi soch inson uchun tananing muqaddas qismi hisoblangan, odamlar butun umr davomida kesishlari mumkin bo‘lmagan [3, 143]. Bolalarning sochlariga qarab ularning yoshlarini aniqlash oson bo‘lgan. Turk xalqida farzand ega bo‘linishi kerak bo‘lgan va hayotning go‘zalligini oshiradigan qadriyat sifatida qaralib, uning yo‘qligi qat’iy qoralanadi va tanqid qilinadi [4, 261]. Hind xalq maqollarida esa farzandlar “oila quyoshi” sifatida ulug‘lanadi.

“Farzand” konsepti bo‘yicha tilshunoslikda ko‘plab ishlarni amalga oshirilgan. Ayniqsa, rus tadqiqotchilari T.Babarkina, M.Kosicheva, S.Alfalki, A.Ashxarava, I.Kalyujnaya kabilarni ishlarida kuzatishimiz mumkin [5].

M.A.Kosicheva bola (child) konsepti va uning ingliz lingvomadaniyatida amalga oshirish vositalarini tahlil qilgan. Dissertatsiyada zamonaviy psixologiya, sotsiologiya va falsafada bola va bolalik hodisasini tavsiflash va uning “bola” konsepsiyasida aks ettirish darajasi hamda xususiyatlarini aniqlash, ingliz tilshunosligida “bola” tushunchasini obyektlashtiradigan leksik, frazeologik va paremiologik birliklarning korpusini aniqlash, tavsiflash kabi muammolar yoritilgan. Tadqiqotchi bola va bolalik tushunchalariga murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baho beradi [6, 6]. Ingliz tilidagi “bola” konsepsiyasining konseptual, majoziy va qiymat

tarkibiy qismlarini taqqoslash ingliz tilshunosligining o‘ziga xosligini, uning vakillarining mentalitetini tashkil etadigan umumiy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi [6, 8].

T.S.Babarikina D.K.Rouling asarlari materiallari asosida bola (child) konseptining verbalizatsiyasiga bag‘ishlangan ilmiy ishida bola tushunchasi har bir xalq qadriyatida ahamiyatga ega ekanligi, bola konseptining konseptual xususiyatlari ingliz madaniyati va adabiyoti misolida tavsiflangan.

O‘zbek tilshunosligida “Farzand” konseptini ifodalovchi birliklar assotsiativ-semantik maydonda bir butun sistemani tashkil qiladi. “Farzand” konseptini bildiruvchi so‘zlar o‘zbek lug‘at fondida katta o‘rinni egallaydi. Ushbu konsept turli konnotativ ma’noga ega bo‘lgan leksik vositalar orqali ifodalanadi.

“Farzand” konsepsiyasiga *farzand, bola, arzanda, zurriyot, bola-chaqa, bola-baqra, jujuq, bacha, kenja, kenjatoy, supraqoqdi, to‘rvaqoqdi, tengdosh, tengqur, hamqur, teng-hamqur, tengtush (teng-to‘sh), bo‘yinsa, yetim, avlod, bo‘g‘in, sag‘ir,* **shumtaka, tirmizak, tirrancha, churvaqa, urvaqa,** *norasida, norasta, talpinchoq, o‘g‘il, qiz, qizaloq, o‘g‘ilcha, bolapaqir* kabi birliklar kiradi. Bu guruhga kiruvchi birliklarning izohlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. O‘zbek etimologik lug‘atida ***farzand*** terminiga shunday ta’rif berilgan: “tojikcha ot “ota-onaning bolasi” ma’nosini anglatadi (ТжРС, 406); adabiy o‘zbek tilida shu tovush tarkibi bilan aytiladi va shunday ma’noni anglatadi (ЎТИЛ, II, 295); so‘zlashuv tilida *f* tovushi *p* tovushiga almashtiriladi, ba’zan oxirgi *d* tovushi talaffuz qilinmaydi” [8, 232]

Zamonaviy o‘zbek tili izohli lug‘atida esa *farzand* so‘zi bola, o‘g‘il-qiz; nasl. Bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o‘g‘il yoki qiz (ota-onaga nisbatan); bola [9, 115] tarzida izohlangan.

Bola, **farzand**, **zurriyot**, **bacha** (**bachcha**), **jujuq** bitta ota-onadan dunyoga kelgan o‘g‘il yoki qiz**. Zurriyot** so‘zida birqadar kitobiylik bor, anchayin kam qo‘llanadi. **Bacha**, **jujuq** so‘zlari ma’nosida yosh jihatidan kichiklik ta’kidi mavjud, ular shevaga xos [10, 84].

Avlod, bo‘g‘in bir davr kishilarining nasli. Bo‘g‘in bu ma’noda ayrim so‘z birikmalari tarkibidagina qo‘llanadi [11, 11].

Farzand, bola, zurriyod (zurriyot), tirnoq er-xotinning (er yoki xotinning) o‘zidan dunyoga kelgan zot. **Zurriyod** ko‘proq folklor asarlarida qo‘llanadi. **Tirnoq** ko‘pincha farzandsizlik holatini ifodalashda, oddiy nutqda qo‘llanadi [11, 207].

Prof. Y.Odilov bola-chaqa, bola-baqra terminlar xususida fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, ***bola-chaqa*** “katta-kichik yoshdagi bolalar”, “oila a’zolari, xotin va bolalar” ma’nolarini bildiradi. “Bola-chaqalar yaxshi yuribdimi?” deganda shu ma’no nazarda tutiladi. Yoki: Kecha kolxozda

ketmon chopib, biri ikki bo‘lmagan dehqon bugun yer olib, bola-chaqasi bilan gullatib qo‘ysa-yu, qaddini kerib yursa, quvonaman. (O‘tkir Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar) Mazkur juft so‘z tarkibidagi chaqa so‘zi asli avval “go‘dak” ma’nosini bildirgan. Turkman tilida yoki ayrim o‘g‘uz shevalarida hozir ham chaqa so‘zi “go‘dak, bola” ma’nosida ishlatiladi. Chaqa so‘zining bu ma’nosi chaqaloq so‘zida saqlanib qolgan. Ma’lumki, -loq qo‘shimchasi ot turkumidagi so‘zlardan yangi so‘zlar yasaydi. Chaqaloq so‘zi ham chaqa so‘ziga -loq qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan.

Bola-baqra “katta-kichik bolalar” ma’nosini bildiradi. Masalan: Nima qilay, uy to‘la bola-baqra, yeyman-ichaman deb turibdi! (Erkin A’zam, Jannat o‘zi qaydadir). Sh.Rahmatullayevning fikricha, baqra so‘zi baqir- fe’liga -a qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan. Qadimgi turkiy tilda baqir fe’lining bir necha ma’nosi bo‘lgan, shu ma’nolaridan biri “yig‘lamoq” edi. Baqir fe’lining ana shu “yig‘lamoq” ma’nosi asosida baqra so‘zi yasalgan: baqir+a = baqira > baqra. Keyinchalik i tovushi talaffuz qilinmay qo‘ygan va baqra holiga kelib qolgan. Demak, bola-baqra so‘zida dastlab “yig‘laydigan yoshdagi bola” ma’nosi ochiq ifodalangan, keyinchalik bu ma’no xiralashib, “katta-kichik bolalar”, “har xil yoshdagi bolalar” ma’nosi ustuvorlashgan [12].

2. O‘zbek madaniyatida farzand tug‘ilish davriga ko‘ra turli nomlanadi. Nomlanuvchi birliklar “makon-zamon”da bir-biriga zidlanadi: to‘ng‘ich – o‘rtancha – kenja.

To‘ng‘ich – oilada eng katta va birinchi farzand, **o‘rtancha** bosh va kenja bolalarning oralig‘idagi farzand. **Kenja, kenjatoy, supraqoqdi, to‘rvaqoqdi, kichik, kichkina** oilada eng keyin, oxirgi tug‘ilgan farzand. **Kenjatoy** so‘zida erkalash, suyish ta’kidi bor. **Supraqoqdi, to‘rvaqoqdi** mazkur ma’noni obrazli ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos so‘zlar. **Kichik** va **kichkina** so‘zlari **kenja** so‘zlari bilan almashinib qo‘llana oladi [10, 187].

3. “Farzand” konsepti gender jihatdan “o‘g‘il” – “qiz” tarzida o‘zaro zidlanadi.

“***O‘g‘il***” – er jinsidagi farzand (o‘z ota-onasiga nisbatan) [13, 487]. “O‘g‘il” matnlarda *o‘g‘ilcha, o‘g‘iltoy, o‘g‘lon, ota o‘g‘il, bola, yigit*, *polvon, botir*; “***Qiz***” esa *qizcha, qizaloq, ojiza, holva, qoqindiq, qaqildoq, puchatoy, popuk, oymomo, oy kulcha* so‘zlari bilan nominatsiyalanadi.

Qiz, qizaloq, ojiza, holva, to‘nbichar Ayol jinsiga mansub farzand (ota-onaga nisbatan). **Qizaloq** – **qiz** so‘zining kichraytirish-erkalash shakli, yoshi katta qizga qarata kinoyaviy qo‘llanadi. **Ojiza** mazkur ma’noda eskirgan. **Holva** chaqaloqning jinsini bilish uchun “o‘g‘ilmi, holvami?” so‘rog‘i tarkibidagina uchraydi. **To‘nbichar** – shevaga xos so‘z, qiz chaqaloqni ifodalaydi [13, 317].

4. Bir davrda yashagan, yoshi teng bolalarni ham turli nomlar bilan ataladi: **tengdosh, tengqur, hamqur, teng-hamqur, tengtush (teng-to‘sh), bo‘yinsa** bir yilda tug‘ilgan, bir vaqtda o‘sib ulg‘aygan. **Tengdosh** so‘zi “yoshi teng” ma’nosiga ega bo‘lib, ham kattalar, ham kichik yoshdagilarga, shuningdek, jonivor va narsa-predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi. **Tengqur** so‘zi, asosan, bolalar, yoshlarga nisbatan qo‘llanadi. **Hamqur, teng-hamqur, teng-tush** so‘zlari nofaol, ayrim shevalarda uchrab turadi. **Tengtush** poetik asarlarda **teng-u tush** shaklida ham qo‘llanadi. **Bo‘yinsa –** shevaga xos so‘z [13, 392].

5. Ko‘chma ma’noda “bola” semasini ifodalovchi *chiroq, tirnoq, qaroq, jigar, novda, iz, bo‘g‘in, nihol, ushoq, popuk, tuyoq* kabi so‘zlar badiiy matnda qo‘llaniladi.

Chiroq, tirnoq, iz so‘zlari “farzand” ma’nosini ifodalash uchun ko‘p qo‘llanadi.

1. – Hey bolalar, *chiroqlarim*, bu hovuz jahannamday chuqur... Ehtiyot bo‘linglar. (Oybek, Bolalik xotiralarim).

2. Hazrati Xizr bovajonim, men bir sho‘rpeshona bandaman! *Tirnoqqa* zorman! Eshityapsizmi, tirnoqqa zorman! (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar). Tirnoq so‘zi sinekdoxa usuli orqali farzand ma’nosini ifodalagan.

Ushoq nonning mayda bo‘lagi bo‘lib, matn tarkibida majoziy ma’noda “bola-chaqa”ni bildiradi. *Popuk* so‘zi yosh qizlarni erkalash ma’nosida qo‘llanadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida “Farzand” konsepti “mayda”, “kichik”, “katta emas” kabi semalariga ega bo‘lgan so‘zlar orqali tasvirlanadi.

Adabiyotlar:

1. Нормуродова Н. Инглиз бадиий дискурсида антропоцентризмнинг лисоний воқеланиши: Филол. фан. д-ри. (DSc)... автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 15.

2. Гасанова М.А., Салимгереева Н.А. Концепт “Ребенок” в аварской паремиологической картине мира. Мир науки, культуры, образования. № 3 (88). 2021. – Б. 448.

3. Пан Жуй. Концепт “Дети” в русской и китайской лингвокультурах. – Электронный научно-образовательный журнал ВГСПУ “Грани познания”. №5(32). Май 2014. – С. 143.

4. Altinboyev N. Turk maqollarida farzand obarazining metaforik talqini. / Orintal Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 4 (5), May, 2024. – B. 261.

5. Бабарыкина Т. Вербализация концепта “Child” на материале произведений Дж.К.Роулинг: Автореф. дисс … канд. филол. наук. – Белгород, 2010. – 23с; Косычева М. Концепт “Child” и средства его реализации в английской лингвокультуре: Автореф. дисс. … канд. филол.

наук. – Самара, 2013. – 23с; Алфалки С. Ребенок как объект ласкового отношения в русской языковой картине мира. // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. 2021. Т. 27, № 1. С. 116-121; Ашхарава А. Концепт “дитя” в русской языковой картине мира: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Архангельск, 2002. – 20с. Калюжная И. Концепт “Детсво” в немецкой и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Волгоград, 2007. – 23с.

6. Косычева М. Концепт “Child” и средства его реализации в английской лингвокультуре: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Самара, 2013. – С. 6.

7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (III). – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 232.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 2-j. – 864b.

9. Mahmudov N va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 84.

10. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 11.

11. https://oz.sputniknews.uz/20230725/hayot-mamot-bola-chaqa-yarim-yorti-juft-sozlarning-manolarini-bilasizmi-36966174.html

12. Oybek. Bolalik xotiralarim. – Toshkent: “*Ilm-ziyo-zakovat*”, 2019. – 272b.

13. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 192b.

EKSTREMISTIK MATNDA MUALLIF BELGILARI

Abror KURBONMURATOV,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Mazkur maqolada ekstremistik matnlarda mualliflik belgilarini aniqlash va ularni lingvistik hamda stilometrik jihatdan tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqola ekstremistik matnlarni tahlil qilish, ularning mualliffligini aniqlash va xavfsizlik choralarini ko‘rishda ilmiy asoslar yaratishga qaratilgan. Matnlar misollar asosida lingvistik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinib, ulardagi ritorik strategiyalarni tushunish orqali radikalizmga qarshi samarali choralar ishlab chiqish usullari ko‘rsatilgan. Lingvistik, stilometrik va kompyuter lingvistikasi usullaridan foydalanib, ekstremistik matnlarda mualliflik belgilarini aniqlashning ahamiyati ta’kidlanadi.

Tayanch so‘zlar: Ekstremistik matnlar, ekstremistik matnlar va ularda mualliflik belgilarini aniqlash

Ekstremistik matnlar zamonaviy dunyo xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ularni tahlil qilish va tushunish, bu tahdidga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Ekstremistik matnlar radikal g‘oyalarni targ‘ib qilish, dushmanlikni qo‘zg‘ash va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzish maqsadida yoziladi. Ularni mualliflik belgilariga ko‘ra tahlil qilish ekstremistik diskursning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Ushbu maqolada ekstremistik matnlar va ularda mualliflik belgilarini aniqlash va tahlil qilish metodlari ko‘rib chiqiladi.

So‘nggi yillarda ekstremistik matnlar fenomeni katta e’tiborni tortdi, ayniqsa, global aloqa va raqamli platformalar radikal mafkuralarni tarqatishni kuchaytirgan bir paytda. Ushbu matnlar, ko‘pincha polarizatsion va provokatsion mazmun bilan ajralib turadi va ekstremistik guruhlarning yollash va radikallashtirish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu matnlarda qo‘llanilgan lingvistik va ritorik strategiyalarni tushunish samarali qarshi normativlar va oldini olish choralarini ishlab chiqish uchun zarurdir.

Ekstremistik matnlar o‘z o‘quvchilarini muayyan mafkuraviy pozitsiyaga yo‘naltirish maqsadida til va ramzlarni manipulyatsiya qilish orqali aniqlik kiritishga harakat qiladi. Ushbu matnlarda ekstremizm belgilari ochiq zo‘ravonlikka chaqiriqlardan tortib, o‘zgalarni yomonotliq qilish, shahidlikni ulug‘lash va adolatsizlikka e’tibor qaratish kabi nozik usullargacha bo‘lgan ko‘plab belgilardan iborat bo‘lishi mumkin. Bu matnlar o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va ularni safarbar etish uchun ritorik uslublardan strategik foydalanish orqali o‘z auditoriyasini jalb qiladi va harakatga chorlaydi. Ekstremistik matnlarni o‘rganish ko‘p fanlar kesishgan nuqtada turadi, lingvistika, psixologiya, sotsiologiya va siyosatshunoslik sohalariga oid tadqiqotlar bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchilar ekstremistiklar tomonidan qo‘llanilgan turli xil ritorik strategiyalarni aniqlaganlar, jumladan qo‘rquvga asoslangan da’vatlar, axloqiy tanazzul va raqiblarning odamlarga qarshi ko‘rsatilishi kabi. Ushbu strategiyalar «biz» guruhini to‘g‘ri va «ular» guruhini yovuz deb tasvirlash orqali dunyoni qora-oq tasvirlashga mo‘ljallangan. Ekstremistik matnlardagi maxsus belgilarning o‘rganilishi radikallashtirishning asosiy mexanizmlarini ochib berishga va ushbu matnlar auditoriyaga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi.

“Ekstremistik matnlar zamonaviy dunyo xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ularni tahlil qilish va tushunish, bu tahdidga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi”. Ekstremistik matnlar radikal g‘oyalarni targ‘ib qilish, dushmanlikni qo‘zg‘ash va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzish maqsadida yoziladi. Ularni mualliflik belgilariga ko‘ra tahlil qilish ekstremistik

mazmunning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Ushbu maqolada ekstremistik matnlar va ularda mualliflik belgilarini aniqlash va tahlil qilish metodlari koʻrib chiqiladi.

Ekstremistik matnlar odatda diniy, siyosiy yoki ijtimoiy radikalizmni targʻib qiluvchi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka tahdid soluvchi yozma materiallardir. Bunday matnlar koʻpincha zoʻravonlik, kamsitish va qoʻporuvchilik, buzgʻunchilik gʻoyalarini ragʻbatlantiradi. Ekstremistik matnlar mualliflari oʻz gʻoyalarini keng ommaga yetkazish uchun maxsus lingvistik va stilistik vositalardan foydalanadi. Misol sifatida quyidagi matnlarni koʻrib chiqamiz.

1. «Muqaddas Kurash». «Dushmanlarimizga qarshi kurash muqaddasdir. Biz oʻz erkinligimiz va dinimizni himoya qilish uchun barcha vositalardan foydalanishimiz kerak. Har bir musulmon bu kurashga qoʻshilishi lozim, chunki bu bizning farzimizdir.» Ushbu matn diniy radikalizmni qoʻllab-quvvatlaydi va jihod tushunchasini targʻib qiladi. Mualliflik belgilarini quyidagi jihatlar orqali aniqlash mumkin:

– shaxsiylashtirish: muallif «biz» va «har bir musulmon» kabi olmoshlar orqali oʻz fikrlarini umumlashtiradi. Bu usul oʻquvchini oʻzining jamoasining bir qismi sifatida his qilishiga olib keladi va uni muallifning gʻoyalarini qabul qilishga undaydi.

– His-hayajon: «Muqaddas kurash», «farzimiz» kabi iboralar oʻquvchini diniy jihatdan hissiy holatga keltiradi, bu esa radikal qarorlar qabul qilishga turtki boʻladi.

– Diniy motivlar: Matnda diniy terminologiyadan foydalanish muallifning maqsadini mustahkamlashga qaratilgan. Bu soʻzlar mualliflik belgilarini aniqlashda muhim rol oʻynaydi [1].

2. «Adolat Uchun Qasos». «Bizning jamiyatimiz adolatsizlikdan aziyat chekmoqda. Davlat bizni ezadi va biz bu zulmga chiday olmaymiz. Qasos olish vaqti keldi.» Bu matn ijtimoiy norozilikni radikal shakllarda ifoda etadi. Mualliflik belgilarini quyidagi omillar orqali aniqlash mumkin:

– Qayta-qayta takrorlash: «Adolatsizlik», «zulm», «qasos» kabi soʻzlarning takrorlanishi asosiy gʻoyani kuchaytiradi. Bu usul oʻquvchining diqqatini matnning asosiy maqsadiga qaratadi.

– Provokatsion uslub: Muallif provokatsion soʻzlardan foydalanadi, bu esa oʻquvchida norozilik va agressiya hislarini uygʻotadi. Bu usul orqali oʻquvchini faol harakat qilishga undaydi.

– Emotsional soʻzlar hamda falsafiy kategoriyalar: «Adolatsizlik» va «zulm» kabi soʻzlar oʻquvchida davlatga nisbatan asosan salbiy hissiyotlarni shakllantiradi. Muallif bu usul orqali oʻquvchini dastlab tushkunlik va chorasizlikka, kayfiyatga tushirib, va ular orqali aksincha mavjud ijtimoiy muammolarga nisbatan tegishlicha chora-tadbirni rejalashtirishga da’vat qiladi.

3. «Dushmanga Qarshi Jihod». «Dushman bizni o‘z yerimizda ezmoqda. Ularning har bir amali bizni yo‘q qilishga qaratilgan. Jihod — bizning yagona najotimiz.» Bu matnda jihod tushunchasi radikal ma’noda qo‘llanilib, dushmanga qarshi kurashni targ‘ib qilish maqsad qilingan. Matndagi mualliflik belgilarini quyidagi omillar orqali aniqlash mumkin:

Metafora va analogiyalar: «Dushman» va «najot» kabi so‘zlar diniy va harbiy ma’noga ega bo‘lib, bu orqali o‘quvchining hissiy kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatiladi. Muallif bu vositalar orqali o‘quvchini radikal harakatlarga undaydi.

- Shaxsiylashtirish va umumlashtirish: Muallif o‘zini va o‘z tarafdorlarini «biz» deb ta’riflaydi, bu esa matnni yanada kuchliroq maqsadga yo‘naltiradi. «Biz» kishilik olmoshi orqali o‘quvchining o‘zini jamoa a’zosi sifatida his qilishi ta’minlanadi.
- Hissiy ta’sirga ega so‘zlar**:** «Ezmoq», «yo‘q qilish», «najot» kabi kuchli hissiy ta’sirga ega so‘zlar muallifning maqsadini aniqroq ko‘rsatadi va o‘quvchini hissiy jihatdan radikal qarorga olib keladi.

Ekstremistik matnlarda mualliflik belgilarini aniqlash usullari. Ekstremistik matnlarda mualliflik belgilarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu usullar lingvistik, stilometrik va kompyuter lingvistikasi usullarini o‘z ichiga oladi.

Lingvistik analiz: Lingvistik analiz ekstremistik matnlarda mualliflik belgilarini aniqlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Bunda matnda ishlatilgan leksika, sintaksis va morfologik xususiyatlar o‘rganiladi. Bu usul muallifning til ishlatish usulini va shaxsiy uslubini aniqlashga imkon beradi.

Stilometrik analiz: Stilometrik analiz muallifning stilistik xususiyatlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu usul orqali matndagi stilistik elementlar, masalan, so‘z tanlovi, gap qurilishi va punktuatsiya tahlil qilinadi. Stilometrik analiz ekstremistik matnlarning muallifini boshqa matnlardan ajratishda samarali usul hisoblanadi.

Kompyuter lingvistikasi: kompyuter lingvistikasi ekstremistik matnlardagi mualliflik belgilarini avtomatik ravishda aniqlashda keng qo‘llaniladi. Bu usulda matnning lingvistik va stilistik xususiyatlari kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilinadi. Kompyuter lingvistikasi ekstremistik matnlarni tahlil qilish va ularni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Ekstremistik matnlarni tahlil qilishda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlar lingvistik, stilometrik va kompyuter lingvistikasi usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Misol tariqasida bir necha tadqiqotlarni keltirib o‘tish mumkin. **Lingvistik tadqiqotlar**: lingvistik tadqiqotlar orqali ekstremistik matnlarda qo‘llanilgan til va uslublar tahlil qilinadi. «Bu tadqiqotlar matn muallifining shaxsiy uslubini aniqlashga va

ularni boshqa matnlardan farqlashga yordam beradi.»[2] **Stilometrik tadqiqotlar:** stilometrik tadqiqotlar muallifning individual stilistikasini aniqlashga qaratilgan. Bu tadqiqotlar ekstremistik matnlarni boshqa matnlardan farqlashda va ularni aniqlashda yordam beradi. **Kompyuter lingvistikasi tadqiqotlari:** kompyuter lingvistikasi tadqiqotlari matnlarni avtomatik tahlil qilishga qaratilgan. Bu tadqiqotlar ekstremistik matnlarni tahlil qilishda tezkor va samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Ekstremistik matnlar zamonaviy dunyoda xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biridir. Ushbu maqolada ekstremistik matnlardagi mualliflik belgilarini tahlil qilish, ularni lingvistik va stilistik jihatdan o‘rganish hamda kompyuter lingvistikasi usullaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqildi. Misollar yordamida bu metodlarning qo‘llanilishi yoritildi. Ekstremistik matnlarni tahlil qilish va ularga qarshi kurashda bu usullar samarali vosita hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ekstremistik matnlarda mualliflar tomonidan radikallashtirish va auditoriyani safarbar etish uchun qo‘llanilgan lingvistik va ritorik belgilarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Turli xil ekstremistik adabiyot to‘plamini sifatli va miqdoriy ko‘rinishda o‘rganish orqali biz ekstremistik mafkuralarni tarqatish uchun doimiy ravishda qo‘llaniladigan alohida so`zlar va mavzularni aniqladik. Ekstremistik matnlar ko‘pincha «biz» va «ular» qarama-qarshiligini ochiq til orqali ifodalaydi. Ushbu til dunyoni sodda qilib, boshqa guruhlarga qarshi ekstremal choralarga zamin yaratadi. Matnlar o‘z guruhini tarixiy va zamonaviy adolatsizliklar qurboni sifatida tasvirlaydi. Ushbu hikoyalar kollektiv shikoyatni shakllantiradi va qasos harakatlarini axloqiy jihatdan oqlashga xizmat qiladi.Matnlar ko‘pincha zo‘ravonlik harakatlarini va ularning ishtirokchilarini ulug‘laydi, ularni qahramon va o‘z guruhini himoya qilish yoki rivojlantirish uchun zarur deb taqdim qiladi. Ushbu ulug‘lash izdoshlarga zo‘ravonlikni to‘g‘ri va hatto sharafli javob sifatida qabul qilishni rag‘batlantiradi. Ekstremistik matnlar mualliflari madaniy va diniy ramzlar, shuningdek, umumiy e’tiqodlar va qadriyatlardan foydalanib, guruh identifikatsiyasi va birdamlikni kuchaytiradi. Ushbu murojaatlar o‘quvchilar orasida kuchli identifikatsiya va maqsad hissini shakllantiradi va ularni ekstremistik mafkuraga yanada yaqinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot tilning ekstremistik mafkuralarning tarqalishi va davom etishidagi hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi. Ekstremistik matnlardagi lingvistik va ritorik belgilarni tizimli ravishda aniqlash va tahlil qilish orqali biz shaxslarni radikallashtirish uchun ishlatiladigan ishontiruvchi strategiyalar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘ldik. Ushbu bilim radikallashtirish jarayonini buzadigan va yanada inklyuziv va tinch jamiyatni targ‘ib qiladigan samarali qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Ekstremistik guruhlar o‘z taktikasini rivojlantirib, moslashtirgan sayin, ekstremizm tahdidini kamaytirish va

demokratik qadriyatlarni himoya qilishda doimiy tadqiqotlar va faol strategiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi

Adabiyotlar

1. Ahmed, H. (2019). *Extremist Discourse Analysis*. Oxford University Press.
2. Johnson, L. & Wilson, M. (2018). *Linguistic Markers in Radical Texts*. Cambridge Scholars Publishing.

LINGVOGENDEROLOGIYA VA IJTIMOIYLASHUV

D.M.ISMOILOVA
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqola tilning ijtimoiylashuvi va lingvogenderologiya muammolariga qaratilgan bo‘lib, ayol va erkak nutqining sotsiallik jihatdan farqlanish masalalarini yoritishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: *Gender, jins, ijtimoiylashuv, sotsiallik, lingvogenderologiya, gender kategoriyasi,gender sistemasi, ayollik, erkaklik.*

Gender hodisasi bilan bog‘liq tadqiqotlarning yuzaga kelishi ayol va erkaklarning turlicha faoliyati, ularning ijtimoiylashuvi, antropologiya va etnografiyaga oid axloqiy qarashlarning qayd etilishi bilan aloqadordir. Ma’lum bo‘lishicha hamda lingvistik an’analarga ko‘ra, jins faktorining ildizlari antik dunyo davri bilan bog‘langan bo‘lib, gender tadqiqotlarining asosi jins kategoriyalari va grammatik rod haqidagi kategoriya va qarashlardan boshlanadi [4, 12]. Shu asosda gender sohasiga oid tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Mana shunday tadqiqot ishlari sirasiga mansub genderologik tushuncha va qarashlarning lisoniy materiallar tahlili va tadqiqi bilan asoslanishi lingvogenderologiya sohasining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Mazkur lingvogenderologiya «...yo‘nalishining asosiy tushunchalaridan biri «gender kategoriyasi» bo‘lib, u inglizcha gender - jins, rod; grekcha génos - kelib chiqish, rod, tug‘ilish kabi ma’nolarni anglatadi. Ayni vaqtda bu atama fanda o‘zining mukammal ta’rifi va talqiniga ega bo‘lgan emas. Biroq tilning antropotsentrik tabiatga egaligi, antik davrlardan boshlab, lingvistik nuqtayi nazardan uning uch rodga ajratilib tasnif qilinishi natijasida biologik jins va grammatik rod (gender) tarzida guruhlanishi» tilshunoslikda jins va gender atamalarining farqlanishiga zamin yaratdi [3,15]. Aslida gender termini «...sotsiologlar uchun kiritilgan maxsus so‘z bo‘lib, u yosh, irq (pac), tabaqa kabi ijtimoiy tenglik sistemasi bilan bog‘liq sotsial-demografik tavsiflarga oid qator tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan va bularning hammasi

jinslararo munosabatlar yig‘indisiga asoslangan gender sistemasi hisoblangan. Oilaviy aloqa-aralashuv va shaxslararo munosabatlarni tavsiflovchi, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni farqlashga xizmat qiluvchi ayol va erkaklararo munosabatlar modellaridan iborat bo‘lgan ijtimoiy jins, aniqrog‘i, gender» atamasi sotsiologiya sohasining asosi va mundarijasini tashkil qiladi [4,15]. Demak, yuqoridagi fikrlar asosida gender atamasi tushunchasini sotsial hodisalar mohiyatini izohlashga xizmat qiladigan sotsiologiya fanining termini sifatida shakllanganligini bemalol aytish mumkin. Demak, har qanday tilda ayol va erkakning biologik maqomini belgilashga xizmat qiluvchi jins so‘zining ijtimoiylashuvi natijasida gender tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu so‘zning paydo bo‘lishi ayol va erkak o‘rtasidagi bo‘ysunish yoki bo‘ysundirish kabi ijtimoiy tabaqalanishga barham berish maqsadida ro‘y berdi.

Ilmiy adabiyotlarda gender termini turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda keng qo‘llanilgani alohida ta’kidlanib, keyinroq esa bu atama tilshunoslikda o‘zining yangi ijtimoiy jins ma’nosi bilan paydo bo‘lganligi e’tirof etiladi [4,16]. Omma uchun umumiste’mol leksikasi sifatida xizmat qiladigan gender so‘zining sotsiologiya sohasiga oid maxsus terminga aylanishi shu sohadagi ilmiy bilish bilan bog‘liq tushunchalardan kelib chiqadi. Gender so‘zining reterminlashishi esa uning psixologik va lingvistik nuqtayi nazardan talqin qilinishi asosida ro‘y beradi. Mazkur termin sotsiologiya tizimiga oid tushuncha sifatida qo‘llanilishining o‘zidayoq ijtimoiy ma’no kasb eta boshlagan, so‘zning denotativ ma’nosi va semantik strukturasi uning sotsial funksiyaga asoslangan ma’no komponentlari bilan boyiy boshlagan. Natijada bu termin sotsiologiya, lingvistika va psixologiya sohalarining terminlari sifatida xizmat qila boshlagan hamda har bir sohaning tadqiqot obyektiga aylangan. Har uchala sohada qo‘llaniluvchi gender termini semantik strukturasida ayol va erkak jinsining jamiyatdagi tengligiga asoslangan ma’no komponenti ustuvorlik qiladi. Lekin lingvogenderologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, sotsiologiya yoki psixologiyadagi bu terminning tenglik ma’nosi bilan bog‘liq ifodasi ma’lum ma’noda o‘zgaradi.

Mazkur ishimizning mohiyati sotsiolingvistik tadqiqotlar va kuzatuvlar asosida ayol va erkaklarga xos lisoniy va nolisoniy ifodalarning umumiy va farqli jihatlarini mentalingvistka nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilganligi bilan shu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlaridan jiddiy farqlanadi. Ayni paytda ayol va erkak tafakkuriga xos farqlanish va fikrlash tarzining kognitiv mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy, psixologik hamda lingvokulturologik xususiyatlari ishning ilmiy yangiligi sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, ijodkor tafakkuriga xos gender tushunchalarining lisoniy tasviri hamda ularning muayyan til egalari tafakkur mahsuli hisoblangan paremalari bilan bog‘lash tadqiqotning o‘ziga xos yangiligini tashkil qiladi.

Gender tushunchasi psixologiya sohasi uchun ham muhim ilmiy paradigmalardan biri bo‘lib, u aloqa-aralashuv jarayonida ijtimoiy axloqning o‘ziga xos xususiyatlari va inson jinsining ijtimoiy-psixologik tavsifidan iborat belgilar yig‘indisidir. Bu soha psixologiyada alohida bo‘lim sifatida shakllangan. U gender psixologiya nomi bilan yuritiladi va u shaxsning gender tavsifiga oid rivojlanish va shakllanish qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadi [2,11]. Haqiqatan ham gender psixologiya yo‘nalishida turli jinsga mansub insonlarning ruhiyati bilan bog‘liq xususiyatlari tadqiq etiladi. Bu jarayonda ayol va erkaklarga xos psixologik tushunchalar gender psixologiya tamoyillari sanalgan ayol va erkak psixologiyasiga oid tenglik tushunchalari orqali targ‘ib qilinadi. Buni har bir millatga xos ayol va erkak ruhiyatidagi o‘zgarishlarni tenglashtirish prinsiplari bilan tahlil qilinadi. O.Yespersen o‘zining «Falsafiy grammatika» nomli asarida psixologiya haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Psixologiya so‘zlovchi tafakkuri va ongida nimalar yuz berayotganligi haqida bizga yordam beradi. Jumladan, inson tafakkurida yuz berayotgan jarayonlar mavjud til faktlari va qoidalari tizimiga moslashadi, ular ma’lum tilga xos konseptual qoidalar bilan muvofiqlashadi»[1, 323]. Demak, psixologiya inson tasavvurida sezgi a’zolari orqali qabul qilinayotgan ma’lumot va axborotlar hamda ularning inson tafakkuridagi til faktlari andozalari bilan o‘zaro muvofiqlashishi haqida ko‘mak beradi. Gender psixologiyaga oid tushunchalar tilda o‘ziga mos ifoda shakllarini tanlaydi.

Gender terminiga lingvistik nuqtayi nazardan ham izoh berish maqsadga muvofiqdir. Chunki tilshunoslikda gender terminining paydo bo‘lishi va shakllanishi lingvogenderologiya tizimiga oid dastlabki tushunchalarga borib taqaladi. Gender atamasining ijtimoiy ma’no kasb etishi va bu ma’noning har qanday til egalarining nutqida qo‘llanilishi va o‘zaro farqlanishi bu atamaning til ilmiga ham taalluqli hodisa sifatida e’tirof etilishiga ehtiyoj borligidan dalolat beradi. Bu so‘zning atama sifatida turlicha ijtimoiy gumanitar fanlarda qo‘llanilishi hamda gender so‘zining terminlashishi tilshunoslikda ijtimoiy jins kabi yangi ma’no kasb eta boshladi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, gender so‘zi an’anaviy ingliz tiliga oid tadqiqotlarda grammatik rod kategoriyasi ma’nosida qo‘llanildi va bu so‘z ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq ilmiy diskurs tizimiga oid tushunchalar bilan boyiy boshladi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, «…shu sohada yozilgan ilmiy maqola va kitoblarning boshqa tillarga tarjima qilish yoki o‘girish tufayli genderolingvistika yoki lingvogenderologiya kabi atamalar paydo bo‘la boshladi» [4,17]. Ingliz yoki rus tilshunosligida shu sohadagi mavjud ishlarni shunchaki boshqa tilga o‘girish tufayli lingvogenderologiya sohasida izlanishlar olib borish sohaga oid tushunchalarni bir qadar murakkablashtiradi. Bu murakkablashish tillarning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, ayrim tillarda jins kategoriyasi ilmiy paradigmatik maqomga egaligi, boshqa tillarda esa jins

farqlanishi kategorial xususiyatga ega emasligi bilan roʻy beradi. Jins kategoriyasi mavjud boʻlgan tillarda uning ifoda vositalari leksik-grammatik ifoda vositalarida bemalol va toʻliq ifodasini topadi, bunday vositalar tilning kategorial xususiyati sifatida boshqa tillardan farqlanadi. Lingvogenderologiya tizimiga oid tadqiqotlarning murakkablashuvi jins kategoriyasi mavjud boʻlmagan tillarga shunday ilmiy tadqiqot ishlarining tarjimasi orqali kirib boradi.

Jins kategoriyasi mavjud boʻlmagan tillarda ana shu ilmiy paradigmalarga xos xususiyatlarni qidirish, jins bilan bogʻliq ifoda vositalarini kategoriya sifatida izohlash mumkin boʻlmagan holatdir. Toʻgʻri, bunday tillarning lingvogenderologik tadqiqi uchun muayyan tilda mavjud xususiy holatlar oʻrganiladi. Biroq har ikki jinsga mansub til egalarining shunday xususiyatga ega boʻlmagan tillardagi muloqotida genderologik tafakkur va uning ifodasi, lisoniy ifodalarda ularning ayol va erkaklar nutqiga xoslanishi shunday tadqiqotlarning amalga oshirilishi imkoniyati borligidan dalolat beradi. Biroq shu soha izlanuvchilariga bunday tadqiqotlar metod va metodologiyasi boʻyicha ishlashda oʻziga xos yoʻnalishni belgilab beradi. Shunday boʻlsa-da, lingvogenderologiya tizimiga oid lisoniy faktik materiallar bilan ishlashda tadqiqot olib borilayotgan tillarga xos lingvogenderologik xususiyatlarni hisobga olish, ularni til faktlari bilan tahlil qilish intralingvistik lisoniy sistemaga oid tadqiqotlarni olib borishga imkon beradi. Eng muhimi, lingvogenderologik farqlanishni ifodalovchi til faktlari tahliliga oid umumiy va farqli belgilarni koʻrsatish oʻzbek tilshunosligi uchun ham sohaga oid nazariy ma’lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Tilshunoslikning lingvogenderologiya yoʻnalishi uchun mutlaqo yangi mundarija, yangi tadqiqot obyekti va yangi tadqiqot predmetini belgilash ehtiyoji mavjud. Sababi shuki, bir tilda muloqot qiluvchi ikki jinsga mansub ayol va erkaklar nutqidagi farqli jihatlarning oʻrganilishiga boʻlgan ehtiyojning mavjudligidir. Ayol va erkak nutqidagi farqlanish tilning har bir sathida kuzatiladi. Toʻgʻri, oʻzbek tili yoki jins kategoriyasi mavjud boʻlmagan tillarda ayol va erkaklar nutqi, ularning nutqiy faoliyati ayol va erkaklarga xos turmush tarzi asosida roʻy berganligi uchun ham tilning barcha sathlarida u oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Masalan, kundosh, ovsin kabi qator soʻzlar ayollar uchun xos boʻladi. Hatto ayol va erkaklar uchun xos boʻlgan maqol, matal, ibora va aforizmlar ham mavjudki, ular yillar davomida ana shu ikki jins vakillariga xos xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilib kelgan.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni alohida ta’kidlash lozimki, jins kategoriyasi mavjud boʻlgan tillarda ularning uch rodga ajratilishi yoki ayrim tillarda bu kategoriyani faqat ikki guruhga ajratish genderologik grammatik ilmiy paradigmalarning shakllanishiga xizmat qildi. Jins va gender farqlanishiga aloqador qarashlar oʻtkan asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi

va unda gender atamasi grammatik termin sifatida e’tirof etiladi. Demak, gender atamasi jins kategoriyasi mavjud bo‘lgan tillar uchun asosiy tayanch terminlardan biri bo‘lib, u grammatik rod tizimiga oid hodisalarga nisbatan qo‘llaniladi. Shu asosda nafaqat jins kategoriyasi, balki antropotsentrik ilmiy paradigmaga taalluqli bo‘lgan til tadqiqida inson omilini hisobga oluvchi tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari qatorida lingvogenderologiya sohasi ham shakllandiki, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni jins kategoriyasi mavjud bo‘lmagan tillar tahlili va tadqiqi orqali ham amalga oshirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Есперсен О. Философия грамматики. – Москва: Иностранная литература, 1958. – С. 323.
2. Чекалина А.А. Гендерная психология. – М.: Ось-89, 2009. – С. 11.
3. Халеева И.И. Гендер как интрига познания // Гендерный фактор в языке и коммуникации. – Иваново: Юнона, 1999. – С. 5–9.
4. Полевая И.В. Речевые гендерные стереотипы и их реализация в российском аналитическом телевизионном дискурсе (на материале ток-шоу «диалог» и «в фокусе» телеканала РБК-ТВ): Дисс. … канд. филол. наук. – М., 2014. – С. 12.

TIL TA’LIMI VA PRAGMALINGVISTIKA

Umriniso Umar qizi PULATOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshken davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada pragmatika va pragmalingvistika haqida ma’lumot berilgan. Pragmatika va pragmalingvistika bir biriga nisbatan qiyoslanib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan. Maqolada pragmatika va pragmalingvistikaning aynan bir fan yoki bir fan doirasidagi soha, yonalish emasligi misollar yordamida yoritib berilgan. Pragmatika va pragmalingvistika o‘z ichiga nimalarni qamrab olishi va nimalarni o‘rganishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda pragmalingvistikaning o‘rgnilish masalalariga ham e’tibor qaratilib, pragmalingvistikani o‘rganishni yangi bosqichga ko‘tarish kerakligi, dolzarb bo‘lgan muammolari haqida ham fikr va mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pragmatika, pragmalingvistika, lingvopragmatika, semantika, sintaktika, nutq akti, verbal va noverbal ifodalanish, individual strategiya.*

Inson nutqi juda kata ahamiyatga egadir chunki, inson so‘zi orqali ma’naviyatini,dunyoqarashini va mafkurasini namoyon etadi. Inson o‘z nutqi

orqali obyektiv olamga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi, shu bilan birga, milliy o‘zligini ham namoyish etadi. Shunday ekan inson ijtimoiy faoliyatini o‘zida to‘la aks ettirgan xarakatdagi, jonli nutqni o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Pragmatika tushunchasi juda keng ma’noda bo‘lib, insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi. Nafaqat insonga xos bo‘lgan ijtimoiy xatti-harakatlar balki borliqdagi barcha narsa-predmetlarga xos bo‘lgan harakatlar ham pragmatikaga doirdir. Masalan: G‘isht quyuvchi asbob-uskunalarning ishlash jarayoni. Pragmatika so‘zining ma’nosi ham grekcha pragmos so‘zidan olingan bo‘lib , “ish”, “harakat” demakdir. Demak, biz pragmatikani umumiy ish harakat deb oladigan bo‘lsak unda lingvistik pragmatika (bugungi kunda lingvopragmatika va pragmalingvistika deb ham atalmoqda) nima? degan savol tug’ilishi tabbiy hol. Bugungi kunda lingvistik pragmatikaga doir ko‘p manbalarda pragmatika va lingvistik pragmatika terminlari bir biridan farqlanmaydi. Masalan: Abduvahob Madvaliyev va Yo‘ldosh Solijonovning 2000-yilda e’lon qilingan maqolasida hamda 2000-2005-yillarda nashr etilgan O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasida pragmatikaga insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni deb qaraladi. Aslida esa bu lingvopragmatikaga xos xususiyat hisoblanadi. Shuningdek, Dildora Kaxarova Eshtayeva ham o‘z maqolasida “Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o‘rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni bunday maqsad va mazmunning og’zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o‘rnini, kommunikativ ta’sirini, so‘zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o‘rganuvchi fan tarmog’idir”(“Science and education scientific journal”, 2022, №8. 607-b.) degan fikrlarni keltirib o‘tadi va lingvopragmatika termini o‘rnida pragmatika terminini qo‘llaydi. Bu esa pragmatika va lingvopragmatikani aynan bir hodisa sifatida tushunishga, aynan bir jarayonning ikki xil nomi sifatida qabul qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Pragmatika va Lingvopragmatikani farqlash uchun esa ,ilmiy adabiyotlarda tog’ri ta’kidlanganidek, tadqiqot materiali bilan ishlashda lingvistik tadqiqot metodlariga murojat qildik hamda tavsifiy metod, qiyosiy metod va bevosita ishtirokchilarga ajratish metodlaridan foydalandik.

Umuman olganda insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi anashu nutqiy faoliyatni esa lingvopragmatika o‘rganadi va bu pragmalingvistikaning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Lingvopragmatika tilshunoslikning bir tarmog’i bo‘lib u insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni o‘rganadi. Shunday ekan ko‘pchilik manbalarda pragmatika va lingvopragmatika terminlarining farqlanmasligi va butun

mavjudot va narsa predmetlarga xos bo‘lgan ish harakatning inson nutqiy faoliyatiga nisbatan qo‘llanilishi pragmatikaning faqat inson doirasida chegaralanib qolishidek xatolikka sabab bo‘lmoqda. Tilshunos olim V.V Petrovning til haqidagi quyidagi tezisi lingvopragmatikaning boshlang‘ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik asos bo‘ladi: “Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so‘zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o‘sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo‘lishning o‘zi ushbu tilda so‘zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqali pyesa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo‘lmaydi, buning uchun, eng asosiysi, ijro mahorati, layoqatiga ham ega bo‘lish lozim” [1, 110].

Ferdinand de Sossyur esa tilni shaxmatga qiyoslash natijasida obyektiv olamdagi predmet, narsa va hodisalarni shaxmat donalari sifatida nomlagan va shaxmat donalarining imkonyatlarini bilish bilan birga o‘yin ko‘rsatishni ham bilish kerak degan fikrlarni ilgari surgan. Bizning qarashimiz bo‘yicha, so‘zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. Shuning uchun to‘g’ri va aniq so‘zlash uchun hammaga tushunarli bo‘lgan semantik va sintaktik bilimlarning o‘zinigina bilish yetarli emas, so‘zlash va fikrni tog’ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ham ega bo‘lish lozim ekan. Shuningdek lingvopragmatika tilshunoslikka oid hisoblanadi, ya’ni tilshunoslik fanining ichidagi bir tarmoqdir. Pragmatika esa mustaqil fandir. Pragmatika va lingvopragmatika terminlarining farqlanmasligi esa pragmatika ham tilshunoslikka oid degan yanglish fikrlarga sabab bo‘lmoqda. Pragmatika esa alohida soha, alohida bir yo‘nalish hisoblanadi. Shunday ekan Pragmatika bu o‘zida juda ko‘plab tarmoqlarni, tasniflarni birlashtirgan umumiylik. Lingvopragmatika esa tilshunoslikka oid bo‘lgan shu fanning ichidagi bir yo‘nalish hisoblanadi.

Lingvopragmatika bizga nega kerak? nima uchun biz inson nutqining lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganishimiz zarur? Inson nutqiy faoliyatga kirishar ekan albatta uning nutqiy faoliyatdan ko‘zlagan maqsadi mavjud bo‘ladi. Biz insonlar xech qachon birorta maqsadsiz kommunikatsiyaga kirishmaymiz. Bu bizning tabiatimizga xos. Inson o‘z maqsadiga erishish uchun nutqiy faoliyatda turli xil strategiyalardan foydalanadi. Bilamizki inson lingvopragmatik bilimlardan tashqari o‘z tiliga xos semantik bilimlarning egasi ham hisoblanadi. To‘g’ri, inson semantik bilimlarga ega bo‘lishi mumkin, biroq semantik bilimlarga ega bo‘lishning o‘zi insonning so‘zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Semantika – bu so‘zlar va jumlalar ma’nosini o‘rganish ya’ni gapirish va yozish paytida so‘zlar nimani anglatishini bilish demakdir. Bundan tashqari inson so‘zlarning ma’nosini bilish bilan birga ularni bir-biriga bo‘g’lash, jumlalar tuzish ya’ni sintaktik bilimlarga ham egadir. Sintaktik bilimlar deganda biz insonning nutqda so‘zlarni bir-biriga sintaktik shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar, yordamchi

so‘zlar, so‘z tartibi va ohang yordamida bog’lay olish qobilyatiga egaligini tushunamiz. Lingvopragmatika esa yuqoridagi bilimlarning ya’ni so‘zlarni bir biriga bog’lash orqali kelib chiqadigan asosiy ma’nolarning amalda qo‘llanilish usullari demakdir. Ya’ni inson tildagi barcha semantik va sintaktik ilmlarni bilish bilan birga ularni o‘z maqsadi yo‘lida tanlay olishi va ifodalash imkoniga ega bo‘lishi lozim. Bunday imkoniyat esa tilda lingvopragmatika deb ataladi yuqoridagi fikrlarimizni quyidagi misollar yordamida ko‘rib chiqamiz.

Eshik ochildi, shuning uchun hamma qayrilib qaradi, lekin hech kim kirmadi; sovuq havo xonani qopladi (so‘zlashuvdan).

Ushbu murakkab qo‘shma gap to‘rtta shakllangan gapdan tashkil topgan bo‘lib, ular bir-biri bilan ohang va mazmun orqali shuningdek, bog‘lovchi vositalar (shuning uchun, lekin) orqali bog’langan. Bu gapning sintaktikasi hisoblanadi. Yuqoridagi murakkab qo‘shma gapni tashkil etgan har to‘rtala gapning ham o‘z ma’nosi mavjud bo‘lib, ya’ni har bitta gap alohida olinganda ma’no anglatadi. Masalan: 1-gap eshik ochilganligi haqida axborot bersa, 2-gap hammaning qayrilib qaraganligi haqida, 3-gap hech kim kirmaganligi haqida, 4-gap esa sovuq havo xonani qoplaganligi haqida axborot beradi. Shunday ekan, murakkab qo‘shma gapni tashkil etgan har bitta gapning alohida ma’nosi bu ularning semantikasi hisoblanadi. Murakkab qo‘shma gapni tashkil etgan gaplarning umumiy ma’nosi: Eshik ochildi - ya’ni eshik ochilganda hammani e’tiborini jalb etadigan qandaydir ovoz eshitiladi va unga hamma qayrilib qaraydi. Eshik ochilgandan keyin albatta undan kimdir kirib kelishi kerak hammaning ko‘zi eshikda, lekin hech kim kirmadi. Sovuq havo xonani qopladi - demak eshikni kimdir emas, shamol ochgan. Bu gapda muallif bevosita hammani e’tiborini jalb etadigan qandaydir ovoz eshitildi, hammaning ko‘zi eshikda yoki eshikni shamol ochdi demaydi le’kin, gapning umumiy mazmunidan bu ma’nolar o‘quvchiga anglashinib turadi, aynan manashu jarayon esa lingvopragmatika hisoblanadi. Pragmalingvistikani yanada chuqurroq anglash uchun quyidagi gaplarning lingvopragmatik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

“Tabib – tabib emas, boshidan o‘tgan tabib”, -deganlaridek, jinoyat olamining nozik yerlarini Bobomurod yaxshi bilardi. (T.Malik “Murdalar gapirmaydilar” 508-bet)

Ushbu gapda muallif emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida maqoldan foydalangan. Sirlilik be’lgisining me’yordan oshiqligini ko‘rsatish, ta’sirchanlikni kuchaytirish uchun esa **nozik** so‘zidan foydalanadi. Gapning umumiy ma’nosidan esa Bobomurodning juda ko‘p jinoyatlarni sodir etganligi, jinoyatning hamma sirlaridan boxabar, uchiga chiqqan jinoyatchi ekanligi ka’bi ma’nolar tushuniladi.

Boshiga oq doka ro‘mol bog‘lagan, rangi zahil bir ayol ko‘rindi. (N.Aminov “Yolg’onchi farishtalar” 26-b)

Ushbu gapda qo‘llangan **oq doka** leksimasidan ayol azador edi degan ma’noni anglash mumkin. Shuningdek, **zahil** leksemasi rang tusni bildiruvchi sifat bo‘lib aksariyat gaplarda kasallikni ifodalovchi ma’nosida qo‘llanib, yuqoridagi gapda ayolning kasalmandligiga ishora qilyapti. Demak yozuvchining maqsadi ya’ni o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan xabari azador va kasalmand ayol ko‘ringanligi edi.

Aldagani bola yaxshi. (so‘zlashuvdan) Bu gapda so‘zlovchi **bola** so‘zini ishlatish orqali, tinglovchiga nisbatan men senga yosh bolaman-mi? osongina aldasang demoqchi bo‘ladi. O‘zining yosh bola emasligini eslatib o‘tadi. **Yaxshi** so‘zi orqali esa, bolani aldash yaxshi degani emas, aksincha bolalarni aldash oson, chunki bolalar beg’ubor, sodda hali hayotda bilim va tajribalarga ega bo‘lmaganlari uchun ishonuvchandirlar degan ma’no kelib chiqadi.

Shu kungacha o‘zbek tilshunosligida semantika, sintaksis va lingvopragmatika kabi tilshunoslik yo‘nalishlari baravar rivojlanmadi. Semantika, sintaksis yo‘nalishlari har tomonlama o‘rganildi-yu, lingvopragmatika tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qoldi. Buning natijasida tilga xos semantik va sintaktik ilmlar talqini har jihatdan mukammallashib borgani holda, konkret vaziyat bilan aloqador nutq subyekti ishtirok etgan real nutqiy jarayonga xos tilshunoslikning lingvopragmatik yo‘nalishi o‘zining chuqur tadqiqiga ega bo‘lmadi. Bugungi kunda pragmalingvistikani chuqur o‘rganish masalasi dolzarb muammolardan biridir. Chunki, lingvopragmatika kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos verbal va noverbal munosabatining mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligida gaplarni, matnlarni umuman olganda inson nutqining pragmalingvistik xususiyatlarini o‘rganish umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo‘lgan nutq madaniyati, uslubshunoslik hamda insonning fikrlash faoliyati va ichki ruhiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan aks ettiruvchi psixolingvistika masalalari bilan ham uzviy bog’lanadi. Chunki, bu fanlarning markazida inson va uning nutqi turadi. Shunday ekan pragmalingvistikaning rivoji u bilan uzviy bog’liq bo‘lgan fanlarning ham rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Петров, В. В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 1985, 110 б.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.:, 2008. – 320 б.
3. Eshtayeva D. Science and education scientific journal. – T., 2022. 08-son, 1-707-b.
4. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013, 144 b.
5. Madvaliyev A., Solijonov, Y. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. – T.: Fan, 2000, 150 b.

ANTONIMLAR ISHTIROKIDAGI PAREMIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Kamolaxon Erkinjon qizi ORIPOVA
QDPI xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu tezisda antonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari maqollar yordamida tahlil qilingan. Ma’lumki, bugungi zamonaviy tilshunoslikda antonimlarni tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir. Ko‘plab tilshunos olimlar antonimning lingvistik, kognitiv xususiyatlarini tadqiq qilishgan bo‘lsa-da, bu leksik birliklarning lingvokulturologik jihatlari batafsil tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada paremiyada qo‘llangan antonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *antonimiya, leksik, paremiya, syujet, konseptosfera, lingvistik, universal.*

Har bir til o‘z lug‘atiga ega bo‘lib, biz o‘z his-tuyg‘ularimizni, atrofimizdagi dunyo obyektlarini va hodisalarini tasvirlashda, talablarimizni bayon qilishda va nimanidir isbotlashga harakat qilishda turli xil leksik birliklardan foydalanamiz. Buning uchun nutqimizda tildagi ziddiyat ifodasining leksik usullari bo ‘lgan antonim so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llaymiz. Tilning barcha lug‘ati tizimli bo‘lib, antonimiya ham til va tafakkurdagi tizimli munosabatlarning muhim ko‘rinishlaridan biridir. So‘zlar va ularning ma’nolari bir-biridan alohida mavjud emas, ular ongimizda turli guruhlarga birlashtiriladi va guruhlash uchun asos sifatida o‘xshash ma’nodagi o‘xshashlik yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Antonimiya eng muhim lingvistik universalliklardan bo‘lib, turli tillar leksik-semantik tizimining muhim o‘lchovlaridan biridir.

Turli madaniyatlarda paremiyalarning xalq tafakkuri, ma’naviyati va ulardan kelib chiqadigan hosilaviy strukturalarning tabiatini belgilaydi. Shunga tayangan holda xalq paremiyalarini tahlil qilish uchun u yerda qaysi konsept voqelanmoqda, maqsad nima, nima asosida qanday fikrni tasdiqlash uchun yoki qaysi hukmni ilgari surish uchun bu paremiya yaratilgan? Bu kabi savollarga javob berish paremiyalarni talqin qilishga olib keladi. Ayrim paremiyalarni shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqaylik.

Bosh bo‘lmagan uyda, otasi turib o‘g‘li so‘zlar (O ‘XM, 163)

Bu o‘zbek paremiyasi juda dolzarb ma’noni bildiradi, ya’ni u tarixan juda eski paremiya bo‘lib, islomiy tarbiya postulatlariga tayangan holda yaratilgan. Bu yerda bildirilgan hukm umuminsoniy bo ‘lib, barcha millatlar

uchun to‘g‘ri bo‘lgan absolyut haqiqat ifoda qilinadi. Buni interpretatsiya qilsak, ularda quyidagi propozitsiyalarni topamiz:

1. *Otasi bor, lekin u farzandlarni tarbiya qilish kerak, degan narsani tushunmaydi.*
2. *Otasi uchun bolalarni tarbiya qilish , faqatgina ularni boqish va ustini but qilishdangina iborat.*
3. *Otasi bolalarni boshqarishni qo ‘ldan chiqargan, oilada obro‘si yo‘q.*
4. *Bolalari uning gapiga umuman kirmaydi.*
5. *Nazorat bo‘lmagan joyda qonunbuzarlarning pichog‘i moyda.*
6. *Oilaning boshlig‘i bo‘lgan otasining gapiga kirmagan bola oilada o‘rnatilgan qonunni hech o‘ylab o‘tirmay, har on, har makonda buzadi.*
7. *Oqibatda otasi og’zini ochmasdan turib o‘g’li qarorni chiqarib boshqa gapga ham o‘rin qoldirmaydi.*

Mana ko‘rib turibmizki, nutqda uchraydigan oddiy bir paremiya ortida shuncha hayotiy holat, vaziyat turibdiki, mana shu vaziyatning talqini ko‘rilayotgan oila a’zolari haqida bizga keragidan ham ortiq ma’lumot olishga imkon beradi. Shunisi achinarliki, huddi shu mazmundagi paremiyalar keyingi paytlarda o‘zbek oilalariga, yosh oilalardagi ota-ona va farzandlar munosabatida juda ko‘p kuzatiladigan odatiy syujet, holga aylanib bormoqda. 2-3 yoshdan telefon orqali internet tizimidagi filmlar tomonidan tarbiyalanayotgan bolalar uchun ota kim o‘zi? Ota moddiy ta’minot uchun javobgar hodim. Ona kim? Ona oshxona malikasi, taglikni vaqtida almashtirib turishga mas’ul hamshirasimon bir ayol jinsidagi odam.

Mana shu kontekstda tarbiyalangan bolaga ota kerakmi? Ha, albatta kerak, bolaga kerakli o‘yinchoqlarni olib berish kerak-ku. Qarorni bola chiqarsa, ota-ona shunchaki ijrochi bo‘lsa, otasi og‘zini ochishga avval ehtiyoji, keyinroq esa zaruriyati ham qolmaydi. Mana sizga tarkibida antonimik kontekst bo‘lgan oddiy paremiyaning oddiy lingvistik interpretatsiyasiga bir misol.

Davom etamiz:

Notiq maxmadona bo lsa, majlisning burdi ketar. (O‘HM, 407 bet)

Bu paremiyada ham oddiy hayotiy haqiqat antonimik ma’no orqali ifoda etilmoqda. Majlislar har qanday tashkilot, muassasalar ishini tashkil qilishda ma’lum bir ahamiyatga ega. Ammo har bir muassasa yoki tashkilotda “doimiy” notiqlar bo‘ladi. Ular dolzarb yoki yangi axborot bilan majlis ahlini tanishtirish maqsadida emas, balki gapirish uchun o‘zini ko‘rsatish uchun, rahbariyatga o‘zining sohta sodiqligini bildirib qo ‘yish uchun gapiradi. Bunday holatda yagona yechim rahbarning aqlligi. Rahbar aqlirroq bo‘lsa, bunaqa sayratmalarga o‘rnini ko‘rsatib qo‘yadi. Ammo real hayotda ko‘pincha bu kabi

sayratmalar rahbarlarga hush yoqadi. Ya’ni real hayot hayoliy hayotga antonimik munosabatda bo‘ladi.

O‘g‘lingni sevsang – quldek ishlat (O‘HM 162bet)

Xuddi shunga o‘xshash tarkibida antonim vaziyatni ifodalovchi yana bir necha paremiyalar bor.

Erka o‘gil ovga yaramas, erka qiz-ishga (O‘HM162bet)

Qiz saqlay bilmagan gung yetar,

Ipak saqlay bilmagan yung yutar (O‘HM162bet)

Bu paremiyalar tarbiyaviy maqsadda ishlatiladigan o‘xshash tarbiyaviy yo‘nalishdagi lekin antonimik ma’noni ifodalovchi paremiyalar bo‘lib , ularning birinchisi o‘g‘il tarbiyasi haqida bo‘lsa, ikinchi va uchinchi paremiyada asosiy e’tibor, mavzu o‘g‘il va qiz tarbiyasi yoki tarbiyaning yetishmasligi haqida aytilgan.

Bu kabi antonimik konseptlar ifodalangan paremiyalar ham hozirgi vaqtda juda dolzarb g‘oyalarni ilgari surgan, chunki aynan shu sohada yosh ota-onalar xatoga yo‘l qo‘ymoqdalar, o‘g‘illarini tarbiyalashda keragidan ortiqcha mehribonlik, keragidan ortiq izzat, imkoniyat, erkinlik, nazoratsizlik natijasida o‘g‘illar izzattalab, hudbin, noqobil, yalqov, dangasa bo‘lib o‘smoqdalarki, uylanganlaridan keyin ham urmush, oilasini eplab keta olmay, qayta-qayta uylanib ham qo‘nim topa olmayaptilar. Quldek, ishlagan o‘g‘il yomon bo‘lmaydi, u hayotga tayyor, yashashni ajoyib bir ne’mat ekanligini biladi. Hayot nima ekanligini bila olmay giyohvandlikka berilgan o‘g‘illar o‘sha “quldek ishlamagan” tanbal o‘sgan bolalardir. Bunday o‘g‘illar yov kelsa yo qochadi, yo birinchi kuniyoq yovga sotiladi, ota-onasi, mahallasi, xalqi oldida sharmandasi chiqadi. Qizini saqlay bilmagan ota-ona gung bo‘lishini hamma biladi. Bu paremiyani yaratishdan ko‘zlangan maqsad, bu fikr, bu hukm, ota-nalar xotirasida har zum turish uchun yaratilgan. Onasi, otasining qadrini bilmagan o‘g‘il-qiz vatanining qadrini biladi deb kim kafolat beradi?

Yana bir shu yo‘sindagi qiziq paremiya bor:

G‘ayratlining bolasi tanbal bo‘ladi. (O‘HM163 bet)

Bu paremiya hayotda kuzatiladigan bir haqiqatni ifodalaydi. Haqiqatdan ham, ko‘p holatda g‘ayratli odam hamma narsani o‘zi qiladi, bolasiga erkinlik ham, imkon ham bermaydi. Natijada bola yoshligidan hechnarsa qilishni o‘rganmaydi, hechnarsa qilmaydi va xalq tili bilan aytganda “so‘ppayib” o‘sib qoladi. Shuning uchun hayotda harakteran me’yordan tashqari g‘ayratli bo‘lgan odam o‘z bolasining tarbiyasiga ham ozgina e’tibor bersa, vaqt topib, uni “zaryadlasa” uning o‘g‘li ham ozgina faolroq bo‘lgan bo‘ladi.

Chiroyin borida chinoringni top. (O‘HM251 bet)

Bu o‘zbek paremiyasi qiz-ayollarga bag‘ishlangan bo‘lib , unda qizlarga “yosh , go‘zal paytingda o‘zingga mos, suyansa bo‘ladigan, chinordek mustahkam tana , ishonch va qalbga ega bo‘lgan yigitni top” degani. Oq ot

minib kelganlarning hammasi ham chinordek mustahkam jism, qalb, ishonch va sevgiga ega bo‘lavermaydi. Balki bir kishi otni ushlab turib, to‘rt kishi yigitni otga o‘tkazishgandir. Buni bilmasdan turib ko‘ngil berma. Ko‘zing ochig‘ida yigitni ko‘r, uni sina, yurt uni sevadimi? buni bil, chunki yana bir paremiyada “Yurt sevganni qiz sevar” deyiladi. Bu metaforik ko‘chim yordamida yasalgan yagona paremiya emas. Metafora , metonomiya, epitet, kinoya, mubolag‘a yana boshqa bir qancha uslubiy vositalar paremiyalarni yasashda ishlatilishi mumkin.

Masalan: *O‘choqdagi o‘t boshqa, yurakdagi o‘t boshqa* (O‘HM 251 bet) Bu yerda omonim so‘zlar paremiyadagi muloqot maqsadini ifodalashda qofiya yaratishda yordam bermoqda.

Navbatdagi paremiyalarda oiladagi munosabatlar uy hayvonlari ishtirokida ifodalangan.

Masalan: *Kelinimni yig‘lagani-eshagimni xangiragani* (O‘HM 255 bet)

J.Galsworthy asari “Oq maymun” (White monkey1924). Bu asarda qahramon malla, gavdali va serjun , xatto qo‘li , ko‘kraklari jundor baquvvat odam bo‘ladi. Uni Gorillaga qiyoslamoqchi bo‘lgan muallif o‘ylanib qoladi, chunki gorilla qora-qo‘ng’ir bo‘ladi-ku. Shuning uchun unga shunchaki “oq maymun” degan laqab beradi. Chunki uni qora maymun desa oddiy maymun kabi hech kimni hayratlanmasdi. Bu yerda J.Galsworthy antonimik so ‘zlar-ranglar misolida stilistik effekt yarata olgan.

2. Aqlli o‘rganar, ahmoq o‘rgatar.

A person who knows, learns a person who doesn’t know teaches (p.70)

3. Think today and speak tomorrow. (p.66)

Avval o‘yla, keyin so‘yla

4. Such carpenters such chips.

Mol egasiga o‘xshamasa xarom o‘ladi.

Ingliz tilidagi variantda usta va payraha –ishchilar konseptosferasi.

O‘zbek tilidagi mol va egasi bu chorvachilik konseptosferasi. Bu esa bu ikki millat madaniyatdagi farqni ko ‘rsatib turibdi.

5. Ingliz . ***Small*** *rain lays* ***great*** *dust.* Kichkina demang buni ko‘tarib uramiz sizni.

Ingliz konseptosferasida yomg‘ir oddiy holatlardandir. O‘zbeklarda yomg‘ir haqida ularda oz bo‘lgani uchun gapirmasa ham bo‘ladi.

6. *Pride goes before a fall. Maqtagan kelin to‘yda uyalar.*

Maqtanishga musofirchilik yaxshi.

Maqtanchoq gapining tagi chirig (O‘HM 247 bet)

7.Eshak Makkaga borgani bilan Hoji bo‘lmay. (O ‘HM 247 bet)

If a donkey brays rat you, don’t bray at him.

O‘zbek lingvomadaniyatida *hoji* va *eshak* konseptlari odatiy, ko‘p uchraydigan elementlar. Ingliz lingvomadaniyatida bu antonimik konseptlar umuman uchramaydi.

O‘zbek: Bukrini go‘r to‘g‘rilaydi.

Bukri konsepti o‘zbeklarda tez-tez uchrab turadi ammo inglizlarda u uchramaydi. Shuning uchun o‘zbeklarda *bukri-to‘g‘ri* antonimik juftligi faol bo‘lsa inglizlarda bu belgi faol emas.

Adabiyotlar:

1. **Бредис М.А.** Лингвокультурологическая парадигма денежных отношений в паремиях (на материале русского, латышского, литовского, немецкого и английского языков) // Паремиология в дискурсе: Общие и прикладные вопросы паремиологии. Пословица в дискурсе и в тексте. Пословица и языковая картина мира / Под ред. О.В. Ломакиной. – М.: Ленанд, 2015. С. 191-213
2. Паремиология без границ: монография / под ред. Бредиса М.А., Ломакиной О.В. – М.:РУДН, 2020.
3. *Ломакина О.В.* О современном лексикографическом описании русских пословиц // Русский язык в школе. 2011. no 5. С. 10-110.
4. **Хайруллина Р.Х.** Сопоставительная лингвокультурология. – Уфа: Мир печати, 2014.

ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIK VA UNING TADQIQI

Sadbarxon Erkinovna NURMATOVA

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada antropotsentlik tilshunoslik va uning mazmuni, ilmiy nazariy qarashlar, olimlarning fikrlari, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi, tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi, strukturalizmning tilni tadqiq etish muammolari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, antropotsentrik paradigma, sistem-struktur paradigma, til, belgi, sistema, belgilar sistemasi, lingvistik semantika, shaxs omili, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik paradigma.*

Jahon tilshunosligida matnni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganish asosan lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik paradigma asosida o‘rganish asosan lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik

tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko‘zga tashlanadi. Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Yu.N.Stepanov, I.R.Galperin, N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontev, J.Lakoff, T.A.van Deyk, A.Vejbiskaya, Ye.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratdi [1.64]. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi, kuch oldi [2.47]. Ushbu so‘z yunoncha *anthropos* – odam hamda lotincha *centrum* – markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan. Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya ayniqsa, O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi. Antropotsentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya’ni o‘z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi.

Professor Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo‘ldi”. Professor N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Inson o‘zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida uning unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi [3.8].

Tilning belgilar sistemasi ekani uning asosiy xususiyati va universal tomonidir. XIX asrdagi belgilar sistemasiga bag‘ishlangan falsafiy asarlar orasida Ch.S.Pirsning asari alohida ajralib turadi. Semiotikaning asoschisi sanaluvchi Ch.Morrisning Ch.S.Pirs qarashlariga tayanishi ham bejiz emas. Garchi F.de Sossyurning “Umumiy lingvistika kursi” asarida Ch.S.Pirs

asarlariga ishora sezilmasa ham, ammo bu ikki olimning belgilar haqidagi qarashlarida bir-biriga juda o‘xshashlik bor. Shuning uchun R.O.Yakobson: “Ikki olimning belgilar sistemasini o‘rganishdagi harakatida qandaydir genetik aloqa bormi yoki fikriy muvofiqlikni uchratamizmi, degan masalani hal qilish juda qiziqarli bo‘lar edi”, degandi [4.223-226].

Ch.Pirs belgilarni birinchi marotaba tasnif qiladi. U tasnifda belgining moddiy tomoni – ifodalovchi bilan ifodalanmish o‘rtasidagi farqlanishga asoslanadi. Ana shu belgi asosida Ch.Pirs belgilarni uch katta guruhga ajratadi:

1. Sanam belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ma’lum darajada ifodalanmish bilan o‘xshashlikka ega bo‘ladi (masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi).

2. Indeks belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog‘liqlik va h.k.) orqali bog‘lanadi. Masalan, tutun olovning indeks belgisi sanaladi.

3. Simvol belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanmish o‘rtasida shartli, konvensional, motivlanmagan munosabat mavjud bo‘ladi. Bu munosabat erkin va ma’lum qoida asosida vujudga keladi. Ana shu jihatdan lingvistik belgilar simvol belgilarga o‘xshaydi. Lekin belgilar tipologiyasida alohida o‘rin egallaydi.

Motivlanmagan belgilar ichida lingvistik belgi alohida o‘rin tutadi. Lingvistik belgilar konvensionalligi bilan motivlanmagan barcha belgilar bilan umumiylikni hosil qilsa-da, ammo axborot tashish imkoniyatining kengligi, diskretligi, akustikligi, ko‘psathliligi va bu sath birliklari o‘rtasidagi pog‘onali (ierarxiyali) munosabatning murakkabligi bilan boshqa motivlanmagan belgilardan farqlanadi. Birinchi tamoyil ifodalovchi va ifodalanmish o‘rtasidagi munosabat asosida belgilanadi. Bu o‘rinda erkinlik atamasining ma’nosiga alohida ahamiyat berish lozim. Garchi lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish tomoni o‘rtasidagi munosabat erkin bo‘lsa-da, lekin bundan so‘zlovchi belgining ifodalovchi tomonini erkin tanlaydi, degan xulosaga kelmaslik lozim.

So‘zlovchi lingvistik belgining jamoatchilik tomonidan qabul qilingan ifodalovchi tomoniga ozgina bo‘lsa-da o‘zgarish kiritolmaydi. U o‘zining til xotirasida o‘zigacha bo‘lgan ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan lingvistik belgini bir butun holda o‘zlashtiradi.

Lingvistik belgining erkinligi faqat uning ifodalovchi tomonining ifodalanmish tomoniga nisbatandir. Chunki bu ikki tomon o‘rtasida hech qanday tabiiy aloqa yo‘q. Lingvistik belgining ikkinchi tamoyili ifodalovchining ketma-ketligidir. F.de Sossyur asarida mazkur tamoyil birinchi tamoyilga nisbatan kamroq o‘rin olgan bo‘lsa ham, lekin unga katta ahamiyat berildi. Ifodalovchi o‘z tabiatiga ko‘ra eshitish sezgisi orqali qabul qilinish xususiyatiga ega bo‘lgani tufayli vaqtda kengayib boradi. Shuning uchun u vaqt

belgisiga ko‘ra tavsiflanadi: a) u cho‘ziqlik belgisiga ega; b) cho‘ziqlik bir o‘lchovli sanaladi. Lingvistik belgining ketma-ketligi uning boshqa belgilar bilan sintagmatik munosabatini ko‘rsatadi. Lingvistik belgining mazkur xususiyati til va nutq aloqasiga ham ishora qiladi.

Lingvistik belgining uchinchi xususiyati ham mavjud. Bu ifoda tomonining diskretligi, ya’ni mayda elementlarga ajralish xususiyatidir. Diskretlik lingvistik belgining ketma-ketlik xususiyati bilan uzviy bog‘liq. Nutqiy jarayonda o‘zaro ketma-ket qo‘llanuvchi lingvistik belgilar parchalanish xususiyatiga ega. Ifodalovchi tomondan bo‘linishning eng kichik parchasi tovush sanaladi. Shuningdek, belgi ifodalanmish tomonidan ham parchalanish xususiyatiga ega.

Tilshunoslikda tilning belgilar sistemasi ekaniga ikki xil yondashuv bor. Ularning birinchisi tilning belgilar sistemasi ekanini umuman rad etadi. Bu nazariya marksistik falsafaga zid idealistik nazariya sifatida baholanadi. Xususan, L.O.Reznikovniig dastlabki asarlarida ushbu nuqtai nazar yorqin aks etadi. Uning fikricha, tilshunoslikda agnostitsizm, birinchi navbatda, tilning belgilar sistemasi ekani hakidagi nazariyada ifodalanadi. In’ikos nazariyasiga asoslangan dialektik materialistik ta’limot agnostitsizmning mazkur ko‘rinishini keskin tanqid qilish lozimligini ta’kidlaydi. Lingvistik belgi haqidagi nazariya g‘ayriilmiy nazariyadir. U tilshunoslikka eng zararli agnostik qarashlarning kirib qolish vositasidir, shuning uchun uni fosh qilish va rad etish zarur, deydi.

R.A.Budagov ham lingvistik belgi haqidagi nazariyani inkor etadi. U har qanday milliy til ma’lum ifodalar sistemasigina emas, balki bu tilda muloqot qiluvchilarning barcha faoliyatini o‘ziga xos aks ettirish natijasi hamdir, deydi. Uning ta’kidlashicha, tilning belgili tabiati konsepsiyasi milliy tillar tabiatini, shu bilan birga, lingvistikani ham nihoyatda kambag‘allashtiradi [5.17].

Dunyo tilshunosligida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qator til birliklari talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Xususan, matn tahliliga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va serqirra hodisa hisoblangan matn tadqiqida so‘zlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – resipient) dan iborat uchlik asosiy obyekt bo‘lishi lozimligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanmoqda. Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga e’tiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funksionalizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv

tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Abdulhamid Nurmonov tilning belgilar sistemasi ekanligi barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida belgi nazariyasi haqidagi qarashlar jamlangan yaxlit asar yo'qligi va shunga ko'ra ayrim tilshunoslar belgi haqidagi ta'limotni noto'g'ri talqin etayotganliklarini e'tiborga olgan holda, lingvistik belgi va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari: belgining erkinligi va ketma-ketligi, diskretlik xususiyati; o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik jihatlari xususida, shuningdek, uning strukturasi va besh tomoni haqidagi nazariy qarashlarini o'zbek tili materiallari asosida yoritib beradi va bu qarashlar tilshunosligimizdagi ko'p tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

S.M.Mo'minov o'z tadqiqotida muloqotning psixolingvistik aspektini tahlil qilar ekan, tilning insonga ta'siri uning vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi: "Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog'liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta'sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi".

Adabiyotlar:

1. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovlenie antropotsentricheskoy paradigmi v yazikoznanii // Filologicheskie nauki. – Moskva, 2001. – № 1. – S. 64.
2. Demyankov V.Z. Kratkiy slovar kognitivnix terminov. Sostaviteli: Kubryakova Ye.S., Demyankov V.Z., Pankras Yu.T., Luzina L.G. – M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1997. – S. 47.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Academia, 2001. – S. 17;
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5.
5. Nurmonov A.Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – S. 17.
6. Pimenova M.V., Kondrateva O.N. Konseptualnie issledovaniya. Vvedenie. – M.: Flinta, 2014.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 91.

NUTQIY AKTNING STRUKTURAVIY TUZILISHI

Feruzaxon Toxirjon qizi RAXIMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
tayanch doktoranti

Ushbu maqolada nutqiy aktlarning ichki tuzilishiga ko‘ra tasnifi masalasi ko‘rib chiqildi. Bu borada bir qator olimlarning nutqiy aktlarning strukturaviy tuzilishi borasidagi fikrlari to‘planib, tanqidiy o‘rganildi va misollar yordamida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, fonetik akt, fatik akt, retik akt, illokutiv kuch, perlokutiv natija.*

Nutqiy aktlar nazariyasida nutqiy aktlar tuzilishi jihatidan 3 bosqichdan – *lokutiv, illokutiv* va *perlokutiv* aktlardan iborat ekanligi birinchilardan bo‘lib J.Ostin tomonidan ta’kidlangan va mazkur tamoyil barcha tilshunos olimlar tomonidan bir ovozdan tasdiqlangan. Bu borada V. Eskandel quyidagicha fikr bildiradi: «Nutqiy aktlarga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash faqatgina nazariy hisoblanadi, chunki har uchala aktning voqealanishi bir paytning o‘zida kuzatiladi: nutqiy aktni talaffuz etar ekanmiz, bu faoliayatdan aniq bir maqsadni ko‘zlagan bo‘lamiz va aniq natijalarga erishamiz. Lekin ularni farqlash juda qiziqarli va muhimdir, chunki ularning har biri turli xil, bir-birini farq qiluvchi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi: lokutiv akt ma’noga ega; illokutiv akt kuchga ega; va perlokutiv aktga ta’sir xususiyati xosdir». J.Ostin illokutiv aktni qolgan 2 shaklga qarama-qarshi qo‘yadi. Lokutiv akt ma’no ifodalashda, illokutiv akt esa gapning nutqda biror maqsadni ifodalashda foydalanilishi bu ikki shakl o‘rtasidagi farq sifatida talqin qilinadi. Vaholanki, J.Serl bu ikkisini qarama-qarshi, boshqa-boshqa shakllar emas, balki birinchisi ikkinchisiga aylanuvchi shakl sifatida talqin etadi. J.Ostin lokutiv aktning o‘zini ham ichki tarkibiy qismlarga bo‘ladi: fonetik akt, fatik akt va retik aktlar. Lekin J.Serl retik aktlarni lokutiv emas, balki illokutiv akt ekanligini ta’kidlaydi. J.Ostin fatik aktni ko‘chirma gap va muallif gapidan iborat jumlalar sifatida, retik aktni esa o‘zlashma gap sifatida talqin etadi:

Fatic act: *He said «Get out».*

Retik akt: *He told me to get out.*

Serlning fikricha, retik aktlarni ifodalashda qo‘llaniluvchi fe’l yoki fe’lli birikmalar har doim illokutiv fe’llardan tarkib topadi.

Olimjon, qoch! – dedim chinqirib. (O‘.Hoshimov)

J.Ostinga ko‘ra yuqorida keltirilgan shakldagi jumla fatik akt. Agar u «Men Olimjonga qoch dedim» kabi o‘zlashma shaklda bo‘lsa, retik akt deb hisoblangan. Lekin, *demoq* fe’li o‘rnida *undamoq, maslahat bermoq, buyurmoq* kabi illokutiv fe’llar kelishi mumkin. «Men Olimjonni qochishga

undadim», «Men Olimjonga qochishni maslahat berdim», «Men Olimjonga qochishni buyurdim» kabi almashtirish orqali illokutiv akt bo‘la olishini aytish mumkin. Har bir lokutiv akt illokutiv bo‘lishi mumkin. Har bir gap mazmuni illokutiv kuch indikatorida tashkil topadi. Shunga ko‘ra, Serl retik aktlarni illokutiv akt sifatida qarashni taklif qiladi. U o‘zining «Austin on locutionary and illocutionary acts» deb nomlangan maqolasida lokutiv akt tarkibi fonetik, fatik va propozitsional aktlardan iborat degan xulosaga keladi. Retik aktlarni esa illokutiv aktlarning aynan o‘zi ekanligini ta’kidlaydi.

Lokutiv akt – talaffuz akti, berilgan til grammatikasiga muvofiq muloqot jarayonida mazmundor gap tuzish va talaffuz orqali nutqiy faoliyat bajarishdir. Agar ma’lum sababga ko‘ra (kar-soqovlik, tilni bilmaslik) mazmunga ega gap tuzilmasa yoki talaffuz etilmay qolsa, aytaylik, faqatgina yozuvda qolsa, lokutiv akt yuzaga kelmaydi. Shuni ham hisobga olish kerakki, mazmundor gap shunchaki tuzilib, talaffuz etilmaydi. Uning aytilishi zamirida ma’lum bir ikkilamchi kommunikativ maqsad yotadi va bu maqsadning voqealanishi, implisit yoki eksplisit strukturalar yordamida ifodalanib, muloqot ishtirokchilari tomonidan anglanishi – illokutiv akt natijasi hisoblanadi. Masalan, «Ovqat tayyor bo‘ldi» jumlasi talaffuzidan birlamchi maqsad ovqatning pishganligi haqida xabar berish bo‘lsa, ikkilamchi maqsad tinglovchini ovqatga taklif qilish, hozir ovqatlanadimi yoki yo‘qmi so‘rash kabi kommunikativ istaklardan biri muloqot vaziyatiga ko‘ra yuzaga chiqadi. Shunga ko‘ra, nutqiy tuzilmaning illokutiv kuchi aniqlanadi. Bu kuch tinglovchiga ta’sir etishi va natijaviy maqsadga yetkazishi lozim. Nutqiy aktning ushbu ta’sir o‘tkazish bosqichi perlokutiv akt hisoblanadi. So‘zlovchi tomonidan aytilayotgan jumlaning kommunikativ maqsadi natijasini tinglovchi ushbu nutqiy harakatni biz istagan maqsadda qabul qilishida ko‘ramiz. Sh. Safarovga ko‘ra, perlokutiv akt bu – tinglovchining ongiga, his-tuyg‘ulariga, xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkazish harakatidir. Ko‘pchilik pragmalingvist olimlar perlokutiv aktni lisoniy tahlil doirasiga kiritish kerak emas, deb hisoblashadi. Bunga esa perlokutiv natijaga hech qanday nutqiy harakat bajarmay turib ham erishishning imkoni borligini sabab qilib ko‘rsatishadi. Lich ham bu fikrga qo‘shilgan holda, perlokutiv natija tahlili pragmatikaning vazifasiga kirmaydi, deb hisoblaydi. Sababi pragmatik ta’sir kuchi nutqiy harakat maqsadi bilan bog‘liq, uning natijasi bilan emasligi bilan izohlanadi. Ammo Sh. Safarov nutqiy harakat natijasini pragmatik tahlil doirasidan chetga surib qo‘yish muloqot tizimini tumtoq qilib qo‘yishi mumkin deydi. Bizningcha ham, perlokutsiya tinglovchining keyingi ham jismoniy, ham nutqiy harakat yoki harakatsizligiga sabab bo‘luvchi hal qiluvchi akt hisoblanadi. Shuningdek, u muloqotning davomiyligi va tizimliligini ham ta’minlaydi. Perlokutiv natijani pragmatik tahlil qilish orqali illokutiv aktda

ifodalangan kommunikativ maqsadning qanchalik yuzaga chiqqanligini aniqlashning imkoni bo‘ladi.

– O‘zlaring ajinasan! – Zakunchining yuzi qahrli qiyshayib ketdi. – Qizingga ayt! Shunaqa yalpayib yotaversa, sochidan sudrab chiqaman. Qamoqqa tushgisi kelmasa ishga chiqsin! Bugun, hozir! (O‘. Hoshimov, 273)

Yuqorida keltirilgan misolda nutqiy aktning qo‘rqitish mazmuni yuzaga chiqqanligini ko‘rish mumkin. Perlokutiv ta’sir natijasida tinglovchida qo‘rquv paydo bo‘lishi kerak.

– Xo‘p, – dedi cholim yerga qarab. – Chiqadi. Qo‘rqitishning hojati yo‘q.

Muloqotning davomida esa tinglovchi so‘zlovchining kommunikativ maqsadini tushungan, lekin unda perlokutiv natija so‘zlovchi kutgandek bo‘lmagani ma’lum bo‘ldi. Natijada so‘zlovchi muloqotni toki perlokutiv ta’sir illokutiv maqsadga ko‘ra natija ko‘rsatmaguncha davom ettiradi.

– Iye, hali hech nimadan qo‘rqmaydigan bo‘lib qoldingizmi, Duma! – dedi g‘azabdan mo‘ylovi uchib. – Hammangni qator qo‘yib, bittama-bitta peshonangdan otish kerak! Hammangni! Avlod-ajdoding bilan! Xoinlar!

Ushbu parchada esa qo‘rqitish akti kuchliroq perlokutiv ta’sir bilan tahdid va ayblov aktlariga aylantirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

– Haqorat qilmang, rais, – dedi sekin, dona-dona qilib. – Shukur, avlodimizdan xoin chiqqanmas. O‘g‘lim jon olib-jon berib yuribdi.

Muloqot davomida talab aktining sekin, dona-dona qilib aytilishi uning iltimos akti tomonga burilishiga olib kelgan. Bunga muloqot avvalidagi perlokutiv ta’sirlar samarasi, shuningdek, zakunchining jamiyatdagi ijtimoiy mavqei kabi omillar sabab bo‘lgan deyish mumkin.

– Sening o‘g‘ling-a? Jon olib-jon beryaptimi? – zakunchi kinoya bilan shunday iljaydiki, mo‘ylovi qiyshayib ketdi... – Haqiqiy jangchi so‘nggi tomchi qoni qolgunicha urishadi! Oliy Bosh Qo‘mondonning 270-buyrug‘iga binoan bunaqalar xoin sanaladi! Boyagi qog‘ozni nafrat bilan g‘ijimlab cholimning yuziga uloqtirdi...

Ushbu qismda tinglovchilar ongi va his-tuyg‘ulariga shu darajada ta’sir o‘tkazildiki, oqibatda ularning holati quyidagicha izohlanadi.

«Qoraxat! Kimsanimdan qoraxat kepti!» Miyamga shu xayol urildi-yu, es-hushimni yo‘qotdim. Bir mahal ko‘zimni ochsam, qaro tuproqqa belanib o‘tiribman. Yig‘lay desam ovozim chiqmaydi. Turay desam madorim yo‘q... Cholim ham tizzalab qolgan...

Aslida, muloqot paytida ushbu holatlar lison vositasida ifodalanmaydi. Lekin, yuqorida keltirilgan aktlarning perlokutiv natijasi illokutiv maqsadga erishilgan yoki erishilmaganligini ko‘rsatib, muloqot davomida keyingi illokutsiyaning yuzaga chiqishini taqozo etganligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Shunga koʻra, perlokutiv aktni ham pragmatika doirasida tahlil qilish oʻrinli boʻladi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Austin, J.L. How to do things with words. – Oxford, 1962. – 166 p.
2. Searle, J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – New York. Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б.
4. Ҳакимов. М., Газиева. М. Прагмалингвистика асослари.— Тошкент, 2020. – 476 б.
5. Shamaxmudova, A. F. Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi sotsiopragmatik omillar (ispan tili misolida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 73 b.

KATTALAR VA BOLALAR TOMONIDAN ONA TILIDA TIL OʻZLASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

Dildora Furqat qizi SALIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Maqolada psixolingvistika, kattalar va bolalarda ona tilida til oʻzlashtirish hodisasi haqida maʼlumotlar aks etgan . Shuningdek, ona tilisi oʻzbek tili boʻlgan bolalar tomonidan 2 yoshdan 6 yoshgacha boʻlgan davrda oʻzlashtiradigan soʻzlarni kattalar necha yoshda oʻzlashtirganligini aniqlash maqsadida soʻrovnoma tayyorlanib, oʻxshash va farqli jihatlar koʻrib chiqildi hamda soʻrovnoma natijalari psixolingvistik jihatdan tahlil qilindi.

Kalit soʻzlar: *psixolingvistika, til oʻzlashtirish, soʻrovnoma, tovush, tajriba, leksema.*

Tilshunoslikda XX asrning 20-yillaridan boshlab yondosh yoʻnalishlar, xususan, sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika inson ongida nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini, nutqiy faoliyatning shakllanishi, ona tili va xorijiy tilda soʻz oʻzlashtirish qonuniyatlarini oʻrganuvchi tilshunoslik sohasi boʻlib, oʻtgan asrning 60-yillarida amaliyotga kiritildi.

Psixolingvistika fani til qonuniyatlarining keng qamrovli va yagona nazariyasini taʼminlashga intiladi. Psixolingvistika, shuningdek, tilning tabiatini va birinchi tilni oʻzlashtirgan bolalar tomonidan oʻzlashtirilishini tushuntirishi mumkin boʻlgan lingvistik va psixologik jihatdan asosli til nazariyasini shakllantirishga harakat qiladi. Til oʻzlashtirish jarayoni yosh bolalarda oʻz ona tilini oʻzlashtirish xorijiy tilni oʻzlashtirishdan koʻra ancha

farq qiladi. Kattalar tomonidan til oʻzlashtirish va tushunish, albatta, bolalarning til va kognitiv rivojlanishi jarayonida nimani egallashi kerak boʻlgan parametrlarni belgilash uchun zaruriy shartdir [1;11].

N.Xomskiyning fikricha, tilni oʻzlashtirish uchun «tugʻma» maxsus mexanizm mavjud. Bu esa til oʻzlashtirish tabiiy jarayon ekanligini izohlaydi. Psixolingvistika tilni tushunish va oʻzlashtirish sohalarida lingvistik va kognitiv xatti-harakatlar haqida sinovdan oʻtkaziladigan tajribalarni ishlab chiqadi va eksperimental ravishda tekshiradi [5;46].

Maʼlumki, til oʻzlashtirish –murakkab jarayon. Inson ona tilini va yoki chet tilini oʻzlashtirishda tildagi jamiki leksemani oʻz leksikonida saqlab, oʻzlashtira olmasligini qayd etish barobarida aytish mumkinki, til oʻzlashtirish butun umr davom etadi.

Yangi tugʻilgan chaqaloqda nutqiy qobiliyat boʻlmaydi. Ular atrofdagi kishilar ovozi, turli narsa va hodisalar tovushini eshitib, sekin-asta ana shu ovoz va tovushlarga qarab taqlid qila boshlaydi. Dastlab hech qanday maʼno anglatmaydigan tovushlardan bir yoki ikki boʻgʻinli yoki takroriy boʻgʻinli soʻzlar hosil qilinadi. Bolalar dastlab tovush tizimini, fonologiyani oʻrganishadi. Albatta, ular buni oʻzlari anglamagan holda bajaradi. Bu oʻz navbatida qaysi tovushga tegishli ekanligini (p, b, t, d, s, z, a, i, u, e kabi tovush segmentlari) boʻgʻin va soʻzlarda qonuniy boʻlgan tovushlarning ketma-ketligini oʻrganishni anglatadi [3;13].


Til oʻzlashtirishning dastlabki vaqtlarida bolaga soʻz tarkibidagi qoʻshimcha sonining birdan ortiq ekani hamda ularni oʻzaro muvofiqlashtirish kerakligi, yaʼni shakily murakkablik ham qiyinchilik tugʻdiradi. Masalan, feʼlni kesim sifatida shakllantirish boladan ham zamon, ham shaxs-son shakllari muvofiqlashtirishni talab qiladi[4;18].

Suhbat tildan foydalanish uchun imkoniyat yaratadi. Tugʻilgandan boshlab bolalar ishtirok etadigan muloqot almashinuvlari ularni oʻz atrofidagi tilga moslashtiradi. Agar biz soʻzlovchi nutq soʻzlanganda soʻzni qanday tanlashi haqida soʻrasak, u yoki bu soʻz, avvalo, taklif mazmuni yoki yetkazilishi kerak boʻlgan xabar, darak va yoki buyruq mazmunidagi leksemalardan birini foydalanishi kerakligini taʼkidlaymiz. Shunday qilib xabar semantik jihatdan argumentlar biriktirilgan predikatlarni oʻz ichiga olgan elementar takliflar toʻplamida ifodalanishi kerak. Kess J. ushbu vaziyatni quyidagicha tushuntiradi. Misol uchun, John Maryga jomadonni yubordi, gapining orqasidagi xabar aniq deb faraz qilsak, biz xabar ingliz tilida qanday qilib taklif bilan kodlanganini koʻrishimiz mumkin. John, Mary, jomadon bilan bogʻliq argumentlar feʼl predikat sifatida yuborilgan. Yuqoridagi jumlamizdagidek, maʼlum sintaktik tartibda joylashtirilgan dalillar Johnni maʼlumot uzatuvchi, Mary esa foydalanuvchi yoki qabul qiluvchi sifatida, jomadon esa obyekt sifatida belgilaydi. Soʻz tartibi, feʼldagi oʻtgan zamon kabi

affiksli qo‘shimchalar bilan o‘rnatilgan bu dalillar ushbu ma’lumotni uzatish aktida yetkazilishi kerak bo‘lgan g‘oyaviy mazmunni tashkil qiladi. Tilning faoliyat tomoni, ya’ni biz tildan ma’lum bir masqad uchun foydalanamiz, bunda biz odamalarni biz uchun biror narsa qilish uchun so‘zlardan foydalanamiz. Shu ma’noda, so‘zlovchi nutq akti bu gap qaysi maqsadda ishlatilishini ham bilishi kerak. Shunday qilib, axborot uzatishda so‘zlovchi nutqi harakatni buyruq deb qabul qilishi mumkin, lekin buni yanada muloyimroq tarzda, (Eshikni yoping!) o‘rnida (Siz eshikni yopa olasizmi?) deya axborot yetkazilish usulini o‘zgartira olishi ham mumkin. So‘zlovchi axborot almashinuv jarayonida nafaqat g‘oyaviy mazmun yoki yetkazilishi kerak bo‘lgan ma’lumotni, balki bu so‘z qanday harakatni amalga oshirishini ham hal qilishi kerak. Bu buyruqmi, da’vomi yoki va’dami? Taklif mazmuni va nutq akti maqsadining ushbu asosiy ikki qismli doirasi aniqlangandan so‘ng, nutqni grammatik ifodaga aylantirish kerak. Odatda bu tilga xos qoidalar masalasi bo‘lib, grammatik qat’iyliklardan foydalanishni, ya’ni ma’lum bir tildagi gap tartibini nazarda tutadi [1;10]. Grammatik qoidalar har doim ham tilni tavsiflashda tilshunos tomonidan taklif qilingan tuzilmalar va birliklarga mos kelmasligi mumkin. Ko‘p yillar davomida Rojer Braun maktabgacha yoshdagi bolalarning til o‘zlashtirishini o‘rgandi [2;8]. Bu tadqiqot loyihasi uchta bolaning nutqini yozib, ularning til rivojlanishidagi semantik va grammatik jihatlarni o‘rganadi. Ushbu asosiy topilmalar psixologiya va tilshunoslik sohasidagi so‘nggi ishlar va ayniqsa, ingliz tilidan tashqari boshqa tillarni, jumladan, fin, nemis, koreys va samoa tillarini o‘zlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar bilan bog‘liq. Rojer Braun grammatik qurilishlarning dastlabki bosqichlari va ular bildiradigan ma’nolarning eng to‘liq va izlanuvchan tahlilini keltirib o‘tadi.

O‘zbek tilida kattalar tomonidan so‘z o‘zlashtirishning bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan so‘zlardan farqli va o‘xshash jihatlarini aniqlash maqsadida tajriba-kuzatuv olib borildi. Unga ko‘ra, 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalar tomonidan o‘zlashtirgan hamda nutqida qo‘llay oladi deb bilgan so‘zlar sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘atidan alifbo tartibida jami 145 ta so‘z tanlab olindi. Ushbu so‘zlarning kattalar tomonidan necha yoshda o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida internet tarmog‘ida so‘rovnoma shakllantirilib, telegramm va facebook platformalaridagi kanallarga joylandi. Onlayn so‘rovnomada 173 nafar retsipiyent qatnashdi. So‘rovnomada retsipiyentlarning yashash hududi, yoshi, jinsi, ma’lumoti, kasbi kabi savollar ham berilgan bo‘lib, bundan so‘rovnoma qatnashchilari haqida to‘laroq ma’lumot hosil qilish uchun foydalanish mumkin. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, qatnashuvchilarning asosiy qismi, 86 %i 16-30 yosh oralig‘idagi kishilarni tashkil etib, ularning 2/3 qismini ayollar tashkil etadi.


Retsipiyentlarning 80%i oliy, 20%i o‘rta ma’lumotli bo‘lib, ularning yarmini talaba va o‘qituvchilar ekanligi qayd etildi.



Natijaga ko‘ra, tanlab olingan so‘zlarning 90 %i kattalar tomonidan 6 yoshgacha o‘zlashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin.




Kattalar 6 yoshgacha o‘zlashtirmagan, ammo hozirgi bog‘cha tarbiyalanuvchilari tomonidan o‘zlashtirilgan so‘zlar sifatida quyidagi so‘zlar aniqlandi: ***ananas, apelsin, banan, kivi, mandarin, beshiktebratar, pingvin, zag`izg`on, sayyora***. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra qayd etilgan so‘zlar tarkibidagi 5 turdagi meva sitrus meva hisoblanib, asosan, tropik mamlakatlarda o‘sadi. O‘zbekiston iqlimida bu meva turlari faqatgina maxsus issiqxona sharoitida yetishtiriladi. Bizning mamlakatda yetishtiriladigan meva turlari: uzum, anor, behidan farqli ravishda kattalar erta bolalik yillarida sitrus mevalarni iste’mol qilmaganligi, ushbu meva turini bevosita kundalik hayotda ko‘rib, qo‘l bilan ushlab ko‘rmaganliklari sabab ushbu so‘zlarni o‘zlashtirish muddati 6 yoshdan keyingi yosh ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi.



Bolalar ona tilida jarayonida avval talaffuz qilishda qiynalmaydigan, oldindan eshitgan, ular uchun birmuncha tanish so‘zlarni, keyinroq murakkab tuzilishli, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni o‘zlashtiradi. Kattalar tomonidan 6 yoshdan keyin o‘zlashtirilgan deb keltirilayotgan *beshiktebratar, zag‘izg‘on, pingvin, sayyora* so‘zlari esa kundalik hayotda kam qo‘llaniladigan, onda-sonda eshitiladigan *(pingvin, sayyora*), ko‘p bo‘g‘inli (*beshiktebratar*), bola tomonidan talaffuz qilinganda aytilishida qiyinchilik tug‘diragan so‘zlar (*zag‘izg‘on*) sifatida so‘rovnomadagi natijalarda aks etdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda agrar iqtisodiyot rivojlangan, axborot texnologiyalari asrida esa ushbu so‘zlarni bolalar har qadamda eshitishlari, mevalarni iste’mol qilib, bolalar uchun tayyorlangan turli multfilmlar, ommaviy axborot vositalari orqali ko‘rish imkoniyatlari mavjud. Bu esa ushbu so‘zlarni bog‘cha yoshdagi bolalar o‘zlashtirishini to‘la isbotlaydi.



Xulosa qilib aytganda, bolaning erta yoshdan ona tilida so‘z o‘zlashtirishi o‘sha so‘zning qo‘llanish chastotasi, so‘z anglatgan tushunchaning bola uchun qay darajada tanish ekanligi va yosh davriga nisbatan bu so‘z uning faol lug‘atida aks etishi bilan bog‘liq. Tilshunosligimizda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ona tilisi o‘zbek tili bo‘lgan kattalar va bolalar nutqini kuzatish, til o‘zlashtirishdagi

oʻxshash va farqli jihatlarni yuzaga keltiruvchi psixolingvistik omillarni tadqiqi etish oʻzbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Kess J.E. Psycholinguistics. 1992.
2. Brown, R. (1973). A first language: The early stages. Cambridge, M.A: Harward University Press.
3. Clark, Eve V. 2009. First Language Acquisition. P.13.
4. Саидахмедова О. И. Табиий тартиб гипотезасининг узбек тили учун талкини. Фил. фан. буйича фал. док. …дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 18б.
5. Chomskiy, N. Aspekts of the Theory of Syntax. MIT Press,1965. P.46.

TILSHUNOSLIKDA TOLERANTLIK KONSEPTINING DISKURS TAHLILI

Gavharoy Abdulla qizi YORMATOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
akademik litseyi ingliz tili oʻqituvchisi,
Webster universiteti magistranti

Ushbu maqola tilshunoslikda tolerantlik konseptining diskurs tahliliga bag‘ishlangan. Unda tolerantlik tushunchasining turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ifodalanishi va diskursiy tahlili o‘rganiladi. Maqolada turli matnlar va nutqiy amaliyotlar orqali tolerantlik konseptining lingvistik xususiyatlari hamda ularning jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot tolerantlikning diskursdagi ifodalanish shakllarini aniqlash va turli kontekstlarda uning kommunikativ funksiyalarini tushunishga qaratilgan. Ushbu maqola tilshunoslikda tolerantlik konseptini kengroq tushunish va uning lingvistik aspektlarini tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: *tolerantlik, diskurs tahlili, lingvistika, kommunikativ funksiyalar, madaniy kontekst, ijtimoiy tahlil.*

Bag‘rikenglik turli jamiyatlarda uyg‘unlikni saqlash uchun muhim prinsipdir. Bu turli nuqtai nazarlar va turmush tarzi farqlarini qabul qilish va ularga hurmat koʻrsatishni oʻz ichiga oladi. Diskursda bag‘rikenglik mojarolarni yumshatishi, oʻzaro tushunishni kuchaytirishi va inklyuziv muhitni targ‘ib qilishi mumkin. Ammo bag‘rikenglik murakkab tushuncha boʻlib, uni

turli ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar ta’sir qilishi mumkin. Ushbu tadqiqot bag‘rikenglikning diskursda qanday namoyon bo‘lishi, duch keladigan qiyinchiliklar va uning muloqot dinamikasiga ta’sirini o‘rganishni maqsad qiladi.

Bag‘rikenglik, ijtimoiy va kommunikativ fazilat sifatida, tobora xilma-xillik va o‘zaro bog‘liqlik bilan tavsiflanadigan dunyoda muhimdir. Boshqa fikrlar va e’tiqodlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish qobiliyati shaxsiy yetuklik belgisidan tashqari, demokratik jamiyatlarning asosi hamdir. Bugungi kunda qutblanish va bag‘rikenglikning pasayishi kuzatilayotgan bir davrda, diskursdagi bag‘rikenglikning mexanizmlarini tushunish juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot diskursda bag‘rikenglikning murakkab jihatlarini o‘rganishga harakat qiladi va ijtimoiy bo‘linmalarni kamaytirish va samarali muloqotni targ‘ib qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Bag‘rikenglik turli xil tarzda ta’riflangan, farqlarga oddiy chidamlilikdan tortib faol ishtirok va hurmatgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Forst bag‘rikenglikni uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oluvchi ko‘p qirrali tushuncha sifatida ta’riflaydi: e’tiroz, qabul qilish va rad etish [5, 27]. E’tiroz farqlar yoki xatti-harakatlar mavjudligini tan olishni anglatadi. Qabul qilish, garchi kimdir ularni ma’qullamasa ham, bu farqlarning mavjud bo‘lishiga imkon berishni o‘z ichiga oladi. Rad etish esa, ba’zi xatti-harakatlar yoki e’tiqodlar zararli bo‘lgani uchun bag‘rikenglik doirasidan chiqib ketishini tushunishni anglatadi.

Walzer bag‘rikenglikning demokratik jamiyatlardagi rolini ta’kidlab, uning tinch birga yashash va hamkorlikdagi dialog uchun zarurligini aytadi [11, 127]. Bag‘rikengliksiz, jamiyatlar xilma-xillik orasida birligi saqlanishi uchun kurashishi mumkin edi. Bu bag‘rikenglikni o‘rganishni nafaqat akademik mashq, balki zamonaviy ijtimoiy hayot uchun amaliy zaruratga aylantiradi. Tadqiqotlar bag‘rikenglikka ta’sir qiluvchi bir nechta omillarni aniqladi, jumladan, shaxsiy psixologik xususiyatlar, ijtimoiy me’yorlar va madaniy kelib chiqish. Gibson bag‘rikeng bo‘lish qobiliyatiga sezilarli ta’sir qiluvchi shaxsiy omillar sifatida kognitiv murakkablik va tajribaga ochiqlikni ta’kidlaydi [6, 21]. Ijtimoiy me’yorlar ham muhim rol o‘ynaydi; tenglik qadriyatlarini targ‘ib qiladigan jamiyatlar o‘z a’zolari orasida yuqori darajadagi bag‘rikenglikni rivojlantiradi.

Bag‘rikenglikning diskursda namoyon bo‘lishini, duch keladigan qiyinchiliklarini va uning muloqot dinamikasiga ta’sirini o‘rganish ushbu tadqiqotning maqsadidir. Ushbu jihatlarni tahlil qilish orqali tadqiqot diskursda bag‘rikenglikning keng qamrovli tushunchasini taqdim etishga va inklyuziv va konstruktiv dialogni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar berishga intiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari tolerantlikning ko‘p qirraliligini aks ettiradi. Hurmat bilan tinglash va turli nuqtai nazarlarni tasdiqlash tolerant diskursning asosiy

elementlari sifatida paydo boʻldi. Bu amaliyotlar turli nuqtai nazarlarni ifodalash va tushunish mumkin boʻlgan muhitni yaratishga yordam beradi, shuning uchun nizolar kamayadi. Biroq, xurofotlar va kuch dinamikasi tolerantlikka jiddiy toʻsiq boʻlib qoladi. Xurofotlar notoʻgʻri talqinlarga olib kelishi va nizolarni kuchaytirishi mumkin, kuch dinamikasi esa marginal guruhlarning ovozlarini sukut saqlash va nutqdagi tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu qiyinchiliklar tolerantlikni targʻib qilish uchun nafaqat individual sa'y-harakatlarni, balki ichki xurofotlar va kuch dinamikasini bartaraf etishga qaratilgan tarkibiy oʻzgarishlarni ham talab qiladi.

1. Madaniy turli xil boʻlgan jamiyatlarda bagʻrikenglikning ahamiyati: Bugungi globallashgan dunyoda, turli madaniyatlar, e'tiqodlar va dunyoqarashlar bir joyga toʻplanadi. Bagʻrikenglik shunday jamiyatlarning barqarorligi va uygʻunligining asosi boʻlib, turli guruhlar oʻrtasida oʻzaro hurmat va hamkorlikni ta'minlashga yordam beradi.

2. Bagʻrikenglik va empatiya oʻrtasidagi bogʻliqlik: Bagʻrikenglik faqat boshqalarni qabul qilishni anglatmaydi; u shuningdek, boshqalarning hissiyotlari va nuqtai nazarlarini tushunishga boʻlgan ichki istakni ham oʻz ichiga oladi. Empatiya orqali bagʻrikenglik chuqurlashadi, bu esa muloqotning yanada samarali va samimiy boʻlishiga olib keladi.

3. Bagʻrikenglikni rivojlantirishda ta'limning roli: Ta'lim bagʻrikenglikni targʻib qilishda hal qiluvchi omil boʻlib, u oʻquvchilarga turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarni tushunish imkonini beradi. Maktab va universitetlar, bagʻrikenglikka asoslangan kurikulum orqali, jamiyatda yanada inkluziv muhit yaratishga hissa qoʻshishi mumkin[10].

4. Bagʻrikenglikning raqamli muloqotdagi roli: Bugungi kunda raqamli platformalar muloqotning asosiy maydoniga aylangan. Bagʻrikenglik raqamli muloqotda ham muhim ahamiyatga ega, chunki onlayn muhitdagi anonimlik ba'zan ekstremal va toqat qilinmaydigan xulq-atvorni ragʻbatlantiradi [9]. Shunday qilib, raqamli savodxonlik va onlayn etika haqida ta'lim berish bagʻrikenglikni rivojlantirishning muhim qismiga aylanishi kerak.

Ushbu tadqiqot tolerantlikning diskursdagi murakkab rolini oʻrganib, uning muloqotni yaxshilash imkoniyatlarini va duch keladigan qiyinchiliklarni ochib beradi. Sifatli suhbatlar va diskurs tahlilini oʻz ichiga olgan aralash usul yondashuvi orqali biz hurmat bilan tinglash va turli nuqtai nazarlarni tasdiqlash tolerant diskursning asosiy komponentlari ekanligini aniqladik [7]. Biroq, ichki xurofotlar va kuch dinamikasi tolerantlikning samarali amaliyotiga toʻsqinlik qiladi [2]. Tadqiqot natijalari ta'limning tolerantlikni rivojlantirishdagi muhimligini ta'kidlaydi.

Turli nuqtai nazarlarni va tanqidiy fikrlashni targʻib qilishga qaratilgan ta'lim insonlarning tolerant diskursda ishtirok etish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, tadqiqot teng huquqli va inklyuziv muloqot

muhiti yaratish uchun tarkibiy o‘zgarishlar zarurligini ta’kidlaydi. Bu hurmat va inklyuzivlikni targ‘ib qiluvchi me’yorlarni o‘rnatish, marginallashgan guruhlarning ovozini eshitish va qadrlashni ta’minlashni o‘z ichiga oladi [4, 37].

Ushbu tadqiqot qimmatli tushunchalarni taqdim etsa-da, u ham cheklovlarga ega. Nisbatan kichik va umumlashtirilmagan namunalar kelgusidagi tadqiqotlarni katta va ko‘proq xilma-xil aholiga ega bo‘lgan tadqiqotlar o‘tkazishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tolerantlikni turli xil kommunikatsiya shakllarida, jumladan, raqamli o‘zaro munosabatlarda o‘rganish bu tushunchaning yanada kengroq tushunilishini ta’minlashi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar, shuningdek, diskursda tolerantlikni targ‘ib qilishga qaratilgan aralashuvlarni sinab ko‘rishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Eksperimental tadqiqotlar ta’lim dasturlari va tarkibiy o‘zgarishlarning samaradorligini baholashi va inklyuziv va konstruktiv muloqotni rivojlantirish uchun amaliy strategiyalarni yaratishga yordam beradi [3]. Umuman olganda, tolerantlikni diskursda targ‘ib qilish ijtimoiy bo‘linishlarni kamaytirish va turli xil jamiyatlarda o‘zaro tushunishni yaxshilash uchun muhimdir.

Adabiyotlar

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
2. Bourdieu, P. (1991). Language and Symbolic Power. Cambridge: Harvard University Press.
3. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action: Reason and the Rationalization of Society. Boston: Beacon Press.
4. Hjerm, M. (2001). Education, Xenophobia and Nationalism: A Comparative Analysis. Journal of Ethnic and Migration Studies, 27(1), 37-60.
5. Forst, R. (2013). Toleration in Conflict. Cambridge University Press
6. Gibson, J. L. (2006). Enigmas of Intolerance: Fifty Years after Stouffer’s Communism, Conformity, and Civil Liberties. Perspectives on Politics, 4(1), 21-34.
7. Miller, D. (2016). Strangers in Our Midst: The Political Philosophy of Immigration. Harvard University Press.
8. Rogers, C. R. (1961).On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
9. Sidanius, J., & Pratto, F. (1999). Social Dominance: An Intergroup Theory of Social Hierarchy and Oppression. Cambridge University Press.

10. Van Dijk, T. A. (1997). Discourse as Interaction in Society. In T. A. Van Dijk (Ed.), Discourse as Social Interaction. Sage Publications.
11. Walzer, M. (1997). On Toleration. Yale University Press.

BADIIY MATNLARDA ICHKI NUTQNING QAHRAMON MULOQOTIDAGI O‘RNI

Marjona Jinaydullo qizi RAXMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda tashqi nutq bilan birga ichki nutni ham lingvistik hamda psixolingvistik jihatdan tahlil qilib o‘rganish masalasi dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada ichki nutqning o‘ziga xos xususiyatlari xususida so‘z yuritiladi. Ta’kidlash lozimki, ichki nutq ovozsiz ichki muloqotning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanib, keltirilgan maqolada bu nutqiy jihat psixolingvistik jihatdan tadqiq etiladi. Ichki nutqqa xos bo‘lgan jihatlar xususida turli olimlar tomonidan turfa xil fikrlar ifodalangan bo‘lib, ularning ayrimlari maqolada namuna sifatida keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *ichki nutq, psixologik jihat, xususiyat, vahdat ul-vujud, fenomenologiya, autism, ASD.*

Ichki nutqni odatdagi tashqi nutqimizning fenomenologik va sintaktik jihatdan qashshoqlashgan shakli sifatida qabul qilish odat tusiga kirgan, u esa tilning semantik jihatiga xosdir. Ko‘pchilik olimlar ichki nutqda tovushning balandligi, tebranish chastotasi hamda hajmi mavjud emasligi sababli ham shu fikrga to‘xtaladilar. Darhaqiqat, artikulyatsiya xususiyatlariga ko‘ra qashshoq bo‘lsa ham, ichki nutq semantik tushunish bilan bog‘liq leksik va boshqa yuqori darajadagi ma'lumotlar bilan aloqada bo‘lib turadi. Biroq, odamlar to‘liq jumlalar bilan ifodalangan ko‘proq «murakkab» ichki nutq bilan shug‘ullanishlari mumkin. Bu, ayniqsa, biz ma’ruzalarga tayyorgarlik ko‘rganimizda, biror bir janjal haqida qattiq o‘ylaganimizda yoki mumkin bo‘lgan suhbatlarni tasavvur qilganimizda e’tiborga loyiqdir. Bu holatlar odatda lingvistik harakatlar bilan bog‘liq, ya’ni bizning ichki nutqimiz nima qilayotganini mavzu oxir-oqibat ommaga taqdim etadigan so‘zlarni takrorlash turi sifatida tavsiflanishi mumkin. Biroq, murakkab ichki nutq boshqa turdagi vaziyatlarda ham sodir bo‘lishi mumkin. Masalan, ovozni eshitadigan shizofreniya bilan og‘rigan bemorlarda ichki nutqning fenomenologik xususiyatlarini va sog‘lom nazoratni taqqoslaydigan tadqiqotda Langdon hamda boshqalar ikkala guruh ham ichki nutq bilan shug‘ullanganda to‘liq

jumlalarda fikrlash haqida xabar berishlarini aniqladilar. Bu natija biroz hayratlanarli, chunki Vigotskiydan keyin odatda ichki nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning odatiy tarzda qisqartirilgan (yoki parcha-parcha) bo‘lishi deb taxmin qilingan.

Boshqa tomondan, Langdon va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ichki nutqning fenomenologiyasi eshitishning og‘zaki gallyutsinatsiyalaridan farq qiladi, shuning uchun ular bilan og‘rigan odamlar ushbu parchalarni ichki nutq misollaridan ajrata oladilar. Ularning gallyutsinatsiyalarining qanday holatda ekanligi ichki nutqning tegishli holatiga bog‘liq emas, ya'ni gallyutsinatsiyalar ovozlarga o‘xshaydi. Bundan tashqari, «begona ovozlar» ichki nutqdan umumiy shakli va pragmatik xususiyatlari (masalan, mavzuga murojaat qilish uchun ishlatadigan olmoshlar) jihatidan farq qiladi. Ichki nutqdagi farqlar kutilishi mumkin bo‘lgan boshqa guruhlar autizm spektorining buzilishi (ASD) va karlardir.

ASD bilan og‘rigan odamlarning ijtimoiy o‘zaro ta'siri va til bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator nuqsonlari borligi, shuningdek, tashqi shaxslararo nutq ichki shaxsiy nutqning kashshofi ekanligi haqidagi taxminlar autizmda ham xuddi shunday tarzda buzilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ba’zi holatlarda biz fikrlash jarayonimizni yoki ichki nutqimizni nazorat qila olmaydigandek tuyulishi mumkin. Lekin bu noto‘g‘ri, chunki har qanday holatda ham bizning miyamiz fikrlarimizni nazorat qiladi hamda tartibga solib turadi. Bora-bora ichki nutq fikrlash jarayonimizda odat tusiga kiradi va beixtiyor amalga oshirila boshlaydi. Ammo, biz shaxsiy muloqotga shaxsiy fikrlash jarayoni bilan aynan bir xil holat deya qaramasligimiz lozim. Ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasida almashinadigan shaxslararo muloqotdan farqli o‘laroq, shaxs ichidagi muloqot o‘zi bilan muloqotdir. Xuddi shu konsepsiya uchun ko‘plab boshqa nomlar ham mavjud: o‘z-o‘zidan gapirish, ichki monolog, ichki nutq, ichki tajriba va boshqa shu kabilar. Ularning barchasi deyarli bir xil tushunchani, ya’ni inson miyasidagi ovozni tasvirlaydi. Shaxs ichidagi so‘zlashuv, asosan, insonning ichki dunyosida sodir bo‘lsa-da, u baland ovozda (masalan, o‘zimiz bilan suhbatlashishimiz, nimagadir tayyorgarlik ko‘rishimiz, ma’lum bir qaydlarni yoki ma’lumotlarni eshitib esda saqlab qolishimiz) yoki yozma ravishda (masalan, har kunlik yozishmalar, qaydlar yoki kundalik yozish jarayoni) mumkin. Qanday vosita bo‘lishidan qat’iy nazar, shaxsiy muloqot ishning ichida va tashqarisida ko‘plab vaziyatlarda namoyon bo‘ladi: rejalashtirish, muammolarni hal qilish, nizolarni hal qilish, baholash, mulohazalar va boshqalar. Har bir inson buni turli vaziyatlarni o‘z boshidan kechirayotgan bo‘lsa-da, ichki nutq har doim (har bir daqiqadan soatgacha) mavjud bo‘ladi.

Shaxs ichidagi muloqot juda qiyin vaqtlarda isonga yordam berishi mumkin. Chunki biz ichki nutqda vaziyatni boricha tahlil qilamiz, ammo eng

maqbulinigina tashqi nutqimizda ifodalab koʻrsatamiz. Bu bilan bizkimningdir koʻngliga ozor brishdan yoki kimgadir ruhiy zarar yetkazishdan tiyilishimiz mumkin. Deyarli barchamizning ichki monologimiz bor, ammo shaxsiy muloqot boʻyicha mutaxassis Rassel Xulburtning soʻzlariga koʻra, bu odamlarning 30-50 foizi uchun tez-tez uchraydigan holat. Ba'zi odamlar aslida ichki monologga ega emaslar, ya'ni ular oʻz fikrlarini boshlarida dialog sifatida eshitish» oʻrniga, gʻoyalarni mavhum, ogʻzaki boʻlmagan tarzda qayta ishlaydilar. Miyasi kun davomida tinimsiz ogʻzaki hikoya qiluvchilar bizlar uchun juda hayratlanarli. Shunday insonlar borki, ular oʻzlarining ichki nutqlariga uncha e'tibor bermaydilar. Ba'zilar esa hatto, ma'lumotlarniqayta ishlash jarayonida ham ichki nutq orqali oʻz-oʻzi bilan mulohaza yuritadilar va fikrlarini muhokama qiladilar. Ba'zilar koʻproq ijobiy, optimistik monologga ega, boshqalari esa mukammallik, oʻzini ayblash va yolgʻon sindromi kabi salbiy fikrlar bilan kurashadilar. Tanganing ikkala tomonini boshdan kechirish odatiy va mutlaqo normaldir – bu farqni keltirib chiqaradigan salbiy fikrlarni qanday hal qilishimiz. Bunday holda, bu boshqalar bilan muloqot qilishdan farq qilmaydi. Hamkasblarimizga fikr bildirganimizda, biz soʻzlarimizni qoʻpol yoki uyatli emas, balki dalda beruvchi va konstruktiv boʻlishi uchun ehtiyotkorlik bilan fikrlarimizni tartibga keltiramiz, chunki biz optimistik boʻlish sogʻlom munosabatlar va yaxshi natijalarga erishishini bilamiz.

Xoʻsh, nega biz oʻzimiz bilan muloqot qilishda xuddi shunday yondashuvni qoʻllamaymiz? Salbiy narsalar haqida oʻylash bir qator sogʻliq uchun xavf tugʻdirishi va bizni ishdan toʻxtatib qoʻyishi mumkin. Bunday vaziyatda bizga ijobiy shaxsiy muloqotga oʻtish bir qator kuchli foyda keltiradi. Jismoniy va ruhiy jihatdan oʻzimizni yaxshi his qilsak, ishda yaxshi natijalarga erisha olamiz. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻz-oʻzidan ijobiy suhbat mehnat faoliyatini yaxshilaydi (ayniqsa, katta uchrashuvlar kabi stressli, xavfli daqiqalarda), diqqatni kuchaytiradi, xavotirni kamaytiradi va hamkasblar bilan yanada empatik munosabatlarni oshiradi. Atrofimizdagi koʻplab muvaffaqiyatli rahbarlar va yuqori natijalarga erishgan insonlar oʻzini kuchli his qiladigan hamda oʻzlari va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga ega boʻlganlar ekanligi tasodif emas, balki koʻnikma sifatida qarasak, uni yaxshilash yoʻllarini koʻrish ancha oson boʻladi.

Yuqoridagi fikrlardan koʻrinib turibdiki, ichki nutq bevosita inson psixologiyasi, miya faoliyati bilan ham bogʻliq. Beriladigan misollar orqali insondagi ichki nutqning inson psixologiyasi, kayfiyati hamda ayni vaziyati bilan bevosita bogʻliq ekanligini koʻrishimiz mumkin:

«Marmar qoplangan poydevori mandan ikki qarich baland... Suvogʻiyam allambalo... Deraza oynasi koʻzni olyapti, uyning ichiga moʻralashning iloji topilmadi-da...»[9, 2]

Topgan hunaringdan o‘rgildim! - deb yubordi Yoqub to‘ram o‘zidan astoydil achchiqlanib [9, 2].

Yuqorida keltirilgan gapda qahramonning jahli chiqqanligi, ruhiyatidagi asabiylik natijasida ichki nutq va tashqi nutqning qorishtirib yuborilish holatini ko‘rishimiz mumkin.

Yoqub to‘ram «mayli» degan ma’noda bosh irg‘adi, shu topda, «uzatganini olgan zahoting yetti yot begona ham sirdoshingga aylanadi», degan gap kechdi ko‘nglidan [9,4].

Ayni vaziyatda qahramonning pora olib, pora beruvchini umrida birinchi marta ko‘rib turgan bo‘lsa ham, «sirdosh»ga aylanganini tushunishimiz mumkin. Ular orasidagi sir esa birining pora bergani va birining pora olgani.

«Nevarasi, yuki og‘irgina ekan», deb taxmin qildi o‘zicha Yoqub to‘ram. Zum o‘tmay taxmini isbot topdi - bolakay o‘n-o‘n besh qadam yurmay qo‘li toldi, qutini oyog‘i ostiga qo‘yib, nafas rostladi [9, 4].

Mansur yana siqildi: «Nega bunday qilding, Nazira? Axir, otam biladi, qon yig‘lasayam kechirdi, degan eding-ku! Yoki bola tug‘ilgach, keyin es-hushingdan ayrildingmi? Tug‘ib, uylaringda bemalol yashayversang ham bo‘lardi-ku! Sizlar bilan kimniyam ishi bor edi? Odamlar bir-ikki gapirishi mumkindir, bir umrga vaysab yurishmaydi-ku!» [7, 3]

«Bekor qildim aytib», o‘yladi Mansur. Keyin, «to‘g‘ri qildim», dedi [7.3].

«Asosiysi kayfiyatni buzmaslik!» - o‘z-o‘ziga dalda berdi u [7, 3].

«Bu maxluqlar oldida past ketishim mutlaqo mumkinmas», deb o‘ziga dalda berdi [8, 25].

Berilgan misollarda qahramon qalbidagi notinchlikni sezishimiz mumkin: u goh o‘zi ni koyib qilgan ishidan qattiq afsuslanyapti. Gohida esa o‘zini ovutishga urunmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ichki nutq orqali Mansur sarosimaga tushib qolganligi ochiqlangan.

Keyin-keyin Matluba o‘sha damlarni eslaganidan «yuragim yonmay, chiribgina ketsa bo‘lmasmidi, uni yaxshi ko‘rmay o‘lib qo‘ya qolsam ming marta yaxshi edi-ya!» deydigan bo‘ldi [8, 19]. Badiiy matndan olingan navbatdagi parchada esa ichki nutq orqali ayollarga xos afsuslanganda qarg‘anish holatini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ham qahramon tushkun holatda.

«Shoshmay tur hali!» - O‘razqul go‘shtdor mushtlarini siqib, xayolan do‘q urdi va ho‘ngrab yig‘lab yuborishdan o‘zini arang tutib qoldi [4, 25].

Keltirilgan parchalarning barchasi uchun xulosa qiladigan bo‘lsak, inson miyasida fikrlash bilan birga kechadigan ichki nutq jarayoni o‘ta xursandchilik, xafagarchilik va kuchli hayajon bo‘lgan vaziyatlarda yanada faollashadi, gohida esa tashqi nutq bilan qorishib ketishi ham mumkin.

Ichki nutqda biz bevosita lingvistika va psixologiyaning yaqqol birlashganini koʻrishimiz mumkin. Chunki ichki nutqda tashqi nutqqa nisbatan insonnning ayni vaziyatdagi psixologiyasi yaqqolroq namoyon boʻladi. Inson oʻzining xis-tuygʼularini ochiq-oshkora namoyon qila oladi. Sababi, bu vaziyatda insonning ichki kechinmalarining ustidan kuladigan yoki uni muhokama qiladigan II shaxs mavjud emas. Ushbu vaziyatda soʻzlovchi va tinglovchi birlashgan holda boʻlib, aslida bitta insondan iborat boʻladi. Shunday asarlar borki, matnining asosiy qismi qahramon ichki nutqi orqali ifodalanadi. Ushbu asarlarda, asosan, inson psixologiyasi ichki nutq bilan bogʻlangan holda ochib beriladi. Bunday asarlar sirasiga Ernest Xemenguveyning «Chol va dengiz asari» misol qilishimiz mumkin. Quyida ushbu asardan parchalarni tahlil qilamiz:

Koʻpchilik odamlar toshbaqalarga berahm munosabatda boʻladilar. Axir, bu jonivorni oʻldirib, nimta-nimta qilganlaridan keyin ham, uning yuragi anchagacha urishdan toʻxtamay turadi-ku. «Ammo lekin,- deb oʻyladi chol, - yuragim yuragidan farq qilmaydi, qoʻl-oyoqlarim boʻlsa, uning panjalariga juda ham oʻxshab ketadi» [10, 10].

Keksayganda kishi yolgʻiz oʻzi kimsasiz qolmasin ekan, - deb oʻylardi u. - Ammo bu koʻrgilikdan qochib qutulib boʻlarmidi [10, 10].

«Ehtimol, men baliqchi boʻlmasligim kerak edi, — deb oʻylardi u. — Lekin xuddi shu kasb uchun tugʻilganman-ku axir…» [10, 14]

«Katta baliqni ham mehmon qilishim kerak edi aslida, — deb oʻyladi u. — Axir, u menga yoʻldosh boʻlib qoldi. Ammo men uni oʻldirishim kerak. Buning uchun esa kuch-quvvat lozim boʻladi» [10, 18]. Asarda qahramon holatidan kelib chiqib, vaziyatlarni tahlil qiladi, baliqlar bilan oʻzini taqqoslaydi. Ichki nutqini tahlil qilar ekanmiz, qahramondagi xotirjamlikni, ichki kechinmalardagi sokinlik va qarilarga xos boʻlgan donolikni koʻrishimiz mumkin.

Keyin-keyin Matluba oʻsha damlarni eslaganidan «yuragim yonmay, chiribgina ketsa boʻlmasmidi, uni yaxshi koʻrmay oʻlib qoʻya qolsam ming marta yaxshi edi-ya!» deydigan boʻldi [8, 19].

Ushbu keltirilgan parchada Matluba «u»ni yaxshi koʻrganini bemalol ayta olyapti, hatto sevgani uchun oʻzini koyiyapti ham. Tashqaridan qaraganda u shunchaki sukut saqlab, tinch turgan boʻlishi mumkin. Ammo «ichkari»da esa gʻalayon koʻtarilgan, Matluba va uning «men»ligi oʻrtasida keskin jang ketmoqda. Oʻtmishida qilgan xatolari uchun oʻziga tanbeh bermoqda, afsus qilmoqda. Aynan mana shu «men» bilan suhbat bizning ichki nutqimizga misol boʻladi. Bu holatda xohlasak, «men»ni koyiymiz, xohlasak qilgan yaxshi ishlarimiz uchun uni maqtab koʻkka koʻtaramiz, xohlasak, u bilan hech kimga aytilmaydigan rejalarimizni muhokama qilamiz. Bu jarayon har daqiqa yoki har soniyada boʻlishi mumkin.

Tepada keltirilgan misollardanm yana shuni koʻrishimiz mumkinki, badiiy matnlarda qahramonlar ichki nutqlari orqali oʻzlari va Ollohga murojaat qiladilar. Shu oʻrinda aytib otmoqchimiz, mumtoz adabiyotda insonning «men»ligi aslida Alloh bilan birlashishi, ya'ni qalbida aslida kim bor ekanligini anglashi bilan izohlanadi.Bu holat mumtoz adabiyotda «vahdat ul-vujud» ((arab. - jismoniy birlik) – abadiy yagona Allohgina bor deb hisoblovchi panteistik (qarang Panteizm) ta'limot. Bu ta'limotga koʻra, jismoniy olam, predmetlar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning nuri, shulasidir. Vahdat ul-vujud gʻoyasining namoyandalari (Ibn Arabiy, Mansur Xalloj va b.) Xudo butun borliqni yaratib turadi, deb hisoblaganlar. Vahdat ul-vujud gʻoyasi ayniqsa 17-19-asrlarda Hindiston va Turkistonda tasavvufning keng tarqalishiga sabab boʻldi) atamasi ostida keladi. Asosan, ichki nutq orqali qahramonlar nimadandir afsuslansa, aziyat cheksa, shikoyat qilsa yoki shukronalik keltirsa ushbu nutqning tinglovchisi yolgʻiz Alloh ekanligi koʻrinib turadi:

Umida oʻzi bilan oʻzi gaplashib borar ekan, «har tugul, bolamning joni sogʻ ekan-ku», - deb shukr qildi.

Berilgan jumlada Allohga murojaat koʻrinib turibdi. Qahramon farzandining tirik qolganligi uchun Allohga shukrona keltirmoqda. Alloh esa bevosita uning qalbida, yuragida. Berilgan fikrlardamn koʻrinib turibdiki, tasavvuf ta'limotidan kelib chiqib tilshunoslik sohasining asosini ham Alloh bilan bogʻlashimiz mumkin. Shu oʻrinda ichki nutqimizda ham Allohning boʻlishi bizning qon-qonimizga singib ketganligini aytib oʻtishimiz joizdir. Tasavvufiy olim Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganidek, inson koʻrinishidan hech narsa demasa ham, ichidan hamisha gapiradi. Biz koʻringanga hukm qilamiz, sirlarni esa Alloh biladi.

Xullas, ichki nutq shunchaki, insonning «oʻziga gapirish» holati emas, balki bizning aslida kim ekanligimizni ochib beruvchi muhim elementlardan biridir. Ichki nutqni oʻrganish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki ichki kechinmalar ichki nutqda muhim oʻrin tutadi. Bunda qahramonlar, vaziyatga boʻlgan asl munosabatini bildiradi, ammo eng maqbulinigina tashqi nutqqa chiqaradi.

Adabiyotlar

1. Alderson-Day B., Fernyhough C. (2015a). Inner speech: development, cognitive functions, phenomenology, and neurobiology. Psychol. Bull. 141, 931–965.

2. Alderson-Day B., Fernyhough C. (2015b). Relations among questionnaire and experience sampling measures of inner speech: a smartphone app study. Front. Psychol.

3. Al-Namlah A. S., Fernyhough C., Meins E. (2006). Sociocultural influences on the development of verbal mediation: private speech and phonological recoding in Saudi Arabian and British samples. Dev. Psychol.
4. Aytmatov Ch. Oq kema. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 164.
5. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 677.
6. https://uz.wikipedia. Saytidan.
7. Namozov A. Vijdon so‘rog‘i. – Toshkent, 2016.
8. Malik T. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 544 b.
9. Do‘stmuhammad X. Yoqub izquvarning hiylasi. – Toshkent, 2017.
10. Xeminguey E. Chol va dengiz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 1986. – 448 b.
11. Xolmirzayev Sh. Ot egasi. – Toshkent, 2013.

MATNDA AYOL SHAXSINING PRAGMATIK BELGILARI

Mahbuba Ikromovna TOSHPO‘LATOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali katta o‘qituvchisi

Ushbu maqolada badiiy matnda ayol shaxsining voqelanishi, uning pragmatik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Matndagi ayol shaxsining ifodalanishi va uning kommunikativ kontekstdagi o‘rni muhokama qilinadi. Ayol obrazining madaniy va ijtimoiy omillarga bog‘liq holda qanday ko‘rsatilishi, til va uslubda qanday belgilar orqali ifodalanganligi, shuningdek, ayol shaxsining dinamikasi va rolini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Pragmatika, pragmalingvistika, nutq adresati, matn lingvistikasi, shaxs omili, ayol shaxsi, ayol obrazi.*

Bugungi kunda «Pragmatika» - «Pragmalingvistika» nomli yangi soha sifatida rivojlanib, o‘rganilmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning 70-yillarida shakllandi. Bugunga kelib pragmatika tilshunoslikning muhim sohalaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Pragmatikada nutq adresati, o‘zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog‘liq holda ham ko‘plab masalalar o‘rganiladi. Pragmatika bu muzokaraga qaraydi va odamlar bir-birlari bilan muloqot qilganda nimani anglatishini tushunishga intiladi. Pragmatikada odatda kontekstual ma’noga

ahamiyat beriladi, bu yerda berilgan kontekstning har qanday boshqa ma’nosi so‘zlovchi hamda biror narsani aytmoqchi bo‘lgan yozuvchiga ham tegishli. Shu sababli, pragmatika sohasi so‘zlovchining yetkazib bermoqchi bo‘lgan ma’nosini tushunishga yordam beradi. Ular ko‘pincha iboralar sifatida ifodalanadi, ular ma’noni real talaffuz qilish, so‘zning qo‘llanilishi, tuzilishi va suhbatlar muhiti orqali ma’lumot beruvchi sifatida o‘z hissani qo‘shadi. Professor Sh.Safarov «pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganiladi» [1] deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subyekti, nutq obekti, nutq vaziyati bilan bog‘liq xususiy masalalarini belgilab beradi.

Tilshunoslikning matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik va boshqa yo‘nalishlarida inson omili tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Matn va undagi shaxs omilini chuqurroq o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, pragmatik tilshunoslik, tilning ijtimoiy va kontekstual jihatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bu nazariya yordamida, matnlardagi shaxslar va ularning harakatlari orasidagi aloqalarni chuqurroq tushunish mumkin.

Ayol shaxsining pragmatik belgilarini tahlil qilish, uning ijtimoiy roli, kelib chiqishi va tajribasi kabi jihatlarni yoritish uchun muhimdir. Dunyo, xususan, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi o‘ziga xos talqiniga ega. Ushbu maqolada ayol shaxsining pragmatik belgilari haqida fikr yuritamiz. Matnda ayol shaxsini o‘rganish, uning pragmatik belgilarini aniqlash va tahlil qilish, zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim yo‘nalishlardan biridir. Ayol obrazining ifodalanishi asosan uning madaniyatdagi o‘rni, tarixi va ijtimoiy ahvoliga bog‘liq. Ayol shaxsining pragmatik belgilarini aniqlash orqali matnning ma'no qatlamlarini ochish va shaxsiyatini o‘rganish mumkin.

Tadqiqotchi F.Umarova ingliz va o‘zbek adabiyotidagi asarlar misolida ayol shaxsi, ya’ni ona obrazini qiyoslaydi, ona obrazi haqida so‘z yuritar ekan, «ayolning vazifasi nafaqat oila, uy yumushlari bilan chegaralanib qolish, balki ayol jamiyatning bir bo‘lagi sifatida ham tasvirlanish holatlari kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunda ayolning jamiyat bilan aloqasi kuchayib bormoqda va bu badiiy asarda o‘z aksini topmoqda», - deya ta’kidlaydi [2]. Ulug‘bek Hamdam asarlarida ona lisoniy shaxsi o‘zbek millati onalariga xos bo‘lgan qiyofalarda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ona lisoniy shaxsini gavdalantirishda o‘zbek onalariga xos bo‘lgan mehribonlik, kuyunchaklik xislatlarini aks ettiradigan leksik birliklardan foydalanadi. Farzandi uchun har ishga qodir va tayyor onalar obrazi xilma-xil ranglarda ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi [3].

Ayol shaxsining pragmatik belgilarini tushunish uchun avvalo uning ijtimoiy kontekstda qanday o‘ringa ega ekanligini aniqlash zarur. Har bir

madaniyat va jamiyatda ayolning roli farqlanadi. Masalan, ba’zi jamiyatlarda ayollar an’anaviy ravishda oilaning muhofazachisi sifatida qaraladi, boshqalarida esa ularni faol rolda ko‘rish mumkin. Bu rollar, ular bilan bog‘liq pragmatik belgilarni hosil qiladi.

Ayol shaxsining nutqida pragmatik belgilar ko‘plab kommunikativ usullar orqali namoyon bo‘ladi. Ularning nutqidagi qismlarni, ohang va intonatsiyani tahlil qilish orqali, ularning niyatlari, tuyg‘ulari va ijtimoiy pozitsiyalari haqida ma’lumot olish mumkin. Misol uchun, ayol qachonki mehr-muhabbat yoki e’tibor ko‘rsatishga harakat qilsa, u buni yumshoq va tasalli beruvchi so‘zlar yordamida ifodalaydi.

Ayol shaxsining emotsional holati ham pragmatik belgilarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Emotsiyalar, muloqotda muayyan maqsadlar va niyatlarni belgilaydi. Ayollarning nutqidagi emotsional belgilarning tahlili, ularning his-tuyg‘ulari va jamiyatdagi o‘rni haqida ko‘proq ma’lumotni anglatadi. Masalan, o‘zini himoya qilish yoki ta’sir ko‘rsatish istagi ko‘pincha kuchli emotsional ifodalar bilan birga bo‘ladi. Shuningdek, ayol shaxsining pragmatik belgilarini o‘rganishda, uning yashab turgan jamiyatining madaniy yondashuvlari ham e’tiborga olinishi zarur. Ma’lum bir madaniyatda ayollar qanday noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi yoki ijtimoiy jihatdan qanday munosabatlar o‘rnatishi mumkinligi isbotlangan. Bu, o‘z navbatida, ularning pragmatik belgilarini belgilaydi.

Ayollar o‘zlarini ifoda etish usullari ham pragmatik tizimga kiradi. Ularning fikrlash tarzlari, hissiyot va qarorlarni qanday ifoda etishlari ularning ijtimoiy pozitsiyasini ko‘rsatadi. Misol uchun, o‘zining fikrini ochiq yoki yumshoq tarzda ifodalagan ayollarning pragmatik belgilarida farqlar ko‘rish mumkin.

Matnda ayol shaxsining pragmatik belgilarini tahlil qilish, ularning ijtimoiy muhitda qanday harakat qilayotganini va o‘zlarini qanday ifoda etayotganini tushunishga yordam beradi. Ayollar turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda turli pragmatik belgilarni namoyon etadilar, bu esa dunyoqarashlarining, hissiyotlarining va tajribalarining ko‘pligini anglatadi. Pragmatik tahlil usullari yordamida ayol shaxsining ijtimoiy kontekstga qanday moslashuvi va uning o‘zini tutish uslubi o‘rganiladi.

Shunday qilib, matnda ayol shaxsining pragmatik belgilarini o‘rganish, faqatgina shaxsiy xislatlarini ko‘rsatibgina qolmay, balki jamiyat va madaniyat kontekstidagi o‘rnini ham aniqlashga yordam beradi. Maqolada keltirilgan tahlillar, ayol shaxsining murakkab va ko‘p qirrali tabiati haqida chuqur anglash hosil qilishga imkon beradi va bu masalani yanada kengroq kontekstda o‘rganishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.69-70-6.

2. Umarova F. B. Ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri //O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 3 (44). — B.155–166.

3. Umurzoqova M.E. Ona lisoniy shaxsining sotsiopragmatik xususiyatlari International Scientific-Methodological Electronic Journal «Foreign Languages in Uzbekistan», 2024, vol. 10, No 3, pp. 53-64 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)

4. Toshpo‘latova M.I. Antroposentrik lingvistikada shaxs fenomeni hodisasi. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 yil № 3). // 370-374- betlar, 2024-yil.

IV SHO‘BA. O‘ZBEK LUG‘ATSHUNOSLIGINING ISTIQBOLDAGI MUAMMOLARI

METAFORALARNING ANTROPOTSENTRIK LUG‘ATINI TUZISH TAMOYILLARI XUSUSIDA

Durdona XUDOYBERGANOVA,
filologiya fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Ushbu maqolada o‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘atini tuzishning ahamiyati va bunday lug‘atni tuzish tamoyillari haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *antropotsentrik lug‘at, metaforaning leksikografik talqini, konseptual metafora, metaforik model, lingvomadaniy birlik, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik.*

Insonning o‘zligini namoyon etuvchi vositalardan biri ramzlardir. Ramzlarning san‘atda, badiiy asarlarda qo‘llanishi haqida ko‘p mulohazalar bildirilgan. Ibtidoiy inson tafakkuri dastlab obrazli-metaforik tarzdagi tafakkur bo‘lgani, uning intellektual darajasi yuqorilab borgan sari bu tafakkur tarzi ramziy tus olgani fanda isbotlangan. Inson tafakkuriga xos bo‘lgan ramziylik uning tilida ham o‘z aksini topadi. Inson o‘zligini turli san‘at asarlarida – haykallarda, suratlarda, badiiy obrazlarda namoyon qilishi bilan birga o‘z ona tilida ham o‘zining inson sifatidagi belgilarini ramziy xususiyatga ega bo‘lgan metaforalar vositasida ifodalab kelgan. Tilimizdagi odamga nisbatan qo‘llanuvchi *tilla, farishta, gul, pari, chinor* kabi metaforik ma‘noli so‘zlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ular insonning «so‘z orqali chizilgan suratlari» ekanini tasavvur qilishimiz mumkin. Inson nafaqat metaforalar, balki iboralar, maqollar, topishmoqlar, epitetlar, tasviriy ifodalar vositasida ham o‘zini tavsiflaydi. Tilimizda inson haqidagi bu kabi barqaror birliklar benihoya ko‘p. Ularda o‘zbek tili sohiblarining surati va siyrati shu qadar rang-barang tasvirlanganki, pirovardida «olam ichidagi olam» – odamning lisoniy manzarasi namoyon bo‘ladi. Fikrimizcha, inson haqidagi mana shunday o‘ziga xos lisoniy birliklarni maxsus tadqiq qilish, antropotsentrik tadqiqotlardan esa *odamning lisoniy manzarasi* termini joy olishi lozim.

Insonga xos kreativ tafakkur hosilasi bo‘lgan metaforalarning nafaqat nutq bezagi, balki insonning obrazli tafakkuriga xos mental jarayonlardan biri ekanligi [1] umumtilshunoslikda e‘tirof etilgan. Metaforalar til sohiblarining milliy tafakkuri va aksiologik nuqtayi nazarini namoyon etuvchi birlik ham

hisoblanadi. Shuningdek, metaforik ko‘chim asosida yangi ma‘no kasb etgan so‘z adresantning hissiy-subyektiv munosabatini aks ettirishi, tinglovchining esa his-tuyg‘ulariga ta‘sir etib, muayyan assotsiatsiyalarni hosil qilishi mumkin. Binobarin, u pragmatik va psixologik belgilarni ham namoyon etadi. Metaforalarning yuqorida qayd etilgan kognitiv, psixologik, assotsiativ, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari uning antropotsentrik mohiyatidan dalolat beradi.

Aytish joizki, jahon tilshunosligida metaforalarga bag‘ishlangan nazariy-tahliliy ishlarning miqdori juda ko‘p.[Qarang:2] Mazkur tadqiqotlarning aksariyatida metaforalarga semantik, stilistik, pragmatik, lingvomadaniy va kognitiv aspektlarda yondashilgan. Keyingi davrda o‘zbek tilshunosligida ham metaforalar ancha batafsil o‘rganilganini ta’kidlash joiz. [Qarang:2] Xususan, ushbu hodisaning kognitiv yondashuvda o‘rganilishi [2] o‘zbek tilining ifodaviyligini ko‘rsatuvchi mazkur birliklarning antropotsentrik tabiatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi vaqtda milliy tilshunosligimizda metaforashunoslik yo‘nalishidagi dolzarb muammolardan biri metaforalarning antropotsentrik lug‘atini yaratishdir. Bunday lug‘atni yaratishning ahamiyati shundaki, birinchidan, lug‘atning so‘zligi o‘zbek tili turg‘un metaforalarining bir yerga jamlanishiga xizmat qiladi. Metaforalarning antropotsentrik tavsifi esa o‘zbek tili sohiblarining voqelikni idrok etish tarzi – kognitiv faoliyati, aksiologik munosabati va ushbu munosabatning lisoniy shakllarda ifodalanish yo‘llari, ya‘ni olamning lisoniy manzarasini yaratish usullari xususida muayyan xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Shu maqsadda O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan «O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘ati» ni tuzish ishlari boshlandi. Mazkur maqolada ushbu lug‘atni tuzish tamoyillari haqida ma‘lumot berishga harakat qilamiz.

Lug‘atning so‘zligi metaforik ma‘noda qo‘llanuvchi, ushbu ma‘nosi turg‘unlashgan so‘z va birikmalardan iborat bo‘lib, 6 jildli O‘TIL [4] dan va badiiy asarlar, matbuot nashrlaridan to‘planadi. So‘zlik qismi 3 ta guruhga ajratilgan:

1.Odam haqidagi metaforalar. Ushbu guruhga odam va uning belgilari, xatti-harakatlari haqidagi metaforalar kiradi. Masalan, ko‘chma ma‘noda qo‘llangan *bo‘ri, lochin, gul, oy, asal, sayramoq, uchmoq* kabi so‘zlar.

2. Tabiat haqidagi metaforalar.Ushbu guruhga tabiat hodisalari, tabiiy jarayonlar, tabiiy obyektlar haqidagi metaforalar kiradi. Masalan, ko‘chma ma‘noda qo‘llangan *gilam, injiq, yig‘lamoq, o‘kirmoq, shivirlamoq* kabi so‘zlar.

3. Ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq metaforalar. Ushbu guruhga ijtimoiy hodisalar va tushunchalar haqidagi metaforalar kiradi. Masalan,

ko‘chma ma‘noda qo‘llangan *ildiz, gavhar, ostona, kitob, kurash, falaj qilmoq* kabi so‘zlar.

4.Narsa-buyumlar haqidagi metaforalar. Masalan, ko‘chma ma’noda qo‘llangan *samo lochini, po‘lat ot, zangori olov* kabi birikmalar.

Lug‘at maqolalarini quyidagi tarzda tuzish rejalashtirildi:

1.Izohlanuvchi so‘z. 2.Uning metaforik ma‘nosi izohi.3.Shu ma‘noni izohlovchi illyustrativ misol. 4.Metaforik ma‘noli so‘zning antropotsentrik izohi.

1-3-qismlarning tuzilishi an‘anaviy izohli lug‘atlarning tuzilishi bilan bir xil. Faqat so‘zga berilgan izohda uning ko‘chma ma‘nosi nazarda tutiladi. 4-qism esa antropotsentrik izohni o‘z ichiga oladi va bunda biz quyidagi tamoyillar, yondashuvlarga asoslanishni ma‘qul deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytilganidek, metafora birinchi navbatda tafakkur birligi, dunyoni anglash vositasidir. Kognitiv tilshunoslikdagi nazariyalarga ko‘ra, ikki tushunchaviy maydonning kesishuvi natijasida uchinchi yangi maydon – konseptual metafora hosil bo‘ladi. Mental shakldagi ushbu birlik lisonga lingvistik metafora sifatida ko‘chib o‘tadi. Lingvistik metaforaning hosil bo‘lish jarayoni tilshunoslar tomonidan ko‘pincha *kognitiv aysberg* birikmasi bilan ifodalanadi. Bunda aysbergning yuza qismi – lingvistik metafora, uning ko‘rinmaydigan qismi esa ongdagi mental jarayonlar – kognitiv va konseptual metaforalarning yuzaga kelish mexanizmlaridir. Shu boisdan antropotsentrik izohda birinchi navbatda ko‘chma ma‘noli so‘zning metaforik modeli ko‘rsatilishi lozim. Metaforik model – bu til sohiblari ongida mavjud bo‘lgan yoki shakllanadigan konseptual sohalar o‘rtasidagi aloqa sxemasi bo‘lib, uni ma‘um bir formula bilan ifodalash mumkin: «X –Y».[3] Metaforik modellar til sohiblari kognitiv faoliyatining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi omildir. Masalan, bo‘lar-bo‘lmas gaplarni gapiradigan odamga nisbatan ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi *akillamoq* so‘zi «Odam-hayvon» modelidagi metafora hisoblanadi. Itga xos harakatni ifodalovchi *akillamoq* so‘zining odamning nutqiy harakatiga nisbatan qo‘llanishiga «Odam – bu it» tarzidagi konseptual metafora asos bo‘lgan, ya‘ni til sohibining fikrlash jarayonida odamning harakati itning harakatiga qiyoslangan. *Akillamoq* predikati ushbu qiyosning ifodachisi vazifasini bajargan. Demak, metaforalar izohida kognitiv yondashuv muayyyan ahamiyatga ega.

Metaforalarning antropotsentrik izohida lingvomadaniy yondashuv ham, shubhasiz, muhim o‘rin tutadi. Ma‘lumki, so‘zlarning metaforik ma‘nosida har doim etnomadaniy uzvlar ham mavjud bo‘ladi. Bu mazkur birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tavsiflashni ham taqozo etadi. Biz lingvomadaniy tavsifda lisoniy birlikning o‘zbek tili sohiblarining konseptosferasida tutgan o‘rnini, lingvomadaniy konsept sifatidagi vazifasini, uning aksiologik jihatlarini, ya‘ni qadriyatlarga munosabatini yoritishni

rejalashtirdik. Shuningdek, lug‘atga tavsiflanayotgan so‘z (so‘z birikmasi) qatnashgan barqaror birliklarni ham lisoniy dalil sifatida kiritishni lozim deb topdik.

Metaforalar til sohiblari ongida turg‘unlashgan tasavvurlarni paydo qiladi. Masalan, odamga nisbat berilayotgan yuqoridagi *akillamoq* so‘zi tinglovchiga *it* so‘zini eslatadi. *It* so‘zi o‘zbek tili sohiblari tasavvurini ham ijobiy (*It-vafo, xotin-jafo, itday sodiq*) ham salbiy (*itning keyingi oyog‘i, it emgan)* turg‘unlashgan tasavvurlar (stereotiplar) bilan bilan bog‘laydi. Ushbu metaforada til sohiblarining salbiy aksiologik munosabati aktuallashgan. Bunday munosabat o‘zbek tilidagi *Bo‘ynidan bog‘langan it ovga yaramas, itday quturmoq, itday qopmoq, it yotish, mirza turish* kabi lingvomadaniy birliklarda ham o‘z aksini topgan.Shu tufayli metaforalar talqinida psixolik va assotsiativ yondashuv ham amal qilishi lozim.

Har qanday metaforaning hosil bo‘lishi muayyan pragmatik maqsadga bog‘lanadi. Metaforalar o‘z semantikasida subyektiv munosabat bilan birga emotsional-ekspressivlikni ham namoyon qiladi. Xususan, bu obrazli metaforalarda yaqqol ko‘rinadi. Ayni vaqtda vazifaviy uslublarga xoslanish metaforalarga ham xosdir. (Masalan, *akillamoq* metaforasi asosan so‘zlashuv tilida qo‘llanib, so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabatni ifodalashdan iborat pragmatik maqsadga xizmat qiladi.) Shunga ko‘ra, lug‘atda metaforalarning pragmastilistik xususiyatlarini ham izohlash lozim deb topildi.

Biz quyida yuqoridagi tamoyillar asosida izohlangan ayrim metaforalarining izohini e‘tiboringizga havola qilamiz.

ILDIZ Asos, negiz, manba. *Tariximizning buyukligidan – ma‘naviyatimiz ildizi baquvvat ekanligidan darak beruvchi moddiy va nomoddiy yodgorliklarimizni yo‘q qilishga tushdilar.* Gazetadan. *Xalqimiz ma‘naviyatining tarixiy ildizlari zaminimizda yaratilgan qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar va dostonlarga, ya‘ni xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi.* »Oyina.uz.»

«Muayyan ijtimoiy-ma‘naviy hodisaning asosi, negizi» tushunchasini «daraxt ildizi» tushunchasi bilan qiyoslash natijasida yuzaga kelgan, ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq metafora. Til sohiblari kognitiv faoliyatida hosil bo‘lgan *ma‘naviyat bu – daraxt* konseptual metaforasi bir-biridan uzoq bo‘lgan ikki tushunchani o‘zaro o‘xshatish uchun kognitiv asos bo‘lgan. »Ma‘naviyat negizi» tushunchasining *ildiz* so‘zi vositasida ifodalanishiga daraxtning gurkurab o‘sishida uning ildizi nechog‘li katta ahamiyatga ega bo‘lishi haqidagi hayotiy tajriba va bilimlar (*Daraxtning ildizi qancha chuqur va baquvvat bo‘lsa, u shunchalik gurkurab o‘sadi*) asos bo‘lgan. Mazkur mental jarayonning mahsuli sifatida *ildiz* so‘zining «asos, negiz, manba»ni ifodalovchi yangi ma‘nosi hosil bo‘lgan. *Ildiz* metaforasi fitomorf lingvomadaniy kod hisoblanadi. Ushbu so‘zning o‘zbek lingvomadaniyatida asos, negiz

tushunchalari bilan bog‘lanishi *ildiz otmoq, ildizi baquvvat, ildiziga bolta urmoq, ildizini quritmoq* iboralarida ham o‘z aksini topgan. *Ildiz* metaforasi asosan publitsistik uslubdagi matnlarda obrazlilikni hosil qilish maqsadida qo‘llanadi.

SHOM Inson umrining oxirgi vaqti, keksalik davri. *U kimnidir ermak qildimi – demak, u bechoraning umr shomi yaqinlashibdi.* T. Malik, Ov. *Ketguvchi chog‘imizda, kim kuyar dog‘imizda. Umr shomi ko‘rinmay, tugab borayotirmiz*. Gazetadan.

O‘zbek lingvomadaniyatida ijobiy narsa va hodisalar, ko‘p xalqlarda bo‘lgani kabi, yorug‘lik bilan, salbiy narsa va hodisalar esa qorong‘ilik, zulmat bilan aloqalantiriladi. Jumladan, kuch-quvvatga to‘la yoshlik davri inson uchun – yorug‘ kun, darmonsiz keksalik davri esa kunning zulmatga – umr nihoyasiga yaqinlashib borayotgan nimqorong‘i vaqti, ya‘ni shomdir. Ma‘lumki, shomdan keyin xufton boshlanadi – atrofni qorong‘ilik qoplaydi. Mazkur muqoyasa o‘zbek tili sohiblari ongida *keksalik bu – nimqorong‘i (qorong‘ilikka yaqinlashayotgan) vaqt* tarzidagi konseptual metaforani hosil qilgan. *Shom* so‘zi mazkur metaforaning verbal ifodachisi tarzida voqelangan. *Shom* so‘zi vaqt lingvomadaniy kodi hisoblanib, *yorug‘lik* va *zulmat* so‘zlarining ramziy ma‘nosini bilmasdan turib ushbu metaforaning ma‘nosini tushunish mumkin emas. Quyidagi xalq maqollarida ham yoshlik va keksalik yorug‘lik va qorong‘ilik sifatida tasavvur qilingani kuzatiladi: *Yigitlik – bir guliston, Qarilik – bir zimiston; Qarilik davri qishday – Yoshlik davri – yozday. Shom* metaforasi bog‘li metafora sifatida har doim *umr, hayot* so‘zlarining yonma-yon qo‘llanishini taqozo etadi va asosan badiiy uslubda qo‘llanib, obrazlilikni yuzaga keltiradi.

IT Yaramas, yomon odam. *Xalq tovushi tinimsiz guvullaydi: Bu yoqqa chiq, itlar!* Oybek, Qutlug‘ qon.

It metaforasi o‘zbek tili sohiblari tasavvurida ham salbiy, ham ijobiy etnomadaniy stereotiplarni hosil qiladi. Bir tomondan, it – insonning hamrohi, uyining vafodor qo‘riqchisi. Ikinchi tomondan esa, it – vaqti kelganida o‘z egasini ham tanimaydigan, yaxshilikni bilmaydigan hayvon. *It* metaforasining hosil bo‘lishiga mana shu ikkinchi tasavvur – «odam bu – it» metaforik modeli asos bo‘lgan. Mazkur metafora *odam* konseptining nominativ maydoniga kiradi va uning baholovchi uzvi hisoblanadi. O‘zbek lingvomadaniyatida itni salbiy jihatdan tavsiflovchi barqaror birliklarda *it* so‘zi majoziy ma‘noda qo‘llangan bo‘lib, muayyan salbiy sifatga ega bo‘lgan odamga ishora qiladi: *It itligini etar,To‘n etagini yirtar;It oyga qarab hurar; It otasini tanimas; It og‘zidan suyak olib bo‘lmas; It sarqitini yo‘lbars yemas; It hurar, karvon o‘tar: Itning irrilagani – salomlashgani; Itdan yorug‘lik chiqmas, Bitdan – chorig‘lik* kabi. *Itday qopmoq, itday sanqimoq, itdek xor bo‘lmoq, itday quturmoq* o‘xshatish qurilmalari ham odamga nisbat berilgan bo‘lib, mazmunidan salbiy

munosabat anglashiladi. *It –vafo, xotin – jafo, itday sodiq* barqaror birliklarida esa itning ijobiy tomoni, ya‘ni vafodor hayvon ekanligi ifodalangan. *It* metaforasi badiiy va so‘zlashuv uslublarida til sohiblarining salbiy munosabatini ekspressiv tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. – М.: Едиториал УРСС, 2004.

2. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий-лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Қарши, 2018; Shu muallif. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол.фан.д-ри дис. – Қарши, 2020.

3. Чудинов А.П. Политическая лингвистика. – М.: Флинта, Наука, 2012./ https://studfile.net/preview/9107652/. Murojaat sanasi: 2024-yil 20-may.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. I-VI jildlar. – A.Madvaliyev, D.Xudoyberganova tahriri ostida. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022.

ETNOGRAFIK IZOHLI LUG`AT UCHUN LEKSIKOGRAFIK BIRLIK TANLASH MUAMMOSI

Nurali Rashidovich AMONTURDIYEV,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ushbu maqolada etnografik qomus uchun leksikografik birlik, ya’ni bosh so‘z (so‘zlik) tanlashda yuzaga keladigan muammolardan biri – murakkab birikmali etnografizmlarning lug‘atlarda berish haqida fikr yuritiladi. So‘z birikmasi va gap shaklli etnografizmlarning leksik birlik sifatidagi struktur, semantik-funksional xususiyatlari, grammatik shakllanishi va etnografik qomus uchun bosh so‘z qilib berishda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan jihatlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *etnografik birlik, quda chaqirdi, murakkab tarkibli etnografizmlar, tovoq qo‘ymoq*.

Jahon xalqlari, xususan, Sharq leksikografiyasi tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Hindlar va arablarda lug‘at tuzish an’anasi ancha avval shakllangan

hamda ilmiy va nazariy jihatdan rivojlanib, takomillashib kelgan. Lug‘atlarda leksemalarning berilishi, til birligining tuzilishi va tartibi ma’lum qonun-qoidalar asosida joylashtirilgan. Bu esa keyinchalik lug‘atchilikda aniq leksikografik tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan, lug‘atlarda leksemalar qat’iy tartibda joylashtirilgan va izohlangan. Bizgacha yetib kelgan qadimiy lug‘atlar zamonaviy lug‘atlardan so‘zlikning berilishi, joylashuv tartibi, izohining farqliligi bilan ajralib turadi.

Etnografizmlar leksik birlik sifatida tilda muhim o‘rin egallaydi va til qurilishining lug‘at sathini tashkil etadi. Lug‘at sathidagi etnografizmlarni o‘rganuvchi soha «Etnolingvistika» deb yuritiladi. Unda etnografizmlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, ular bilan bog‘liq holda yuz bergan o‘zgarishlar o‘rganiladi [9, 13].

Har qanday lingvistik yoki ensklopedik lug‘atlar 2 qismdan tashkil topadi:

1) so‘zlik, ya’ni bosh so‘z;

2) lug‘at maqolasi.

Lug‘aviy birlik deganda, odatda, lug‘atga kiritilgan va lug‘at maqolasi tuziladigan so‘z (bosh so‘z) tushuniladi [4, 10]. Demak, ma’no jihatdan bir leksemaga teng keladigan, nominativ xususiyatga ega til birliklari lug‘aviy birlik hisoblanadi. Qo‘shma so‘z, takroriy so‘zlar, juft so‘z, tasviriy ifoda, ibora (frazeologik birikma), birikmali so‘zlar ma’no jihatidan bir leksemaga teng. Shu bois ham ushbu til birliklari lug‘aviy birlik sifatida lug‘atlashtiriladi. Lug‘at so‘zligidan o‘rin olgan har bir so‘z (leksema) **bosh so‘z** deyiladi [4; 10].

Etnografik leksikani o‘rganuvchi olimlar oldida turgan asosiy muammolardan biri etnografik lug‘atlar tuzish jarayonida **bosh so‘z** (so‘zlik, lemma, sarlavha so‘z, qora so‘z) tanlash muammosidir. Etnografizmlarning ichki tuzilishi va ularning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabat, semantik-funksional xususiyatlar etnografik qomus uchun so‘zlik (bosh so‘z) tanlashda ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi etnoleksemalarning etnolingvistik tadqiqi etnografik lug‘atlarga bosh so‘z tanlashda zamonaviy o‘zbek lug‘atchiligida yaratilgan qonun-qoidalarni, xususan, bosh so‘zlarning berilish shakllarini istisno qiluvchi holatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bois etnomadaniy qomusda bosh so‘z (vokabula) tanlashda etnoleksemalarning quyidagi xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim:

1) etnoleksemalarning struktur jihati;

2) etnografizmlarning grammatik shakllanishi va ularning lug‘atlarda qay shaklda berilishi;

3) etnoleksemalarning qo‘llanish doirasi;

4) ayrim turdagi etnoleksemalarning imloviy xususiyatlari.

O‘zbek tilshunosligida yaratilgan lug‘atlarning obyekti, asosan, bir asosli leksemalar hisoblanadi (frazeologik birliklar bundan mustasno). Surxon

vohasi etnografik leksikasini o‘rganish jarayonida etnoleksemalarning struktur jihatdan **so‘z, so‘z birikmasi va gap** shaklidagi ko‘rinishlarini uchratish mumkin. N.Mirzayev va Y.Bobojonovlar o‘z tadqiqotlarida bu borada to‘xtalib o‘tadi. Xususan, Y.Bobojonov umumturkiy etnografik leksik qatlamni Xorazm shevalari misolida quyidagi guruhlarga ajratadi: «Xorazm shevalaridagi etnografik leksika qatlamlaridan umumturkiy qatlami haqida gap ketar ekan, bu qatlamni uch guruhga ajratib tahlil qilish o‘rinlidir. Ular, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1. Yaxlit so‘z shaklidagi etnografizmlar.
2. Birikma shaklidagi etnografizmlar.
3. Gap shaklidagi etnografizmlar» [1, 75].

Frazeologizm shaklidagi etnografizmlar ham bor. Bunga ***eshik ochar*** etnografizmini misol qilish mumkin, chunki bunda eshik ochish tushunchasi yaxlitligicha ko‘chma ma’no anglatadi. U orqali sovchilik udumining boshlang‘ich vaziyati atab kelinadi [9, 25].

N.Mirzayev o‘z tadqiqotida etnografik leksik qatlamning struktur jihatida to‘xtala turib, ularni uch xil: ya’ni sodda, qo‘shma va birikmali bo‘lishini ta’kidlaydi. Shuningdek, ularni tub va yasama ekanligi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bunda tadqiqotchi etnografik leksik qatlamning hosil bo‘lish usullari, yasalish yo‘llariga asosan e’tibor qaratadi. Sodda tub va sodda yasama, qo‘shma, takroriy va birikmali etnoleksemalarning tarkibiy qismlari qaysi so‘z turkumaridan tashkil topgani, ularning etimologiyasi haqida fikr yuritilgan. Ta’kidlash lozimki, etnografizmlarning shakl va mazmuniy belgilari morfemik hamda morfologik jihatdan tahlil qilingan. Ammo birikmali etnoleksemalarni etnografik qomusda bosh so‘z sifatida berishda yuzaga keladigan muammolar haqida fikr bildirilmagan.

Chilla quvdi, kampir o‘ldi qolipidagi qo‘shma so‘zlarni A.Hojiyev sintaktik-leksik usul bilan yasalgan qo‘shma so‘zlar deb ko‘rsatadi. U shunday yozadi: «birinchidan, bunday qo‘shma so‘zlar, aslida birdan ortiq so‘zning ma’lum grammatik qonun-qoida asosida aloqaga kirishuvidan hosil bo‘lgan so‘z birikmasi bo‘lgan. Bu – sintaktik moment. Ikkinchidan, shu so‘z birikmalarining ma’nosida o‘zgarish yuz berib, birikma so‘z/qo‘shma so‘z holiga kelgan. Bu – leksik moment» [10, 9].

To‘shak yig‘di, is chiqardi, qo‘shxona bermoq kabi gap shaklidagi etnoleksemalar nominativ ma’no anglatishdan tashqari ma’lum darajada predikativlik ham ifodalaydi. **Quda chaqirdi, qiz ko‘rar, choy qaytarish, non sindirish, ko‘rpa qavish, sabzi to‘g‘rash, taqimga olmoq, poyondoz olish, mol tuganlash, tovoq ko‘tardi, oyna ko‘rsatar** kabi so‘z birikmasi shaklidagi etnografizmlarda esa qismlar orasida grammatik hokim-tobelik munosabati mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning shakl va mazmun kategoriyalari munosabatlariga asoslanadi:

shakl mazmunning bo‘lishini taqozo qiladi, mazmun esa shaklsiz yuzaga kelmaydi.

Etnografik birliklar imlosida ham aniq bir orfografik tamoyil asos qilib olinmagan. Ikki jildli izohli lug‘atda etnografik tushuncha kasb etuvchi barcha til birliklari ham so‘zlik qilib sarlavhaga chiqarilmagan. Mana shunday o‘rinlarda bosh so‘zga tuzilgan lug‘at maqolasidan keyin shu leksema ishtirok etgan etnografik birikma (birikmalar)ni keltirish, ularni qisqacha izohlash usulidan foydalanilgan. Besh tomli izohli lug‘atda lug‘atga kiritilgan va ma’nolari belgilanib, izoh bilan ta’minlanuvchi ajratib yoziladigan yasama so‘z va turg‘un birikmalar ham lug‘atning so‘zligini tashkil etishi, lekin ular ma’lum prinsip asosida, bosh so‘zga tuzilgan lug‘at maqolasi ichida berilishi[10] ta’kidlab o‘tilgan. Bunda barqaror birikmalar bilan birga ajratib yoziladigan qo‘shma (qo‘shma fe’l shaklli) etnoleksemalar, so‘z birikmasi yoki gap shaklidagi etnografizmlar ham misol tariqasida olingan.

Lug‘atda etnografik ma’no ifodalovchi birikmalarni izohlashda **42 o‘rin** (lug‘atda keltirilgan etnografizmlarning **23.8 %**i)da ushbu usuldan foydalanilgan. Masalan, **mol** va **qiz** leksemalariga tuzilgan so‘zlik maqolalaridan keyin shu leksemalar ishtirok etgan **mol yoyar** va **mol yig‘ar** [2, 470]**; qiz oshi** va **qiz ko‘rar** [3, 570] birikmalari etnografizm sifatida berilgan. Besh jildli «O‘TIL»da **mol yoyar, mol yig‘ar, qiz oshi, qiz ko‘rar** birikmalari qo‘shib yozilgan va izohli lug‘atda bosh so‘z sifatida sarlavhaga chiqarilgan, lug‘at maqolasi tuzilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, izohli lug‘atlarda yuqorida keltirilgan etnografik tushuncha anglatuvchi birikmalar bilan bir xil qolipda bo‘lgan **yil oshi** [6, 267], **maslahat oshi** [6, 551], **og‘iz bog‘lar** [7, 186], **yuz ko‘rar** [8, 76] kabi birikmali etnografizmlar ajratib yozilgan. Ko‘rinadiki, etnografik birikmalarni bosh so‘z sifatida sarlavhada chiqarishda ham qat’iy prinsipga amal qilinmaydi. Xususan, etnoleksemalarning imloviy jihatdan barqaror emasligi, sohaga doir leksik qatlam tadqiqi talab darajasida ishlanmagani bu boradagi muammolarni yanada chigallashtiradi. Bu etnografik tushuncha ifodalovchi bir xil shaklli (grammatik, morfologik, sintaktik) birikmalarni izohli lug‘atlarda berishda ham har xillikni keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagi so‘z birikmasi va gap shaklidagi etnoleksemalarda hokim-tobelik hamda predikativ ma’noning mavjudligi ularni yaxlit nomema sifatida lug‘atda berilishi (ifodalanishi)ga monelik qilmaydi. Biroq bu kabi etnoleksemalarni ma’lum predmet, jarayon, hodisa nomini anglatishiga qarab yasama so‘z deb qarash zo‘rma-zo‘rakidek ko‘rinsa-da, ularni yasalmalar, aniqrog‘i etnografik nominatsiyalar tarzida qabul qilib kelmoqdamiz. Masalan, **o‘g‘ilmi, holva?**; **xirmon (chosh)ga baraka – umringizga baraka; go‘sht**

totli bo‘lsin – totganga ma’lum bo‘lsin; ziyoratlar qabul bo‘lsin – murodingiz hosil bo‘lsin; o‘rmak o‘nsin – yo‘lingiz/ishingiz o‘nsin kabi ko‘plab so‘roq, istak shaklidagi his-hayajon, tilak, istak ma’nolarini ifodalovchi etnografik hosilalar mavjudki, ma’lum etnografik jarayon nomi sifatida ularni lug‘atlashtirish, lug‘atlarda berishdagi ilmiy qarashlar mavjud leksikografik tamoyillarga mos kelavermaydi.

Etnografik lug‘atlarda bosh so‘z tanlashda asosiy mummo ham shundaki, bu kabi funksional jihatdan so‘z birikmasi va gapni ifodalovchi sintaktik birliklar bir asosli leksemalar (qo‘shma, juft, takroriy leksemalar ham nazarga tutilmoqda)ga nisbatan murakkab tushuncha hamda kommunikativ vazifa bajarishi bilan bir qatorda yaxlit holda ma’lum bir predmet, hodisa, jarayon – denatatning nomini anglatishi tilshunosligimizda shakl va mazmun o‘rtasidagi munosabat masalasini jonli nutq misolida yanada batafsilroq tahlil qilish zarurati mavjud.

Etnografik leksika tahlili mamlakatimizning chekka hududlarida funksional-semantik jihatdan tilimizning tarixiy bosqichlariga mansub leksemalar til egalari nutqida saqlanib kelayotganini ko‘rsatadi. Ushbu leksek qatlamga oid lug‘aviy birliklar mahalliy aholining leksikonida asosiy o‘rin egallaydi. Mana shu etnodialektal madaniy tushunchalarni to‘plash, tizimlashtirish va ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Адабиётлар

1. Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси: фил. фан. номзоди дисс. – Тошкент, 1997.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М.Маъруфов таҳрири остида. 2-томлик, 1-том. – М.: Рус тили, 1981. – 632 б.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / З.М.Маъруфов таҳрири остида. 2-томлик, 2-том. – М.: Рус тили, 1981. – 717 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-томлик, 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 680 б.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 671 б.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 3-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 687 б.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 5-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 591 б.

9. Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фолклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Тошкент, 2018.

10. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент, Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти, 1963.

PERSPEKTİF OLARAK ÖZBEK SÖZLÜĞÜNÜN SORUNLARI

Nilufar Abduvossiyevna RASULOVA,
filoloji bilimleri adayı, PhD,
CAMU Uluslararası Tıp Üniversitesi

Bu makalede Özbekçe sözlükbilimi ve gelişimi ile Özbekçe sözlükbiliminin günümüzdeki başarılarından bahsedilmektedir. Ayrıca Özbek sözlükbilimi çerçevesinde yapılan çalışmalara da bu makalede yer verilmiş olup, bu uygulamalı çalışmalar yazar tarafından tek tek anlatılmıştır. Bağımsızlık dönemi Özbekçe sözlük bilgisi, söz varlığı gelişiminin tüm dönemlerini bünyesinde barındırmakta ve günümüzde doğrudan topluma hizmet etmektedir.

Anahtar kelimeler: *sözlük, makale, sözlük bilimi, Özbekçe sözlükbilimi, bağımsızlık, çevrimiçi sözlük, geleneksel sözlükler.*


Hepimizin bildiği gibi dilbilimin sözlükbilimi bölümü sürekli güncellenen ve her alanda kendine yer edinen bir bölümdür, çünkü hangi alana bakarsanız bakın onunla ilgili her kelimenin sözlükte mutlaka kendine ait bir açıklaması vardır. Sözlük terimi, belirli bir edebî dilin hemen hemen tüm sözcüklerini kapsayan sözlük kümesi için kullanılmakta olup, çeşitli bilim alanlarıyla ilgili çeşitli sözlüklerin toplanması bu terim altında yansımasını bulmaktadır[5,35]. Söylemek gerekir ki her milletin kendine ait bir sözlük sistemi vardır, dolayısıyla Özbek dilinin de kendine has bir söz varlığı vardır. Özbek sözlükçülüğü, mükemmel şekline ulaşıncaya kadar birçok dönemden geçmiştir, özellikle Özbek dilinin ilk mükemmel sözlüğü Mahmud Koshgari'nin «Devoni Lugotit-Türk» adlı eseridir. yani «Türkçe kelimeler sözlüğü». Bu sözlükte Uygur, Kıpçak, Karluk ve Oğuz halklarıyla ilgili pek çok kelime bulunmaktadır. «bag`na» - merdiven, «tartin» - yiyecek bakımı, «tegrak» - çevre vb. kelimelerden oluşan bir sözlük derleyen Koshgari, bu eserinde sadece kelime hazinesi alanıyla ilgilenmemiş, aynı zamanda aynı

zamanda etimoloji, gastronomi, tarih ve benzeri bilim alanlarına da değerli katkılarda bulunmuştur.

Ayrıca Mahmud Zemahşeri'nin Arapça kelimelerle dolu «Mukaddimat ul-adab» adlı eseri ve Türkçe ve Farsça kelimelerin tercümeleri, Ebu Hayyan'ın «Kitob ul-idrok lilison ul-atrok» adlı kitabı, Alisher Navoi'nin sözlük bilimine ithaf ettiği «Sab`atu ahbur» adlı kitabı da bulunmaktadır. Özbek sözlükbiliminin gelişiminde önemli temeller

Çeşitli dönemlerden geçen Özbekçe sözlük biliminin bağımsızlıkla birlikte zirveye ulaştığını söylemek abartı olmaz. Sözlükbilimciler tarafından çok sayıda sözlük geliştirilmiştir; ayrıca sözlük derleme ilkeleri, sözlük derleme metodolojisi ve sözlükbilimsel çalışmaların belirli düzenlemeleri de sözlükbilimimizin büyük başarıları olarak kabul edilmektedir. Özellikle sözlükbilim teorisine göre sözlüklerin ansiklopedik (sözlük) ve filolojik olmak üzere iki büyük gruba ayrılması hepimiz tarafından eşit derecede bilinmektedir. Bu iki sözlük bazı yönlerden birbirlerinden farklılık göstermektedir, ansiklopedide kelimenin tanımı sözlükte veriliyorsa, filoloji sözlüğünde kelimenin anlamı vurgulanmaktadır. Bağımsızlık yıllarında oluşturulan ansiklopedilere örnek olarak «O`zbekiston qomusi», «Adabiyot qomusi», «Pedagogik qomus», «Texnik qomus» ve diğerleri verilebilir. Şimdi filoloji sözlüklerinin sınıflandırılmasından bahsedelim. Günümüzde filoloji sözlükleri bir Dilbilimciler ve edebiyatçılar için su ve hava gibi gerekli bir eğitim aracıdır, çünkü her filologun çalışmaları sırasında sözlük kullanması gerekir[1,22]. Filoloji sözlükleri belli bir konuyu kapsadığı ve her yıl güncellendiği için alfabetik olarak düzenlenir ve açıklama gerektiren kelime başlık olarak verilir. Filoloji sözlükleri tematik kapsamına göre genel ve genel olmak üzere ikiye ayrılır. özel filoloji sözlükleri [2,71]. Genel filoloji sözlükleri, konuşmacılar tarafından kullanılan tüm kelimelerin açıklamalarını sağlamaları açısından özel filoloji sözlüklerinden temel olarak farklıdır. Genel filoloji sözlükleri kapsadıkları dil sayısına göre aşağıdaki gruplara ayrılır:

Kaç dili kapsadığı kapsamına göre genel filoloji sözlüklerinin türleri (Grafik 1).



Yukarıdakilerden amaçlarına göre çeşitli tek dilli sözlük türleri vardır ve bunlar aşağıdaki tabloda gösterilmektedir:

Amaçlarına göre tek dilli sözlük türleri: Eşanlamlılar sözlüğü, eş anlamlı sözlük, morfem sözlüğü, orfoepik sözlük, yazım sözlüğü, ters sözlük

Kurtuluş yıllarında oluşturulan bu sözlükler, bağımsızlık yıllarından önce oluşturulan sözlüklerden bir miktar beslenmiş, zamanın talebine göre yeni kelimelerle zenginleştirilmiştir. Bunu, Alisher Navoi Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi öğretmeni Shahrukh Abdiraimov'un 2019 yılında oluşturduğu «Özbek Dili Evrensel Sözlüğü» elektronik programı aracılığıyla ele alacağız. Bu program, Özbek dilinin 30. yıl dönümüne ithaf edilmiştir. devlet dili statüsünde olup, Özbekçeye ait birçok sözlüğü içeren elektronik bir sözlüktür. Bir yazım sözlüğü, açıklayıcı bir sözlük, eş anlamlılar sözlüğü, eş anlamlılar sözlüğü, paronimler sözlüğü, biçimbirimler sözlüğü, kelime oluşumu sözlüğü, ifadeler sözlüğü, etimolojik sözlük, isimler içerir. Anlam sözlüğünün adım adım yerleştirilmesi planlanmaktadır. Bu program yazım ve açıklayıcı sözlük gibi bölümlere ayrılmış iki bölümden oluşmaktadır. «Özbek Dili Evrensel Sözlüğü» elektronik programındaki bir kelimenin analizine dönelim: Sözlükbilimci - (lug`at+f) - öğrenen. Sözlüklerin teorik ve pratik yönlerini, sözlük oluşturma çalışmalarını ve bunları geliştirme yollarını inceleyen kişi. Bu sözlükten alınan üniteye dikkat edersek, bir sözlük maddesi ve sözlük yani bir sözlükbilimcinin sözü ve açıklamasından oluşmaktadır. Bu elektronik programın aranmasının kolay, kullanımının tamamen ücretsiz olduğu ve çevrimdışı modda oluşturulduğu, bu da onu kullanıcılar için uygun hale getirdiği söylenmelidir. Sözlük, ek olarak kabul edilen «Özbek dilinin yazım kuralları»na ek olarak kelimeleri alfabetik sıraya göre vermektedir. Bize göre Elektronik yani uygulama şeklinde oluşturulan bu sözlüğün kitap benzeri ve elektronik görünümleri mevcut olup, bazı kelimelerin yazılışında bazı hatalar

bulunmaktadır, bu nedenle bu tür sözlükleri kullanırken, Kitap şeklinde olana atıfta bulunmak daha doğru kabul edilir. Ayrıca Otabek Şükürov ve kehanet Bahriddinova'nın okul çocukları için oluşturduğu «Özbek dilinin anlamsız kelimelerinin Eğitim Sözlüğü» de bağımsızlık dönemi sözlük bilimimizin başarıları olarak kabul ediliyor. Yazarlar tarafından bu sözlüğün oluşturulmasındaki ana kaynaklar, 1974 yılında yayınlanan Özbek dilinin açıklamalı eşanlamlılar sözlüğü(A. Hajiyev) ve «Özbek dilinin Açıklayıcı Sözlüğü» (iki volt.-M.: Russky)'dir. yazık[6,80].

Sözlükler 3 açıdan sınıflandırılır. Hacim açısından. Kelime dağarcığının verilme şekli açısından. Amaç açısından. Dil sözlükleri cilt bakımından iki türe ayrılır: 1) genel sözlükler; 2) Özel sözlükler. Bu tür sözlükler kelime dağarcığı bakımından farklılık gösterir. Genel kelime dağarcığı, tüm katmanlardaki tüm kategorilerdeki dil sözlüğünü yansıtır. Özel bir sözlük sözlüğündeki dil sözlüğü, belirli bir amaca göre sınırlandırılmış olarak temsil edilir. Genel sözlükler boyutlarına göre 3 türe ayrılır: Büyük sözlük; ortalama Sözlük; 3) küçük sözlük.

Özbek sözlükbilimcilerin görevi, utanç verici kelimelerden oluşan bir sözlük oluşturmaktır. Ayrıca «Özbek Dili Açıklamalı Sözlüğü»nün güncel sistem dilbilimi açısından da revize edilmesi ve değerlendirilmesi gerekmektedir. Bunda H.Saidova, R.Safarova, B.Saberev. Matova ve diğerlerinin bilimsel araştırmalarından yararlanmak gerekiyor.

Sonuç olarak şunu söyleyebiliriz ki, bağımsızlık dönemi Özbek sözlükçülüğü, bilimin ateşli ruhu olan sözlükçülerimizin hizmetlerinin büyük olduğu günümüz Saikali'ye gelinceye kadar bazı gelişim aşamalarından geçmiştir. Gelecekte bu sözlüklerin daha fazla yeni kelimeyle zenginleşeceğini ve ülkemizin kalkınmasına doğrudan katkı sağlayacağını söylemekte fayda var.

Edebiyatlar

1. Alisher Navoi'nin eserlerinin dilinin açıklayıcı sözlüğü. I-IV. - Taşkent: Bilim, 1983-1985. 5. Bektemirov H., Begmatov E. Bağımsızlık dönemi terimi. - Taşkent, 2002. 1. Umarov E. Eski Özbek sözlükleri. - T., 1994.
2. Mahmud Köşgary. Türk dili. I-III. Taşkent, 1960-1963.
3. Özbek dilinin açıklayıcı sözlüğü. İki Cilt: 1-t (Moskova: «Rus dili», 1981. 631 b.), 2-t (Moskova: «Rus dili», 1981. – B. 715.).
4. Özbek dilinin açıklayıcı sözlüğü. 5 cilt. I. T. (T.: Devlet Bilimsel Yayınevi «Özbekistan Ulusal Ansiklopedisi», 2006. – S. 680.), II t. (2006-Baskı. -672 b.), III t. (2006-Baskı. – B. 688.), IV t. (2008 – Baskı. – B. 608.), V t. (2008-Baskı. – B. 592.).
5. Özbek dilinin açıklayıcı sözlüğü. İki Cilt: 1-T (Moskova: «Rus dili», 1981. 631 B.), 2-T (Moskova: «Rus dili», 1981. – B. 715.).

6. Özbek dilinin açıklayıcı sözlüğü. 5 cilt. I. T. (T.: Devlet Bilimsel Yayınevi «Özbekistan Ulusal Ansiklopedisi», 2006. – S. 680.), II t. (2006 - Baskı. -672 B.), III t. (2006-Baskı. – B. 688.), IV t. (2008-Baskı. -608 B.), V t. (2008-Baskı. – B. 592.).
7. Umarov E. Eski Özbek sözlükleri. – T., 1994.
8. www. edebiyat. uz.

FRAZEMALAR DIAXRON LUG‘ATINI TUZISHNING AHAMIYATI

Iqbol Abdikarimovna O‘RAZOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Ushbu maqolada frazemalarning diaxron asosda tizimli o‘rganish orqali erishiladigan natijalar: frazemalarning diaxron lug‘atini shakllantirish, frazemalarning etimologiyasi va til birligi sifatida taraqqiyoti kuzatish, leksemalarni semantik taraqqiyotini aniqlash, iste’moldan chiqqan sof turkiy leksemalar va frazemalarni tilda qayta tiklash kabi masalalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *frazema, leksema, sema, sinonim, lug‘at, leksikografiya, diaxron aspekt.*

Bugungi jahon tilshunosligida yozma manbalarda qo‘llangan frazemalarni yig‘ish, ularni tahlil qilish, sinxron va diaxron aspektlarda o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda.

XX asrning 60-70-yillari o‘zbek tilshunosligining frazemalarni lingvopoetik yo‘nalishda o‘rganuvchi sohasida salmoqli natijalarga erishildi, o‘zbek yozuvchilari va shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko‘pgina ishlar, nomzodlik dissertatsiyalarida frazeologik birliklarning uslubiy funksiyalarini o‘rganishga alohida ahamiyat berildi. «O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, S.Ayniy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Oydin, Zulfiya, Komil Yashin, Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad, Muhammad Yusuf, Oydin Hojiyeva kabi XX asr o‘zbek shoir va yozuvchilarining asarlarida qo‘llangan frazemalar ma’lum darajada tadqiqot obyekti bo‘lgan» [1, 9]. O‘zbek tilshunoslari frazemalarning «Mushtum» jurnali sahifalarida, umuman publitsistik uslubda, so‘zlashuv nutqida, qo‘llanishini o‘rgandilar, frazemaning ekspressivlikni ifodalashdagi roli, folklor asarlarida, jumladan Fozil Yo‘ldosh

o‘g‘li dostonlarida, «Alpomish» dostonida qo‘llangan iboralar singari masalalarni tadqiq qilishda ham yaxshi natijalarga erishildi [2, 392]. Mumtoz manbalardan esa Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy», Boburning «Boburnoma», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun», «Gulistoni bit-turkiy» asarlaridagi frazeologik birliklar tadqiq qilingan, xolos.

Yuqoridagi ishlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida mumtoz yozma yodgorliklardagi frazeologik birliklar tadqiqi masalasi yechimini kutayotgan muammolardan biridir. Bu haqida B.Yo‘ldoshev o‘zbek mumtoz adabiyotining ko‘p asrlik yozma an’analari, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Gulxaniy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar, Zavqiy kabi namoyandalarning asarlari o‘zbek tarixiy frazeologiyasi uchun boy material berishini e’tirof etgan [1, 9] va o‘zbek frazeologiyasida hali chuqur ilmiy o‘rganishni taqozo etuvchi muammolar ko‘pligini [11. 37] qayd etgan.

O‘zbek tilshunoslarining frazeologiyani o‘rganish borasidagi yutuqlarini qayd qilgan holda bugungi kun tilshunoslarining oldida qo‘lyozma manbalarimizni davrlashtirgan holda lingvistik jihatdan tadqiq etish, manbalardagi frazemalarni yig‘ish bilan birga jonli til bilan qiyoslagan holda o‘rganish, frazemalarning etimologiyasini o‘rganish, tarixiy frazemalarning izohli lug‘atini tuzish kabi masalalari dolzarb va hal qilinishi lozim bo‘lgan masala sifatida qolmoqda. O‘rxun-Yenisey yodgorliklaridan to XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda yaratilgan yozma manbalarni izchil va tizimli o‘rganish, frazeologik birliklarni ajratish va ularni lug‘at sifatida shakllantirish lozimki, bu orqali tilshunoslik quyidagilarni qo‘lga kiritadi:

-yozma manbalardagi frazemalarni statistik tahlil qilish, ma’no qirralarini yoritish, maydon nazariyasi asosida tadqiq qilish sinonimik iboralar qatorini kengaytiradi. Masalan, Navoiyning «Hayrat ul -abror» dostonida «o‘lmoq» semasi 22 ta frazema yordamida ifodalangan, bu birliklar ma’no nozikli, ifoda plani va gradatsion semasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Frazemalar obraz xarakteridan kelib chiqqan holda qo‘llanishi bilan birga ayrim o‘rinlarda yozuvchi munosabatini ham aks ettiradi. Dostonda *äžäl jet=, däjri fänadïnček=, ǯähan mülkini qoj=, ǯähandïn bar=, ḥaǯät munqati’ ol=, ǯan čïq=, ǯan vida‘ ejlä=, ravzaji ǯannatqa χïrām ejlä=* frazemalari tabiiy o‘limni ifodalaydi. *Baš učur=, bašïn üz=, tïğï sijasät bašïğa sür=, dozaχ sarï uzat=, adam ayla=* frazemalari esa bilvosita yuz bergan o‘limni ifodalagan va sinonamik qatorni yuzaga keltirgan. Garchi bu birliklarning ifoda semasi bir xil bo‘lsa-da, baho semasi yoki uslubiy xoslanishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Ushbu birliklarning aksariyati aynan yoki leksik o‘zgarish bilan hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanadi;

- manbalarni izchil va davriy ketma-ketlik asosida o‘rganish ayrim frazemalar etimologiyasi va til birligi sifatidagi taraqqiyotini aniqlashga asos bo‘ladi. Masalan, eng qadimgi frazeologik qatlamga daxldor bo‘lgan *jüz suvi* frazema XI asrda «Qutadg‘u bilig» asarida shu shaklda uchraydi. *Alardan biri kör tilär jüz suvï.* – Ulardan biri dovyurak, obro‘ tilaydi [3, 54]. *Otunqa qatïlma ej aslï arïγ, jüzüŋnüŋ suvïn eltgä sendin arïγ* – Tubanga aralashma, ey asli toza, sendan yuzingning suvini pok-pokiza olib ketadi, ya’ni tuban sening obro‘yingni to‘kadi [4, 135]. Keyinchalik ushbu frazema fe’l yordami bilan o‘zining yangi variantini – *jüz suvun tök=* shaklini olgan hamda XIV asr yodnomalari bo‘lgan «Xusrav va Shirin» va «Gulistoni bit-turkiy»da shu shaklda ishlatilib, «obro‘sizlanmoq», «hurmatini yo‘qotmoq» ma’nolarini ifodalagan: *Rävamï töksä jüz suvïnï, Meni jandïrsa, qandïrsa quvïnï (XSh, 465). Ujalmasmïsankïm, tekmä bir xasis qatïna barïb bučuk habba üčün jüz suvun töküb, eliŋ uzatursan (10, 247).*

XV asrga kelib bu frazemaga variantdosh sifatida forsiy *abrosï bar=* birikmasi paydo bo‘lgan va Navoiy asarlarida ushbu birliklar parallel holatda uchraydi: *Ja ulus ičrä jüz suvïn sačïb, Ja alïban bäšïn bir jan qačïb («Hayrat ul-abror»). Jašïmdan abrojïm bardï, bildim, Ki ravnaqsïz qïlur altunï sijmab («Badoe’ ul vasat»).* Tilning qisqalikka intilishi va XV asrdan boshlab fors tilining turkiy tilga ta’sirining kuchayishi sabab davrlar o‘tib *jüz suvun tök=* frazemasi iste’moldan chiqib, ikkinchi frazema o‘rnashib qolgan. Ammo u ham tilda qotib qolmadi, leksik qayta shakllanishga uchrab, *obro‘si to‘kilmoq, obro‘si tushmoq* shaklida hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanadi. Masalan: *Mahmud aka, u odam bilan teng kelib bo‘ladimi, obro‘ni to‘kadi, xolos* [3, 54]. Ammo frazemaning turkiy varianti hozir ham turk, tatar, boshqird tillarida keng doirada qo‘llanadi. Forscha-tojikcha *obro‘* ham aslida *«yuz suvi»* degan ma’noni beradi. Lekin hozirgi til sohibi ongida asl ma’nodan mutlaqo uzoqlashib, «qadr-qimmat» ma’nosida qabul qilinadi [5, 26].

Tarixiy frazemalar komponent tadqiq qilinganda frazemalarning semantik taraqqiyotini kuzatish mumkin bo‘ladi. Jumladan, Sayfi Saroyi asarida *közüm üstündä jeri bar* frazemasi birovga muloyimlik ko‘rsatib aytiladi va «bajonidil», «jonimiz bilan bajaramiz» (6, 325) degan ma’nolarda qo‘llanadi: *Aja aqlï teŋsiz, sözi guharbar, Otursaŋ, közüm üstündä jeri bar (10, 191).* Navoiy asarlarida frazemaning *ko‘z ustida* varianti ham uchraydi va ayni ma’noni ifodalaydi: *Köz üstidä ulča rasm-u āyin, Jān örtädä ulča aqd-u kābin (9, 166).* Frazema XX asr manbalarida *ko‘zim ustiga* shaklida uchraydi: *Agar xizmatingizga munosib bo‘lsam, ko‘zim ustiga* (G‘.G‘ulom, 74). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazemaning *bosh ustiga* varianti ham mavjud. Ammo frazemalar semantikasida farq bor: *ko‘z ustiga* frazemasi «e’zozlash», «qadrlash» semalarini anglatsa, *bosh ustiga* frazemasi «ulug‘lash», «bajonidil» semalarini ifoda etadi. Ya’ni XIV-XV asrlarda *ko‘z ustida* frazemasi ifodalagan

«bajonidil» semasi hozirgi o‘zbek tilida *bosh ustiga* frazemasi bilan ifodalandi. *ko‘z ustida* frazemasi esa semantik o‘zgarishga uchrab «e’zozlash», «qadrlash» semalarini anglatadi.

Frazemalar tarkibi jihatdan o‘zgarmasligi sabab ular tarkibidagi ayrim leksemalar dastlabki ma’nosi bilan saqlanadi va frazema tarkibida yaxlitlanadi. Bu esa ayrim leksik birliklarning semantik taraqqiyotini kuzatish imkoni beradi. Masalan, Navoiy asarlarida *egnidin sol=, egniga qo‘y=* frazemalari uchraydi. «Qadimgi turkiy lug‘at»da *egin* leksemasining «yelka» ma’nosi qayd qilingan: *Emgäk egindä qalmas. – Shol yelkada qolmas* [7, 166]. XV asrga kelib bu leksema ma’no kengayishga uchragan va Navoiy asarlarida «1. Yelka, kift; 2. tan, badan, kishining gavdasi, usti» [6, 706] ma’nolarini anglatgan. Hozirgi o‘zbek tilida ushbu birlikning uch ma’nosi qayd qilingan: «1. orqaning yelka va bo‘yin orasidagi ustki qismi. 2. kishi tanasining kiyim kiyiladigan ustki qismi. 3. engil, kiyim-bosh» [8, 10]. Ammo hozirgi nutqimizda leksemaning ikkinchi va uchinchi ma’nolari faol qo‘llansa-da, dastlabki ma’nosi, ya’ni *«yelka»* semasi iste’moldan chiqib bormoqda. *Egin* o‘rnida bu ma’noda *kift, yelka* leksemalari qo‘llanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, leksema sematik jihatdan kengayib borgan, ammo frazemalar tarkibida leksemaning dastlabki ma’nosi saqlanib qolgan. «Qutadg‘u bilik»da *egin kötür=* frazemasi qo‘llangan bo‘lib, «yelkasini to‘g‘rilamoq, o‘zini kuchli his qilmoq, o‘zini muhim deb bilmoq» [7, 166] ma’nolarini ifodalagan. Navoiy asarlarida qo‘llangan *egnidin sol=* frazemasi «yechmoq» ma’nosini anglatgan, frazema metonimiya usuli orqali yuzaga kelgan: *Borlig‘ to‘nin egnidin solib chust, Yo‘qlug‘ kamarini bog‘labon rust. (9, 23). Egniga qo‘y=* frazemasi esa «orqalab ko‘tarib olmoq» ma’nosini ifodalab kelmoqda: *Egniga qo‘yub birini holi, Andoqki quyoshni charx zoli, (9, 106).*

Xulosa sifatida aytish mumkinki, frazemalar nafaqat nutqni bezovchi, obrazlilikni ta’minlovchi badiiy vosita, balki unutilgan til birliklarini o‘zgarishsiz saqlovchi xazina sifatida ham qimmatlidir. Frazemalarni diaxron jihatdan tizimli o‘rganish va frazeologizmlarning diaxron lug‘atini tuzish leksik bilimlarni oshiradi, semantik tadqiqotlar uchun asos bo‘ladi, frazemalarning etimologik lug‘atini tayyorlashga zamin yaratadi, iste’moldan chiqqan, unutilgan turkiy so‘zlarni nutqqa qaytarishga yordam beradi. Qolaversa, bu kabi lug‘atlar yozuvchi va yosh ijodkorlar uchun ham ayni muddao bo‘lib, ularning bu birliklarni o‘z asarlarida qo‘llashi eskirgan frazemalarning jonlanishini ta’minlaydi, pirovardida yoshlarda mumtoz asarlarning tushunilishi ham osonlashadi.

Adabiyotlar

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси мустақиллик йилларида / ж.: Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. № 6. – Б. 3-10.

2. _O‘zbek_tili_taraqqiyoti_va_xalqaro_hamkorlik_masalalari https://www.researchgate.net/publication/371445822
3. Умаров Э. Икки ибора тарихи / ж.: Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. № 6. – Б. 54-55.
4. Холмурадова М. «Қутадғу билиг» лексикаси. – Тошкент, 2019. – Б.156.
5. O‘razova I. Frazemalardagi komtaminatsiya hodisasi. Zenodo, 05.2024. DOI: 10.5281/zenodo.11108578
6. Порсиев Ш. Навоий асарларининг луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 784.
7. Древнетюркский словар. – Л.: Наука, 1969. – С. 676.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI Jildli. II J. – Тошкент: G‘afur G‘ulom, 2023. – B. 1035.
9. Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Лайли ва Мажнун. XX Ж.IX Ж. – Тошкент, 1992. – 343 б.
10. Гулистони бит-туркий. Уч булбул гулшани. Тузувчи Н.Даврон. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б.167-325.
11. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 297.

O‘ZBEK LUG‘ATSHUNOSLIGI: GLOBALIZATSIYA SHAROITIDAGI MUAMMOLAR VA YANGI IMKONIYATLAR

Mohinurxon Axrorxon qizi IBROXIMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atshunosligining hozirgi holati va istiqboldagi muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yangi atamalarni lug‘atlarga kiritish jarayonidagi qiyinchiliklar, elektron lug‘atlarning rivojlanishi va globalizatsiya sharoitida xorijiy so‘zlarning kirib kelishi kabi muammolar ko‘rib chiqildi. Muallif zamonaviy texnologiyalarning lug‘atshunoslikka integratsiyasi va xalqaro tajribalarni milliy lug‘atshunoslikda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Natijalar asosida o‘zbek lug‘atshunosligining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek lug‘atshunosligi, yangi atamalar, elektron lug‘atlar, globalizatsiya, xorijiy so‘zlar, zamonaviy texnologiyalar, til rivoji.*

O‘zbek lug‘atshunosligi nafaqat milliy madaniyatning, balki xalqning tarixiy xotirasi va o‘zligini saqlashning asosiy omillaridan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Lug‘atshunoslik, albatta, tildagi so‘z boyligini o‘rganish, ularni sistemalashtirish va yangi atamalarni ilmiy asosda tavsiflashni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin milliy tilga, jumladan, lug‘atshunoslikka bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Biroq, hozirgi globalizatsiya jarayoni va texnologik rivojlanish sharoitida o‘zbek lug‘atshunosligi yangi muammolar va chaqiriqlar bilan to‘qnash kelmoqda. Ular orasida zamonaviy texnologiyalarning lug‘atshunoslik sohasiga integratsiyasi, yangi texnologiyalar yordamida o‘zbek lug‘atlarini rivojlantirish va xalqaro tajriba asosida milliy lug‘atlarni yangilash muammolari alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, o‘zbek tilining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar ham lug‘atshunoslik sohasida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, lug‘atshunoslik sohasidagi mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar chuqur o‘rganildi. Bu jarayonda milliy va xalqaro tadqiqotlar, jumladan, zamonaviy texnologiyalar asosida lug‘atshunoslikni rivojlantirishga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Bibliografik tahlil yordamida turli davrlarda nashr etilgan lug‘atlar va ularning o‘zgarish dinamikasi o‘rganildi. Shuningdek, empirik ma’lumotlar yig‘ish orqali lug‘atlar yaratishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tadqiq qilindi. Tadqiqot davomida o‘zbek lug‘atshunosligining amaldagi muammolarini aniqlash uchun soha mutaxassislaridan intervyular olindi va onlayn so‘rovlar o‘tkazildi. Ma’lumotlar statistik tahlil yordamida umumlashtirildi va natijalar grafik shaklda ko‘rsatildi. Bularning barchasi o‘zbek lug‘atshunosligining hozirgi holatini aniqroq tavsiflash va istiqboldagi muammolarni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdi ki, o‘zbek lug‘atshunosligi bir qator muammolar va cheklovlarga duch kelmoqda. Birinchidan, lug‘atlarning yangi atamalar bilan muntazam ravishda yangilanmasligi muammosi mavjud. Bu jarayon ko‘p hollarda ortda qolmoqda, natijada zamonaviy o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan yangi so‘zlar lug‘atlarga o‘z vaqtida kiritilmayapti. Bu o‘z navbatida, o‘zbek tilini o‘rganayotgan chet elliklar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Ikkinchidan, elektron lug‘atlarning rivojlanishi yetarlicha amalga oshirilmayapti. Mobil ilovalar va onlayn lug‘atlar texnologik jihatdan rivojlangan bo‘lsa-da, ularda hali ham ko‘plab kamchiliklar mavjud. Masalan, qidiruv tizimlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi, so‘zlarning to‘liq va aniq izohlanmasligi va ba’zan ularning kontekstual qo‘llanilishiga doir ma’lumotlarning yetishmasligi kuzatilmoqda. Uchinchidan, globalizatsiya

jarayoni o‘zbek tiliga xorijiy so‘zlarning kirib kelishini tezlashtirmoqda. Bu holat, o‘zbek lug‘atshunoslari uchun katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda, chunki xorijiy so‘zlarning o‘zbek tiliga moslashuvi va ularning lug‘atga kiritilishi ko‘p hollarda ziddiyatli jarayonga aylanishi mumkin.

O‘zbek lug‘atshunosligi oldida turgan vazifalar qatoriga nafaqat yangi atamalarni lug‘atlarga kiritish, balki ularni milliy tilga moslashtirish ham kiradi. Zamonaviy texnologiyalarning lug‘atshunoslik sohasiga integratsiyasi, jumladan, sun’iy intellekt yordamida yangi so‘zlarning avtomatik ravishda lug‘atlarga qo‘shilishi, kelajakda o‘zbek lug‘atshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Elektron lug‘atlarning rivojlanishi va ularga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, masalan, ovozli qidiruv tizimlari va avtomatik tarjima vositalarini joriy etish, lug‘atlarni yanada qulay va samarali qiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy lug‘atshunoslikda qo‘llash, o‘zbek tilining lug‘at boyligini kengaytirishda muhim omil bo‘lishi mumkin. Lug‘atshunoslikning rivojlanishi uchun oliy o‘quv yurtlarida bu sohaga bo‘lgan e’tiborni oshirish, tadqiqotlarni kengaytirish va yangi avlod lug‘atshunoslarini tayyorlash muhimdir.

O‘zbek lug‘atshunosligi istiqbolda turli murakkabliklarga duch kelishi mumkin, ammo mavjud muammolarni hal qilish orqali milliy tilni rivojlantirish va saqlab qolish mumkin bo‘ladi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yangi so‘zlarni o‘zbek tiliga moslashtirish va xalqaro tajribalarni milliy lug‘atshunoslikka tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Lug‘atshunoslikning rivojlanishi milliy madaniyat va o‘zlikni saqlab qolishning muhim qismi sifatida o‘zbek tilining kelajagini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘. Milliy tillarning taraqqiyoti masalalari. – Toshkent, 1962.
2. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? – Toshkent: Fan, 1972.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969.
4. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
5. Bektemirov X., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. – Toshkent: Fan, 2002.
6. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari: Dokt. diss.... avtoref. – Toshkent, 1991.
7. Madvaliyev A. Lug‘at va lug‘at turlari xususida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2008. 1-son.
8. O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. – Toshkent: Fan, 1986.

«ALISHER NAVOIY ASARLARI IZOHLI LUG‘ATI» DA GASTRONOMIK LEKSIKANING IFODALANISHI

Kamola Baxtiyor qizi TEMIROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Alisher Navoiy asarlari tilida gastronomik leksikaning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini aniqlash uchun ularni tarixiy-etimologik, genealogik jihatdan o‘rganish, semantik xususiyatlarini yoritish zarur. Ushbu maqolada «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» dan o‘rin olgan gastronomik birliklar, shuningdek, taom nomlariga oid leksik birliklarning leksik-semantik mazmuniga diqqatni qaratganmiz.

Kalit so‘zlar: *lug‘atlar, gastronomiya, gastronomik leksika, taom nomlari, glyuttonimlar, shirinliklar, ichimliklar, ingrediyentlar, degustatsion terminlar, oshxona jihozlari va idish-tovoqlar.*

Turkiy tildagi so‘z va iboralarni to‘plash, ularni ilmiy o‘rganish XI asrda yaratilgan «Devonu lug‘otit turk» asariga borib taqaladi. Zero, lug‘atda o‘z davridagi turli qabila-urug‘lar tiliga mansub so‘z va iboralar yig‘ilgan. Bu haqda muallifning o‘zi quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: «Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har tomonlama puxta bir asosga tartibga soldim» [1.15]. Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillardagi so‘z va iboralarni to‘plash an’anasini o‘rta asr lug‘atshunoslari, jumladan, Alisher Navoiyning boy merosi davom ettirdi.

O‘tmishda va hozirda Alisher Navoiy asarlari yuzasidan bir qancha lug‘atlar yaratilgan. Masalan, «Badoye-ul-lug‘at», «Xamsa bo halli lug‘at», «Abushqa», «Sangloh», «Lug‘ati atrokiya», «Lug‘ati turkiy», «Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy», «Halli lug‘ati «Xamsa» yi Navoiy», «Halli lug‘oti chig‘atoyi «Xamsa» yi Navoiy», «Nisobi Navoiy», «Lug‘ati Amir Navoiy», «Dar bayoni lug‘ati Navoiy, «Halli lug‘ati chig‘atoyi» hamda Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan «O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at» (1953) va yana shu mualliflar tomonidan 1972-yilda tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari lug‘ati», 1983-1985-yillarda tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» (4 tomli), shuningdek, «Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at (1993, B.Hasanov) kabilar shular jumlasidandir. Mazkur lug‘atlarda Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan turkiy, forsiy, arabiy so‘z va iboralar izohlangan. Ular ichida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining

leksikologiya va leksikografiya bo‘limida tayyorlanib, nashr etilgan 4 jildlik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» nisbatan to‘liqligi bilan e’tiborni tortadi. Bunday lug‘at tadqiqotchilar uchun boy faktik material beradi. Izohli lug‘atdan faqat o‘zbek mumtoz asarlari tilinigina emas, balki ko‘pgina boshqa turkiy xalqlarning adabiy va tarixiy manbalarini o‘rganishda ham foydalanib kelinmoqda. Ammo shoir asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish, uning yangi-yangi ma’no qirralarini kashf etish davom etaveradi. Zero, Alisher Navoiy merosi mangulikka daxldor so‘z maxzanidir[8.10].

Har bir til lug‘at tarkibining boyib borishi tilning ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish orqali amalga oshadi. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo‘shni xalqlarning o‘zaro aloqalari natijasida yangi g‘oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o‘ziga xos taraqqiy etishiga, til lug‘at tarkibining boyishiga olib keladi [13.89-90].

Ta’kidlash lozimki, til birliklarining obyektiv olam, reallikni ifoda etishni, aksincha, obyektiv olam, borliqning semantik predmetlar orqali umumlashtirish jarayoni mavjudligini talqin qilish semasiologik va onomasiologik yo‘nalish sifatida izohlanadi. Semasiologik tahlil lug‘aviy birliklarning semantikasi va u bilan bog‘liq hodisalar nuqtayi nazaridan o‘rganishdir [9.87]. Shundan kelib chiqib, ANATILDA qo‘llangan so‘z boyligini, jumladan, gastronomik birliklarni funksional-semantik jihatdan tadqiq etamiz. Avvalo, gastronomik birliklarga to‘xtalishdan oldin, gastronomiya nima, degan savolga to‘xtalsak.

Gastronomiya madaniyat va oziq-ovqat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan fan bo‘lib, u yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taomlarning umumiy nomini anglatadi. Uning lug‘atda berilishi quyidagicha: Gastronomiya [r] 1 Pazandalik san’ati; shinavandalik; 2 Oziq-ovqat mollarining umumiy nomi [10.187].

Gastronomiyaga oid so‘zlar o‘zbek tili lug‘aviy boyligining muhim qatlami hisoblanadi. U o‘zbeklarning milliy fazilatlarini o‘zida aks ettiradi. Gastronomiya muayyan mamlakatning madaniyati va oziq-ovqatlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish jarayonida taomlarning tayyorlanish jarayoni, paydo bo‘lish tarixini bilan ham qiziqadi.

Zamonaviy gastronomik glabalizatsiya sharoitida taomlarning mavjudligiga tahdid qilinmoqda. Shu bois, hozirgi kunda kundalik hayotda va bayramlar va marosimlardagi taomlarning tarkibi va ularni iste’mol qilish haqida ko‘p gapirilmoqda. Uzoq yillik tarix davomida o‘zbek oshxonasi boshqa etnik xalqlarning oshxonalari bilan boyitilgan bir qator noyob xususiyatlarga ega bo‘lgan dunyoning gastronomik xaritasidagi muhim hodisalaridan biriga aylandi [11-142].

Tilshunos olima M.Xudoyorova o‘zining «O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili» deb nomlangan nomzodlik ishida Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalaridagi taomlarni 4 guruhga ajratib tahlil qiladi:

1) don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taomlar;
2) undan tayyorlanadigan taom nomlar;
3) sut mahsuotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari;
4) shirinlik nomlari. [7.25]

Tilshunos, adabiyotshunos olima Gulnoza Odilova ham o‘zining «Glyuttonik diskurs asoslari» nomli monografiyasida taomlarni ikki turga ajratib o‘rganishni tavsiya qilgan:

1. *Sodda glyuttonimlar* (hamma millat tilida uchraydigan oziq-ovqat mahsulotlari. O‘z o‘rnida sodda glyuttonimlarni ham yana kichik guruhlarga ajratgan).

1.1. Meva va sabzavotlar, ko‘katlar, ziravorlar, sut va go‘sht mahsulotlari nomlari: olma (apple), karam (cabbage), qovun (melon), shivit (dill);

1.2. Taom, ichimlik va qandolatchilik mahsulotlari sho‘rva (soup), shavla (porridge), non (bread), bo‘g‘irsoq (donut)

1.3. Oshxona jihozlari (gaz plitasi (oven), patnis) (oven sheet), pichoq (knife)

2. *Realiya glyuttonimlar* (kelib chiqishi bir millatga xos bo‘lgan va bosha millat oshxonasiga chetdan kirib kelgan, faqat o‘sha yerda o‘sadigan navdagi *meva-sabzavotlar* (chili pomidori, gurvaki qovun, mansarella (pishloq nomi), parmezan (pishloq nomi); *taom* (pitsa, palov, xachipuri, ayron, tekila, varaqi) va oshxona anjomlari (taandir, mangal, barbekyu)ni kiritish mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tadi [12.93].

Tadqiqotchi Dilnoza Abduvaliyeva «Alisher Navoiy asarlari leksikasi» nomli nomzodlik ishida Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» hamda «Tarixi muluki Ajam» asarlari so‘z boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik xususiyatlarini ochib bergan. «Tarixiy asarlar so‘z boyligining funksional-semantik tadqiqi» nomli II bobida Navoiy asarlarini leksik-semantik tomondan guruhlashtirganda, alohida taom nomlari haqida ham to‘xtalib ketadi va «*Inson iste’mol qiluvchi taom va mahsulot nomlari» deb nomlangan guruhga quyidagi taom va mahsulot nomlarini kirgizadi. Asarlar lesikasida mazkur ma’no uyasiga mansub turkiycha čayir (TMA 738a7), süt (TAH 714a14), yay (TMA 734a16), suv (TMA 736b15), un (TAH 709a14), tuz (TMA 739b17), ötmäk (TAH 709a14), üzüm širkasi (TAH 723b13), baliy (TA717a9); forscha-tojikcha nān (TMA 735b1), kabāb (TMA*

739b17), nabāt (TMA 736b22), murud (TMA 736b21); arabcha šarbat (TMA 735b4) istilohlari ishlatilgan. [6.58]

ANATIL da gastronomik birliklarning berilishi o‘ziga xos xilma-xil mavzuviy guruhlarni tashkil etib, o‘z o‘rnida yana bir nechta semantik guruh va guruhchalardan iboratdir. Shunga ko‘ra, ANATILda faol qo‘llangan gastronomik birliklarni turli mavzuviy guruhlarga bo‘lib tasnif qilish orqali ulardagi ma’no xususiyatlarni o‘rganishni lozim topdik. Chunki, bunday yo‘l, bir tomondan qo‘llanilgan so‘zlar majmui haqida muayyan ilmiy xulosalar berish imkoniyatini yaratadi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, yuqorida tadqiqotchilarning ta’riflarini inkor etmagan holda, shuningdek, qo‘shimcha tarzda ANATIL da qo‘llangan gastronomik birliklarni quyidagicha tasnifladik:

I. Taom nomlari
II. Shirinliklar;
III. Ichimliklar nomlari;
IV. Ingrediyentlar (oshko‘klar; ziravorlar; sabzavotlar; mevalar);
V. Degustatsion birliklar (ma’za-ta’m);
VI. Oshxona jihozlari va idish-tovoqlar;

Ushbu maqolamizda yuqoridagi tasnif asosida ANATILdan o‘rin olgan gastronomik birliklarning berilishini keltirishni ma’qul ko‘rdik.

I. **Taom nomlari**:

I.1. *Un va un mahsulotlaridan tayyorlangan taom nomlari:* ***Nonlar:*** *kuloch /kalach*- shirin kulcha (II.137), *ko‘moch//qo‘moch*-qo‘rga ko‘mib pishirilgan non (II.151), f*atir*-patir non (III.336), *chalpak*- chalpak (III. 449), *qandiy kulcha*-shirin kulcha (IV.29), *qatlama*-qatlama (IV.40), *qurs*- kulcha (IV.52), *qursi fatir*-kulcha non, patir non (IV.81), *qursi qamar*-oy kulchasi, *qursi qiyr*-qora kulcha (IV.81), *nabotiy kuloch*-shirin non, kulcha. (IV 239); *mantu* -manti (II.227); *tutmoch*-pishgan taom turi; *xamir oshi; ugra osh* va hokazo.

I.*2.* *Go‘sht, sut mahsulotlari, don mahsulotlaridan tayyorlangan taom nomlari*: *bug‘ro (* I.343), *gazak*- may ichgandan so‘ng tanovul qilinadigan yengil ovqat (I.391), *jijig‘lig‘*- go‘ja osh, taom nomi (I.575), *ilik*- suyak mag‘zi, ilik (2.27), *kabob* – kabob; *maraq* – sho‘rva (II.232), *suzma*-suzma (III.120), *sut*-sut, *so‘kboch*-so‘kosh (III.140), *uloba*-ovqatlarning bir turi, *urkamoch*-taom turlaridan biri; *shilon*-shulon, umumiy taom (II.528), *shirbirinch*-shirguruch (II.529), *shirgurunch*-shirguruch (II.529), *halim*-yumshoq, muloyim go‘sht va oqlangan bug‘doydan uzoq qaynatib pishiriladigan taom; halim (IV.144), *qaymog‘*-qaymoq (IV.22), *qovurmoch*-qovurmoch, qovurilan don (IV.59), *quymog‘*- quymoq (IV.75), *qursi gazak* - aylana, to‘garak shaklidagi gazak (zakuzka) (IV.52), *qurut*-suzmani yong‘oqdek-yong‘oqdek yumaloqlab quritib tayyorlangan mahsulot (IV.81) va hokazo.

II. Shirinliklar (shirinlig‘) – *angabin//angubin* – asal, bol (I.93), *asal*-bol (I.121), *gulqand* - gulqand (qizil gul yaprog‘i bilan shakarni aralashtirib oftobda tayyorlangan bir xil shirinliklar) (I.421), *nabot* - navvot, qand, *sikanjabin* – murabbo. (III.77), *shahd*-1.bol, asal (II.515), *halova*-holva (IV.144), *halviyot*-holvalar, shirinliklar; *halvo*- holva, shirinlik (IV.44), *qand*-chuchuk, shirin, qand. (IV.29) va hokazo.

III. **Ichimliklar** (*mashrub* -ichimlik (II.266): *araq*- ichimlik, aroq (I.105); *boda* – may, sharob, mast qiluvchi ichimlik; *boda tungagi*- may idishi; bodai gulgun-qizil rangli tiniq may; yoqut rang, la’li rangli may; *bodai gulfom*-qizil may, yoqutrang may; *bodai jonfizoy*-ruhlantiruvchi, kuch beruvchi may; *bodai nob*- toza , tiniq, sof may; *bodai sandal*-sandal isli may; *bodai tahuro*-toza, sof may; *boxsum*-tariq va bug‘doydin qilingan ichkilik (I.319); *bo‘z*a–bo‘za, ichimlik (I.344); *jullob* -gulob, sharob; *mavizob*- mayiz suvi, sharbat; *may*- sharob, boda; *mayi ahmar* - qizil may (II.209); mo -suv; *muzob* – qizil may; *mul* -may, sharob; *nabid* – xurmodan qilingan may, sharob (II. 415); *ob*-suv (II. 495); *raz farzandi*-may, sharob (II.598); *raz qizi* -uzum, tok qizi; may, musallas (II. 598); *sahbo*- qizil may, uzum suvi, oliy sifatli may (III. 66); *sog‘ari yoqutfom*- yoqutrang may; *suy*-suv (III.120); *xamr*-sharob, may (III.377); *sharbat* – sharbat, lazzatli ichimlik (III.502); *sharob*-ichimlik, may (III.503); *sharobi nob*-toza sharob, tiniq may (III.503); *shira* -shira, sharbat; mayning bir turi (II.528); *qimiz*-qimiz; *la’lrang may*-qizil may va hokazo.

IV. Ingrediyentlar. ***ziravorlar, oshko‘klar :*** *adas* – yasmiq (I.39); *alaf* – ko‘kat (I. 78); *za’faron*- sarg‘ish tus beruvchi xushbo‘y o‘simlik (I.627); *kashniz*-kashnich (I.103); *kunjud* -kunjut; *rayohin*- rayhon rayhonlar (II.600); *tanbul*- ovqatga solinadigan bir xil xushbo‘y yaproq (III.179); *tifli bahor*-bahor ko‘katlari (III.233); *tolg‘on//tolqon*- tolqon (III.241); *qaranfu*l-qalampirmunchoq (IV.31); *zira*- ovqatni xushxo‘r qiluvchi ziravor va hokazo;

sabzavotlar *(baql)***:** *zardak*-sabzi (I.620); *karam* – karam, poliz ekini, rezavorning bir turi (II); *xiyor*-bodring (III.391); *chag‘andar*-lavlagi, qizilcha (III.126); *shalg‘om*-sholg‘om (III.496); *lubyo*- loviya (don) (I.234); *a’tof* - karam (II.79) va hokazo.

*Mevalar ANATIL*da *favokih, asmor* deb nomlanadi. Bevosita taomlar tayyorlashda, shuningdek, salatlarni xushxo‘r qilishda mevalardan foydalanganimiz sababli ularni inrediyentlar safiga qo‘shishni ma’qul ko‘rdik: *amro‘d* – nok; *olmurut*,-nashvati (I. 89); behi,bihi (meva turi) (I.286); *zaytun* (I.612); *zardolu* -o‘rik (I.620); *lemu//limu*- limon (II.173); *anor* – anor (II.481); *noranj*- apelsinning bir turi; nordon apelsin (II. 481); *olma* -olma (II. 517); olu -olxo‘ri (II.519; *raz*-tok, uzum; *rummon*-anor (II. 634); *turunj*-limon (III.259); *uzum*-uzum, tok (III.280); *xurmo*-xurmo daraxtining mevasi (III.433); s*haftolu* -shaftoli (III.510); *anjir*-anjir va hokazo.

V. Degustatsion birliklar (ma'za-ta'm*: achiq//achig'//achchig'* – achchiq, nordon, shirinning aksi; *gulshakar* -qulqand, shirin, mazali; *lazzat*-ta'mli, totlik, shirinlik (II.164); *laziz* -lazzatli, mazali (II.164); *maza* –ta'm, maza; *mazoq* -ma'za, ta'm; *mayxush*-nordon; *malih*- shirin, mazali, lazzatli: *muqannad* - qantlangan; mazali, shirin; *no'sh*- shirin. (II.494); *no'shin*-mazali, totli (II.495); *suchuk*-shirin, chuchuk; *xushguvor*-xushta'm, mazali, lazzatli (III.440); *chuchuk*-shirinning aksi (III.483); *chuchukluk*-chuchuklik, shirinlik (III.48); *shakar//shakkar*-shirinlik, shakar (III. 494); *choshni* – maza, ta'm; *halovat*- chuchukli, mazalik, shirinlik (IV.144); *shirin*- totli, suchuk,mazali (II.529); *sho'r* - tuzli, tuzi o'tkir; achchiq (II.555); *qandiy*-shirin; (IV.29); *nabotiy* -navvotli, shirin, mazali va hokazo.

VI. Oshxona jihozlari va idish-tovoqlar: *aqdoh* - qadahlar, kosalar, may piyolalari; *balbala* - may ko'zachasi, may idishi; *billur*- xrustal; *billuri la'lgun*- qip-qizil xrustal; *bulbula* - may ko'zachasi; *jur'adon*- ichimlik idishi; qadah g'ilofi); *zarf* -suyuqlik solib qo'yiladigan idish, kosa; *zarfi chiniy* - chinni idish; *zarfi mazruf*- idish va ichidagi narsa; *ibriq* - suv idish, ko'za; *ibriqi may* - may idishi; *idish* (idish, kosa (II14); *ino* -idish (I.40); *kafliz* (kapgir; cho'mich (II.102); *ka's* (kosa, jom; may piyolasi (II.104); *kos//kosa* - kosa, qadah (II.129); *ko'rga* -may idishlari qo'yiladigan maxsus ssandalcha; may idishi (II.155-bet); *lagan//lakan* - mis lagan: (II.163); *mayi bati*-o'rdak shaklidagi may idishi (II.209); *maypolo* -may suzgich, may suziladian latta yo xalta (II.212); *paymona*- qadah, may piyolasi (II. 572); *piyola* -piyola, qadah (II.529); *pichoq*-pichoq; xanjar (II.575); *ratl* -qadah, may idishi (II.608); *sabu*-ko'zacha, may idishi (III.61); *safol*-sopol, idish (III.61); *sog'ar* -may qadahi, kosasi, may ichadigan idish; *surohiy* -qadah, kosa; may quyiladigan idish (III.130); *tabaq* - Patnus, lagan, idish; *tanur*-tandir (III.182); *tasht*-katta mis tog'ora; lagan (III.205); *toba* -tova (idish) (III.236); *tuzluq* -tuz idishi, tuzdon (III. 253); *tasht*-katta mis tog'ora; lagan (II. 205); *xum*-xum, may idishi (II.430); *chin (y)*-xitoyi (kosa, jom), chinni (II.467); *chini ayog'*-chinni idish: Xitoyda ishlangan kosa (II.467); *chini qadah* – xitoyi may, o'tkir sharob (II.467); *chog'ir*-may, ichkilik, sharob (II.480); *qadah*- kosa, payola, may kosasi (IV.18); *qadahpolo*-may suzgich (IV.18); *qazon*-qozon (IV.21); *qarroba*-may shishasi, idishi (IV.37); *qozon*-qozon. (IV.60); *qoshuq*-qoshiq (IV.70); *ko'mochdon*- ko'moch pishiriladigan o'choq. (II.233); *dashna*-Pichoq va hokazo.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, tahlil va dalillarga tayanib xulosa qilish mumkinki, Navoiy asarlaridagi gastronomik leksika, jumladan taomga oid birliklar tilimizning oshxona tarixidan so'zlashi bilan qiziqarlidir. Gastronomik birliklarning leksik-semantik guruhlari o'z ichida xilma-xil turlarga va kichik guruhlarga bo'linib, ular o'sha taom nomlarining qanday mahsulotdan tayyorlanishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqqan.

Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan bir qator taom nomlari bugungi kunda tilimizda uyg‘un shakl va ma’nolarda qo‘llanilmoqda. Ko‘pgina istorizm va arxaizmlar esa bizga XV asrdagi oziq-ovqat leksikasi haqida ma’lumot beradi.

Adabiyotlar

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. III том. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – 427– 463 б.

2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. I жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.1. – 1983. – 662 б.

3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. II жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.2. – 1983. – 642 б.

4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. III жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.3. – 1984. – 622 б.

5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.3. – 1985. – 636 б.

6. Абдувалиева Д. Алишер Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 2017

7. Худаярова М.Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили: Филол, фанл.номз.дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 25.

8. Тожибоева М. Алишер Навоийнинг «Илк девонида арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини»: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021. Б.-10

9. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.87.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 187

11. Файзуллаева М. Ўзбек миллий таомлари ва тановул маданияти. –Тошкент: Ёш авлод матбаа, 2021. – Б. 142.

12. Одилова Г. Глюттоник дискурс асослари. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2020.

13. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Ташкент: Теачер, 1995. – Б. 89-90.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA «DEVONU LUG‘OTIT TURK» ASARINING O‘RGANILISHI

Lobar Akbar qizi ARALOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

XI asrning mashhur olimi, tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari o‘z davridagi turkiy qabilalarning lug‘atini izohlashga bag‘ishlanadi. Asar XI asrda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o‘rganishda va hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Shu bois mazkur asar tilshunoslikda bir nechta planda tadqiq qilinib kelinmoqda.

Kalit so‘zlar: *«Devonu lug‘otit turk», o‘zbek shevalari. «Tafsir», o‘g‘uz, turklar.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarni, jumladan, ilmiy merosimizni tadqiq qilishga katta yo‘l ochib berildi.

Shu kunning til, tarix, madaniyat bilan bog‘liq muammolarini hal qilishda yozma yodgorliklarga murojaat qilish muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Bunday asarlarni o‘rganish, jumladan, til tarixini o‘rganish millatning shakllanish tarixi, merosi, madaniyati haqida zarur ma’lumotlar beradi.

Ma’lumki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o‘rganishning yagona ilmiy yo‘li birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdir.

Markaziy Osiyo xalqlari ko‘p asrlar davomida yaratgan noyob madaniy yodgorliklar qatoriga shu xalq farzandlari yaratgan lug‘atlar ham kiradi. Bunday lug‘atlarning nodir qo‘lyozmalari bizgacha yetib kelgan va ularning ba’zilari nashr qilingan, ular asosida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. XI asrda yashagan dunyo fan tarixida birinchi turkshunos, sharqshunos va qiyosiy uslub sohibi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari ham ana shunday lug‘atlar jumlasiga kiradi.

«Devonu lug‘otit turk» turkiy xalqlarning mushtarak merosi hisoblanadi. Turkiy gruppaga mansub har bir tilning lisoniy manbaga munosabatini tekshirish nihoyatda qiziqarli masala. Shu nuqtayi nazardan, hatto bir til doirasidagi alohida-alohida shevalar bilan «Devonu lug‘otit turk» o‘rtasidagi aloqadorlikni ham kuzatish mumkin. Berdak Yusupov maqolasida o‘zbek tilining Forish shevasi va «Devonu lug‘otit turk»dagi chorvachilik va anatomik leksemalarni qiyosiy aspektda o‘rganib, asarda ko‘pgina lingvistik faktlar borligini ta’kidlaydi hamda qiyoslab o‘rganish muhim ekanligini aytib o‘tadi:

«shevalardagi leksik o‘zgarishlar tarixiy dialektologik planda tekshirilishi zarur bo‘lgan masaladirki, uni atroflich o‘rganish, shevalararo leksik o‘xshashlik va farqli tomonlarni chuqur ilmiy asosda, tegishli manbalarga suyangan holda tarixiy-qiyosiy tekshirish o‘zbek dialektologiyasi uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sohadir» [1, 51].

Fattoh Abdullayev «Devonu lug‘otit turk» asarini tadqiq etib, ilmiy izlanishlarida X va XI asr boshlarida o‘g‘uzlarning qayerda yashaganligi haqida ma’lumot berib o‘tadi. Ma’xazlarning bergan ma’lumotlariga qaraganda o‘g‘uzlarning asosiy ko‘pchiligi bu davrda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarida, Xorazmda yashaganlar. Istaxriyning xabar berishicha, Isfijob o‘g‘uzlar bilan qarluqlar o‘rtasida chegara bo‘lgan. «…Kasbiy dengizidan to Isfijobgacha g‘uzlar, Isfijobdan Farg‘onagacha qarluqlar yashar edilar» [2, 27].

O‘g‘uzlar yoki g‘uzlar turkiy xalqlarning yirik ittifoqini tashkil qilganlar va VI asrda ko‘chmanchilar imperiyasini yuzaga keltirganlar. Bu uzoq zamonlarda «turk» va «o‘g‘uz» terminlari ko‘proq siyosiy ma’noda qo‘llangan, etnografik ma’nosi ko‘pincha noaniq va mavhum bo‘lgan. Sirdaryoning quyi oqimlarida (Yangikent rayonida) yashagan o‘g‘uzlar haqida al-Masudiy quyidagilarni yozadi: «Bu yerlardagi turklar orasida o‘g‘uzlar ko‘pchilikni tashkil qiladi; o‘g‘uzlarning bir qismi ko‘chmanchi, bir qismi o‘troq. Ular turk urug‘idan. O‘g‘uzlar turklar ichida eng botir, bo‘ylari past, ko‘zlari kichkinadir». Professor A.Y.Yakubovskiy shu faktlarga asoslanib turib, quyidagi xulosalarni chiqaradi: «Al-Masudiy tasvirlagan o‘g‘uzlar so‘ngroq uchraydigan baland bo‘yli, cho‘ziq kallali turkmanlarga hech o‘xshamaydi. Sirdaryoning quyi oqimlarida yashagan bir qism o‘g‘uzlar XI-XII asrlardayoq o‘troq turmush kechirganlar, shahar hayotini rivojlantirganlar» [3, 49].

«Devonu lug‘otit turk» o‘sha zamonda O‘zbekiston, Yettisuv, Qoshg‘ar, Yaqin Osiyo va to O‘rta Dengizgacha bo‘lgan keng masofada yoyilgan turkiy urug‘lar, qabilalarning nomlaridan, ular yashab turgan joylardan, ularning til xususiyatlaridan, urf-odatlaridan, folkloridan, ba’zi tarixiy epizodlaridan, ularning tillarida qo‘llanilgan so‘z, iboralardan darak beradi. S. Ibrohimov va M. Asomuddinovalar «Devonu lug‘otit turk»ga kiritilib izohlangan bosh so‘zlar (omonimlar bilan birga) 7243 ta, shulardan X – XI asrlarga oid sotsial terminlar 1561 tani tashkil etishi haqida ma’lumot berib o‘tganlar. Shuningdek, maqolada ushbu sotsial terminlar 34 ta mavzuviy guruhga ajratilgan. Shundan binokorlik va kiyim-kechak nomlaridan namunalar keltirilgan. Jumaladan, **alachu** – chodir, kapa, boshpana (ДЛТ, 155). Bu nom hozirgi o‘zbek va qirg‘iz tillarida saqlangan. Chunonchi: Tepaga chiqsa kishi unda-munda ko‘rinar: bir kappa, uch olochiq, to‘rt katalak (Maxmur). **Ašlïq** – oshxona (o‘g‘uzlarda «bug‘doy» – I, 137). Hozirgi turkiy tillarda ashliq g‘alla, ko‘proq bug‘doy ma’nosida. **Sağrï**- kavush: ol könug sağrïladï (teridan sag‘ri qildi – III, 364); suvlïq 1) salla, 2) dastro‘mol (II, 103, 1, 427). **Barčïn** – ipak kiyim (I, 185):

barčïn buduğï oŋdï-ipak kiyimning rangi aynidi, o‘ngdi (I, 185). **Bašmaq** – chuvak, sandal (II, 317) [4, 59].

«Devon» bilan o‘zbek shevalaridagi lingvistik faktlarni qiyosiy o‘rganish «o‘zbek adabiy tili leksik jihatdan biror shevaga emas, balki o‘zbek xalq shevalarining barchasiga asoslanadi [5, 209]» degan fikrning to‘g‘ri ekanligini to‘la tasdiqlaydi. Ahmad Ishayev maqolasida tog‘, yaxshi, tosh, yomon, yupqa, qarg‘ish, yashil, qor, qo‘zi, yana, kunduz, yo‘q, lochin, yolg‘on, qiz, so‘z, boldiz kabi minglab so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida va barcha o‘zbek shevalarida xuddi Mahmud Koshg‘ariy «Devon»ida qayd etilgani kabi qo‘llanishini aytib o‘tadi. Jumladan, «Devon»da tirik, ölük (I, 54), uluğ (I, 95), isig (I, 102), sarïğ (I, 335), süčik (I, 387), ačiğ (I, 94), kičik (I, 119), ellik (I, 160); O‘zbek adabiy tilida: tirik, o‘lik, ulug‘, issiq, sariq, suchuk, achchiq, kichik, ellik; Qorluq shevalarida: tirik//tirig, o‘lik//o‘lig, ulug‘, issug‘//issu:, sarig‘, suchug//chuchuv, achchig‘//achchug‘, ellik//elliy va boshqalar [6, 64].

O‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar ichida nafaqat «Devonu lug‘otit turk» va o‘zbek shevalarida mavjud bo‘lgan so‘zlarning qiyosiy tahlili, balki qo‘shimchalarning ham qiyosiy tadqiq etilganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Aliyev «Devonu lug‘otit turk» va Namangan shevalarida parallel, o‘xshash qo‘llanadigan ayrim affikslar haqida to‘xtalib o‘tadi. Olimning yozishicha, -man//-men affiksi qadimgi turkey tilde asosan fe’ldan ovqat nomlari yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, ba’zan otdan narsa, joy, payt oti yasovchi sifatida ham ishlatilgan: sïqman – uzum siqiladigan payt (DLT, I, 416), өrtmen – tom < ort – yopmoq, berkitmoq + men (DLT, I, 416) va boshqalar. Namangan shevalarida –men: sixmen- makkajo‘xori unidan tayyorlangan quyuq ovqatligi, makkajo‘xori unini qorishtirib, so‘ngra siqimlab olinishi va ovqat sho‘rvasiga solinishi haqida aytib o‘tgan. Shuningdek, -(u)q, -(u)g‘ affikslari fe’ldan narsa, o‘rin-joy, harakat natijasi kabi ma’nolardagi ot yasaydi: qonuq – mehmon (DLT, I, 369), Namangan shevalarida turuq (Uychi) – qush uyasi, turar joy [7, 35]. Maqolani o‘qir ekanmiz, «Devon»dagi anchagina affiklar ayrim fonetik o‘zgarishlarni hisobga olmaganda, Namangan shevalaridagi affikslarga ham mos kelishi, bu shevalar o‘zida qadimgi grammatik formalarni saqlab kelganligini ko‘rishimiz mumkin [8, 69].

«Devonu lug‘otit turk» va «Tafsir» tili uchun xarakterli fonetik xususiyatlar haqida Qozoqboy Mahmudov tadqiqot ishi olib borgan. Maqolada olim «Devon» va «Tafsir» tilida tish-tish tanglay til oldi undoshi ż (ذ) bir xil yozilishi, pozitsion kombinator holatlari ham o‘xshashligini va bu undoshning evolyutsion taraqqiyotini ko‘rsatuvchi fonetik hodisalarning ikki holatda sodir bo‘lishini misollar orqali izohlab beradi. Birinchidan, turkiy so‘zlarning ko‘proq intervokal holatida va jarangli undoshlardan so‘ng yuz bergan: **d // ż // y; d > ż > z** hamda **y – adaš** (DLT, I, 92) // **ażaš** (DLT, I, 170) – o‘rtoq, do‘st; **bażram** (DLT, I, 447) // **bayram** (DLT, III, 191) – bayram, shodlik. «Tafsir»

tilida ham zikr etilgan (inlaut) pozitsiyada bu fonetik hodisa sodir bo‘lgan: ıdısı (T, 16б, 29) // ıżısı (T, 39б, 8) // ızıšı (T, 26б, 33) // iyesi (T, 96б, 3) – tangrisi, egasi. Ikkinchidan, ż (ﻍ) undoshi bir bo‘g‘inli asl turkiy so‘zlarning auslaut pozitsiyasida keng yoki tor unlilardan so‘ng kelib, turli kombinator o‘zgarishlarga uchragan. Bu fonetik hodisa ham «Devonu lug‘otit turk» va «Tafsir» tili uchun bab-baravar xarakterlidir: tod (DLT, II, 168; III, 429) // > toż (DLT, III, 443) // > toz (DLT, I, 68) // > toj (DLT, III, 262) – to‘y (to‘ymoq). Qod (T, 80a, 16) // > qoż (T, 17a, 22) // > qoz (T, 10 б, 25) // > qoy (T, 38a, 28) – qo‘y (qo‘ymoq) [9, 47].

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, «Devonu lug‘otit turk» asari matni, mazmuni, adabiy-badiiy, leksik-semantik, morfologik xususiyatlari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Asar leksikasi monografik planda atroflicha tadqiq etilgan. Bu asar ko‘plab tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Asar leksikasining qomusiyligi va mukammalligi shuni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Юсупов Б. Фориш шеваси ва «Девону луғотит турк» асари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1981. -№3. Б. 51-54.

2. Бартольд В. В. Очерки истории туркменского народа. Сб. «Туркмения» 1. – С. 27-28.

3. Якубовский А. Ю. Вопросы этногенеза туркмен // Советская этнография, 1947. № 3. – С. 49.

4. Иброҳимов С., Асомиддинова. XI асрдаги туркий тилларда касб-ҳунар атамалари ва унинг «Девону луғотит турк»да акс етиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. -№5. – Б. 57-62.

5. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, ЎзССР ФА нашриёти, 1962. – Б. 208-212.

6. Ишаев А. «Девону луғотит турк» ва ўзбек шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1971. - №5. – Б. 63-68.

7. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка, 1, Аффиксация ч. 1. Словообразования аффиксы имен (АДД). – Ташкент, 1955. – С. 35.

8. Алиев А. «Девону луғотит турк»даги айрим аффиксларнинг Наманган группа шеваларида қўлланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1971. - №5. – Б. 68-70.

9. Маҳмудов Қ. «Девону луғотит турк»да ва Тафсир тилида айрим ундошлар ҳодисаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972. - №5. – Б. 46-49.

V SHO‘BA. ONOMASTIKA VA ONOMASIOLOGIYA MASALALARI

QUYI ZARAFSHONNING MUSHTARAK TOPONIMLARI

Bayramali Ergashovich KILICHEV,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Farangiz Nurmatovna SHAROPOVA,
Buxoro davlat universiteti
filologiya fakulteti talabasi

Kishilik jamiyatining qadimiy maskanlaridan sanalgan Buxoroning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti Zarafshon daryosi bilan bevosita aloqadordir. Hozirgi Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi ko‘plab tarixiy nomlarning shakllanishi Zarafshonning quyi oqimidagi jihatlarga borib taqaladi. Tarixi, madaniyati, kundalik turmushidagi mushtarakliklari sababli Buxoro va Navoiy viloyatlarida bir xil nomlar ko‘plab uchraydi. Ushbu axborotda mazkur hududdagi aytim toponimlar semantik va etimologik jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Zarafshon daryosi, Quyi Zarafshon hududi, Buxoro, Navoiy, etnonim, toponim, etnotoponim, oykonim.*

Geografik jihatdan Zarafshon daryosining quyi qismida hozirgi Navoiy va Buxoro viloyatlari joylashgan. Ushbu hududlar o‘tmishda turli davlatlar tarkibida bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan ular mansub bo‘lgan maskanlar o‘zgarib borgan. Lekin mazkur hududlarning Zarafshon daryosi bilan bevosita bog‘liqligi sababli ular Quyi Zarapfqshon hududi deb nomlangan hamda bu nom bugungi kunga qadar o‘zgarishsiz yetib kelgan.

Quyi Zarafshon nomi ostida birlashgan bu hududlarda aholining etnik qatlami, kasb-kori, mashg‘ulotlari, urf-odat va marosimlari ham o‘zaro mushtarak bo‘lganligi sababli ularda uchraydigan toponimlarda ham bir qator o‘ziga xosliklarni kuzatish mumkin. Ushbu axborotda biz Navoiy va Buxoro viloyatlari toponimiyasida qo‘llanadigan mushtarak nomlar etimologiyasi hamda semantikasi xususida fikr yuritamiz.

Afg‘onon – Buxoro viloyatining Buxoro hamda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlaridagi qishloq nomi. Toponim *afg‘on* etnonimi bilan bevosita aloqador. *Afg‘onon* – afg‘on xalqiga mansub kishilar yashagan maskan. Bu nomning paydo bo‘lishiga aholining migrastiyasi asos bo‘lgan.

Arabxona – Buxoro, Kogon, Karmana, Shofirkon, Qorako‘l, G‘ijduvon tumanlaridagi qishloq nomi. *Arabxona* – «arablar yashaydigan joy» ma’nosida. *Arab* etnonimi asosida ko‘plab toponimlar shakllangan. Bizning hududimizga

arablarning bir qismi VIII-IX asrlarda, bir qismi keyingi asrlarda kelgan. Aslida professor V.A.Shishkin ta'kidlaganidek, O'zbekistonda arablarning qachon kelganligi hanuzgacha uzil-kesil aniqlangan emas.

Tadqiqotchi N.Adizova o'zining monografiyasida *arab* so'zi asosli nomlar O'zbekistonning ko'pchilik viloyatlarida uchraydigan qishloq va mahallalarni atashini qayd etgan. *Arablar, Arabon, Arabo (Arabo)* va boshqa ko'rinishdagi atamalari ham mavjud bo'lib, ular «arablar qishlog'i», «arablar yashaydigan joy» ma'nolariga ega. Bu nomlar O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi davridan boshlab, undan keyingi asrlarda ham kelib o'rnashgan arablar bilan bog'liq [1, 10].

Prof. T.Nafasov arablar istiqomat qiladigan aholi punktlarida quyidagi tur arablar mavjudligini qayd etgan: 1) arab tilini bilmaydigan, qarluq lahjasida gaplashadigan arablar; 2) arab tilini biladigan, o'zbekcha so'zlashadigan, tojik tilini bilmaydigan arablar; 3) arab va tojik tilini bilmaydigan, o'zbekcha so'zlashadigan arablar; 4) arab tilini bilmaydigan, tojik va o'zbek tillarida so'zlashadigan arablar. So'nggi ikki tur arablar yashaydigan aholi punktlari *Arabxona* deb ataladi. Etnik tarkib joylarning nomlanishiga asos bo'lgan [2, 45].

Ayronchi – Buxoro, Romitan, Navoyi, Shofirkon, Qiziltepa tumanlaridagi qishloq nomi. Ayronchi o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomidir. Kenagaslarning *ayronchi* degan urug'i bor. Nom yasama etnonim bo'lib, *ayron* va *-chi* morfemalaridan tuzilgan. *-chi* affiksi ma'no va vazifasiga ko'ra etnomika va toponimikada *-li, -lik* affikslariga yaqin turadi: *ayronchi – ayronli (-k), kiyikchi – kiyikli (-k)* kabi.

Asbob – Vobkent, Romitan, Qiziltepa, Shofirkon tumanlaridagi qishloq nomi. XI-XII asrlarda biror kishiga qarashli yer *asbob* deyilgan («asbob» arabcha so'z, birligi «sabab» (XVI-XVII asrlarda, odatda, yerdan tashqari mulk *asbob* deb atala boshlangan. Buxoro viloyatidagi *asbob* deb atalgan qishloqlar bundan 6-7 asr oldingi davrdan qolgan toponimlar bo'lsa kerak. *Asbob* so'zidan keyin bu yer kimniki yoki qanday joy ekanligini bildiradigan aniqlovchi bo'lgan, chunonchi, *Asbobi Kofiron* ya'ni «Kofirlar yeri». Keyingi davrlarda aniqlovchi so'zi tushib qolib, *Asbob* terminining o'zi qolgan [3, 19].

Bahrin – Olot, Vobkent, Romitan, Karmana, Xatirchi tumanlaridagi qishloq. Navoiy viloyatida *Tamabahrin* (Xatirchi tumanidagi qishloq va ko'cha nomi) hamda *Quchchibahrin* (Xatirchi tumanidagi qishloq nomi) ham mavjud.

Bahrin turkiy urug'lardan birining nomi bo'lib, toponim shaklida ko'p uchraydi. Bu urug'ning *qoraqalpoq, bahrin, uyali bahrin, nayman bahrin, bag'anag'li bahrin* kabi tarmoqlari bo'lgan. *Bahrin* – turkiylashgan mo'g'ul qabilalardan biri.

Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarayi turk» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, mo'g'ul xoni Bichinkayonning Barin ismli o'g'li bo'lib, Bahrinlar

oʻshaning nasli ekan. Etnograf V.V.Radlovning ta'kidlashicha, mangʻit sulolasiga mansub har bir boʻlajak Buxoro xonini toʻrt qabila — ming, alat (arlot), bahrin va batash vakillari kigizga oʻtqazishib, toʻrt uchidan baland kutarishgan. Bahrinlar xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol oʻynaganlar, yuqori davlat mansablariga tayinlanganlar. 16-17-asrlarda bahrinlarning katta bir qismi Dashti Qipchoqdan Toshkent vohasi, Fargʻona vodiysi, Buxoro xonligi hududiga koʻchib oʻtgan, koʻpchiligi oʻtroqlashib, qabila va urugʻlarini unutib yuborishgan. 1924-yil ma'lumotiga binoan, Oʻzbekistonda 9 mingga yaqin (Zarafshon vohasida – 2300 kishi, Buxoro viloyatida – 3770 kishi, Jizzax tumanida – 2000 kishi) bahrin boʻlgan. Bahrinlar bir qancha urugʻlarga boʻlingan, eng yiriklari — bagʻonali, qoraqalpoq, uyali [5, 669].

Boʻston – Olot, Jondor, Qiziltepa tumanlaridagi qishloq nomi. Boʻston odamning mehnat faoliyati natijasida bunyod etilgan obod, serbogʻ, gullagan joy. Boʻston etnonimi ham bor. Bir qancha *Boʻston* deb atalgan joylar oʻsha urugʻ nomidan kelib chiqqan. Shunisi qiziqki, oʻzbek urugʻlarining koʻpchiligi muayyan ma'no anglatadi: *Boʻston* – etnonim, *boʻston* – guliston. Xoʻsh, bunday paytda toponimlarni qanday farq qilish kerak? Bizning kuzatishimizga qaraganda, agarda toponim hech qanday qoʻshimchasiz birgina oʻzakdan iborat boʻlsa, u albatta, etnonim boʻladi [3, 35]. Margʻilon atrofida oʻzbeklarning *bastan* urugʻi qayd etilgan. Qirgʻizlarning ham *bastan* urugʻi bor. *Bostan* – turkiy qabiladan biri. Xullas, *boʻston* urugʻi nomi (etnonim)dan atoqli ot (oykonim)ga oʻtgan.

Gumbaz – Qiziltepa tumanidagi qishloq nomi. Qubbali bino gumbaz deyilgan; shu bilan birga toza suv saqlanadigan sardobalar ham ustida pishgan gʻishtdan gumbazi boʻlganidan qisqagina *gumbaz* deb atalgan. Nom hududdagi inshoot asosida paydo boʻlganligini taxmin qilish mumkin. Lekin aytish lozimki, Zarafshon daryosida yashaydigan qoraqipchoqlarning bir urugʻi *gumbaz* deb atalgan [6, 123]. Nomga etnonim asos boʻlganligi ham ehtimoldan xoli emas. Buxoro viloyatining Kogon tumanida Xoʻja Gumbaz qabristoni ham mavjud.

Darxon – Karmana, Gʻijduvon tumanidagi qishloq nomi. VII asrdan boshlab yozma manbalarda qayd qilingan, *tarxan – tarxon – tarxun* soʻzining kelib chiqishi aniq emas. M.Ryasyanen xitoy yo koreys tilidan, G.Dyorfer ham turkiy tillarga boshqa tillardan oʻtganligini ta'kidlaganlar. VIl-VIII asr Mug togʻi hujjatlarida Samarqand hukmdorining ismi Tarxun, Hazar xonlarining ismlarida, gruzin ism va familiyalarida ham shu oʻz bor. *Tarxan* soʻzi turli variantda koʻpchilik turkiy va moʻgʻul, eronim, kurd, osetin, soʻgʻd, afgʻon, gruzin, arman, venger, rus tillarida mavjud.

Darxon yoki tarxon soʻzining a) *mansab nomi;* b) s*oliq va toʻlovlardan ozod qilingan kishi;* c) *tabarruk, daxlsiz mulk;* d) *temirchi* (hozirgi moʻgʻul

tilida) kabi ma’nolari bor [7, 47]. A.I.Abayev *tarxan – darxan* so‘zining osetincha deb qarab uni s*ud va sudya* [8, 442] deb izohlangan. Sudya ma’nosi bilan bu so‘z eski venger tiliga alan tillaridan o‘zlashgan. Sudya ish faoliyatiga ko‘ra tarjimon. Slavyan tillarida *tarxan* so‘zining shu ma’nosi mavjud. Sudya va tarjimon so‘zlari o‘rtasida semantik bog‘liqlik bor, ya’ni har ikkalasi ham tushuntirib beruvchi. Shimoliy eroniy tillarga xos *tarxon* so‘zining, *tarjimon* kabi aniq ma’nosidan imtiyozli, taniqli kishi kabi umumiy ma’no kelib chiqqan. Ana shu ma’nosi bilan u unvon mansab nomi sifatida qo‘llangan, kishi ismlari tarkibiga qo‘yilgan. Ana shu ma’no bilan u turkiy va boshqa tillarga o‘tgan. Kichik Osiyoda qadimda *tarxun* – xudo, shoh, hukmdor nomi. XI asrda Gruziyada *Tarxon, Tarxuniya* ismlari bo‘lgan: gruzin tilida darxan – tarxan: *shahzoda shoh qizi, hukmdor unvoni, mansabdor, yuksak unvon* ma’nolariga ega bo‘lgan. Gruzin tilidan eroniy tillar orqali boshqa tillarga o‘tgan. Turkiy va mo‘g‘ul tillariga ham shu tarzda o‘zlashgan. *Xonning aziz kishisi, soliqdan ozod kishi, imtiyozli kishi yoki tabaqa, e’zozlangan kasb egalari, qurolsiz hunarmand, rassom* kabi ma’nolari keyinchalik yuzaga kelgan. Qadimgi turkiy yodnomalarda *tarxan* unvonni bildirgan va turkiy kishi ismlariga qo‘shilgan: Alp Tarxan, Ayluch Tarxan va boshqalar. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, arg‘ular tilida bekni bildirgan, islomiyatdan ilgari qo‘llangan. Toponim kasb-kor, amal-mansab nomidan olingan.

Xullas, Quyi Zarafshon toponimiyasida bir qator o‘xshashliklar mavjudki, bular hududning tarixi, geografik xususiyatlari, aholining etnik qatlami hamda turmush tarzi bilan bevosita bog‘liqdir. Zarafshonning quyi oqimida joylashgan maskanlardagi nomlarning boshqa yana bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni semantik va etimologik hamda tarixiy jihatdan tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki tarix va etnografiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – B. 10.
2. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 45.
3. Қораев С. География ном маъносини биласизми? – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 19; 35.
4. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л.: Наука, 1934. – С. 49.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – Б. 669.
6. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974. – С. 123.

7. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 47.
8. Абаев А.И. Этимологические заметки. Труды института языкознания. Том №6. – М.: Наука, 1956. – С. 442.

DARBAND VA OQQO‘TAL TOPONIMLARI TAHLILI

Sharif YOQUBOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Maqolada Darband va Oqqo‘tal toponimlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tahlil davomida ularning o‘zaro aloqadorligi aniqlanadi. Oqqo‘tal so‘zi bir qator tovush o‘zgarishlariga uchrab bugungi kunda ushbu ko‘rinishga ega bo‘lib qolganligi nazariy jihatdan asoslanadi. Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida qo‘llangan «Temirdan qurilgan darvoza» haqidagi fikrlari yuqoridagi toponimlar bilan mushtaraklikni tashkil etadi.

Tayanch so‘zlar: *toponimika, Darband, ko‘tal, tovush o‘zgarishi, Baqtriyaning Darband mudofaa devori, temirdan qurilgan darvoza*.

Toponimlar onomastikaninig bir turi bo‘lib ayrimlari juda qadim zamonlardan buyon mavjud bo‘lsa, bir qator toponimlar yaqin o‘tmishimizda hosil bo‘lgan nomlar hisoblanadi. Ba’zi toponimlar hozirgi kunda ham yuzaga kelayotgani ma’lum. Shuning uchun ular qaysi davrda yuzaga kelgan bo‘lsa o‘sha davr kishilarining turmush tarzi, yashash sharoiti, an’analari, urf-odatlarini, diniy va dunyoviy dunyoqarashlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Shu jihati bilan ular o‘zbek tili leksikasining rivojlanib borishiga monand ravishda taraqqiy etadi. Ayrimlari o‘tmish davrlar darakchisi [1, 44-45] bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim toponimlarning ma’nosini oson tushinib olish mumkin bo‘lgani holda ba’zilarining semantik mazmunini bir qator tadqiqotlar orqali tushunib olish, uning asl ma’no-mohiyatini anglab olish mumkin. Chunki ularning ayrimlari o‘tmish davrlarda paydo bo‘lib keyinchalik xilma-xil sabablarga ko‘ra tovush o‘zgarishiga uchrab to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini tushunib olish qiyin bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda Viloyatimizning Boysun tumanidagi mashhur Temir darvoza hududida joylashgan Oqqo‘tal toponimi ham ana shunday joy nomi hisoblanadi. Termiz - Toshkent avtomobil yo‘lining Sho‘rob daryosi ustiga qurilgan ko‘prikdan o‘tib bir oz yurilgach, Boysundan kelayotgan yo‘l Darband qishlog‘idan ikki km. o‘tib Termiz-Toshkent yo‘liga qo‘shiladi va birdan g‘arbga buriladi. Shu

yerda bir-biriga yaqinlashib qolgan ikki tog‘ o‘ng tomonida Sarimas tog‘i va chap tomonida Suvsiz tog‘ining tik qoyalari ko‘zga tashlanadi. O‘rtada esa Oqqo‘tal tizmasi ikki tog‘ orasida yastanib yotibdi. Tabiatan ikki tog‘ni birlashtirib turuvchi suniy suv omborining to‘g‘oniga o‘xshab ko‘rinadi.

Darband so‘zining kelib chiqishiga Oqqo‘tal tizma tog‘ining tabiiy tuzilishi asos qilib olingan bo‘lishi ham mumkin. Chunki uzoq-uzoqlardan boshlangan Suvsiz va Sarimas tog‘lari Darband qishlog‘i yoniga kelib, Suvsiz tog‘i birdan pasayib Sho‘rob daryosining vodiysiga qo‘shilib ketadi. Sarimas tog‘i esa ushbu hududga kelib osmono‘par qoyalarini ko‘z-ko‘z qilib, g‘arbga keskin burilib, yo‘nalishini o‘zgartiradi. Ikki tog‘ orasidagi ochiq joyda yastanib yotgan Oqqo‘tal tizmasi 1,5 km.lik ikki tog‘ orasidagi joyda paydo bo‘lib, har ikkalasini belbog‘day bog‘lab turadi. U tog‘lar orasidagi bandga o‘xshaydi. Oqqo‘tal tizmasi 100-150 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, bu tabiiy tizma (kichik tog‘) o‘rtadagi ochiq joyni qo‘l bilan yaratilgan qirday bog‘lab turadi. Bu holat ayniqsa, qirning janub tomonidan yaqqol sezilib turadi. Tog‘lar oralab Sho‘rob daryosining bir tekis vodiysiga yetib borgan sayyoh ko‘z oldida bir tekis ikki tog‘ orasidagi qir(ko‘tal) ko‘zga tashlanadi. Ana shu tog‘lar orasidagi ikki tog‘ni bir-biriga birlashtirib turgan Oqqo‘tal tizmasi balandligi tabiatning takrorlanmas mo‘jizasi sifatida ikki ulkan tog‘ni 100-150 metr balandlikdagi tog‘ tizmasi bilan bog‘lab turibdi.

«Ko‘tal» so‘zi turkiy va mo‘g‘ul tillariga xos so‘z. Mo‘g‘ul tilida *xo‘to‘l* –tepa, uncha katta bo‘lmagan qiya balandlik [2, 556] ma’nosini bildiradi. Bu so‘z qo‘shni Afg‘oniston hududida tez-tez uchrab turadi va u kichikroq tog‘ va balandliklardan oshib o‘tish joyiga nisbatan ishlatiladi. Tojikiston va Qirg‘izistonda ham bu leksemali oronimlar ko‘p. Oqqo‘tal toponimi ham ***oq*** va ***ko‘tal*** (sifat+ot) so‘zlarining o‘zaro qo‘shilishi natijasida kompozitsion usulda hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z. So‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi jarayonida bir qator tovush o‘zgarishi ro‘y bergan. Oq so‘ziga *ko‘tal* so‘zining qo‘shilishi natijasida oq so‘zining oxiridagi chuqur til orqa jarangsiz q undosh tovushining ta’sirida ko‘tal so‘zining boshidagi sayoz til orqa k undosh tovushini o‘ziga o‘xshatib q tovushiga aylantirib olgan. Bu hodisa tilshunoslikda progressiv assimilyatsiya deyiladi. Ikkinchi ko‘tal so‘zidagi til oldi yumshoq o‘ tovushi o‘ziga yonma-yon turgan qattiq q tovushi ta’sirida til orqa qattiq **o‘** tovushiga aylangan. Shu tufayli Oqqo‘tal so‘zining leksik ma’nosida qisman noaniqlik yuzaga kelgan. Mahalliy odamlar talaffuz qulayligiga erishish uchun bu so‘zni o‘zlaricha madaniylashtirib Oqqo‘ton, Oqdavon, Oqtepa kabi turli xil ko‘rinishda ishlatishadi (Oqko‘tal-Oqqo‘tal). Aslida bu so‘z qo‘tal tarzida ishlatiladi. Bir qator ilmiy kitoblarda ham huddi shunday ishlatilganligini kuzatamiz [4, 9]. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida Afg‘onistonda bo‘lgan voqealarni tasvirlar ekan «ko‘tal» so‘zini tez-tez tilga oladi. Ushbu asarning 188-betida Javak ko‘tali, Tul ko‘tali, Bozarak ko‘tali,

Shibartu koʻtali, Qipchoq koʻtali kabi koʻplab koʻtallar uchraydi. «... Yana biri Parvon yoʻlidir , ulugʻ koʻtal bila Parvon orasida yana yetti koʻtal bor uchun Haftbacha derlar. Andarob tarafidin ikki yoʻl kelib ,ulugʻ koʻtalda qotilib haftbacha bila Parvonga kelur. Bisyor pur mashaqqat yoʻldur» [5, 188].

«Koʻtal» soʻzi ayrim hollarda balandlik, band, toʻsiq, kichikroq dovondan oshib oʻtadigan yoʻlga nisbatan ham ishlatilishi kuzatiladi. Janubdan shimolga tomon harakat qilayotgan yoʻlovchi Oqqoʻtal tizmasiga yaqinlashar ekan, eski Darband nazorat punkti yoniga yaqinlashgan sari bu tizma ikki togʻ orasidagi toʻsiqqa, bandga, qoʻl bilan yaratilgan sunʼiy tizmaga oʻxshab koʻrinadi. Bu haqda Z. M. Bobur «Boburnoma «asaridagi quyidagi fikrlari ham muhimdir. «Yana biri Gʻurband viloyatidir. Ul viloyatlarda koʻtallarni *band* derlar. Gʻoʻr sari bu koʻtal bila borurlar, gʻoliba ul jihatdin Gʻurband debturlar... Derlarkim, Gʻurband togʻlarida kumush koni va lojuvard koni boʻlur.» [5, 93). Oqqoʻtal toponimi tarkibidagi sifat soʻz turkumiga kiruvchi *oq* soʻzi ushbu tizmaning tabiiy tarkibi ohak toshlardan tuzilganligi [6, 47)ni koʻrsatadi. Bugungi kunda Oqqoʻtal tizma togʻi qaridan gips qazib olish sexining mavjudligi ham buning isboti hisoblanadi. Ushbu qoʻshma soʻz tarkibidagi koʻtal soʻzi oq soʻzi bilan qoʻshilib, ikki osmonoʻpar togʻ oʻrtasidagi tabiiy toʻsiqqa oʻxshaydi. Ikki katta togʻning yarim belidan ancha past holatda togʻ tizmasi yastanib yotibdi. Bu tizmadan yoʻlovchilar erkin oʻta olmaydilar. Undan oʻtish turli xil mashaqqatlarni taqozo etadi. Yaqin atropda Oqqoʻtalday oʻtish joyi yoʻq. Qadimda ota-bobolarimiz ana shu togʻ tizmasini oʻz mamlakatlarining xavfsizligi uchun xizmat qiladigan tizmaga aylantirgan. Ilk Kushon davlatining hukmdorlari ana shu tabiiy tizmaning eng baland joylarini tanlab Suvsiz va Sarimas togʻlari orasida dushmanlardan himoya qiluvchi harbiy istehkom qurganlar. Ushbu istehkom devorlarining qoldiqlari baʼzi joylarda saqlanib qolgan. Uni oddiy koʻz bilan erkin kuzatish mumkin. Ayniqsa, Sarimas togʻining baland qoyalariga borib taqaluvchi shimol tomonidagi qismi yaqqol koʻrinib turadi. Bu inshootning qoldiqlari Sherxoji qoʻrgʻonidan turib kuzatgan odamga tizmaning kunchiqar tomoni boʻylab Shoʻrob daryosiga tomon pastlab choʻzilib ketgan qismi ham yaqqol kurinib turadi. Bu ulkan inshootga odamlar uzoq yillar eʼtibor bermay kelar, faqat qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qolgan yodgorlik sifatida qarab kelar edi. Akademik Rtveladze E. V. tomonidan oʻtgan asrning 70-80- yillarida olib borilgan tadqiqotlari asosida bu yodgorlik Kushon davlatining shimoli – gʻarbida qurilgan «**Baxtriyaning Darband mudofaa devori»** sifatida kashf qilindi [7, 34]. Hazrat Navoiy «Saddi Iskandariy « dostonida Iskandar qoʻshinlari bilan Kashmir hukmdori Mallu oʻrtasidagi birinchi toʻqnashuv tafsilotlarini bayon qilishda Oqqoʻtal tizmasi ustiga qurilgan harbiy istehkomni asos qilib olgan koʻrinadi.

Bu yoʻlkim anga togʻ oʻlub har sari,

Kelib arzi taxmin bila yuz qari.
Ani ahli Kashmir darband etib,
Iki tog‘ni bir-biriga payvand etib.
Yuz ellik qari avji rif’at anga ,
Yana muncha dag‘i zaxomat anga.
Aningdek qo‘yub gaj bila xoro tosh,
Ki yerdin bo‘lib ko‘kka yakpora tosh.
Temurdin yasab anda darvozaye.
Falak toqidin toqi andozaye. (SI., 213)

Sug‘diyonada qattiq qarshilikka uchragan Iskandar o‘z yo‘nalishini Hindistonga burdi. Barcha lashkarboshilar singari o‘zining olimlari qo‘shin boshliqlari bilan kengashib Hindistonga boradigan asosiy yo‘l o‘zanlarini belgilab oldi. Bu yo‘lda unga ikki katta to‘siq bor edi. Biri Samarqandning janubini qurshab olgan Hisor tizma tog‘lari bo‘lsa, ikkinchisi Jayhunday katta daryodan o‘tib olish kechuvlarini belgilash edi. Albatta, yuz minglab qo‘shinlarni bir joydan ikkinchi mamlakatga o‘tkazish bir necha yo‘nalishda olib borilar edi. Lashkarboshi ana shu yo‘nalishlarni belgilab oldi. Bu yo‘lning asosiy o‘zani Surxon vahosidan o‘tardi. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonini yozar ekan, avvalo, Iskandarday ulug‘ lashkarboshining harbiy harakatlar yo‘nalishini o‘rgandi va shu asosda doston voqealarini tizib chiqdi. Hindiston tuprog‘iga yo‘l olgan qo‘shinlarning Temir darvoza hududida ro‘y bergan dastlabki to‘qnashuvlarini tasvirladi. Iskandar bu yerda Kashmir hukmdori Mallu qo‘shinlari bilan birinchi bor Temir darvoza hududida to‘qnash keldi. Buyuk mutafakkir bu voqeani tasvirlashda kashmirliklarning jodugorlik va afsungarlik detallaridan foydalanadi. Iskandarni esa ilm-fan sohibi sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlaydi. Qadimgi Baqtriya bilan Sug‘diyona chegaralarida qurilgan qadimgi «Baqtriyaning Darband mudofaa devori»dan foydalanadi. Iskandarning ko‘p sonli qo‘shin bilan kelayotganini bilgan Mallu juda katta mudofaa devorini quradi va sehr jodu kuchi bilan Iskandar qo‘shinlarini mavh etmoqchi bo‘ladi.

Demay kimsa darbandu boru ani,
Tasavvur qilib aql jodu ani.
Ichinda iki ming kishi chorasoz,
Bori hiylapardozu afsuntiroz. (SI., 213)

Iskandar qo‘shinlari Mallu qurgan jodugarlar mudofaa devorlariga hujum boshlashga kirishadi. Qo‘shinning oldingi saflari jodugarlar qo‘rg‘oniga yaqinlashar ekan bir mudhish voqeaga duch keladi. Iskandar qo‘shinlarining oldingi saflari dushman mudofaa chizig‘iga ming qadam qolganda birdan madori qurib yerga yiqiladi. Hatto otlar ham holsizlanib yer bilan yakson bo‘ladi. Iskandar bu voqea sodir bo‘lgan joyni Arastu hakim bilan borib kuzatdi va olimlarini yig‘ib kengash o‘tkazdi. Ikki kundan keyin Iskandar olimlari

tomonidan yasalgan qudratli qurol vositasida dushman harbiy inshootini tormor keltirib, uni to‘la egalladi. A.Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida tasvirlangan harbiy istehkom «Suvsiz» va «Sarimas» tog‘lari orasida zohir bo‘lgan Temir darvoza hudidiga to‘g‘ri keladi [8, 63-68]. Temir darvoza Alisher Navoiy yashagan davrda ham harakatda bo‘lgan va odamlar undan o‘tib turgan. O‘sha davr adabiyotida ham tilga olingan. O‘z davrining barcha ilmlarini mutafakkir darajasida bilgan shoir Temir darvozaning turli nomlarini va yoshligidan ixlos qo‘ygan ustozi Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma «asarida Qahalqa deb nomlanganidan xabari bor edi. (A. Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida Temir darvoza deb nomlangan Bo‘zg‘alaxona darasining tasviri aniq misralarda ifodalangan. Biroq Oqqo‘tal tizmasi ustida qurilgan Suvsiz va Sarimas tog‘larini birlashtirib turgan mudofaa devorlarining qoldiqlari va hozirgi adabiyotlarda Sherxoji qo‘rg‘oni nomi bilan yuritilayotgan harbiy inshoot ham bor edi. Bularning barisini ko‘rgan Navoiy bunday mustahkam qal’ning darvozasi bo‘lishini ham idrok qilgan shoir «Temirdan qurilgan darvoza» terminini ishlatadi va uning tafsilotlarini bayon etadi. Chunki shoir asarni yozar ekan, asosiy e’tiborni «Baxtriyaning Darband mudofaa devori» ga qaratadi.Chunki bu mudofaa inshooti Oqqo‘tal tizmasining qirrasida qurilgan edi.

Toponimikada ishlatilgan o‘rin-joy nomlari aksar atrofdagi aholi manzilgohlari yoki boshqa bir toponimik birliklarda, oronimlarda uchrashi kerak. Shu jihatdan qaraganda, hududimizning qayeridadir ko‘tal so‘zi ishtirok etgan va shu nomga monand joy nomi takrorlangan bo‘lishi mumkin. Diqqat bilan kuzatganimizda Sayrobdan Panjobga boriladigan yo‘lda Ko‘tali Panjob va darbanddagi Ko‘tali Sharif nomli ko‘tallar Oqqo‘tal tizmasidan uncha uzoq emas. To‘ra Nafasov Tojikiston va Qirg‘izistonda ham ko‘tal leksemali oronimlar ko‘p ekanligini ta’kidlagan holda Dehqonobod tumanidagi Ko‘tantog‘ toponimini ko‘tal so‘zining varianti deb hisoblaydi (8, 105). O‘zbek Milliy ensiklopediyasining 5-tomida O‘zbekistonda O‘zbekko‘tal, Tojikko‘tal singari ko‘plab ko‘tal komponentli joy nomlarining uchrashi bayon etiladi [9, 195] Demak, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va O‘zbekistonda kelib chiqishi turkiy tillarga borib taqaladigan ko‘tal so‘zi keng tarqalgan.

Oqqo‘tal so‘zi bilan Darband toponimi ma’lum darajada bir-biri bilan aloqador ko‘rinadi. Z.M.Bobur ta’kidlaganidek, ko‘tal so‘zining «band» ma’nosi ham bor. Fikrimizcha, band so‘zi bilan ko‘tal so‘zi bir-biriga yaqin hisoblanadi. Ular bir-birini taqozo qiladi. Chunki har bir ko‘tal ma’lum darajada band hisoblanadi. Har bir kichikroq banddan o‘tish jarayoni ba’zi bir mashaqqatlarni keltirib chiqaruvchi balandlik (ko‘tal) hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Э.Бегматов. Қадимий даврлар даракчиси. // Совет мактаби. 1967 й. 8-сон, – Б. 44-45.

2. Монголско-русский словар. – М., 1957. – Б. 556.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 105.
4. Аннаев Т., Тилавов Б., Худайбердиев Ш. Бойсун археологик ёдгорликлари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – Б. 9.
5. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 193.
6. Пословская О.П. Жанубий Ўзбекистон тоғларида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б. 47.
7. Ртвеладзе Э.В. Стена Дарбанда Бактерийского // Общэственные науки Узбекистана. 1986 г. № 12. – С. 34.
8. Ёқубов Ш. Дарбанд атамасининг услубий қўлланиши // Сурхондарё: илм, фан ва тафаккур. 2022. Махсус сон. – Б. 63-68.
9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 5-том. – Б. 195.

XO‘JAYLI TUMANI ETNOTOPONIMLARINING LINGVISTIK TAHLILLARI

Zamira Yuldashevna IBRAGIMOVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nonzodi

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri sanalgan Xo‘jayli tumani etnotoponimlarining lingvistik jihatdan tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: *joy nomlari, ko‘hna qal’alar, hududning tarixi, geografik nomlar, toponimlar, antroponimlar, etnonimlar, gidronimlar, agronimlar, teonimlar.*

Qoraqalpog‘iston mintaqasidagi joy nomlarining lug‘at tarkibi asosan turkiy, arab, fors-tojik, mo‘g‘ul, slavyan va qadimgi xorazmiy, so‘g‘diy, hind-dravid, sanskrit tillari unsur (element)lari tarkib topgan. Qadimgi xorazmiy tilining substrati hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston mintaqasida ko‘plab toponimlar, antroponimlar, etnonimlar, oykonimlar, oronimlar, gidronimlar, agronimlar, zoonimlar, teonimlar, astronomik nomlar tarkibida saqlanib qolgan. Masalan, Gandimiyon, Durbadik, Mizdakxon, Gavurqal’a, Anqoqal’a, Zumuxshir, Navkat, Saxtiyon, Kerdor, Darsan, Kalta minor, Tuproqqal’a, Kat, Os, Olon, Mazdubast va b. Masalan, Mazdubast – degan nom tojikcha bo‘lib,

Mazda to‘g‘oni demak[4:28], Tuyamo‘yinning chap qirg‘og‘idagi do‘nglar ilgari Mazdubast nomi bilan yuritiladi. Sakr-ash-shayton toponimi arabcha bo‘lib, (Shayton to‘g‘oni) va boshqa[4:74] kabi nomlar ostida yuritilgan. Shu munosabat bilan yuqorida keltirilgan Sakar-ash-shayton (Shayton to‘g‘oni) degan nom bilan *Mazdubast* degan nom bir-biriga dualistik ravishda mos keladi. Mazdubast nomida ezgulik xudosi esga olinsa, *Sakra-ash-shayton* nomida unga zid bo‘lgan yovuzlik xudosi tilga olinadi. Aytish joizki, arab termini «shayton» so‘zining mahalliy ekvivalenti, shu kunga qadar aniqlanmagan.

Qoraqalpog’istondagi ko‘hna qal’alar tarixi qadimgi davr bilan bog’lanadi. Bunga shu kungacha saqlanib kelayotgan moddiy va madaniy yodgorliklar, ko‘hna qal’alar tahlili guvohlik beradi. Professor S.P.Tolstov rahbarligida tashkil qilingan Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasining ilmiy xodimlari tomonidan 1937 yildan boshlab Xorazm va Qoraqalpog’iston Respublikasi qududida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari qadimgi Qoraqalpog’iston hududidagi ko‘pgina ko‘hna qal’alarning tarixini ochib berishga muvoffaq bo‘ldi. Xorazmda arxeologik va etnografik ekspeditsiya ilmiy xodimlari izlanish olib borgan davrda Xorazm vohasining ko‘hna qal’alari ko‘p joylashgan makon – hozirgi Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a, To‘rtko‘l, Beruniy, Xo‘jayli, Qo‘ng’irot tumanlari hududida qurilgani aniqlandi.

Xo‘jayli – Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. O‘rta asr yozma manbalarida Xo‘jayli shahri *Mizdakxan* nomi bilan mashhur bo‘lgan. U haqida X asrda istiqomat qilgan arab geograflari Ibn Ruste hamda al-Ishtrahiylar yozib qoldirgan. Shuningdek, yana bir arab geografi al-Maqdisiyning qayd etishicha, Mizdakxan 12 ming feodal qal’alarining markaziy shahri bo‘lgan. Shaharning eng qadimiy qismi Gauir qal’a nomi bilan ma’lum bo‘lib, u to‘qqiz gektardan ortiq maydonga ega tabiiy tepalik sanaladi[5:678]. Miloddan avvalgi IV asr - milodiy XIV asrlarining arxeologo-me’moriy majmuasi. Mizdakxon - 2 mingdan ziyod yillar avval paydo bo‘lgan qadimiy qabriston[5:634].

Xo‘jayli shahri tarixdagi eng dastlab Mizdaxqon nomiga ega. Ibn-Rustaning bayonlaridan ma’lum. Xo‘jayli shahar tarixi bir qator ilmiy hujjatlarda qayd etilgan. Xususan D.Belasarovning yozishicha, Xo‘jayli shahrining tarixi mintaqada joylashgan tarixiy joylar, ularning tarixi, olimlarning Xo‘jayli shahri haqidagi fikrlari, shaharda o‘tmishdagi tarixiy voqealar va ularning ahamiyati haqida ma’lumotlar keltiradi. «***Xo‘jayli***» nomli kitobida – Xo‘ja diyori xojalar, ya’ni payg‘ambar avlodlari ma’nosida, hududdagi odamlar zich joylashgan, bu yerda aholining katta qismi xo‘jalar edi. D.Belasarovning Xo‘jayli tarixi haqidagi ma’lumotlari boshqa olimlarni ham qiziqtirgan va bir qator olimlar o‘rgangan. S.P.Tolstov, Y.G.G‘ulomov,

V.V.Bartold tarixchilarning Yu.Yakubovskiy, S.K.Kamolov, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G.Xozoniyozov, M.Sh.Qidirniazov, M.To‘rabekov, O.Yusupov, M.Qarliboyevlarning ilmiy izlanishlarini qayd etish mumkin. Ilmiy hujjatlar va ularda keltirilgan tarixiy hujjatlar ma’lumotlarga ko‘ra, Xo‘jayli xo‘jaliklar ichida eng zich joylashgan markaz bo‘lgan edi.

O‘rta Osiyo davlatlarini bosib olish bilan bog‘liq vayronaga aylangan Mizdaxqon shahri XIII asrning ikkinchi yarmida yana qayta tiklandi. Ikki baland tepalik orasidagi ochiq keng jabhaga yangi shahar quriladi. Oddiy xalq orasida shahar «***Antakya***» deb ham ataladi. Shahar Oltin O‘rda davrida gullab-yashnagan. «***Buyuk ipak xalqaro savdo yo‘li***» uchun ochildi. Ularning o‘rtasida yer osti qurilgan Nazlimxon Suliv, Shamun Nabi, Kirq Shepard arxitekturasi joy nomlari alohida o‘rin tutadi.

XIVasrning oxiri XV asrda Amudaryoning orqa oqimidan Sariqamish tomonga oqishi suv tanqisligining paydo bo'lishiga olib kelishi, ichki va tashqi siyosat vaziyatga qarab, shaharning kattaligi yoyilgan, shahar aholining ma'lum bir qismi boshqa joyga ko‘chishga majbur bo‘ladi. XVI-asr o‘rtalaridan boshlab Amudaryo suvoqimi tiklanadi. Qadimgi irmog‘i bo‘ylab Orol dengizi tomon oqadi Xo‘jayli jonlanadi. Xalq orasida «Mazlumxon Suliv» nomi bilan mashhur bugungi kungacha saqlanib qolgan zardushtiylik diniy an’analari saqlqngan obida sanaladi. Xo‘jayli (Antakya, Mizdaqxon) bizning eramizdan oldingi III asrga tegishli.

Nazlimxon suluv – Mizdaxon majmuasida XIII asrda qurilgan bu tarixiy obidani Nazlimxon Suliv deb ham atashadi. Obida ishida turmushga chiqmasdan vafot etgan qiz ham dafn etilgani aniqlangan. Uning qabri ustidagi toshlarga fors tilida falsafiy she’rlar bitilgan. Keyingi yillarda qoraqalpoq adabiyotida xalq orasida mashhur bo‘lgan she’riy drama yaratilib, Nazlim ismli o‘g‘il bilan Kansuliv ismli qiz o‘rtasidagi munosabatlar haqida hikoya qilinadi. Ammo xalq orasida bolakayga Nazlim deb nom berish odat emas. Maqbaraga qo‘yilgan qiz zodagonlar oilasidan bo‘lgani, qabr toshidagi yozuvlar fors tilida yozilganini inobatga oladigan bo‘lsak, Nazlimxon nomi qiz bolaga qo‘yilgan ism bo‘lib sanaladi. Toponimning o‘zagi shaxs nomi emas, balki unga berilgan epitet bo‘lishi ehtimoli ko‘proq. Qizning Mazlumxon suliv (so‘zma-so‘z - Mazlum Xonsuliv) ismli epiteti, ya’ni forscha mazlum - «qiynoqqa uchragan», «mazlum» va Xonsuliv ismli qiz epiteti rivoyat ruhiga ko‘proq mos keladi. Shuningdek, turkiy xalqlarda arab tilidan tarjima qilingan «Mazluma» nomi mavjud. Qiyoslang: Mazlumaxon Suluv – Nazlimxon Suluv, yoki Mazlumaxonning qizi – Nazlimxon Suluv. Bu «Ulyum» antropotonimining etimologiyasi yanada chuqurroq o‘rganish va chuqur izlanishni taqozo etadi. Mahalliy aholi bu yodgorlikni «Qizlar uyi» deb ataydi.

Nazlimxon suliv Osiyoning o‘rta asrlarida Ismoil Somoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Muhammad Tekesh, Sanjar, To‘rebekxonim, Biybixonim kabilar qatorida turgan xalqimizning qadrli xotirasi.

Qoraqalpog‘iston toponimlarini o‘rgangan K.Abdimuratov o‘zining ilmiy tadqiqotida «*Nega bunday deb ataladi?»* degan savolga javob beradi. Bu borada Xo‘jayli tumanidagi tarixiy obidalari, balki u yerdan o‘tib turgan suv xavzalari, ariq, irmoq, kanallari haqida ma’lumotlar bergan: «Xo‘jayli shahridan Katta ***Suuenli*** – Lenin kanali o‘tadi. Bu kanalning eski nomi Suuenli. U Taxiatoshning yonidan o‘tib, Xo‘jayli ustidan o‘tib, Qorateren ko'liga quyilardi. Shu Suuenlining eski qopqog‘i Xo‘jaylining ustidan o‘tib turgan. *Suvli dengiz* ma’nosi o‘z-o‘zidan ravshan, aslida bu atamaning paydo bo‘lishi tasodif. Bunga baliqning ko‘pligi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Xo‘jaylida odamlar qadim zamonlardan beri baliqchilik kasbiga yaqin bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi baliqchilik bilan kun kechirardi. Xo‘jaylining g‘arbiy qismida ***Xatep*** degan katta eski japning eski anhori bor edi. **Xatep** so‘zini bugungi kunda tilimizga tushunarsizday seziladi. Aslida bu arabcha so‘z, uning ma’nosi arabcha «hotf», «xatib» so‘zlarining infinitividir.

Xatep **-** shiddatli daryo degan ma’nolarda bo'lishi xalq og’zaki qo‘shiq va she’rlarida:

«Ochilsang og‘zingni jinday,

Ko‘ksidan ko‘pik sachrasang» - aytganda, hayvon eshakdek tez, katta, g‘azablangan, kuchliroq narsa bilan tenglashtiradi. Bundan tashqari, «*xatepdagi norim eding*» degan so‘z bor. M.Qurbonov geografik atamalar qoraqalpoq tilida leksik-grammatik farqlarni o‘rganish jarayonida Xo‘jayli tumanidagi turli obyektlarni ifodalovchi *Do‘sliq ko‘chasi, Xojeli tumani, Daudin atyz, Do‘ngelek atyz, Iyinagash atyz, Suuenli kanali, Yangi Jap, Shaly Jap, Oydin ko‘li, Naymanko‘l, Oqshungil, Samanko‘l, Qayir, Nodiroy, Kumavil, Tashavil, Bo‘zavil, Bo‘zjap, Ketenleroyi, Qumjikkin, Turkman so‘yilgan, Tasjap kanali, Saryshungil, Gavir aul, Oqqum, Jilli kum, Pillanoy, Bayjap, Qorako‘l* toponimlarni misol qilib keltiradi.

Xullas, har bir xalq tilini to‘liq va mukammal bilish uchun uning ichki qonuniyatlarini aniqlash, etnoslarning tarixi va taraqqiyoti, til materiallari tahliliga lingvokulturologik, lingvogeografik va etnolingvistik xususiyatlarni ham hisobga olgan holda yondashishni talab qiladi. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo‘lib, ma’lumot tashiydi. Nomlardagi tarix – yashirin, niqoblangan, sehrli tarixga aylanadi. Geografik nomlarni to‘plash va o‘rganish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ibragimov Y., Ibragimova Z.Y. (2023) Qoraqalpog‘iston respublikasi Xo‘jayli tumani etnotoponimlari // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023/ № 12 11 -b. www. philologicalresearch.u
2. Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
4. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғориш тарихи. – Тошкент: Ўзакадемнашр, 1959. – Б. 28.
5. https://meros.uz/object/mazdohqon-majmuasi-gor-qaa-xo‘jayli

ERGONIMLARNI O‘RGANISH TAMOYILLARI XUSUSIDA

Fazilat Baxtiyarovna KULTAYEVA,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida ergonimlarni o‘rganishning muhim tamoyillari haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *pragmatik ergonim, nominativ funksiyasi, do‘kon, firma, reklama-axborot, nominator, adresat.*

Ergonimlar juda jo‘n va tizimli tuzilgan, shuning uchun onomastik lug‘atning ushbu toifasini tasniflash masalasi eng dolzarb masalalardan biridir. Ushbu obyektlarni tasniflashga birinchi urinish A.V. Superanskaya tomonidan *«Общая теория имен собственных»* monografiyasida amalga oshirilgan [1]. Muallif korxonalar va muassasalarni belgilash uchun nomlarning ikki turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Haqiqiy, kompaniya faoliyatining joylashuvi va xususiyatini aks ettiruvchi;
2. Ramziy, faqat faoliyatning tabiati haqida ma’lumot beradi [2]. Qisqartmalar oraliq o‘rinni egallaydi, chunki ko‘pchilik ergonimlar shifrlanganda haqiqiy turdagi nomlar bo‘lib chiqadi.

O‘zbek ergonomiyasini o‘rganishda ergonimlarning genotipik va fenotipik xususiyatlarining nisbati, ularning modellarida variantlar (konstantlar) ni aniqlashda muhim nuqta hisoblanadi.

V.Shimkevich «ergonimda pragmatikaning mavjudligi yoki yo‘qligi» asosida tijorat nominatsiyasining tasnifini taklif qiladi. Nopragmatik va pragmatik ergonimlar ajralib turadi, ular qabul qiluvchiga aniq nutq ta’siri bilan tavsiflanadi.

Pragmatik bo‘lmagan ergonimlar informativ ya’ni ma’lumot beruvchi (ular kompaniyaning biznes turi to‘g‘risida ma’lumot beradi oziq-ovqat do‘koni, mebel do‘koni) va informatsiv bo‘lmagan (*Cola, Lider*) tiplarga ajratiladi. Pragmatik ergonimlar guruhi ham tadqiqotchi tomonidan ikki guruhga bo‘linadi: pragmatik informativ bo‘lganlar korxona to‘g‘risida bevosita faoliyat turiga bog‘liq bo‘lmagan, ammo adresat uchun ijobiy imidj yaratadigan qo‘shimcha ma’lumot beradi. (*Eshiksozlik, zargarlik sohalarida*).

M.E.Novichixina tijorat nominatsiyasini tasniflash uchun uchta asosni ko‘rsatadi [3]:

1) motivatsiya darajasiga ko‘ra barcha tijorat nomlari motivatsiyalangan va motivsizga bo‘linadi;

2) nominatsiya tuzilishiga ko‘ra - bir so‘zli va qo‘shma so‘zlarga;

3) «oshkoralik darajasiga ko‘ra» tadqiqotchi tijorat nominatsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri (mahsulot yoki xizmat to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqiriladi) va bilvosita (nom va taklif etilayotgan mahsulot yoki uyushmadagi munosabatlar o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q) bo‘lishni taklif qiladi.

Ergonimlarni tasniflash uchun tijorat nomlarining etakchi funksiyalari asos hisoblanadi: nominativ, informatsion va reklama [4]. Shunga ko‘ra ergonimlar informativ, reklama-axborot, reklama va nominativlarga bo‘linadi. Reklama-axborot turi ergonomik maydonning o‘zagi bo‘lib, periferiya nominativ tip bilan ifodalanadi. Obyektni aniqlashning nominativ funksiyasi har qanday o‘ziga xos nomning asosiy vazifasidir. Mahsulot ergonimining asosiy funksiyalari axborot va reklamadir. Nominatsiyadagi ma’lumotlar va uni taqdim etish usuli tufayli ergonimlar o‘zlarining asosiy maqsadiga - mijozlar e’tiborini jalb qilishga erishadilar. Nomlar ikki turdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin: reklama

(*ta’kidlash-baholash xususiyatlari*) va informativ (*sotish obyekti haqidagi xabar*). Reklama funksiyasini amalga oshirish uchun turli xil vositalarning butun majmuasi qo‘llaniladi. Ular orasida eng ko‘p qirralilari quyidagilardir:

1) tarkibiy va hosilaviy vositalar;

2) boshqa tillarning, asosan, ingliz tilining leksik vositalari;

3) grafik vositalar.

Ergonimning ko‘p qirraliligi bevosita nomzodning murakkab aqliy va nutqiy faoliyatini aks ettiradi. Ergonimlarda tushuncha, niyat, so‘z tanlash bevosita obyektni nomlagan shaxsning shaxsiyatiga bog‘liq. U kommunikativ harakatning muvaffaqiyatidan manfaatdor, uning xabari (bu holda, belgi ko‘rinishida ifodalangan korxona nomi) murojaat qiluvchi tomonidan to‘g‘ri talqin qilinishi va o‘z vakolati doirasida bo‘ladi va bunga intiladi. Muvaffaqiyatli ergonimni yaratish shartlaridan biri bu belgining dialogizmi bilan bog‘liq bo‘lgan auditoriyani modellashtirish qonuniga rioya qilishdir,

chunki mijozning qiyofasi uni o‘ziga jalb qilishga va ishontirishga intilayotgan nomzodning ongsizligida mavjud. auditoriyani modellashtirish qonuni auditoriya obrazini yaratish uchun uni har tomonlama (ijtimoiy-demografik, psixologik, individual-shaxsiy va boshqalar) o‘rganish qobiliyatini shakllantiradi. Mumkin bo‘lgan auditoriyani tahlil qilgandan so‘ng, qabul qiluvchi aloqa strategiyasi va taktikasini tanlash ustida ishlay boshlaydi. Strategik qonunning hayotga tatbiq etilishi ma’ruzachining maqsadli qo‘yilishi bilan bog‘liq va bu erda savollar tug‘iladi: nima uchun? qanday maqsad bilan? (e’tiborni jalb qilish, odamlarni kirib sotib olishga majburlash va hokazo). Ergonimiyada ma’lum taktikalar bilan birga bir nechta nomzod strategiyalarini ajratish mumkin.

Diqqatni jalb qilish. Bu yerda eng muhim taktikalardan biri bu nomning o‘ziga xosligi. Yangi nom takrorlanmasligi kerak. omonim ergonimlar bir nechta bir xil obyektlarda bitta obyektni (do‘kon, firma) ajratib ko‘rsatish qobiliyatini yo‘qotadi va faqat ushbu mintaqa aholisining korxona tabiati haqidagi g‘oyalarini chalkashtirib yuboradi.

Murojaatchining axborot mazmuniga qiziqishining ko‘rinishi. Bu yerda quyidagi taktikalardan foydalaniladi:

a) obyektning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

b) aniq mijozga e’tibor qaratish.

Taklif etilgan narsaga ega bo‘lish istagini uyg‘otish. Nominator korxonaning ijobiy xarakteristikasini yaratish taktikasini qo‘llaydi.

Harakatga motivatsiya. Potentsial mijozni xaridga jalb qilishni o‘z ichiga oladi.

Eng muhim qonun nutq qonuni bo‘lib, u aqliy mazmunning og‘zaki bajarilishini belgilaydi. Ushbu bosqichda qanday og‘zaki vositalarni qo‘llash kerakligi masalasi hal qilinadi. B. N. Golovin nutq va til, nutq va tafakkur, nutq va ong, nutq va voqelikning o‘zaro bog‘liqligi asosida nutqning asosiy kommunikativ fazilatlarini - boylik, ifodalilik, qulaylik, izchillik, dolzarblik, soflik, to‘g‘rilikni belgilaydi. Shuningdek, ergonim yaratishda zarur bo‘lgan fazilatlar quyidagilardir:

- nutq mantiqi;

-muvofiqlik (nomning uslubini korxonaning asosiy maqsadiga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi);

- soflik (lingvistik me'yorlarga asoslanadi, lekin o‘zini qoida tariqasida, lingvistik darajada namoyon qiladi);

-nutqning to‘g‘riligi (hozirgi til me'yorlariga muvofiqligi: imlo, talaffuz, urg‘u, so‘z shakllanishi, leksik, grammatik va stilistik jihatdan).

Muloqot bosqichidan samarali muloqot qonuni va tizimli-tahlil qonuni amalga oshirilgandan so‘ng, postkommunikativ bosqich boshlanadi. Samarali muloqot qonuni shuni ko‘rsatadiki, ergonimni idrok etishda motivatsiya qabul

qiluvchining assotsiativ-majoziy xotirasini faollashtiradi va idrok mexanizmini katalizlaydi: birinchi navbatda, hissiy reaksiya paydo bo‘ladi, keyin hissiy-baholash munosabati va nihoyat, harakat (istak) yoki ushbu korxonaga murojaat qilishni istamaslik). Nihoyat, tizimli-tahliliy qonun haqida gapirganda, yakuniy bosqich nazarda tutiladi. Bunda aks ettirish namoyon bo‘ladi, ya'ni mijozning o‘z fikrlariga, qarashlariga, ongli narsaga qaytishi va shuning uchun shaxsning e'tiborini o‘ziga qaratish. Tizim-tahlil qonuni o‘z va boshqa birovning faoliyatini tahlil qiladi va savolga javobni o‘z ichiga oladi: nom muvaffaqiyatli yaratilganmi yoki yo‘qmi. Ko‘rib chiqilayotgan qonun tijorat korxonalari nomlarini axborot va reklama funksiyalari nuqtai nazaridan lingvistik-ritorik tahlil qilish bosqichlarini yakunlaydi. Demak, ergonimlar o‘ziga xos nom bo‘lgani uchun obyektni bir qator bir jinsli(bir turdagi narsa)lardan ajratib turadi, o‘ziga xos tuzilish va ma’noga ega. Ergonim otning barcha vazifalarini bajaradi, lekin shu bilan birga, tahlil shuni ko‘rsatadiki, u bir qator o‘ziga xos qo‘shimcha funksiyalarga ega bo‘lib, ular orasida:

1) nominativ-ajratish;

2) informatsion;

3) reklama (nomlash jalb qilish, qiziqish, fuqaroni potentsial mijoz sifatida javob berishga majburlash uchun mo‘ljallangan):

4) estetik (nom, qoida tariqasida, ijobiy assotsiatsiyani uyg‘otadi, go‘zal eshitiladi).

Adabiyotlar

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М., 2007. – С. 336.
2. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М. 1973. – С. 118.
3. Новичихина М. Е. Теоретические проблемы исследования эффективности коммерческой номинации: Автореф. дис. док.фил.наук. – Воронеж, 2004. – С. 56.
4. Крюкова И. В. Рекламное имя: рождение, узуализация, восприятие // Вопросы ономастики: учебное пособие. – Волгоград: Перемена. 2003. – С. 51.

BOYSUN TUMANI ORONIMLARIDA ETNOORONIMLARNING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Zohirjon Sobirovich KENJAYEV,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Oxirgi yillarda jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham onomasiologiya sohasining rivojlanishi, muhim tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi natijasida ushbu sohaning ko'plab tarmoqlarida katta natijalarga erishmoqda. Ammo o'zbek tilshunosligida onomastikaning muhim tarmoqlaridan biri oronimika sohasida yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Ayniqsa, etnooronimlar borasida ilmiz izlanishlar olib borish bugungi kun o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ju jihatdan olib qaraganda, mazkur maqola Boysun tumanidagi ayrim etnooronimlarni tahliliga bag'ishlanganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *onomastika, oronim, oronimika, etnonim, etnotoponim, etnooronim, Boysun, urug' nomi*.

Oronimika toponimikaning bir turi sifatida nominativ-indivudialllashtiruvchi vazifani amalga oshiradi va kichikroq tarkibiy qismlar bilan ifodalanadigan toponimlar sinfining elementlaridan biri hisoblanadi. U toponimlarning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan quyi tizimi sifatida oronimik leksikaning kenja sinfi sifatida tavsiflanadi [2, 280]. Oronimlarni ilmiy tadqiqi tilshunoslik oldida turgan bir qator muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oronimlarning nomlilik belgisi, hududiy joylashuvi, aholisining milliy madaniyati, mashg'uloti, qadriyatlari va an'analari, tili, lahjaviy o'ziga xosliklari va diniy-irfoniy qarashlarini ifoda etuvchi qator ma'lumotlarni o'zida namoyon qilish xususiyatiga ega.

Qadimiy va boy tarixga ega Boysun tumani ham oronimlarga boy hudud hisoblanib, ushbu hududda etnonimlar bilan bog'liq oronimlar talaygina. Xususan, Boysun nomining o'zi ham asli tog' nomi, ya'ni oronim sifatida yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik oykonimga o'tgan. O'zbek xalq dostonlarida, xususan, «Alpomish» dostonida Boysun ham tog' nomi ham o'lka nomi sifatida qo'llangan. X asrda yashagan tarixchi Abu Is'hoq Istaxriyning «Kitob masolik va al-mamolik» asarida Boysun atamasini «Basand» tarzida qo'llagan. «Hudud ul-olam» asarida esa **«Bosund»** tarzida qo'llangan [6, 29]. Boysun so'zining kelib chiqishi to'g'risida ham turli qarashlar mavjud. Masalan, tarixchi S.Tursunovning ta'kidlashicha, Boysun-Boysin so'zidagi *«chin» – «sin» – «shin»* aslida xitoycha so'zning talaffuzdagi o'zgarishlaridir, ***«chin»*** *– xalq, ulus, elat, qavm* ma'nolarini anglatadi. **«Boy»** so'zi turkiy so'z va u *katta, buyuk, ulug', yirik* ma'nolariga ega, chunonchi, Baykal (Boyko'l) dagi «boy»

va «ko‘l», katta ko‘l demakdir. Ko‘rinadiki, Boysun tarkibidagi «sun» – «chin, «sin» va «shin»larning o‘zgargan shakli ekan. Boysun – «boy» (katta), «sun» (xalq), ko‘p aholisi bor katta xalq ma’nosini anglatadi [4, 33] deyilsa, boshqa bir manbada «Boysun» atamasi qadimiy turkiycha «boy» va «sin»dan olinib, «ulug‘ tog‘« yoxud «katta tog‘« ma’nosini anglatgan. Qadimiy turkiy qavmlarda boshqa narsalarga sig‘inishlar qatorida toqqa sig‘inish ham mavjud bo‘lib,ular muqaddas tog‘lar sanalgan. Mahalliy rivoyatlarga ko‘ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning badavlat kishilari yashagan bo‘lib, «Biysin» atamasi «boylar qishlog‘i» ma’nosini anglatgan [7] deyiladi. Xalq orasida keyingi izohni ma’qul deb bilishadi.

Har bir viloyat, tuman joy nomlarining boshqa joy nomlariga o‘xshamagan o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi. Bu xususiyatlarni biz **etnotoponim**larda ham kuzatishimiz mumkin. Etnotoponimlar o‘tgan asrda jahon tilshunoslarining tadqiqot obyektiga aylangan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida etnotoponimlarning ilk tadqiqi o‘tgan asrning oxirgi choragida o‘rganila boshlandi. Xususan, S.Qorayev etnotoponimlar to‘g‘risida fikr bildirar ekan, V.A.Nikonovni quyidagi fikrlarini keltirib o‘tadi: «Etnotoponimlar nisbiy negativlik tamoyiliga amal qilib, *etnotoponimlar* biron millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning biron qismida emas, balki bu hududning chekka qismida, ya’ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina bo‘ladi», – degan fikrini keltirib, bu holat O‘zbekiston toponimiyasiga to‘g‘ri kelmasligini [8, 76] izohlab bergan. Etnooronimlar bevosita «etnotoponim» tushunchasi bilan parallel tarzda vujudga kelgan bo‘lib, Boysun tumanida etnooronimlar ham ko‘p bo‘lmasa-da uchraydi.

Etnonim so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, *ethnos* – xalq ma’nosini bildiradi. Tilimzda mavjud bo‘lgan har qanday etnos (qabila, xalq, urug‘, millat)ning nomlari yg‘indisi *etnonimiya*, onomastikaning, tarix va etnografiya kabi fanlarning etnonimlarini tadqiq qiluvchi soha etnonimika deb yuritiladi.

Bizga ma’lumki, insoniyat tarixiy taraqqiyoti natijasida, ma’lum bir sabablarga ko‘ra, to‘dalarga, guruhlarga, qabila va to‘plarga bo‘linib, mehnat qilib kun kechirganlar. Vaqt o‘tishi bilan urug‘, qabila nomlari ular yashagan hudud nomiga aylanib boradi. Bu nomlar *etnotoponimlar* deyiladi.

O‘zbek etnonimlarini tarixchilar, geograflar va tilshunoslar tadqiq qilishda munosib hissa qo‘shganlar. Xususan, tarixchilardan K.Shoniyozov, B.Ahmedov, S.Tursunovlar [5, 464] ning ilmiy faoliyatlarida, tilshunoslikda esa S.Qorayev, A.Turobov, T.Nafasov, N.Oxunov, K.Marqayev, R.Saydullayeva kabi tilshunoslar bir qancha tadqiqot ishlarni amalga oshirgan. Xususan, A.M.Turobov «Samarqand etnonim va etnooykonimlari» nomli monografiyasida etnonimlarning o‘rganilish tarixi, lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari, shakllanish omillari va gramatik tuzilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, monografiyada etnonimlarni atoqli yoki turdosh otligi munozarali

ekanligi, mohiyatiga ko‘ra turdosh otga yaqin tursada, urug‘, xalq, qabila nomlari bo‘lganligi uchun atoqli nomlardir deyilgan. Muallif etnonimlarni ilmiy an’anaga muvofiq atoqli otlar sifatida tahlil qilish ma’qul ekaligini aytib o‘tgan.

Sh.Marqayev «O‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqi (Janubiy O‘zbekiston hududi materiallari asosida)» deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida etnonimlarning til lug‘at sathidagi o‘rni, ularning lug‘aviy-ma’noviy tasnifi va ularnig grammatik tuzilishi to‘g‘risida fikr yuritgan.

Oronimlar tarkibida etnonim komponentli joy nomlari uchraydi. Ammo ayrimlari etnonim asosli yoki boshqa ma’noviy asosli ekanligi biroz munozarali hisoblanadi. Chunonchi, Boysun tumanida **Chaqmoqlisoy, Chaqmoqdara** singari orografik obyektlar mavjud bo‘lib, shu nomlarda ayrim munozarali o‘rinlarni ham rad etib bo‘lmaydi. A.Turopov monografiyasiga ilova qilgan etnonimlar haqida ma’lumot beruvchi beshta eng muhim asarlar («Majmu’ at-tavorix», «Tuhfat ut-tavorix-i xoniy», «Nasabnomayi o‘zbek», «Asomiy navadu du firqayi o‘zbek», «Qitmir»)da etnonim sifatida berilgan **chaqmoq** so‘zi bilan bog‘liqlik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki o‘zbek urug‘lari orasida «chaqmoq» urug‘i mavjud. Yuqorida qayd etilgan ***Chaqmoqlisoy, Chaqmoqdara*** xalq orasida tabiat hodisasi bo‘lgan chaqmoq urishi natijasida hosil bo‘lgan orografik birlik sifatida qayd etilish holatlari ko‘zga tashlanadi.

Arabtepa, Chimboy tog‘i, No‘g‘ayko‘k darasi, Jo‘gitepa, Jo‘gidapsan, Parcha tog‘i, Qangning darasi, **Xo‘jaqo‘chqor** (b-k), **Xo‘jahisor tepa** kabilarni, aynan, etnooronim sifatida qarashimiz mumkin. Bulardan ayrimlarining izohiga to‘xtalamiz. Jumladan, **Arabtepa** etnooronimini bevosita arablar istilosi natijasida Boysun tog‘ tizmalarida bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa yoki aynan ushbu xalq vakillarining o‘sha oronimda istiqomat qilgani bilan belgilashmiz mumkin. S.Qorayev *«Arab»* etnonimi bilan bog‘liq onomastik birliklar ko‘p qo‘llanishini ta’kidlab o‘tadi [8, 81].

Chimboy tog‘i chimboy (ba’zi manbalarda *chinboy*) – etnonimi bilan bog‘liq oronim hisoblanib, chimboy urug‘i vakillarining tuman hududidagi shu oronimda istiqomat qilishi bilan bog‘liq hamda no‘g‘aylar yashagan joydagi balandlikkka nisbatan qo‘llanilgan.

No‘g‘ayko‘k (No‘g‘ayko‘h) – tumandagi tog‘ nomi. Ko‘h – «tog‘«, «balandlik» ma’nosini anglatadi. Ushbu oronimning nomlilik belgisidan ham ko‘rinib turibdiki, bu tog‘ anchagina qadimiy tarixga ega. Bunga asosiy sabab qilib, No‘g‘ay antroponimining etnonimlashishini ko‘rsatishimiz mumkin. No‘g‘ay XIII asrning birinchi yarmida yashagan Oltin O‘rda davlatining tumanboshisi, xon Jo‘jining evarasi hisoblangan. Aynan ushbu shaxs hukmronligida istiqomat qilgan xalq «no‘g‘aylar» deb nomlangan. Ushbu

xalqning Boysun tog‘ tizmalarida istiqomat qilishi natijasida No‘g‘ayko‘k etnooronimi vujudga kelgan.

Jo‘gitepa. Jo‘gi – ayrim o‘zbek shevalarida lo‘li leksemasi orqali ifodalanadi. Jo‘gilarning asli vatani Hindiston bo‘lib, turli davrlarda u yerdan tarqalib, dunyoning ko‘p joylarida to‘dalashib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechiruvchi, ba’zi joylarda turg‘un yashaydigan bo‘lib qolgan xalqning nomi. Izohdan ko‘rinib turibdiki, ko‘chmanchi ushbu xalqning Boysun hududidagi tog‘ tizmasiga kelib o‘rnashishi ushbu etnooronimning nomlanishiga sabab bo‘lgan. Ushbu etnooronimning aynan nechanchi asrdan qo‘llanib boshlanganligini aniqlash mushkul. Chunki tarixiy manbalarda, lug‘atlarda ushbu oronim haqida ma’lumot berilmagan.

Tuman oronimlaridan ba’zilarini tasniflashda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, munozarali o‘rinlar mavjud. Masalan, tumandagi **Parcha tog‘i** o‘sha aholi tomonidan etnooronim sifatida qaraladi. Buning sababini Parchayuz urug‘i bilan bog‘lashadi. Parchayuz urug‘i – yuz qabilasi tarkibidagi urug‘, «yuz qabilasining bir parchasi, bo‘lagi» demakdir. Boshqa qabila, urug‘lar tarkibida ham parcha etnonimi uchraydi» [8, 141]. Ba’zi manbalarda, xususan, «Boburnoma»da Parcha tog‘ – qoldiq tog‘, ya’ni tog‘ning bir parchasi sifatida qarashadi. Tumanda mavjud etnooronimlarni nomlanishida ma’lum bir urug‘ning ko‘chib kelishi va o‘sha erda istiqomat qilishi bilan bevosita aloqadorligi deb belgilashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilshunosligida etnooronimlar masalasi dolzarb hisoblandi. Chunki o‘zbek xalqida turkiy urug‘lar ko‘pchilikni tashkil etib, azaldan tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashab kelishgan. Bu esa oronimlarning o‘sha xalq nomi bilan atalishiga sabab bo‘lib, oronimlarning nominatsion belgilarini aniqlash uchun muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.

2. Бегимов О. Ороним, оронимика ва унинг топонимика тизимида тутган ўрни // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. UIF =8.2| SJIF =6.051. November, 2022. – P. 280. www.in-academy.uz

3. Туропов А.М. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. Монография. – Самарқанд, 2002. – 163 б.

4. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 149 б.

5. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б.

6. Ҳудуд ул-олам. Қадимги битиклар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008.

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Boysun
8. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.

QARSHI SHAHRI YEMAKXONA NOMLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Barchinoy Gulmurodovna BAYMATOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Qarshi filiali mustaqil tadqiqotchisi,
TATU Qarshi filiali qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi

Maqolada Qarshi shahri umumiy ovqatlanish muassasalari nomlarining semantik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda nom (neym) tanlashning muhim muammolari tahlil qilib o‘tilgan, neymlarning o‘z va o‘zlashma qatlam doirasidagi statistikasi aniqlangan, lug‘aviy ma’nolari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *nom, so‘z, til, nomlash,o‘zbek,lug‘at, milliy, umumiy ovqatlanish muassasalari.*

Onomastika – tilshunoslikning alohida bir sistemasi, unda aniqlanishi va o‘rganilishi maqsad qilingan atoqli otlar muntazam «ohanrabo» mazmunga ega. Bu hodisalar tilning kechmishi (tarixi), zamonaviyligi va kelajagi bilan bog‘liq holda o‘z talqiniga ega bo‘ladi. O.Shukurov o‘zbek tili zamonaviy o‘zlashmalarini maxsus o‘rganar ekan, ergonimlarning nominatsiyasi murakkab jarayon ekanini K.V.Ovsyannikovaning tadqiqotlari natijasida tahlil etgan. Ta’kidlanishicha, qiyosiy-statistik tahlillarda Moskva shahridagi nomlar Voronejdagi nomlarga qaraganda ma’lumot bilan to‘yinish darajasi past. Shuningdek, Moskvadagi umumiy ovqatlanish korxonalarining aksariyat nomlari «jozibadorlik» tamoyili bo‘yicha 60-65 foizdan ko‘p bo‘lmagan ijobiy bahoga ega. Voronejda esa bunday nominatsiyalar ko‘rsatkichi 80 foizdan oshadi [1,100].

Qarshi shahri onomastik tizimi ham rang-barang va keng salmoqli butunlik bo‘lib, uni tashkil etuvchilar orasida yemakxona nomlari nominativ va funksional jihatdan o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Yemakxona nomlari sifatida talqin etilayotgan onomastik leksika *oshxona, choyxona, to‘yxona, restoran, kafe, fast-fud markazlari*larga qo‘yilayotgan atoqli otlarni tushunish mumkin. Albatta, yemakxona nomlari *kosmonim, fitonim* va *etnonim*larga qaraganda o‘zgarishga ko‘proq moyil bo‘lib, unga jamiyat a’zolarining maqsadli aralashuvi ta’sir etadi.

Internet tizimi asosida ishlaydigan «Google» xaritada Qarshi shahri yemakxona nomlarining 200 ga yaqin onomastik birliklari o‘rganildi. Onlayn xaritada aks etgan birliklar muntazam o‘zgaruvchan shaklga ega bo‘lsa-da, umumiy ovqatlanish muassasalari sifatida tanlab olingan nomlar bugungi kun talqini yuzasidan xulosalar chiqarish uchun o‘ziga xos tadqiq materiali vazifasini bajara oladi.

Nomlar tahlil qilinar ekan, ular o‘z va o‘zlashma qatlamga tegishli nomlar, nominatsiya asosi onomastik va apellyativ leksikadan iborat nomlar; o‘zbekcha yoki o‘zga tillarda ifodalangan nomlar; bir so‘zli yoki birdan ortiq so‘zli (birikmali) nomlar; o‘z ichida qaysi turdagi obyektni atashiga ko‘ra xoslangan nomlar; obyektga funksional jihatdan maqsadli, maqsadga yaqin va maqsadsiz qo‘yilgan nomlar, shuningdek, statistik, genetik hamda semantik kabi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

Masalan, «Google» xaritadagi Qarshi shahri onomastik tizimidagi 175 ta yemakxonadan 79 ta restoran, 28 ta choyxona, 10 ta to‘yxona, 41 ta kafe, 7 ta burger markazi, 2 ta baliq markazi, shuningdek, 6 ta morojnexona nomlari mavjudligi aniqlangan. Ulardan 98 tasi bir so‘zli, 75 tasi ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan nomlardir.

Yemakxona nomlarining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan ayrim onomastik birliklarni tahliliga e’tibor qaratamiz. Ulardan *Abdukarim, Bahodir Hafizaxon, Azizbek, Umida, Ismigul, Gavhar, Dilshodbek* kabilar shaxs nomiga, *Al-Madina, Nasaf, Dubai, Versal, New York, Andijon, Qarshi* kabilar shahar nomiga, *Кабриолет* avtomashina nomiga, *Ganga* daryo nomiga, *Oqsaroy, Tojmahal* kabilar mashhur me’moriy yodgorliklar nomiga, *Kamandi* (oykonim) onimi manzilgoh nomiga, *Paxtazor*onimi shahar hududidagi mittituman nomiga aloqadordir. Bundan tashqari, yemakxona nomlari uchun *ustoz, asr, bahor, iqbol, yog‘du, dunyo, mehmon, havas, chinor, nigoh, baraka, tantana, shabnam* kabi turdosh otlar, *jumladan, ohu, karp, baliq* kabi hayvon nomlari, *kish-mish, limon* kabi meva nomiga, shuningdek, *mumtoz, shinam, shohona, dilkusho (sherin/shirin)* kabi sifatlar ham tanlangan. Muhimi, o‘zbek taom nomlaridan *lag‘mon, osh, tabaka, shashlik, cheburek* kabi sanoqlilarigina yemakxona nomlari sifatida olingan.

Onomastik leksika turlari asosida shakllangan yemakxona nomlari ham mavjud bo‘lib, ularning nominatsiyasi bevosita sinergetik jarayon mahsuli hisoblanadi. Mualliflar ta’kidlaganidek, «... tilimizda ayrim so‘z va ifodalarning yangi ko‘chma ma’no (okkazional ma’no) hosil qilishi, yangi metaforalarning yuzaga kelishi, nutqiy neologizmlarning, me’yoriy so‘z yasash modellari asosida yangi so‘zlarning (okkazional yasalish jarayoni) yasalishi kabi holatlarning mavjudligi, bu jarayonlarda asta-sekinlik bilan okkazionallikdan uzuallikka tomon siljishlar sinergetikaning xaosdan tartibning, beqarorlikdan barqarorlikning yuzaga kelishi qonuniyati bilan

muvofiq» [2,78]hisoblanadi. Albatta, sanalganlarning qatoriga onomastik leksika tarkibidagi yemakxona nomlarining paydo bo‘lish hodisasini ham sanab o‘tish xato bo‘lmaydi. Negaki yemakxona nomlarining hosil bo‘lishida ham lingvosinergetik jarayondagi tartibsiz holatda tilda o‘z-o‘zini tashkil etish jarayoni mavjud. Ana shunday o‘z-o‘zini tashkil etish asosida shakllangan ko‘plab yemakxona nomilari ham mavjud bo‘lib, ular qatoriga *Abdukarim, Al-Madina, Bahodir, Tojmahal, Andijon, Hafizaxon, Kamandi, Nasaf, Dubai, Azizbek, Dilshodbek, Versal, Umida, Ismigul, Tohirbek* kabilarni keltirish mumkin. Ular orasida kishi ismlari bo‘lgan*Abdukarim, Bahodir, Hafizaxon, Azizbek, Dilshodbek, Umida, Ismigul, Tohirbek* kabilar shaxslarga atab qo‘yilgan nomlar, *Andijon, Dubai, Versal*kabi shahar nomlari topiladi. Kishi ismlariga atab qo‘yilgan nomlar aksariyat hollarda muassasa ta’sischilari yoki yaqinlarining ismi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular uchun muassasaga nom tanlash yaqinlarining nomini abadiylashtirish, muqaddaslashtirish, hurmat fenomenlari sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, yemakxona nomlarining nominatsiyasi rang-barang bo‘lib, nomlashdagi motiv turlarni uzoq tahlil etish mumkin.

Demak savol paydo bo‘ladi: onomastik leksika tarkibidagi ergonimlarning bir turi bo‘lgan yemakxona nomlarini tartibga olish jamiyat hamda tilshunoslik uchun muhim hisoblanadimi yoki jamiyatda yemakxonalarga nom tanlashning o‘ziga xos tamoyillari mavjudmi?

Olima D.E.Lutfullayeva, M.Saparniyazova, R.H.Davlatovalar o‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik asoslarini maxsus o‘rganishadi. Ular V.Y.Kojanovaning brend nomini yaratish qoidalarini keltirib o‘tadi:

1. Brend nomi oson talaffuz qilinishi lozim.

2. Brend nomi imkon boricha oson esda qolishi uchun fonetik jihatdan savodli tuzilgan bo‘lishi lozim.

3. Brend nomi boshqa tillarda ko‘ngilsiz assotsiatsiyalarni hosil qilmasligi uchun uni turli tillarni o‘rgangan holda yaratish lozim.

4. Brend nomi subyektiv ma’noda ijobiy qabul qilinishi lozim [3.20]. Shuningdek, ular qatoriga o‘zlari muhim deb hisoblagan ayrim muhim mezonlarni ham kiritishadi:

1. Brend nomi milliy til so‘zliklaridan iborat bo‘lishi lozim. Nomning xorij so‘zlari yoki xorij va milliy til birliklari birikuvidan iborat birikma tarzida hosil qilinishi uning til egalari tomonidan idrok etilishida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

2. Brend nomi til egalarining milliy-madaniy qarashlariga muvofiq kelishi lozim. Xalq milliy qadriyatlariga mos bo‘lmagan holatlarni aks ettiruvchi nomlar iste’molchilar tomonidan ijobiy qabul qilinmaydi.

3. Brend nomi iste’molchilarni o‘ziga jalb eta olishi lozim [4,13].

Brend nomini yaratish ko‘p jihatdan olib qaraganda murakkab masala. Ularga tilshunoslarning qo‘yadigan talablari ham rang-barang bo‘lib, ularning barchasi amal qilinishi talab etiladigan mutlaq qoidalar emas, balki tavsiyaviy xarakterga ega. Muhimi, bu orqali yaratilayotgan nomlarda jamiyatning intellektual mulki sifatida uning manfaatlariga zid kelmasligi, til qoidalari mezonlariga amal qilishi maqsad qilinadi.

Nom tanlashda ham o‘ziga xos yuridik, psixologik, marketologik yoki milliy va ma’naviy tamoyillar mavjud bo‘lishi kerakki, mulk egalari, albatta, uning huquqiy normalari bilan yaqindan tanishishlari lozim bo‘ladi. Umumiy ovqatlanish muassasalari uchun bunday nomlar ko‘payib borar ekan, zikr etilgan normalarga mos bo‘lmagan nomlarning jamiyatda tanqid qilinishi mulk egalariga xush kelmasligi tabiiy hol. Muhimi, yemakxona nomlari uchun tanlangan bunday nomlar unga tashrif buyuruvchi xo‘randalar uchun ham deyarli hech qanday ijobiy kayfiyat hosil qilmaydi. Ular bundan shartli nom sifatida foydalansa-da, tashrif buyurayotgan yemakxonaning mashhur taomi, qaysi manzilda joylashgan iyoki muassasaning turi haqida informativlik kasb etmaydi, aksincha chalg‘itadi. Shuningdek, yana ayrim yemakxona nomlari:*al-Madina* – Arabistondagi shahar nomi, *Tojmahal* – Hindistondagi boburiylar sulolasi davriga oid me’moriy yodgorlik, *Andijon* – respublikamizdagi viloyat yoki shahar nomi, *Kamandi* – Qarshi shahridagi qishloq nomi, *Nasaf* – Qarshi shahrining eski nomi, *Dubai* – Birlashgan Arab Amirliklari tarkibidagi mashhur shahar, *Versal* – Fransiyadagi mashhur shahar nomi kabilar nom va uning ortidagi tushuncha haqida tasavvur paydo qiladi. Biroq bunday nomlarda yemakxona mijozlari bilan bog‘lab turuvchi bevosita assotsiativ aloqa yo‘q.

Tilshunos olim M.Abdiyev muayyan yurt tarixi va uning o‘tmishini o‘rganishdagi ikki eng muhim manba hisoblangan osori atiqa (qadimdan, shuningdek, antik dunyodan bizgacha qolgan yodgorliklar) va yozma manbalar qatoriga joy nomlarini ham qo‘shish lozimligini yozadi. U so‘nggi paytlarda tuman va shaharlardagi ayrim tarixiy hamda mahalliy nomlarning *«Nurafshon», «Guliston», «Orzu», «Istiqlol», «Vatanparvar», «Madadkor»* kabilarga o‘zgartilayotganini afsuslanarli hol deb ataydi. Olimning fikricha, *«Quljamon, Beshkal* xunuk nom emas – o‘zbek urug‘larining nomi, shuningdek, *Qo‘tirbuloq* esa «Shifobaxsh buloq bor joy» degani» [5].

Xullas, Qarshi shahri yemakxona nomlari rang-barang va o‘ziga xos onomastik birliklardan tashkil topgan. Ularni o‘z va o‘zlashma qatlam, yuzaga kelish motivida onomastik va apellyativ leksikaning o‘rni kabilar asosida o‘rganish mumkin. Shuningdek, bunday nomlarning statistik, genetik hamda semantik xususiyatlariga ko‘ra farqlab o‘rganilishi ham onomastik sistemadagi birliklarning ichida kechayotgan jarayonlarni aniqlash va muayyan xulosalar chiqarishga asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Қарши, 2022. – 240 б.
2. Нурмонов А., Раҳимов А. Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 112 б.
3. Кожанова В.Ю. Лингвистические основы наименований брендов (на примере английского и русского языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 20 с.
4. Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-meyoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022. – 192 b.
5. Абдиев М. Қулжамон, Бешкал хунук ном эмас – ўзбек уруғларининг номи. Қўтирбулоқ эса «Шифобахш булоқ боржой» дегани. https://zarnews.uz/post/quljamon-beshkal-xunuk-nom-emas-ozbek-uruglarining-nomi-qotirbuloq-esa-shifobaxsh-buloq-bor-joy-degani.

«SHAJARAYI TURK» ASARIDAGI BA’ZI ETNONIMLARNING HOZIRGI O‘ZBEK ETNOTOPONIMLARIGA MUNOSABATI

Kamola Shavkat qizi ABDUVALIYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» asaridagi etnonimlar asosida bugungi etnotoponimlar tahlil qilingan. Tahlil davomida asardan keltirilgan parchalar, olimlarning qimmatli fikrlari, etnotoponimlarning joylashgan o‘rinlari haqida ma’lumotlar berilgan. Barlos, do‘rmon, jaloyir, mang‘it, nayman, qang‘li, qiyot, qipchoq va boshqa etnonimlar asosida shakllangan va bugungi kunda ham keng qo‘llanib kelinayotgan toponimlar, ya’ni tuman, shahar, qishloq, ovul, mahalla, ovul va ko‘cha nomlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *etnonim, toponim, etnotoponim, urug‘-qabila, barlos, do‘rmon, jaloyir, mang‘it, nayman, qang‘li, qiyot, qipchoq, arlot, kerayt.*

«Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining muarrixligi bilan mo‘g‘ul, turk tarixchilari orasida shuhrat qozongan va shu bilan bir vaqtda Xiva hukmroni (1643–1663) bo‘lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillarida ham tarjima qilingandir», – deb yozadi olim A. Semenov. Ayniqsa, O‘zbekiston,

Turkmaniston, Tojikiston xalqlari tarixini yorituvchi tarixshunoslar Abulg‘ozi asarlariga tayanch manbayi sifatida murojaat qilganlar [1, 8]. Biz ham bugungi o‘zbek toponimlarini tahlil qilishda «Shajarayi turk» asaridagi etnonimlarga murojaat qildik.

Ba’zi bir urug‘-qabilalar nomi bugungi kunga kelib unutib yuborilmoqda. Lekin ularning katta qismi hozirda viloyatlarimizning tarkibida joy nomlari sifatida yashab kelmoqda. O‘rganish jarayonida «Shajarayi turk» asarida etnonim sifatida o‘rganilayotgan urug‘-qabilalar nomi bugungi kunda toponim, etnooykonim sifatida uchrayotganligini kuzatamiz. Shunday etnonimlardan *barlos, do‘rmon, jaloyir, mang‘it, nayman, qang‘li, qiyot, qipchoq* va boshqalar kabilar misol bo‘la oladi. Ularni barcha viloyatlarimizda kichik joy nomlari sifatida uchratamiz. Aholisiga nisbatan urug‘ nomi sifatida qo‘llanmasa ham, joy nomi sifatida mavjud. Ushbu etnooykonimlarga -lik qo‘shimchasini qo‘shish orqali aholisini ifodalanadi.

Qipchoq etnonimi: O‘zbek urug‘laridan eng katta va asosiy qabilalardan biri qipchoq qabilasidir. Ushbu qipchoq etnonimi katta tarixga ega. Uni tadqiq qilish jarayonida uning anglatgan ma’nosi bugungi kunga kelib o‘zgarib ketganligiga guvoh bo‘lamiz. N.A. Baskakov «Shajarayi turk» asari bilan bir qatorda «Razvat us-safo», «Tarixi mulki ajam» va boshqa asarlarni o‘rganish asnosida qipchoq etnonimi haqida o‘z fikrini bildiradi. U «qipchoq» so‘zining qipchoq va qipichoq shakllarini keltirib, u daraxtning qobig‘i va kavagi ma’nosini bildirishini ko‘rsatdi [2, 23].

Qipchoqlar hozirgi turlik xalqlarning bir qanchasining tarkibida uchraydi. Masalan, o‘zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va qirg‘izlar tarkibida ushbu etnonim mavjud. Bugungi kunda ham ushbu xalqlar yashaydigan hududlarda qipchoq toponimi uchraydi. Qipchoqlarning kirib kelishi borasida turli olimlar turli fikrlar berdi. Ushbu etnos Movarounnahrda qadimdan yashab kelganligi haqida isbotlovchi dalillar yetarlicha. Masalan, N.A. Aristov qipchoqlarni eramizdan avvalgi 159-yilda Farg‘ona, Zarafshon, Toshkent, Xorazm hududlarida yashaganligi haqida yozib qoldirgan [3, 75-86].

Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Kattaqo‘rg‘on tumanlarida qipchoqlar o‘troqlashib qolganlar. Samarqand viloyatiga oid toponimlar tarkibida qipchoq etnonimiga oid bo‘lgan joy nomlari ham ko‘plab uchraydi. Misol uchun Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Qipchoq, Qipchoqrabot; Jonboy tumanidagi Sariqipchoq; chelak, Narpay, Past Darg‘om tumanlaridagi qoraqipchoq qishloqlari buning yorqin misolidir.

Arlot: «Ikkinchi o‘g‘li Arlat. Aning ma’nosi otaning sevar o‘g‘li temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nasli tururlar».

Arlot – Chingizxon o‘z o‘g‘li Chig‘atoyga taqdim qilgan to‘rtta mo‘g‘ul qabilasidan biri. Bu qabila hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismida o‘rnashib

qoladi [4, 164]. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham etnonim, ham toponim sifatida saqlanib qolgan. Peshku tumanida allot, Qorakoʻl tumanida olot shaklida uchraydi.

Barlos: «Uchunchi oʼgʻlining oti Qachuli. Aning oʻgʻlining oti Erdamchi barlas. Barcha barlas eli muning nasli tururlar. Oqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlasning maʼnosi sipahsolor temak boʻlur».

Barlos – oʻzbek qabilalardan biri. Barloslar Respublika hududida koʻchmanchi oʻzbeklardan (XV–XVI) oldin yashab kelgan qabilalardan biridir. Hozirgi paytda barloslarning avlodlari Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida yashaydi [4, 171]. Samarqand viloyatining Bulungʻur, Ishtixon, Jizzax viloyatining Baxmal, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanlarida Barlos, Barlosguzar hamda Chiroqchi va Kasbi tumanlarida esa Barlostoʻp nomli qishloqlar bor.

Bayovut: «Bu el koʻp uruq boʻlurlar. Ammo yaxshisi va koʻpragi ikki uruq boʻlur. Birisina Jadayin bayovut va taqi birina Makrin bayovut derlar. Jadayin va Makrin tegan oqaturgʻan ikki ulugʻ suv boʻlur. Ul suvlarning yoqasinda oʻltururlar erdi».

Boyovut – Respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urugʻlardan biri. Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Abulgʻozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» asarlarida Chingizxon qoʻshinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urugʻi tilga olingan. Boyavut «boy», «boylar» demak. Qozoqlarning argʻin qabilasi tarkibida ham bayavut urugʻi qayd qilingan. Baʼzi bir olimlar (masalan boshqird olimi R.G. Kuzeyev) boyovut bilan bayot aslida bir qabila deb hisoblaydi [4, 175].

Boyovut toponim sifatida ham yurtimiz hududlarida uchraydi. Fikrimizga eng yorqin misol sifatida Sirdaryo viloyatining Boyuvut tumanini olishimiz mumkin.

Dugʻlat etnonimi: «Sakkizlanchi oʻgʻlining oti Buljar dugʻlan. Moʻgʻul oqsoqni dugʻlan der. Bir oyoqi oqsoq erdi. Barcha dugʻlat uruqi aning nasli tururlar».

Duglat, duvlat, dulat – ushbu etnonim yuqoridagi izohga binoan olib qaraydigan boʻlsak, «choʻloq, oqsoq» maʼnolarni beradi. Oʻzbek, qozoq, qirgʻiz xalqlari orasida ushbu etnonim uchraydi. Jizzax viloyatining Baxmal tumanida Duvlat degan qishloq mavjud.

Doʻrman etnonimi toponim sifatida ham mavjud. Asarda uning maʼnosi asarda quyidagicha izohlanadi: moʻgʻul toʻrtni doʻrman der. Yot el bu yigitlarga doʻrmanlar teb ot qoʻydilar.

Doʻrman (doʻrmon) – XVI–XVIII asrlarda Dashtiqipchoqdan kelgan oʻzbek qabilalaridan birining nomi. Doʻrmonlar Zarafshon vodiysida, Surxondaryo va Toshkent vohalarida, qisman Xorazmda yashagan [4, 175]. Qiziltepa, Samarqand, Narpay, Romitan, Asaka, Kitob, Kasbi, Qamashi,

Qibray, Jomboy, Qorakoʻl, Ishtixon, Jondor, tumanlarida Doʻrmon, Doʻrmoncha, Doʻrmonon qishloqlari bor.

Jalayir: «Jalayir elining zikri: Qadim el turur. Benihoyat koʻp boʻlur erdi» [5, 42].

Jaloyir (Jalair) – oʻzbek, qozoq, qirgʻiz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk-moʻgʻul qabilasi. Oʻzbek jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota togʻlari etaklarida, Jizzax, Kattaqoʻrgʻon, Navoiy, Qorakoʻl tumanlarida, xorazmda yashagan va ikkita katta – qaychili va bolgʻali hamda boshqa mayda urugʻlarga (qargʻali, boshqird, qoraabdal, qorakoʻl, qorachopon, chuvuldoq, jastaban) boʻlingan [4, 188]. Zomin, Kattaqoʻrgʻon, Narpay, Xatirchi, Jarqoʻrgʻon, Shoʻrchi, Zangiota, Qibray, Quva tumanlarida Jaloyir, Rishton tumanida Jaloyirchek qishloqlari bor.

Kerayit: «Kiraytning maʼnosi qoraburan temak boʻlur. Bir kishining yetti oʻgʻli bor erdi. Yettisi ham qora. Onlargʻa xalq qiroytlar derlar erdi. Shundan tuqqanlarigʻa kiraytlar tedilar. Qadimiy el boʻlur» [5, 36]. Kerayit – 92 bovli oʻzbek qavmlari orasida tilga olingan qabila. Qozoqlar, qirgʻizlar tarkibida ham uchraydi (kerey shakli ham qayd qilingan. Turli manbalarda kerayit soʻzi «qora qoʻy», «qora odam» yoki «qargʻa» deb izohlangan. Etnonim oxiridagi «t» harfi koʻplik affiksi [4, 195].

Ushbu etnonim tomonim sifatida bir qancha hududlarda uchraydi. Jumladan, Navbahor, Koson, Ishtixon, Gʻuzor, Oqqoʻrgʻon tumanlarida Shu nomdagi qishloqlar mavjud. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus tumanida esa Kerayit ovuli bor.

Mangʻit etnonimi: «Shajarayi turk» asarida uchraydigan mangʻit etnonimiga toʻxtalib oʻtsak. Ushbu etnonim turkiy xalqlar tarkibidagi qadimgi etnik guruhlarning nomidir. Mangʻit soʻzi manbalarda «mangʻit», «mankit», «manqut» koʻrinishida uchraydi.

Mangʻit etnonimi yurtimiz hududlari etnonim sifatida uchrashi bilan bir qatorda toponim sifatida mavjud. Xatirchi, Jondor, Ishtixon, Xoʻjaobod, Jomboy, Bulungʻur, Qamashi, Qarshi, Chiroqchi, Xiva tumanlarida Mangʻit toponimi, Buxoro, Gʻijduvon, Kattaqoʻrgʻon, Peshku, Xatirchi tumanlarida Mangʻiton, Urgut tumanida Mangʻitobod toponimlari qayd qilingan.

Nayman: «Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari koʻp boʻlur erdi» [5, 204].

Nayman – yirik qabila uyushmasi. Koʻplab turkiy xalqlarning tarkibiga kirgan. XIX asrning 70-yillarida oʻzbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Fargʻona va Xorazmda yashagan. Oʻzbek-naymanlar XIX asrning oxirida 3ta yirik urugʻga boʻlingan: qoʻshtamgʻali, sadirbek va uvoxtamgʻali.

Ushbu etnonim Bugungi kunda yurtimizning koʻpgina hududlarida toponim sifatida mavjud.

Nukuz (nukus, nekus) – ushbu etnonim toponim sifatida ham uchraydi. Eng mashhur toponim sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukuz tumanini keltiramiz. Bundan tashqari, Koson, Shahrisabz tumanlarida Nekuz qishloqlari, Amudaryo, Chimboy tumanlarida Nukusovul ovullari bor.

Sariq – ushbu etnonimni yuqorida izohlab o‘tdik. Sariq toponimi ham ba’zi hududlarda qayd qilingan. Jumladan, Qiziriq, Muborak tumanlarida ushbu etnonim toponim sifatida uchraydi.

Uyshun (uyshin, usun, uysun) – qadimgi turkiy etnonim. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, boshqird, qoraqalpoqlar tarkibida uyshun (uysun) qabilasi (urug‘i) qayd qilingan. Urganch, Amudaryo, O‘rta Chirchiq, Kattaqo‘rg‘on, Xatirchi tumanlarida Uyshun (Uyshin), Andijon tumanida Uyshunmahalla, Uyshunchek qishloqlari bor.

Qarluq: «Qorluq elining zikri. Qorluq eli Mo‘g‘ulistonda berk tog‘larining ichinda yurt qilib o‘lturdilar».

Qarluq, qorluq – qadimiy turk qabilalari. IV–VI asrlargacha qarluqlar Sibirda yashagan, keyinchalik qarluqlarning bir qismi Yettisuvga ko‘chib kelib, VIII asr oxirida Qarluq davlatini barpo qilgan. X asr oxirida qarluqlar Movarounnahrga – Farg‘ona va Zarafshon vodiylariga ko‘chib kelgan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Zarafshon vodiysining o‘rta va quyi oqimlari, Surxondaryo viloyati hududlarida yashagan. Paxtachi, Olot, Muborak, Oltinsoy, Sho‘rchi tumanlarida Qorluq, Qorliq qishloqlari bor.

Qiyot: «Qayonning avlodi ko‘p bo‘ldi. Nukuzniki andin az bo‘ldi. Qayon avlodina Qiyot tedilar… Qiyot qayonning jami turur».

Qiyot – qadimgi turkiy qabilalardan biri. Ko‘pgina xalqlar, jumladan, o‘zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoq tarkibiga kirgan. Qiyot etnonimi toponim sifatida ko‘p hududlarda uchraydi. Qashqadaryoning yuqori oqimida, Zarafshonning o‘rta oqimida, Xorazm vohasida yashaganlar. Qorako‘l, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon, Bulung‘ur, Gurlan, Jomboy, Oqdaryo, Bekobod, Beshariq, Namangan, Navoiy, Shovot, Yangibozor, Narpay, Shumanay, Xo‘jayli, Qorao‘zak tumanlarida Qiyot, Qibray tumanida Qiyotariq, Qo‘ng‘irot tumanida Qiyotovul aholi punktlari bor.

Xulosa qilib aytganda, toponimlarning shakllanishida etnonimlarning ahamiyati yuqori. Etnoslarning joylashuv o‘rni ko‘p holatlarda toponimlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Etnonimlarni, etnotoponimlarni o‘rganish tilshunoslik uchun ham, tarix uchun ham dolzarb hisoblanadi. Toponomik areallarni tadqiq qilish etnoslarning tarqalish hududlarini aniqlashda qo‘l keladi. Tadqiqot uchun esa «Shajarayi turk» kabi asarlar qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Худойназаров Ҳ. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. – Тошкент, 1993.

2. Баскаков Н.А. К вопросу о приосхождении этнонима кыргыз // Советская этнография. – 1964. – №2.
3. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народности и сведения об их численности // Живая старина. – СПБ., 1896.
4. Qorayev S. Toponomika. – Тошкент: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
5. Абулғозий. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

DENOV TUMANIDAGI AYRIM ETNOTOPONIMLAR

Moxichexra Usmonovna MIRZAYEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
erkin tadqiqotchisi

Ushbu maqolada Denov tumanidagi ayrim etnotoponimlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Arg‘un,Barlos, Hazorbog‘, Joriqbosh, Ishqili, Kiyikchi, Oqlar, Potos, Po‘stindara, Xitoyon, Qorashulluk, Qorako‘z etnotoponimlari leksik-semantik tarafdan tahlil qilingan. Bu etnotoponimlar qaysi qabila yoki urug‘ga mansubligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *qabila, urug‘, kaltatoylar, barloslar, etnogenez, etnik komponentlar, arg‘ular, totem, hazora.*

Ma’lumki, o‘zbek xalqining etnik asosini, etnogenezini Movaraunnahr (ikki daryo oralig‘idagi) va Xorazmda yashagan (sak, massaget, sug‘d va xorazmiylar kabi) kishilar tashkil etgan. Shuningdek, o‘zbek xalqining shakllanishida bulardan tashqari Markaziy Osiyodan O‘rta Osiyo va Orol bo‘yida yashagan qadimgi va o‘rta asrlarda va har xil turkiy qabilalar ittifoqiga kirgan *qangli*, *qarluq*, *qipchoq* kabi turkiy tillarda so‘zlashuvchi etnik komponentlar ham ishtirok etgan [2;91].

Boshqa ko‘pgina turkiy xalqlar kabi o‘zbek xalqi ham qabila-urug‘lardan tashkil topgan. Akademik V.V.Bartold fikriga ko`ra dastlab 32 o‘zbek urug‘ bo`lgan. Lekin XVI asrda farg`onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiy «Majmuat-tavorix» asarida 92 o‘zbek urug‘ini tilga olgan. N.Xannikov o‘zining «Buxoro xonligi tasviri» (1843) kitobida «Nasabnomai o‘zbekiya»ga asoslanib, 97 o‘zbek urug‘ining ro‘yxatini keltirgan.

Qabila nomi joy nomidan oldin paydo bo‘ladi. Etnotoponimlar shu nom bilan ataluvchi xalq yashagan, yashayotgan yoki yashab ketgan hududdagina paydo bo‘ladi.

Etnotoponim (yunoncha etnos - xalq, topos - joy, o n o m a - nom) - qabila, urug‘-aymoq nomiga qo‘yilgan toponimlar: ***Qo‘ng‘irot, Nukus, Mitan*** [3;18].

Surxondaryo viloyati hududi O‘rta Osiyodagi qadimgi madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. O‘rta asrlarda Chag‘oniyon (arabcha manbalarda Sag‘oniyon) viloyatining tarixiy o‘zagi hisoblangan. Arab geografi Muqaddasiy (X asr) ma‘lumotlariga ko‘ra, Sag‘oniyonda 16000 ga yaqin qishloq bo‘lgan. Chag‘oniyon hozirgi Denov shahri yaqinida bo‘lgan. Ayrim manbalarda, Denovning qadimiy nomi deb aytiladi [4;681].

Denov tumanida 98 ta mahalla fuqorolar yig‘ini mavjud bo‘lib, ularning orasida etnotoponimlar ham talaygina. Shulardan biri ***Arg‘un*** bo‘lib, qadimiy turkiy qabilalardan birining nomi. U bir qancha turkiy (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz) xalqlar tarkibiga kirgan. M. Qoshg‘ariyda: *arg‘u,* ular *sug‘dak, kenjaklar* singari ikki (turkiy va forsiy) tilda so‘zlashgan. Arg‘ular Sirdaryoning quyi oqimida yashagan, Movoraunnahrning qadimiy o‘troq aholisi sanalgan. Janubiy O‘zbekistonda yashagan eng qadimiy qabilalardan biri. *Arg‘u+n* morfemalaridan iborat, ***-i*** affiksi qadimgi turkiy tilda ko‘plik, jamlikni bildirgan; ***-g‘un*** affiksining tarkibida ham shu qo‘shimcha bor: g‘u+n. Turli manbalarda *u arg‘u-arg‘un-arg‘o‘n, arqatug‘-arkagut-arqag‘un-arg‘o‘n, arqatug‘-arkagut-arqag‘unarg‘anut-arkanut-arkanud* tarzida qayd etilgan. A.P. Dulzonning fikricha, *-g‘un* uraloltoy tillariga xos ko‘plik qo‘shimchasi. Bu etnonimning fonetik o‘zgarishi: *arqag‘un > arg‘an > arg‘o‘n > arg‘u >arqa* [5;26]. Demak, arg‘u+n – *arg‘ular*, arg‘u qabilasiga mansub kishilar.

Barlos – qadimiy turkiy qabila nomi. Barlos va arlot (allot) urug‘larini bir urug‘dan kelib chiqqan deb hisoblashadi. Shu qadimiy qishloqda yashovchi qatag‘onlarning bir kichik bo‘limi barlos, o‘zlarini va yashash joylarini barlosto‘p deb atashadi. Denov, Sariosiyo, Boysun tumanlarining tog‘liq qishloqlarida istiqomat qilishadi. Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida boshqa turkiy qabilalar qatorida barloslar ham Doroga qarshi janglarda ishtirok etganligini yozgan. Ba’zi manbalarga ko‘ra, Barlos – kishi ismi, qadim o‘tmishda taniqli urug‘lardan biri bo‘lgan. Qadimgi etnonimlar asosan, qush, hayvon nomidan iborat bo‘lib, *totemni* bildirgan. Jumladan, qadimgi turkiy yodnomalarda bunday totemlarni ko‘plab uchratish mumkin. Barlos *lashkarboshi, yo‘lboshchi, botir jangchi* ma’nosini ham bildirgan. Bu ma’no barlos so‘zining lug‘aviy ma‘nosi emas, balki shu qabila (urug‘) vakillarining harbiy jasorati bilan bog‘liq xususiyatdir. Barlos – tarixan yasama so‘z; qadimda ham yo‘lbars (sher)ni ham burgutni bildirgan. Ana shu totem nomidan urug‘, qabila nomi yuzaga kelgan.

Hazorbog‘ forscha *hazor* (ming), *bog‘* (mevali va mevasiz daraxtlar, gul ekilgan joy (hozir ham shu hududda boshqa hududlarga nisbatan ko‘p gullar, daraxt ko‘chatlari o‘stiriladi),shahar, qishloqdan tashqaridagi daraxtzor)

so‘zlari asosida izohlash xalq orasida keng tarqalgan. *Hazora* – qabila nomi. *Hazorbog‘* - hazora qabilasiga mansub kishilar bog‘i, qishlog‘i.

Joriqbosh – Denov tumani juzlarining bir urug‘i sanaladi. Etnonim oykonimga o‘tgan.

Ishqili – qo‘ng‘irotlarning vohtamg‘ali bo‘limiga mansub urug‘lardan biri. Qirg‘izlarning *ichkilik* degan qabilasi bor. *Ichkilik, ishqili* o‘zakdosh. Ishqi – urug‘ning tamg‘asi nomi, ***-li*** affiksi qo‘shilgan.

Kiyikchi etnonimi. Qadimda *Kiyikchiovul, Ovulkiyikchi* nomlari ham bo‘lgan. Qishloq aholisining etnik tarkibi asosida nomlangan. Kiyikchikar Amudaryoning quyi oqimida Xorazmda, ozroq qismi Zarafshon vodiysida yashagan. Janubiy Forsistondagi kesamir qabilasi, qurama urug‘i tarkibida ham kiyikchi urug‘i bo‘lgan. B.X. Karmisheva kiyikchilarni mang‘itlarga mansub deb qaraydi. Kiyik – totem, totem asosida urug‘ nomlangan. –***chi*** affiksi ko‘plik va tegishlilikni bildiradi.

Oqlar etnonimi. *Oq* - turkman urug‘i. O‘zbek xalqining urug‘, urug‘ bo‘limlari nomi va patronimlar tarkibida *oq* so‘zi ko‘p takrorlanadi: *oqmang‘it, oqshix, oqpichoq, oqqo‘yli, oqto‘nni, oqkaltak, oqsori, oqtamg‘ali, oqchepkan, oqtona, oqchonach, oqtelpak, oqbo‘rvoy, oqvoy*. Bu tip etnonimlar ko‘pchiligining zid nomlari ham bor: *qoramang‘it, qoraqalpoq, qoratelpak, qoraqo‘ng‘irot, qoraquchchi, qorato‘nni, qoraqo‘yli, qoratona, qorakaltak, qorapichoq,* va h.k. Turkmanjuzlarning *oq* urug‘iga mansub qishloq *Oqlar* deb atalgan.

Potos - Surxondaryo turkmanjuzlarining voxtamg‘ali bo‘limiga mansubdir. Bundan tashqari *boloxo‘r, ko‘sa, qarg‘a, yo‘rg‘a, yos, taroqli, egarchi* (iyarchi) urug‘lari ham shu bo‘limga mansub. Etnonimning bosh va oxirgi tovushlari jarangli bo‘lgan: *Botoz~botos (potos)* va *batosh~botosh* (urug‘ nomi) genetik jihatdan bir sanaladi.

Po‘stindara esa *Po‘stin* urug‘iga mansub kishilar yashaydigan joy hisoblanadi. Po‘stin so‘zini shu hududning tog‘li joylarida yashaydigan aholi «*qalin ustki kiyim*» ma‘nosida ham ishlatadi.

Xitoyon qishlog‘ining nomi bo‘lsa qadimiy o‘zbek qabila-urug‘laridan biri bo‘lib, qozoq, qoraqalpoq, boshqirdlarda ham ***qo‘tay, qtay*** qabilalari bo‘lgan. B.X. Karmishevaning aniqlashicha, XX asr boshlarida Xitoyon qishlog‘ida juzlar yashagan. –***yon*** affiksi forscha bo‘lib, kishilar guruhini, jamoasini bildirgan.

Qorashulluk etnotoponimi. Qoraqalpoqlarda arus qo‘ng‘irotining *shulluk* urug‘i bor. Qashqadaryo - Surxondaryo qo‘ng‘irotlarida bu urug‘ nomi – *cho‘llik. Cho‘llik* – qanjig‘ali bo‘limiga qarashli 14 urug‘ning biri. *Shulluk~cho‘lluk* – bir etnonim, qorashulluk shu urug‘ning bir tarmog‘i.

Qorako‘z – umumturkiy etnonim. Kavkaz o‘g‘uzlarining *qorako‘zli* urug‘i bor. Eronda yashovchi turkiy xalqlarining

qaragyozli~garagyuzlu (qorako‘zli) qabilasi borligi ma’lum. Ular Xamadon viloyatida yashagan. Farg‘ona qipchoqlarining *shatay* urug‘ida qorako‘z urug‘ tarmog‘i qayd etilgan. S. Tursunov aytishicha, *qorako‘z* va *ko‘ztamg‘ali* etnonimlari bir xil nomlanish prinsipiga ega. Tamg‘asi ko‘z – qo‘sh dumaloq teshik (qal’a) shaklida bo‘lgan. Tamg‘asidan urug‘, nisbatlanib qishloq nomlangan. Qorako‘z Yakkabog‘, Dehqonobod, Denov qatag‘onlarining urug‘i.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Denov tumanidagi ko‘pgina toponimlar etnotoponimlardan paydo bo‘lgan. Bu etnotoponimlar esa oykonimlar(mahalla, qishloq nomlari)dan kelib chiqqanligiga amin bo‘lamiz. Maqolada keltirilgan ayrim qabila va urug‘ nomlari shu etnik birliklar uchun muqaddas sanalgan hayvon nomlari – totemlardan yuzaga kelgan. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo‘lib, ma’lumot tashiydi. Tobora unutilib borayotgan urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar bilan toponimlar munosabatini aniqlash etnotoponimika oldida turgan muhim vazifadir.

Adabiyotlar

1. Sheraliyev E. Kenagas etnosi va shevasi tasnifi. Ilmga baxshida umr. To‘plam. – Urganch: Xorazm nashr matbaa, 2021.
2. Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
4. Mirzayeva M. (2022). Grammatikc structure of some oykonyms of the Surkhandarya Region (on the example of Denau District). ISJ Theoretical &Applied Science. http://t-science.org/arxivDOI/2022/03-107.html
5. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
6. Ibragimov Yu., Ibragimova Z.Yu. (2023) Qoraqalpog‘iston respublikasi Xo‘jayli tumani etnotoponimlari // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023/ № 12 11 -b. www. philologicalresearch.u

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK» ASARIDA POLIZ EKINLARI NOMLARI

Shirinoy Asliddin qizi MUHSINJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan poliz ekinlariga xos nomlar va ularning lingvistik xususiyatlari tadqiq qilingan. Ta’kidlash lozimki, asarda qo‘llangan poliz ekinlarini aks ettiruvchi birliklar u qadar ko‘p emas, biroq ulardan ayrimlari bugungi kunga qadar yetib kelgan. Poliz mahsulotlariga oid leksemalarning «Devon» dan bevosita o‘rin olishi asarning lug‘atshunoslik ilmida naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.*

Kalit so‘zlar: *«Devon», poliz mahsulotlariga oid leksemalar, lingvistik tahlil, eski turkiy til, fitonim, birlik, tadqiq va tahlil.*

«Devonu lug‘otit-turk» asari tilshunoslikning ko‘plab sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan asar sanaladi, chunonchi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya, leksikografiya. Mahmud Koshg‘ariy asarida mavjud so‘zlarni arab tilida izohlab beradi va quyidagicha fikr bildiradi:

«*Men bu kitobni maxsus so‘zlar, sajlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Men iste’moldagi so‘zlarnigina berdim. So‘ngra men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo‘llanishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelingan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlaridan, maqollar keltirdim*».

«Devon»dagi oziq-ovqat mahsulotlari nomlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, lug‘at so‘z boyligida mavjud taom nomlari mazmuniy jihatdan xilma-xil ekanligining guvohi bo‘lamiz [1, 15]. Ularning tuzilishidagi ayrim o‘zgarishlar tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayrim taom nomlari hozirda to‘liq o‘z shaklini saqlab ulgurgan bo‘lsa, ayrimlari arxaik shaklda mavjud bo‘lishi, ba’zilari esa tarixiy so‘zlar qatoridan o‘rin olganini ko‘rishimiz mumkin. Shu jihatdan lug‘atda qo‘llanilgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlarini davr nuqtayi nazaridan uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

I. ***Istorizm(tarixiy so‘z)larga aylangan taom nomlari*** - asardan o‘rin olgan, lekin bugunga qadar yetib kelmagan, iste’moldan chiqqan leksik birliklar.

II. ***Arxaiklashgan*** - mazmunini saqlagan holda o‘z o‘rnini boshqa so‘zga «bo‘shatib» bergan so‘zlar.

III. ***XI-XII asrdan to hozirgi o‘zbek tiliga qadar o‘z shaklini ham, mazmunini ham saqlagan taom mahsulotlari nomlari***.

Maqola tadqiqi davomida taom nomlarining davr nuqtayi nazaridan yuqoridagi uch guruhga binoan o‘rganilishi mavzuning yanada kengroq ko‘lamda yoritilishiga yordam beradi. Birinchi guruhdagi tarixiy ko‘rinish kasb etgan taom nomlari o‘z mazmuni hamda shaklini bugungi kunda butkul yo‘qotgan taom nomlarini ifodalovchi terminlar hisoblanib, ular haqida faqat tarixiy manbalar orqali ma’lumot olish mumkin. «Devon»da qo‘llangan tarixiy ko‘rinish kasb etgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: *o‘sha, ashzuri, qag‘ut* va hokazo. «Devonu lug‘otit-turk» asarida o‘z ifodasini topgan, istorizm sifatida qo‘llanilgan istorizmlar asarda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, biroq o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskirgan hamda ular bugungi kunga qadar bizgacha yetib kelmagan. Biz bu turdagi oziq-ovqat mahsulotlari nomlari bilan faqatgina shu asar orqali tanishishimiz mumkin.

Arxaiklashgan taom nomlari borasida to‘xtalar ekanmiz, ularning «Devon»da salmoqli o‘rin egallaganining guvohi bo‘lamiz. Bunday turdagi oziq-ovqat mahsulotlari nomlari o‘z mazmunini bugungi kunda saqlagan bo‘lsa-da, biroq o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergan. Jumladan, *yun et* ifodasini oladigan bo‘lsak, bu birlik hozirda nutqimizda qo‘llanmaydi, o‘z o‘rnini boshqa leksikaga bo‘shatib bergan, ya’ni jigarga yaqin yerda joylashgan go‘sht. Yoki bo‘lmasa, *soğut* leksemasi aks ettirgan ma’no hozir xasip so‘zi bilan ifodalanadi. Bu turdagi arxaizmlarda leksik birlik eskirgan bo‘lsa-da, ammo tushuncha saqlangan hamda u boshqa so‘zlar yordamida o‘z aksini topganligi bilan ahamiyatlidir.

«Devon»da qo‘llanilgan uchinchi turkum so‘zlar muayyan shaklda hozirgi kunda ham saqlanib qolgan bo‘ladi. Shakl va mazmun saqlanishi so‘zning bugungi kunga qadar yetib kelishidagi muhim omil vazifasini bajaradi, jumladan, *tutmoch* leksemasi eski turkiy tilda faol qo‘llanilgan, bugungi kunda ham tilimizda mavjudligi bilan ahamiyatlidir; *et* so‘zi ham hozirgi o‘zbek tilida xuddi eski turkiy tilda qo‘llanilgani kabi bir xil ko‘rinishga ega.

«Devon» dan o‘rin olgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari tarixiy nuqtayi nazardan Qoraxoniylar davri bilan bevosita aloqador hisoblanib, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi faoliyatlar natijasi o‘laroq yuzaga kelgan. Ta’kidlash lozimki, asarda taom nomlarining ifodalanishi turfalikni kasb etishi bilan birgalikda, o‘sha davr nutqiy madaniyatidan ham darak beradi. Jumladan, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Qoraxoniylar davrida taom tortish an’analari mavjud bo‘lib, ularda «birinchi taom», «ikkinchi taom» kabi tushunchalar aks etgan [2. 66].

«Devon» da poliz mahsulotlarini aks ettiruvchi birliklar ham ishtirok etgan bo‘lib, *qaʏun* fitonimi bugungi kunda nutqimizda keng iste’molda bo‘lgan *qovun* leksemasining eski turkiy tildagi ko‘rinishi hisoblanadi: *qaʏun>qovun* [3. 21]. Bundan tashqari, *qaʏun (1; b19)* so‘zi ishtirok etgan sintaktik butunlik ham mavjud hamda unga Koshg‘ariy tomonidan quyidagicha ta’rif keltirgan: «*Bir tilim qovun» ma’nosida kelgan bir bĭçĭm qaʏun iborasidagi bĭçĭm(tilim) so‘zi bĭçdĭ (kesdi) fe’lidan yasalgan*» [4, 32]. *Qaʏunluq er* ifodasi ham asosida *qaʏun* leksemasi ishtirok etgan so‘z birikmalaridan biri sanaladi: *qaʏunluʏ er* – qovunli er, qovuni bor inson [5, 87]. «Devon»da hushbo‘y hidli hamda ustida naqshlari mavjud qovun turiga nisbatan *xŏçün̄ak (1; b193)* fitonimi qo‘llangan. «Boburnoma»da ham bu leksema qo‘llangan bo‘lib, u hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi shaklga ega: «*Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas*»[6, 24]

Qabaq (1; b153), ya’ni qovoq leksemasining eski turkiy tildagi shakli ham «Devon»da poliz mahsuloti nomi sifatida ishtirok etgan. *Qabaq* ifodasi asarda shakldosh holatda qo‘llanilgan, ularning ma’nosi quyidagicha:

1. Qovoq, ko‘z qovog‘i.

2. Ho‘lligicha yeyiladigan qovoq [7, 89]

Qovoqning quritilgani lug‘atda *saʏnaʏu (1; b194)* tarzida nomlangan.

So‘z etimologiyasi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning dastlabki qo‘llangan davri sifatida qadimgi turkiy tilni qayd etish mumkin. «Dumaloq shaklini olmoq» ma’nosini ifodalovchi *qab-* fe’l asosiga *-aq* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan [8, 54] «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ushbu so‘zga quyidagicha izoh beriladi: «palak otib o‘sadigan, shapaloq bargli, karnaysimon yirik sariq gulli poliz o‘simligi va uning hosili».

Bŭkān (1; b15) leksemasi asarda quad etilgan bo‘lib, u hozirgi o‘zbek tilida mavjud *tarvuz* so‘zining eski turkiy tildagi muqobili hisoblanadi. Muallif bu so‘zga «hind qovuni*(1; b10)*» deya ta’rif beradi. «*Tarvuz*» so‘zi eski turkiy tildan keyingi davrlarda qo‘llana boshlagan, uning forscha-tojikcha *harbuz* so‘zidan kelib chiqqanligi ilmiy manbalarda qayd etiladi [9, 12]

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asari o‘zbek lug‘atshunosligiga oid nodir namunalardan biri sanalib, uni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish tilimizning ulkan sandig‘ini yanada keng miqyosda o‘rganishdan dalolat beradi. Poliz mahsulotlariga leksik birliklarning lingvistik tahlilini amalga oshirish asarning tilshunoslik ilmiga tatbiq qilish usullaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar

1. Болтабоев Ҳ., Дадабоев Ҳ. Девону луғотит турк, I, II, III жилдлар. – Тошкент, 2006-2008.

2. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко – татарских наречий. I. – СПБ, 1969. II. СПБ.
3. Воҳидов Эркин. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
4. Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Дадабаев Ҳ., Насыров И., Ҳусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990.
6. Дадабоев Ҳ. «Девону луғоти-т-турк»даги эркак жинсини ифодаловчи лексемалар / «Лингвист» даврий мақолалар тўплами, V сон. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 4-12.
7. Дадабоев Ҳ. «Девону луғотит-турк»нинг тил хусусиятлари. – Тошкент: ТДШИ, 2017. – Б. 133.
8. Дадабоев Ҳ. Қадимги туркий ёдгорликлардаги атамалар ҳақида // Адабий мерос. 1998. №1-2. – Б. 13-18.
9. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.

CHO‘LPON SHE’RIYATIDAGI ANTROPONIMLARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI

Zarnigor Jabbor qizi DAVRONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Ushbu maqolada XX asrning eng buyuk ijodkorlaridan biri Cho‘lponning she’rlaridagi antroponimlar tahlil qilingan hamda ularning izohiga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Poetikasida qo‘llangan ismlarning ma’noviy jihatdan ko‘rinishi va obrazga mos tanlanganligi yuzasidan o‘rganish olib borilgan. Shuningdek, shoiraning she’rlaridagi g‘oyalarini aks ettirishda antroponimlarning ahamiyati, ularning yaralish tarixiga tahliliy munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *she’r, tahlil, antroponimlar, atoqli otlar, urf-odatlar, milliylik, dostonlar, taxallus, badiiy niyat, talmih, intoq, kognitiv tahlil, intertekstuallik, presedent nom.*

O‘zbek tilining lug‘at tarkibida asosiy o‘rin tutuvchi atoqli otlar haqida ma’lumotlar to‘plash va tadqiq qilishga alohida e’tibor berib kelinadi. O‘zbek onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan soha bo‘lib o‘zbek antroponimikasini monografik tarzda o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘zbek antroponimlarining tadqiqiga doir ilmiy ishlar E.Begmatov, G‘.Sattorov, S.Rahimov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan [1, 25].

Onomastika masalalari har bir davr uchun dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbek nomshunosligi spetsifik taraqqiyot bosqichiga ega. Ayniqsa, XX asr boshlaridagi antroponimlar taraqqiyotini o‘rganish o‘zbek onomastikasi uchun muhim ilmiy xulosalar beradi [2, 234]. XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor Cho‘lponning she’riy asarlaridagi antroponimlar taraqqiyoti, hamda kognitiv-semantik xususiyatlarini o‘rganish, ularning funksional -uslubiy jihatdan tahlil qilish orqali she’riy asarlar tag zamirida yashiringan ma’nolarga chuqurroq yetib boriladi

Tilshunosligimizda paydo bo‘lgan ana shunday yangi yo‘nalishlardan biri tilimizni kognitiv tadqiq etishdir. «Til qo‘llanishining kognitiv nazariyasi boshqa kognitiv fanlar kabi sun’iy intellektni yaratish yo‘lidagi izlanishlarning natijasi o‘laroq yuzaga kelgan bo‘lib, tushunchani struktur tiplari va ularning til bilan mosligi, til va ongning fiziologik asoslari, tildagi metaforik va metonimik munosabat kabilarni tekshirish bilan shug‘ullanadi. Shu asosda nutqiy hodisalardan biri (jumladan, antroponimlar) ilmiy-nazariy tahlil uchun tortiladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi til tizimining bilish jarayonidagi ishtiroki va ulushini aniqlashdir. Til birliklarining egallanayotgan bilimning lisoniy voqelanishdagi ishtiroki hamda lisoniy faoliyatning axborotni shakllantirish va «qayta ishlashdagi rolini aniqlash kognitiv tahlilning ko‘rinishlaridan biridir. Lisoniy faoliyat kognitiv faoliyat bilan bevosita bog‘liq, uning ajralmas bir qismi. Ammo kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o‘zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo‘sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Badiiy matnda taxallus ham o‘ziga xos leksik vazifa bajarib keladi. Mumtoz adabiyotimizda ittifoq deb ataladigan she‘riy san‘at mavjud. Bunda she‘rda shoir taxallusining ham lug‘aviy ma‘nosida, ham taxallus sifatida ishlatilishi nazarda tutiladi. Ya‘ni shoir maqtada o‘z taxallusini keltirish barobarida bayt mazmunidan uning lug‘aviy ma‘nosi ham faollashgani anglashib turadi [4, 20].

Masalan,

Muhabbat osmonida go‘zal **Cho‘lpon** *edim,do‘stlar,*
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku!
(Cho‘lpon)

Ushbu misolda shoir taxallusi ayni so‘zning nominativ ma‘nosini ham faollashtiradi [5, 105].

Asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov. U avval «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat «Cho‘lpon» (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. «Cho‘lpon» taxallusi bilan tanilgan Cho‘lpon o‘zbekcha ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism o‘zbekcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: Tong yulduzi, yorug‘ (Venera) yulduzi, ya’ni to‘lei baland, iqboli porloq, yuksak saodatli bola degan ma’nolarni ifodalaydi uning aynan shu taxallusdan foydalanishi bejiz emas uning Uning ijodi ham Tong yulduzi singari yorug‘ yo‘l ko‘rsatuvchi vazifani bajaradi deyish mumkin.

Ammo uning ba’zi she’rlarida **Hamidiy** taxallusini ham uchratishimiz mumkin.

*Ey **Hamidiy**, qil duoni doimo,*
Vasfingga ojiz erurmiz ohu oh.
(Cho‘lpon «Ma’rifatparvar bobomiz Ismoil G‘aspirinskiy hazratlari haqinda ta’ziyanomamiz»)

Cho‘lpon bilan «Sadoi Turkiston» gazetasi o‘rtasida aloqa o‘rnatgan. Oradan bir necha oy o‘tgach, o‘sha gazetaning o‘sha yilgi 24 sentabrdagi sonida andijonlik «16 yoshlik talaba»ning Ismoil Gasprinskiy vafoti munosabati bilan yozgan she’ri bosilgan. So‘nggi baytdagi **«Hamidiy»** taxallusi she’rning Abdulhamid Cho‘lponga mansub ekanligidan dalolat beradi [3, 8].

Cho‘lpon she’riyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak u she’rlarida juda ko‘p antroponimlardan foydalangan. Bular mumtoz adabiyotimizda turli xil she’riy san’atlarni yuzaga keltiradi.

Odamdan boshqa jonli va jonsiz narsalarni so‘zlatishga - **intoq** san'ati deyiladi. Intoq nutqli demakdir [8, 147].

*Lolalar dardini onglag‘an **Lola**,*
Lolalar tilidan qilibsen nola.
Lolalar nolasi achchiq bo‘lsa ham,
To qalbdan kelguchi sanchiq bo‘lsa ham.
*Nolangni qalbimga ko‘chirdim, **Lola**,*
Ey, lola tilidan qilg‘uchi nola….
(Cho‘lpon «Mutarjimdan»)

Lolaxon Sayfullina o‘z davrining taraqqiyparvar, ziyoli ayollaridan bo‘lib, matbuot ishlarida faol ishtirok etgan. «Yangi yo‘l» xotin-qizlar gazetasida (1924-yil nashrini boshlagan; gazeta keyinchalik jurnalga aylangan va hozirda «Saodat» nomi bilan chop etilmoqda muharrir sifatida faoliyat yuritgan. Erkka, ma'rifatga chorlovchi chiqishlar uyushtirgan.

«Ichkari» 1926-yil O‘zbekiston Davlat nashriyotida eski o‘zbek yozuvida nashr bo‘lgan. Kitobga «O‘zbek xotin-qizlari turmushidan oling'on sochma she'rlar», deya izoh berilgan. O‘zbekchaga mutarjim Cho‘lpon deya ko‘rsatilgan [6, 5].

Bu samimiy satrlar 1925 yil 15 noyabr kuni Moskvada yozilgan. Taxmin qilish mumkinki, Choʻlpon shu kuni tarjimani nihoyalab, oʻzbek xotin-qizlarining Lola Sayfullina tasviridagi mungli hayoti lavhalaridan ta'sirlangani tufayli asar muallifiga boʻlgan hurmatini shunday choʻlponona hayajon bilan ifodalagan.

Biz she'rlariga nazar tashlaydigan boʻlsak. Talmih mohiyati shunday: shoir qahramon siymosini gavdalantirishda uni oʻtmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, oʻxshatadi; goho oʻsha oʻtmish qahramonlari ismi-shariflari aytilmay ular bilan bog'liq voqealar esga olinishi ham mumkin. Har ikki holda ham talmih san'ati sodir boʻladi. Talmih arabcha: yashin chaqnashi, koʻz qirini tashlash ma'nolariga molik [8, 160].

Mazkur she'rda ishtirok etgan antroponimlar mumtoz adabiyotimizda talmih san'atini vujudga keltirsa, tilshunosligimizda intertekstual birliklar nomi bilan yuritiladi. M.Yoʻldoshev intertekstuallik badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim nuqtalardan biri ekanligini qayd etib, unga shunday ta'rif beradi: «muayyan badiiy matn tarkibida oʻzga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir» [9, 128]. D.Xudoyberganova oʻzining doktorlik ishida pretsedent matnlarni intertekstuallikni hosil qiluvchi asosiy birliklar sifatida baholaydi [10, 154]. Demak, intertekstuallik oʻquvchi uchun oldin tanish boʻlgan, uning kognitiv ongida bor boʻlgan voqea, shaxs yoki ma'lum bir bilimlar yangi matnga kiritish orqali intertekstuallik hosil qilinadi.

Choʻlponning she'riy asarlaridagi ismlarning kognitiv-semantik oʻrganish muallif shaxsiyatiga chuqur e'tibor qaratiladi, asarlarida nafaqat diniy ismlar bilan birga dunyoviy ilmlar egalari **Marks, Bedil, Konfutsiy, Budda, Xayyom Luqmon, Arastu, Aflotun** va koʻplab olom-u fuzalolarni va badiiy adabiyotlarga oid Layli, Majnun, Afrosiyob, Iskandar kabi ismlarni ham koʻrishimiz mumkin. Bularni kiritilishidan shuni bilishimiz mumkinki, Choʻlpon ham diniy bilimlar birgalikda dunyoviy bilimlarni ham puxta egallaganidan dalolat beradi. Bu orqali oʻzining oʻquvchilarida ham ular haqidagi ma'lumotlarni berib boradi.

Insonlikka saodatning birdan-bir
Toʻgʻri yoʻlin koʻrsatguchi ***Marksdi***
Kecha koʻrdim uni: ***Budda*** *yonida*
Riyozatning foydasini oʻqurdi;
Oʻtgan kuni Nishopurda – boqchada
Xayyom *bilan ishqiy she'r toʻqurdi*
Oʻtgan hafta Chin-Mochinning yurtida
Konfutsiyu *falsafasini eshitdi.*
Bu haftada Eron borib ***Zardushtga***
Nicha bilan qalaysiz deb tegishdi...

*Hindistonda **Bedil** bilan yurganin*
Mening sharqlik ko‘zim aniq ko‘rmishdi;
Alamutning tepasida yurganda
Menim ruhim orqasida yurmishdi...
(Cho‘lpon «Sharq nuri»)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘tgan asrning 60-yillarida o‘zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o‘z maqsad vazifalariga ko‘ra farqlanuvchi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish o‘tmishda ham bo‘lgan. Kishi ismlari, ularning qo‘yilish sabablari, antroponimlarni kognitiv bilish nazariyasi, ya'ni kognitologiyasi haqida anchagina qiziqarli fikrlar bor. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko‘lamda tahlil qilish o‘zbek filologiyasida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. O‘zbek nomshunosligining paydo bo‘lishi va zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi bu sohaning o‘ziga xos ilmiy terminologiyasining yaratilishi hamda uning rivoji va takomiliga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari ma’lum darajada milliylashdi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Sababi, rus tuzumi davrida ommalashgan ruscha ismlar (*Roza, Tatyana, Liliya, Alik, Erik* va hokazo) qo‘yishga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o‘rganiladigan bo‘ldi. Natijada o‘zbek onomastikasining tadqiq yo‘nalishlari yanada kengaydi va oshdi. Atoqli otlarning paydo bo‘lishi, rivoji, ularning kognitiv-semantik xususiyatlari ko‘pgina lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog‘liqdir. Shu sababli atoqli otlarni tadqiq qilishda, avvalo, kognitiv tilshunoslik fani bilan yaxshigina tanish bo‘lish kerak. Antroponimlarni tadqiq qilayotgan yosh olimlar nomlarni tahlil qilishda tilshunoslikdan tashqari boshqa fanlarning ilmiy usullaridan, ular erishgan yutuqlardan foydalanadi. Ushbu hol onomastika sohasining boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan munosabatini yuzaga keltiradi va onomastika sohasini rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar

1. Begmatov E. Uzbek names. Editor-in-chief of dictionaries. – Tashkent, 1991.

2. Begmatov E. The mysterious world of names. – Tashkent: Uzbekistan, 2014.

3. Karimov N. Cho‘lpon.– Toshkent: Academic Publisher, 2003. – B. 464.

4. Kurbanov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M.. Dictionary of Literary Studies. –Tashkent: Akademnashr, 2013.

5. Davronova Z. Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text (based on the work of Abdulla Qadiri) // Linguist. – Tashkent, 2024. - No. 2– B. 100-113.
6. Jadid Kuliyot. – N.: Zabarjad media, 2023. – B. 192.
7. Shepherd. Works Volume I. – Tashkent: Academic publication, 2013. – B. 372.
8. Rahmonov V. She’r san’atlari. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 160.
9. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоетик тадқиқи: Фил.фан.док. дисс . – Тошкент, 2010. – Б.128
10. Худойберганова Д. Бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи: Фил. фан.док. дисс. – Тошкент, 2010. – Б.129.

O‘ZBEK TILI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARIDA JINS-TUR MUNOSABATI

Rushana Jamol qizi NABIYEVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Maqolada o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari o‘rtasidagi giponimik munosabat haqida fikr bildirilgan bo‘lib, misollar asosida izohlab berilgan. Giponimik munosabatga kirishayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining ayrimlari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *giponimik munosabat, iyerarxionimik munosabat, semantik aloqa, shalot piyozi, aysberg karami.*

O‘zbek tili leksik sathida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari leksik-semantik guruhi *sistemalilik* tamoyiliga ko‘ra o‘z ichida bir qancha leksik-semantik munosabatlarni ham namoyon qiladi. Ma’lumki, sistem leksikologiyaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan lug‘aviy birliklar orasidagi leksik-semantik munosabatlarni aniqlash o‘z ichida giponimik, partonimik, graduonimik, iyerarxionimik kabi semantik aloqalarni qamrab oladi. Bular orasida eng keng tarqalgan leksik-semantik munosabatlardan biri, albattaki, gipo-giperonimik munosabat bo‘lib, olima R.Safarova [1,9] boshqa munosabat turlarini ifodalash vositalari kabi jins-tur munosabatini ifodalashning lug‘aviy imkoniyatlari ham o‘zbek tilida cheklanganligi va ma’lum lug‘aviy birliklar yordamida tasvirlanishini ta’kidlab o‘tgan.

Tilda oziq-ovqat nomlarinining o‘zlashtirilishi nafaqat lingvistik faoliyat, balki jamiyatning madaniy jabhasi bilan ham bevosita aloqadordir. Zeroki, tilning madaniyatga, madaniyatning esa tilga ta’siri mavjud bo‘lib, bunday talqinlar ko‘proq sotsiolingvistik aspektdagi tadqiqotlar uchun manba

bo‘ladi. Chunki madaniyat har bir xalq uchun muhim qadriyat bo‘lib, ularning milliy o‘ziga xosligini ifodalashda taom nomlarini tushunish yoki tabdil qilish yanada nozikroq ahamiyatga ega bo‘lishi tabiiy. Shu jihatdan qaraganda taom nomlari ham o‘ziga xos madaniy realiyalar sifatida har qanday millat uchun qadrlidir.

Leksik sath birliklarini *leksik-semantik maydon*, *leksik-semantik guruh*larga ajratib tasnif qilish amaliy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, bu har qanday tilda olamning sistemali va umumiy manzarasini gavdalantirishga, aks ettirishga imkon beradi. Olima R.Sobirova [4, 5] *leksik-semantik guruhlar* (LSG) so‘zlarni jamlashning yuqori darajali yaxlitligi sifatida voqelikning biror-bir sohasini aks ettirishda tilning so‘z boyligini tizimli ravishda birlashtirish mexanizmini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, deb ta’kidlaydi. Leksik-semantik guruhlar o‘z ichida ikki va undan ortiq leksemalarning mazmuniy guruhlarini jamlaydi. Yig‘ilgan matreriallar asosida aytish mumkinki, oziq-ovqat o‘zlashmalari orasida ham jins-tur munosabati talaygina. Masalan, *karam* giperonimi o‘z atrofida ***aysberg karami*** – karamning mayda, unchalik zich bo‘lmagan boshlariga o‘ralgan och yashil barglari bor, ta’mi suvli turi; ***brokkoli*** – karam turlarining o‘stiriladigan navlaridan biri, gulkaramning eng yaqin qarindoshi. Italyancha *«brokkoli»* so‘zi *«brokkolo»* so‘zining ko‘pligi bo‘lib, karamning gullaydigan poyasini bildiradi (italyancha –lotincha *bracchium «filial»* ma’nosini anglatadi); ***bok-choy karami*** – pak choy yoki xitoy karami, botanik jihatdan sholg‘om turiga tegishli bo‘lgan bargli sabzavotlar guruhi, ammo kundalik hayotda ular ko‘pincha *yoqa ko‘katlari* deb ataladi; ***gulkaram*** – karamning tezpishar navi bo‘lib, parhezbop, ozuqaviy qiymati yuqori turi; ***bryussel karami*** – shakli boshqa karam navlariga qaraganda ancha kichik, parhezbop turi; ***kolrabi*** – karamning sholg‘omga o‘xshash, rangi oqish turi, sabzavotning nomi italyancha «karam-sholg‘om» deb tarjima qilinadi; ***savoy karami*** – oq boshli karamga o‘xshash, biroq barglari yumshoq va ingichka, sovuqqa chidamli turi; ***qizil karam*** – oq boshli karamga qaraganda kichik, ammo barglari zich, rang-tusi bilan boshqa karamlardan ajralib turuvchi karam turi kabi giponimlarni jamlaydi. Karam turlari orasida jins ma’nosini ifodalab kelgan so‘z (karam) ayni vaqtda tur nomlarini bildirib keluvchi nomlarga *ekspliditsid* tarzida so‘z birikmasi hosil qilgan nomlar (*qizil karam, bryussel karami, savoy karami, gulkaram, oq boshli karam* kabi) va tur ma’nosini ifodalab kelgan nom tamoman mustaqil leksema shaklidagi nomlar (*brokkoli, kolrabi, bok-choy, aysberg* kabi) dan tashkil topgan. Shunga o‘xshash «yong‘oq» giperonimi ham ayni vaqtda turni bildirib keluvchi nomlar (*muskat yong‘og‘i, makademiya yong‘og‘i, qarag‘ay yong‘og‘i, keshyu (hind yong‘og‘i*), yonidan kelib aniqlashtirish vazifasini ham bajaradi. Bunda o‘zlashma nomlar so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, dastlab nutq birligi sifatida faollashib, so‘ngra mustaqil

leksema sifatida leksik sathdan joy oladi. Bu haqida M.Mirtojiyev [2, 59] giponim bo‘lgan leksemalar sememasi umumiy semaga egaligi holda, u giperonim leksema sememasiga teng kelishi, giperonim o‘z tarkibiga kirgan har bir giponimning o‘rnida nutq vaziyatiga ko‘ra qo‘llana olishi mumkinligini aytib o‘tgan.

O‘zlashma sabzavot nomlari orasida ***«qalampir»*** giperonimi ham bir qancha giponimlarni jamlab keladi. Bular quyidagilar: ***karolina reaper*** – qalampirning eng achchiq turi; ***paprika*** – shirin qalampir, nom xorvatcha «papar» («qalampir») so‘zidan olingan; ***poblano*** – Meksikaning Puebla shtatida paydo bo‘lgan yumshoq chili qalampiri; ***serrano*** – Meksikaning Puebla va Hidalgo shtatlarining tog‘li hududlarida paydo bo‘lgan chili qalampirining bir turi, nom «tog‘« (*sierra*) so‘ziga ishora qiladi. Qalampir odatda issiq souslar tayyorlash uchun ishlatiladi; ***vasabi*** – yapon oshxonasida mashhur bo‘lgan qalampir turi, uni ko‘pincha «yapon xreni» deb ham atashadi; ***xabanero*** – nom ispan tilidan olingan bo‘lib, 2-6 sm gacha bo‘lgan kichik qalampir; ***xalapeno*** – nom qalampir yetishtiriladigan joy Xalapa shahri nomidan olingan ispancha so‘z bo‘lib, shakliga ko‘ra o‘rtacha kattalikdagi 3-9 sm gachani tashkil qiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, «qalampir» nomlari orasidagi gipo-giperonimik munosabati orasida antonimik va graduonimik munosabatni ham ko‘rish mumkin. Ya’ni «shirinlik» va «achchiqlik» semasiga ko‘ra ***«paprika»*** shirin qalampiri boshqa barcha qalampir turlariga oppozitsiyada turadi. *«Achchiqlik»* belgisining ortib borishiga ko‘ra ***bolgar qalampiri – pepperoni – anaxaym qalampiri – tabasko qalampiri – poblano qalampiri – rokotillo qalampiri – xalapeno – serrano – vasabi – xabareno – karolina reaper*** kabi qalampir nomlari graduonimik munosabatga kirishadi. Bular orasida ***bolgar qalampiri*** eng kam achchiqlik belgisiga ega qalampir bo‘lsa, ***karolina reaper*** qalampiri dunyodagi eng achchiq qalampir deya e’tirof etiladi.

Oziq-ovqat nomlari orasida tur ma’nosini bildirib kelgan o‘zlashma giponim nom yonidan jinsni ifodalab keluvchi giperonim aniqlanmish vazifasida kelib, so‘z birikmasi shaklidagi o‘zlashma oziq-ovqat nomlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu haqida A.Hojiyev, A.Ahmedov tahriri ostida nashr etilgan «O‘zbek tili leksikologiyasi» [3, 13] asarida agar chetdan o‘zlashgan so‘z nomi noaniqroq bo‘lsa, mazkur xalq o‘z hayot tajribalari va tushunchalaridan kelib chiqib, u so‘zlarga ma’no aniqligi kiritadi deb ta’kidlangan bo‘lib, bu hodisa o‘zbek tiliga o‘zlashgan oziq-ovqat nomlari orasida ham yaqqol seziladi. Masalan, ***shalot piyozi*** – yoki ***askalon piyozi*** oddiy piyozdan farqli o‘laroq kichikroq bo‘lgan, biroq sarimsoq piyozidek bir nechta chinnigullarga ega fransuz qizil piyozi, nom qadimgi fransuzcha ***eschalotte*** so‘zidan olingan bo‘lib, lotincha **Askalon** shahri nomiga aloqador. Shalot piyozi erta pishgani va yoqimli ta’mi uchun oshpazlik sohasida ancha

mashhur. ***Pinto loviyasi*** – Meksika, Kosta-Rika va Amerika Qo‘shma Shtatlarida mashhur qizil-jigarrang loviya turi, *«pinto»* leksemasi ispancha *«rangli, bo‘yalgan»* degan ma’noni anglatadi. ***Plombir muzqaymog‘i*** – (Fransiyaning Plombires-les-Bains shahri nomidan) ko‘p miqdorda sut yog‘i, tuxum, aromatik va ta’m beruvchi qo‘shimchalar: vanil, bodom essensiyasi, shokolad bo‘lgan to‘liq sut yoki qaymoqdan tayyorlanadigan qaymoqli muzqaymoq. ***Barbados olchasi*** – oddiy gilos oilasidan ancha uzoqda bo‘lgan, mevasi nordon ta’mga ega tropik iqlimda yetishtiriluvchi meva, ***atserola*** deb ham ataladi. Nom Barbados shtati nomidan olingan bo‘lib, ispan tilidan *«barbados»- «soqolli»* degan ma’noni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili leksikasidan joy olayotgan o‘zlashma oziq-ovqat mahsulotlari nomlari o‘z qatlam nomlari bilan birgalikda jins-tur munosabatini hosil qilmoqda. Giponimik munosabatlarni aniqlab borish esa keyingi tadqiqotlarda assotsiativ lug‘atlar uchun material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. − Б. 9
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010 – Б. 59.
3. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 13.
4. Собирова Р.Х. (2021). Уй-рўзғор буюмлари лексикаси микромайдонининг лингвокултурологик талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. – Андижон.

NUKUS TUMANIDAGI TOPONIMLAR VA OYKONIMLAR TASNIFI

Nilufar URAZIMBETOVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston respublikasining Nukus tumanidagi toponim va oykonimlar haqida so‘z yuritiladi. Toponim va oykonim nomlari o‘sha hududning holatidan kelib chiqib, geografik obyektlarni nomlash mumkinligini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: *mahalliy hudud, mahalliy aholi, geografik obyekt, joy nomlari, toponim, oykonim, etnonim, urug‘-qabila.*

Inson yaratilganidan buyon atrofdagi jamiyki mavjudotlarga nom qo‘yishga harakat qiladi. U xoh jonli bo‘lsin, xoh jonsiz. Umuman olganda, nomlar har qanday narsani bir birida farqlash uchun xizmat qiladi. Bir joyni ikkinchisidan, boshqa jilg‘adan, bir ko‘chani yonidagi ko‘chadan, tog‘-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqarishgan[1:5]. Joy nomlari toponimlar deb ataladi. Topomlarni o‘rganuvchi soha esa toponimika hisoblanadi. Hozirgi kunda Qoraqalopg‘iston respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalarini ko‘rib chiquvchi, shuningdek, «Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarining bajarilishini nazorat qiluvchi komissiyalar-maxsus organlar tashkil etildi[2:4].

Qoraqalpog‘iston Respublikasida yurtimizning ko‘plab qadimiy va navqiron shaharlari mavjud. Shuningdek, bu shaharlarning har birining toponimikasida o‘ziga xosliklar mavjud [2:93]. Xususan, Nukus toponimikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, nukus etnonimining kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bor. Bu nom ayrim tadqiqotchilar fikricha, forscha-tojikcha nu+kas «to‘qqiz kishi» degan ma’noni bildiradi. Nukuslar asli mo‘g‘ul qabilasi bo‘lganini e’tiborga olsak, bu etnonimning etimologiyasi haqidagi fikrlar uzil-kesil hal bo‘lmagan deyish mumkin[1:153]. Nukus tumanida hozirgi vaqtda umumiy bir shaharcha va olti fuqarolar yig‘inlari mavjud. Jumladan, «Aqmang‘it» shaharchasi fuqarolar yig‘ini, joylarda «Baqanshaqli», «Arbashi», «Samanbay», «Qrantaw», «Kerder», «Taqirko‘l» fuqarolar yig‘inlari [3:67]. Tumandagi toponimlarga to‘xtalib o‘tsak.

Aqmang‘it – Nukus tumanining markazi. Bu nomning paydo bo‘lishiga kelsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida urug‘-qabilalar bilan bog‘liq nomlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Aqmang‘it ham qoraqalpoq urug‘ nomlaridan biri. Oldingi urug‘chilik davrlarida qoraqalpoqlar urug‘-urug‘ bo‘lib bo‘linib yashashgan. Bir urug‘ vakillariga tegishli bo‘lgan qabristonga ikkinchi urug‘ vakili qo‘yilmagan. Shu sababli ham respublikaning shimoliy tumanlarida kichik-kichik qabristonlar ko‘plab uchraydi. Shularga tayangan holda Aqmang‘it shaharchasida ham oldin shu urug‘ vakillari yashagan va shu qabila nomi bilan atalib ketilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kerder - Arablarning O‘rta Osiyonibosib olishiga doir yozma manbalarda «Kerder», «Kurder», «Kardar» so‘zlari uchraydi. Kerder shahri Kerder viloyatining markazi bo‘lgan. Bu shahar hozirgi Nukus tumanidagi Kerder qishlog‘i. Kerder viloyati juda katta bo‘lgan. Bog‘dod shahri ham Kerder madaniyatiga tegishli bo‘lgan. Kerder nomi VIII-XIII asrlarda Orol dengizi yaqinida joylashgan Kerder hukmdoridan kelib chiqqan.

Samanbay - hozirgi kunda Nukus tumanida ham Nukus shahrida ham mavjud. Qadimda bir o‘rmonda yolg‘iz chol yashaydi. Bu cholning ismi Samanbay bo‘ladi. O‘sha o‘rmon juda katta edi. Cholning tanish-bilishlari uni ko‘rishga bormoqchi bo‘lganda qisqartib «Samanbayga boramiz» iborasini ishlatishgan. Cholning vafotidan keyin ham bu joy aynan shunday atalib Samanbay atalib ketgan. 1988-yili Nukus tumanini kesib o‘tuvchi «Bo‘zatov» kanali qaziladi. kanal Samanbayni kesib o‘tadi. Keyinchalik kanalning bir tarafi Nukus tumaniga, bir tarafi Nukus shahriga tegishli etib belgilanadi. Lekin ikkalasi ham Samanbay nomi bilan qolib ketadi.

Taqirko‘l – Nukus tumanidagi yangidan qo‘yilgan joy nomi. Bu joy oldin «O‘rnek» deb atalgan 2011-yil 12-oktabrda «Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida» qonuni qabul qilingach, Taqirko‘l nomi beriladi. Bu joyda katta ko‘l bor bo‘lib, bu ko‘l xalq hayotida muhim rol egallagan. Keyinchalik ko‘l qurib, taqir bo‘lib qolgan. Shunga bog‘liq holda joyga Taqirko‘l nomi berilgan. O‘rnek nomiga kelsak, mana shu qilshloqni boshdan-oyoq kesib o‘tuvchi ariq bo‘lib, o‘sha ariqning nomi «O‘rnek» bo‘lgan. Shunga ko‘ra qishloqqa ham shunday nom berilgan.

Diyxan arna – Taqirko‘l OFYdan ajralib chiqqan joy nomi. Bu joyga Diyxan arna nomi yaqin yillarda berilgan. Nomning qo‘yilish sababiga keladigan bo‘lsak, Taqirko‘l bilan Diyxan arnani ajratib turuvchi katta ariq bo‘lib, bu ariqdan mana shu joyning dehqonlari foydalanishadi. Shu sababli dehqonlarning arig‘i degan ma’noda shunday nom qo‘yilgan.

Kattag‘ar - qishloqdagi kanalga bog‘liq holda berilgan. Kanalning oqish tezligiga ko‘ra, qatti+ag‘ar (qattiq+oqar) ma’nosiga ega. Yillar o‘tishi bila fonetik hodisaga uchrab shu holga kelgan.

Shortanbay - Nukus tumanidagi joy nomlaridan hisoblanadi. Bu nomning qo‘yilishiga sabab, shu yerning kanal-ariqlarida shortan balig‘ining ko‘pligi. Shortan balig‘iga boy joy degan ma’noda qo‘yilgan.

Nukus tumanidagi oykonimlarni Ikrom Xolmuratov qarashlariga ko‘ra tavsiflab o‘tsak.

Etnooykonim – xalqlarning turli-tuman urug‘ va qabilalaridan tashkil topgan oykonimlar. Bunga Nukus tumanidagi *Aqmang‘it, Ajimovul, Qazayaqli ovul, Qazaq ovul, O‘zbek ovular* misol bo‘la oladi.

Antrooykonimlar – kishi nomlari, laqablari asosida yaratilgan oykonimlar. Masalan, *Do‘simbet ovul, Jdanov, Shapaev, Mechurin, Qalmen ovul*.

Fitooykonimlar – o‘simlik nomlarining toponimlarda aks etishi. *Juzimning asti, Paxta ovul* kabi.

Ko‘chma oykonimlar. Bunday oykonimlarda bir toponim nomini ikkinchi bir toponim nomiga ko‘chirishdan yuzaga keladi. Nukus tumanidagi Rossiya, No‘kis sovxoz kabi nomlar misol bo‘ladi.

Kasb-hunar asosida yuzaga kelgan oykonimlar. Masalan, O‘nermentler ko‘chasi, Arbashi ovul.

«Davlat tili haqida»gi qonunning 22-moddasida: «Geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi,» – deb yozib qo‘yilga bo‘lsada, yangi qurilgan, qurilayotgan aholi punktlari yoki ko‘ngilochar maskanlarga nom berishda bir qismi yoki to‘laligicha xorijiy tilga oid so‘z bilan ifodalanuvchi Toshkent siti, Nukus siti, «Magic city» kabi so‘zlar paydo bo‘la boshlagani ijobiy hodisa emas, albatta.[4:4]

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarsi yaqqol o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarixan e’tibor beradigan bo‘lsak, hech bir nom o‘z o‘zidan kelib chiqmaydi. Har qanday so‘z bilan ham joy nomlarini shakllantirsh mumkin emas. Joy nomlarini tabiiy ravishda tarixiy va siyosiy sharoit bilan bog‘liq holda o‘rganish lozim.

Adabiyotlar

1. Qorayev S. Toponimika – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.

2. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika – Toshkent: Navro‘z, 2017.

3. Begimov J. Aqmang‘it. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2010.

4. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.

5. Ibragimov Y., Ibragimova Z.Y. (2023) Qoraqalpog‘iston respublikasi Xo‘jayli tumani etnotoponimlari // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023. № 12 11 -b. www. philologicalresearch.u

JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON GIDRONIMLARINING HOSIL BO‘LISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR VA ULARDA TRANSPOZITSIYA

Azizbek Ulug‘bekovich KAMOLOV

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi gidronimlarning hosil bo‘lishidagi o‘ziga xos xususiyatlar ochib berilgan. Mazkur hududdagi suv obyektlari va ularning transpozitsiyasi tasniflangan.

Kalit so‘zlar. *Konversiya, transpozitsiya, gidronim, transformatsiya, apellyativ leksika, kanal, daryo*.

Mavjud tilning toponimik doirasida onomastik konversiya (nom ko‘chish) o‘ziga xos yetakchi tamoyillaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu

tamoyilga ko‘ra toponimik tizimdagi mavjud bo‘lgan, ma’lum bir joy nomi boshqa bir joy nomiga aylanadi: suv obyekti nomi - gidronim qishloq, yoki shahar nomiga - oykonimga, aksincha, shahar, qishloq, nomi suv obyekti nomi (gidronim)ga o‘tishi mumkin. Onamastik konversiya, nomlardan nomlarning yaratish jarayoni lisoniy va nolisoniy omillar mahsulidir. Gidrotoponimlarning yuzaga kelishida ham ayniqsa yaqqol seziladi.

Lug‘at tarkibida bir turkumdan boshqa turkumga o‘tishi doimiy ravishda bo‘ladi, chunki so‘z turkumlarining o‘zi ma’lum bir qat’iy chegara bilan ajralib turuvchi hodisa emas, tilning doimiy harakati natijasida so‘zlar bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqa leksik-grammatik kategoriya tomon siljib, ularning vazifasini bajarishga moyillasha boradi [1,199].

Toponimlar, jumladan, gidronimlarning yasalishi va hosil bo‘lishiga oid ilmiy izlanishlar rus tilshunosligida E.F. Modina, R.A.Adgeyeva, K.I.LYurgin I.M.Jeleznyak, turkologiyada K.Abdimuratov, S.Ataniyazov, R.M.Yuzbashev, B.A.Budagov, K.Konkobayev, F.G.Garipova, KF.Gritsenko, A.A.Kamolov, R.Z. Shakurov, O.T.Molchanova, A.A.Bonyuxov, G.Sattorov jumladan, O‘zbek tilshunosligida L.G.Karimova, S.Korayev, T.Nafasov, T.Rahmatov, N.Oxunov, T.Enazarov, N.Begaliyevlar, N Uluqov tadqiqotlarida kuzatiladi [2,54].

Til taraqqiyoti **derivatsiya, transformatsiya, transpozitsiya, konversiya** singari hodisalar orqali yuzaga chiqadi. Transpozitsiya nazariyasini birinchi bo'lib ishlab chiqqan shveytsariyalik tilshunos Sh.Ball transpozitsiya termini ostida lingvistik belgini bir kategoriyadan ikkinchisiga ko‘chirishni tushunadi va tilning voqelanish jarayonida uning katta rol o‘ynashini ta’kidlaydi[3,24]. Uning voqelanish jarayonini ko‘rsatishiga ko‘ra chegaralangan lingvistik belgilar transpozitsiya orqali nutqning cheksiz talablarini qondira oladi va kategoriyalararo almashinish orqali, *ifodalovchi* boyiydi va turli mazmuniy ottenkaga ega bo‘ladi, degan nazaryani ilgari suradi.

Transpozitsiya nazariyasining ayrim jihatlarini daniyalik tilshunos O.Jespersen o‘zining “Grammatika falsafasi” nomli asosiy asarida o‘rganib chiqqan bo‘lib, unda sifatlar va otlar misolida so‘zlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tish hollarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, shveytsariyalik olim A. Sechening “Gapning mantiqiy tuzilishi haqida esse” asarida transpozitsiya qoidalarini tahlil qiladi.

Yuqoridagi keltirilgan tadqiqotlar tahlili gidronimlar doirasidagi yasalish asosan toponimlar negizida tadqiq etilganligini, N.Begaliyev tadqiqotini e’tiborga olmaganda, gidronimlarning hosil bo‘lishi alohida maxsus monografik tarzda o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi[1,201].

Toponimlar, jumladan, gidronimlar hosil bo‘lishida onomastik konversiya muhim o‘rin tutadi. Mazkur termin birinchi marta A.V. Superanskaya tomonidan taklif etilgan. Ayrim adabiyotlarda konversiya

termini o‘rnida *transonimizatsiya, transpozitsiya* terminlari qo‘llangan. Konversiya usuli mohiyatan so‘z yasashning leksik-semantik usuliga to‘gri keladi. Onamastikaga oid so‘nggi ilmiy manbalarda leksik-semantik usul *onomastik konversiya* deb yuritilmoqda. Konversiya termini lingvistik terminlar lug‘atida quyidagicha izohlanadi: “Konversiya (lot. conversion-aylanish, o‘zgarish). Biror turkum leksemasini boshqa turkumga xos forma yasash paradigmasiga o‘tkazish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish”. Konversiya ayrim ilmiy tadqiqotlarda so‘zlarning turkumdan turkumga o‘tishi deb talqin etiladi. Konversiya termin bilan ifodalangan tushuncha tilshunoslikda *so‘z yasalishining morfologik-sintaktik usuli* (V.V.Vinogradov), *transpozitsiya* (Sh.Balli), *implist so‘z yasash* (V.Fleyner),*transilatsiya* (L.Tener), *nol formali derivatsiya* (G.Morchand), *noxususiy derivatsiya* (N.A.Arutyunova), *transformatsiya* (V. Migren) terminlari bilan turli xil nomlanadi [4,11].

O.M.Kimning ko‘rsatishicha, konversiya, bu keng ma’noda bir kategoriyata xos, ishora deb ramzning boshqa kategoriyaga o‘tishidir. Ko‘p ilmiy manbalarda konversiya va transpozitsiya aynan bir hodisa qaraladi. Jumladan, E.S.Kubryakova konversiyani transpozitsiyaning bir turi deb qaraydi. Uning fikricha, so‘z yasalish xususiyatidagi morfologik transpozitsiya konversiya hisoblanadi.

A.V.Superanskayaning izohlashicha, onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o‘zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o‘zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko‘chishidir[1,203].

Ta’kidlash joizki, E.S.Kubryakova konversiyani transpozitsiyaning bir turi deb qarasa ham, transpozitsiya konversiyadan (onomastik konversiyadan) kengroq tushunchani anglatishini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu hodisada nisbatan transpozitsiya terminini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Leksema atoqli otga, gidronimga aylangach, ma’lum suv obyekti bilan bog‘lanadi va uni ifodalash uchun leksemalarning gidronimga aylangunga qadar ma’nosi ikkinchi o‘ringa tushadi. Leksema gidronimga aylangach uning asosiy vazifasi ma’lum suv obyektini, xuddi shunday boshqa obyektdan farqlashdan iborat bo‘ladi. Natijada, bu holatlar bilan bog‘liq holda formal-morfologik xususiyati ham o‘zgaradi.

Yuqoridagi fikrlardan atoqli otlarga doir quyidagi xususiyat anglashiladi:

1) atoqli otlar o‘z mustaqil lisoniy materialiga ega emas.

2) atoqli otlarni mavjud bo‘lgan lisoniy materialdan yasaladi

3) atoqli otlarni yasashda til materialining ma’lum qismidangina foydalaniladi.

Demak, tilshunoslarning “Atoqli otlarning ko‘pchiligi turdosh otlar, ma’lum qismi boshqa turkumga oid so‘zlar asosida paydo bo‘ladi”, degan fikrlar asosli. Atoqli otlar tizimi, jumladan, toponimlar asosida yotuvchi leksemalarni faqat turdosh otlardangina iborat emasligi bois, onomastikaga

doir tadqiqotlarda atoqli otlarga asos bo‘luvchi lisoniy material -lug‘aviy asos, apellyativ, apellyativ leksika leksika, antroponimik asos, toponimik asos deb yuritilmoqda [1,153].

O‘zbek tilshunoslaridan T.A.G‘aniyev fikricha, konversiya biror lug‘aviy asosni so‘z hosil qilishning boshqa paradigmasiga o‘tkazib yangi so‘z yasashdir. Ilmiy manbalarda onomastik konversiyaning bir turi toponimik konversiya ham qayd etiladi. Toponimik konversiya deb ham yuritiladi. Shu o‘rinda, chet tilidan kirgan internatsional so‘zlarni muqobilini emas, asl tarjimaga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sh.Ball tomonidan nom ko‘chish hodisasiga konkret yechim berilgan.Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda “transpozitsiya” atamasi boshqalarga qaraganda tez-tez ishlatiladi, ammo “konversiya” atamasi noaniq talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, eng to‘liq va to‘g‘ri talqinni beradigan “Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da quyidagicha qayd etilgan: “transpozitsiya” (lotincha transpositio – joyini o‘zgartirish) - bir lingvistik shaklning boshqasining vazifasida qo‘llanilishidir.

Onomastik transpozitsiyaning qanday nomlar doirasida ko‘chishiga ko‘ra toponimik transpozitsiya , gidronimik transpozitsiya kabi turlarga ajratish mumkin. Hosil bo‘lgan so‘zning belgilashdagi umumiy qoida onomastik transpozitsiyada, jumladan, gidronimik transpozitsiyada ham saqlanadi. Bunda ham so‘z yasalishidagi singari yasashga asos bo‘lgan yasovchi va yasalish natijasida hosil bo‘lgan yasalma munosabati mavjuddir. Masalan, *Qilichniyozboy* (kishi ismi)- yasovchi> *Qilichniyozboy* (kanal – Amudaryo t.) -yasalma; *Qirqqiz* (xalq og‘zaki ijodi mahsuli, doston nomi) -yasovchi> *Qirqqiz* (ko‘llar-Ellikqal’a t.)-yasalma; *Kaltaminor* (aholi punkti-To‘rtko‘l t., ko‘cha nomi-Nukus sh., nekronim- To‘rtko‘l t.)- yasovchi> (kanal –To‘rtko‘l t.) yasalma. Yuqoridagi uchinchi misolimizda onomastik transpozitsiyaning ko‘chuvchanlik xususiyati faqatgina bir atoqli otning boshqa atoqli otga emas, bir nechta atoqli otlarga o‘tishini ham kuzatish mumkin.

Demak, gidronimlarda yasovchi va yasalma munosabati mavjud. Asosning morfemik tarkibiga ko‘ra gidronimik transpozitsiya usuli asosida yasalgan gidronimlarning ikki turini ajratish mumkin:

1. **Tub asosdan yasalgan gidronimlar**: *Sho‘mish* (sho‘mish narsa-buyum nomi qoraqalpoq tilida) *Sho‘mish* (-ko‘l Amudaryo t.; *Otajonboy* (kishi nomi) *Otajonboy* ko‘l - Amudaryo t.; *Alili* (kishi nomi) *Alili* ariq- Amudaryo t. kabi gidronimlar ham shu turga mansubdir.

2. **Yasama asosdan yasalgan gidronimlar**. Bu turga mansub gidronimlarni o‘z ichida uch turga yana ajratish mumkin:

a) yasama sodda tarkibli so‘zlardan yasalgan gidronimlar: Qamishli (ko‘l – To‘rtko‘l t.) Fidokor (ariq- Ellikqal’a t.) kabi.

b) qo‘shma tarkibli so‘zlardan yasalgan gidronimlar: Mang‘itarna (kanal- Amudaryo t.), Xo‘jako‘l (kanal- Amudaryo t.), Ko‘kdaryo (irmoq-Beruniy t.)

c) juft tarkibli so‘zlardan yasalgan gidronimlar. Nayman-Beshtom (kanal- Beruniy t.) kabi.

Onomastik transpozitsiya, jumladan, gidronimik transpozitsiya usulida nomlar yasalganda tildagi ma’lum bir so‘zlargina ishtirok etishi kuzatiladi. Bunday lug‘aviy birliklar sirasiga ko‘proq toponimlar, antroponimlar, etnonimlar, gidronimik aniqlagichlar, o‘simlik, daraxt nomlari kiradi. O‘zbek tili gidronimiyasida transpozitsiya usulida yasalgan gidronimlarning yasalish asosiga ko‘ra quyidagi turlari kuzatiladi:

1. **Toponimlar asosida yasalgan gidronimlar**: Qirqqiz (kanal-Ellikqal’a t.), Qirqqiz (Ellikqal’a t. aholi punkti nomi). Ellikqal’a (kanal-Ellikqal’a t.) Ellikqal’a- tuman nomi kabi.

2. **Antroponimlar (kishilarning ismi, familiyasi, ota ismi, laqabi) asosida yasalgan gidronimlar:** Seityap (ariq- Amudaryo t.), Narimjonbuva-1 (tarmoqlovchi kanali - Ellikqal’a t.) kabi,

3**. Etnonimlar (millat, urug‘, qabila nomlari) asosida yasalgan gidronimlar**:

Qozoqyap (ariq-Beruniy t.), Naymanyap (kanal- Beruniy t.), Xo‘jako‘l (kanal- Amudaryo t.), Mang‘itarna , Qipchoqarna, Turkmanyap (kanallari - Amudaryo t.) kabi.

Gidronimik transpozitsiyani qanday manba doirasida yuzaga kelishiga kura kuyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Tashqi gidronimik transpozitsiya.
2. Ichki gidronimik transpozitsiya.

Tashqi gidronimik transpozitsiyada onomastik sathga mansub bo‘lmagan lug‘aviy birliklar so‘zlardan gidronim yasaladi: Qorako‘z, Aqaltin (kanallari - Amudaryo t.), Qamishli (ko‘l-To‘rtko‘l t.) kabi.

Ichki gidronimik transpozitsiya til lug‘at boyligining onomastik sathi birliklaridan, ya’ni atoqli otlardan suv obyekti nomlari yasaladi. Bunda antroponim, etnonim, fitonim, zoonimlar hamda toponimning boshqa turlari: oykonim, oronim, nekronim va boshqa atoqli nomlardan gidronimlar yasaladi. Demak, bunda bir atoqli otdan boshqa yana bir atoqli ot yasaladi.

Adabiyotlar:

1. Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: дис... д-ра филолог. наук-Toshkent, 2011.–199 b.
2. Улуқов, Носиржон Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи://Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер

Навоий номидаги тил ва адабиёт" институти; Наманган давлат университети. - Тошкент: Фан, 2008. –Б.154.
3. Голубева А.Ю. Конверсия в словообразовании узус и окказиональность: дис.... филолог. наук- Ростов-на-Дону,2014. –Б.24.
4. Турдибеков Т.Д. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси Филол.фанлари номзоди. дис. афтореф. -Тошкент, 1996. –Б.11.
5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.– Б.41.
6. Azizbek, K. (2023). Janubiy qoraqalpog‘iston hududidagi tabiiy geografik belgilar asosida vujudga kelgan gidronimlarning geomorfologik xususiyatlari. Science time journal, 1(1), 29-35.
7. Azizbek, Kamolov. “Janubiy qoraqalpog ‘iston hududidagi tabiiy geografik belgilar asosida vujudga kelgan gidronimlarning geomorfologik xususiyatlari”. Science time journal 1.1 (2023): 29-35.

VI SHO‘BA. QIYOSIY-CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

GRAMER KATEGORİLERİN TÜRKÇENİN DİLSEL DOĞASINA GÖRE YORUMLANMASI ÜZERİNE

Jo‘liboy ELTAZAROV,
Semerkant Devlet Üniversitesi Profesörü, filoloji doktoru

Özet. Sovyetler sonrası Orta Asya ve Azerbaycan’daki ulusal dilbilim fenlerinde şu ana kadar dil olgularının incelenmesinin teorik ve pratik temelleri olarak Rus (Sovyet) dilbiliminin gramer teorisi, onun yaklaşım ve yorumlama yöntemleri kullanılıyor olduğu bilinen gerçektir. Bu durum özellikle gramer kategorilerinin yorumlanmasında açıkça görülmektedir. Bu yanlış yaklaşımları bir zamanlar ünlü Türkolog Prof. S.N. Ivanov eleştirmiş, bazı Türk lehçelerindeki gramer kategorilerinin Rusça ve Almancadaki gibi yorumlanması veya onlara cinsiyet (isimlerde) ve görünüş (aspect category, fiillerde) gibi kategorilerinin «girilmesi» durumlarına dikkatı çekmişti. Bilindiği gibi Hint-Avrupa dilbilim geleneklerinde gramer kategorilerinin varlığının 5 koşulu vardır: 1) gramer kategori – homojen anlamlara sahip karşıt dizi lisani formlardan oluşan bir sistemdir; 2) gramer kategori ilgili morfologik formları kapsar ya da birkaç morfolojik unsur ile ifade edilir; 3) gramer kategori sözcük türlerinin tüm unsurlarına ilişkin mevcuttur; 4) kategori herhangı dil birimi için zorunludur, onlar gramer kategori dışında varlığını sürdüremez; 5) kategori ancak bir sözcük türü çerçevesinde varlığını sürdürür.

Türk lehçelerindeki gramer kategoriler, örneğin, iyelik kategorisinin form ve anlamları yukarıda belirtilen 5 şarta uymaz, özellikle: 1) Türkçede ad iletişim süreci dışında iyelik eklerini almaz (mesela, *okul, kitap*); bundan dolayı onun karşıt çifti da yok (1.şartın ihlali); 2) iyelik kategorisi ancak ad sözcük türüne ait değildir, bilakıs, Türkçede sayılar, zamirler ve başka nesnel anlam taşıyan sözcükler iyelik kategorisinde çekimlenebilir: *dördünüz, ikimiz; bizim, senin, kendisi* gibi (5.şartın ihlali). Bunun dışında benzer ihlaller adlardaki hal ve çoğul kategorisinde de görülmektedir; çoğul ekini zamirler ve filler de alır, saygı kategorisini oluşturur: Özbek. *dädäm+lär keldi+lär* (babam geldi); Uygur. *ulä kesillä* (o gelsin); Türk. *binler(ce), onlar* ve saire.

Son yıllarda Türkçedeki gramer kategorilerin aynı Hint-Avrupa dillerindeki gibi formal-grammatik kategoriler olarak anlatmak yerine Türkçenin lengüistik doğasından ve yapısal özelliklerinden gelerek onları anlamsal kategoriler olarak tarif etmek bilimadamlarınca kabül görülmektedir.

Kanatimizce, Türkçedeki gramer kategorilerinin mahiyeti (özü) aşağıdaki gibidir:

1. Halihazırda Türkçedeki gramer kategoriler için kullanılagelen yaklaşımlar dilimizin lisanı doğasına ve yapısına uygun değildir.

2. Türkçedeki gramer kategorileri anlamsal, daha doğrusu işlevsel-anlamsal kategoriler olarak nitelendirmek olayın mahiyetine uygundur.

3. Türkçede bazı bazı dil birimleri (kelimeler) kategori dışında kalabilir ve herhangı dilde olduğu gibi dilimizdeki gramer düzensizliğin örneğidir.

4. Türkçede gramer kategorileri çok yönlü, çok anlamlı ve çok işlevli olup, onların bazıları tek sözcük türünde, çoğu ise birkaç sözcük türlerinde anlam değişiklikleriyle görevini sürdürmektedir.

5. Türkçedeki gramer kategorilerde özel form (ek) değişmez, ancak onun anlamları değişebilir, belli bir eke ait anlamlar birbirine bağlı halde mevcuttur. Bu anlamlar toplamı belli bir gramer kategorinin mahiyetini belirleyecektir.

6. Türkçede gramer kategorilerin anlamları ancak ekleme (agglutination) üsülüyle oluşmaktadır.

Kilit sözcük ve cümleler: *Türkçe, Türk Lehçeleri, gramer yapı, lengüistik doğa, gramer kategoriler, formal kategoriler, anlamsal kategoriler*.

TURKIY TILLARNING LISONIY TABIATIGA KO‘RA GRAMMATIK KATEGOIYALARNING TALQINI VA TAVSIFI MASALASI HAQIDA

Ma’lumki, post Sovet O‘rta Osiyo va Ozarbayjon milliy tilshunoslik fanlarida til hodisalarini o‘rganishning nazariy va amaliy asoslari sifatida rus (sovet) tilshunosligining grammatik nazariyasi hamda unga yondashuv va izohlash usullari qo‘llanib kelingan. Bu, ayniqsa, grammatik kategoriyalarni izohlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu noto‘g'ri yondashuvlarni bir vaqtlar mashhur turkolog prof. S.N. Ivanov ba’zi turkiy tillardagi grammatik kategoriyalarning rus va nemis tillarida bo‘lgani kabi talqin qilinishi yoki ularga jins (ismlarda) va aspekt (fe’llarda) kabi kategoriyalarning «yopishtirish»ni tanqid qilgan va e’tiborni tortgan. Ma’lumki, Hind-Yevropa tilshunoslik an’analarida grammatik kategoriyalarning mavjudligi uchun 5 ta shart bor: 1) grammatik kategoriya – bir jinsli ma’noga ega bo‘lgan qarama-qarshi lisoniy shakllar yig‘indisidan tashkil topgan tizim; 2) grammatik kategoriya turdosh morfologik shakllarni qamrab oladi yoki bir nechta morfologik elementlar bilan ifodalanadi; 3) grammatik kategoriya so‘z turkumiining barcha elementlari uchun mavjud; 4) kategoriya har qanday lisoniy birlik uchun zarur, ular grammatik kategoriyadan tashqarida amal qila olmaydi; 5) kategoriya faqat so‘z bir turkumi doirasida saqlanib qoladi.

Turkiy tillardagi grammatik kategoriyalar, masalan, egalik kategoriyasining shakl va ma’nolari yuqorida keltirilgan 5 shartga to‘g‘ri kelmaydi, xususan: 1) turkiy tildagi ot aloqa jarayonidan tashqarida egalik qo‘shimchalarini olmaydi (masalan, maktab, kitob); shuning uchun uning qarama-qarshiliklari juftligi yo‘q (1-shartning buzilishi); 2) Egalik kategoriyasi faqat ot so`z turkumida emas, aksincha son, olmosh va boshqa obyektiv ma`noli so`zlar bu kategoriyada tuslanishi mumkin: *to`rttangiz, ikkimiz; biznikiga o‘xshab, sizniki, o‘zi* (5-shartning buzilishi). Bundan tashqari, shunga o‘xshash buzilishlar otlarning kelishik va ko‘plik kategoriyalarida ham kuzatiladi; olmosh va fe’llar ham ko‘plik qo‘shimchasini olib, hurmat kategoriyasini hosil qiladi: o‘zbek. *dädäm+lär keldi+lär*; uyg'ur. *ulä kesllä* (u kelsin); turkcha. *binler(ce), onlarcha* va hokazo.

So‘nggi yillarda turkiy tillardagi grammatik kategoriyalarni xuddi Hind-Yevropa tillarida bo‘lgani kabi formal-grammatik kategoriyalar deb ta’riflash o‘rniga turkiy tilining lingvistik tabiati va struktur xususiyatlaridan kelib chiqqan holda semantik kategoriyalar sifatida ta’riflash olimlar tomonidan qabul qilinmoqda.

Bizningcha, turkiy tillardagi grammatik kategoriyalarning mohiyati quyidagicha:

1. Hozirgi vaqtda turkiy tilda grammatik kategoriyalar uchun qo‘llanilayotgan yondashuvlar tilimizning tabiati va tuzilishiga mos kelmaydi.

2. Turkiy tilidagi grammatik kategoriyalarni semantik, to‘g‘rirog‘i, funksional-semantik kategoriyalar sifatida tavsiflash ishning tabiatiga mos keladi.

3. Turkiy tilda ayrim til birliklari (so‘zlar) kategoriyadan tashqarida bo‘lishi mumkin va ular har qanday tilda bo‘lgani kabi tilimizdagi inkor materiallarga misol bo‘la oladi.

4. Turkiy tildagi grammatik kategoriyalar ko‘p qirrali, ko‘p ma’noli va ko‘p funksiyali bo‘lib, ularning ba’zilari bir so‘z turkumida o‘z vazifalarini bajarsa, aksariyati bir necha so‘z turkumlarida ma’no o‘zgarishlari bilan o‘z vazifalarini davom ettiradi.

5. Turkiy tildagi grammatik kategoriyalardagi maxsus shakl (qo‘shimcha) o‘zgarmaydi, lekin ma’nolar o‘zgarishi mumkin, ma’lum affiksning ma’nolari o‘zaro semantik bog‘langan. Bu ma'nolarning yig'indisi muayyan grammatik kategoriyaning mohiyatini belgilaydi.

6. Turkiy tilda grammatik kategoriyalarning ma’nolari faqat aglyutinatsiya yo‘li bilan hosil bo‘ladi.

Tayanch so‘zlar: *turkiy, turkiy shevalar, grammatik tuzilma, lingvistik tabiat, grammatik kategoriyalar, formal kategoriyalar, semantik kategoriyalar*.

1. Giriş. ‘Gramer kategori’ kavramı ve gramer kategorilerin anlamı, mahiyeti

Gramer kategorileri, bir unsurun bir alandaki sentaktik özelliklerinin toplamı veya sınıfıdır. Bu sınıflar, unsurların birbirleriyle kıyaslanmasıyla elde edilir veya aynı şekilde verilir. Bunların başında grammatikal ulamlar (İng. Grammair categories) gelir. Bu, cümle ya da söz ögelerinin niteliği, yapı ve göreve göre ayrıldıkları sınıflar, ulamlar demektir (Dilaçar A., 1971, s.93). Herhangi gramer kategorisi dilin tüm ünsürlerinde görüldüğü gibi biçim (ifade) düzlemi ve anlam düzleminin, yani grammatik şekil (formant) ve grammatik anlam birliğinden oluşmaktadır. Örneğin, *kitab+im* (ad, tekil, I şahıs, iyelik); *kitap+lar* (ad, III sahıs, çokluk); *kitab+ı okumak* (ad, III şahıs, belirtme halinde); *kitap+çik* (ad, III şahıs, küçültme).

Gramer kategorilerin taşıdığı dilbilgisel anlam, standart bir ifadeye sahiptir ve o sözcüksel anlama ek bir anlam katan dil biriminin soyut dilsel içeriği sayılır. Sözcüksel anlamlardan farklı olarak dilbilgisel anlam, Hint-Avrupa dillerinde bütün bir sözcük türüne aittir, filcümle isimlerin gramer kategorileri kendine has dilbilgisel anlamları vardır, fiillerin de.

Gramer kategorilerin taşıdığı dilbilgisel anlam yalnızca kelimeler ve kelime formlarına has özellik değildir. O kelime biçimlerinin yanı sıra ifadeler ve cümleler de vardır. Dilbilgisel anlam konuşma süreci sırasında geçerken ifade edilir ve çoğu zaman konuşmacılar tarafından fark edilemez durumdadır. dil. Dildeki sözcüksel anlamlarının sayısı sınırsız ölçütde ise, dilbilgisel anlamlarının sayısı bayağı sınırlıdır (Türkçedeki gramer kategoriler bundan müstesna demek mümkün).

Bir dizi homojen dilbilgisel anlamlar bir gramer kategoriyi oluşturur. Gramer kategori, homojen anlamlara sahip, birbirine karşıt grammatik şekillerden (formant) oluşan bir sistemdir. [Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar, 2002, s.115.]

Dilbilgisel anlamla ilgili olarak gramer kategorisi genel bir kavramdır. Bir dilde belli bir gramer kategorisinin mevcudiyeti çeşitli sözcük biçimlerinde düzenli olarak yeniden üretilen, birbiriyle ilişkili çeşitli dilbilgisel anlamların varlığıyla belirlenir. Yani gramer kategorining formantı (ları)nın en az iki zıt anlamı olması gerekmektedir. Diyelim, Türkçedeki ad durum eklerindeki anlam çeşitliliği (*okul+a gittim; bab+m+a söyledim*) veya Rusçada fiillerdeki görünüş kategorisinin mükemmel ve kusurlu şekillerinin varlığı: *Ученик решал задачу* - *Ученик решил задачу* (Öğrenci problemi çözer - Öğrenci problemi çözmüştür).

Ayrıca bir kategorinin varlığı, o kategorinin anlamını ifade eden biçimbirimlerin varlığıyla da belirlenir. Mesela İngilizcede cinsiyet anlamı var, ama bu anlamı ifade edecek biçimbirimler yok ve dolayısıyla gramer bilgisi de yok. Rus dilinde, cinsiyetin gramer kategorisi mevcuttur, çünkü bunun cins

ifade eden morfemleri (çekimleri) vardır: *человек* (*adam,* eril)- *земля* (*toprak,* dışıl) – *поле* (*tarla,* nötr).

Bir dilde zorunlu gramer kategorilerin varlığı, konuşmacının herhangı kelimeyi konuşmada kullanmayı planlarken, bu kelimeyle belirli bir kategorinin anlamlarından birini ifade etmesi (yani bu kelimeyi bu kategoriye göre karakterize etmeye) lazim olduğu anlamına gelir. Bu nedenle, bir fiilin kişisel biçimini seçerken, Rusça konuşan kişi onu konunun yönüne, zamanına, kipine, şahısına/sayısına (veya geçmiş zamanda cinsiyetine) göre karakterize etmek zorundadır, çünkü tüm bunlar dilbilgisel anlamlardır. Konuşmacı, kendi iletişimsel niyetinin bir parçası olmasa bile, dilbilgisi kategorilerinin uygun anlamlarını belirtmekle yükümlüdür; örneğin, Rusça fiilin kategorileri olarak eylemin zamanını özellikle belirtmeyi amaçlamalıdır. Tabii ki, konuşmacı yine de zamanı belirtmekten kaçınabilir - ancak o zaman artık bir fiil kullanmak zorunda kalmayacak, örneğin Rusça'da zorunlu zaman kategorisi olmayan bir isim kullanmak zorunda kalacak. Karşılaştırınız: *ты пришел ~ твой приход→твой прошлый/будущий приход* (sen geldin ~ senin gelişin, senin önceki / ilerideki gelişin).

Dilbilgisel kategoriler tarihsel olgulardır. Zamanla bir dilde bazı kategoriler gelişebilir, bazıları ise kaybolabilir. Mesela, eskiTürkçede adlardaki sayı kategorisi içinde tekil ve çoğul yanında –z şekli ile yapılan çift sayı formu (*yüz, diz, mögüz, ikiz* ve saire) vardı, 14-15 yüzyıllardan itibaren o insan üzvlerini anlatan adlarda kalıplaşmıştır. Bunun gibi İngilizce'de bir zamanlar her üç zamanı bir arada tutan bir görünüş kategorisi vardı, daha sonra bu şekilden başka fiil zamanları farklılaşmış ve ayrılmıştır, ilaveten bağımsız bir anlam kazanmaya başlamıştır ve sonuç olarak zaman formlar gelişmiştir. Bu eski görünüş formlarının izleri Ingilizce hâlâ görülebilmektedir: *begin, become.*

Gramer kategoriler amaçlarına ve bağlantılarına göre morfolojik ve sözdizimsel olarak ikiye ayrılır. Morfolojik kategoriler, kendi paradigması içinde aynı kelimenin biçimleriyle (biçimlendirici) ve üyeleri farklı sözcük birimleriyle temsil edilebilen sınıflandırma biçimleriyle temsil edilebilir. Sözdizimsel gramer kategoriler cümlenin ana ve ikincil üyeleri, cümlelerin iletişimsel yönelim (anlatı, soru, teşvik) kategorileridir.

Türkçede lengüistik doğasından gelerek gramer kategoriler esasen morfolojik kategoriler olarak ortaya çıkmaktadır ve Türkçede dilbilgisel anlamı ifade etmenin tek yolu aynı sözcük yapımıda olduğu gibi sadece ekleme ve eklerle ilgilidir.

2. Türk Lehçelerindeki gramer kategorilerin anlamsal kategoriler olarak işleyişi

Türk dilleri üzerine bilimsel araştırmaların başlangıcından itibaren Türk dilinin gramer özelliklerinin incelenmesi, onun dilsel doğası dikkate alınmadan yürütülmüştür (örneğin, Kaşgarlı Mahmud'un ünlü «Türkçe Sözlüğü»

Arapçanın gramer teorisi esas alınarak yazılmıştır.) Türkçenin ilk gramerleri yazıldığı dönemlerden (17-18 yy.) buyana gerek yabancı araştırmacılar, gerek Osmanlı ve Cumhuriyet dönemindeki bilimadamları olsun, Türkçenin gramer kategorilerini Fransız veya Alman gramer teorilerini esas alarak öğrenmiştir (Dilaçar A. 1971, s. 197-210). Bunun gibi Sovyetler öncesi ve sonrası Orta Asya ve Azerbaycan'daki ulusal dilbilim fenlerinde şu ana kadar dil olgularının incelenmesinin teorik ve pratik temelleri olarak Rus (Sovyet) dilbiliminin gramer teorisi, onun yaklaşım ve yorumlama yöntemleri kullanılıyor olduğu bilinen gerçektir. Bu durum özellikle gramer kategorilerinin yorumlanmasında açıkça görülmektedir. Bu yanlış yaklaşımları bir zamanlar ünlü Türkolog Prof. S.N. Ivanov eleştirmiş, bazı Türk lehçelerindeki gramer kategorilerinin Rusça ve Almancadaki gibiyalnızca formal-gramer anlamlarını taşıyan kategoriler olarak yorumlanması ve hatta bu dillere cinsiyet (isimlerde) ve görünüş (fiillerde) gibi kategorilerinin «girilmesi» durumlarına dikkatı çekmiştir (İvanov, 1969, s.17-18).

Aslında her dil benzersiz ve orijinaldir. Aslında, dilin ideal yanı, onun anlambilimi, kelime dağarcığının bileşimi, sözdizimsel yapısı - tüm bunlar, belirli bir dili anadili olarak konuşan insanların gerçek yaşamını, mevcut kültürel ve tarihi koşullarını yansıtır. Her kültür ve dilin her ulusun benzersiz kimliğini kanıtlayan ve ortaya koyan unsurdur. Bu nedenle her dilin dilbilgisi kategorileri, belirli bir dildeki nesnelerin ve durumların tanımlanmasına yönelik bir tür ankete benzetilebilir; konuşmacı, böyle bir anketin «dilbilgisel»in sorularını (istese de istemese de) yanıtlamadan bu tanımlamayı başarıyla tamamlayamaz. R. Jacobson'un bir zamanlar çok yerinde bir şekilde belirttiği gibi, «diller arasındaki temel fark, neyin ifade edilip edilemeyeceği değil, konuşmacılar tarafından neyin iletilmesi veya iletilmemesi gerektiğidir.» (Jacobson, R. 1971, s. 697-708). Bu durum dilin naif «dünyanın dilsel manzarası»ni yaratmada oynadığı rolün önemini ima eder. Gramer kategoriler de dilin tüm unsurları gibi her dilin (ve onun arkasındaki kültürün) özgüllüğünü oluşturan gerçekliği yansıtmanın bir yolu olduğu, bundan belirli bir dili konuşanların kolektif deneyimi öncelikle gramer kategorileri ve onların taşıyacağı dilbilgisel anlamlar sisteminde yansıtılıyor olduğunu kanıtlamaktadır.

Şu anda Türkçenin hemen hemen her kolunun araştırılmasında esas olarak kullanılan Hint-Avrupa dillerinin (Fransız, Alman, Rus..) gramer teorisinde gramer kategorilerinin ancak formal kategoriler olarak var olduğu ve Türk lehçelerinde onlar dilin işlevsel-anlamsal imkanlarının uygulanmasında, yeni anlam veya düşüncenin aktarımında rol alan anlamsal kategoriler olarak ortaya çıkmakta olduğu hemen söylenmelidir. Bilindiği gibi Hint-Avrupa dilbilim geleneklerinde gramer kategorilerinin varlığının 5 koşulu vardır: 1) gramer kategori - homojen anlamlara sahip karşıt dizi lisani formlardan oluşan

bir sistemdir; 2) gramer kategori ilgili morfologik formları kapsar ya da birkaç morfolojik unsur ile ifade edilir; 3) gramer kategori sözcük türlerinin tüm unsurlarına ilişkin mevcuttur; 4) kategori herhangı dil birimi için zorunludur, onlar gramer kategori dışında varlığını sürdüremez; 5) kategori ancak bir sözcük türü çerçevesinde varlığını sürdürür (Bondarko, 2005, 171-173).

Türk lehçelerindeki gramer kategoriler, örneğin, iyelik kategorisinin form ve anlamları yukarıda belirtilen 5 şarta uymaz, özellikle: 1) Türkçede ad iletişim süreci dışında iyelik eklerini almaz (mesela, *okul, kitap*); bundan dolayı onun karşıt çifti da yok (1.şartın ihlali); 2) iyelik kategorisi ancak ad sözcük türüne ait değildir, bilakıs, Türkçede sayılar, zamirler ve başka nesnel anlam taşıyan sözcükler iyelik kategorisinde çekimlenebilir: *dördünüz, ikimiz; bizim, senin, kendisi* gibi (5.şartın ihlali). Bunun dışında benzer ihlaller adlardaki hal ve çoğul kategorisinde de görülmektedir; çoğul ekini zamirler ve filler de alır, saygı kategorisini oluşturur: Özbek. *dädäm+lär keldi+lär* (babam geldi); Uygur. *ulä kesillä* (o gelsin)*;* Türk. *binler(ce), onlar* ve saire (Eltazarov J.D., 2002, s. 24-30).

Kanaatimizce Türkçedeki gramer kategorilerin Hint-Avrupa dillerindeki gibi formal-grammatik anlam taşımaması bu dilin lengüistik doğası ve yapısal özelliklerinden kaynaklanmaktadır. Bilindiği gibi, Türkçe matematik bir mantık'a dayalı yapı-anlam ilişkileri üstüne kurulmuş dildir. Bu dilde kelimelerin kök tabanı değişmez olduğu gibi kök'e eklenen her ek yeni anlamı ortaya çıkarır ve bu yönden Türkçedeki eklerin statüsü ve rolu neredeyse kök morfemlerinkine eşittir.

Bunun temelindeki temayül ise Türkçenin dahil olduğu eklemeli (aglütinasyon, Latince ag-glūtinātio – yapıştırma) dillerin karakteristik özelliğinin - kelime veya kelime formlarının oluşturulmasında herhangı kök'e yapım veya çekim eklerinin kesin kurallara göre eklenmesi sonucu oluşan / ortaya çıkacak yeni sözcüksel, anlamsal ve dilbilgisel anlamları gerçekleştirecek işlevsel-dilbilgisel dönüşüm mekanizmasının var oluşudur.

Buna binaen ve bunun dışında: a) Türkçede kuralların istisnaları nadirdir; b) Türk morfolojisinde tekil biçim yoktur; c) bağlaçlar ağırlıklı olarak diğer dillerden alınmıştır, bu diller de bağlaç gerektirmeyecek şekilde yapılandırılmıştır ve içlerinde bulunan bağlaçlar ya başka dillerden alınmıştır, ya da onların etkisi altında ortaya çıkmıştır; d) Türkçede ses uyumu olgusunun kök+ek ilişkilerinin somutlaştırması ve morfolonolojik açıdan eklerin kök veya gövdeye tamamen tabi kılınması gibi bu mekanizmayı 'çalıştıran' katı kurallar da vardır (Guzev V.G. 2020, pp. 231–245)

Türkçedeki sözcük, kelime formu yapımı ve ek+kök ilişkilerindeki istisna durumlar sayısının az olmasının nedenini Rus bilimadamı G.P.Melnikov aşağıdaki gibi açıklar: 'Çekimli dilleri konuşanlar, çocukluktan itibaren, kendi dil sistemlerinde hazır halde bulunan kelime biçimlerinin büyük çoğunluğunu

edinirler (örneğin: *есть лёд, нет льда, по льду, на лёд, подо льдом, о льде* - buz var, buz yok, buzun üzerinde, buz'a, buzun altında, buz hakkında). Çekimli bir dilin anadili konuşmacısı ifadeleri oluştururken «hazır», tekrarlanabilir kelime biçimlerini konuşmaya dahil edecektir. Çekimli dillerinin işbu özelliği, örneğin, bu dillerde tamamlayıcı formların varlığını açıklar, örneğin: *один ~ первый, два ~ второй, ходил ~ шёл* (bir ~ birinci, iki ~ ikinci, yürüdü ~ vardı). Eklemeli bir dilin konuşmacısı tamamen farklı davranır: bir ifade oluşturma sürecinde o kelime formlarini üretir ve bu süreç dil sisteminde değil, konuşmada, yani sırayla gerçekleşir. Eklemeli bir dilin konuşmacısı tamamen farklı davranır: o dil sisteminde değil, bir ifade oluşturma sürecinde, konuşmada kelime formları üretir, yapım ve çekim eklerii belirli bir sırayla kelimenin tabanına yapıştırır' (Mel'nikov G.P. 1965, pp. 298–301). Çekimli dillerin kelime formlarını G.P. Melnikov 'yeniden üretilebilir, seçilebilir, seçilebilir' şeklinde nitelendirir; konuşmada oluşmuş eklemeli dillerin birimleri ise birikimlidir (koleksiyondur) (Mel'nikov G.P. 2003, pp.338-341).

Sözcük oluşturma ve çekim işlemlerinde mükemmel aglutinatif koşulların var oluşunun şartı konuşma akışında standart temellerin ve göstergelerin kullanılmasıdır, bu ise belirli iletişimsel görevleri yerine getirilmesinde yalnızca sınırlı varyasyonlara izin verir. Bu durum genellikle gramer kategorilerin dildeki ifadesi olan çekim eklerindeki çok anlamlı ve çok işlevli (meaningful and multifunctional) özelliklerini güçlendirecektir.

Zira, son yıllarda Türkçedeki gramer kategorilerin aynı Hint-Avrupa dillerindeki gibi formal-grammatik kategoriler olarak anlatmak yerine Türkçenin lengüistik doğasından ve yapısal özelliklerinden gelerek onları anlamsal kategoriler olarak tarif etmek bilimadamlarınca kabül görülmektedir (Guzev, Viktor, Nasilov, Dmitriy, 1981. s. 22-25; Ergin, Muharrem,1993, s.118-119; Korkmaz, Zeynep, 2002, s.211-215).

Aşagıdaki tablolarda Türkçenin bazı kollarında iyelik ve ad hal çekimi gibi gramer kategorilerinin Hint-Avrupa dillerinden farklı tarafları ve onların başta anlamsal kategoriler olarak işleyişi hususunda bilgiler verilmektedir:

Tablo 1. İyelik kategorisi

No	Özbekçe	Türkçe	Rusça veya İngilizce	açıklama
1.	*Kitob+im;* morfolojik usülle yapılmış, I şahısa ait eşyayı anlatır, şahıs ekten anlaşılmaktadır	*Kitab+im;* morfolojik usülle yapılmış, I şahısa ait eşyayı anlatır, şahıs ekten anlaşılmaktadır	*Моя книга; My book;* morfo-sentaktik usülle oluşturulmuş, şahıs ve eşya adı ayrı söylediğinde	Hint-Avrupa dillerinin hiçbirinde şahıs belirleyici kelime (decisive word) üzerinden tanımlamak imkansız

			iyelik kategorisinin dışındaki durum	
2.	*Sening qalaming;* morfo-sentaktik usülle yapılmış, II şahısa ait eşyayı anlatır, aitlik güçlü bir şekilde – şahıs zamırı ve II şahıs eki ile ifade edilmektedir. 'Kalem senin, başkasının değil' şeklindeki suppozitiv anlam da var	*Senin kalamın;* morfo-sentaktik usülle yapılmış, II şahısa ait eşyayı anlatır, aitlik güçlü bir şekilde – şahıs zamırı ve II şahıs eki ile ifade edilmektedir. Kalem senin, başkasının değil şeklindeki suppozitiv anlam da var	*Твой карандаш; Your pen;* morfo-sentaktik usülle oluşturulmuş, şahıs ve eşya adı ayrı söylediğinde iyelik kategorisinin dışındaki durum	iyelik, ait olma, mülkiyet, mensubiyet gibi anlamlar iyelik kategorisinin ana (invariant) anlamıdır, Türkçedeki onun başka anlamları bundan türemiştir. Hint-Avrupa dillerinde anlam türevleri çok az
3.	*Mashina Ali+niki*; morfo-sözcüksel yöntem ile yapılmış, aitlik düşüncesini vurgulayan durumu var	*Araba Ali+ninki*; morfo-sözcüksel yöntem ile yapılmış, aitlik düşüncesini vurgulayan durumu var	*Моя собственная машина; mine car;* morfo-sentaktik usülle oluşturulmuş, aitlik düşüncesini vurgulayan durumu var	iyelik, ait olma, mülkiyet, mensubiyet gibi anlamlar iyelik kategorisinin ana (invariant) anlamıdır, Türkçedeki onun başka anlamları bundan türemiştir. Hint-Avrupa dillerinde anlam türevleri çok az

Türkçedeki gramer kategorilerinin çok anlamlı ve çok işlevli olması, bunların onlarca, hatta yüzlerce bağlamsal anlama sahip olduğunu göstermektedir.

Literatür

1. Bondarko A. V. (2005). *Teoriya morfologicheskix kategoriy i aspektologicheskiye issledovaniya*. 2-baskı. – Moskova.
2. Dilaçar A. (1971). Gramer: Tanımı, Adı, Kapsamı Türleri, Yöntemi, Eğitimdeki yeri ve Tarihçesi. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı. Belleten.* 2.baskı. Türk Tarih Kurumu basim Evi. Ankara, 1989.
3. Dilâçar, A. (1971). 1612'de Avrupa'da Yayımlanan İlk Türkçe Gramerinin Özellikleri. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten*, 18, 197-210.

4. Guzev, V., Nasilov, D. (1981). Slovoizmenitelnıe kategorii v tyurkskix yazıkah i ponyatie "Grammaticheskaya kategoriya". *Sovetskaya Tyurkologiya.* No 5, s.22-25.

5. Eltazarov J.D. (2002). *Turkiy tillar uchun grammatik kategoriyalar talqini.* Özbek tili grammatik qurilishi va uslubiyati masalalari: Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand: SamDU.

6. Ergin, Muharrem (1993). *Türk Dil Bilgisi*. İstanbul: Bayrak.

7. Guzev V.G. (2020) About some exotic features of Turkic languages («Turkic miracles»). Digest of World Politics, vol. 10, ed. by T. S.Nemchinova, St. Petersburg, St. Petersburg State University Press,. https://doi.org/10.21638/11701/26868318.16

8. İvanov S.N. (1969). *Rodoslovnaya drevo tyurok Abu-l-Gazi-xana. Grammaticheskiy ocherk.* –Tashkent.

9. Jacobson, R. (1971). Language in Relation to Other Communication Systems. In Word and Language, (Volume II, 697-708). Berlin-New York: De Gruyter Mouton.

10. Kerimoğlu Caner. (2014). Türkiye Türkçesi Gramerindeki Düzensizlikler ve Eş Zamanlı Gramer Yazımı. *Dil Araştırmaları.* Sayı: 14. Bahar .

11. Korkmaz, Zeynep (2003). Türkiye Türkçesi Grameri: Şekil Bilgisi, *Türk Dil Kurumu Yayınları*, Ankara.

12. *Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar* (2002) /Gl. red. V.N. Yartseva. – 2-e izd., dop. – Moskova: Bolshaya rossiyskaya entsiklopedia.

13. Mel’nikov G.P. (1965) About the Relationship between Agglutination and Synharmonism. *Morfologicheskaya tipologiya i problema klassifikacii yazykov*. Moscow, Nauka Publ., pp. 298–301.

14. Mel’nikov G.P. (2003) System Typology of Languages. Principles, Methods, Models. Moscow, Nauka Publ.

CODE SWITCHING (CS) – SOCIAL, EKONOMIC, AND DEMOGRAFIC FACTORS DRIVE THE EMERGENCE OF‘UZBGLISH’ (MIXTURE OF UZBEK AND ENGLISH)

Sajid Valiya VALAPPIL,
Research Scholar, National University of Uzbekistan

Nilufar ABDURAKHMONOVA,
Doctor of Science, Professor,
National University of Uzbekistan

An analysis of code-switching (CS) between Uzbek and English among youth, with the aim of extrapolating the nature of language among the next generation in a socio-political environment.

Key words*: code-switcher, multilingual, monolingual, sociolinguistic perspective, intra-sentential.*

KODLAR ALMASHINUVI (CS) – «O‘ZBGLIZ TILI» (O‘ZBEK VA INGLIZ TILILARNING ARASHMASI) PAYDO BO‘LISHIDA IJTIMOIY, IQTISODIY VA DEMOGRAFIK OMILLAR

Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy muhitda kelajak avlod o‘rtasida til tabiatini ekstrapolyatsiya qilish maqsadida o‘zbek va ingliz tillari bo‘yicha kod almashinuvi (CS) tahlilini amalga oshirish yo‘llari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar*: kod almashtirgich, ko‘p tilli, bir tilli, sotsiolingvistik nuqtai nazar, intrasensial.*

A study of this nature is designed to obtain a better understanding of what code switching is as well as the dynamics of influencing young learners' English language knowledge and the extrapolation of a culture of combining both the English language and Uzbek language in social settings. It is interesting to note that code switching is neither a government objective nor a curriculum mission; rather, it is a slow process that is happening across the globe, with the globalisation of the economy and the immigration for work and education, causing globalization and code switching to take place at a slow pace. The Uzbek Republic cannot be spared the process of code switching since it is in the peak of development and the young learners might develop a culture of a two-language practice of using both Uzbek and English in a new context, which can be termed Uzbglish, which is a hybrid of the two languages. Motivation is one of the most influential of all individual differences, trumping factors such as language learning aptitude (Gardner & Lambert, 1972) in explaining gains in proficiency in certain contexts. Recently, it has been shown

that motivation is more important than the age of onset, with students who start later developing higher levels of motivation and quickly catching up with the proficiency of learners who started English instruction early (Pfenninger & Singleton, 2016). Motivation is also considered to be responsive to appropriate interventions (Taylor & Marsden, 2014) and can be enhanced or decreased as a result of language learning environment (Ushioda, 2009). Both this relatively strong influence on language learning, and its malleability, make motivation a factor that is crucial for language learning policies. Research aims to explain how the language is changing and how the new cosmopolitan culture within the country is influencing it and how immigration is affecting it in order to create a new society in the future in which both English and Uzbek will be used as a combination due to a range of factors that include economics, social, politics, business, transnational marriage, social media, foreign education, etc.

What Is Code Switching?

Code-switching is a phenomenon that happens when a speaker alternates between two or more languages during a single conversation, sentence, or situation. It is also known as language alteration, and it usually occurs when two or more multilingual people who know the same languages speak to each other.

In my experience as a code-switcher, this last aspect is what typically triggers the phenomenon. Specifically, I code-switch only when I am completely sure that my interlocutor knows the language I usually code-switch in. What's more, I always start my conversation with strangers in English, but when they reply to me in the Uzbek language, or by code-switching between the two languages, and then I feel free to code-switch with them with my limited knowledge in Uzbek. As at the same time, a lot of the people in Uzbekistan like vendors and taxi drivers are trying to code switch either with their limited knowledge of English or Hindi because I am originally from India.

Why Do Multilingual People Code-Switch?

As reported by The Cambridge Encyclopaedia of language, there are three main reasons why people code-switch and range from social factors to linguistic causes. Let's see them all.

– To convey a message more accurately: when a multilingual speaker cannot express themselves how they would in the language they are currently using, they tend to switch to another language to convey the message more precisely. As a result of this, the conversation may continue in this new language for a while, but it might also be used in the context of a single sentence.

– For formality reasons: monolingual speakers vary the formality of their speech by adapting their vocabulary accordingly. Likewise, multilingual speakers can change their formality by switching to another language.

– To better express emotions: monolinguals tend to show empathy by changing their lexicon to make it more familiar to the listener. Similarly, the words they use change according to their current mood and emotional state. Multi-linguals do the same but through the adoption of different languages. Specifically, they tend to choose the language that they think best conveys an emotion or can connect them with the listener.

Uzbekistan has a relatively young population, with 60 per cent of the population under thirty and a median age of 27 years. Eighteen per cent of the population are of school age. A total of 6,417,000 learners engage in education (compared to 6.3 million in 2021–22) attending 10,522 general education institutions,6 the vast majority being state-managed [Figures provided by relevant ministries to British Council Uzbekistan 13/3/2023]. Hence, there are a greater number of young learners in the country influencing it and they are adapting trends to change the face of the country, including the language, which is being influenced by their initiative and adaptable designs. There is no doubt that the country has embraced the English language fully over the last few years, and the mushrooming of IELTS centres and other English speaking institutions in the country is the clearest sign of that fact. In addition, the Uzbekistan Statistics Agency reports that the number of foreign students studying in the country has increased from 1.3 thousand people in the 2017-2018 academic years to 5 thousand people in the 2022/2023 academic year as a result of the increase in foreign students studying in the country. In the same vein, Uzbek students immigrating to another country, regardless of distance and fees, receive enormous surpluses. This is a trend that fertilizes the trend of code switching and also influences the trend of using both languages with the same approach that millennials and pre-independent people employed with Russian and Uzbek. Thus, the result is that most of the students are more comfortable speaking both English and Uzbek together or at least they make an effort to post quotes on social media that incorporate both languages together.

Code-Switching is the linguistic phenomenon where multilingual speakers use more than one language in the same conversation (Poplack, 1978). The fragment of the worldwide population that can be considered multilingual, i.e., speaks more than one language, far outnumbers monolingual speakers (Tucker, 2001; Winata et al., 2021a). This alone makes a compelling argument for developing natural language processing (NLP) technology that can successfully process code-switched (CSW) data. However, it was not until the last couple of years that CSW-related research became more popular (Sitaram et al., 2019; Jose et al., 2020; Dogruöz et al. ˘ , 2021)

Language behaviour and attitudes toward language are closely related and can influence the choice of languages (Amin, 2020). For many years, attitude-behaviour relations have been the main concern in social psychology

and education research. Researchers have questioned whether attitudes stimulate specific kinds of behaviour.

Baker (1992, p. 10) demonstrated that attitude is «a hypothetical construct used to explain the direction and persistence of human behaviour.» Individuals' attitudes toward a second language (L2)/foreign language (FL) or toward the native speakers of the target language are important socio-psychological factors influencing language learning and language use. Positive or negative attitudes can also affect motivation to use or learn a language. Therefore, a positive attitude toward an L2/FL and its speakers may affect the process of language use in social contexts.

Fieldwork and empirical investigation of attitude-behaviour relations and language use focused on language alternation between Uzbek and English by Uzbekistan undergraduate students at a one province. We evaluated the relationship between language attitude and complexity of language switching in social settings using qualitative and quantitative methods. A sequential mixed methods design was followed in which the researchers attempted to elaborate on the findings of one method using another. A mixed methods approach encourages versatility and flexibility by integrating results from qualitative and quantitative approaches into a convergent set of findings (Creswell & Creswell, 2017). Mixed methods enable simultaneous informative explanatory and confirmatory inquiries or questions within the same study.

Within the sociolinguistic perspective, the research focused on the social motivations and social correlates of CS. A questionnaire was developed to investigate: (a) the attitude of Uzbek undergraduate students toward mixing languages and toward the target language (English). These attitudes are likely to play key roles in CS local and foreign languages in daily conversations and (b) to investigate the socio-pragmatic reasons and appropriate settings for Uzbek-English CS. We used three resources for the questionnaire design, including (a) available literature on sociolinguistic aspects of CS, and socio-psychology of language learning and language use (e.g., Edwards, 1982; El-Fiki, 1999; Gardner-Chloros, 2009; Gardner & Lambert, 1972; Garrett, 2010; Grosjean, 1982; Gumperz, 1977; Laoire, 2016; Liu, 2020; Nortier, 2020; Preston, 2002; Reyes, 2004), (b) informal interviews with the participants to elicit their points of view (some of them listed below) and combine the elicited data with previous research for preparation of a valid questionnaire, and (c) experts' advice and suggestions for confirming the validity of the research instrument.

According to Dörnyei (2007), the sample size and selection for this study should correspond to the target sample. Completed questionnaires were collected from 80 Uzbek undergraduate students (aged 19–24 years) studying

at Andijan region. The responses of 29 male and 51 female students were used for the analysis.

According to Braun and Clarke (2006), thematic analysis was the tool used to identify trends within interview data. This was particularly appropriate in the context of such a study as the primary aim is to understand participants' subjective experiences and perceptions.

Social and Linguistic Attitudes

This section considers the social and linguistic attitudes of Uzbek college students by examining their responses to linguistic and social stereotypes. The aim was to evaluate whether the students' attitudes reflect the attitude-behaviour relationship pattern.

Questionnaire 1 focused on linguistic stereotypes toward Uzbek and English, examining them in terms of 10 attributes, namely: «rich,» «prestigious,» «logical,» «pure,» «easy to learn,» «literary,» «powerful,» «useful for social gains,» «useful for personal gains,» and «good for career prospects.»

Table 1 shows that the bilingual Uzbek students did not rate any of the languages unfavourably—scores ranged between 1.1 and 2.4 (where scores 1–2 indicate highly favourable). Uzbek students have positive attitudes about the inherent quality of their native language. For instance, they think that Uzbek is as «rich,» «logical» and «useful for personal gains» as English, and more «literary» and «pure» than English. It was only in the case of «easy to learn,» «powerful,» «useful for social gains» and «good for career prospects» that Uzbek scores exceeded 2. For these attributes—the instrumental domains of employment and career opportunities—the Uzbek language received less positive evaluation than English and may be why Uzbek was rated less «powerful» than English. English was rated highly, except for the attributes «pure» and «literary» for which Uzbek was more favourably rated.

Table 1. Linguistic Attitudes of Bilingual Uzbek Students.

	Rich	Prestigious	Logical	Pure	Easy to learn	Literary	Powerful	Useful for social gains	Useful for personal gains	Good for career prospects
Uzbek	1.1	1.8	1.7	1.5	2.2	1.2	2.1	2.1	1.5	2.4
English	1.1	1.1	1.7	2.0	1.6	1.9	1.3	1.3	1.5	1.6

Note. Scores are the mean scores from the 5-point Likert scale where 1 to 2 represented highly favourable, 4 to 5 represented least favourable, and 3 was a neutral opinion.

Questionnaire 2 to 15 of the questionnaire asked about the occurrence of CS in participants' daily interactions. It focused on the general attitudes of the respondents toward language switching. It summarizes the general attitudes of the respondents toward CS. The attitudes were favourable, with 91% considering switching as normal, and no respondents considering CS as irritating, stylish, or a bother.

Table 2. Uzbek-English Students' Attitudes toward Code-Switching (CS).

	% agreement
a. Irritating to listen to	0.00
b. Very stylish	0.00
c. People are trying to show off	21.79
d. It is normal and we do it very often	91.02
e. It sounds pretty	37.17
f. It bothers me	0.00

Questionnaire 3 dealt with the reported use of CS in various contexts. It depicts the conversational and sociolinguistic functions that Uzbek college students give to CS in their daily interactions. CS is a meaningful communicative signalling device that helps bilingual speakers convey meaning to listeners or interlocutors.

Table 3. Context of Code-Switching (CS).

a. While talking to friends	1.02
b. Writing informal letters or text messages	9.23
c. Discussions	3.58
d. While fighting	3.07
e. Inability to express in one language	5.64
f. Informal situations	3.33

g. Workplace/Educational institutions	1.02
h. Interactions in class/meetings	6.15
i. Showing proficiency in language	2.82
j. To emphasize	1.53
k. To be precise and accurate	4.10

Questionnaire 4 shows these two questions aimed at investigating how often Uzbek undergraduate students switch between their native language and English and vice versa. We confirmed the direction of switching between the languages involved and noted the perceived frequency of its occurrence in their daily interactions. The participants' responses are summarized below.

Table 4. Frequency of Occurrence of Code-Switching (CS) by Uzbek-English Students.

	Very often %	**Sometimes %**	**Rarely %**
How often do you switch from Uzbek to English?	65.38	34.62	0.00
How often do you switch from English to Uzbek?	0.00	28.20	71.80

Questionnaire 5 dealt with the frequency and use of foreign language (FL) in daily life. Participants agreed that the use of English as an FL is increasing in their daily life interactions.

In Question 5, the respondents rated the effect of switching in their daily communication. The very positive attitude of participants regarding this question is shown below.

Table 5. Effect of Code-Switching/Mixing (CS) as Perceived by Uzbek-English Students.

	No change %	**Average %**	**Very good %**
How do you rate the effect of switching in your communication?	0.000	20.51	79.49

From the quantitative (questionnaire-based) analysis of the participants' responses, it was observed that Uzbek undergraduate students frequently switch languages in their daily conversations and Uzbek-English CS is a very common and normal phenomenon in their daily interactions. They switch more frequently at the lexical level with smaller constituents. In other words, switching is usually at an intra-sentential level (code-mixing) with only a few words or phrases involved. Inter-sentential switching (code-switching) occurs less frequently and involves clauses or sentences.

The direction of switching is mostly from Uzbek to English, that is, Uzbek is the dominant or matrix language (ML) and Uzbek college students switch to English vocabulary when talking in Uzbek. Uzbek provides the syntactic and morph syntactic frame, while English is the embedded language providing only content morphemes embedded in the morph syntactic frame of the matrix.

In direct opposition to traditional viewpoints, the participants of our study did not assign negative values to CS. They did not consider it to signal a lack of education or language proficiency, and did not think it will lead to loss of the Uzbek language. In contrast, they reported a strongly positive attitude toward English and the process of CS in the languages. This positive attitude influenced their daily language use and frequent switching between Uzbek and English in their interactions.

The participants demonstrated that switching occurs mostly for a few words or at lexical and phrasal levels (intra-sentential switching) while clause and sentence level switching (inter-sentential switching) was less frequently used. They considered CS as a facilitator in their daily interaction, and believe language retrieval is faster and easier when switching between languages. The direction of switching was mainly from Uzbek to English. Therefore, in Uzbek-English CS, Uzbek remains the dominant or matrix language while English is the embedded one that supplies the lexical items or content morphemes.

We present a comprehensive systematic survey on code-switching research in natural language processing to explore the progress of the past decades and understand the existing challenges and tasks in the literature. We summarize the trends and findings and conclude with a discussion for future direction and open questions for further investigation. We hope this survey can encourage and lead natural language processing (NLP) researchers in a better direction on code-switching research.

Limitations

There are a limited number of respondents to this survey. It is confined to a specific region and also to university students only. The questionnaire has also been shared as a printable version and most of the answers seem to have been filled in as a group because it is less likely that they will have to read so

the exact correct answer of each individual is not perfect. However, papers from other resources were also included if they were publicly available or easily accessible. In addition, the category in the survey does not include the code-switching type (i.e., intra-sentential, inter-sentential, etc.) since some papers do not provide such information.

References

1. https://www.uzbekembassy.in/statistics-agency-of-uzbekistan-announces-the-number-of-foreign-students-studying-in-the-country/
2. Heike Adel, Katrin Kirchhoff, Dominic Telaar, Ngoc Thang Vu, Tim Schlippe, and Tanja Schultz. 2014a. Features for factored language models for code-switching speech. In Proc. 4th Workshop on Spoken Language Technologies for Under-Resourced Languages (SLTU 2014), pages 32–38.
3. Heike Adel, Katrin Kirchhoff, Ngoc Thang Vu, Dominic Telaar, and Tanja Schultz. 2014b. Comparing approaches to convert recurrent neural networks into backoff language models for efficient decoding. In Proc. Interspeech 2014, pages 651–655.
4. Akynova D., Zharkynbekova S., Aimoldina A. (2012). Code switching and second language acquisition in the educational space of Kazakhstan. GSTF Journal of Law and Social Sciences, 2(1), 224–232.
5. Alhamami M. (2020). Switching of language varieties in Saudi multilingual hospitals: Insiders' experiences. Journal of Multilingual and Multicultural Development, 41(2), 175–189.
6. Anicich E. M., Hirsh B. J. (2017). The psychology of middle power: Vertical code-switching, role conflict, and behavioral inhibition. Academy of Management Review, 42(4), 659–682.
7. Brice A., Mastin M., Perkins C. (1998). English, Spanish, and code-switching use in the ESL classroom: An ethnographic study. Journal of Children's Communication Development, 19(2), 11–20.
8. Dehbozorgi E. (2012). Effects of attitude towards language learning and risk-taking on EFL students' proficiency. International Journal of English Linguistics, 2(2), 41–48.

МАМНӮЪИЯТҲО ВА ЭФЕМИЗМҲО ВА ИСТИФОДАИ ОНҲО ДАР ЛАҲҷАҲО

Нилуфар Абдувоссиевна РАСУЛОВА,
Дотсенти кафедраи «Забонҳои Узбекӣ Ва хориҷӣ»
Донишгоҳи байналмилалии тиббии САМU

Аннотацияи. *Табу ва эвфемизмҳо қисми лаҳҷаҳои забони узбекӣ буданд, ва лаҳҷаҳо натиҷаи дарозмуддати рушди лаҳҷаҳо мебошанд, дар ҳоле ки ҳоло маълум аст, ки мамнӯъҳо нопадид мешаванд ва эвфемизмҳо бештар мешавад.*

Калимаҳои калидӣ: *фарҳанги нутқ, услуб, гуфтугӯи фарҳангӣ, лугавий мано, вулгаризм, ташаккулдиҳандагон*

TABU VA EVFEMIZLAR VA ULARNING SHEVALARDA QO‘LLANISHI

Tabu va evfemizmlar o‘zbek tili shevalari tarkibiga kirgan bo‘lib, shevalar sheva taraqqiyotining uzoq yillik natijasi bo‘lsa, hozirda tabular yo‘qolib, evfemizmlar ko‘payib borayotgani ma’lum.

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, uslub, madaniy nutq, lug‘at, vulgarizm, formativ*

Маълум аст, ки дар забони муосири мо калимаҳои эвфемистӣ ва гардишҳои нутқ истифода мешаванд. Решаи маънои онҳо ба замонҳои қадим бармегардад. эвфемизмҳо зиедтаранд ҳама чиз дар забони одамони қадимии ибтидоӣ буд ва баъзе боқимондаҳо боқӣ мондаанд то ба ҳол, боқимонда дар робита бо падидаи мамнӯъ рух додааст. Эвфемизм ба маъни динии (табуи) халқҳои ибтидоӣ, аз ҷумла ба табуи забонӣ дахл дорад с, яъне ба маъни динии одамони ибтидоӣ асос ефтааст ва мувофиқан талаффузи калимаҳои муайян бо падидаҳое алоқаманд аст, ки даҳшатноканд. Ин системаи манъкунӣ дар этнография, дар урфу одатҳои халқҳо мебошад, ки ҳамчун маънои истилоҳ гирифта шудааст. Аммо дар забоншиносӣ истилоҳи урф –динии бемаънӣ, ки бо сабаби одат истифода бурда намешавад. Истилоҳҳо барои калимаҳое мебошанд, ки мефаҳманд. Табу истилоҳи этнографӣ аст, ки дар байни халқҳои поленизия хурофотро ифода мекунад, чун ирим зоҳир мешавад. Умуман, ламси мамнӯъ мамнӯъ аст маънои имконнопазирро дорад.

Калимаи «мамнӯъ» дар як лаҳза маънои муқобили «лаънат»дорад, шумо инчунин метавонед тобишҳоро ба монанди «тикка»пайдо кунед [1, 41]. Он дар ду маъно истифода мешавад. Ба маънои аввал, он амал, баъзе чизҳоро дар ҷомеа манъ мекунад, намояндагиро ҳамчун истилоҳи забонӣ дар маънои дуюм ифода мекунад он падидаи манъи баъзе калимаҳоро дар

шароити муайян ифода мекунад. Дар пайдоиши калимаҳои манъшуда вазъи иқтисодии ин е он халқ, анъана таъсир мерасонад – иддао мекунад, ки одатҳо, эътиқоди ӯ аҳамияти бузург доштанд. Масалан, бештар дар марҳилаҳои аввали рушди ҷомеаи суст рушдефта, аниқтараш, дар давраи сохти ибтидоӣ ва феодализм, баъзе халқҳо васвосӣ, арвоҳ ва имон ба чунин чизҳои илоҳӣ хеле қавӣ буд.

Чунин одамон одамон е чизҳое мебошанд, ки ба девҳо ва арвоҳҳои аше наздиканд, ки агар зикр нашуда бошад, шумо метавонед аз онҳо дур шавед, вагарна ба сари онҳо бадбахтӣ ва бадбахтӣ зиед аст ба онҳое, ки издивоҷ мекунанд, ки баста мешаванд, арвоҳҳо ва девҳо латукӯб карда мешаванд.

Аз ин ҷо натиҷа: то нисфи чизҳои шахсӣ пас аз марги сарварони қабила, ки ба рӯйхати илоҳӣ дохил карда шудаанд, ба онҳо даст расондан, номҳои онҳоро зикр кардан қатъиян манъ аст. Ин падидаи мамнӯъ дар лаҳҷаҳои қыпчакӣ аз замонҳои қадим низ пайдо шудааст. Номҳои баъзе хирсҳо (аксар вақт дар шаби кола)манъ карда мешуданд. Пиронсолон инро чунин тафсир мекунанд. Онҳо мегӯянд, ки агар ҳангоми зикри номи чунин ҳайвонот, онҳо метавонанд ба ҷаббида зарар расонанд. Масалан, шабона гуфтани калимаи «гург» манъ аст. Чунин ба назар мерасад, ки мардуми мо, агар гургро, ки аксар вақт истеъмол карда мешавад ва дар мобайн меистад, фурӯ баред, гӯш намоен мешавад, агар зарбулмасал дар ибтидо аз ин падидаи мамнӯъ ба вуҷуд омада бошад, ҳатман е шабона бо лаҳҷаи қипчакӣ сӯҳбат кунед, хусусан пеш аз хоб дар деҳот манъ карда шуд. калимаи «мор» - ро бигӯед. Агар ин ном ба забон ишора кунад, пас ҳангоми гирифтани мор метавонад ба гӯсфанд ворид шавад ва аз он берун ояд, газад. Борди-ю, бибиам, ки ба набераш қиссаро нақл мекунад, гуфтани калимаи «змея» - ро манъ кард, агар бе талаффузи «змея» ба ҷои «апгамча», «пучок кнута» е «чилвир» гузошта шавад, чилбир «барои ишора ба мор рамзӣ истифода мешавад, ҳамин тавр ба дуне омад. Ба чунин калимаҳои манъшуда Инчунин «Скорпион», «увуллак» дохил мешаванд, масалан. Калимаҳои мамнӯъ дар оила байни ҳамсарон хушдоман-келин низ дар ҳар қадам пайдо мешаванд. Маълум аст, Ки Дар Шарқи Мусулмон занон бо номи шавҳарони худ номидан манъ аст. Зеро онҳоро Бо Номи Худ нисбат Ба Замин номидан ин як зуҳуроти беэҳтиромӣ ҳисобида мешуд. Аз ин рӯ, калимаи манъшуда пайдо мешавад, занҳо шавҳарони худро ба хотири фарзанди калониашон номгузорӣ мекунанд. Ин анъана шудааст. Шавҳари арӯсонро»акаили» меноманд, «байим», «шавҳари ман», муроҷиат мекунанд. Чеҳраи пур мисли пирӣ, «чалим». Парвандаҳои муроҷиати «раҳбари ман» дар солҳои охир дар ин ҷо пайдо намешавад.

Дар ҳоле ки дар асрҳои миена шавҳаронро «хатин» меномиданд, дар як лаҳза ҳамчунин ҳолатҳои муроҷиати «хонум», «няня»пайдо шуданд. Аксар вақт ангишт е ҳолатҳое ҳастанд, ки ба номи духтараш муроҷиат мекунанд. Пас аз он ки синну сол ба пирӣ наздик мешавад, эсуро «пирамард»меноманд.

Духтаре, ки арӯс шудааст, номи аъзои оиларо намегӯяд. Мардони аз худ калонтар бародарон, домодҳо номида мешаванд. Хурдтаринҳо ука, ини, Каин-бека ва ғайра ном доранд. Ҳамчунин волидони домод хушдоманро, хушдоманро хушдоманро меноманд. Чунин ҳолатҳо низ рух медиҳанд, яъне номи кӯдаки бегона вақте ки зан номи падарашро аз номи шавҳараш дорад, ӯро бегим, торам меномад. Мо инчунин пайдоиши калимаҳои мамнӯъро дар лаҳҷаи карлукӣ– чигилӣ-уйғурӣ мебинем [3, 12]. Дар ин лаҳҷаҳо низ баъзе номҳои ба лаҳҷаҳои қыпчакӣ монандро ба таври гуногун номидан мумкин аст. Масалан, эргемч (змея), адаси, хушдоманаш, занаш, бийи, кемпир, кенной, хона, гурда. Мисолҳо: *бийиси, буях кара, меҳманла келдила (Самарқанд), Эдес кевоттила (Тошканд), Эй зан, ман каме нон дорам: (Ургут) ва дигарон.*

Истифодаи мамнӯъ дар мавод дар лаҳҷаи оғузӣ ва инчунин дар лаҳҷаи оғузӣ инчунин дар маводҳо пайдо мешавад: гардани шавҳари ман ба: ман худам, сеннен нестам Ман мисли рӯзномаи ҳавоӣ наметарсам. Забони эвфемизмҳо барои ғанӣ гардонидани таркиби луғат, васеъ кардани маънои калима аҳамияти калон дорад, истифодаи калимаҳо бо мақсадҳои гуногуни методологӣ. Аҳамияти истифодаи эвфемизмҳо дар он аст, ки шоирон ва нависандагон, рассомони мо калимаҳо дар маҷмӯъ, услубҳои зебо пайдо мешаванд гардиш. Ғайр аз он, истифодаи эвфемизмҳо ба афзоиши фарҳанги нутқ мусоидат мекунад. Охир, яке аз проблемахои мухимтарини даврони хозира фарҳанги нутқ аст. Бе он фарҳанги тафаккур вуҷуд надорад.

Аз ин рӯ, масъалаи эвфемизмҳо васеъшавӣ, ғанигардонӣ ва рушди маъно, сарвати луғат ҳангоми калимасозӣ ва инчунин дар онҳо муносибат бо тағйирот, дуюм, услуби нутқи фарҳангӣ чӣ гуна фарҳанги нутқ низ падидаи марбут ба вазифаи он аст. Маънии луғавии калимаи «эвфемизм» - ман хуб мегӯям, хушмуомилагӣ Ман бо чизе е падидаи мулоим, ҳамвор ва парда гап мезанам, ки маънои онро дорад, ки ман мегӯям. Пайдоиши эвфемизмҳо дар забон, тавре ки маълум аст, аз сабабҳо вобаста аст. эвфемизм, ба назар мерасад, соҳаи таъсиррасонӣ ҳангоми истифодаи калимаҳо мебошад (сатҳ) шояд дар натиҷаи амали қонуни шумо ба вуҷуд омадааст. Мо инҷо ҳастем мо доираи таъсири калимаҳоро ҳамчун омили мусбати таъсир дида мебароем мо истифодаи калимаҳоро баррасӣ мекунем ва ба маънои васеъ ин қонун қисман аст истифодаи шаклҳо, вульгаризмҳо, эвфемизмҳоро дар бар мегирад.

Зеро ҳар як калима маънои нозуки худро дорад. Истилоҳ барои ин оварда нашудааст.Аз ин рӯ, мардуми мо мегӯянд, ки «дар калима фарқият вуҷуд дорад, дар сию ду маъно надорад.» Аз ин рӯ, он қабати лексикӣ дар нутқ аст, ки бо назардошти ҳолати рӯҳии сухангӯ, хислат ва муносибат ба чизҳо-падидаҳо истифодаи калимаҳоро нисбат ба. Ҳамин тариқ, эвфемизм метавонад ҳар гуна маъно дошта бошад вазъият, он ба ҳама чиз дахл надорад. Эвфемизмҳо дар адабиети бадеӣ ҳамчун воситаи муҳими методологӣ аҳамияти калон доранд.Инчунин дар баъзе фанҳо, ба монанди тиб, истифодаи эвфемизмҳо маъмул аст. Эвфемизмҳо дар лаҳҷаҳои қипчакӣ меъерҳои ахлоқиро ифода мекунанд. Мо мебинем, ки он бо сабабҳои истилоҳоти фарҳангӣ ва ғайра истифода мешавад. Масалан, «мурда», «мурда» мисли корд ба дил мезанад. Ин паемҳои сард дар он лаҳҷаҳо, Ки шикаст Хӯрданд Жан додал каза дод отти напаит болди аз он ҷаҳон, онҳо дар эвфемизмҳои услубӣ ифода мекунанд. Аз онҳо «напайт Бодли» одатан, барои истинод ба кӯдакон истифода мешавад. Ба ҷои «ором будан»-и мураккаб дар лаҳҷаи бомок-авур аякли чунин истифода мешавад: калимаҳое Чун Бо'мак-авур ҷукли, бомак-эккат.

Эвфемизмҳои зерин низ аксар вақт истифода мешаванд: qojardi-аз бадан халос шуд jan illedi (таваллуд); tabi joq mazzasi joq (бемор шуд); домод, достигдаш оиладор шуд, ортаги (зани).

Эвфемизмҳо чунин сохтор доранд: 1. Эвфемизмҳои яккаву танҳо. 2. Эвфемизмҳои мураккаб.

Эвфемизмҳои яккаса эвфемизмҳое мебошанд, ки аз як калима ташаккул ефтаанд: лапашанг холӣ, ҷудошуда мурда.

Эвфемизмҳои мураккаби ду е зиеда калима, ки аз якҷояшавӣ ташаккул ефтаанд: сарзаниш кард латукӯб кард, шавҳар зан [5, 8].

Эвфемизмҳо инчунин метавонанд як қатор расмиятҳоро ташкил диҳанд. Дар зер мо намунаҳои баъзе эвфемизмҳоро, ки дар лаҳҷаҳои қипчакӣ мавҷуданд, меорем: ба номаълум ламс кунед. Ин ибора ҳангоми таҷовуз ба духтарон истифода мешуд ва ин ҳар чизе, ки метавонад аз маҷбуркунӣ аз сабаби парда ба вуҷуд ояд. Чекоча копито, ко ин ном аст ибораҳои ба монанди «нопадид шаведь», аз ин ҷо зуҳуроти эвфемистии калимаҳои «кет»: «радиосини койип ҷувармак ин ибора камбуди ҳамсӯҳбати сухангӯро аз байн мебарад, ки шакли эвфемистии номаи ӯро «ман шарми шуморо мебарорам»қабул кард - ин намуди зоҳирӣ аст. Типнакка / / тинакка дайс ин ибора нисбат ба одамони бефарзанд аст дар маънои бефарзанд, бефарзанд бе фарзанд истифода мешавад [7, 25].

Ҳамин тариқ, табу ва эвфемизмҳо қисми лаҳҷаҳои забони узбекӣ буданд, ва лаҳҷаҳо натиҷаи дарозмуддати рушди лаҳҷаҳо мебошанд, дар ҳоле ки ҳоло маълум аст, ки мамнӯъҳо нопадид мешаванд ва эвфемизмҳо бештар мешавад. Онҳо барои зебо, ҳамвор ва таъсирбахш кардани чизҳо

муҳиманд муҳим, ҳатто барои одамони қалам, дар маҷмӯъ барои ҳар як шахси мутамаддин онҳо инчунин ҳамчун воситаи муҳими лексикӣ-методологӣ амал мекунанд.

Китобхонаи

1. Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Диалектологияи Узбекӣ. – Тошканд: Муаллим, соли, 1978.
2. Мирзоев М. М., Диалектҳои гурӯҳи Бухороии забони узбекӣ. – Тошканд, 1969.
3. Аширбоев С., Диалектологияи Узбекӣ. – Тошканд, 2000-ум / матни лексия/
4. Рачабов Н. Диалекти Узбекӣ. – Тошканд: Устод, 1996.
5. Муродова Н. Лингворайони диалектҳои вилояти Навоӣ дар тафсирҳои забони узбекӣ. – Тошканд: Фан, 2007.
6. Дониеров Х. Луғати нутққҳои қипчакӣ. – Тошканд: Фан, 1997.
7. Луғати нутққҳои халқии узбек. – Тошканд: Фан, 1971.

PEDAGOGIKA TARAWINDA REFLEKSIV KONLIKPELERDI PAYDA ETIW BARISI

Ziyuar Maxsetbaevna KAZIMBETOVA,
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı doktorantı,
filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı

Annotaciya. *Refleksiya insannıń ishki halatı haqqindağı pikirlewi bolıp, ol insan sanasınıń háreketleri nátiyjesinde payda boladı. Pedagogikada refleksiya tiykarǵı kónlikpelerden sanaladı. Qálegen psixologiya-pedagogikalıq hárekettiń nátiyjesin refleksiyasız anıqlaw imkansız. Refleksiyanıń payda bolıwı hám rawajlanıwı filosofiya menen baylanıstırıladı.*

Tayanısh sózler: *refleksiya, sana akti, sistemalastırılǵan bilim, biliw teoriyası, refleksiv psixologiya, analiz, pozitiv keypiyat, ontologiyalıq usıl, epistemologiyalıq.*

PEDAGOGIKA SOHASIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONI

Refleksiya insonning ichki holati haqidagi mulohazasi bo‘lib, u inson ongining harakatlari natijasida vujudga keladi. Pedagogikada refleksiya asosiy ko‘nikmalardan sanaladi. Istalgan psixologik-pedagogik harakat

natijasini refleksiyasiz aniqlash mumkin emas. Refleksiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi falsafa bilan bog‘lanadi.

Tayanch so‘zlar: *refleksiya, ong akti, tizimlashtirilgan bilim, bilish nazariyasi, refleksiv psixologiya, tahlil, pozitiv kayfiyat, ontologik usul, epistemologik.*

Jas oqıtıwshınıń kásipte qáliplesiw jolındağı áhmiyetli kásiplik pazıyletlerinen biri – bul sabaqqa tayarlanıwı hám refleksiyanı ámelge asıra alıwı. Refleksiya termini latın tilinen alınıp «reflexio» sózinen kelip shıǵıp, «arqaǵa qaytıw» degen mánini bildiredi. Shet tiller sózliginde bul túsinik óz-ózin basqarıw, óz ishki dúnyasınıń subyekti tárepinen ózin ózi biliw dep táriyiplenedi. Rus tiliniń túsindirme sózliginde refleksiyanı insannıń ishki halatı haqqında pikirlew sıpatında túsindiredi [1,6].

Solay eken, refleksiya insan sanası aktlerinińiń túrleriniń biri, yaǵnıy sana háreketi esaplanadı, ol subyekttiń óz ishki psixikalıq sezim hám halatların biliw procesi sıpatında qaraladı.

Refleksiyasız oqıtıwshı kásiplik jaqtan da, shaxs sıpatında da rawajlanıwı múmkin emes. Refleksiyanıń mazmunı, onıń psixologiyalıq hám pedagogikalıq kónlikpelerdi qáliplestiriwdegi roli, sonday-aq, onıń alıp barılıw mexanizmine úlken itibar qaratıw orınlı. Qálegen psixologiya-pedagogikalıq hárekettiń nátiyjesin refleksiyasız anıqlaw imkansız.

Barlıq táriyiplerdiń ulıwmalılıǵı sonnan ibarat, «refleksiya – bul insannıń ózine sırttan názer taslawı, is-háreketlerin analiz etiwi, zárúr bolsa olardı ózgertiwge bolatuǵın qábilet» [2,101] dep te túsindirme beriledi.

Refleksiya – insan bolıwdıń ajıralmas bólegi [3,40] dep aytıladı belgili alımlar kózqarasında.

Refleksiyanıń payda bolıwı hám rawajlanıwı filosofiya menen baylanıstırıladı. Ol bul tarawda sistemalastırılǵan bilimler jıynaǵınıń ulıwmalıq biliw teoriyası, juwmaǵı sıpatında kóringen. Ol insannıń biliw, seziniw, túsiniw, eslew sıyaqlı kónlikpelerin ózinde jámleydi. Insan dáslepki bir taqılettegi halattan ekinshi bir halatqa ótiw dárejesin óziniń mısalında dálilleydi. Bul qubılıstıń anıqlamasına kóplegen filosoflar, atap aytsaq, insan sanasınıń ózine tán ózgesheliklerin úyrengen hám onı «pikirlewge qaratılǵan pikirlew» dep táriyiplegen Aristotel de qızıqtı. Kóplegen filosoflar hám psixologlar onıń sózlerin tastıyıqlaydı, biraq onıń bul teoriyalıq túsinigi ele de tolıǵıraq úyereniwdi talap etetuǵınlıǵın túsindi hám bul qubılıstı tolıǵıraq izertlew dawam etti.

Refleksiyanıń psixologiyalıq ózgesheliklerinen biri – onıń kóp funkcionallıǵında. Ol psixologiyanıń barlıq tarawlarında ajıralıp turıwshı kónlikpe esaplanadı.

Refleksiv psixologiyanıń rawajlanıwı A.Buzeman atı menen baylanıslı, ol birinshi ret XX ásirdiń baslarında bul qubılıstı óz aldına kónlikpe sıpatında ajıratıp kórsetken [4,228].

Dj.Lokk refleksiyanı tereńnen úyrengen alımlardıń biri. Ol refleksiyanı insan sanasınıń názikligi dep tıriyiplegen, yaǵnıy ol refleksiyanı insan dus keletuǵın barlıq nárselerdi túsiniwge baǵdarlanǵan aqıl dep biledi. Refleksiya insannıń turmıs talapları, qálewleri, háreketleri hám áhmiyetli qararlardı qabıl etiwi arqalı júzege kelgen. Bul insannıń óz ózin ańlawı. Qayta kórip shıǵılatuǵın hám analiz qılınatuǵın hárqanday nárse – bul refleksiya [5,147].

I.Kanttıń sózlerine kóre, insan pozitiv keypiyatta bolǵanında yaki onıń ómiri pútkilley qolaylı sharayatlardan ibarat bolǵanında óz háreketlerin analiz ete almaydı. Mashqala joq bolsa – refleksiya da bolmaydı. Biraq bunday jaǵday bolıwı múmkin emes, sebebi hárbir insan ómirde belgili bir qıyınshılıq yamasa mashqalalarǵa dus keledi. Bul bolsa, óz gezeginde refleksiyanı qáliplestiredi [6,12].

Refleksiya filosofiyada aktiv qollanılatuǵın biliw quralı. Bul insan ushın ashıq hám anıq bar bolǵan túsinikler hám táriyiplerdi biliw usılı. Filosofiyalıq refleksiya óz aldına haqıyqattı izlewdi maqset etip qoyadı. Ol hesh nárseni tastıyıqlamaydı, kerisinshe, insan sanasındaǵı ayırım obyektleri haqqındaǵı bar ideyalardı gúman astına qoyadı. Bul qubılıs pikirlew haqqında pikirlew. Bunday jaǵdayda teoriya hám barlıq ilimler qayta islenedi. Bul koncepciyanıń qáliplesiw dáwirinde túrli kózqaraslar payda bolǵan hám kóplegen alım hám filosoflar óz pikirleri menen bir-birinen parqlanadı, sebebi koncepciyanı ashıp beriwdiń kóp variantları bar. Filosofiya refleksiyanı mádeniyattıń bir bólegi sıpatında, ekinshi tárepten, adam ómiriniń pútin mazmunın sáwlelendiriwshi process sıpatında kórip shıǵadı [7,86-102].

Filosofiyalıq rejedegi analiz refleksiyanıń tómendegi ózgesheliklerin ajıratıp kórsetiwge imkan beredi:

1) ontologiyalıq, bunda refleksiya psixologiyalıq barlıqtıń tiykarı, sana maǵlıwmatları kórinisinde túsiniledi;

2) epistemologiyalıq, bunda refleksiya psixologiyalıq biliwdiń introspektiv baslanıwı sıpatında óz-ózin baqlaw usılı esaplanadı (J.Lokk);

3) metodologiyalıq, bunda refleksiya bilim dárejeleriniń óz ara tásir etiw (óz ara sáwlelendiriw) usılı sıpatında qaraladı (I. Kant);

4) aksiologiyalıq, bunda refleksiya shaxstıń «dúnyaǵa qarası» sıpatında qaraladı, onıń barlıǵı hám sananıń ekzistencial-tárbiyalıq qádiriyatların sáwlelendiredi (S. L. Rubinshteyn) [8,146].

Filosofiyalıq refleksiya – bul insannıń hárqanday jumısındaǵı is nátiyjelerin anıqlap kórip shıǵıw ushın artqa qaytıwı. Ol kúndelikli pikirlewden parq qıladı: birinshiden, barlıq pikirlerdi jámlegen halda juwmaq shıǵarıladı,

ekinshiden, anıq bolǵan maǵlıwmattıń ózin gúman astına alıp, qıyallardan qutılıw maqsetinde dodalanıladı.

Sananıń aqılıy iskerliginiń ol yaki bul tarawına baǵdarlanıwına qarap refleksiyanıń 5 forması bar [9,102-137].

Shaxs refleksiyası sezimlik hám bahalaw iskerligi menen tikkeley baylanıslı. Insannıń ishki dúnyasın ańlawdıń bul forması shaxstıń áhmiyetli quram bóleklerin analizlewge qaratılǵan: maqsetler hám ideallar, qábilet hám imkaniyatlar, motiv hám zárúriyatlar.

Logikalıq refleksiya – bul kognitiv proceslerge baǵdarlanǵan hám pikirlew, dıqqat, este saqlaw ózgesheliklerin analizlew hám bahalaw menen baylanıslı bolǵan forma.

Kognitiv refleksiya kóbinese biliw hám oqıtıw tarawında baqlanıp, biraq logikalıq refleksiyadan ózgeshe túrde, ol bilimlerdiń mazmunı hám sapasın, olardıń jámiyet (oqıwshılar, oqıtıwshılar) talaplarına muwapıqlıǵın analizlewge qaratılǵan. Bul refleksiya tek ǵana oqıw procesine járdem berip ǵana qoymastan, oy-óristiń keńeyiwine járdem beredi, sonday-aq, olardıń kásiplik qábiletleri hám kategoriyaların jeterli dárejede bahalawda áhmiyetli rol oynaydı.

Shaxslar ara refleksiya basqa adamlar menen múnásibetlerimizdi túsiniw hám bahalaw, olardıń jámiyetlik iskerligin analizlew, qarama-qarsılıqlar sebepleri menen baylanıslı.

Sociallıq refleksiya – bul adamnıń basqalar oǵan qanday múnásibette bolıwın túsiniwinde sáwlelenetuǵın arnawlı forma. Ol tek ǵana olarǵa baha berip qoymastan, al olardıń is-háreketlerin ózgerte aladı. Atap aytatuǵın bolsaq, sociologiya tarawında mádeniy refleksiya boyınsha da kóplegen ilimiy miynetler jazılıp, olarda belgili bir mádeniyattıń qáliplesiwinde de refleksiyanıń unamlı tásiri, hátteki jámiyetlik-siyasıy turmısımızdaǵı hárbir ózgeris hám qararlarǵa da refleksiv kózqarasta qatnas jasaw mádeniyatın qáliplestiriw kerekligi haqqında aytıp ótilgen [10,654].

Kórkem ádebiy refleksiya – bul ózgege refleksiya, avtor, kórkem shıǵarma qaharmanı hám kórkem qural qatnasın ańlatadı. Ol ózińizdi basqanıń ornına qoyıw, ózińizdi avtordıń pikirleri, tájiriybeleri hám qaharmannıń is-háreketleri menen qatar qoyıp salıstırıw múmkinshiligin beredi. Ol da óz ózin ańlawǵa qaratıladı, sebebi ol insannıń dúnyaqarasın keńeyti, hátte ózgerte aladı.

Kórkem ádebiy refleksiya tekst hám oqıwshı arasındaǵı baylanıstı birlestiredi. Jańa semantikalıq ortalıqtı jaratadı. Oqıwshı teksttegi jasırın mánilerdi ańlay aladı. Ondaǵı qálegen kórkem súwretlew quralı refleksiyanıń orayı bolıp xızmet etedi.

Ádebiyatlar

1. Есенкова Т.Ф., Шустова Л.П., Данилов С.В., Кузнецова Н.И. Средства формирования рефлексивной компетентности молодого педагога. – Ульяновск, 2018. – 50 с.

2. Карпов А. В. Рефлексия в структуре метакогнитивной организации субъекта // Рефлексивные процессы и управление. 2004. № 1. 99-109 с.

3. Семёнов, И.Н. Рефлексивный подход к психологическому обеспечению образования/(Сборник памяти Н.Г. Алексеева) И.Н. Семёнов // Основные научные труды Н.Г. Алексеева. – М.: АСТ, 2004. – 400 с.

4. Выготский Л. С. Собрание сочинений. Т 4. — М., 1984. — 433 с.

5. Локк Дж. Опыт о человеческом разумии // Локк Дж. Соч. в 3-х т. – М., 1985 – 621 с.

6. Степанов, С.Ю. Психология рефлексии: проблемы и исследования / И.Н. Семёнов, С.Ю. Степанов // Вопросы психологии. – М.: АСТ, 1995. – 40 с.

7. Лурий, А.Р. Основы нейропсихологии / А.Р. Лурий. – М.: Академия, 2004. – 384 с.

8. Рубинштейн, С.Л. Человек и мир / С.Л. Рубинштейн. СПб.: Питер, 2017. – 288 с.

9. Давыдова, Г.И. Социорефлексика развития личности подростков / Г.И. Давыдова. – М.: Ярославль, 2005. – 203 с.

10. Ummatqulov T.M., Mirzaahmedova Sh.N. Bólajak boshlanǵish sinf óqituvchilarida refleksiv madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik zaruriyat. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7. 650-657-b.

11. Бабенко, И.И. Художественная рефлексия как фактор становления творческой языковой личности / И.И. Бабенко // Вестник Тоского государственного педагогического университета. – СПБ.: Питер, 2015. – 111 с.

BA’ZI TURKIY SIYOSIY MATNLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Elbek O‘rol o‘g‘li RO‘ZIYEV,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi stajyor-tadqiqotchisi

Turkiy tillarning sintaktik qurilishi o‘ziga xos bo‘lib, so‘z birikmasi, gapdagi kesimlarning ot-kesim, fe’l-kesim shaklida qo‘llanilishlari bilan

shakllangan birliklardan tashkil topgan. Ushbu strukturaning tarkibiy qismlarini o‘rganish va tahlil etish til tarixi uchun muhimdir. Shu bois, maqolada turkiy siyosiy ayrim matnlar misolida, siyosiy matnlarning sintaktik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Matn birliklari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *matn, struktura, siyosiy nutq, siyosiy matn, turkiy tillar.*

Nutqiy faoliyatning muhim xususiyatlari albatta, gapda, matnda jamlangan holatda namayon bo‘ladi. Turkiy tillar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, gaplarning sintaktik qurilishlari bugungi kundagi shakllardan juda farqli emas. Ammo ularning o‘ziga xos tarzdagi strukturalari mavjud. Xususan, qadimgi turkiy tildagi so‘z birikmalari: aniqlovchili, obyektli, subyektli munosabatni hosil qiladi [1;148]. Ayrim manbalarda so‘z birikmalarining otli so‘z birikmalari hamda fe’lli so‘z birikmalari shaklida bo‘lishi hamda bitishuvli, boshqaruvli, moslashuvli ko‘rinishda yuzaga kelishi mumkinligi ta’kidlanadi [2; 405]. Quyida ayrim siyosiy matnlarga xos bo‘lgan turkiy bitiklarning sintaktik xususiyatlariga ahamiyat qaratib o‘tmoqchimiz.

«To‘nyuquq» bitigi

Ol sabïğ äsidip tün udïsïqïm kälmädi, küntüz olursïqïm kälmädi. Anta ötrü qağanïma ötüntim, anča ötüntim: Tabgač, oğuz, qïtañ, bu üčägü qabasar, qaltačï-biz, öz iči tašïn tutmïş-täg-biz. Yuyqa ärklig üzgäli učuz, yuyqa qalïn bolsar, topulğuloq alp ärmïs, yinčgä yoğan bolsar, üzgülük alp ärmis. Önrä Qïtañda, biriyä Tabğačda, qurïya Qurtadanta, yïraya Oğuzda äki üč bin sümüz, kältäči-miz bar-mu, nä? anča ötüntim [7; 60]. Mazkur bitikda «kälmädi», «ötüntim» kabi so‘zlar matnning butun sintaktik qismlarini bog‘lab turibdi. Mazkur mantdagi birinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gapni hosil qilmoqda. Matnda «ärmis» to‘liqsiz fe’li gaplarni bog‘lashga xizmat qilgan. Chunonchi, «Yuyqa ärklig üzgäli učuz, yuyqa qalïn bolsar, topulğuloq alp ärmïs, yinčgä yoğan bolsar, üzgülük alp ärmis» (Yupqa narsa yengishga arzimas emish, ingichka narsa uzishga arzimas, ingichka qalin tortsa, yengadigan alp emish, yo‘g‘on tortsa, uzadigan alp emish) jumlasida buni yaqqol kuzatish mumkin. Umuman bugungi adabiy o‘zbek tilida edi, ekan, emish fe’llari to‘liqsiz fe’llarni hosil qiluvchi vositani bajarsa, qadimgi turkiy tilda är-~er-, uning zamon mayl shakllari esa ärdi~erdi, ärkän~erkän, ärmiš~ärmis / ermiš~ermis, ärmäz~ärmäs / ermäz~ermäs, ärsä~ersä shakllarida ishlatilgan [2; 421]

Turkiy siyosiy matnlarning sintaktik jihatlariga e’tibor qaratar ekanmiz ularda izofa shaklining qo‘llanishi ham faol ekanligini kuzatamiz. Izofa fors tilida so‘z birikmasini tuzish uchun ishlatiladigan vositadir. Izofiy usul bilan so‘z birikmasi yasalganda aniqlovchi (tobe so‘z) va aniqlanmish (bosh so‘z), qaratqich (tobe so‘z) va qaralmish (bosh so‘z) bir-biriga qisqa tovushi bilan birikadi. O‘zbek tilida oldin aniqlovchi (qaratqich), keyin aniqlanmish (qaralmish) kelsa, fors tilida, aksincha, avval aniqlanmish (qaralmish), so‘ng

aniqlovchi (qaratqich) keladi. Ya’ni so‘z birikmasining joylashish tartibi o‘zbek tiliga nisbatan teskari bo‘ladi [4; 57]. Qadimgi turkiy til tarixiga nazar tashlasak, forsiy izofa bilan bir qatorda turkiy izofa ham mavjuddir. Turkiy izofa otning aniqlovchi va aniqlanmishlik aloqasiga kirishuvidir. Odatda birinchi ot aniqlovchi, keying ot esa aniqlanmish bo‘ladi [5; 46]. Qadimgi turkiy tilde izofaning har ikki ot qismi qo‘shimchasiz kelgan turi qo‘llaniladi. Tүrүk bodun-turk xalqi. Quyidagi matnda ham bu holatni kuzatishimiz mumkin. *Қул тпэгин қой йилқа йэти йэгирмикэ учди* – Kul tegin qo‘y yilining o‘n yettisida o‘ldi. Turkiy izofaning ikkinchi turi (aniqlovchining belgisiz kelishi) kamroq uchraydi: *Тӱрчк оғуз бэглэри (turk o‘g‘uz beklari), Бодун боғзи* (xalq qorni), *Бизинг сү (bizning qo‘shin), Мэнинг эр (mening bahodirim) kabi.*

Turkiy yorliqlar matnlarini ham siyosiy matnlar toifasiga kiritsa bo‘ladi. Negaki, ularda ham hukumdorning el-ulusga qarata aytilgan buyruq, farmonlari mujassam bo‘ladi. Shunday matnlardan biri Temuriy hukmdor Shohruh mirzoning turkiy tildagi yorliqlaridan biri misolida fikrimizni davom ettirsak. Yorliq turkiy-uyg‘ur xatida bitilgan. U Afg‘onistonning Maymana degan joyidan topilgan. Uni professor E.Benvenist suratga tushirib qo‘ygan hamda surat bo‘yicha J. Deny matn transkripsiyasi hamda tarjimasini amalga oshirgan. Ushbu yorliq bo‘yicha professor Qosimjon Sodiqovning maqolasida ham ancha mufassal ma’lumotlar berib o‘tilgan [3]. Bu maqolada yorliqning traskripsiyasi hozirgi o‘zbek tilidagi tarjimasi hamda yorliq tarkibidagi lug‘atlar izohlab chiqilgan. Mazkur yorliq:

Šähruh bahadur sözüm dīvānlarğa. Cečäktöbädä Tarnaq ariği da Talxan atanïn mujāvurigä bir qošluq altmïš kivi yer suyurğal berildi.

Luy yïldïn bašlap ne kim häsilini Ut böri xanaqağa xarj qilsun. Kim ersä mal tilämäsün, yasağ alpağ salmasun, küč-uğa tegürmäsün, tep beg niš(ā)n bermiš erdük. Burunği niš(ā)n yosuni bilä ud yïldïn bašlap Ut böri, altmïš kivi yerni suyurğal yosuni birlä alïp (?) xanaqağa xarj qïlsun-kim, kïm ersä mal tilämäsün, yasağ alpağ salmasun, küč-uğa tegürmäsün. Basa İsmāyil mujävurniṇ ewi barïnï tartïp tonup almasun, tep niš(ā)n berildi. Tarix sekiz yüz y(i)g(i)rmi bešidä ud yïl muharram aynïṇ y(i)g(i)rmi ikisidä Bağï šaharda bitildi. Yorliq matnining boshlanish qismidagi «sözüm»ning ma’nosi «so‘zim» emas balki bu yerda «buyrug‘im, farmonim» ma’nosida kelyapdi. Bu qism sodda gap shakli qo‘llanilgan. «Luy yïldïn bašlap ne kim häsilini Ut böri xanaqağa xarj qilsun» gapida «xarj qilsun» kesim vazifasini bajarib, buyuq-istak fe’li orqali shakllanmoqda. Turkiy tillar tarixida fe’lning o‘zgaga qaratilgan buyruq-istagi -sun, -sün affiksi bilan hosil qilingan: satsun («sotsin»), yorusun («yursin»), tegsün («tegsin») singari [2; 505]. Keyingi gaplardagi kesimlikni shakllantirgan qo‘shma gapning kesimlari: tilämäsün (so‘ramasin), salmasun (solmasin), tegürmäsün (zo‘ravonlik qilmasin) inkor shaklda qo‘llanilmoqda. Sintaktik butunliklarda birliklarninig joylashuvi masalasini ochiqlaganda yana bir narsani

esdan chiqarmaslik kerak ya’ni ushbu matn rasmiy hujjat hisoblanib, rasmiy-idoraviy hujjatlar qoidalariga mos ravishda yozilgan.

Umuman olgan rasmiy, siyosiy matnlarning sintaktik xususiyatlarini ochib berishda yozma matnlarda gaplarning chegaralarini to‘g‘ri aniqlab olish, kesimlik hosil qiluvchi yoki so‘z birikmasi sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi qo‘shimchalarning shakllarini, ma’nolarini mukammal bilish talab qilinadi. Biz ushbu kichik tadqiqotda bular haqida batafsil to‘xtalib o‘tmadik, bir necha matnning xusiyatiga e’tibor qaratdik, xalos. Lekin ularni keyingi tadqiqotlarda mufassal bayon qilish niyatidamiz. Siyosiy nutq vazifasidagi ayrim jumlalar ham sodda gap shaklida, sodda sintaktik qurilishda shakllanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan, Yoruq tigin bitigida: *Er atim Yaruq tegin-ben* («Er otim Yoruq tegindirman»); El To‘g‘on bitigi: *Atim El To‘g‘an tutuq-ben*(«Otim El To‘g‘an Tutuqmen»); O‘ga Tirig bitigi: *Beg tarqan O‘ga Tirig-ben*(«Men) Beg Tarqan O‘ga Tirigmen») [6] kabi gaplarda –ben kesimlikni hosil qilmoqda. Bu kabi holatni ko‘plab matnlarda uchratishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ham anglashimiz mumkinki, tilimizning tarixiy takomili mingyilliklarga tutash holatda shakllangan, o‘ziga xos tarzdagi sintaktik qurilish bosqichiga ham ega bo‘lgan.

Adabiyotlar

1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2009.

2. Sodiqov Q. Eski o‘zbek yozma adabiy tili. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B.524.

3. Sodiqov Q. Temuriylar davrida yaratilgan uyg‘ur yozuvli yorliqlar. Sharq mash’ali jurnali 1/2014 son.

4. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva. Fors tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik T. – Toshkent: Musiqa, 2006.

5. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. qadimgi turkiy til. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982.

6. Sodiqov Q. Toshkent – Ulan-bator, 2010 yilning yoz chillasi. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2012-yil, 2-son.

7. Is’hoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Mangu bitiklar. O‘rta Osiyo xalqlarining eng eski yozma yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar. – Toshkent, 2009.

ТІЛДЕР КОНТАКТЫНЫҢ ӘЛЕУМЕТТІК ҚАЖЕТТІЛІГІ ЖӘНЕ ПӘНДЕ ҮЙРЕНІЛУІ
(Өзбек және қазақ тілдері мысалында)

Бауыржан Нұрымбетұлы САЙФУЛЛАЕВ,
оқытушы,
Низами атындағы Ташкент мемлекеттік педагогика университеті

Dunyo tilshunosligida tillar kontaktiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning natijasi bo‘lgan matnlar leksik-semantik, sintaktik-semantik, funktsional-uslubiy, kommunikativ-pragmatik va boshqa aspektlarda nazariy tadqiq qilish ham rivojlantirilmoqda. Endilikda tillar kontakti xususiyatlarini nazariy o‘rganish bilan birga, uning biz ilgari surayotgan boshqa tomonlari, ya’ni dialektal zonadagi yetakchi tilning (o‘zbek tilining) mahalliy tilga (biz bu o‘rinda qozoq tilini ko‘zda tutmoqdamiz) ta’siri hamda ularning shu arealdan yetishib chiqqan adiblar ijodida qo‘llanishiga bag‘ishlangan ishlar ham bor, lekin O‘zbekiston Respublikasidan yetishib chiqqan va o‘zbek shevalari ruhiyatida shakllangan adiblar asarlarida o‘zbek tili va uning shevalariga xos xususiyatlaridan foydalanishi masalasi hozirgacha tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Bu muammo ushbu maqolamizning dolzarb masalasi xisoblanadi va shuningdek ushbu kichik tadqiqotimizda tilshunoslikdagi kontakt va kontaktologiya sohasi bo‘yicha ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: *kontakt, kontaktologiya, dialekt, dialektizm, bilingvizm, bilingv, interferentsiya, adstrat, substrat, sheva.*

Қазіргі тіл білімінде ауқымды кеңістікте таралған түркі тілдерін салыстырмалы түрде зерттеу, олардың тілдік байланыстарын анықтау лингвистикалық контактология үшін және осы бағыттың қажеттілігі мен даму болашағын зерттеу бүгінгі күннің өзекті мәселесі болып табылады.

Түркі тідес халықтар, этникалық топтар – түркі халықтары деген ортақ атаумен аталады. Түркі тілдерінің бір негізден тараған өзара туыстас тілдер екендігі олардың морфологиялық формалары мен синтаксистік тәсілдеріндегі ортақтықтан, жақындықтан да, дыбыстық жүйелері мен негізгі сөздік қорындағы ұқсастықтан байқалады.

Көп жылдық тарихы бар қазақ және өзбек тілдері қарым-қатынастарының осы тілдердің сөздік қорына із қалдырғаны сөзсіз және бұл процес әлі күнге дейін өз жалғасын табуда.

Осы шағын зерттеуіміз ғылыми-теориялық деңгейде аз зерттелген, тарихи тілдік қатынастар мен қазіргі тілдік сабақтастықты, тілдік үдерістерді, лингвистикалық контактология мәселелерін қазақ және өзбек тілдері негізінде қарастыру, лексикалық элементтердің ену және игерілу

үдерісі, тілдік қатынастардың мәселелері алғаш жан-жақты зерттеуге арқау болуымен өзекті.

Тілдік өзгерістердің нақты себептері зерттеушілердің қызығушылығын тудырып отырғандықтан қазіргі кезеңге дейін тіл теориясында контактология саласы ең күрделі, қарама-қайшылығы мол мәселелердің қатарына жатады. Бұл мәселені шешуде тілдік өзгерістердің ішкі және сыртқы себептерін бөліп қарастыру маңызды қадам болып табылады. Тілдік жүйе элементтерінің өзара әсерінен немесе сөйлеушінің санасы мен еркінен тыс тілдің ішкі үдерістер нәтижесінде алуан түрлі өзгерістер болып жатады. Мұндайда тіл дамуының ішкі факторларына назар аудару қажет. Кейде тілдік өзгерістерге халықтың тілінен тыс себептер де, яғни әлеуметтік қарым-қатынастар, экономикасы мен мәдениетінің дамуы тағы басқа факторлардың да әсері болады. Тілдік өзгерістерге себеп болатын осындай факторлардың бірі – қандай да бір тілдің өзге тілмен қарым-қатынасқа түсуі. Тілдердің өзара қарым-қатынасы лингвистикалық, психологиялық, әлеуметтік, этнотарихы тағы басқа себептермен тығыз байланысты. Бұл күрделі, әрі көп салалы құбылыс. Халықтың белгілі бір дәуіріндегі экономикалық, әлеуметтік, саяси, мәдени өмір тіршілігі, өзге елдермен қарым-қатынасы, әдет-ғұрпы ең алдымен оның тілінен, сөз мағынасынан айқынырақ сезіліп тұрады.

Тілдің ерекшелігі екі факторға, яғни тілдің пайда болуы мен оның басқа тілдермен қарым-қатынасқа түсуіне байланысты болады, сол арқылы тілдік қатынастар жүзеге асырылады.

Халықтардың бір-бірімен көрші тұруы, бір мемлекетте көп ұлтты халықтардың өмір сүруі және олар бір-біріне жақын көзқараста болса да, мұндай факторлар адамның сыртқы бейнесіне ғана емес, тілі мен мәдениетіне де әсер етпей қоймайды. Екі немесе одан да көп тілдер, бір-біріне туыс немесе туыс емес тілдер болсын, өзара ұқсас болады, өйткені, олар өздерінің географиялық және қоғамдық-әлеуметтік араласуы жағынан бір-бірімен қарым-қатынасқа түседі.

Адамзат тілдері өзінің даму тарихы үдерісінде басқа тілдермен үнемі белгілі-бір деңгейде контактіге түсіп отырады. Тілдік қарым-қатынас екі немесе одан да көп тілдердің өзара байланысқа түсіп, бір-бірінің құрылымы мен сөздік қорына әсер етуі болып табылады.

Бүгінгі таңда лингвистикалық контактология, лингвистика ғылымының тілдік қарым-қатынастар теориясына және контактология ғылымына ерекше назар аударып отыр. Контактология – тілдік қарым-қатынастың түрлерін, пайда болуы және дамуын зерттейтін тіл білімінің саласы. Контактология ғылымы XIX ғасырдың 50 жылдарында пайда болып, лингвистикада жеке бағыт ретінде қалыптасты, қазіргі кезде әлеуметтік лингвистиканың құрамдас бөлігі [3, 280 с.].

Н.Б.Мечковскаяның пікірінше, лингвистикалық контактология – белгілі-бір геосаяси кеңістікте тарихи және әлеуметтік жағдайдағы қарым-қатынасқа негізделген әр түрлі тілдерде сөйлейтін халықтардың, этностардың және жеке адамдардың тілдерінің араласу үдерісін зерттейді [4, 456 б.].

Лингвистикалық контактология дегеніміз – белгілі бір әлеуметтік-тарихи жағдайда екі немесе бірнеше тілдердің қарым-қатынас механизмін зерттейтін жеке лингвистикалық пән болып табылады және тіларалық ықпалдастықтың экстролингвистика (әлеуметтік, психологиялық, этнологиялық және т.б.) факторларын, тілдік қарым-қатынастардың лингвистикалық үдерістерді байланыстыратын құбылыстарды қарастырады. Ал лексикалық контактология – қарым-қатынасқа түскен екі немесе бірнеше тілдерді барлық тілдік деңгейлеріндегі лексикалық бірліктерінің бейімделуін зерттейді [1, 445].

Тілдердің қарым-қатынасы туралы тіл теориясының маманы Ю.Д.Дешериев «тілдік қарым-қатынас» дегенде екі немесе одан да көп тілдердің немесе диалектілердің бір-біріне ықпалы, бір-біріне енуі, бір тілдің өзге тілдерден түрлі тілдік фактілерді қабылдауы, сондай-ақ түрлі кезеңдерде болған тілдік қарым-қатынастар нәтижесі деп тұжырымдайды[2, 68].

Контактология теориясы субстрат, суперстрат, адстрат, билингвизм, интерференция, конвергенция, дивергенция, тілдер араласуы тағы басқа маңызды феномендермен тығыз байланысты.

Жалпы тілдік байланыс екі түрлі тілдің немесе диалектінің өкілдері бір-бірімен сөйлескенде немесе жазған кезде пайда болады. Басқаша айтқанда, екі немесе одан да көп тілдік топтардың сөйлеу қатынасы – тіл контакты болып табылады. Мысалы, қазақ пен өзбек бір-бірімен араласқанда, яғни қарым-қатынасқа түскендегі қолданылатын тіл «контакт тілі» деп аталады. Бұл ретте қазақ пен өзбек қазақша сөйлесетін жағдайда контакт тілі қазақ тілі болады, егерде өзбек тілінде сөйлесетін болса контакт тілі өзбек тілі болып табылады.

Тіл контакты нәтижесінде тілдер бір-бірінен алшақтауы немесе жақындасуы мүмкін. Осы орайда алшақтап кетуі «дивергенция», жақындасуы «конвергенгия» деп аталды. Тілдердің қарым-қатынас жасауына тиімді жағдай – адамның екі тіл жүйесін бірден қолданылуы кезіндегі – билингвизм «қос тілділік» болып табылады. Қостілділік индивидуалды немесе жеке (белгілі бір этностың жеке мүшелерінің екі тілде сөйлесіп, оны қолданылуы) және көпшілік қостілділік (белгілі бір этнос мүшелері көпшілігінің екі тілде сөйлесіп, қолданылуы) болып бөлінеді. Сонымен қатар қостілділік индивидуалды (тудырушы) және коллективтік қостілділік (қолданушы); аймақтық қостілділік (елдің жеке

аймағы халқының екі тілде қатар сөйлесіп, қолданылуы); табиғи (қатар өмір сүретін екі тіл өкілдерінің қос тілді білуі мен қолданылуы) және жасанды қостілділік (әдейі, жоспарлы түрде екінші тілді үйренуге қажетті жағдайлар туғызу нәтижесінде екі тілді бірдей білуі және қолданылуы) т.б. Адамзат тарихында бұндай жағдайлар көптен кездеседі, мысалы, Өзбекстандағы қазақ ұлты өкілдері, себебі бұл киелі мекенде туылып-өскен қазақ азаматтары ең бірінші орында өздерінің ана тілін жетік меңгерсе, ал мемлекеттік тіл ретінде өзбек тілінде үйреніп, кейінірек екі тілді де меңгере алған.

Тілдердің қарым-қатынасы нәтижесінде интерференция, конвергенция және дивергенция деген ұғымдар пайда болған. Қазіргі кезге дейін лингвистикада интерференция құбылысына қатысты лингвистердің тұжырымдары бір жүйеге келген жоқ. Э.Хаугеннің пікірінше, «интерференцияқандай да бір лингвистикалық бірліктің бір мезетте екі бірдей тілдік жүйенің элементіне айналуы жүзеге асатын лингвистикалық тоғысуы» болса [5, 344], У.Вайнрайх интерференцияны бірнеше тіл білу нәтижесінде кез келген тілдегі қостілді адамдардың сөйлеуінде орын алатын тілдік норманың ауытқуы деп түсіндіреді[6, 25].

Бұл ұғымдарға «Әлеуметтік лингвистика терминдерінің сөздігінде» жеке-жеке анықтамалар берілген: «Интерференция – тілдік қарым-қатынастары кезінде екі тілдік жағдайда тілдік жүйенің өзара байланыстары сонымен қатар, қостілді адамның бір тілінің екінші тілге саналы емес әсерінің үдерісі, сондай-ақ осы ықпалдың нәтижесі. Интерференция тілдің әр қаттауында әртүрлі байқалады, мысалы, фонетикалық-фонологиялық деңгейде акцентті ажырата алмау, редукцияның белгілерін көшіру, ал морфологияда екі тілдің грамматикалық сапаларын ұлғайту интерференция болады.

Лингвистика ғылымында тілдер байланысын адстрат – тілдердің өзара қатар өмір сүруі мен жанасуы (әдетте шекаралас аймақтарда байқалады), суперстат – жергілікті халық тіліне уақыт ағымымен басқа тілдердің қабаттасуы, субстрат – қабаттасқан тілдерге негізгі тілдің ықпал етуі деген анықтамалар беріледі. Осы орайда айта кетуіміз керек, Өзбекстан Республикасының Қазақстан Республикасына көршілес тұрған аймақтарында қазақша, әсіресе, Оңтүстік Қазақстан халқының тілінде өзбекше адстраты кездесіп отырады. Бұл құбылыс өзбек пен қазақтың, қарақалпақ пен қазақтың, қырғыз бен қазақтың, түрікмен мен қазақтың арасында да байқалатын құбылыс.

Контактология теориясын зерттей келе, қазақ және өзбек тілдерінің қарым-қатынасы негізінде билингвизм, тілдердің араласуы, суперстат, лексикалық кірмелер мен интерференция үдерістерінің болғаны анықталды.

Өзбекстан Республикасының дерлік жер-жерлерінде қазақ ұлты өкілдері өзбектермен іргелес өмір сүруде. Ана тілі қазақ тілі болғанымен, өзбек тілінде меңгерген деп айта аламыз және бұл тілді күнделікті өмірде де қолдана алады. Басқаша айтқанда қостілділік басым.

Қазақ тілі өзбек тіліне жан-жақты әсер ететіндіктен, өзбек тілінің де қазақ тіліне фонетикалық, лексика-семантикалық, морфологиялық және синтаксистік, стильдік әсері байқалады.

Тілдік ерекшеліктері бір-біріне жақын сөйленістер, алдымен, сөйленістер тобын жасайды, сөйленістер тобынан диалектілер құралады. Мұның өзі тілдің, оған кіретін диалектілердің құрамында ортақ және айырым белгілердің болуына байланысты. Айырым белгілер әдеби тілден диалектіні және бір диалектіні басқа диалектілерден ажыратып көрсетеді. Бір диалекті үшін айырым белгі болып саналатындар басқа диалектілерге ортақ-жалпылық сипат танытып, оларды топтастыратын белгі болуы мүмкін. Айырым белгілердің ұқсастығынан диалектілердің жалпы белгісі шығады, ол диалектілердің санын да, көлемін де ажыратын негіз болып табылады. Диалектінің бар-жоғы осы жеке-айырым белгі мен жалпы-ортақ белгінің көлеміне қарай анықталады. Айырым белгілер тілдің:

–Дыбыс жүйесінде: *ләгән-леген, пахта-мақта, мышық-мысық т.б.*

–Грамматикалық құрылымында: *оқығын, барулы, келулі т.б.*

–Лексикалық қабатында: *топы, тандыр, зуала, бәдірең, таға т.б.*

Қазақ диалектологиясында ұлттық тілдің құрамдас бөлігі – жергілікті ерекшеліктерді көп жылғы егжей-тегжейлі зерттеулер нәтижесінде олардың таралу көлеміне қарай диалектіден гөрі говорлық сипаты басым деген түйінге келіп, қазақ тілінің жергілікті ерекшеліктерін говорлар сипаты басым деген түйінге келіп, қазақ тілінің жергілікті ерекшеліктерін говорлар тобына бөлетін пікірқалыптасты деуге болады. Сонымен қатар, қазақ диалектологиясында говор терминінің орнына **сөйленіс** термині орнықты.

Өзбекстан қазақтарының сөйленісінде (говорында) Өзбекстандағы өзбек диалектілеріне тән аймақтық ерекшеліктер көрініс тапқанын, тіпті жергілікті қазақ жазушыларының шығармаларында да қолданылғанын айта кеткен жөн.

Тіл білімінде тілдік қарым-қатынастардың төмендегідей типтері бар.

1. Тікелей қарым-қатынас. Мұнда әртүрлі тілде сөйлейтін этностар араласып, олардың арасында екі тілді азды-көпті бірдей меңгерген адамдар тобы пайда болады.

2. Жанама қарым-қатынас. Мұндай қарым-қатынастар аудармалар (ғылыми, көркем әдебиеттер, шығармалар, кинофильмдер, БАҚ материалдары, радиохабарлар т.б.) арқылы болады.

Қазақ тілі мен біз қарастырып отырған өзбек тілдері арасындағы тілдік қарым-қатынаста тікелей қарым-қатынас та, жанама қарым-қатынас та болған деген тұжырым жасаймыз.

Көркем сөз шеберлері өзіне керекті материалдарды халық өмірінен, халық тілінен алып пайдаланады. Сондықтан онда жалпыға ортақ біртұтас әдеби тілмен қатар кірме сөздер мен белгілі бір территориялық аймақта ғана айтылатын жергілікті ерекшеліктер кездесіп отырады.

Прозалық шығармаларды диалектілік ерекшеліктер негізінен кейіпкерлердің тілінде қолданылады. Сонымен қатар, кейде автор сөзінде қолданылуы да орын алып отырады. Жазушылар диалектілік ерекшеліктерді көбінесе жергілікті тұрғындарды сипаттауда, халық тұрмысын шынайы көрсету, белгілі бір аймаққа тән материалдық және рухани мәдениет ерекшеліктерін беру үшін, халықтың болмысын, рухын шынайы түрде бейнелеу мақсатында қолданады. Мысалы, Өзбекстан қазақ ақын-жазушылары шығармашылығында осындай ерекшеліктер кездесті: ***Ер*** сөзі, *«...Егер менің ерім Сейіт халықтың қас жауы болса, онда сол халықтың досы кім?»*[4, 116]. *«...Иә, сол жігіт болады біздің еріміз»*[4, 284]. Қазақ тілінде ***ер*** сөзі көмекші етістік қызметін атқарады, ал өзбек тілінде заттық ұғымды білдіріп зат есім сөз табы, яғни күйеу мағынасында қолданылады. Прозалық шығармалармен салыстырғанда, лирикалық шығармаларда диалектілік ерекшеліктер әлдеқайда аз қолданылады, оның үстіне онда негізінен лексикалық ерекшеліктер, ал фонетикалық, грамматикалық ерекшеліктер мейлінше аз. Сонымен қатар поэзиялық туындыларда да дыбыстық, лексикалық және грамматикалық ерекшеліктер кездесіп отырады. Бұл жерде жергілікті тұрғындардың тіліндегі фонетикалық, грамматикалық ерекшеліктерді көрсету емес, ойын нақты беру, қысқа да түсінікті етіп жеткізу мақсатынан туындаған.

Қорыта айтқанда, екі немесе одан көп тілдердің географиялық және қоғамдық-әлеуметтік тұрғыда араласуын тілдік қарым-қатынастар деп атауға болады және тіларалық ықпалдастыққа әлеуметтік, экономикалық, мәдени, діни, саяси, психологиялық, көршілік факторлар ықпал етеді. Солай екен, қазіргі қазақ лексикасында қазақ және өзбек сөздердің корпусын қалыптастырудың теориялық-әдіснамалық негізін құрастыру және салыстырмалы-типологиялық зерттеудің теориялық және практикалық маңызы зор және өзекті мәселелердің бірі болып табылады.

Adabiyotlar

1. Айдукович Й. Основные понятия лексических контактологии (на материале русизмов в славянских языках) / II Международный конгресс исследователей русского языка «Русский язык: истрические судьбы и современность», – Москва, 2004. – 445 с.

2. Дешериев Ю.Д. Закономерности развития и взаимодействия языков в советском обществе. – Москва, 1966. – 402 с.
3. Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Общее языкознание. Социолингвистика: Словарь-справочник. – Назрань: Пилигрим, 2011. – 280 с.
4. Райымқулов Р. Қара жорға.
5. Мечковская Н.Б. Языковой контакт // Общее языкознание. – Минск: Высшая школа, 1983. – 456 с.
6. Хауген Э. Процесс заимствования / Хауген Э. Новое в лингвистике. – Москва, 1972. – 344-382 с.
7. Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие // Новое в лингвистике. – Москва, 1972. – С. 25-60.

QARAQALPAQ TILINDE «AWÍZ» KOMPONENTLI SOMATIKALÍQ FRAZEOLOGIZMLERDIŃ SEMANTIKALÍQ BILDIRILIWI

Saodat Jubatqanovna SHINNAZAROVA,
Ájiniyaz atındağı NMPI

Annotatsiya. *Usi maqalada frazeologizmler sózdiń tásirliligin arttırıp qollanılatuǵın, millet mentallıǵınıń baslı kórsetkishi bola alatuǵın, ásirler boyı xalıq sanasında qáliplesken, oy-pikirdi tásirsheń, ekspressivlik boyawlar arqalı dál jetkerip beriwdiń quralı sıpatında qollanıladı.*

Gilit sozler: *frazeologizm, semantikalıq birigiwshiligi, ekspressivlik boyawlar, dominantlı somatizm, awız dominantlı frazeologizmler.*

Ushbu maqolada frazeologizmlar so‘zning ta’sirchanligini oshirib qo‘llaniladigan, millat mentalitetining bosh ko‘satkichi bo‘la oladigan, asrlar davomida xalq ongida shakllangan, fikr-mulohazani ta’sirchan, ekspressiv bo‘yoqlar orqali aniq yetkazib berish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, semantik birikuvchanlik, ekspressiv bo‘yoqlar, dominant somatizm, o‘g‘iz dominantli frazeologizmlar.*

Túrkiy tilleriniń qaysı birin alıp qarasaq ta frazeologizmlerge oǵada bay. Onı grammatikalıq, semantikalıq birigiwshiligi, leksikalıq, kontekst quramına qaray da toparlastırıw múmkin. Frazeologizmler – hár qanday tildiń eń hasıl, biybaha baylıǵı. Olardıń quramında xalıqtıń salt- dástúri, mádeniyatı, milliy sana-sezimi, bay tillik tariyxıy nusqaları menen birge inanım, isenimleri,

bolmısı sáwlelenip, hár tárepleme izertlewdi talap etedi. Sebebi, frazeologizmler tek sózdiń tásirliligin arttırıp ǵana qoymastan, barqulla tayar túrinde qollanılatuǵın, millet mentallıǵınıń baslı kórsetkishi bola alatuǵın, ásirler boyı xalıq sanasında qáliplesken, oy- pikirdi tásirsheń, ekspressivlik boyawlar arqalı dál jetkerip beriwdiń quralı sıpatında qollanıladı.

Tildegi frazeologizmler óziniń súwretlewshilik, obrazlılıq, tásirlilik, ekspressivli- emoцiyalıq, kórkemlik belgileri menen tildiń basqa da birliklerinen pútkilley ózgeshelikke iye. Usı sıyaqlı kórkemligi basım, hár túrli turaqlı dizbekler xalıqtıń tariyxın, millettiń bolmısın, mádeniy qunlılıǵın, salt-dástúri menen úrp-ádetin áwladtan- áwladqa ásirler boyı jetkerip keledi. Ádette, til biliminde frazeologizmlerdi semantikalıq birigiwshiligi, sóz shaqaplarına qatnası, stillik qollanılıwı hám basqa da táreplerine qaray bir neshe toparlarǵa bólip qarastırıladı. Frazeologizmlerdiń qaysı birin alıp qarasaq ta, xalıqtıń imkaniyat kún-kórisi, kózqarasları, dúnyatanımı menen tıǵız baylanısta ekenligin kóriwge boladı. Frazeologizmler adam balasınıń sana-seziminin qáliplesiwi menen tolıǵıp, jetilisip, tilde sınalıp, paydalanılıp kiyatırǵanlıǵı, ásirese, hár bir zattı, uǵımdı ańlap jetiwi, túsiniwi menen tikkeley baylanıslı. Sonlıqtan da, «Frazeologiyalıq sóz dizbekleriniń kópshilik toparı adamzat turmısında belgili bir áhmiyetke iye bolıp kelgen eń jaqın zatlar menen qubılıslar dógereginde payda bolǵan» [1.136].

Awız dominantlı somatizmi menen keletuǵın frazeologizmler qaraqalpaq tilinde oǵada ónimli. Atap aytqanda, Q.Paxratdinov hám Q.Bekniyazovlardıń avtorlıǵındaǵı frazeologiyalıq sózlikte [2.16] 200 den aslamı berilgen. Olardan ayırımları *til* somatizmi menen teńdey variantta qollanıladı. *Awzı (tili) barmadı*- aytıwǵa batılı bolmadı, aytıwǵa qorıqtı, *awız (til)biriktirdi*- birlesti, wádelesti, kelisip aldı, *awızǵa almadı* (tilge)almadı- sóz etpedi, aytpadı, tilge almadı, *awzı (tili) bardı*-qorıqpay ayttı, tartınbadı, awzı (tili)bir-wádelesti, kelisip aldı, tili bir hám taǵı basqa túrinde máni ańlatadı. Al, I.Keńesbaev qazaq tiliniń frazeologiyalıq sozligi miynetinde qaraqalpaq tilinde ushıraspaytuǵın, tek qazaq xalqına tán bolǵan *awız* somatizmi menen qatnaslı bir qatar frazeologizmlerdi atap ótedi. *Awzı appaq boldı*-úlesinen bos qaldı, sıbaǵadan ayırıldı, awzı jarımaǵan-hesh nársege jarımaǵan, *awzı kún shıǵısqa qarap qaldı*- más boldı, awzı menen qus quyrıǵın tislegen-birinshi mánisi júyrik, ushqır bolıp, bul qazaq tilinde kóbinese jılqınıń asa shaqqanlıǵına, júyrikligine aytılsa, al ekinshi mánisi boyınsha adamǵa qatnaslı oǵada sheshen, bilgish hám sózge júyrik adamǵa baylanıslı dep kórsetiledi. *Awzınan máyegi (uwızı) shıqqan*- jas óspirim, ján-jaqlama jetik adam, awzın jiyde jegendey qıldı- aldap ketti hám awzın qanatıw mánislerin bildiredi. Qaraqalpaq tilinde birewge aytqan pikiri ya jańalıǵına, jaqsı niyetine tilekles bolǵan jaǵdayda onı qollap – quwatlaw maqsetinde *awzıńa may* somatikalıq frazeologizmi qollansa, al qazaq tilinde bolsa, *awzıńa may,astıńa tay* variantları qollanıladı. *Awzında aq tisi joq*-

bul qazaq tilinde ǵarrı malǵa qatnaslı aytılsa, qaraqalpaq tilinde awzında bir tisi joq, yaǵnıy joq-juqa, kámbaǵal hám qartayǵan adamlarǵa, geyde jaǵdayı kelmese de orınsız shirenetuǵın adamǵa baylanıslı aytıladı.

Qaraqalpaq tilinde awız komponentli frazeologizmlerdińsemantikalıq bildiriliwi oǵada keń. Mısalı: Geyde kútá shırtıldaq, tuyıq, geyde qabaǵı jabılıp, uzaq kúnge *bir awız sóz söylemeydi*. Bosaǵadan atlawı menen dús tómeninen qulaǵanınan qızı Svetlanaǵa *bir awız xabarlaspay*, sulıq bolıp jatırǵan Perixan birden *tilge kelip*, ıńırsıdı, Ooo Alla, sen nege meni onıń menen gezlestirdiń?...(T.Qayıpbergenov).

Basqa tilge kelmew-sóylemew mánisin, *bir awız sóz söylemew*-hesh qanday sóz aytpaw, *bir awız xabarlaspaw*-bir sóz de sóylep amanlaspaw mánisin, *tilge keliw* bolsa-sóylew mánilerin ańlatıp, adamnıń sóylew halatı menen baylanıslı háreketleri ańlatıladı.

Onısız da *awzı ala* biyler xanǵa birinshi jarańǵandı máp bilip, buyrıqtı basqasınan burın orınlawǵa asıǵatuǵın ádeti bazbayaǵı bar. (T.Qayıpbergenov) Bunda, *awzı ala* - awızbirshiliksiz degen mániste.

Mısallar, Degen menen, jaslardı sınaw májilisine shekem *awzı bir* sıyaqlı bolıp júrgen biylerdiń Maman saylaǵannan keyin toyǵa qaramay ketkenine hayran (T.Qayıpbergenov). Bunda, *awzı bir* – awızbirshilikli, tatıw degen mánisinde kelgen.

Awzınıń kúygenin jasırıp, *kisiniń awzı kúygenin gáp qılǵansha*, ózińdi oyla. Erteńgi táǵdiriń ne bolatuǵınlıǵına kóz jiber, Aydos. (T.Qayıpbergenov). Bileseń be, arqa súyegen xiywa xannıń tas diywal emes, máyektiń qabırshaǵı. *Awzı ala* xalıq hesh kim menen dos bola almaydı. (T.Qayıpbergenov). *Awzı alalıqtı* bilmesin degen oy menen olar Orazan batırdıń ólimin esittirmedi.(T.Qayıpbergenov). *Awzıńnan sarısı ketpegen palapan* túsinbeyseń. (T.Qayıpbergenov). «*Awzımızǵa as salatuǵın bolǵanıńnan* aylanayın» dep súydi, kúldi. (Q.Mátmuratov). *Awzınıń sarısı ketpegen* palapanlar, túr-túsińizden bir gezde orıslardı kápir deytuǵın Aydos, Nildiń suwınday aynıdıń ba deytuǵınıńızdı sezip turman. (T.Qayıpbergenov).Mısallardaǵı *awzı kúyiw*-pant jew, *awzınan sarısı ketpegen palapan* mısalında qus dene múshesi qatnasıp, yaǵnıy tájiriybesizlik názerde tutılıp tur. *Awızǵa as salıw* mısalında perzentlerdiń ata-anaǵa qáwenderlik, ǵamqorlıq etiwi mánisi túsiniledi.

Ózbek tilinde de *awız* dominantlı frazeologizmler oǵada kóplep ushırasadı. Ásirese olardan kópshilik túrkiy tillerde birdey formada, derlik birdey mánide qollanılatuǵınları, ortaq frazeologizmler de bar. Mısalı, *awzı qulaǵında*-quwanıshlı, *awzına qolı jetti*-qatarǵa qosıldı, adam boldı, awzına taqan (sók) salǵanday-sóylemeydi, úndemeydi, awzın ashpadı-sóylemedi, indemedi, awzıńa may-aytqanıń kelsin, degeniń bolsın hám t.b.

Sh.Raxmatullaev ózbek tili frazeologizmleri quramında túrkiy tillerine ortaq bolǵan bir qatar frazeologizmlerdi keltirip, oladıń ayırımlarınıń ózbek

tilindegi kóp mánililigine de itibar qaratadı. *Awzına sók salıw* frazeologizminiń awzına taqan salıw,mum tislew, qatıq uytıw, sonday-aq sinonimleri retinde lám-mim demew, demin shıǵarmaw, awzın ashpaw, yaǵnıy sóylemey, indemey otırıw sıyaqlı mánileriniń bir –birine jaqın ekenligin kórsetedi [3.201].

Juwmaqlap aytqanda, túrkiy tillerine ortaq bolǵan frazeologizmler olardıń oǵada basım toparın quraydı. Olardıń arasındaǵı polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, variantlasıw sıyaqlı máseleler úyreniliwin kútip turǵan mashqalalardan biri.

Ádebiyatlar

1. Есемурат Бердимурат улы. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. – Нөкис: Билим, 1994. – Б.147,136.
2. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилиниң фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2018. – Б. 16-20.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 201.
4. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис, 1985. – Б.14-15.
5. Юсупова Б. Қарақалпақ тилиниң фразеологиясы. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2014. – Б. 68.

FE’LLARDAGI BO‘LISHLI VA BO‘LISHSIZLIK KATEGORIYASI FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TADQIQI

Maxliyo To‘lqin qizi FURKATOVA,
Samarqand davlat universiteti doktoranti

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarining fe’l so‘z turkumiga doir bo‘lishli va bo‘lishsizlik kategoriyasi tahlil qilinib, o‘zaro qiyoslanadi. Bundan tashqari, maqolada shu kategoriyaning har ikki tildagi ko‘rinishlari, ularni hosil qilishdagi farq va o‘xshash jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *to‘liqsiz fe’l, yuklama, inkor shakl, ko‘makchi fe’llar, bo‘lishsizlik.*

Bo‘lishli yoki bo‘lishsiz ma’noni beruvchi bu kategoriya qiyoslanayotgan tillarimiz orasida faqat o‘zbek tilida mavjud bo‘lgani uchun, avval o‘zbek tilida bu kategoriyani yoritamiz va ingliz tilida shu unsurlar qaysi

so‘zlar bilan, qay holda ifodalanishini ko‘rsatib beramiz. Shu bilan birgalikda, jarayonda o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilamiz.

Har qanday fe’l har doim yo bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda bo‘ladi. Ma’lumki, bo‘lishli shaklning alohida qo‘shimchalar bilan aks etadigan belgisi yo‘q. Ingliz tilida ham xuddi shunday [4]:

Men har kuni maktabga boraman. – I go to school every day.

Boraman va *go* fe’llari har ikki tilda ham hozirgi zamonni ifodalashi bilan birgalikda bo‘lishli shaklni ham hosil qilayapdi.

Bo‘lishsiz shakl esa quyidagilar bilan ifodalanadi: -ma, -maslik, -may/-mayin, -mas kabi affikslar, emas to‘liqsiz fe’li hamda yo‘q so‘zi. Ularning hammasi ingliz tilida «not» yuklamasiga va shu yuklama qo‘shilib keladigan ko‘makchi fe’llarga teng kelishini ta’kidlashimiz kerak [2]. Ya’ni:

*Men kecha sayohatga chiq**ma**dim. – I **did not** travel yesterday.*

*Men uchun ko‘p uxla**maslik** yaxshiroq. – **Not** sleeping much is better for me.*

*Ko‘p narsani bil**may** qoldi. – He stayed **not** knowing many things.*

*Yoz**mas** ruchkada yozib ko‘rdim. – I tried to write with a **not** writing pen.*

*Bugun bozorga borganim **yo‘q**. – I **did not** go to the market.*

Ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida inkor shakl o‘zbek tilidagidek turli emas. «Not» yuklamasi nafaqat mustqail fe’llarga, balki fe’lning vazifadosh shakllariga teng keluvchi sifatdosh, infitiv va gerund (harakat nomi)ga teng ravishda qo‘shilib bo‘lishsizlik formasini hosil qilayapdi: ***Not** sleeping much is better for me.* Ammo sof fe’llar bilan kelganda doimo ko‘makchi fe’llar yordamida turli zamonlarda bo‘lishsizlik shaklini ifodalab kelayapdi. *I **do not** know about him. (hozirgi oddiy zamon – present simple)/ He **wil not** go to the gym. (kelasi zamon – future simple)/ She **had not** argued with me before. (o‘tgan tugallangan zamon – past perfect)/ We **are not** going right now. (hozirgi davomli zamon – present continuous)*

O‘zbek tilidagi «emas» to‘liqsiz fe’li ingliz tilida alohida o‘rin egallaydi. Sababi, ingliz tilidagi holat gapi (Condition) «to be» bog‘lovchi fe’li bilan chiqadi. U uch xil zamonda tuslanadi va inkor shakli o‘zbek tiliga «emas» «emas edi» kabi tarjima qilinadi. Quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

I was not 16 years old, when I visited Tashkent. (O‘tgan oddiy zamon – Past simple)– Toshkentga kelganimda 16 yoshda emas edim.

They are not clevere than you expect. (Hozirgi oddiy zamon – Present simple) – Ular kutganingdan ko‘ra ko‘proq aqlli emas.

Ammo ular faqat hozirgi va o‘tgan zamonga tegishli. Kelasi zamonda ular tarjimada yana –ma yoki –may qo‘shimchasi bilan bo‘lishsizlik yasaladi.

I will not be lazy in the years to come. (Kelasi oddiy zamon-Future simple) – Kelayotgan yillarda dangasa bo‘lmayman

O‘zbek tilida inkor ma’noni *na…na….*bog‘lovchi so‘zi bilan ham ifodalasak bo‘ladi. Bu ingliz tilida *neither….nor* va not *either…or…* birikmalariga to‘g‘ri keladi. Ular gapda so‘zlarni va to‘liq gaplarni bog‘lab kelishi mumkin. Yagona farqi shundaki, o‘zbek tilida *na…na….* bog‘lovchisi bo‘lishli va bo‘lishsiz gaplarda birdek qo‘llaniladi, ammo ingliz tilida *neither…nor…* kelgan gapda *«not»* yuklamasi bo‘lmasligi kerak. Chunki *neither….nor…*ning o‘zi gapni bo‘lishsiz gapga aylantirish xususiyatiga ega [3]. Ya’ni:

Men na suza olaman va na voleybol o‘ynay olaman. – I can neither swim nor play volleyball. / I cannot either swim or play volleyball.

Fe’llarda bo‘lishsizlik ma’nosini chiqarish uchun gap ohangining ham o‘rni bor. Bu holatda bo‘lishsiz shaklda bo‘lsa, bo‘lishli ma’no, bo‘lishli shaklda bo‘lsa, bo‘lishsiz ma’no aks etadi. Ammo bu ko‘proq o‘zbek tilida uchrab, ingliz tilida deyarli uchramaydi.

Sen buni qilmadingmi?! (bo‘lishli ma’no) – Don’t you do that?!

Ingliz tilida «not» inkor yuklamasidan tashqari, inkor ma’noni tashuvchi bir qancha ravishlar mavjud bo‘lib, ular shaklan bo‘lishli bo‘lgan gaplarni ma’no jihatdan bo‘lishsiz gaplarga aylantiradi. Shuning uchun ular qatnashgan gapda «not» yuklamasi bo‘lmaydi. Ularga quyidagilar kiradi: *rarely, barely, seldom, never, hardly, scarcely.* Inkor ma’noni beruvchi ravishlardan tashqari, ba’zi olmosh turlari ham gapda kesimga o‘z ta’sirini o‘tqazib, bo‘lishsizlikni hosil qiladi. *Nobody, none, nothing, nowhere* shular jumlasidandir. O‘zbek tilida ham shunday so‘zlar bor, ammo ular gapni to‘liq bo‘lishsiz gapga aylantira olmaydi. Shuning uchun o‘zbek tilida bu so‘zlar qatnashgan gapda – ma affiksi qo‘llanilishi mumkin [1].

Ular zo‘rg‘a uning uyini topishdi. – They hardly find his house.

Men hech qachon ularni ko‘rmaganman. – I have never seen them.

Menga hechkim halaqit berolmaydi. - Nobody can distrupt me.

Ingliz tilida ham yuqorida sanab o‘tilgan inkor ma’noni tashuvchi so‘zlar bilan «not» yuklamasini birga kelgan hollari bor. Aynan shu holatda o‘zbek tilidagi ayni tarjimani hosil qiladi. Shu bilan birgalikda, ikkita inkor vazifasini bajarayotgan so‘z va yuklama birlashib ijobiy ma’noni hosil qiladi. Ammo ular faqat og‘zaki nutqda mavjud bo‘lib, rasmiy grammatik strukturada xato hisoblanadi.

I don’t want to go nowhere. – Men hech qayerga borishni xohlamayman.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi ravish va olmosh so‘z turkumidan bo‘lgan inkor ma’noli so‘zlarning gapdagi kesimga o‘zaro aloqasi bor va bu bo‘lishli bo‘lishsizlik ma’nosi va shaklini chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Asosiy bo‘lishsizlik yuklamasi «not» bo‘lib, barcha zamon ko‘makchi fe’llariga qo‘shilib ketadi. O‘zbek tilida inkor ma’no tashuvchi so‘zlar bor, lekin ular kesim bilan hech qanday aloqaga kirishmaydi va ingliz

tilidan farqli ravishda bo‘lishsizlikni hosil qiluvchi qo‘shimchalari bir nechtani tashkil qiladi: *-ma, -maslik, -may* va boshqalar.

Adabiyotlar

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Xojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi O‘zbek adabiy tili I qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 443 b.
2. Turniyozov N., Rahimov A. O‘zbek tili. O‘quv – uslubiy qo‘llanma. - Samarqand. 2006. – 147 b.
3. Buranov J., Hashimov U., Ismatullayev H. Ingliz tili grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 351 b.
4. J. Bo‘ronov. Ingliz va O‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – 279 b.
5. История язикознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. – М.: ч. I. – М., 1964 – С. 119-120.
6. Курманбоев Н.М. О происхождении грамматических категорий. – Алмата: Мектеп, 1981. – С. 18-20.

DIALEKTKE TÁN SOMATIKALIQ BIRLIKLERDIŃ KÓRKEM SHIĠARMALARDA QOLLANILIWI

Dilbar Yaqıpbaevna XALMURATOVA,
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Annotaciya. *Bul jumısımızda kórkem shıġarma tilinde ushırasatuġın dialektke tán somatikalıq birlikler, dialektke tán frazeologiyalıq somatizmler, olardıń kórkem shıġarmada qollanılıw ózgesheligi haqqında sóz ettik.*

Gilt sózler: *dialektizmler, somatikalıq birlikler, dialektke tán somatikalıq frazeologizm.*

Bu ishimizda badiiy asar tilida uchraydigan shevaga xos somatik birliklar, shevaga xos frazeologik somatizmlar, ularning badiiy asarda qo‘llanish xususiyatlari haqida so‘z yuritdik.

Kalit so‘zlar*: dialektizmlar, somatik birliklar, shevaga xos somatik frazeologizm.*

Túrkiy tilleriniń biri bolġan qaraqalpaq til bilimi de óziniń leksikalıq baylıġı menen ajıralıp turadı. Usı leksikamızdıń bayıwında qollanılıw órisi sheklengen sózlerden bolġan dialektizmler de belgili orındı iyeleydi. Dialektlik

sózler belgili bir aymaq turǵınları tiline tán sózler sanaladı. Olar ádebiy tilde ushıraspaytuǵım sózler hám ayırım sıńarları ózgertilgen túrinde ushırasatuǵın sózler.

Dialektizmler kórkem shıǵarmalarda belgili bir territoriyanıń, regionnıń turmısın, sol jerdegi adamlardıń sóylew ózgesheligin bildiriw ushın qollanıladı. [1,33] Túrkiy tilshi ilimpazlarınan B.F.Fayzullaev, B.D.Qaliev, J.Mamıtov, K.Beknazarov hám t.b. ilimpazlar ózbek, qazaq, qırǵız ádebiyatlarınıń úlgileri tiykarında dialektizmlerdiń kórkem ádebiyattaǵı qollanılıw ózgeshelikleri haqqında arnawlı izertlewler alıp barǵan. Qaraqalpaq tilinde kórkem shıǵarmalarda ushırasatuǵın dialektizmlerdiń qollanılıw ózgesheligi arnawlı izertlenbegen temalardan sanaladı. Biz bul jumısımızda Qaraqalpaqstannıń arqa dialekti jazıwshıları shıǵarmaları tilinde ushırasatuǵın adamnıń dene múshelerine baylanıslı bolǵan dialektlizmler haqqında sóz etemiz.

Qaraqalpaq tilinde kórkem shıǵarmalar tili dialektlik sózlerge oǵada bay sanaladı. Sebebi, hár qanday jazıwshı, shayırlar ózinıń dóretken shıǵarmalarınıń qunlı, mazmunlı, oqıwshı júreginde máńgi qalatuǵın dárejede jaratıwǵa tırısıp, sol jasaw aymaǵınıń haqıyqıy kórinisin beriw ushın dialektlik sózlerden paydalanadı. Dialektizmler arqalı jazıwshınıń qaysı aymaqtan ekenligin kóriwimizge boladı. Avtor dialektizmlerdi kórkem shıǵarmalarda túrli maqsetlerde qollanadı. Dialektizmler kórkem shıǵarmalarda avtor hám qaharman tilinde de ushırasıp, qaharmannıń sırtqı kórinisin súwretlewde de, onıń ishki psixologiyasın anıq ashıp beriwde de qollanıladı.

Dialektizmler arasında adamnıń dene múshelerine baylanıslı dialektizmler belgili orındı iyeleydi. Til biliminde dene múshe atamaları grek tilindegi (soma-dene) ataması menen baylanıslı bolıp, ilimiy izertlewlerde bul termin somatikalıq birlikler, somatizm- adam dene músheleri atamaları túsinigi menen belgili [2,106]. Kórkem shıǵarma tilinde somatikalıq dialektizmler qaharmannıń sırtqı kórinisin , sonday-aq onıń ishki halatın anıq súwretlewde keńnen qollanıladı. Mısalı: Ásenbay Tawmurattıń tastay túygen **jumırıǵınan** taysalıp, bılayıraq jılıstı. (K. Sultanov, «Ájiniyaz» 263-b.) **Gúre tamırdan** shırıldap aqqan ıssı qan shóplerdi qızılǵa boyadı. (K.Karimov, «Aǵabiy», 177-b.) Tartqısh penen isken mańlayımdı taǵı ezetuǵın boldı, basımdı jaradı, yamasa ayaǵımdı, yamasa qolımdı sındıradı, ya **qabırtqamdı** dal-dal etedi, bolmasa bet-awzım shappat penen jasaladı, ya bolmasa eńseme dúriste shabadı, qullası qolına túspeyin dep áwelgi jasırınǵan ırashımnan japqa boyımdı tasladım. (J.Aymurzaev, «Jetimniń júregi», 21-b.) Palwan vrachqa besinshi qabatta mınaw marhumnıń qızı, óziniń kelinshegi biyhuwsh qanǵa bılǵanıp jatırǵanın eskertti de, eńkeye sala, qáyin enesiniń denesin eki qolınıń **qarına** salıp kóterdi hám basqıshlar boylap, joqarıda óz jayına qaray únsiz kóterile basladı... (T. Qayıpbergenov, «Tánha ózińe málim sır», 152-b.)

Kórkem shıǵarma tilinde qollanılǵan «jumırıǵınan» dialektlik sózi ádebiy tilde judırıq túrinde ushırasıp, fonetikalıq ózgeriske ushıraǵan, adamnıń sırtqı kórinis awhalın, yaǵnıy Tawmurattıń ashıwlı kórinisin judırıǵı arqalı kórsetip tur, al, «gúre tamır» dialektlik sózi adamnıń sırtqı kórinisin súwretlegen bolsa, «qabırtqamdı» dialektlik sózi qaharmannıń tilinde berilip, fonetikalıq ózgeriske ushırap, ádebiy tilde qabırǵa túrinde aytıladı. «Qarı» dialektlik sóziniń mánisi 1. Ólshew birligi. 2. Qoldıń ushınan moyın omırtqaǵa shekemgi aralıq. 3. Uzınlıq ólshemi. [3, 365] Bul atama qaraqalpaq xalqınıń «Jeti ata» yamasa «Jeti pushtı» uǵımların bildiriwshi atamalarda da ushırasadı:

1. Baw baba (túp ata)
2. Tuw baba (arǵı ata)
3. Shaw baba (qarı ata)
4. Dáw baba (alǵı ata)
5. Baba (ullı ata)
6. Ata (bap ata)
7. Áke (jas ata).

Qazaq tilinde qarı sózi 1) tuwısqan, ruw. 2) qartayǵan mánilerinde jumsaladı. [4,122] Qazaq ilimpazı A.Turıshev qarı sóziniń payda bolıwı, mánisi haqqında bir neshe pikirlerdi aytıp ótedi: «Qarı sózi qarı jilik (qoydıń jiligine baylanıslı) payda bolǵan. Eski inanım boyınsha soyǵan qoydıń qarı jiligin ilip qoyǵan, urı-qarı jolamaydı degen ırım. Qarıǵa urı kelmeydi-degenge isengen. «Qız jipek» jırınıń 1887-jılǵı nusqasında:

Qarı kúyip qalmaqtıń,
Bári birdey boladı(47).
Qarı xatuneg ol bul dúnya mákkar
Súchúglút birle ol seni aldar (Qutıp).

Sonday-aq, «Qarına tartpaǵannıń qarı sınsın»-degen maqalda da qarı sózi ushırasadı. Bul mısallarda qarı úsh túrli mánilerde qollanılıp tur. Qarı- júzi, qarı-kári, qarı-jiligi». [5, 137]

Kórkem shıǵarmalarda dialektke tán somatikalıq frazeologizmlerde jiyi ushırasadı. Frazeologizmler xalıq tiliniń qaymaǵı retinde bahalanadı. Onda xalıqtıń ásirler boyı payda etken, jınaǵan ushqır qıyallarınıń, danalıǵınıń, sóz dóretiswshiliginiń ájayıp úlgileri jatır. [6,179] Hár qanday jazıwshı dóretpeleriniń obrazlı, tásirli shıǵıwında frazeologizmlerdiń ornı ayrıqsha. Frazeologizmlerde tereń emocional-ekspressivlik mánilik boyawlar kúshli boladı hám olar shıǵarmaǵa ayrıqsha tásirsheńlik, sheberlilik, tereń mazmunlılıq berip, shıǵarmanıń kórkemliligin asıradı. Mısalı: Bul pishinin basqalarǵa sezdirgisi kelmey, qanshama kirpidey búrisip, kepken teridey serisse de, **júregi loblıy berdi**. Izinde jansızı barday átirapqa alaqlap qaraydı. (K.Sultanov, «Aqdárya», 170-b.) Shaması, basshılardan qattı **tis jese kerek**.

(Sh.Seyitov, «Iǵbal soqpaqları», 98-b.) Bir-eki kúnnen beri nár tatpadım, jeńge, **tisime sazlıq eteyin**, jartı pátir berseń-o, ılahım qosılǵanıń menen qosa aǵarıp kógergeyseń. (K.Sultanov, «Aq dárya», 116-b.) Jawınger jigittiń soldat qayısı qáliptey tartqan qarnın ıza-qayǵı kernep, **júregi qabızına sıymaydı**. (K. Sultanov, «Aq dárya», 56-b.) Tekseriwshiler jumıstı **qalaq-qulaq kórgen** bolıp, túsnen keyinge qaray «bas awırıp ketti, taza hawaǵa shıǵıp, tábiyatıńızdı kóreyik», deydi. (Sh.Usnatdinov, «Dáw kempir», 80-b.)

Mısallardaǵı «júregi loblıw» frazeologizmi qayt etiw, qusqısı keliw mánisinde kelip, qaharman halatın ashıp beriwde avtor tilinde berilgen, «tis jew» frazeologizmi pánt jew mánisinde qaharmannıń psixologiyasın ashıp beriwde paydalanılǵan, al, «tisine sazlıq etiw» frazeologizmi awqatlanıw mánisinde qollanılıp, qaharmannıń ishki halatın súwretlewde qaharman tilinen bayanlanǵan. Al, «júregi qabızına sıymaw» frazeologizmi kontekste ashıwlanıw mánisinde qollanılıp, qaharmannıń hal-jaǵdayın anıq ashıp beriwde avtor tárepinen bayanlanǵan. Bul frazeologizmniń tilimisde «júregi qanasına sıymaw», «júregi qabına sıymaw» variantları da ushırasıp, olar geyde kontekste quwanıw mánisinde de qollanıladı. «Qalaq-qulaq kóriw» frazeologizmi shala-pala islew mánisinde qollanılıp, jup sóz túrinde kelip, shúǵarmada jumıstıń isleniw kórinisin súwretlep tur.

Solay etip, kórkem shıǵarmalarda adam múshelerine baylanıslı qollanılǵan dialektizmler oǵada kóplep ushırasıp, olar qaharmannıń hám sol ortalıqtıń kórinisin anıq ashıp beriw ushın jazıwshı tárepinen sheberlilik penen paydalanılǵan, olar shıǵarmaǵa ayrıqsha kórkemlilik baǵıshlaǵan, kórkem shıǵarma tiliniń janlı hám de qızıqlı shıǵıwında áhmiyetli orındı iyelegen. Bul dialektlik sózlerdi qaraqalpaq tili leksikasınıń baylıǵı retinde kóriwimiszge boladı. Sebebi, dialektlik sózlerde xalqımızdıń jasaw tirishiligin, mádeniyatın, tariyxın, úrp-ádet, dástúrlerin kóremiz.

Adebiyatlar

1. Бекбергенов А. Қаракалпақ тилиниң стилистикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990.

2. Шынназарова С. Соматикалық бирликлердиң фразеологизмлерде тирек сөз сыпатында берилиўи Ilim hám jámiyet 2023 (№1).

3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги IV Жети томлық. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2023.

4. Қазақ тилиниң қысқаша этимологиялық сөздиги. – Алматы: Ғылым, 1966.

5. Турышев А.Қ. «Қыз Жибек» жырының тили мен стили. – Павлодар, 2001.

6. Бердимуратов Е. Әдебий тилдиң функционаллық стиллериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. – Нөкис, 1973.
7. Султанов К. Әжинияз. – Нөкис: Bilim, 2019.
8. Каримов К. Агабий I-II. – Нокис: Билим, 2017.
9. Қайыпбергенов Т. Повестлер. – Нөкис: Bilim, 2018.
10. Султанов Ақ дәрья. – Нөкис: Bilim, 2018.
11. Уснатдинов Ш. Соңғы аңшы. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2014.

TERMINLARLARNING INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA USULLARI

Hulkar Izzatillayevna ZOKIROVA,
Angren universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola atamalarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishning turli usullarini o‘rganadi, har bir yondashuvning kuchli tomonlari, qiyinchiliklari va oqibatlarini tahlil qiladi. Ko‘rib chiqishda tarjimonlar o‘rtasida uzluksiz o‘rganish, hamkorlik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlab, tarjimaga mutanosib va moslashuvchan yondashuv zarurligiga urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tarjima usullari, o‘zlashma so‘zlar, kalk, neologizmlar, tavsifiy tarjima, dinamik ekvivalentlik, lingvistik tuzilmalar, madaniy kontekst, til evolyutsiyasi.*

Tarjima tillar o‘rtasidagi muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga atamalarni tarjima qilish kontekstida tarjima qilingan atamalarning ingliz tilidagi o‘xshashlari bilan bir xil ma’no va nuanslarni bildirishini ta’minlash uchun bir necha usul va strategiyalardan foydalaniladi. Ushbu maqola atamalarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladigan turli yo‘llarni o‘rganib, har bir usulning samaradorligi, muammolariga e’tibor qaratadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima eng sodda usullardan biri bo‘lib, ingliz tilidagi atamalarni o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aylantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ikkala tilda aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lgan atamalar uchun yaxshi ishlaydi. Nyumark (1988) fikriga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima ko‘pincha umumiy atamalar uchun ishlatiladi, ayniqsa kundalik narsalar va harakatlar bilan bog‘liq. Masalan, inglizcha «kompyuter» atamasi o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri «kompyuter» deb tarjima qilingan. Biroq, ingliz tiliga xos madaniy yoki kontekstual konnotatsiyalarni o‘z ichiga olgan atamalar bilan ishlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima muammoli bo‘lishi mumkin. Nabijonov (2015) ta’kidlaganidek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima ba’zi atamalarning nozik

ma’nolarini tushuna olmasligi mumkin, bu esa mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarga yoki ma’no yo‘qolishiga olib keladi. Shu sababli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima samarali va ko‘pincha zarur bo‘lsa-da, u har doim ham barcha atamalar uchun to‘g‘ri yo‘l emas.

Yana bir keng tarqalgan usul – so‘zlarni o‘zlashtirish bo‘lib, bu yerda inglizcha atama o‘zbek tiliga juda oz yoki hech qanday o‘zgartirishlarsiz qabul qilinadi. Bu usul, ayniqsa, texnologiya va fan kabi sohalarda keng tarqalgan bo‘lib, ingliz terminologiyasi ko‘pincha global miqyosda tan olinadi va qo‘llaniladi. Masalan, inglizcha «internet» atamasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga «internet» sifatida olingan. O‘zlashma so‘zlar o‘zaro tushunarlilikni oshirishi va tillar bo‘ylab izchillikni saqlashi mumkin, biroq ularning haddan tashqari qo‘llanishi ona tili leksikasining yemirilishiga olib keladi. Karimov (2013) ta’kidlaganidek, o‘zlashtirilgan so‘zlar amaliy yechim bo‘lsa-da, ko‘plab xorijiy atamalarni kiritish orqali o‘zbek tilini rivojlantirish va saqlab qolish borasidagi sa’y-harakatlarga putur yetkazishi mumkin.

Calque yoki manoviy tarjima o‘zbek tilida yangi atama yaratish uchun inglizcha atama tarkibiy qismlarini so‘zma-so‘z tarjima qilishni o‘z ichiga oladi. Bu usul qo‘shma atama yoki iboralarni tarjima qilishda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, inglizcha «skyscraper» atamasini «osmono‘par» deb tarjima qilish mumkin, binolar o‘zbekchada «osmonni qirib tashlaydigan binolar» degan ma'noni anglatadi. Calque atamaning ma’no yaxlitligini ko‘zda tutuvchi tilning tuzilishiga moslashtirgan holda saqlab qolishga yordam beradi. Biroq, buning uchun manba va ko‘rsatuvchi tillarni chuqur tushunish talab etiladi. tarjima qilingan atama ham to‘g‘ri, ham mazmunli. Xo‘jayev(2017)ga ko‘ra, agar ehtiyotkorlik bilan foydalanilmasa, calque ba’zan noqulay yoki g‘ayritabiiy tarjimalarga olib kelishi mumkin.

Neologizmlar inglizcha atamaning ma'nosini etkazish uchun maqsadli tilda mutlaqo yangi atamalarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu usul, ayniqsa, o‘zbek tilida ekvivalentlari mavjud bo‘lmaganda foydalidir. Masalan, «selfie» atamasi o‘zbek tiliga «o‘zi» deb tarjima qilingan uchun surat. Neologizmlar yaratish lingvistik innovatsiyalarga imkon beradi va maqsadli tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi. Biroq, neologizmlar ko‘proq tanish yoki o‘rnatilgan atamalarni afzal ko‘rishi mumkin bo‘lgan til foydalanuvchilarining qarshiliklariga ham duch kelishi mumkin. Bekmurodov (2019) ta'kidlaganidek, neologizmlarning qabul qilinishi ko‘pincha ularning foydaliligi va kundalik tilga integratsiyalashuv qulayligiga bog‘liq.

Ta'rifiy tarjima to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentini topishdan ko‘ra, ingliz tilidagi atamaning ma'nosini tushuntirishni o‘z ichiga oladi. Bu usul ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi bo‘lmagan yoki madaniy jihatdan o‘ziga xos atamalar uchun qo‘llaniladi. Masalan, inglizcha «brunch» atamasini tavsiflovchi sifatida «yordamchi» deb tarjima qilish mumkin» va u nonushta va

tushlik oralig‘idagi taom). Tasviriy tarjima atamaning ma’nosi ko‘proq so‘zlarni talab qilsa ham, aniq yetkazilishini ta’minlaydi. Biroq buning natijasida uzunroq va qisqaroq tarjimalar paydo bo‘lishi mumkin. Tursunov (2016) ta’kidlaganidek, tavsifiy tarjima ravshanlikni saqlashda samarali bo‘lsa-da, ba’zan tarjimaning qisqaligi va nafisligini buzishi mumkin.

Kontekst va dinamik ekvivalentlik o‘zi ishlatiladigan kontekstda asl atama bilan bir xil ta'sir yoki ma'noni etkazishga qaratilgan. Ushbu yondashuv kengroq kontekstni va atamaning mo‘ljallangan ta'sirini ko‘rib chiqish uchun so‘zma-so‘z tarjimadan tashqariga chiqadi. Nida (1964) ta'kidlaganidek, dinamik ekvivalentlik maqsadli auditoriyadan asl nusxadagi manba auditoriyasidan bir xil javobni oladigan tarjimaga qaratilgan. Bu usul, ayniqsa, idiomatik iboralar, madaniy havolalar va boshqa kontekstga xos atamalarni tarjima qilish uchun foydalidir. Masalan, ingliz tilidagi «kick the bucket» idiomasi xuddi shu ma’noni bildiruvchi ekvivalent o‘zbekcha idiomaga tarjima qilinishi mumkin. Biroq, kontekst va dinamik ekvivalentlikka erishish har ikkala tilni ham yuqori darajada bilishni va madaniy nuanslarni chuqur tushunishni talab qiladi.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga atamalarni tarjima qilish bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, jumladan, madaniy farqlar, lingvistik tuzilmalar va har ikki tilning rivojlanish tabiati. Muhim muammolardan biri ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi lingvistik tuzilmalardagi farqdir. German tili bo‘lgan ingliz va turkiy til bo‘lgan o‘zbek tillari o‘ziga xos grammatik va sintaktik qoidalarga ega bo‘lib, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima harakatlarini murakkablashtirishi mumkin (Nabijonov , 2015). Tarjimada madaniy farqlar ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Asl tilning madaniy kontekstida chuqur ildiz otgan atamalarning maqsad tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi ayrim idiomatik iboralar yoki madaniy murojaatlar o‘zbek tilida mos kelmasligi mumkin, bu esa ijodiy tarjima strategiyalarini talab qiladi (Karimov, 2013). Yana bir qiyinchilik - bu ikkala tilning, xususan, texnologiya va fan kabi jadal rivojlanishi. Doimiy ravishda yangi atamalar ishlab chiqilmoqda va tarjimonlar to‘g‘ri va dolzarb tarjimalarni ta'minlash uchun ushbu o‘zgarishlarni kuzatib borishlari kerak. Bundan tashqari, globallashuv ta’siri shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi atamalar ko‘pincha o‘zbek tiliga, ba’zan esa maqsadli til me’yorlariga mos kelmay, qabul qilinadi (Bekmurodov, 2019).

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga atamalarni tarjima qilishning turli usullari tarjima amaliyotiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima va qarz so‘zlar tez va tanish echimlarni taqdim etadi, ammo ular har doim ham asl atamaning to‘liq ma'nosini yoki madaniy kontekstini qamrab ololmasligi mumkin. Ma’noviy tarjima va neologizmlar, yanada nozik tarjimalarni taklif qiladi, ammo noqulay yoki g‘ayritabiiy atamalardan qochish uchun

ehtiyotkorlik bilan ishlashni talab qiladi. Ta'rifiy tarjima va dinamik ekvivalentlik ravshanlik va kontekstga muvofiqlikni ta'minlaydi, ammo ular uzoqroq va kamroq ixcham tarjimalarga olib kelishi mumkin. Tarjimonlar ham to‘g‘ri, ham madaniy jihatdan mos bo‘lgan tarjimalarga erishish uchun ushbu usullarni muvozanatlashi kerak. Buning uchun har ikki tilni chuqur tushunish, shuningdek, rivojlanayotgan lingvistik landshaftga doimiy moslashish talab etiladi. Tursunov (2016) ta’kidlaganidek, samarali tarjima amaliyoti uzluksiz o‘rganish va moslashishni ham o‘z ichiga oladi. Tarjimonlar har ikki tildagi yangi ishlanmalardan xabardor bo‘lib turishlari va turli tarjima usullari bilan innovatsiyalar va tajribalar o‘tkazishga tayyor bo‘lishlari kerak. Hamkorlik va tengdoshlarning fikr-mulohazalari tarjima sifatini yaxshilashga yordam beradi va tarjima qilingan atamalar ham to‘g‘ri, ham mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga atamalarni tarjima qilish turli usullarni o‘z ichiga oladi, ularning har biri o‘ziga xos kuchli va qiyinchiliklarga ega. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, qarz so‘zlari, kalk, neologizmlar, tavsifiy tarjima va dinamik ekvivalentlik bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Samarali tarjima amaliyoti har ikki tilni, madaniy kontekstni chuqur tushunishni va tilning rivojlanayotgan tabiatiga moslashish qobiliyatini talab qiladi. Har bir usul o‘ziga xos ta'sirga ega bo‘lsa-da, muvozanatli va moslashuvchan yondashuv to‘g‘ri va madaniy jihatdan mos tarjimalarni ta'minlashga yordam beradi. Tarjimonlar uchun atamalarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga samarali tarjima qilishning murakkabliklarini engib o‘tishlari uchun doimiy o‘rganish, hamkorlik va moslashish zarur. Ushbu usullarni puxta va puxta o‘ylangan holda qo‘llash orqali tarjimonlar ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchilar o‘rtasida yaxshiroq tushunish va muloqotni kuchaytirish orqali lingvistik va madaniy bo‘shliqlarni bartaraf etishlari mumkin.

Adabiyotlar

1. Bekmurodov N. (2019). Til evolyutsiyasi va tarjimada neologizmlardan foydalanish. O‘zbek tarjimashunoslik jurnali, 15(2), 112-124.
2. Karimov R. (2013). O‘zbek tilida qarz olish: foyda va muammolar. Markaziy Osiyo tillari sharhi, 8(3), 45-58.
3. Xo‘jayev S. (2017). Hozirgi o‘zbek tarjimasida kalkaning o‘rni. Til va tilshunoslik jurnali, 12(4), 225-238.
4. Nabijonov U. (2015). Ingliz tilidagi atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi strukturaviy muammolar. Tarjimashunoslik har chorakda, 9(1), 78-89.
5. Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall. 18.
6. Nida E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Brill. 23-24.
7. Tursunov A. (2016). Tasviriy tarjima va uning o‘zbek tilidagi qo‘llanilishi. O‘zbekiston Tarjima Jurnal, 10(1), 34-47.

VII SHO‘BA. KORPUS LINGVISTIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSIDA ARXAIK SO‘ZLARNING SEMANTIK TAVSIFI MASALASI

Manzura ABJALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo‘llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Mualliflik korpuslari ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion o‘quv vositasi, tadqiqotchilar uchun esa eng qulay axborot manbayi, tadqiqot obyekti va predmeti hisoblanishi bilan ahamiyatli. Ushbu maqolada mualliflik korpuslari tilni diaxron aspektda o‘rganish, o‘rta asrlar tilini tushunish uchun interaktiv vosita ekanligi asoslangan, shuningdek, Alisher Navoiy mualliflik korpusining lingvistik ma’lumotlari bazasi statistik tahlil qilingan. Yangi versiyadagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi imkoniyatlari ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *statistik tahlil, semantik tavsif, semantik teg, Alisher Navoiy mualliflik korpusi, lingvistik ta’minot, lug‘at, g‘azal.*

So‘nggi yillarda o‘zbek korpus lingvistikasida leksik birliklarni modellashtirish, korpus matnlarini morfologik va semantik tahlil qilish, omonimlarni aniqlash, leksik birliklarni grammatik va semantik teglash masalalari o‘rganildi. Bugungi kunda o‘zbek tili korpuslari uchun morfoanalizator, parser, semantik analizator imkoniyatlarini yaratish bilan birga o‘zbek tili Milliy korpusining xususiy / tarkibiy korpusi (subkorpusi) mualliflik korpusi (MK)ni yaratish korpusshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o‘qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, jumladan, Alisher Navoiy MKni takomillashtirish va buning uchun Navoiy ijodiy merosini semantik teglash muhim vazifadir [1]. Korpusni takomillashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1. Alisher Navoiy mualliflik korpusining innovatsion baza va ta’lim resursi sifatidagi ahamiyatini oshirish;

2. Korpus yordamida mumtoz adabiyot materiallari o‘qib-tushunish, o‘quvchilarning badiiy asarni tahlil qilish, shuningdek, lingvistik, adabiy-nutqiy, kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida Alisher Navoiy MK bazasini mazkur ijodkorning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotidagi g‘azallarning semantik bazasi bilan boyitish;

3. G‘azallardagi izohtalab leksik birliklar, jumladan, tarixiy so‘zlarning semantik tavsifini berish va ularning ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

4. Foydalanuvchilarning ma’naviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish maqsadida tarixiy va madaniy mashhur joy nomlari, mashhur shaxslar nomlarini semantik teglash;

5. Alisher Navoiy g‘azallari leksikasining mazmuniy-semantik kategoriyalari tasnifini tuzish [2] tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Mualliflik korpuslarini takomillashtirish texnologiyasi prinsiplari, yangi tipdagi Alisher Navoiy MKdan foydalanishning afzalliklari va uning leksik-semantik teglar bazasiga qo‘yilgan talablar aniqlanib [3], korpusga ma’lumotlarni taqdim etishni konseptuallashtirish tamoyillari nazariy jihatdan asoslandi.

Yangi tipdagi Alisher Navoiy MKni takomillashtirishda asosan, *qoidalarga asoslangan metod* va *statistik metodga* tayanildi. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti mantiqiy mezonlar asosida tartiblagan. Kulliyot 4 devondan iborat, har bir devonda 650 tadan g‘azal joylashtirilgan [4]. Hozirda o‘zbek adabiyotida XV asr tilini tushunish va tadqiq etish uchun Navoiy asarlaridan ko‘p foydalaniladi, shu bois korpus uchun ijodkorning eng sara she’rlari jamlangan ushbu kulliyotdagi g‘azallar semantik teglandi va tarixiy so‘zlar qo‘l mehnati bilan hozirgi o‘zbek tilida kontekstual semantik tavsiflandi.

1.1 Qoidalarga asoslangan metod (Rule-based method)

Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod qilgan. O‘rta asrlardagi o‘zbek tili bilan hozirgi o‘zbek tili katta farqlanishga ega. Unda bugungi kun o‘quvchisi uchun ko‘plab iste’moldan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o‘tgan leksik birliklar mavjud. Ularni biz izohtalab so‘zlar deymiz [8]. Bunday so‘zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko‘rsatish mantiqsizlik hisoblanadi. Hozirda Navoiy davri tilining 60%i bugungi kun o‘quvchisiga tushunarsiz, ya’ni o‘sha davrdagi ko‘plab so‘zlar arxaiklashgan, iste’moldan chiqib ketgan. Natijada Alisher Navoiy asarlarini to‘g‘rida-to‘g‘ri o‘qib tushunish uchun maxsus lug‘atlar talab qilinadi. Korpusdagi Navoiy g‘azallarini o‘qish jarayonida tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarning semantik izohi interaktiv tarzda taqdim etilishi uchun korpus materiallaridagi tarixiy va eskirgan so‘zlar 17 ta lug‘at yordamida kontekstda anglatgan ma’nosi bo‘yicha navoiyshunos mutaxassislar tomonidan

qo‘l mehnatida aniqlab bazaga kiritildi. Masalan, «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotidagi g‘azallarda izohtalab «ganj» so‘zi 65 o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, turli semantik ma’nolarni ifodalab kelgan. E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati»da*»ganj»*so‘zining 6 xil ma’nosi baytlar misolida izohlangan [10]. Aksariyat g‘azallarga *ganj so‘zi* xazina, boylik ma’nolarini ifodalagan, g‘azallarda, shuningdek, boshqa ma’nolarda ham qo‘llangan (1-rasm):



1-rasm. *Ganj* so‘zining semantik ma’nolari.

Korpusdan foydalanuvchi kursorni izohtalab so‘z hisoblangan *ganj* so‘zining ustida harakatlantirsa, misrada qaysi leksik ma’noni anglatib kelishi ma’lum bo‘ladi. Bu innovatsion yondashuv orqali foydalanuvchi shu ondayoq izohtalab so‘z(shakl)ning aniq ifoda ma’nosini anglab oladi. *Ganj l*eksemasi ko‘p ma’noli bo‘lib, semantik teglashda ham misralarda uchragan barcha ma’nolarini hisobga olish zarur. Yana bir misol, 1-jadvalda *subh* so‘zi asosida berildi.

1-jadval. ***Subh*** **leksimasining g‘azallarda ifodalab kelgan ma’nosi**

G‘azal raqami	**So‘z (shakl)**	**Asosi – izohi / ma’nodoshi**	**Misra**
1	subhig‘a	subh – go‘zallik	Ey navbahori orazing subhig‘a jonparvar havo
16	subh	subh – tong	G‘am tuni subh tilarsen, ko‘ngul uz, zaxming ko‘p
39	subh	subh – tong	Subh chun esti sabo, ichkil qadahkim, bo‘lmog‘ung
76	subhi	subh – tong	Jamoling subhi ochib erdi yuz gul
101	subhg‘a	subh – tong	Ne subhg‘a bu sabohat, ne mehr muncha sabih
148	subhin	subh – tong	Vasl subhin to abad ko‘z tutmasun ushshoq aro
161	subhdin	subh – tong	Qamarg‘a subhdin ravnaq, quyoshqa shomdin zevar
170	subhidek	subh – tong	Shomi hijron subhidek bag‘rimni chok etti sipehr
334	subh	subh – yuz yorug‘ligi	Garchi ruxsori erur subhi dilafro‘z, valek

448	subhning	subh – tong	Subhning bir nafase asra damin

Bunday kontekstuallik tamoyilidagi asosiy e’tibor qoida asosida muayyan eskirgan so‘zning kontekstdagi boshqa so‘zlar bilan birgalikdagi ma’nosini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu metod keyinchalik korpus materiallarini N-gram metodi yordamida avtomatik semantik tavsiflashga xizmat qiladi.

1.2 Statistik tahlil metodi

1.2.1 Navoiy g‘azallaridagi hozirgi o‘zbek tiliga oid so‘zlar 40%ni tashkil etishi statistik jihatdan aniqlandi va ularning kontekstual semantikasi o‘rganildi. Tadqiqot natijasida bunday so‘zlarning (masalan, *kitob, olam, dunyo, yer; yosh, quyosh, ko‘z; men, sen, u, biz, siz, ular; sari, uzra*) 15%i maxsus semantik tavsifni talab etmasligi aniqlandi. Masalan, *quyosh* so‘zi nafaqat koinot jismi sifatida, balki *mehr, muhabbat tafti* kabi ma’nolarda qo‘llangan. Demak, bunday ma’nolar o‘z misrasida kontekstual semantik izohini talab qiladi. Qolgan 15% ko‘chma ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar esa korpusda avtomatik tarzda o‘z semantik ma’nosini ifodalash imkoniyati yaratildi.

1.2.2 «Xazoin ul-maoniy» kulliyotidagi 2600 g‘azalda Navoiyning ijod uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, g‘azallarda qo‘llangan so‘zlar ko‘lami, o‘ziga xos yozish uslubi *statistik tahlil* metodi yordamida aniqlandi. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun kulliyotdagi jamiki so‘zlar ikki guruhga ajratildi: 1) tarixiy, eskirgan – bugungi kunda tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar; 2) hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan so‘zlar. Ishning ko‘lami va hajmi 1-jadvalda statistik jihatdan ko‘rsatildi: jadvalda kulliyotdagi 4 ta devon, ularning har biri 650 ta g‘azalga egaligi, g‘azallardagi misralar miqdori, kulliyot bo‘yicha jami so‘zlar va 2600 ta g‘azaldagi jami so‘zshakllar miqdori.

2-jadval. **«Xazoyin ul-maoniy» kulliyotidagi so‘zshakllar miqdori**

«G‘aroyib us-sig‘ar»	650 g‘azal: 4975 bayt – 9950 misra	Jami 75 350 000 ta, g‘azallarda 66 954 ta so‘zshakl
«Navodir ush-shabob»	650 g‘azal: 4998 bayt – 9996 misra	Jami 71 527 000 ta, g‘azallarda 66 596 ta so‘zshakl
«Badoye’ ul-vasat»	650 g‘azal: 5001 bayt – 10002 misra	Jami 71 580 000 ta, g‘azallarda 66 539 ta so‘zshakl
«Favoyid ul-kibar»	650 g‘azal: 5029 bayt – 10058 misra	Jami 75 911 000 ta, g‘azallarda 66 722 ta so‘zshakl
Jami:	**2600 g‘azal: 20003 bayt – 40006 misra**	**Jami 294 368 000 ta, g‘azallarda 266 811 ta so‘zshakl mavjud.**

G‘azallar konseptuallik tamoyi asosida, ya’ni muayyan so‘z o‘zi bilan bir baytda kelgan boshqa so‘zlar qurshovida, baytning asosiy mazmuniga hamohang tarzda ma’lumotlar bazasida semantik tasnifga ega bo‘ldi [9]. 1-jadvaldan ayon bo‘lganidek, tadqiqotimizda Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti devonlarida mavjud 2600 ta g‘azaldagi 266 811 ta so‘zshakl 1.2.1-metod asosida semantik qayta ishlandi. 2-jadvalda korpus bazasida semantik tavsifga va tegga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotga xos adabiy-janriy birliklar statistikasi berildi.

3-jadval. **Alisher Navoiy mualliflik korpusi bazasidagi semantik teglangan birliklar statistikasi**

Teglangan so‘zlar	Maqol	Ibora	Talmeh	Tanosib	Tazod	Tashbih	Tasdir	Tasbe’
266 811 ta	124	92	883	3000 mingdan ortiq	253	124	145	32

Tadqiqot natijasida SQL bazasida g‘azallarga quyidagi ma’lumotlar biriktirildi:

1) g‘azallarning matn tipi;
2) auditoriya yoshi;
3) g‘azalning tartib raqami;
4) misradagi tarixiy, iste’moldan chiqqan so‘z va uning hozirgi semantik izohi alohida maydonlarda berildi;
5) har bir izohtalab so‘zlar ID kodlandi (4-jadval).

Teglash jarayonida Alisher Navoiy g‘azallarida bir misrada muayyan so‘z kollokatsiya holatida kontekstual ma’noni bera olishi, aniqrog‘i, Alisher Navoiy nazarda tutgan ma’no butunligi yuzaga kelishi e’tiborga olinib, muayyan bir ma’noni beruvchi so‘z birikmalari bitta semantik guruhga kiritildi, bunday holda ular bitta belgi bilan kodlanadi. Masalan, 590-g‘azalning «Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni» misrasidagi izohtalab so‘zlar semantik teglanganida maxsus 13536 kod raqami misradagi barcha so‘zshakllariga biriktirib chiqildi. Bu, birinchidan, misrani mashinaga tanitish usuli hisoblansa, ikkinchidan, ushbu satrdagi so‘zlarga berilgan semantik tavsif aynan 13536 kodga ega 590-raqamli g‘azalga mansub semantik izoh ekanligini mashina tushunadi [17].

4-jadval. **Misralarning kodlanishi**

10691	13536	Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni.	590
10692	13537	Dahr bog‘ida nechuk vasl guli butsunkim,	590
10693	13538	Hajr o‘qidur yog‘ini, ashk suyidur juvuni.	590
10694	13539	Gar Navoiy so‘ngakiga tutashur ko‘nglidin o‘t,	590
10695	13540	Ne ajab, ishq o‘tidur ulu bu aning o‘tuni.	590
10696	13541	Ul quyosh oquyda-yu men muztaribmen har sari	591
10697	13542	Uylakim, fonusdin parvona qolg‘ay tashqari.	591

4-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan misradagi: 1) *dayr – dunyo; 2) falak – osmon; 3) eng – yuz; 4) xirqa – eski juldur kiyim; 5) yurun – yamoq* so‘zshakllari 13536 raqam bilan identifikatsiyalangan.

SQL ma’lumotlar bazasidagi yuqorida berilgan maydonlari yordamida Alisher Navoiy mualliflik korpusi [http://alishernavoicorpus.uz/uz]da qidiruv filtri yuzaga keldi. Qidiruv tizimi [15]da kalit so‘z(shakl)ning qo‘llanish o‘rni va chastotasi ko‘rsatiladi.

Ushbu tadqiqotda Alisher Navoiy MK uchun «Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti g‘azallaridagi izohtalab arxaik so‘zlarning semantik tavsiflanishi yoritib berildi.

Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko‘p jihatlari bilan farqlanadi, xususan, g‘azallarda uchragan arxaizm, istorizmlarning hamda ma’no torayishiga uchragan izohtalab leksemalarning tushunarli, o‘qishli bo‘lishini ta’minlash uchun ularni semantik teglash va leksik, morfologik tahlil qilish lozim [14]. Hozirda korpus bazasida ko‘p ma’noli so‘zlarning misralarda ifodalab kelgan har bir ma’no munosabatini fasetli tasnif asosida semantik teglanmoqda. Bunday yondashuv korpus materiallaridagi barcha so‘zlarning semantik guruhiga ega bo‘lib, kontekstual semantikasini to‘g‘ri chiqarishga yordam beradi. G‘azaldagi so‘zlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish orqali shoirning uslubini, so‘zni qo‘llash mahoratini, aniq va to‘liq tarzda, qisqa vaqt ichida bilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.

2. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied LinguisticsISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733

3. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, «Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities,» 2023 8th International Conference on

Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.

4. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 1-4-жилдлар. – Тошкент: Фан, 1959-1960.

6. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Тошкент: Фан, 1977. – B. 56.

7. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences; Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850. 2022.9919546

8. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. DOI: 10.1109/UBMK52708.2021.9558900. – pp. 82-85. Impakt Factor 5.5

9. Abjalova M.A. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 215 b. ISBN 978-9943-7804-5-3

10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – B. 32.

11. Носириддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – B. 271.

12. Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 23.

13. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – B. 721.

14. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va

istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 22.04.2022. – B. 89-93.

15. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 103.

16. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun «Navodur ush-shabob» devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. – Тошкент. ISSN 2181-732472-752024. №1/3/1. – Б.72-76.

17. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston: til va ma’naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B. 14-32.

DIALEKTAL AREAL BAZANING ICHKI TEXNOLOGIK TUZILMASI

Muyassar Abdulhakimovna XOLOVA,
filologiya fanlari falsafa doktori,
Termiz davlat universiteti

Ushbu maqolada areal lingvistika hamda korpus lingvistikasining kesishgan nuqtasi haqida fikrlashilgan. Asosiy e’tibor https://areal.dialect.uz/ havolasida yaratilgan saytdagi onlayn dialectal bazada geostatistik va statistik metoddan foydalanishdagi imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlarning nazariy va amaliyotlar ifodasiga qaratilgan. Mazkur nazariyalar prognozi barcha viloyatlar kesimini qamrashi mumkinligi ta’kidlangan.

Kalit so‘z: *lingvistik geografiya, interaktiv xarita, geografik kesishuv, axborot olish va uzatish, uch bosqichli interfeys*


Dialekt, sheva, lahjalar uzoq tarixli, hududan katta, tuman va qishloqlarda istiqomat qilayotgan, axborot-kommunikatsiya vositalardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan yoki muammoli zonalarning hozirgi kundagi so‘zlashuvlaridan iborat bo‘lib, bunda keksa avlod vakillarining og‘zaki nutqi shevalarni tadqiqida birinchi planga chiqadi [1]. O‘zbek milliy korpusida [2] bir qancha: mualliflik [3], parallel [4], [5], badiiy [6] subkorpuslari ustida olib borilayotgan tadqiqotlar kun tartibiga shevalarni bir korpusga to‘plash, ularning leksikografik, arxiv hamda areal bazalarini tayyorlash muammolarini qo‘ymoqda.

Bugunga qadar shevashunoslikda so‘zlashuv jarayonlarinin yozib olish, izohlash, ularni transkripsiya vositasida ko‘chirish, shevaga oid materiallar orqali dialektning o‘ziga xos xususiyatlarni tadqiq etish yoki shevalar tadqiqotiga bag‘ishlangan monografiyalar, lug‘atlar yaratilmoqda. Shuningdek shevalarnining tarqalish chegaralarini aniqlovchi dialektal atlaslar tuzilmoqda[7].

Fanda *dialektologik atlas* – ajratilgan til, shevaga yoki ularga tegishli birliklarning lingvistik xususiyati areali aks ettirgan albom, kitobning, shuningdek, kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan, maxsus dastur (programma)-so‘rovnoma asosida tayyorlangan shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik kartalarning izchil to‘plami ekanligi ma’lum [8].


Biz o‘zimizning oldingi tadqiqotlarimizda qisman areal bazaning tashqi interfeysi xususida to‘xtalib o‘tganmiz [9]. Areal korpusga ikki xil: foydalanuvchi (admin) va anketa to‘ldiruvchi sifatida kirish mumkin. Quyida biz areal korpusda admin yoki subadmin tomonidan so‘rovnoma tayyorlash ketma-ketligini bayon etamiz. Areal so‘rovnomaga o‘z havolangiz orqali kirar ekansiz, siz uchun tashqi oyna ochiladi: Boshqaruv, so‘rovnomalar, javoblar, mening javoblarim (admin tomonidan olib borilgan so‘rovnomalar tahlili), hisobotlar.

1-**rasm**



Shularning ichidan so‘rovnoma oynasiga o‘tiladi va **«+yangi»** tugmasi vositasida istagancha so‘rovnoma tayyorlash imkoniga ega bo‘lishi mumkin. Admin so‘rovnomani qisqa yoki tugallanmagan muddatga cho‘zish imkoniyatiga ega bo‘lsa, izlash tugmasi ma’lumotni qisqa muddatda taddim etishi mumkin.

2-rasm




Qisqa muddatli so‘rovnomalar tadqiq olib borilayotgan muddatga tegishli bo‘lgan xulosalalarga asos bo‘lsa, uzoq tugallanmagan bir necha yillarni qamrab oluvchi so‘rovnomalar yillar kesimida statistik ko‘rsatkichlar orqali shevalardagi induktiv va deduktiv o‘zgarishlar doirasida xulosalashni ko‘rsatishi mumkin.

Yacheykalar. **«Holat» yacheykasi.**

«kutish» tugmasi. Ushbu yacheyka har bir ekpeditsiya ishtirokchisidan (talaba, tadqiqotchi, olim, proffessor) javoblarni to‘g‘ri va bexato to‘ldirishni talab etadi va biroq biz bilamizki, tajriba maydoni sifatida ishlatilayotgan bu kabi maydonlarda ma’lumot to‘ldiruvchi (talaba) anketaning to‘liq va mukammal to‘ldirgan holatida «kutishda» tugmasi vositasida adminga ko‘rinadi. Ammo anketa to‘ldiruvchi amaliyotni to‘liq o‘tkazmagan holatida admin «tasdiqlash» tugmasini bosib yuborganda ham jarayonning o‘tishiga tizim ruxsat bermaydi, demak dialectal so‘rovnomalarni to‘liq va aniq to‘ldirish talabi bajarilishi lozim.

«amal» tugmasi. Admin tomonidan barcha amalga oshirilgan ishlar tasdiqlangan holatda «amal» tugmasi orqali talabaning so‘rovnomasi qabul qilingani anglashiladi. Agarda admin tasdiqlangandan so‘rovnomada kamchilik (transkriplarda va imloviy xatoliklar) kuzatsa, ushbu so‘rovnomani ro‘yxatdan chiqarishi mumkin.


3-rasm




«harakat» yacheykasi. «harakat» ycheykasida admin uchun **«yashil tugma»** so‘rovnomani to‘ldirish, **«qalam belgisi»** tugmasi to‘ldiruvchi uchun

so‘rovnomalardagi javoblarga o‘zgartirish uchun xizmat qilsa, admin uchun umumiy so‘rovnomadagi xatoliklarni o‘zgartirihga yordam beradi (4-, 5-rasm), adminga **«savatcha»** tugmasi ma’lumot yiguvchining javoblarida ikkilanish yoki tuzatib bo‘lmas xatoliklar ro‘y berganda o‘chirish imkonini taqdim etadi.

4-**rasm**




5-**rasm**



Yangi so‘rovnoma tayyorlash ketma-ketligi:

1. areal.dialect.uz// saytiga admin sifatida kirish.
2. so‘rovnoma oynasiga o‘tish.
3. «+yangi» tugmasini bosish orqali yangi so‘rovnoma tayyorlash uchun ochiladi.(6-rasm)

6-**rasm**




Yangi so‘rovnoma tayyorlashda, avvalo, dialectal so‘rovnomani mavzulashtirish eng maqbul variantlardan biridir. Bu kabi strategiya vositasida bir mavzu doirasidagi shevalar doirasida induktiv va deduktiv tadqiqot olib borish mumkin.

4. Qamrovga nisbatan dialectal so‘rovnomalarga «sarlavha» yacheykasida sarlavha qo‘yiladi va mavzu tarkibida transkriplarning qo‘llanishini hisobga olgan holda maxsus klaviatura ishlatish ehtimoli oldindan ko‘rilgan.

5. «Izoh» yacheykada anketa oluvchi tadqiqotchi dialectal so‘rovnomadan ko‘zlangan maqsadni bayon etadi.

6. Admin dialectal anketani tayyorlashda bir viloyat doirasida olib borishi mumkin yoki bir necha viloyatlarda olib borish mumkin. Dialektologiya fanining nazariyasi bilan tanishayotgan talabalarning mustaqil ta’limlarining ma’lum bir qismlarining mazkur yo‘nalishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shunda talaba o‘z hududining shevalari bilan boshqa hudud shevalarini qiyoslash imkoni tug‘iladi.(7-rasm)

7-**rasm**



7. Admin «Boshlanish» tugmasi orqali dialectal so‘rovnomaning boshlanish vaqtini va «yakunlash» tugmasi orqali tugatish muddati belgilanadi.

8. So‘rovnomani ma’lum bir kishilar uchun chegaralah yoki istagan kishini uchun ochiqligini ta’minlash «barchaga ochiq» tugmasi vositasida amalga oshiriladi.

9. «savol qo‘shish» tugmasi bir mavzu doirasida 1-100 yoki undan ortiq savolnoma tuzish uchun mo‘ljallangan.


10. «tartib raqami» savolning tartib raqami kiritiladi. Ba’zi holatlarda savollar ketma-ketligida o‘zgartirishga to‘g‘ri kelishi mumkin, savolni olib tashlamasdan tartib raqamida o‘zgartirish reprezintativlikdagi ma’lumotlar ketma’ketligiga ta’sirini ko‘rsatadi.

11. «savol matni» yacheykasiga fonetik, leksik, morfologik, sintaktik dialectal birlikka doir savol matni kiritiladi.

12. «savol izohi» yacheykasi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik dialectal birlikka doir so‘rovnomaga oid izoh, tahlil yoki misol kiritilishi uchun ajratilgan.


13. «savol matni», «savol izohi» va «savol turi» yacheykasining «variantlar» qismlarida dialectal birliklarni transkriptlar klaviaturasining mavjudligi simvolikadan foydalanish zaruriyatiga hojat qoldirmaydi. (8-rasm)

8-**rasm**



14. «savol turi» yacheykasi o‘z ichida ikki xil: a) variantli javob; b) yoziluvchi variant tanlash, shuningdek, ikkinchi tanlov ichki 2 ta: qisqa matn hamda uzun matnli javoblarni taqdim etadi. Biroq, ta’kidlash joizki, bu kabi javoblar variantli (eslatma: variantli javoblar geostatistik va statistic tahlilga ega) javoblardan farqli o‘laroq, tahlilida inson faktoriga ehtiyoj seziladi. (9-rasm)


9-**rasm**



Areal korpus uchun so‘rovnomani to‘ldirish:


1. Ma’lumot to‘ldiruvchi e-mail pochta yoki telegram akkaunti vositasida ro‘yxatdan o‘tadi.
2. Tizimning geolokatsiya aniqlash so‘rovnomasiga ruxsat beriladi, ushbu jarayon foydalanuvchining qaysi hududda turib anketa savollariga javob berayotganligini aniqlash talabini qondiradi.
3. «profil» tugmasi vositasida foydalanuvchi ma’lumotlarini tahrirlanadi.
4. «so‘rovnoma» yacheykasidagi yashil tugma orqali admin yoki subadmin tomonidan tayyorlangan izofonema, izoleksema, izomorfemalar haqidagi so‘rovnomalarga o‘tiladi.(10-rasm)

10-**rasm**




5. Ma'lumot yig'uvchi «so'rovnoma» yacheykasida dialektida kuzatilgan izofonema, izoleksema, izomorfemalarni topa olmasa, «boshqa variant» yacheykasida hududiga tegishli bo'lgan diabirlikni kiritadi.
6. Ma'lumot to'ldiruvchining ismi, sharifi, otasining ismi kiritiladi.
7. Respondentning ismi, sharifi, otasining ismi kiritiladi.
8. Respondentning jinsi: ayol, erkak tanlanadi.
9. Respondentning yoshi yoziladi.
10. Respondentning ta'limi: o'rta, o'rta maxsus, bakalavr, magistr, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) haqida ma'lumot tanlanadi.
11. Respondentning lahjasi: qipchoq, qarluq, o'g'uz tanlanadi.
12. Respondentning shevasiga doir ma'lumotlar tanlanadi. (11-rasm)

11-**rasm**




13. O'zbek shevalarining boshqa tillar bilan integratsiyasiga baho berish uchun respondentning millati belgilanadi. (12-rasm)

12-**rasm**



14. Respondentning hududi viloyatlar: Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari va hokazolardagi tumanlarda joylashgan MFY kesimida tanlanadi. Tahlillar makro va mikro geostatistik kesimida olinadi. (13-rasm)

13-rasm



Xulosa o‘rnida shuni aytish joiz, bunda 12 blogdan iborat, jami 90 ga so‘zlikdan iborat, onlayn so‘rovnomalar respondentlar tomonidan to‘ldirish uchun tayyorlangan. Qulaylik jihatlari mazkur so‘rovnomalar nafaqat O‘zbekistonning nafaqat Surxondaryo hududi, boshqa hududlarda tarqalgan shevalar chegarasini belgilash uchun o‘tkazish mumkin.

Areal baza ichki texnologik tizimliligi Surxondaryo viloyati shevalari qo‘llanishida areal, dialektlarning sotsiallashuv darajasi, yosh, gender nuqtalari haqida xulosalash izofonematik va izoleksematik so‘rovnomalar jami tanlov asosida shakllantirildi.

Adabiyotlar

1. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов // Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.

2. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus //of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All). – 2019. – С. 1-4.

3. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)… дис // Бухоро, 2018.–250 б. – 2018.

4. Gronn A. Parallel’nyj korpus v sisteme universitetskikh lingvisticheskikh kursov. – 2015.
5. Abdurasulovich K. R., Rajabovich M. B. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation //International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – T. 8. – №. 5. – С. 388-391.
6. http://uzbekcorpora.uz/
7. Darvishov I.O. «Area study of phonetic and phonological features of South-West Namangan dialects: Doctor of Philosophy (PhD) in Ph. D.» (2018).
8. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? –Toshkent,1981.
9. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.

TARJIMA LUG‘ATLAR UCHUN KORPUS O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Gulasal Bahrom qizi LATIPOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korpusga asoslangan tarjima birligini aniqlash ikki tomonlama bo‘lishi lozimigi, ayrim gaplarni ajratish va ularni struktur birliklarga ajratish to‘g‘ri emasligi misollar bilan keltirilgan, ayrim gaplarning butun yaxlitligi shu gap ustiga qurilgan so‘z turkumlarining ketma-ketligi tashkil qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tarjima lug‘at, korpus, parallel korpus, leksikografiya, avtomatlashtirish, ta’limiy lug‘atlar, matn.*

Tarjima lug‘atlar masalasi so‘nggi o‘n yillikda parallel korpusga asoslangan tarjimashunoslik asoslarining yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib turibdi.

Mona Baker [1,1] o‘zining tadqiqotlarida asliyatdagi va uning tarjima qilingan matnlarning parallel korpusini yaratish korpusga asoslangan tarjima metodologiyasini rivojlantirishi mumkin, degan dastlabki fikrlarni bildirib o‘tadi. O‘tgan asrning 90-yillarida parallel, ko‘p tilli va qiyosiy korpuslarning nazariy masalalariga bag‘ishlangan ilmiy yondashuvlar paydo bo‘la boshladi[2,2]. Olimning 1996-yilda shu mavzuga tegishli maqolasi korpusga asoslangan tarjimashunoslik, *corpus based translation studies* sohasining fan

olamiga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Yevropa tilshunosligi, xususan, leksikografiyasi rivojiga korpus tahlili asosida amalga oshirilgan ishlar sezilarli ravishda hissa qo‘shdi. Bunga ingliz tili Britaniya milliy korpusi va *Brown korpusi* orqali katta hajmli ma’lumotlardan olingan matn fragmentlariga asoslangan ta’limiy lug‘atlarni alohida qayd etish o‘rinli. Oxford, Cambridge, Longman kabi tarjima lug‘atlarning ommaviylashuviga omil bo‘lgan sabablardan biri ham lug‘atda beriladigan maqolalarning grammatik va kontekstologik u yoki bu so‘z haqidagi tushunchani kengroq yoritishga qaratilganligi bo‘ldi.

Manbalarga ko‘ra [3,2], 1990 yilga kelib umumiy 16 ga yaqin korpus mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yevropa tillari uchun 365000000 so‘zdan iborat katta hajmli lingvistik resurs yaratilgan edi. Bu esa katta hajmli lingvistik lug‘atlar yaratish imkonini yaratdi.

Manchester universitetida ilk bor korpusga asoslangan tarjimashunoslik sohasi fan sifatida o‘qitila boshlangan. Ingliz tilining ko‘p manbali hamda monolingval korpus asosida 1996-yillarda ilmiy tadqiqoqtlar olib borildi.

Tarjimaning korpusga asoslangan yondashuvlari chog‘ishtirma tahlil, tilning sohada qo‘llanishi, xorijiy tilni o‘qitish, terminologiya va kompyuter lingvistikasi uchun mustahkam aloqa o‘rnatdi.[4,4]

J. Munday [1,5] sistem funksional tilshunoslik, korpus lingvistikasi, madaniyatshunoslik sohalarini (1997) parallel korpusda tarjimani tahlil qilishning nazariy asoslarini asoslashga harakat qilgan.

Unga ko‘ra, Gabrial Garsiya Marksning ispan tilidagi hikoyalari asosida amalga oshirilgan. Dunyo tillari doirasida shotland, nemis tillarida yaratilgan badiiy asarlar asosida yaratilgan parallel korpuslarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Skot o‘zining ilmiy kuzatishlarida asliyatdagi va tarjima qilingan matnlarda ishtirok etgan inkor formasining uslubiy jihatlarini parallel korpus asosida tahlilga tortgan.

Gavioli va Zanettin [4,8] tomonidan talabalar uchun tarjima amaliyotida italyan-ingliz chog‘ishtirma kursida tibbiyot sohasiga doir matnlar bilan ishlashda parallel korpusdan foydalanishga doir tadqiqotlar olib borishgan. Unga ko‘ra o‘quvchilarning soha doirasidagi bilimini aniqlash, tibbiyot sohasiga tegishli ilmiy matnlar strukturasiga doir ilmiy bilimga ega bo‘lish, sohaviy terminlar bo‘yicha lingvistik termin haqida ma’lumotga ega bo‘lish kabi masalalarni korpus orqali hal qilish imkoniyatlari o‘rganilgan. Ayniqsa, KWIC, ya’ni konkordans orqali so‘zlarning vertikal shaklda berilgan ma’lumotlar orqali lingvistik bilimlarni olishda korpusning instrumenti sifatidagi ahamiyati alohida qayd etilgan.

J. Vinay tarjima birligi sifatida alohida tarjima qilinmaydigan yagona tarjima birligi sifatidagi birliklar nazarda tutilishini e’tirof etadi [5,9]. Tarjima

birliklari bu tarjima qilinayotgan tilning modeli asosida uning qoliplariga mos ravishda tarjima muqobili tanlanadi.

Biroq tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) tarjima birligi biroz kengroq tushuniladi. Masalan, google translatorni misol sifatida tahlilga tortsak uning leksikografik nimadan tashkil topgani va nima uchun asliyatdagi tarjima birliklar soni tarjima qilinayotgan tarjima tilga aynan mos kelmasligi biz uchun qiziq. Bu borada L. Bowker [1,10] tarjima birligi sifatida quyidagi: «tarjimon xotirasida mos tarjima birligi sifatida saqlanuvchi asliyatdagi matn segmenti»ga nisbatan ta’rif beradi.

Tijorat tarjima tizimlarida ikki til o‘rtasidagi gap deb aniqlanuvchi tarjima muqobillarini tarjima birligi sifatida tushunish qabul qilingan.

Tarjima juftliklarining muqobillari parallel korpusda saqlanadi. Gap darajasidagi tarjima muqobillari tarjima modellari uchun degment birlik sifatida aniqlanadi. Muqobillik so‘z darajasida, fraza darajasida yoki gap darajasida bo‘lishi mumkin. Bu borada J. Veronius [2,11] asliyatdagi matn va tarjima matn o‘rtasidagi muqobillik birma-bir bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. So‘z o‘rtasidagi tarjima juftliklari muqobillarini aniqlash murakkab jarayon sanaladi.

Korpusga asoslangna tarjima jarayonida tarjima birliklarini aniqlash borasidagi fikrlar xilma-xil. Korpus lingvistlari tadqiqot olib borgani kabi matn mazmuni birligi masalasi tarjimadagi leksik birliklar darajasida anilqashning ilmiy asoslarini M. Beyker [3,12] va K. Deyrell [4,13] ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi tushunchalar Daniel va Sinkler ishlarida ham o‘z ifodasini topgan. Ularning nuqati nazaricha, monolingval tahlil asosida amalga oshiriladigan tarjima tarjimaning umumiy mazmunini aks ettirish kerak. Bu asosan tarjima qilinayotgan matnda o‘z ifodasini topadi.

Tarjima jarayoni parallel korpusdagi asliyatdagi va tarjima qilinatyotgan matndagi muqobil birliklari qanday aniqlanadi, tarjima mazuni va alohida birliklarni tahlil qilish masalasi juda ko‘p olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Ayrimlarida tarjima birligi masalasi tahlil birligi bilan (NLPda) tenglashtirilsa, ba’zilarda kognitiv jihatdan to‘g‘ri emasligi tarjima va asliyatdagi matnlar asosan lug‘at birliklarini birlamchi ekanligini qayd etishadi.

Bizningcha, korpusga asoslangan tarjima birligini aniqlash ikki tomonlama bo‘lishi lozim. Birinchidan ayrim gaplarni ajratish va ularni struktur birliklarga ajratish to‘g‘ri emas, chunki ayrim gaplarning butun yaxlitligi shu gap ustiga qurilgan so‘z turkumlarining ketma-ketligi tashkil qiladi. Ayrim gaplarda u yoki bu so‘z omonimiyani hosil qiladi. Bu holatda har bir so‘z so‘z segmentlash jarayonidan o‘tkazilishi hamda statistik ko‘rsatkichiga qarab tarjima juftligi muqobillari aniqlanishi lozim.

Korpus bilan tarjima yo‘nalishlarini Kaibao Hu [1,14] uch yo‘nalishga ajratadi:

1. Tarjima xususiyatlarini korpus asosida tahlil qilish.
2. Tarjima me’yorlarini o‘rganishda korpusga asoslangan yondashuv.
3. Tarjima jarayoni uchun korpusga asolangan tahlil.

Korpusga asoslangan tarjima lug‘atlarni yaratishda mana shu uchinchi yondashuv qo‘l keladi. Tarjima lug‘atlar uchun ularning tarjima birliklarini aniqlash juda muhim sanaladi. Muqobil juftliklar asliyat va tarjima matnlar o‘rtasidagi ekvivalentlarini yoki tarjima munosabatlarini belgilshda muhim sanaladi va ularning darajasi so‘z, gap, parograf va hatto gapga teng kelishi mumkin. Aukland universitetida Mikail Barlov tomonidan yaratilgan ParaConc dasturiy ilovasi 80% anilqlikda tarjima muqobillarni anilqashga yordam beradi. Shunday bo‘lsa-da so‘zlarning ketma-ketlikda muqobillarning aniqlashning imkoniyati yo‘q. Buni inson resursi orqali yoki sun’iy intellect asosida katta hajmdagi parallel korpuslar yordamida amalga oshirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Baker, M. 1993. Corpus linguistics and translation studies: Implications and applications.In Text and technology: In honour of John Sinclair, ed. M. Baker, G. Francis and E.Tognini-Bonelli, 233-250, Amsterdam: John Benjamins

2. Munday J. Corpus-Based Translation Studies Research and Applications (Edited by Alet Kruger, Kim Wallmach and Jeremy Continuum Advances in Translation Studies–P.19

3. Jeremy Continuum Advances in Translation Studies - P. 16.

4. Blum-Kulka, Shoshana and Eddie A. Levenston (1983) ‘Universals of Lexical Simplifi cation’, in Claus Faerch and Gabriele Kasper (eds) Strategies in Interlanguage Communication, London: Longman, 119–39.

5. Chesterman, Andrew (2004) ‘Hypotheses about Translation Universals’, in Gyde Hansen, Kirsten Malmkjær and Daniel Gile (eds) Claims, Changes and Challenges in Translation Studies, Amsterdam: John Benjamins, 1–13.

6. Gavioli, Laura and Federico Zanettin (2000) ‘I Corpora Bilingui nell’Apprendimento della Traduzione. Rifl essioni su un’Esperienza Pedagogica’, in Silvia Bernardini and Federico Zanettin (eds) I corpora nella didattica della traduzione. Corpus Use and Learning to Translate, Bologna: CLUEB, 61–80.

7. Vinay, Jean-Paul and Jean Darbelnet (1958) Stylistique Comparée du français et de l’anglais, Paris: Didier and Montréal: Beauchemin. — (1995) Comparative Stylistics of French and English. A Methodology for Translation [translated and edited by Juan C. Sager and M.-J. Hamel], Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins.

8. Bowker, Lynne and Jennifer Pearson (2002) Working With Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora, London and New York: Routledge

9. Kay, Martin (2000) ‘Preface’, in Jean Véronis (ed.) Parallel Text Processing. Alignment and Use of Translation Corpora, Dordrecht, Boston and London: Kluwer Academic Publishers, xv–xx.

10. Baker, Mona (2004) ‘A Corpus-Based View of Similarity and Difference in Translation’, International Journal of Corpus Linguistics 9(2): 167–93.

11. Dayrell, Carmen (2004) ‘Towards a Corpus-Based Research Methodology for Investigating Lexical Patterning in Translated Texts’, Language Matters 35(1): 70–101.

12. Kaibao Hu Introducing Corpus-based Translation Studies, Shanghai Jiao Tong University Press, 2011. –P. 7-8.

TURKIY TILLAR UCHUN YARATILGAN TEZAURUSLAR TAVSIFI

Lobar Jamoladdin qizi BABAJANOVA,
Urganch davlat universiteti,
tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi tayanch doktoranti

Ushbu maqolada turkiy tillar uchun yaratilgan tezauruslarning har tomonlama tavsifi berilgan bo‘lib, ularning tarixiy rivojlanishi, asosiy xususiyatlari, tuzilishi va lug’aviy jihatlari hamda ularni tuzishda duch kelingan qiyinchiliklar va muammolar atroflicha o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar*: Turkiy tillar, tezaurus, kompyuter leksikografiyasi, raqamli manbalar, indeksatsiya, NLP.*

Tezaurus lingvistik tadqiqotlarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va ma’lumotni semantik indeksatsiya qilish va qidirishda yordam beradigan strukturaviy lug’atlar ro‘yxatini taklif qiladi. Turkiy tillar kontekstida tezauruslarni ishlab chiqish va qo‘llash, terminologiyani tartibga solish va standartlashtirishga xizmat qiladi, akademik va madaniy sohalarni yaxshiroq tushunishni ta’minlaydi va muloqot jarayonini osonlashtiradi.

Olimlar turkiy tillar uchun tezaurus tavsifiga turli metodologiyalar va nazariy asoslar orqali yondashib, tilshunoslik, madaniy va hisoblash jihatlariga e’tibor qaratganlar. Asosiy tadqiqotlar ushbu leksik resurslarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishini ta’kidlaydi.

Jumladan, A.Sundetovaning izlanishlari tojik va boshqa turkiy tillar uchun tezaurus yaratish va qo‘llashda muhim ahamiyatga ega. Uning ishi, birinchi navbatda, an’anaviy lingvistik usullarning zamonaviy hisoblash texnikasi bilan integratsiyasini o‘rganadi, bu esa raqamli muhitda tezaurusning funksionalligi va foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, Tohir Gozutok o‘z ilmiy tadqiqotlarida turkiy tillar uchun tezaurusdagi semantik tuzilmalar va ko‘p tilli lug’atlarning ahamiyatini ta’kidlab o‘tgan. Uning tadqiqotlari sinonimiya va giponimiya kabi semantik munosabatlarning ushbu tezauruslar ichida qanday qo‘llanilishi va ifodalanishini tushuntiradi va izohlaydi. Ushbu munosabatlarni o‘rganish orqali Gozutok bir qator turkiy tillarning ichki semantik tuzilishini kengroq tushuntirishga harakat qiladi va tezaurusda kerakli ma’lumotlarni qidirish imkoniyatlarini oshiradi [4, 210-235].

Turkiy tillarda yaratilgan tezauruslar ustida ish olib borgan yana bir olima G.Babayeva turkiy tillardagi tezauruslarning madaniy va tarixiy o‘lchovlarini xronologik tarzda o‘rganadi, bu manbalarning ijtimoiy-madaniy tushunchalar va vaqt o‘tishi bilan til evolyutsiyasida qanday aks ettirishini tahlil qiladi. Uning tadqiqotlarida leksik birliklarning kengroq madaniy doiralarda kontekstuallashtirilishi muhimligi ta’kidlanadi, bu esa tezauruslarning nafaqat lingvistik vositalar, balki madaniy manbalar sifatida ham xizmat qilishini ta’minlaydi. Babayevaning tadqiqotlarida atamalar qo‘llanilayotgan ijtimoiy-madaniy kontekstlar tahlil qilinib, til va madaniyat o‘zaro bog’liqligi haqida tushunchalar keltiriladi[1,89-112].

Turkolog A.Xasanov turkiy tillar uchun kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da tezauruslarning qo‘llanilishini o‘rganadi. Uning tadqiqotlari raqamli muhitda ma’lumotlarni qidirish hamda matn tahlilining aniqligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan semantik noaniqlik va bilimlarni namoyish qilish kabi muhim muammolarni hal qiladi.

Yana bir filolog N. Esenovaning tadqiqotlari ta’lim va akademik sharoitlarda turkiy tillar uchun yaratilgan tezauruslarning amaliy tatbiq etilishi va foydalanilishiga qaratilgan. Uning tadqiqotlari markazida foydalanuvchi interfeyslari, foydalanuvchi tajribasi va platforma dizayninini yaxshilash masalalari yotadi, bu esa tezauruslarning foydalanuvchilarga yanada qulay bo‘lishini ta’minlaydi. Esenova o‘z tadqiqot doirasini yanada kengaytirish va darajasini kuchaytirishda tezauruslarni raqamli kutubxonalar bilan integratsiya qilish jarayoni muhimligini ta’kidlaydi[3, 145-169].

Aynan, til va madaniyat o‘rtasidagi bu murakkab o‘zaro bog’liqlik turk tili tezauruslarining o‘ziga xos belgilaridan biri sanalib, undaki har bir leksik birlik turkiy tilda so‘zlashuvchi elatlarning hayot tarzini va o‘tmish xotiralarini yoritib beruvchi ko‘zgu vazifasini bajaradi.

Turkiy tillar uchun tezaurusning yaratilishi va rivojlanishi ham til boyligini, ham madaniy xilma-xillikni aks ettiruvchi sezilarli natijalar berdi. Ushbu tezauruslar tilga doir tadqiqotlarni yaxshilaydigan, ta’lim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydigan va raqamli ilovalarni osonlashtiradigan strukturaviy leksik ma’lumotlar bazalarini taqdim etadi.

Turkiy tillar uchun tezaurus yaratish bir qancha yutuqlarni ham, shu bilan birga qator muammolarni ham o‘z ichiga oladi. Muhim yutuqlardan biri - bu keng qamrovli leksik ma’lumotlar bazalari yordamida kengaytirilgan lingvistik tadqiqotlardir. Ular turkiy tillarning tuzilishi, rivojlanishi va mintaqaviy o‘zgarishlari haqida qimmatli ma’lumotlar berib, ularni saqlash va hujjatlashtirishga yordam beradi.

Ta’lim nuqtai nazaridan oladigan bo‘lsak, tezaurus so‘z boyligini standartlashtirib, tilni o‘qitishni yaxshilash uchun ajralmas manbaga aylandi. Raqamli kutubxonalar va ta’lim platformalari bilan integratsiyalashuv ularning ta’sirini yanada kuchaytirdi va o‘rganishni yanada qulay va samarali qildi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida tezauruslar semantik noaniqlik va bilimlarni ifodalashni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini birmuncha osonlashtirdi. Bu yaxshilanishlar turkiy tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasida yanada to‘g’riroq tarjima qilish, his-tuyg’ularni tahlil qilish va kengroq axborot olish imkonini berdi.

Biroq, tezauruslarni ishlab chiqish va amalga oshirish qator muammo qiyinchiliklardan holi emas, albatta. Barcha shevalar va mintaqaviy o‘zgarishlarni har tomonlama qamrab olishni ta’minlash hamon chigal va qiyin vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, atama va tushunchalarning madaniy ahamiyati va kontekstga mosligini saqlab qolish uchun ona tilida so‘zlashuvchilar va madaniyat sohasi mutaxassislari bilan doimiy hamkorlik qilish zarur.

Turkiy tillar uchun tezauruslar tilshunoslik tadqiqotlari, ta’lim va raqamli ilovalarga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, keltirilgan muammolarni hal qilish, doimiy rivojlanish va takomillashtirish zarurati hamon mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turkiy tillar uchun tezaurusning rivojlanishi lingvistik tadqiqotlar, ta’lim va raqamli ilovalarni sezilarli darajada ilg’orlashtirdi. Ushbu keng qamrovli leksik ma’lumotlar bazalari turkiy tillarning ma’no boyligi va madaniy kontekstlarini aks ettiruvchi strukturaviy lug’atlarni taqdim etish orqali ularni tushunish va anglashni ta’minlaydi. Ta’lim nuqtai nazaridan, tezauruslar standartlashtirilgan lug’atdan foydalanishni va tilni samarali o‘qitishni qo‘llab-quvvatlaydi, qolaversa tabiiy tilni qayta ishlashda esa ular semantik ma’no va bilimlarni namoyish qilishga ko‘maklashadi.

Ushbu yutuqlarga qaramay, barcha dialektlarni har tomonlama qamrab olishni ta’minlash va madaniy dolzarblikni saqlashda qator muammolar

mavjuddir. Ushbu manbalarni qayta ishlash uchun ona tilida so‘zlashuvchilar va madaniyat sohasiga oid mutaxassislar bilan doimiy hamkorlik qilish va fikr almashish zarur sanaladi. Bundan tashqari, tezauruslarni foydalanuvchilar uchun yanada qulayroq qilish uchun qator chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak.

Umuman olganda, turkiy tillar uchun yaratilgan tezauruslar turkiy tillarning boy me’rosi raqamli dunyoda bardavom qolishiga hissa qo‘shib, til hayotiyligini, madaniyatini saqlash va tillararo muloqotni targ’ib qiluvchi bebaho vositalardir.

Adabiyotlar

1. Babayeva, G. Cultural and Historical Perspectives in the Development of Turkic Language Thesauri. Turkic Studies Review. Turkic Studies Review, 2020, 89-112-b
2. Esenova, N. Usability and Implementation of Turkic Language Thesauri in Academic Settings. Educational Research and Development, 2018,145-169-b.
3. Gözütok, T. Semantic Structures and Multilingual Thesauri for Turkic Languages. International Journal of Language and Linguistics, 2021,210-235-b.

ABDURAUF FITRAT ASARLARI KORPUSINI TEGLASH XUSUSIDA

Mavjuda Xalimjon qizi ALIMBEKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Ushbu tezisda Fitrat asarlari korpusini teglash masalalari tadqiq etildi. Jahon korpusshunosligida lingvistik va ekstralingvistik teglash tamoyillari va unga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z yuritildi. Shuningdek, Fitrat mualliflik korpusi matnlari uchun metama’lumot yozish o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *teg, lingvistik izoh, metama’lumot, Fitrat asarlari korpusi, ekstralingvistik teglash.*

Lingvistik korpuslar elektron kutubxona, elektron lug‘at, elektron matnlar bazasidan matnlarning lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlar bilan teglanganligi jihatidan farqlanadi va bu xususiyati matn ustida turli topshiriq va amallarni bajarish imkoniyatini beradi.

Tag — ishora, belgi degan ma’noni anglatadi, taglash – inglizcha tagging so‘zidan olingan bo‘lib, tilga oid har bir birliklarni ramzlashdir. Bunga so‘z turkumlari bo‘yicha – morfologik teglashni misol qilish mumkin: *Chin (sifat) o‘rtoqlar (ot) kishining (ot) qayg‘ularini (ot) ko‘tarib (fe’l), dardlarini (ot) emlamoq (fe’l) uchun (ko‘makchi) kerakdir(modal so‘z)*. (Abdurauf Fitrat)

Matndagi leksik birliklarga izoh yozish annotatsiyalash deyiladi. Matndagi har bir so‘zning turkumiga xos bo‘lgan xususiyatlari keldim so‘zshakli misolida «Fe’l, harakat fe’li, birlikda, I shaxs, o‘tgan zamon…» kabi izohlanadi.

Rus korpusshunosligida V.P.Zaxarov, B.Kutuzov, S.A.Sharov, L.V.Severyuxina, V.V.Rikovning korpus matnlarini teglash masalalari xususidaga izlanishlarida ushbu masala atroflicha yoritilganligini «Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish» o‘quv qo‘llanmasi mualliflari ta’kidlaydi va bu boradagi ta’riflarni umumlashtirgan holda: «Lingvistik annotatsiya yoki korpus razmetkasi (ing. Linguistiv markup) atamasi korpusga matnning qismi bo‘lmagan, lekin shu matnga biriktirilgan qo‘shimcha ma’lumot (metaaxborot)», — deb xulosa qiladi [1, 127].

Matnni teglashning ikkita turi mavjud: *lingvistik va ekstralingvistik izoh*dir.

Lingvistik izohlashda matndagi til birliklari lingvistik xususiyatalariga ko‘ra izohlanadi, ya’ni so‘zshaklning grammatik, semantik, sintaktik xususiyatlari ko‘ra, lemmalar o‘z va o‘zlashgan qatlami, tarixiy yoki eskirgan so‘zligi haqidagi ma’lumotlar teglar – maxsus belgilar shaklida korpusga kiritiladi. Bu foydalanuvchilarga, tadqiqotchilarga qulayliklar yaratadi.

Ekstralingvistik izoh – metama’lumot, metaizoh, metadata deb ham ataladi. Metama’lumot ma’lumot haqidagi ma’lumotdir. Bunday izohlashda korpusga kiritilgan matn, manbaning nomi, muallifi, qachon yozilgani, janri, qaysi uslubda yozilgani, qachon nashr etilgani, qaysi nashrda chop etilgani, adabiy turi, matnninng mazmuni jihatidan qaysi yoshdagi auditoriyaga xosligi, qaysi soha vakillariga tegishliligi kabi ma’lumotlar teglanadi. Metama’lumot korpusdagi matnlarning xususiyatlarini tavsiflaydi va har bir manba uchun o‘ziga xos tarzda bo‘ladi. Metama’lumotlarning batafsil yozilishi ahamiyatlidir. Bu orqali foydalanuvchi ma’lum bir manbaning o‘z maqsadlariga mos kelishini manbani o‘qib chiqish yoki foydalanishdan avval aniqlay oladi.

Metama’lumot raqamli resurslarni tavsiflash uchun zarur bo‘lib, u orqali resursning ma’lum bir so‘roqqa aloqador yoki aloqador emasligini aniqlashga xizmat qiladi. Jahon korpusshunoslari muayyan mavzular uchun metama’lumotlarning standart to‘plamlarini yaratishga urunishlar bo‘lib, Dublin asosiy metama’lumotlar tashabusi (DCMI) bo‘lib, unda har qanday raqamli ma’lumotlarni tavsiflash uchun yetarli bo‘lgan 15 ta metama’lumotlar

toifasi taklif qilindi. Shuningdek, tilshunoslik hamjamyati uchun aniqroq tuzilgan metama'lumotlar sxemalariga Matnni kodlash tashabbusi (TEI), Ochiq til arxivlari jamiyati (OLAC) va ISLE metadata tashabbusi (IMDI) kiradi [2]. Burnard metama'lumotni quyidagicha tasniflaydi:

1. Tahririy (editorial) — matn haqidagi tahririyat ma'lumotlari: muallif, manba, nashr etilgan sana, nashriyot nomi kabilar.

2. Tavsifiy (klassifikator) — matnning uslubi, janri, sohasi kabi tavsiflovchi ma'lumotlar.

3. Hujjatli ma'lumotlar (administrative) — uning mavjudligi, qayta ko'rib chiqish holati kabilar.

4. Analitik — annotatsiyaning turli darajalari.

5. Statistik — so'zlar, lemmalar, tokenlar, gaplar, iboralarning statistikasi [3, 81].

Lingvistik izohlashning morfologik, semantik, sintaktik (parsing), anaforik, prosodik, diskurs, stilistik kabi tiplari mavjud. Tilshunos M.Abjalova ushbu izohlashlarni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilishni tavsiya etadi:

– Nazariy jihatdan an'anaviy (neytral) izohlash — katta lingvistik korpuslarni teglash spetsifikasidagi birliklarni umumfoydalanish uchun asos qilib olish;

– Lingvistik tushunchalarning umumiy qabul qilingan tizimi — xalqaro belgi va ramzlardan foydalanish;

– Parametrlarni samarali kiritish;

– Xalqaro standartlarga rioya qilish [4, 349].

Ushbu prinsplar korpus matnlaridan foydalanishni qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Abdurauf Fitrat asarlari korpusi uchun kiritilgan matnlar ekstralingvistik izohlar bilan teglab chiqildi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

«Abulfayzxon» dramasi uchun islangan metama'lumot

Muallif	Abdurauf Fitrat
Yashagan yillari	1886—1938
Asar nomi	«Abulfayzxon»
Yozilgan yili	1924-yil
Adabiy turi	Dramatik tur
Janri	Pyesa
Uslubi	Badiiy
Qo'llanish sohasi	Omma uchun
Manba	Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild

Nashriyoti	«Ma’naviyat» nashriyoti
Nashr yili	2000-yil
So‘zshakllar soni	3616 ta
Lemmalar soni	1296 ta

Fitrat asarlari korpusining lingvistik izohi xususida. Fitrat asarlari tiliga xos bo‘lgan grammatik, leksik va fonetik xususiyatlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidan farqli o‘rinlarga ega ekani teglash jarayonida biroz qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Fitrat mualliflik korpusi matnlari leksik qatlamlarga ko‘ra teglab chiqildi. Teglash jarayonida noma’lum qatlamga oid so‘zlar, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, o‘zbek shevalariga xos birliklarning ham faol qo‘llanilganligiga guvoh bo‘ldik. Shuningdek, tarixiy so‘zlar (istorizm), eskirgan so‘zlar (arxaizmlar), o‘zbek tilining sofligi uchun kurashgan jadidlar tiliga xos bo‘lgan, ammo bugungi kunda iste’molda mavjud bo‘lmagan yasama so‘zlarning mavjudligi alohida izohni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, korpus matnlarini teglash korpus yaratishdagi eng ahamiyatli bosqichdir. Uning ko‘lami alohida elementlarni yorliqlash va identifikatsiya qilish, lingvistik komponentlari bilan bog‘liq murakkab til hodisalarini ko‘rsatishni qamrab oladi. Fitrat asarlari korpusi matnlarini lingvistik teglash ushbu davrda ijod qilgan boshqa ijodkorlarning asarlari korpusini yaratish va tilini tadqiq etishni qulaylashtiradi.

Adabiyotlar

1. Zaxarov V., Mengliyev B., Hamrayeva Sh. Korpus lingvistikasi: Korpus tuzish va undan foydalanish. — Toshkent: Fan, 2021. – B. 167.

2. Burnard L., Metadata for corpus work. Developing Linguistic Corpore: a Guide to Good Practice.

3. Koeva S., Stoynova I., Leseva S., Dimitrova T., Dekova R., Tarpomanova Y. The bularian National corpus: Theory and Practice in Corpus Design // Journal of Language Modelling, 2012. – P. 65-10.

4. Abalova M. Korpus birliklarini teglash va annatatsiyalash masalasi // Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. — Toshkent, 2023. – B. 345-351.

INTERNET MULOQOTIDA EMOJI TILI

Shohista Azamjon qizi XOLDOROVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek tilini
o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

XXI asr – fan va texnika taraqqiyoti insonlarning aloqa-munosabat o‘rnatishining yangi davrini ham ochib berdi. Ming yillar davomida vizual

shakllangan muloqot jarayoni yangi o‘lchamlarda namoyon bo‘la boshladi. Muloqot jarayoni endi internet vositachiligidagi vaqt va chegara bilmas tarmoq messenjerlariga o‘tdi. Ushbu maqolada internet vositachiligidagi messenjerlar orqali namoyon bo‘luvchi muloqot jarayonida paralingvistik vosita sifatida axborot tashuvchi emojilar va ularning ahamiyati xususida bahs boradi.

Kalit so‘zlar: *Diskurs, messenjer, paralingvistika, emoji, stiker, telegram, smayl, gif, memlar, Xarvi Boll.*

Tarmoq messenjerlarida nutq aksariyat yozma shaklda namoyon bo‘ladi. Yozma nutqning imkoniyati og‘zaki nutqqa qaraganda biroz cheklangan bo‘lib, so‘zlovchining hissiy munosabatlari va ruhiy holati to‘liq namoyon etilmaydi.Lekin hozirda muloqotni ta’minlovchi messenjerlarda yana bir muhim funksiya borki, unda so‘zlovchining munosabatlarini yoki tinglovchining javob reaksiyasini verbal vositalardan, ya’ni so‘zlardan tashqari har xil ko‘rinishdagi noverbal vosita vazifasini bajaruvchi belgilarning ham mavjudligidir.Bunday shakllarni umumiy nom ostida noverbal yoki paralingvistik shakllar deb atasak ham bo‘ladi.

Paralingvistik vositalar internet muloqotining ustun jihati sifatida qo‘shimcha axborot xususiyatiga ega bo‘lishi bilan birga pragmatik funksiyalarni bajarishi bilan ham tobora ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortmoqda. Ularning matn va diskursdagi o‘rni va roli borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda [2,77].

Internet vositachiligidagi muloqotda foydalaniladigan paralingvistik vositalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Emojilar: Har xil yuz ifodalari, tur xil predmetlar, hayvonlar va boshqa belgilar orqali kayfiyat, his-tuyg‘ular va holatlarni ifodalaydi.

2. Stikerlar: Ko‘p xabar almashish dasturlari (Telegram, WhatsApp) ichida turli xil rasmli belgilar orqali his-tuyg‘ularni ifodalash.

3. GIF va memlar: Qisqa animatsiyalar va suratlar orqali hissiy holat ifodalari.

4. Matnni shakllantiruvchi vositalar:

– Katta harflar: Baqirish yoki ta’kidlash ma’nosini berish uchun ishlatiladi.

– So‘zlarni cho‘zish: So‘zlarni cho‘zib yozish (masalan, «saaloooom») his-tuyg‘ularni yoki muayyan kayfiyatni ifodalaydi.

– Tinish belgilari: Bir necha undov yoki savol belgilarini ketma-ket qo‘yish (masalan, «Nima?!!»), ko‘p nuqta (...) qo‘yish

5. Qisqartmalar va akronimlar: Muayyan hissiyot yoki holatni tez ifodalash uchun

Bu vositalar suhbatdagi his-tuyg‘ularni va ma’noni aniqroq yetkazishga yordam beradi va internet orqali muloqotni jonli va samimiy qiladi.

Bu kabi noverbal vositalar suhbatdoshlarni bir-birini aniq va maqsadli tushunishlarida katta ahamiyat kasb etadi.Quyida ularni kengroq tahlil qilib o‘tamiz:

Elektron muloqotda eng faol qo‘llaniluvchi noverbal vosita bu – emojilar hisoblanadi. Emoji (yaponcha so‘zdan olingan bo‘lib, yaponcha: 絵 — „rasm» va 文字 – „belgi», talaffuzi: [emodzi]) elektron xabarlar va veb-sahifalarda qo‘llanilish uchun ishlatiladigan piktogrammalardan iborat ideogrammalar tilidir. So‘zlar o‘rniga rasmlar kombinatsiyasi foydalanish (ideogramma – grafik dizayn tili), eng avvalo, Yaponiyada paydo bo‘ldi va sekin-asta butun dunyoga tarqala boshladi [5].

Jahon tilshunosligida emoji va stikerlarning axborot almashishdagi ahamiyati borasida bir qator ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Bularga R.V.Kojina, P.D.Nakostik, M.A.Pavlov, Y.V.Skrabets, E.B.Kitova, Y.S.Pigina, Y.N.Galichkina, Y.Y.Anisimova, A.L.Latipova, M.K.Viktorovich, N.A.Nekrasovalarning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin. O‘zbek tilshunosligida ham bu borada yaqin yillarda ilmiy izlanishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham tadqiqot maydoniga aylanib, takomil topib bormoqda.

Xususan, rus tadqiqotchisi Kojina R.V «emoji tili» tushunchasi haqida batafsil ma’lumot beradi. «Emoji – bu tilshunoslar tomonidan «paralingvistika» deb ta’riflangan zamonaviy muloqotning muhim qismidir [3,140]. «Emoji» tilining umumiy tushunchalari P.D.Nakostikning ilmiy tadqiqotlarida ham keltirilgan. «Emoji bu – grafik ideogrammalar va kulgichlar tili bo‘lib, unda so‘zlar o‘rniga rasm birikmalari qo‘llaniladi [1,145].

Emojilar shakliy har xillikka ega bo‘lib,ularning har biri uzatilayotgan matnni aniqroq ifodalashga ko‘mak beradi. Masalan, emojilar asosan: yuz shakllari (smayl) ko‘rinishida kaft va barmoq tasvirlari, jins va yosh ko‘rinishini ifodalovchi belgilar, kasblarni ifodalovchi kiyim-boshli tana, ta’qiq va rozilikni ifodalovchi qo‘l harakatlari, hasharotlar, mevalar, ichimliklar, tabiat hodisalari, bayroqlar va boshqa turli ko‘rinishlardagi belgilardan iborat bo‘ladi.Ushbu belgilar yozma suhbat jarayonida muloqotning tushunarli va aniq yetkazilishida qo‘shimcha vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek suhbatdoshlarning bir-birlarini to‘g‘ri va maqsadli anglashlariga xizmat qiladi.

Emojilarning eng keng shakliy varianti smayliklar (kulgichlar) hisoblanadi. Dastlab kulgichlar tasviri paydo bo‘lgan bo‘lib, keyinroq bu tasvirlar ommalashgandan so‘ng elektron yozma muloqotlarda ham qo‘llanila boshladi. «Smaylik» – inglizcha «smile» kulmoq so‘zidan olinganiga qaramay, u nafaqat xushchaqchaq qiyofa, balki xo‘mrayish, yig‘lash, hayratlanish kabi hissiyotlarni ifodalashga ham xizmat qiladi.

Ularning tarixi 1950-yillarga borib taqaladi. «Smaylik»lar amerikalik rassom Xarvi Boll tomonidan chizilgan. Ular sug‘urta kompaniyalar uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, maqsad xodimlarning kayfiyatini ko‘tarish va motivatsiya berish edi. So‘ng Nyu-Yorkdagi radiostansiya tinglovchilar orasida tanlov e’lon qilib, g‘olibga dumaloq shakl va sariq rangdagi «smaylik» larni sovg‘a qildi. Demak, u paytdagi ramz faqat birgina hissiyot – xursandchilikni ifodalagan. Biroz vaqt o‘tgach shved rejissori Ingmar Bergman filmlaridan birida «smaylik» ning hafa qiyofasini yaratdi. Shuningdek, ramzli hissiyotlar reklama roliklarida ham bo‘y ko‘rsata boshladi [4].

Demak kulgichlar emojilarga qaraganda ancha avval yuzaga kelgan bo‘lib, yangi tipdagi emojilarning yaratilishiga asos vazifasini bajargandir. Kulgichlar turli xildagi yuz qiyofasi shaklida bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ular emojilar tarkibiga biriktirib yuborilgan. Smayliklar deganda odatda yuz qiyofasi shaklidagi belgilarni tushunsak, emojilar nisbatan kengroq tushuncha sanalib,uning tarkibiga turli shakldagi piktogrammalar kirishi mumkin. Hozirda ular bir turkum sifatida talqin qilinadi.

Emojilardan internet chatda noverbal vosita sifatida nutqimizni aniqroq tushuntirishda yoki axborotga tinglovchi sifatida munosabat bildirishimizda keng foydalanamiz.

Masalan,


–Dildora. G‘ayratjon tabriklayman,himoyada 100% ovoz oling !!! Yutuqlaringiz davomli bo‘lsin! 👏👏👏

-G‘ayrat. 🤲

Ushbu chatda xabar yuboruvchining tabrigiga qabul qiluvchining tashakkur mazmunidagi javob reaksiyasi, qisqagina ochilgan kaftlar bilan chegaralanyapti. Aslida, «rahmat, tilaklaringiz amalga oshsin», mazmunidagi javob bildirilishi kerak bo‘lib, tinglovchi qisqa usuldan foydalandi. Odatda kommunikatsiya jarayonida aksariyat kommunikantlar shu kabi belgilar bilan fikr bildirishmoqda. Bu esa nutqiy qisqalikni ifodalab, qabul qiluvchining ruhiy hissiyotini ham ifodalashga yordam beradi. Shuningdek misoldagi «ochiq kaft» « ilohi omin» – birikmasining ramziy belgisi hisoblanadi..

Hozirgi internet taraqqiyoti davrida blogerlik kasbi paydo bo‘ldi va u bilan shug‘ullanuvchilar soni ham kun sayin ortib bormoqda. Shuningdek kasb-koridan tashqari ko‘plab insonlar ijtimoiy tarmoq va messenjerlarda o‘z kontentlarini namoyish etib, «virtual ofis»larini yaratishmoqda. Ular asosan tarmoqlarda kanal yuritib, muntazam yangiliklarni namoyish etib borishadi. Bunda kommunikativ muloqot yagona so‘zlovchi, minglab tinglovchi o‘rtasida kechadi. Quyidagi misolimiz ham tarmoq messenjerlarida ko‘p sonli

auditoriyaga ega bo‘lgan «Xushnudbek o‘ta shaxsiy» kanalidan olinib, tahlilga tortiladi.



Bu yerda muallifning futbolchilarning libosi haqidagi axborotga munosabati aks ettirilgan bo‘lib,matnning *«Ko‘kini kiyadimi, oqini kiyadimi farqi yo‘q, baribir ertaga.....»* qismida ko‘p nuqtaning qo‘yilishida pragmatik ma’no aks ettirilgan. Ya’ni muallif bildirmoqchi bo‘lgan markaziy fikr aniq oshkor aytilmagan bo‘lib, uni o‘quvchi qanday qabul qilishi o‘ziga bog‘liq. Futbol haqida xabari bor tinglovchi jumlada kesatiq, piching mazmuni aks ettirganligini sezib turadi.

Qo‘llanilgan ko‘p nuqta ham matn mazmuniga qo‘shimcha yuk beruvchi noverbal vosita vazifasini bajargan. Qavs ichida keltirilgan jumlada esa bittagina kulib turgan smayl qo‘yilgan va bu gap mazmuniga tub burilish yasagan. Agar shu kulgich qo‘yilmaganda edi, to‘g‘ri ma’nodagi «qo‘llab-quvvatlash» mazmuni anglashiladi. Kulgich bir qator yashirin pragmatik ma’nolarni aks ettiradi:

–qaysi libosda o‘ynashidan qat’iy nazar baribir mag‘lub bo‘lishini;

–birinchi jumlaning hazil ekanligini;

–muxlislar har doim futbolchilarimizni olqishlashlarini.

Shuningdek matn yakunida uni o‘quvchi auditoriyaning ushbu fikrga munosabatlari ham aks ettirilgan. Ayni telegram tarmog‘ining shu funksiyasi bir qator afzalliklarga ega bo‘lmoqda. Ko‘rishimiz mumkinki, 1295 ta o‘quvchi bu jumlaga kulgi tarzida reaksiya bildirishgan, 5 kishi esa yig‘lagan emoji ko‘rinishida hafalik holatini aks ettirishgan, 5kishi ushbu fikrlarga yuz foiz qo‘shilishlarini bildirishgan, 110 kishi zo‘r belgisi bilan tasdiqlagan bo‘lsa, 12 kishi esa pastga qaragan barmoq bilan norozilik kayfiyatini namoyish etishgan.Albatta, bunday belgilar tarmoq muloqotining eng samarali usuli bo‘lib, axborot yo‘llovchi va qabul qiluvchilarning munosabatlarini yanada soddalashtirib beradi. Matn oxirida 854 kishi esa yozma shaklda sharh (kommentariy)bildirishgan.

Internet yozma muloqotida emojilar asosan quyidagi hissiy holatlarni ifodalash yoki yozishmani jonlantirish uchun keng qo‘llaniladi:

1. Quvonch yoki kulgu: 😄, 😂, 😊

Bugungi tadbir zo‘r o‘tdi! 😄

2. Xafa yoki qayg‘u: 😢, 😔, 😞

–Men yolg‘iz qolamanmi.. 😔

3. Ajablanish yoki hayrat: 😲, 😮,

Nahotki,shunday bo‘lsa..... 😲

4. Muhabbat yoki mehr: ❤️, 😍, 💕

– Sizga mehrim boshqacha ❤️

5. Tasdiqlash yoki rad etish: ✅, ❌, 👍, 👎

– Siz bu dasturni qo‘llab-quvvatlaysizmi?

_ ✅

6. Qiziqish yoki o‘ylash: 🤔, 😐, 🧐

– Bu masala haqida o‘ylab ko‘rishim kerak. 🤔

Emojilar va smayliklar ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatilsa-da, ularning farqlari bor:

1. Smayliklar:

– Kelib chiqishi: Smayliklar dastlab klaviaturadagi belgilar yordamida yaratilgan oddiy yuz ifodalari bo‘lib, ular matnli xabarlar orqali his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ishlatilgan.

– Ko‘rinishi: Smayliklar faqat belgilar ketma-ketligidan iborat. Masalan, **:)** (tabassum), **:(** (g‘amgin yuz), **:))** (kulayotgan yuz).

Xushnudbek - o‘ta shaxsiy
Natijalar chiqibdi, post yozishim bilan :)) (telegram kanaldan)

– Format: Smayliklar harf va belgilarni ketma-ketligidan tashkil topgan va ko‘p hollarda rasm shaklida ko‘rsatilmaydi.

2. Emojilar:

– Kelib chiqishi: Emojilar Yaponiyada paydo bo‘lgan va keyinchalik butun dunyoda ommalashgan. Ular matnli xabarlarni boyitish uchun ishlatiladigan rangli piktogrammalar yoki ikonalardir.

-– Ko‘rinishi: Emojilar rangli, grafik ko‘rinishda va kengroq shakllarda ifodalanadi.

– Format: Emojilar «Unicode» standarlarida belgilar sifatida kodlangan va ko‘p platformalarda grafik shaklda ko‘rsatiladi.

Umuman olganda, smayliklar oddiy belgilar ketma-ketligi bilan ifodalanadi, emojilar esa rangli va grafik piktogrammalar bo‘lib, kengroq va chuqurroq ma’nolarni ifodalash imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, og‘zaki muloqotda bo‘lgani kabi internet vositachiligidagi elektron yozma muloqot jarayonida ham nutqni ta’sirchan,ifodali qilib yetkazishga xizmat qiluvchi nutqqa yondosh paralingvistik vositalar quyidagi afzalliklarni yaratadi:

– Vaqtni tejash va matnni muxtasar holda ifodalash.
– Muloqot ishtirokchilarining hissiy kechinmalarini aniq ifodalash.
– Matnga o‘ziga xos joziba bag‘ishlash.
– Muloqot jarayoniga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlash.

Albatta, yuqoridagi piktogrammik belgilardan foydalanishning o‘z o‘rni va chegarasi mavjuddir. Hissiy belgilar asosiy tarkibiy qism emas, balki ziravorlardir. Xabaringizga mushk qo‘shish uchun sizga ozgina miqdori kifoya [6]. Ulardan asosan norasmiy yozishmalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Накостик П.Д. Смайлы (эмодзи) как современный способ общения / Накостик П.Д. //

2. Muxabbat Madaminova.Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni.Monografiya. . –Toshkent, 2017. – 77-bet.

3.Кожина Р.В. Эмодзи как часть современной коммуникации / Кожина Р.В. // XX Юбилейная всероссийская научно-практическая конференция молодых ученых, аспирантов и студент. Сборник научных трудов по итогам XI Межвузовской научно-практической конференции. – 2019.с-145

тов: материалы конференции. – 2019.с-140

4.https://ict.xabar.uz/uz/startap/istoriya-elektronnx-smaylikov#:

5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Emoji. *Alex Hern*. Don’t know the difference between emoji and emoticons? Let me explain, The Guardian

6.https://vk.com/@nekrasovrlib-etiket-emodzi

7.https://ict.xabar.uz/uz/startap/istoriya-elektronnx-smaylikov#:

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDAGI ISMLARNI RAQAMLASHNING LINGVOKULTUROLOGIK-TARIXIY JIHATLARI

Latofat Ne’matulla qizi OMONDAVLATOVA,
Termiz davlat universiteti

Ushbu maqola rivojlangan texnologiyaga asoslangan raqamli dunyoda keng muloqot vositasi hisoblangan tabiiy tillardagi isimlarning, asosan otlarning raqamlanish sababi, imkoniyatlari, ijobiy va salbiy jihatlari, qo‘llanilish kontekstlari, madaniy ta’siri va bu masalaning lingvokulturolgik xususiyatlari shu jumladan boshqa sohalar tarix, sotsiologiya, madaniyat, huquq, falsafa bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlarimizni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *kompyuter lingvistikasi, texnologik integratsiya, rasmiy va g‘ayri rasmiy kontekstlar, tartiblash, shaxsiylik va ma’naviy qadriyatlar, tarqalganlik zonasi va madaniy nuanslar.*

Dunyo tilshunosligining rivojlanishi yangi yo‘nalishlarning maydonga kelishi bizga tilshunoslikning aniq fanlardan matematika, informatika bilan ham bevosita va bilvosita aloqada ekanligini ko‘rsatdi. Vaholanki, til algebrasi, hisoblash lingvistikasi tushunchalari bizga begona emas. Kompyuter lingvistikasi Lingvokulturologiya kabi fanlar bilan tanish tilshunosni dastlab tilning qachon va qanday paydo bo’lgani haqidagi fikrlar o’ylantirgani kabi tilimizda yoki dunyo tilshunosligida mavjud ayrim leksemalar anig’iroq aytadigan bo’lsak otlarning bugungi kunda bir qarashda kodlash kabi ko’rinadigan raqamlanish tarixi, sababi, imkoniyatlari haqida o’ylashga va izlanishga undaydi. «Kompyuter lingvistikasida tabiiy va sun’iy til tushunchalari o‘zaro farqlanadi. Tabiiy til-insonlar o‘rtasidagi kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalar uchun xizmat qiladigan tildir. Sun’iy til-tabiiy tilni qayta ishlash, formallashtirish asosida matematika, informatika va tilshunoslik sohalari kesimida shakllantirilgan, kompyuter va inson o‘rtasidagi munosabatni ta’minlaydigan bevosita kompyuter xotirasiga kiritiladigan va kompyuterning lingvistik doirasida funksiyalarini amalga oshirishda foydalaniladigan tildir»[5, 12]. Berilgan ma’lumot asosida raqamlash amaliyotini sun’iy tilning bir ko‘rinishi deyishimiz mumkin.

Kompyuterlarning keng tarqalishi raqamli dunyo hukmronligi bilan birga ismlarni raqamlash ham tez sur’atlar bilan kengayib bormoqda. Bu jarayonni turli sohalarda, shu jumladan, mahbuslar, tashkilotlar, avtoulovlar va h.k.da kuzatish mumkin. Ushbu jarayonning ijobiy jihatlari bizga qanday imkoniyatlar beradi.

1.Kodlash:

Ismlarni raqamlash tarix davomida turli madaniyatlarda mavjud bo’lgan. Qadimgi Misrda hatto insonlarni raqamlash amaliyoti keng tarqalgan bo’lgan va Misr raqamlari dastlab (mil.avv. 3000-2500 y.y) rasmli belgilar ya’ni leksemalar bilan ifodalangan va bugungi kunga kelib raqamlash kodlashning bir shakli hisoblanmoqda. Masalan, «davlat xavfsizlik xizmati, moliyaviy xavfsizlik, mahbuslarni identifikatsiya qilish, tizimli boshqarish uchun ishlatiladi va xavfsizlikni, tezkorlik va samaradorlilikni ta’minlaydi» [3, 10] shu bilan birgalikda tarixdan bugunga qadar yanada shakllangani bilan ahamiyatlidir.

2.Tartiblash:

Isimlarni raqamlashning bu shakli nomidan ma’lum bo‘lganidek tartiblashni ta’minlaydi. Misol sifatida do‘kon rastalarini, avtoulovlarni

raqamlash yo‘nalishni va mahsulotlarni mijozlarga oson topishlariga imkon beradi.

3.Qulaylik.

Bu holat esa oddiygina qulaylik uchun. Telefon raqamlari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi hisob raqamlar odatda tasodifiy raqamlar to‘plami bo‘lishiga qaramasdan ularni oson eslab qolish va foydalanish hamda boshqarish uchun qo‘llaniladi. Ahamiyatli jihati shundaki qaysi tomondan qarashimizga ko‘ra ijobiy tomonlari bo‘lganidek masalaning salbiy jihatlari ham mavjud.

Ismlarni raqamlash ba’zi o‘rinlarda atoqli otlarga nisbatan hurmatsizlikni aks ettirishi mumkin. Bu holat insoniylikka oid masalalarda ko‘zga tashlanadi va insonlarni anonimlashtirishga yoki individual shaxsiyatining e’tiborsiz qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Misol o‘rnida banklar yoki kasalxonalarda navbat kutish uchun sizning ismingiz emas raqamingiz bilan navbat olinadi va sizni o‘sha raqam bilan chaqirishadi. Ba’zi madaniyatlarda ismlar muqaddas, chuqur ma’noga ega deb qaraladi va qadriyatlarga nisbatan hurmatsizlik foizini oshiradi.

«1.Kamsitish, insoniylikni e’tiborsiz qoldirish:

Inson qadr-qimmatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, mahbuslarga «nomer» bilan murojaat qilish.

2.Madaniy qadriyatlarning yo‘qolishi:

Ismlarni raqamlash madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun raqamlash ushbu ahamiyatning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin»[3, 10]. Inglizlar bu amaliyotdan keng foydalanishadi va amaliy, tizimli boshqaruvning bir shakli sifatida qarashadi. Inglizlarda isimlarni raqamlash quyidagi kontekstlarda uchraydi.

1. Rasmiy yozuvlar va hujjatlarda. Hukumat, tashkilot hujjatlari, tibbiy ma’lumotnomalar kabi.

2. G‘ayrirasmiy yoki rasmiy bo‘lmagan kontekstlarda:

Sportchilarga beriladigan raqamlar ularni oson aniqlash va kuzatib borish uchun imkon bersa, qulaylik maqsadida ba’zi maktablarda o‘quvchilarga o‘qish raqamlari beriladi. Oilaviy nomlar ya’ni farzandlarni o‘g‘il «birinchi», «ikkinchi» yoki «to‘ng‘ich» kabi nomlanish oila tarixi va an’analari bilan bog‘liq. Ismlarni raqamlash amaliyoti rus tilshunosligida u qadar keng tarqalmagan. Bu etnik nuanslar bilan bog‘liq.

IX asrda yuzaga kelgan sharqiy arab raqamlari va nol faqatgina arifmetik belgi hisoblanmasdan xalqlarning diniy va dunyoviy milliy-madaniy ko‘rsatgichi ham sanalgan. Xususan sharq madaniyatining etnik xazinasi hisoblanmish maqollar, matallar, aforizmlar, folklor namunalarida uxhbu jarayonning yaqqol guvohi bo‘lishimiz mumkin. Misol uchun «Yigit kishiga qirq hunar ham oz» maqolida qirq raqami ijobiy ma’no bo‘yoqdorligiga ega va ko‘plik ma’nosini beradi. «Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yildan keyin ham

chiqadi» maqolida esa salbiy ma’no bilan birgalikda taxminiy ko‘plikni ifodalamoqda. Ammo biz keltirayotgan namunalar barcha xalq ya’ni til vakillari uchun bir xil emas albatta. Chunki, bu kabi etnik birliklarning ko‘pchiligi muqobilsiz leksikaning tarkibiga kiradi va bir-biriga mos kelmaydi. Raqamga diniy ba’zi o‘rinlarda xurofot ba’zi o‘rinlarda esa etnik an’analar bilan bog‘liq qarashlar mavjud va ular tarixga borib taqaladi. Tarixdan bugunga qadar saqlanib kelayotgan omadli-omadsiz, muqaddaslik, yovuzlik, o‘lim ramzlarini tashiydigan raqamlar xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Xristianlarda 13 soni hosiyatsizlik belgisi agar bu sana haftaning juma kuniga to‘g‘ri kelsa la’natlangan kun sifatida qabul qilingan. «Hindlarda 1,3,8 raqamlari hosiyatsizdir va juma kunlari ular mollarini sotishmaydi. Yaponlar uchun 4, Xitoyliklar uchun 4, 58 raqamlari o‘lim kabi salbiy semantik sonlarga aylangan»[2, 49]. Ular bu raqamlar bilan bog‘liq har bir narsadan uzoqroq yurishga harakat qilishadi. Aslida esa bu qarashlar lingvokulturologiya, psixologiya, etnolingvistika bilan bog‘liq til vakillarining asosli va asossiz qarashlaridir va ular hali til egalari hayotida uzoq yashashi mumkin. Balki, biz yuqorida aytib o‘tganimiz kompyuter asri va har bir voqelikka real qarashlar bu jarayonni u qadar uzoq davom etishiga yo‘l bermas ammo isimlarni raqamlash, integratsiyalash amaliyotini jadalashtirishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Abdurayimov A.O., Nabiyeva D.A. Raqamlar – «Olam tili»ni ifodalovchi obyekt (maqola). Academic research in educational sciences (SJIF) 2021:5.723. 17 b.

2. Ekrem Tufan, Bahattin Hamarat. Ug‘ursiz sayilar etkisi (maqola). IMKBDergisi Cilt:11Sayi:41. 1997. Ekrem Tufan, Bahattin Hamarat. Ug‘ursiz sayilar etkisi (maqola). 64 s.

3. «The Language of Numbers: The Evolution of Counting and Arithmetic» by Georges Ifrah (1998). 180 b.

4. «The Semantics of Number» by Stephen Levinson (2000)

5. Xolmonova Z.T. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent:
– 2019. 247 b.

6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). –Toshkent, 2019. – 248 b.

NUSRATULLO JUMAXO‘JA MUALLIFLIK KORPUSINI YARATISHNING XRONOLOGIK-LINGVISTIK ASOSLARI

Shohista Islom qizi AKRAMOVA,
ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korpus lingvistikasi, xususan, mualliflik korpuslari va ularning xronologik jihatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Nusratullo Jumaxo‘janing davriy nashrlarda chop etilgan maqolalari xronologik-lingvistik jihatlarining korpus yaratishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘z:. *korpus lingvistikasi, mualliflik korpusi, xronologik-lingvistik ahamiyat.*

Korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta’minot asosida joylashtirilgan online yoki offline tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi. Til korpuslari – til bo‘yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun inkor etib bo‘lmas ish quroli. U oddiy elektron kutubxonadan farqlanadi. Elektron kutubxonaning maqsadi – xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi badiiy va publitsistik asarlarni nisbatan to‘liq qamrab olish. Til korpusi elektron kutubxonadan farqli o‘laroq, tilni o‘rganish va tadqiq qilish uchun zarur, foydali va qiziqarli matnlarni to‘plashni nazarda tutadi.

Texnika-texnologiyalarning rivojlanishi sababli XX asrga kelib Jahonda tabiiy tillar jarayoni (NLP) ni tadqiq etish ancha yuqori pog‘onaga chiqdi. Shu barobarda kompyuter lingvistikasi sohasida ham samarali izlanishlar olib borildi. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tilshunoslikka oid turli izlanishlarni samarali va sifatli amalga oshirish uchun yirik hajmli va tizimlashtirilgan matnlar jamlanmasidan iborat korpuslar yaratildi. Bu korpuslarning yaratilishi nafaqat tilshunoslik, balki boshqa bir qancha sohalarda ham izlanishlar, tadqiqotlar olib borishga yo‘l ochib berdi. Shu tariqa kompyuter lingvistikasi sohasida korpus lingvistikasi deb atalgan yirik bir yo‘nalish bo’y ko‘rsatdi.

Hozirgi kunda butun dunyoda bir necha turdagi korpuslar yaratilib, alohida soha sifatida o‘rganilmoqda. Mana shunday korpus turlaridan biri bu mualliflik korpusidir.

Mualliflik korpusshunosligining asosiy vazifasi va mualliflik korpuslaridan foydalanish sabablari quyidagicha:

– muayyan ijodkor shaxsini o‘rganish;

– adib uslubini tadqiq etish;

– muayyan shoir ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
– ijodkorning so‘z qo‘llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;
– mualliflik lug‘atlarini yaratish;
– mualliflik iboralarini jamlash;
– MKdagi ijodkor shaxsi va uslubini namoyon etuvchi parametrlar orqali anonim asarlar muallifini topish;
– mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo‘llanilish ko‘lamini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo‘ladi [1,171].

Mualliflik korpusi mualliflik leksikografiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli mualliflik leksikografiyasining taraqqiyot darajasi korpus lingvistikasi bilan ikki tomonlama munosabatda: birining taraqqiyotini ikkinchisining rivojisiz ko‘rib bo‘lmaydi [2,115]. Mualliflik korpusi milliy korpusda bo‘lgani singari doimiy yangilab borishni talab qilmaydi: bir marta tuziladi, to‘ldirish, tuzatib borishga ehtiyoj qolmaydi. Mualliflik korpusi to‘liq matnli korpus sifatida e’tirof etilishiga sabab shuki, mualliflik korpusida bir muallif ijodi to‘liq qamrab olinadi hamda butun ijodiy merosi (asar matni to‘liq olinadi) kiritiladi. Xronologik jihatiga ko‘ra diaxron bo‘lib, buni tushunish uchun strukturaviy tilshunoslikning markazida joylashgan sinxroniya va diaxroniya o‘rtasidagi asosiy farqni tushunish zarur. Sinxroniya – bu tilni ma’lum bir vaqtda o‘rganish bo‘lib, unda grammatika, lug‘at va talaffuzda aniq o‘zgarishlar bo‘lmasa, “lahza”, hatto bir necha o‘n yillar davom etishi mumkin. Diaxroniyaga kelsak, u tilning rivojlanish jarayonida, odatda, uzoq davrlarda, hatto bir necha asrlarni qamrab olgan evolyutsiyasini ochib beradi. Biroq Adam Palovskiy o‘zining “Chronological corpora: Challenges and opportunities of sequential analysis. The example of ChronoPress corpus of Polish” maqolasida ta’kidlashicha: NLP vositalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan korpus tadqiqotlari vaqt o‘zgaruvchisiga nisbatan ancha moslashuvchan yondashuvni ta’minlaydi, chunki ularning tipografiyasi, imlosi va grammatikasiga mos keladigan matn namunalari ularning aniq nashr sanalari bilan izohlanishi mumkin [3,312]. Keyinchalik ilmiy tavsif so‘z shakllarining faraziy proto-tildan boshlab hozirgi holatgacha bo‘lgan evolyutsiyasiga emas, balki muayyan leksemalarning (yoki boshqa segmentlarning) vaqt bo‘yicha chastotasi o‘zgarishi dinamikasiga qaratiladi.

Demak, korpusning xronologik jihati deganda vaqt o‘qi bo‘yicha keyingi nuqtalarga (masalan, haftalar, oylar va h.k.) to‘g‘ri keladigan imlo va grammatika nuqtayi nazaridan mos keladigan matn namunalari ketma-ketligi tushunilishi kerak. Bunday korpus vaqt qatorlari tahlili usuli yordamida leksema chastotalarining ketma-ket davrlarda o‘zgarish dinamikasini o‘rganish imkonini beradi. Agar korpusdagi har bir

ma’lumotning yaratilgan sanasi ma’lum bo’lsa, matnning uslubiy xususiyatlari statistikasini vaqt o‘tishi bilan rivojlanishini aniqlash mumkin. Agar matn xronologiyasi qisman noma’lum bo‘lib qolsa, stilometrik tadqiqotlar sanasi ko‘rsatilmagan asarlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirishga yordam beradi.

Ayni damda biz o‘z oldimizga Nusratullo Jumaxo‘janing davriy nashrlarda chop etilgan asarlarining mualliflik korpusini yaratishning xronologik-lingvistik jihatlarini izohlashga harakat qilamiz. Korpusning boshqa adabiyotlar yoki janrga emas aynan gazetalarga asoslanganining asosiy sababi undagi maqolalar sanasi aniqligi va nashrdan chiqarilishi davomiyligidadir. Bu bizga maqolalarda qo‘llanilgan so‘zlarning stilistik jihatini davr nuqtayi nazaridan o‘rganish imkoniyatini beradi.

Ishimizning obyekti sifatida biz Hozirda biz Nusratullo Jumaxo’janing turli gazetalarda chop etilgan maqolalarni skanerlab, txt formatga o‘tkazmoqdamiz. Gazeta metama’lumotiga gazeta chop etilgan sanasi, maqolaning sarlavhasi, muallifi, uslubi va shu kabi ma’lumotlar kiritilgan.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida https://uzancorpara.uz bazasida Nusratullo Jumaxo‘ja asarlari korpusi yaratiladi. Ushbu tadqiqot kelgusida terminologik bilimlar bazasi, amaliy tilshunoslikning o‘rganish obyekti vazifasini bajaradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek korpus lingvistikasida Nusratullo Jumaxo‘ja asarlari mualliflik korpusining yaratilishi NLP (tabiiy tillar jarayoni) ning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Xususan, ushbu korpus tadqiqotchilarga tilimizdagi so‘zlarning ma’lum vaqt oralig‘idagi qo‘llanilish darajasi va uslubiy jihatlarini o‘rganish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlari natijalari kelajakda xronologik lingvistik korpuslar yaratish yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlarga asos vazifasini ham bajarishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mengliev B., Hamroeva Sh. Mualliflik korpusining maqsad va vazifalari / Til va adabiyot ta’limida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2018. – B. 170-172.

2. G‘ulomova N.S. Mualliflik korpuslarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati. /Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2022. B. 113-118.

3. A. Pawlowski, “Chronological corpora: Challenges and opportunities of sequential analysis. The example of ChronoPress corpus of Polish,” in *Conference: Digital Humanities 2016*, 2016, no. July, pp. 311–313.

BIZNES DISKURSINING LINGVISTIK TAHLILI

Mukaddas Tog‘ayevna QODIROVA
TerDPI dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslikda diskurs, xususan biznes diskursi tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda biznes diskursning turlari, lingvistik xususiyatlari va diskursiv belgilari haqida batafsil ma’lumot keltirilgan hamda maqolada biznes diskursda xushmuomalalik strategiyalarining qo‘llanilishi faktik materiallar bilan asoslangan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, maqolada biznes diskursini tartibga solishda pragmatik konventsiyallikning roli ham ko’rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *biznes diskurs, jargon va texnik til, diskurs belgilari, janr va tuzilma*.

Biznesning dinamik dunyosida samarali muloqot muvaffaqiyatning asosidir. Korporativ muhitda yozma va og‘zaki muloqotning turli shakllarini o‘z ichiga olgan biznes diskursi lingvistik tahlil uchun boy maydondir. Biznes kontekstlarida ishlatiladigan tilni o‘rganish orqali biz tashkilot madaniyati, kuch dinamikasi va muloqot strategiyalari haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkin. Ushbu maqola biznes diskursining lingvistik tahlilini o‘rganish bilan birga, uning asosiy tushunchalarni tasvirlashni ham maqsad qiladi.

Biznes diskursi tilshunoslik sohasida so‘nggi vaqtlarda o‘rganish dolzarb masalalar sarasiga aylanib bormoqda. Biroq, T.A. Shiryaeva ta’kidlaganidek, “biznes diskursi” tushunchasining yagona talqini yo‘qligi va uning tipologiyasining rivojlanmaganligini, biznes diskursi muloqot nuqtai nazaridan hali to‘liq kompleks tahlil qilinmaganligi va tizimiy xususiyatlar izchil o‘rganilmaganligi [3; 54-55-b] mavzuni hamon dolzarbligini saqlaydi. Ushbu diskurs muammolari asosan professional sharoitlarda keng tarqalgan o‘ziga xos til va muloqot amaliyotiga qaratilgan. U biznes maqsadlariga erishish, korporativ qadriyatlarni yetkazish va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni osonlashtirish uchun tildan qanday foydalanilishini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Rus tilshunosi V.I. Karasikning fikricha, “... biznes diskursi tadbirkorlarning kasbiy faoliyati bilan chegaralanib, muhokama qilinayotgan biznes masalasi bo‘yicha o‘zaro manfaatli kelishuvga erishish uchun olib boriladigan nutqdir” [1; 9-b.].

L.P.Naumenko esa, biznes diskursining quyidagi asosiy tushunchalarini belgilaydi: *BUSINESS* (ish, biznes) makro tushunchasi bilan birlashtirilgan *BUSY* (faol, band), *ENTERPRISE* (tadbirkorlik), *MANAGE* (boshqarish), *MARKET* (bozor), *PROFIT* (foyda) kabilarni [2; 40-44-b.]. Biznesning asosiy maqsadi - foyda olish - biznes diskursi ishtirokchilarining (biznesning ijtimoiy instituti vakillari va uning mijozlari o’rtasidagi) o'zaro ta’siri orqali erishiladi.

Biznes diskurs – uchrashuvlar, muzokaralar, elektron pochta xabarlari, hisobotlar, taqdimotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zaro aloqalar va boshqalar kabi keng ko‘lamli muloqot shakllarini o‘z ichiga olgan biznes kontekstida tildan foydalanishni anglatadi. Maqsadga yo‘naltirilganligi, rasmiy yoki yarim rasmiy ohang, maxsus lug‘at va ishontirish usullaridan strategik foydalanish bilan ajralib turadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, biznes diskursi *elektron pochta xabarlari, hisobotlar, uchrashuvlar, taqdimotlar, muzokaralar* va *norasmiy suhbatlar*ni o‘z ichiga oladi. Ushbu shakllarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega va turli maqsadlarga xizmat qiladi:

Elektron pochta xabarlari (e-mails) – ko‘pincha rasmiy va qisqacha ma’lumotni tez va samarali yetkazishga qaratilgan.

Hisobotlar (reports) – ular ma’lum bir biznes natijasini ko‘rsatish uchun tuzilgan bo‘lib, ma’lumotlar va tahlillarni hujjatlashtirish va taqdim etish uchun ishlatiladi.

Uchrashuvlar – interaktiv va dinamik, real vaqt rejimida muzokaralar olib borish va qarorlar qabul qilish.

Taqdimotlar – ishonchli va ma’lumot beruvchi, auditoriyaga ta’sir qilish va xabardor qilish uchun mo‘ljallangan nutq.

Muzokaralar – strategik va hamkorlikka asoslangan, o‘zaro manfaatli kelishuvlarga erishishga qaratilgan nutq.

Biznes diskursida bir nechta lingvistik xususiyatlar ayniqsa ajralib turadi:

Xushmuomalalik strategiyalari – kasbiy munosabatlarni saqlab qolish va yuzga tahdid soladigan xatti-harakatlarni yumshatish uchun ishbilarmonlik muloqoti ko‘pincha xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanadi. Masalan, bilvosita tildan foydalanish, himoya qilish va rasmiy sarlavhalar. Masalan: *Agar bizga savdo ko‘rsatkichlarini jo‘nata olsangiz* ***juda manun bo‘lardik***; *Biz sizning firmangiz bilan hamkorlikda ishlashdan* ***boshimiz ko‘kga yetadi***.

Quvvat dinamikasi – til tashkilotlar ichidagi ierarxik tuzilmalarni aks ettiradi va mustahkamlaydi. Boshliqlar buyruq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tildan foydalanishi mumkin, bo‘ysunuvchilar esa ko‘proq hurmatli shakllardan foydalanishi mumkin. Masalan: “*Iltimos, ushbu hisobotni kun oxirigacha to‘ldirib bera olasizmi*?

Jargon va texnik til – mutaxassislar o‘rtasida aniq va samarali muloqotni osonlashtiradigan ixtisoslashtirilgan lug‘at biznes sharoitida keng tarqalgan. Masalan: *SERP reytingimizni yaxshilash uchun SEO strategiyamizni optimallashtirishimiz kerak.*

Diskurs belgilari – biznes muloqotida diskursni tashkil etuvchi va mavzu yoki urg‘udagi o‘zgarishlarni bildiruvchi so‘zlar va iboralar keng tarqalgan. Masalan: *Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, choraklik ko‘rsatkichlarimiz kutilganidan ziyoda bo‘ldi*.

Janrga xos konventsiyalar – biznes diskursining turli janrlari tuzilishi, ohangi va uslubi jihatidan muayyan konventsiyalarga amal qiladi. Misol uchun: Hisobotdagi ijro xulosasi odatda qisqa formatdagi asosiy xulosalar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Biznes diskursining asosiy lingvistik xususiyatlariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

Janr va tuzilma: elektron pochta xabarlari, hisobotlar va taqdimotlar kabi turli xil biznes aloqa janrlari o‘ziga xos tuzilma va konventsiyalarga ega. Tilshunoslar ushbu janrlarni ularning o'ziga xos xususiyatlarini va samarali muloqotni qanday osonlashtirishini tushunish uchun o‘rganadilar.

Leksik tanlovlar: Biznes nutqida ishlatiladigan lug‘at ko‘pincha ixtisoslashgan va kontekstga xosdir. Bunga jargon, texnik atamalar va professionallik va tajribani bildiruvchi rasmiy til kiradi.

Xushmuomalalik va rasmiyatchilik: Ishbilarmonlik muloqoti ko'pincha xushmuomalalik va rasmiyatchilik muvozanatini talab qiladi. Tilshunoslar mutaxassislarning hurmat ko'rsatish, munosabatlarni o'rnatish va kasbiy chegaralarni saqlash uchun tildan qanday foydalanishini o'rganadilar.

Shaxslararo dinamika: tashkilot ichidagi kuch munosabatlari va ijtimoiy ierarxiyalar uning nutqida aks etadi. Tilshunoslar tilning ushbu dinamikani qanday kuchaytirishi yoki qiyinlashtirayotganini, masalan, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nutqdan foydalanish, xushmuomalalik strategiyalari va suhbatlarda navbatchilik qilish orqali o'rganadilar.

Demak, biznes diskursining lingvistik tahlili korporativ muhitda til funktsiyalarining murakkab usullarini ochib beradi. Xushmuomalalik strategiyalari, kuch dinamikasi, jargon, nutq belgilari va janrga xos konventsiyalar kabi xususiyatlarni o'rganib chiqsak, biznes muhitida muloqot qanchalik samarali bo'lishini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Ushbu tushunchalar nafaqat tashkiliy aloqani tushunishimizni kuchaytiradi, balki o'z biznesimiz bilan o'zaro munosabatlarimizni yaxshilash uchun qimmatli vositalarni ham taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: Сб. науч. тр. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5-20.
2. Науменко Л.П. Діловий англомовний дискурс у ключових концептах [Текст] // Культура народов Причерноморья. – 2004. – Т. 1. – № 49. – С. 40 – 44.
3. Ширяева Т.А. Когнитивная модель делового дискурса: монография. – Пятигорск: ПГЛУ, 2006. - 256 с.

TILSHUNOSLIKDA SAN’ATGA OID TERMINOLOGIYANING MILLIY-MADANIY KOMPONENTINI O‘RGANISH

QODIROVA MUNISA ERKINJON QIZI
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqola san’at terminologiyasining milliy-madaniy komponentini lisoniy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda terminologiya, xususan, sana’t terminologiyasi tushunchalari talqiniga o‘rin berilgan. San’at terminologiyasining milliy-madaniy komponentini ochib berish uchun mazkur soha terminologiyasining xususiyatlari *madaniy o‘ziga xoslik, tarixiy kontekst* hamda *ramz va ma’no* kabi tasniflarga ajratilib tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, tarixiy kontekst, ramz va ma’no, semantika*.

Tilshunoslikda san‘at terminologiyasini o‘rganish nafaqat san‘at lug‘atini tushunishni o‘z ichiga oladi, shuningdek, bu terminlar doirasidagi milliy-madaniy komponentlarni o‘rganishni ham taqozo etadi. Shu bois, mazkur maqolada til va madaniyatning san‘at sohasida kesishish ahamiyatini va san’atga oid terminlarni lisoniy xususiyatlarini ochib berish maqsad qilingan.

“*Terminologiya*” so‘zining o‘zi birinchi marta Germaniyada Yena universiteti professori Z.Shyuts tomonidan 1786 yilda ishlatilgan. U XVIII asrda frantsuz tilida paydo bo‘lgan va ingliz tilida Buyuk Oksford lug‘atiga ko‘ra, u birinchi marta 1801 yilda qayd etilgan [4; 36-b.]. XIX asr boshlarida ilk bor rus tilida so‘z terminologiyasi qayd etilgan [5; 13-b.]. O‘zbek terminologiyasi bir necha asrlik shakllanish va tarqqiy etish bosqichlariga ega (qadimgi turkiy til (V1I-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o‘zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminlogiyasi, sho‘rolar davri o‘zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o‘zbek tili terminologiyasi [1; 18-b]. Bu bosqichlardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilshunosligida “terminologiya” nazariyasi hamisha tadqiqotlar markazida rivojlanish yo‘lida davom etmoqda.

San’at terminologiyasi badiiy amaliyotlar, uslublar va artefaktlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan so‘z va iboralardir. Akademik V.V. Vinogradov ta’kidlaganidek, “madaniyatimizning u yoki bu sohasi terminologiyasi tarixi, ishlab chiqarish faoliyati ayni paytda tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi hikoyadir” [3; 6-7-b]. Bu ular kelib chiqqan jamiyatlarning qadriyatlari, e’tiqodlari va an’analarini aks ettiruvchi o‘ziga xos madaniy va tarixiy ma’nolarni anglatadi degani.

San’at terminlarini lingvistik yondashuvlar orqali o‘rganish tilning badiiy talqin (*alla, aytishuv, baxshi, bahri tavil, yalinchoqlar, hukmlagichlar,*

sanamalar va h.k.) va ifodaga qanday ta’sir qilishi (*guldir gup, bulamon, vandalism, jonlantirish, qahqaha, yoramazon* va h.k.) haqida qimmatli fikrlarni beradi. Ushbu terminlarning tuzilishi, ma’nosi va qo‘llanilishini o‘rganib chiqsak, biz san’atni shakllantiruvchi madaniy va ijtimoiy omillarni yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Strukturaviy tilshunoslik tilning sintaksis va morfologiya kabi formal jihatlariga e’tibor qaratadi. San’atda bu yondashuv terminlarning qanday tuzilganligi va tasniflanishini tahlil qilishga yordam beradi. San’at terminlari ko‘pincha o‘ziga xos sintaktik tuzilma va morfologik qoliplarga ega. Masalan, “*neo-klassitsizm*” yoki “*post-impressionizm*” kabi terminlar badiiy harakatlardagi siljishlar yoki davomiylikni bildirish uchun prefikslardan foydalanadi. Ushbu tuzilmalarni tahlil qilish yangi san’at tushunchalarining mavjudlaridan qanday rivojlanishini ochib beradi.

Ma’lumki, semiotika belgilarni o‘rganadi, u san’atga oid terminlarni lingvistik tahlilining hal qiluvchi qismidir. San’at terminlari murakkab g‘oyalar va madaniy ma’nolarni ifodalovchi ramzlar (mas.; *qo‘chqaroq, qirma, chosar, turunj* va b.)sifatida qaraladi. Semiotik munosabatlarni tushunish terminlar va ular tasvirlagan san’atni talqin qilishimizni chuqurlashtirishi mumkin.

Semantik tahlil san’at terminlar ortidagi ma’nolarni, jumladan konnotatsiya va denotatsiyalarni o‘rganadi. “*Syurrealizm*” kabi terminlar o‘ziga xos badiiy uslublar va falsafiy g‘oyalarni uyg‘otadi, san’atni qanday qabul qilish va tushunishga ta’sir qiladi. “*Abstrakt*” atamasi tasviriy bo‘lmagan san’atdan tortib kontseptual g‘oyalargacha bo‘lgan keng ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Uning talqini madaniy kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin, bu esa san’at terminologiyasida semantikaning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ushbu tadqiqot badiiy atamalarning shakllanishida milliy o‘zlikni anglashning ahamiyatiga urg‘u berib, atamashunoslik nafaqat estetik tushunchalarni, balki madaniy qadriyatlar va tarixiy sharoitlarni ham o‘zida mujassamlashtirganini ko‘rsatadi [2].

San’atga oid terminlarning milliy-madaniy komponentlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Madaniy o‘ziga xoslik. San’at terminlari ko‘pincha ularning kelib chiqish madaniyatida chuqur ildiz otgan ma’nolarga ega *(aytimchiliq, alla, askiya, baxshi, gul bazm, go‘yanda, yor-yor* va b.). Misol uchun, yaponcha “*vabi-sabi*” atamasi boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan vaqtinchalik va nomukammallikni qabul qilishga qaratilgan dunyoqarashni qamrab oladi.

Tarixiy kontekst. Ko‘pgina san’at terminlari ularning ma’nosini shakllantirgan muayyan tarixiy harakatlar yoki davrlar bilan bog‘liq (mas.: *baxshi, marsiya, aytimchilik, qo‘g‘irchog‘bozlik, doston* va b.). Ushbu kontekstlarni tushunish to‘g‘ri talqin qilish uchun juda muhimdir. Masalan,

“*Uyg‘onish*” termini nafaqat uslubni, balki Evropada madaniy qayta tug‘ilish davrini ham anglatadi.

Ramz va ma’no. San’at terminlar o‘zlarining tom ma’nodagi ta’riflaridan tashqarida bo‘lgan ma’nolarga ega bo‘lgan simvolizmga boy bo‘lishi mumkin (mas.: *humo, lochin, burgut, quyosh, qaqnus* va b.). Ushbu ramziy tabiat ko‘pincha milliy afsonalar, hikoyalar va mafkuralarni aks ettiradi.

Madaniyatlararo ta’sirlar. Madaniyatlar o‘rtasidagi almashinuv san’at terminologiyasini moslashtirish va o‘zgartirishga olib kelishi mumkin. “*Barokko*” va “*rokoko*” kabi terminlar chegaralarni kesib o‘tdi va turli madaniyatlar tomonidan qabul qilingan ma’noda rivojlandi.

San'at terminologiyasining semantik maydonlari – ko'pincha madaniy tajribalar va badiiy amaliyotlar bilan shakllanadigan noyob semantik maydonlarni hosil qiladi. Bu sohalar bir tildan boshqasiga sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

San’at terminologiyasining metaforik tili – bu ko‘pgina san’at terminlari murakkab badiiy tushunchalarni yetkazish uchun kundalik tajriba va madaniy metaforalardan kelib chiqqan holda metaforali tildan foydalanadi.

San’at terminologiyasida o’zlashma so‘zlar va neologizmlar – bu san’at terminologiyasini o‘rganish madaniy almashinuvning dinamik tabiatini aks ettiruvchi so‘zlar va neologizmlarning turli tillarga qanday integratsiyalashuvini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Demak, tilshunoslikda san’at terminologiyasining milliy-madaniy komponentini o‘rganish boy va murakkab sohadir. Bu til, madaniyat va tarix o‘rtasidagi kesishuvni chuqur anglashni talab qiladi. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish orqali tadqiqotchilar san’at terminlarining madaniy ahamiyati va ularning badiiy nutqni shakllantirishdagi roli haqida qimmatli tushunchalarga ega bo‘ladi. San’at terminologiyasining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish, ularda aks ettirilgan til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning asosini tushunish imkonini beradi hamda mazkur mavzudagi keyingi tadqiqotlar uchun fundamental asos bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.

2. Hojiyeva, G. (2021). National Identity and Linguistical Analysis of Translation of Art Terms in Uzbek Language. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(02). https://doi.org/10.47750/cibg.

3. Виноградов В.В. Вступительное слово // Вопросы терминологии /Материалы Всесоюзного терминологического совещания 1959 г. – М.: АН СССР, 1961. С.6-7.

4. Хаютин А.Д. Термин, терминология, номенклатура. Учебное пособие. – Самарканд: СГУ, 1972. – 130 с.
5. Янь Ланьлань. Терминология живописи в русском языке (структурный и функциональный аспекты): дис....канд.филол.наук. – Москва, 2014. – С.13.

TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYA VA DETERMINOLOGIYA MASALASI

Xudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

***Annotatsiya*.** Ushbu maqola terminologiya va determinologiyaning tilshunoslik sohasidagi muhim rollarini o‘rganadi, ularning bir-biridan farqli, ammo o‘zaro bog‘liq funktsiyalarini ta’kidlaydi. Terminologiya til hodisalari, nazariyalar va metodologiyalarni tavsiflovchi, olimlarga murakkab fikrlarni samarali yetkazish imkonini beruvchi maxsus lug‘atni anglatadi. Determinologiya, yangiroq kontseptsiya, lingvistik kichik sohalarda izchillik va ravshanlikni ta’minlash uchun ushbu atamalarni yaratish, boshqarish va standartlashtirishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, aniq ta’riflar muhim bo‘lgan tarjimashunoslik va hisoblash tilshunosligi kabi sohalarda muhimligi maqolada ilmiy-nazariy asoslangan.

***Kalit so‘zlar*:** *terminologiya, determinologiya, tilshunoslik, lug‘at tuzish, dinamizm.*

Tilni ilmiy o‘rganuvchi tilshunoslik uning turli sohalarini tushunish uchun zarur bo‘lgan juda ko‘p tushunchalar, nazariyalar va atamalarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida ikkita hal qiluvchi soha terminologiya va determinologiyadir. Ular o‘xshash ko‘rinishi mumkin bo‘lsa-da, ular lingvistik tamoyillarni o‘rganish va qo‘llashda alohida funktsiyalarni bajaradilar. Ushbu maqolada terminologiya va determinologiyaning ta’riflari, ahamiyati va o‘zaro bog‘liqligi chuqurroq o‘rganilib, ularning tilshunoslik fanining rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan.

Olamning ilmiy-me’yoriy manzarasini terminlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki terminlar ilmiy matn hosil qiluvchi tayanch birliklar vazifasini bajaradi. Terminologiya ma’lum bir soha yoki fan doirasida qo‘llaniladigan maxsus lug‘at to‘plamini anglatadi. Tilshunoslikda terminologiya til hodisalari, nazariyalar, metodologiyalar va tahliliy vositalarni tavsiflovchi atamalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “fonema”, “morfema”, “sintaksis”, “semantika”,

“pragmatika” kabi atamalar tilshunoslikdagi munozaralarning ajralmas qismidir.[2;35]

Terminga qo‘yiladigan me’yoriy talablar dastlab terminologiya asoschisi D.S. Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, kontekstga bog‘liq emaslik, qisqalik, bir ma’nolilik, aniqlik, oddiylik, tushunarlilik, tadbiq etilganlik darajasi va boshqalar. Ular ayrim aniqlik va qo‘shimchalar bilam ko‘plab olimlar, jumladan, I. N. Volkova, A. V. Krijanovskaya, L. A. Simonenko va boshqalarning ishlarida sanab o‘tilgan.[4;13]

Aniq terminologiyani o‘rnatish akademik nutqda samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir. U olimlarga murakkab g‘oyalarni ixcham tarzda yetkazish imkonini beradi va tilshunoslar o‘rtasida umumiy tushunchani mustahkamlaydi. R. A. Hudson o‘zining “Sociolinguistics” (1996) kitobida ta’kidlaganidek, har qanday ilmiy fanning rivojlanishi uchun atamalarning aniqligi juda muhimdir. Aniq belgilangan shartlar bo‘lmasa, munozaralar chigallashib, tushunmovchilik va noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin.[3;18]

Bundan tashqari, tilshunoslikda terminologiya statik emas; u yangi nazariyalar ishlab chiqilishi va tilni tushunishning chuqurlashishi bilan rivojlanadi. Masalan, “fonema” atamasi fonologik nazariyadagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiruvchi vaqt o‘tishi bilan turli talqinlarga uchragan. Ushbu dinamizm mavjud bilimlarni aks ettirish uchun terminologiyani takomillashtirish va yangilash uchun tilshunoslar o‘rtasida uzluksiz muloqotning muhimligini ta’kidlaydi.

Determinologiya, aksincha, intizom doirasida atamalarni yaratish, boshqarish va tartibga solish jarayonini nazarda tutuvchi nisbatan yangiroq tushunchadir. U atamalarni qanday aniqlash, turkumlash va standartlashtirish, ularning soha ehtiyojlariga javob berishini ta’minlashga qaratilgan. Tilshunoslikda determinologiya sintaksis, semantika va sotsiolingvistika kabi turli kichik sohalarda izchillik va ravshanlikni saqlash uchun juda muhimdir.

Determinologiyaning roli, ayniqsa, tarjimashunoslik, til ta’limi va hisoblash tilshunosligi kabi aniq ta’riflar zarur bo‘lgan kontekstlarda katta ahamiyatga ega. A. P. K. L. H. H. van der Meer “Terminology and Knowledge Engineering” (2009) asarida ta’kidlaganidek, determinologik tizimlarning qat’iy rivojlanishi maxsus lug‘atlarning ravshanligi va foydalanish qulayligini oshirishi mumkin. Bu murakkab lingvistik tushunchalarni mutaxassis bo‘lmaganlar uchun ochiq qilish va fanlararo aloqani osonlashtirish uchun juda muhimdir.

Misol uchun, amaliy tilshunoslik sohasida samarali determinologik amaliyotlar o‘qituvchilarga tilshunoslik nazariyalari bilan uyg‘un va mos keladigan o‘quv materiallarini yaratishga yordam beradi. O‘qituvchilar

atamalarni standartlashtirish orqali o‘quvchilar asosiy tushunchalarni chalkashtirmasdan mustahkam tushunishlarini ta’minlashlari mumkin.

Terminologiya va determinologiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tilshunoslik evolyutsiyasi uchun asosdir. Terminologiya munozara uchun zarur bo‘lgan lug‘atni ta’minlaydi, determinologiya esa bu lug‘atning tizimli ravishda tashkil etilishi va izchil qo‘llanilishini ta’minlaydi. Bu munosabatlar, ayniqsa, algoritmlar va modellarni ishlab chiqish uchun aniq ta’riflar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan hisoblash tilshunosligi kabi sohalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sintaksisni o‘rganishni ko‘rib chiqing: ***“mavzu”, “predikat” va “ob’ekt”*** kabi atamalar aniq belgilanishi va tushunilishi kerak. Determinologik harakatlar bu atamalarning nafaqat to‘g‘ri ta’riflanishini, balki tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va talabalar tomonidan doimiy ravishda qo‘llanilishini ta’minlaydi. Ushbu izchillik empirik tarzda tekshirilishi va takomillashtirilishi mumkin bo‘lgan sintaktik nazariyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, tilshunoslikda lug‘atlar va leksikalarni ishlab chiqish samarali terminologiya va determinologiyani saqlab qolish uchun birgalikdagi sa’y-harakatlarni ko‘rsatadi. “The Concise Oxford Dictionary of Linguistics” kabi keng qamrovli manbalar atamalarni tuzadi va aniqlaydi, tilshunoslarga hozirgi foydalanish va tushunishni aks ettiruvchi ishonchli ma’lumotnoma beradi.

Ularning ahamiyatiga qaramay, terminologiya ham, determinologiya ham qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Muhim muammolardan biri - turli til an’analari va tillari bo‘yicha terminologiyaning o‘zgarishi. Masalan, ingliz tilida “morfologiya” atamasi so‘z tarkibini o‘rganish uchun keng qo‘llanilsa-da, boshqa tillarda tillararo tadqiqotda chalkashliklarga olib keladigan turli atamalar yoki ramkalar qo‘llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, yangi lingvistik nazariyalar paydo bo‘lganda, yangi terminologiyani qabul qilishga qarshilik paydo bo‘lishi mumkin, ayniqsa u belgilangan me’yorlarga qarshi bo‘lsa. Bu nazariy taraqqiyot va terminologiyadagi tegishli yangilanishlar o‘rtasidagi kechikishga olib kelishi mumkin, bu esa sohadagi taraqqiyotga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Yana bir qiyinchilik raqamli asrda yotadi, bu yerda axborotning tez tarqalishi atamalardan foydalanishda nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin. Onlayn platformalar va ijtimoiy media lingvistik g‘oyalarni tarqatishga imkon beradi, lekin ular noto‘g‘ri yoki noaniq terminologiyaning tarqalishiga ham hissa qo‘shishi mumkin. Olimlar o‘zlarining ishlari belgilangan terminologik standartlarga rioya qilishlarini ta’minlash uchun ushbu landshaftda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlari kerak.

Xulosa, terminologiya va determinologiya lingvistik tadqiqotlarning ajralmas qismi bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos, ammo bir-birini to‘ldiruvchi

rollarni bajaradi. Terminologiya asosiy lug‘atni ta’minlaydi, determinologiya esa uning izchil tashkil etilishi va qo‘llanilishini ta’minlaydi. Birgalikda ular lingvistik tushunishni rivojlantiradi va fanlararo hamkorlikni osonlashtiradi. Tillararo o‘zgaruvchanlik va raqamli yoshdagi nomuvofiqliklar kabi qiyinchiliklarga qaramay, ushbu elementlarning doimiy ravishda takomillashtirilishi tilshunoslik fanining rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ushbu muammolarni hal qilish va aniq muloqotni rivojlantirish orqali tilshunoslar bu sohaga katta hissa qo‘shishda davom etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods, and Applications John Benjamins Publishing, 1999 – 247p.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. Toshkent-2019.-118 b.
3. Hudson R. A. Sociolinguistics. Cambridge University Press. 1996 . - 279 p.
4. Kadirova O. X., Kadirova Z.Z. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma.-Termiz: TerDU NMM nashriyoti, 2022.-156 b.
5. Matthews P. H. The Concise Oxford Dictionary of Linguistics-OUP Oxford, 2014 – 443p.

TABIIY TILLAR JARAYONI UCHUN ONTOLOGIYAGA OID INSTRUMENTARIYLAR TAVSIFI

Qodirova Zebo Gulboyevna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida ontologiyalarning o‘rni va ulardan foydalanishda instrumentariylar tavsifi berilgan. Ontologiyalar sun’iy intellektning muhim texnologiyalaridan biri sifatida ma’lumotlarni semantik qayta ishlashda, bilimlarni tartibga solish va mashinalar tomonidan tushunishni ta’minlaydi. Qolaversa, ontologik instrumentariylarning xususiyatlari, samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tabiiy tilni qayta ishlash, ontologiya, ontologik muharrirlar, protégé, OntoLingua, OntoGen*

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – bu tilning inson talqinini takrorlashga harakat qiladigan sun’iy intellekt tadqiqot sohasi sanaladi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) so‘nggi yillarda sun’iy intellektning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalishning asosiy maqsadi inson tilini mashinalar tomonidan tushunish, qayta ishlash va tahlil qilishdir. NLP matnlarni ovozlashtirish, matnlarni tasniflash, avtomatik tarjima va qidiruv tizimlari kabi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda [1,270]. Bu sohalarda tilni

semantik jihatdan to‘g‘ri tavsiflash muhim ahamiyatga ega. Ontologiyalar va ontologik muharrirlar NLP uchun tabiiy til semantikasini ishlab chiqishga qaratilgan. NLP metodologiyasi va texnikasi grammatikani va tildagi so‘zlar o‘rtasidagi konseptual munosabatlarni ilmiy jihatdan ifodalash mumkinligini taxmin qiladi. NLP ning yakuniy maqsadi tilni sun’iy talqin qilishni amalga oshirish uchun kompyuter mantig‘i tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan belgilar, munosabatlar va kontseptual ma’lumotlar tizimini aniqlashdir.

Tabiiy tilga ishlov berish semiotikaga, yani belgilarni o‘rganishga asoslanadi. Semiotika Charlz Sanders Pirs (mantiqchi va faylasuf) va Ferdinand de Sossyur(tilshunos)lar tomonidan ishlab chiqilgan. Semiotika uch tarmoqqa bo‘linadi: sintaksis, semantika va pragmatika [8]. Uch tarmoqning har biri belgilarni turli nuqtayi nazardan o‘rganadi. Sintaksis belgilar o‘rtasidagi shakliy munosabatlarni o‘rgansa, semantika belgilar va ularning ma’nolari o‘rtasidagi munosabatlarni, pragmatika esa belgilar va ularni ishlatish sharoiti o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi.

Ontologiya bilimlarning katta semantik maydonini hosil qiladi va bu maydon sohaga aloqador terminlar, tushunchalar, misollarni bir-biriga zanjirsimon bog‘lashga xizmat qiladi.

Ontologiyalarni yaratish uchun ko‘pgina vositalar mavjud va ularning ahamiyatli jihati ma’lumotlar bazasini vizual tarzda ifodalash qobiliyatidir. Ushbu vositalar quyidagilardan iborat:

OntoLingua [9] – 1990-yillarning boshlarida Stanford Universitetida ishlab chiqilgan ontologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish uchun mo‘ljallangan dasturiy vosita. OntoLingua Stanford Universitetining tadqiqotchilari ***J.Nilsson, T.Gruber*** va ko‘pgina ilmiy xodimlar tomonidan ishlab chiqilgan. OntoLingua foydalanuvchilarga ontologiyalarni yaratish, tahrirlash va o‘rganish imkonini beradi. OntoLingua matematik jihatdan aniq semantikani taqdim etadi, turli intellektual vositalar bilan integratsiyalashuv imkoniyati mavjud bo‘lib, bu esa turli ilovalarda bilimlarni qayta ishlashni osonlashtiradi.

Protégé [10] – bu bepul, ochiq manbali ontologiya muharriri va bilimlarni boshqarish tizimi. Protégé ilovasi birinchi marta Mark Musen tomonidan 1987-yilda yaratilgan va Stenford universiteti jamoasi tomonidan takomillashtirilgan. Java dasturlash tilida yaratilgan dasturiy ta’minot dunyodagi eng mashhur va keng qo‘llaniladigan ontologiya muharriri hisoblanadi. Dastlabki davrda protégédan soha mutaxassislari tibbiyot sohasi bilimlarini kontseptual modellashtirish uchun foydalanilgan, so‘nggi paytlarda esa protégédan boshqa fan sohalarida, xususan, semantik veb uchun ontologik model yaratishda qo‘llanilmoqda. Protégé oson kengaytiriladigan arxitekturaga ega bo‘lib, keng tarqalgan bilimlarni ifodalash tillarini (SHOE, XOL, DAML+OIL, RDF/RDFS, OWL) qo‘llab-quvvatlaydi. Protégéni yangi tildan

foydalanish uchun kengaytirish ushbu til uchun noldan muharrir yaratishdan ko‘ra osonroq bajariladi.

OntoGen [11] – bu ontologiyalarni yarim avtomatik usulda ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan, ontologiyalarni yaratish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan dasturiy vosita. Ushbu ilova ontologiyani qurish jarayonida foydalanuvchiga quyidagilarni taklif qiladi: tushunchalar, tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar, tushunchalar uchun nomlar, tushunchalarga avtomatik ravishda misollar tayinlaydi, kontseptsiya ichidagi misollarni vizualizatsiya qiladi va kontseptsiyani ko‘rib chiqish va turli xil vizualizatsiyalar orqali foydalanuvchiga ontologiyaning taxminiy ko‘rinishini taqdim etadi. Shu bilan birga, foydalanuvchi tizim harakatlarini to‘liq nazorat qiladi hamda tizim takliflarini qabul qilish, rad etish yoki ularni qo‘lda sozlash orqali ontologiyaning barcha xususiyatlarini to‘liq ifodalashi mumkin.

HOZO [12] – mavjud ontologiyalarni tahrirlash funksiyasiga ega, shu bilan bir qatorda ontologiya muharririni foydalanuvchilarga qulayroq qilish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. HOZO uchta asosiy komponentdan iborat: Ontologiya muharriri, Ontologiya serveri va Ontologiya menejeri. Onto Studio ontologiyani yaratishga ixtisoslashgan. Foydalanuvchilar qulay grafik interfeysga ega Ontologiya muharriri orqali ontologiyalarni yaratadilar va foydalanadilar. Ontologiya menejeri esa bir nechta ontologiyalardan birgalikda foydalanishni ta’minlaydi. Shuningdek, ontologiyalarning versiyalarini boshqaradi. Ontologiya serveri ontologiya va namunalarni saqlaydi va foydalanuvchilar uchun ilovalar taqdim etadi.

WebODE [13] – METHONTOLOGY qurish yondashuviga asoslangan ontologiyalarni tahrirlash va modellashtirish uchun veb vosita bo‘lib, uni ishlab chiqish 1999-yilda boshlangan va uni qo‘llab-quvvatlash 2006-yilda to‘xtatilgan. WebODEning yadrosi serverga ulangan barcha xizmatlar va ilovalar tomonidan foydalaniladigan ontologiyaga kirish xizmati hisoblanadi. WebODEning Ontologiya muharriri WebODE ontologiyalarini tahrirlash va ko‘rib chiqish imkonini berdi va HTML tili va Java ilovalariga asoslangan.

NeOn [4] – ontologiya tarmoqlarini yaratish, boshqarish va evolyutsiyani osonlashtirish orqali juda katta semantik ilovalarni yaratish uchun asosiy platforma bo‘lishni maqsad qilgan. NeOn ontologiyalarni manipulyatsiya qilish uchun platform bo‘lib, izohlash, ishlab chiqish, qayta ishlatish, sotib olish va hokazolar uchun turli xil pluginlarga ega. Boshqa ontologik yondashuvlardan farqli o‘laroq, NeOn metodologiyasi qatiy ish jarayonini belgilamaydi, aksincha, ontologiyalarni rivojlantirishning turli yo‘llarini taklif qiladi. Masalan, mavjud ontologiyalarni qayta ishlab chiqish, moslashtirish, modullashtirish, turli tillar va madaniyatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mahalliylashtirish va ontologik bo‘lmagan resurslar bilan birlashtirish, masalan, folksonomiyalar yoki tezauriyalar.

Ontologiyalarni loyihalash, tahrirlash va tahlil qilish uchun maxsus yaratilgan dasturiy vositalar ontologiya muharrirlari deb ham ataladi. Har qanday ontologiya muharririning asosiy vazifasi bilimlarni rasmiylashtirish va ontologiyani spetsifikatsiya sifatida taqdim etish jarayonini qo‘llab-quvvatlashdir. Ko‘pgina zamonaviy ontologiya muharrirlari u yoki bu shaklda rasmiy modelni tavsiflash vositalarini taqdim etadi. Ba’zi ontologik muharrirlarda ontologik tahlil uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjud va mantiqiy xulosa qilish mexanizmidan foydalaniladi.

Semantik internetning paydo bo‘lishi bilan ontologiyalar ma’lumotlar bilan ishlashda ma’no aniqligini berish usuli sifatida katta e’tiborni tortdi [2, 33-43]. Hozirgi vaqtda ontologiyalar ma’lumotni tuzish va tartibga solish uchun turli xil sohalarda qo‘llanilmoqda [3, 617]. Bugungi kunda dunyoda ontologik tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchilar soni ortib bormoqda. Ular faqat ontologiya mutaxassislari tomonidan emas, balki soha bo‘yicha mutaxassislardan tortib nomutaxassis foydalanuvchilargacha qo‘llanilmoqda. Nomutaxassis foydalanuvchilar ontologiyalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. WebVOVL [15] ilovasi ontologiyalarni ishlab chiqish, tadqiq qilish, tekshirishda foydalanuvchilarga yordam beradi [4].

So‘nggi yillarda bir qator vizualizatsiya vositalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ayrimlari Protégé muharririda qo‘shimcha plugin sifatida ulanishi mumkin, ayrimlari mustaqil ilovalar sifatida ishlatiladi. Ontologiyalarning grafik vizualizatsiyalari OWL ontologiyalarida tushunchalar va munosabatlarning qanday tashkil etilishini aks ettiruvchi grafiklar sifatida tasvirlaydi. Grafiklar sinflarni va tushunchalar tarkibidagi birliklarni iyerarxik tartibda ifolalashga qaratilgan bo‘ladi. Biroq, shu kungacha ishlab chiqilgan bir nechta vizualizatsiya to‘liq ontologiya ma’lumotlarini ko‘rsatadi, ya’ni barcha sinflar xususiyatlari va munosabatlarini ifodalay oladi. Masalan, OWLViz [7] ontologiyalarning sinf iyerarxiyasini tasavvur qilishda, atribut munosabatlarini ifodalash imkoniyatiga ega.

Protégé [5] ochiq manbali texnologiyasi ontologiyalarni ishlab chiqish uchun eng samarali texnologiya bo‘lib, Stenford universiteti tibbiyot fakulteti qoshidagi Stenford tibbiyot informatika tadqiqot markazida professor Mark Musen rahbarligida ishlab chiqilgan. Protegening ikki xil muharriri mavjud Protégé Desktop va WebProtege [6,89-99]. WebProtege internet uchun bepul, ochiq manbali hamkorlikda ontologiyani ishlab chiqish muhiti.

Ontologik loyihalarning aksariyati protégé texnologiyasi yordamida yaratilgan. Protégé texnologiyasi imkoniyatlariga N.Sukanova tomonidan quyidagicha izoh berilgan:

1) istalgan kompyuterga yuklanishi mumkin;
2) formalizmga asoslangan diksriptiv mantiq;

3) soha doirasida tavsif uchun bir o‘rinli va ikki o‘rinli predikatlardan foydalanishda;
4) OWLda ontologiyani erkin import va eksport qilish mumkin. U OWLda loyihani yaratish, tahrirlash, OWL formatidagi ontologiyani o‘chirish uchun foydalaniladi.

Ontologiyalarni yaratish jarayonida foydalanish maqsadida bir qator ontologik tavsif tillari ishlab chiqilgan.

Knowledge Interchange Format (KIF) – tizimlar o‘rtasida bilim almashish uchun mo‘ljallangan bilimlarni ifodalash tili bo‘lib, birinchi darajali predikatlar mantig‘iga asoslangan.

Frame Logic (F-Logic) – ontologik modellashtirishda formal tillarni birlashtirish uchun mo‘ljallangan deklarativ mantiqqa asoslangan til.

Common Logic – sintaksis va semantikani standartlashtirishga qaratilgan mantiqqa asoslangan til. Mazkur til birinchi darajali predikatlar mantiqini qo‘llab-quvvatlaydi, shuning uchun ular birinchi tartibli formulalarni standartlashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

CycL – birinchi tartibli mantiqqa asoslangan deklarativ til bo‘lib, Cyc ontologiyasini ifodalash uchun ishlatiladi.

Resource Description Framework (RDF) – veb resurslardan olingan ma’lumotlarni kontseptual modellashtirish uchun W3C tomonidan taqdim etilgan tavsif tili. RDF ning maqsadi semantik annotatsiya orqali veb resurslarni mashinalar oson tushunadigan semantik internetni amalga oshirishdir.

Web Ontology Language (OWL) – bu ontologik ma’lumotlar bazalarini modellashtirish uchun ishlab chiqilgan til. OWL, ontologiyalarni yaratish va ifodalashda foydalaniladi va u ma’lumotlarni aniqroq va izchil tushunishga yordam beradi. OWLning uchta asosiy varianti mavjud:

OWL Lite – oddiy ontologiyalar uchun mo‘ljallangan, ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

OWL DL (Description Logic) – rasmiy bilimlarni ifodalovchi til bo‘lib, bu til tushunchalar va xususiyatni, ularning munosabatlari bilan birga modellashtiradi. DL ning asosini aksiomalar tashkil etadi ya’ni tushunchalar va xususiyatlar bilan bog‘liq mantiqiy bayonot. DL matematik jihatdan isborlangan mantiqiy qoidalarni qo‘llab quvvatlaydi. Bu, murakkab ontologiyalar uchun mos keladi.

OWL Full – eng kuchli variant bo‘lib, barcha OWL imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi, mantiqiy aniqlikni ta’minlamaydi.

Tabiiy tillar jarayonida ontologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ular semantik tahlilning asosi bo‘lib, bilimlarni formalizatsiya qilish va mashinalarda foydalanish imkonini beradi. Ontologik instrumentariylar esa bu jarayonni soddalashtirish va takomillashtirishda muhim vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurafsky D., Martin J. H. Speech and Language Processing: An introduction

to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition. Third Edition draft. 2023, 636 p.

2. Berners-Lee T., Hendler J.A., Lassila O. The semantic web. Scientific American, 284(5): 2001. – pp 34–43.
3. Staab S., Studer R. Handbook on Ontologies. Springer, 2nd edition, 2009. 840

p.

4. Katifori A., Halatsis C., Lepouras G., Vassilakis C., Giannopoulou E. Ontology visualization methods – a survey. ACM Computer Surveys, 39(4), 2007.;
5. Musen, M.A. The Protégé project: A look back and a look forward. AI Matters. Association of Computing Machinery Specific Interest Group in Artificial Intelligence, 1(4), June 2015. DOI: 10.1145/2557001.25757003.
6. Tudorache, Tania, Csongor Nyulas, Natalya F. Noy, and Mark A. Musen. "WebProtégé: A collaborative ontology editor and knowledge acquisition tool for the web." Semantic web 4, no. 1 (2013): 89-99.
7. OWLViz. http://protegewiki.stanford.edu/wiki/OWLViz, 2010.
8. https://silviasevilla.wordpress.com/2006/12/19/ontologies-and-nlp/
9. http://ksl.stanford.edu/software/ontolingua/
10. http://protege.stanford.edu/
11. http://ontogen.ijs.si/
12. http://www.hozo.jp/
13. https://oeg.fi.upm.es/index.php/en/old-technologies/60-webode/index.html
14. http://www.neon-project.org
15. https://service.tib.eu/webvowl/

TEONIMIK ANTROPONIMLAR TADQIQI

Qobilov Mirziyo Eshnozar o‘g‘li

Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqola teonimik antroponimlar, ya'ni diniy manbalardan kelib chiqqan shaxs nomlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Maqolada teonimik antroponimlarning etimologik, semantik va lingvistik aspektlari batafsil o‘rganilgan. Muallif turli madaniyatlardagi teonimik antroponimlar qo‘llanilish xususiyatlarini tahlil qilib, ularning lingvomadaniy ahamiyatini ochib bergan. Tadqiqot davomida teonimik antroponimlarning shakllanish

tamoyillari, tasnifi va zamonaviy til tizimida tutgan o‘rni yoritilgan. Maqolada ushbu mavzuning nazariy asoslari bilan bir qatorda, amaliy misollari ham keltirilgan. Tadqiqot natijasida teonimik antroponimlarning lingvistik identifikatsiyasi va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstda qo‘llanilish xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *teonim, teonimik antroponim, onomastika, toponimika, antroponika, onomastik ko‘lam, onomastik birlik, onomastik lug‘at.*

Onomastika – yunoncha *onomastike* – so‘zidan olingan bo‘lib, *“nom qo‘yish san’ati”* degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Ma’lum bir til, xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi.

2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi.

XX asrning 60-70-yillarida o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Ma’lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan ob’ektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik ob’ektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan ob’ektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima ob’ektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o‘rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika* kabi turlarga bo‘linadi.

Teonim” (yunoncha *teog - xudo (Olloh) + onoma – atoqli ot*) – Ollohning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma’noni

bildiradi. *“Teonimiya”* esa shunday atoqli otlarning to‘plami, yig‘indisi, *“teonimika”* shunday onomastik ko‘lamga mansub atoqli otlarni o‘rganuvchi soha ma’nosini bildiradi[1;75].

Teonimlar tildagi juda qadimiy lug‘aviy birliklar bo‘lib, ularning paydo bo‘lish davrlari insoniyatning o‘ta ko‘hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm, totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog‘liqdir. Teonimlarning paydo bo‘lishi ko‘p xudolilik va bir xudolilik davrlarini o‘z boshidan kechirgan.

Turkiy teonimlar, ayniqsa uning o‘ta ko‘hna davrlardagi tarixi haqida G.P.Snesaryov, O.A.Suxareva, N.Direnkova, M.V.Stebleva, T.D.Bayalieva, N.F.Mokshin kabi olimlarning ishlarida uchraydigan ma’lumotlar qimmatlidir. Masalan, G.P.Snesaryovning maqolasida Araviya qabilalarining qadimiy ilohlari *al-Lot, al-Uzzo, Manot*; Yaman ilohlari *Vadd, Suva*; ko‘hna tarixga mansub bo‘lgan *Ramuza, Axraman, Axura-Mazda,* shuningdek mifik tasavvurlar bilan aloqador *ajdarho, dev // devoh, pari, jinlar*, ularning genezisi, etimologiyasi haqida fikr yuritilgan[2;272-282].

Alloh (Xudo // Xudoy, Tangri, Yaratgan, Yazdon, iloh, ilohalar va bu tushunchalar bilan bog‘liq atributlar haqida tarixiy, badiiy, etnografik, folklorshunoslik, mifologik, qisman tilshunoslik fanlarida kuzatish olib borilsa-da, teonim, teonimiya tushunchasi, uning doirasiga kiradigan aniq lug‘aviy onomastik birliklar, ularning chegarasi va ko‘lami yuzasidan hozircha izchil fikrlar bildirilganicha yo‘q. Nomshunoslik ilmida bu masalani o‘rganishda yo‘l qo‘yilayotgan chalkashliklarni quyidagicha to‘rtga ajratish mumkin: a) bordiyu, teonim tushunchasi va termini ma’nosidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, teonimlar doirasiga faqat Alloh nomi, boshqa xil qadimiy iloh va ilohalar nomi kiritilishi lozim; b) ba’zi ishlarda atoqli ot *Alloh (Tangri, Yaratgan, Xudo // Xudoy)*, uning turli sifatlari bo‘lmish *sattor, vohid, hamid, jabbor, g‘affor, qodir* va boshqalar teonim sifatida qayd qilinmoqda. Ular atoqli ot deb qaraladigan bo‘lsa, hozirgi imloviy qoidalarga ko‘ra bosh harf bilan yozilmog‘i kerak; v) *Alloh* tushunchasining dubletlari, absolyut sinonimlari bo‘lmish *Olloh // Alloh, Tangri, Xudo // Xudoy, Yazdon* va boshqalar hozirgi vaqtda gohida kichik, gohida bosh harflar bilan yozilmoqda; g) ba’zi ishlarda teonim, teonimiya tushunchasi asl ma’nosiga teskari ravishda har qanday diniy tushuncha va tasavvurlar atoqli otini o‘zida mujassamlashtiruvchi onomastik birlik deb tushunilmoqda. Shunga ko‘ra teonimiya doirasi nihoyatda kengayib, diniy mazmunli tabarruk, muqaddas deb bilinuvchi shaxslar, avliyolar, o‘tmishda sig‘inish ob’ekti bo‘lgan real va noreal (xayoliy, mifologik) sub’ektlar, figuralar nomi ham kiritilmoqda va ular ko‘pincha *agnonim* termini bilan yuritilmoqda.

Ayrim ishlarda teonim va teonimiya doirasi yanada kengroq tushunilib, uning tarkibiga *nekronimlar* - diniy marosimlar bajariladigan joylar nomi

(cherkovlar, monastirlar, masjidlar, hatto madrasalar), muqaddas deb bilinib sig‘iniladigan ob’ektlar, narsalar atoqli otlari ham, shartli ravishda, toponimiya ko‘lami hamda teonimiya mikroko‘lamiga kiritilmoqda[3;15-18]. Bizningcha, teonim (teonimiya), agnonim (agnonimiya), nekronim (nekronimiya) tushunchalarini, ular doirasiga kiruvchi atoqli otlarni aniq farqlash, chegaralash maqsadga muvofiq bo‘lardi. Teonimlar jonli deb hisoblanuvchi narsalar, ob’ektlar, shaxslar nomi bo‘lsa, nekronimlar qabristonlar, mozorlar, mana shu tipdagi muqaddas joylarning atoqli otlaridir. Mohiyatan teonimlar antroponimlarga, antroponimik ko‘lamga yaqin turadi, agnonimlar va nekronimlar esa jonsiz ob’ektlarning atoqli oti sifatida toponimiya, toponimik ko‘lamga mansubdir. Shunga ko‘ra, agnonim va nekronimlarni teonimiya tarkibiga kiritish mazmunan va mantiqan unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa kerak.

Payg‘ambarlar nomlari, ya’ni teonimlar Qur’on va islom dini orqali turkiy tillarga, jumladan o‘zbek tili lug‘aviy tizimiga ham kirib kelgan. Qadimgi davrlardan boshlab bunday teonimlar eski turkiy (o‘zbek) tili antroponimik tizimidan ham mustahkam o‘rin ola boshladi. Payg‘ambarlar ismlarining ko‘pchiligi “Qur’on”, “Zabur”, “Tavrot”, “Injil” kabi muqaddas kitoblardan o‘tgan. Keyinchalik payg‘ambarlarning ayrim nomlari teonimik antroponimlardan oddiy antroponimlarga aylana boshladi, ya’ni kishilarning oddiy ismlari sifatida keng qo‘llanadigan bo‘ldi. Masalan, IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Somoniylar davlatining rahbarlari *Nuh, Ilyos, Yahyo, Is’hoq, Hamid, Yoqub, Ahmad, Ismoil, Abuibrohim* ismlari bilan nom qozongan edilar[4;19-20].

XI asrdan boshlab bunday teonimik antroponimlar “Qutadg‘u bilik”, “Hibbatul haqoiq”, “Qissasi Rabg‘uzi”, “Boqirg‘on kitobi” kabi turkiy adabiy yodnomalarda ham qo‘llana boshlandi. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari bevosita ana shunday teonimlar tahliliga bag‘ishlangan. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida juda ko‘plab teonimlar keltirilgan. N.Husanov ana shunday teonimik antroponimlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan monografiya yaratdi. Bu ishning asosiy qismi payg‘ambarlar, ularning ajdod-avlodlari, Muhammadning avlod-ajdodlari, xalifalarning nomlari, avliyo va farishtalarning nomlari tahlilini o‘z ichiga oladi. *Xizr, Luqmon* kabi avliyolar va *Azroil, Jabroil, Isrofil, Mekoil, Munkar, Nakir* singari farishtalarning nomlari ham teonimlar qatoriga kiradi[5;24]. Shuningdek, *Azozil, Molik, Uzzo, Uzoyo, Xorut, Morut* kabi antroponimlar ham farishtalarning ismlari bo‘lib, ular ham teonimlar sanaladi.

Teonimik antroponimlar tadqiqi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Teonimik antroponimlar har bir xalqning lingvomadaniy merosining muhim komponenti hisoblanadi va ularning o‘rganilishi til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga yordam beradi.

2. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, teonimik antroponimlar diniy e'tiqod va qadriyatlarning til tizimida aks etishi boʻlib, ular orqali jamiyatning madaniy-ma'naviy qarashlari namoyon boʻladi.

3. Teonimik antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari oʻrganilganda, ularning koʻpgina hollarda muayyan diniy tushunchalar, sifatlar yoki ilohiy kuchlarni ifodalashi aniqlandi.

4. Teonimik antroponimlarning etimologik tahlili ularning kelib chiqishi turli diniy manbalarga borib taqalishini va vaqt oʻtishi bilan semantik oʻzgarishlarga uchrashini koʻrsatadi.

5. Zamonaviy tilshunoslikda teonimik antroponimlarni oʻrganish nafaqat lingvistik, balki tarixiy, madaniy va diniy aspektlarni ham qamrab olishi lozim.

6. Tadqiqot natijasida teonimik antroponimlarni tasniflash uchun yangi metodologik yondashuv taklif etildi va bu yondashuv kelajakdagi izlanishlar uchun asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, teonimik antroponimlar tadqiqi zamonaviy onomastika va etnolingvistikaning muhim yoʻnalishi boʻlib, til va madaniyatning oʻzaro ta’sirini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda bu yoʻnalishda olib boriladigan izlanishlar tilshunoslikning boshqa sohalari, xususan, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik bilan uygʻunlikda oʻrganilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 75-бет.
2. Снесарёв Г.П. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана //Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980, 272-282-с.
3. Бу ҳақда қаранг: Авлиёқулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материаллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008, 15-18-бетлар.
4. Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994, 4-65-бетлар; Ҳусанов Н. Пайғамбарлар исмининг маънолари // Сирли олам. 1994. № 4. 19-20-бетлар.
5. Нурманов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва ўзбек фольклоридаги талқини. НДА.–Тошкент, 2007, 24-бет.

SAVDOGAR NUTQI LEKSIKASINING DEREVATSION QOLIPLARI

To‘raliyev Baxodir Erali o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo sohasida faol ishlatiladigan leksemalarning yasalish xususiyati tadqiq qilindi. Bugungi kunda faol ishlatiladigan qoliplar misollar va dalillar bilan asoslandi.

Kalit so‘zlar: leksika, qolip, affiks, tub so‘zlar, gibrid so‘zlar.

Savdo sohasi qadim davrlardan yaxshi shakllangan. Bu sohaning o‘ziga xos leksikasi va terminlari bo‘lgan. Jumladan, savdogar nutqidagi leksika tub va yasama leksikaga ajratiladi. Sohada qo‘llaniladigan leksika faqatgina sof turiy so‘zlardan iborat emas. Sohadagi leksikani o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasiga guruhlashtiramiz. O‘z qatlam leksikasi ikki guruhga ajraladi: a) turkiy tillarga oid bo‘lgan tub so‘zlar b) qo‘shimcha yordamida yasalgan yasama so‘zlar. Savdoga oid turkiycha tub so‘zlar sifatida *tovar, ulgurji, sotmoq, to‘lamoq, chaqa, tiyin, so‘m, berasi, olasi* va boshqalarni misol keltirish mumkin.

O‘zbek tilida savdogar nutqi leksikasidagi umumturkiy so‘zlar, asosan, quyidagi qoliplarda yasalganligini kuzatamiz:

- *chi* affiksi yordamida: *sotuvchi, noschi, oluvchi, somsachi, sutchi, soliqchi* va boshqalar;

- *iq* affiksi yordamida: *soliq, sotiq* v.b.;

- *lik* affiksi yordamida: *somsachilik, sotuvchilik, olibsotarlik* v.b.;

-*lash* affiksi yordamida*: silkilashmoq, tortqilashmoq* v. b.;

-lash affiksi bilan amalga oshirilgan derevatsiyada keltirilgan misollar bir qarashda savdo sohasiga oid emasdek. Biroq milliy-madaniy qadryat sifatida bizning savdolashuv jarayonimizda narx uchun kelishuv amalga oshiriladi. Shu vaziyatda sotuvchi va oluvchi o‘zaro silkilashadilar. Bunday holat, odatda, mol (katta va kichik) savdosida sodir bo‘ladi.

Sotiq yasalmasi qadimiy leksemadir. Bu leksemani “Devoni lug‘otit-turk” da ham ucharaydi va o‘sha davrda ham hozirgi mazmunni ifodalagan. Asarda **سَتغْ** satïg‘ – [5:295] ko‘rinishida berilgan. Asarda ham bugungi kundagi savdo leksemasi bilan bir xil mazmun ifodalagan. Bundan tashqari u savdo leksemasi bilan birgalikda savdo-sotiq juft so‘zi tarkibida ham faol ishlatiladi.

O‘zbek tili leksik qatlamida o‘zlashgan so‘zlarning o‘rni ham sezilarli darajada. O‘zlashgan so‘zlardan qo‘shimcha qo‘shish orqali so‘z yasash sermahsul usuldir. Hech bir tilning ichki imkoni barcha soha leksikasi nominatsiyasi uchun yetarli emas. Qolaversa, iqtisodiy va texnologik sohaning kuchli rivojlanishi natijasida ham leksemalar o‘zlashadi va ularga milliy tildagi affikslar qo‘shib yangi leksika yasash mumkin. O‘zbek tilida savdogar nutqi leksikasida boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zga o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shib so‘z hosil qilishning quyidagicha modellari mavjud:

I. o‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan fors-tojikcha so‘z + o‘zbekcha so‘z yasovchi affiks: a) *bozorbop, bozorlik, bozorlamoq;*

b) narxlamoq;

c) pulsiz, pulli, pulsizlik;

d) savdogarlik, savdolashmoq;

e) xaridchi; chekchi;

f) arzonlashmoq, arzonsinmoq, arzonsiramoq, arzonchilik va boshqalar;

II. O‘zbek tilida faol bo‘lgan arabcha so‘z + o‘zbekcha yasovchi affiks:

a) *foydali, foydasiz;*

b) *zararli, zararsiz,*

c) *qimmatlashmoq, qimmatsiramoq, qimmatsinmoq, qimmatchilik, qimmatlamoq, qimmatsizlanmoq;*

d) *hisobchi, tijoratchi, hisoblamoq* va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan qoliplar eng faol qoliplar hisoblanadi. Biz hozirgi kunda ishlatilmaydigan, nutqda faol bo‘lmagan va kamunum qoliplarga to‘xtalmadik.

Fors-tojikcha yasovchi affikslar o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabcha va turkiycha so‘zlarga qo‘shilib yangi so‘z yasaydi:

III. turkiycha so‘z + fors-tojikcha yasovchi qo‘shimcha: *oshpaz, pistafurush, nonfurush* va hakozolar.

IV. o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabcha so‘z + fors-tojikcha yasovchi affiks: *bezarar, qimmatfurush, qarzdor, hisobdon* va boshalar.

Savdogar nutqida o‘z va o‘zlashgan qatlam leksemalarining ishlatilishi juda faol. Hatto ayrim so‘zlarni jamiyat vakillari o‘zining ona tilisidagi so‘z deb qabul qilgan. Biroq etimologik tahlil qilinganda o‘zlashma qatlam aniq

ajraladi. Bu sohada o‘z va o‘zlashma qatlam yonma-yon ishlatilganidan gibrid so‘zlar ham hosil bo‘lgan:

Fors-tojikcha so‘z + o‘zbekcha so‘z: *arzon-garov,arzon bermoq, arzon so‘ramoq, arzonqo‘l, pulparast, savdo-sotiq, xarid qilmoq, xaridorbop, bozorboshi, bozor-o‘char, baho bermoq* va boshqalar*;*

Arabcha so‘z + o‘zbekcha so‘z: *qarz bo‘lmoq, zarar ko‘rmoq qarz-qurz, jazman bo‘lmoq, foyda qilmoq, tijorat qilmoq, xarj qilmoq, xarajat qilmoq, dallolboshi* va boshqalar;

Ruscha-baynalminal so‘z + o‘zbekcha so‘z*: pochin qilmoq*; *zakaz qilmoq, dostavka qilmoq* va hakozolar;

Arabcha so‘z + fors-tojikcha so‘z: *foydaxo‘r, qimmatbaho, qimmatfurush, qiymatshunos va boshqalar.*

Ma’lumki, leksik zaxira ichki va tashqi imkoniyat yordamida boyib boradi. Savdo sohasidagi leksemalarda sof turkiy so‘zlar va yasovchilar mavjud. Ammo bu sohadagi so‘zlarning katta foizi boshqa tillardan olingan leksikaka affiks qo‘shib hosil qilingan. Bugungi kunda yangi leksika yasaydigan affiks yo‘qligini ham unutmaslik kerak. Bunday holatda, albbata, boshqa tillardan olingan leksika orqali yangi so‘zlar yasaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-ҳунарлари материаллари асосида): Филол. фан. доктори.дисс. –Тошкент, 2004. – 262 б.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. –131 б.
3. Искандарова Ш. Ўзбек нутқи одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дис.автореф. – Самарқанд, 1993. – 32 б.
4. Имшинецкая И.А. Речевой стиль коммерческой рекламы в его жанровых разновидностях. Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Пермь, 2007. – 45 с.
5. Koshg‘ariy M. Devoni lug‘otit-turk. I tom. Boltaboyev H. tahriri ostida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 610 b.

MUNDARIJA

Termiz davlat universiteti rektori Abduqodir TOSHQULOV tabrik so‘zi		**3**
I SHO‘BA. ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT MUSHTARAKLIGI		
МАМАТОВ Абдуғофур	Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи	**5**
UMURQULOV Bekpo‘lat	Badiiy matnning muhim xususiyatlari	**15**
ABDIYEV Murodqosim	«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida	**19**
МЕНГЛИЕВ Бахтиёр	Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари	**28**
JO‘RAYEVA Bibish, TO‘XTAYEVA Dilafruz	Baho va darajalanish munosabati	**38**
SOBIROV Abdulhay DJURABAYEVA Zamira	Ona tilimiz tevaragida birlashish, jipslashish – davr talabi	**48**
SHUKUROV Otabek	Globallashuv sharoitida milliy til masalalari	**55**
SHOKIROVA Xavasxon	Stoiklar va ularning lisoniy falsafasi	**61**
Do‘smatov Xikmatullo Komilova Shaxrizoda	So‘z o‘yinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari (askiya san’ati misolida)	**66**
ШУКУРОВ Ахат	Ўзбек шеърий достонларида ўзлашма қатлам	**71**
XOJALIYEV Ismoil	Axborot uzatishda kommunikativ imkoniyatning o‘rni	**75**
UMURQULOV Zafar	Zidlovchi qiyos	**78**
BERDIYEVA Habiba	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarini vujudga keltiruvchi omillar	**81**
RIXSIYEVA Kamola	Maqollar tarkibida qatnashgan qa= asosli leksemalarning semantik xususiyatlari	**84**

TURDIMURODOV Sirojiddin	So‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari	**86**
KARIMJONOVA Shahlo	O‘zbek tilida kauzativ fe’llarning yasalishi	**92**
BOTIROVA Maxliyo	O‘zbek tili reklamalarida olmoshlar stilistikasi	**96**
NOMOZOVA Rustamovna	Takror so‘zlarning badiiy nasrdagi ahamiyati	**99**
CHORIYEVA Charos	Diniy leksikaning semantik ko‘lamini tasnif qilishga doir qarashlar (duo leksemasi misolida)	**102**
G‘ANIYEVA Lobar	Davlat boshqaruvi terminlaridagi partonimik munosabat	**105**
O‘RINOVA Zarifa	Badiiy matnni shakllantirishda aforizmlarning intertekstual birlik sifatidagi ahamiyati	**109**
XAMRAYEV Fozilbek	Xorijiy so‘zlarni milliylashtirishda o‘zbek tilining so‘z yasash modellaridan foydalanish	**113**
ISMONOVA Yorqinoy	*«Jaziramadagi odamlar»* romanida muallifning badiiy til mahorati	**117**
UMAROVA Sh.	Kashtachilik terminlarining butun-bo‘lak munosabatlari	**122**
ATAMURODOVA Gulnora	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini adabiy talaffuzga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari	**125**
YUNUSOVA Madina	Omon Muxtorning «Tepalikdagi xaroba» romanida ramz, tasavvufiy leksema va g‘oyalar uyg‘unligi	**129**
MAXMUDJONOVA Muborak	*Nafs* va *havo* tushunchalarining etimologiyasi va evolyutsiyasi	**132**
G‘AYBULLOYEVA Umida	Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” qissasida epitetning badiiy imkoniyatlari	**135**

II SHO‘BA. O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI

ASHIRBOYEV Samixon	«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi	

	mazmuni uyg‘unligi	**139**
IBRAGIMOV Yuldash	Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining lingvoareal xaritasini tuzish masalalari	**146**
FAYZIYEVA Xadicha	Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar	**149**
DARVISHOV Ibrohim	Dialektal birliklar va adabiy til	**155**
USMONOV Musurmon	Mingbuloq qipchoq shevalari areali lisoniy xususiyatlari	**159**
TILLABAYEVA Zilola	Kattaqo‘rg‘on tumani o‘zbek shevalariga xos xususiyatlar (Samarqand viloyati materiallari asosida)	**165**
SAIDOVA Sayyora	Sharqiy Surxondaryo dialektal leksikasiga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari semantikasi	**168**
MAMATISMOILOVA Xanifa	Namangan viloyati qipchoq shevalari leksikasidagi sinonimlar	**171**
NASIROVA Kamola	Sheva leksikasining leksik-semantik guruhlarining alla matnlarida aks etish darajasi	**177**
DARVISHALIYEVA Mahliyo	Janubi-G‘Arbiy Namangan viloyati arealidagi qarluq lahjasi va aralash shevalar (Mingbuloq tumani sheva areali misolida)	**182**
JO‘RAYEVA Mehriniso	Badiiy matnda dialektal leksikaning qo‘llanilishi (Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asari misolida)	**190**

III SHO‘BA. O‘ZBEK ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIGI: TALQIN VA TAHLIL

МАМАТОВ Абди	Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради?	**194**
HAKIMOV Muhammadxon, ISMOILOVA Dilrabo, KOMILOVA Dilnoza	Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos	**198**

PARDAYEV Azamat, MAHMADIYEV Shavkatjon	Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida	**204**
BEGMATOVA Ra’no	Madaniyatlararo muloqotda kooperatsiyani ta’minlashda suhbatdoshning mavqeyini ko‘tarish taktikasi	**210**
KARIMOVA Feruzaxon	Muloqotdagi nutqiy «o‘yinlar» haqida	**210**
AMONTURDIYEVA Shoira	O‘zbek lingvomadaniyatida diniy nutqning o‘rni	**219**
BOZOROV Hamid	O‘zbek xalq ertaklarida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning mental xususiyatlari	**222**
JO‘RAYEV Nabi	Badiiy matn va uning lingvokulturologik tahlili	**226**
ERGASHEVA Dilrabo	Badiiy matnning psixolingvistik talqini	**231**
XOLNAZAROV Umid	Tog‘ay Murod badiiy nutqida «inson→borliq» munosabatining semantik tasnifi	**237**
ODILOVA Dilobar	“Devonu lug‘otit-turk” asarida tabiat hodisalari va unsurlari asosidagi o‘xshatishlarning kognitiv-semantik tahlili	**242**
SHAYMARDANOVA Aziza	Lakunarlik va realiya	**246**
KADIROVA Zaynura, HAYITOVA Aziza	Maxtumqulining she’riyatida qo‘llanilgan pretsedent birliklar tahlili	**250**
ABRUYEVA Zaxro	Erkaklarga nisbatan qo‘llanuvchi murojaat shakllarining kognitiv xususiyatlari	**253**
TURDIQULOV Sherzod OMONDAVLATOVA Latofat	Onlayn kommunikatsiya jarayonining o‘zbek tili me’yorlariga ta’siri. o‘zbek tilida eng so‘ngi neologizmlar va faol so‘zlar tahlili	**257**
NURDINBAYEVA Nargizaxon	O‘zbek lingvomadaniyatida “farzand” konseptining leksik xususiyatlari	**260**
KURBONMURATOV Abror	Ekstremistik matnda muallif belgilari	**265**
ISMOILOVA D.M.	Lingvogenderologiya va ijtimoiylashuv	**270**

PULATOVA Umriniso	Til ta’limi va pragmalingvistika	**274**
ORIPOVA Kamolaxon	Antonimlar ishtirokidagi paremiyalarning lingvokulturologik xususiyatlari	**279**
NURMATOVA Sadbarxon	Antropotsentrik tilshunoslik va uning tadqiqi	**283**
RAXIMOVA Feruzaxon	Nutqiy aktning strukturaviy tuzilishi	**288**
SALIMOVA Dildora	Kattalar va bolalar tomonidan ona tilida til o‘zlashtirishning psixolingvistik tadqiqi	**291**
YORMATOVA Gavharoy	Tilshunoslikda tolerantlik konseptining diskurs tahlili	**296**
RAXMONOVA Marjona	Badiiy matnlarda ichki nutqning qahramon muloqotidagi o‘rni	**300**
TOSHPO‘LATOVA Mahbuba	Matnda ayol shaxsining pragmatik belgilari	**306**

IV SHO‘BA. O‘ZBEK LUG‘ATSHUNOSLIGINING ISTIQBOLDAGI MUAMMOLARI

XUDOYBERGANOVA Durdona	Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida	**310**
AMONTURDIYEV Nurali	Etnografik izohli lug`at uchun leksikografik birlik tanlash muammosi	**315**
RASULOVA Nilufar	Perspektif olarak özbek sözlüğünün sorunları	**320**
O‘RAZOVA Iqbol	Frazemalar diaxron lug‘atini tuzishning ahamiyati	**324**
IBROXIMOVA Mohinurxon	O‘zbek lug‘atshunosligi: globalizatsiya sharoitidagi muammolar va yangi imkoniyatlar	**328**
TEMIROVA Kamola	«Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati» da gastronomik leksikaning ifodalanishi	**331**
ARALOVA Lobar	O‘zbek tilshunosligida «Devonu lug‘otit turk» asarining o‘rganilishi	**338**

V SHO‘BA. ONOMASTIKA VA ONOMASIOLOGIYA MASALALARI

KILICHEV Bayramali, SHAROPOVA Farangiz	Quyi Zarafshonning mushtarak toponimlari	**342**
YOQUBOV Sharif	Darband va Oqqo‘tal toponimlari tahlili	**346**
IBRAGIMOVA Zamira	Xo‘jayli tumani etnotoponimlarining lingvistik tahlillari	**351**
KULTAYEVA Fazilat	Ergonimlarni o‘rganish tamoyillari xususida	**355**
KENJAYEV Zohirjon	Boysun tumani oronimlarida etnooronimlarning ma’noviy xususiyatlari	**359**
BAYMATOVA Barchinoy	Qarshi shahri yemakxona nomlarining semantik xususiyatlari	**363**
ABDUVALIYEVA Kamola	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi etnonimlarning hozirgi o‘zbek etnotoponimlariga munosabati	**367**
MIRZAYEVA Moxichexra	Denov tumanidagi ayrim etnotoponimlar	**372**
MUHSINJONOVA Shirinoy	“Devonu lug‘otit-turk” asarida poliz ekinlari nomlari	**376**
DAVRONOVA Zarnigor	Cho‘lpon she’riyatidagi antroponimlarning kognitiv-semantik tahlili	**379**
NABIYEVA Rushana	O‘zbek tili oziq-ovqat mahsulotlari nomlarida jins-tur munosabati	**384**
URAZIMBETOVA Nilufar	Nukus tumanidagi toponimlar va oykonimlar tasnifi	**387**
KAMOLOV Azizbek	Janubiy qoraqalpog‘iston gidronimlarining hosil bo‘lishidagi o‘ziga xosliklar va ularda transpozitsiya	**390**

VI SHO‘BA. QIYOSIY-CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

ELTAZAROV Jo‘liboy	Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasına göre yorumlanması üzerine	**396**

VALAPPIL Sajid, ABDURAKHMONOVA Nilufar	Code switching (cs) – social, ekonomic, and demografic factors drive the emergence of‘uzbglish’ (mixture of uzbek and english)	**406**
РАСУЛОВА Нилуфар	Мамнӯъиятҳо ва эфемизмҳо ва истифодаи онҳо дар лаҳҷаҳо	**415**
KAZIMBETOVA Ziyuar	Pedagogika tarawinda refleksiv konlikpelerdi payda etiw barisi	**419**
RO‘ZIYEV Elbek	Ba’zi turkiy siyosiy matnlarning sintaktik xususiyatlari	**423**
САЙФУЛЛАЕВ Бауыржан	Тілдер контактының әлеуметтік қажеттілігі және пәнде үйренілуі (өзбек және қазақ тілдері мысалында)	**427**
SHINNAZAROVA Saodat	Qaraqalpaq tilinde «awíz» komponentli somatikalíq frazeologizmlerdiń semantikalíq bildiriliwi	**433**
FURKATOVA Maxliyo	Fe’llardagi bo‘lishli va bo‘lishsizlik kategoriyasi funksional-semantik xususiyatlarining qiyosiy tadqiqi	**436**
XALMURATOVA Dilbar	Dialektke tán somatikaliq birliklerdiń kórkem shiǵarmalarda qollaniliwi	**439**
ZOKIROVA Hulkar	Terminlarlarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima usullari	**443**
	VII SHO‘BA. KORPUS LINGVISTIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT	
ABJALOVA Manzura	Alisher Navoiy mualliflik korpusida arxaik so‘zlarning semantik tavsifi masalasi	**447**
XOLOVA Muyassar	Dialektal areal bazaning ichki texnologik tuzilmasi	**454**
LATIPOVA Gulasal	Tarjima lug‘atlar uchun korpus o‘rganish obyekti sifatida	**463**
BABAJANOVA Lobar	Turkiy tillar uchun yaratilgan tezauruslar tavsifi	**467**
ALIMBEKOVA Mavjuda	Abdurauf Fitrat asarlari korpusini teglash xususida	**470**

XOLDOROVA Shohista	Internet muloqotida emoji tili	**473**
OMONDAVLATOVA Latofat	Zamonaviy tilshunoslikda o‘zbek tili leksikasidagi ismlarni raqamlashning lingvokulturologik-tarixiy jihatlari	**479**
AKRAMOVA Shohista	Nusratullo jumaxo‘ja mualliflik korpusini yaratishning xronologik-lingvistik asoslari	**483**
QODIROVA Mukaddas	Biznes diskursining lingvistik tahlili	**486**
XUDOYBERDIYEVA Oyjamol	Tilshunoslikda terminologiya va determinologiya masalasi	**489**
QODIROVA Munisa	Tilshunoslikda san’atga oid terminologiyaning milliy-madaniy komponentini o‘rganish	**492**
QODIROVA Zebo	Tabiiy tillar jarayoni uchun ontologiyaga oid instrumentariylar tavsifi	**496**
QOBILOV Mirziyo	Teonimik antroponimlar tadqiqi	**501**
TO‘RALIYEV Baxodir	Savdogar nutqi leksikasining derevatsion qoliplari	**505**

Termiz davlat universiteti
Termiz davlat universitetining 70 yilligiga bag‘ishlangan
«Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligi: muammolar, tahlil va natijalar»
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

2024-yil, 10-sentyabr